MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



N.A.SHERMUXAMEDOVA

FALSAFAGA KIRISH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

N.A.SHERMUXAMEDOVA

FALSAFAGA KIRISH

60220500- "Falsafa" (sohalar bo'yicha) bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

DARSLIK

Toshkent
"Fidokor Yosh Avlod"
2024

UO'K 323 (575.1)
KBK 87.3 (5O')
Sh 44

Falsafaga kirish: darslik /N.A.Shermuxamedova. - Surxondaryo: Fidokor Yosh Avlod, 2023-yil 572-b.

Darslik oliy ta'lim tizimi Falsafa bakalavriyat ta'lim yo'nalishi o'quv adabiyotlari turkumiga kiradi hamda davlat ta'lim standartlari va namunaviy o'quv dasturi mazmuniga mos. Darslikda inson dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy muhit, tarixiy sharoitning ta'siri, arxaik ong darajasidagi dunyoqarash, dunyoqarashning shakllari va ularning bir-biridan farqi, falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati, tarix falsafasi, aksiologiya, praksiologiya, ijtimoiy prognoz hamda globallashuvning falsafiy jihatlari yangilangan tafakkur nuqtai nazaridan keng yoritib berilgan. Bugungi kunda insonning o'zi va dunyoni tushunishida, ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik jarayonlarga moslashish, og'ishmay maqsadli faoliyat yuritishda falsafiy tafakkurning roli muhim ahamiyatga ega. Darslik barcha oliy ta'lim muassasalarida Falsafa bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari va falsafa muammolari bilan shug'ullanuvchi stajor tadqiqotchi-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, professor o'qituvchilarga mo'ljallangan.

UO'K 323 (575.1)
KBK 87.3 (5O')
Sh 44

Mas'ul muharrir:
Yaxshilikov J.- f.f.d. professor

Taqrizchilar:
Qurbonova L.A. - falsafa fanlari doktori
Nishonova O. - falsafa fanlari doktori, professor

ISBN: 978-9943-4199-5-7
©"Fidokor Yosh Avlod" nashriyoti, Toshkent 2023 y.

KIRISH

Falsafa – bilim va ma'naviy madaniyatning qadimiy, ayni paytda, muhum sohalaridan biri. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Misr, Hindiston, Xitoy va Yunonistonda vujudga kelgan falsafa keyingi asrlarda inson dunyoqarashining barqaror shakli sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Falsafaning predmetini insonning dunyodagi o'rni va roli, uning dunyo bilan o'zaro munosabatlari muammolari tashkil etadi. Falsafa dunyo va inson borlig'ining mohiyati to'g'risidagi bilimlarning umumiy tizimini yaratish orqali inson dunyoqarashining nazariy asosi sifatida rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan inson tafakkurining o'zgaruvchanligi, uning dunyoni bilish imkoniyatlari cheksizligi sabablarini aniqlashga doir savollariga javob izlash barcha faylasuflarning maqsadiga aylandi.

Shu tufayli ham falsafa barcha zamonlarda insonga turli hayotiy vaziyatlarda mo'ljal olishga, unga turmushda o'z taqdirini o'zi belgilashga ko'maklashgan. Inson tinimsiz o'zgarayotgan dunyoda to'g'ri mo'ljal olishi uchun, global muammolar tobora keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda, insoniyatning yashab qolishini ta'minlashning o'ta murakkab vazifalarini yechishga oqilona yondashish malakalarini shakllantirish uchun falsafiy tafakkurni shakllantirish zarur

Bugungi kunda har bir inson hayotga, o'zini qurshagan muhit va voqelikka oqilona munosabatni shakllantirishi davr talabidir. Dunyoga, hayotga oqilona munosabatning paydo bo'lishi insondan falsafiy madaniyatni o'zlashtirishni taqozo etadi. Oqilona fikrlash ko'nikmalari va falsafiy madaniyat shakllanishi uchun inson ko'p kitob o'qishi, o'zining intellektual imkoniyatlarini namoyon qilishi lozim, zero falsafa inson borlig'ining teran qatlamlariga nazar tashlaydi, dunyoning mazmun va mohiyatini anglab yetishga yo'l ochadi, sog'lom aql bilan tushunib bo'lmaydigan voqea va hodisalar haqida mulohaza yuritishga majbur etadi.

Falsafani kundalik hayot voqeligidan uzoq bo'lgan mavhum bilim sifatida tushunish to'g'ri emas. Falsafaning eng muhim muammolari aynan hayot bilan bog'liq. falsafaning ko'p sonli tushunchalari va kategoriyalari, fikrlash usullari, hayot voqeliklarinining o'zaro aloqalari bilan birga to'liq. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, voqelikni anglab yetishga harakat qiluvchi falsafada mazkur jarayon [illegible]

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 34337

o'z tomiari yashab bo'lgan narsalarga tanqidiy ko'z bilan qarashni, shu bilan bir vaqtda, uni inson manfaatlarida yanada rivojlantirish imkoniyatlari, vosita va yo'llarini real hayotning o'zida, uning qarama-qarshiliklarida qidirishni nazarda tutadi. Voqelikni o'zgartirish jarayonlari va amaliyot falsafiy muammolarni yechishga turtki beradi, inson tafakkurining asl mohiyati va qudratini namoyon etadi.

«Falsafaga kirish» fanining mohiyatini o'rganish jarayonida uning shakllanish tarixi va muammolari, vosita va metodlari, tushunchalari va kategoriyalari haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lish mumkin. Falsafiy muammolar, yo'nalish va oqimlar haqidagi hamda rang-barangligini bir darslik doirasida to'liq yoritish mumkin emas, ammo muhim muammolari to'g'risida umumiy bilimlarga ega bo'lish va shaxsiy pozitsiyaga ega bo'lish mumkin.

Bu darslikda falsafani o'rganayotgan har bir inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlarning muayyan yig'indisi bayon etiladi. Ammo bu ishning bir tomonigina, xolos: muhimi shundaki, falsafani o'rganish oqilona fikrlash madaniyatini, ya'ni tushunchalar bilan erkin ish ko'rish, u yoki bu mulohazalarni ilgari surish, asoslash va tanqid qilish, masalaning muhim jihatlarini uning ikkinchi darajali jihatlaridan ajratish, rang-barang hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ochib berish, atrof-borliqdagi ziddiyatlarni aniqlash va tahlil qilish, uning o'zgarish va rivojlanish jarayonlarini ko'rish ko'nikmalarini tarbiyalash imkonini beruvchi o'ziga xos bir maktabdir. Falsafa yordamida shakllantiriladigan oqilona tafakkur - o'zining haqligini himoya qila oladigan asosli, izchil, izchil tafakkur, ayni paytda ochiq, erkin va ijodiy tafakkur.

Taklif qilinayotgan darslik falsafa asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi. U falsafani o'rganishga kirishgan insonlarga mazkur fan predmeti va tarixi, uning asosiy muammolari, falsafa tili, metodlari, kategoriyalari va funksiyalari haqida dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

I-modul. FALSAFA DUNYONI ANGLASH USULI

QADIMGI SIVILIZATSIYADA GERMETIK FALSAFANING PAYDO BO'LISHI

Falsafiy bilimning eng qadimgi nazariy jihatlari

Bizga ma'lumki olam haqidagi axborotlar egallanishi, ularga to'g'ri baho berilishi va axborot qayta ishlanishi natijasida bilimga aylanadi. bilim to'planib qatlam hosil bo'ladi, pirovardida bilim dunyoni anglashning muhim vositasi sifatida amal qiladi. Demak, biz dastlabki bilim shakllanishi bilan bog'liq jarayonlarni va olimlarning qadimgi manbalarni o'rganishi asosida egallagan bilimlarining talqinini o'rganishga barakat qilamiz.

Falsafa tarixchilarining aksariyati falsafiy tafakkur aynan antik falsafa zamonida vujudga kelgan deb hisoblaydi. Ba'zi manbalarda Sharq falsafasi - qadimgi Hindiston va qadimgi Xitoy falsafasiga alohida e'tibor qaratiladi. Biroq falsafiy bilimning dastlabki ildizlari qadimgi Misr sivilizatsiyasi bilan bog'liq. Zero, qadimgi Misr falsafiy tafakkurining ulug' yoshi miloddan avvalgi 6-ming yillikdan boshlanadi. Bizgacha yetib kelgan manbalarga ko'ra, mazkur falsafa ixtiyorida mavjud bo'lgan ma'lumotlar tarixiy-falsafiy jarayonni davriylashtirishga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi. Birinchi yashirin donishmandlik sifatidagi falsafa o'z sinkretizmining teran qatlamlari bilan e'tiborga molik. Ayni paytda u o'zining konseptual imkoniyatlari va axloqiy mo'ljallari bilan hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. Mazkur falsafa doirasida har qanday yomon qilmish qoralanadi, birovga yomonlik qilishni xayolga keltirish ham gunoh hisoblanadi.

Injil va Kabbala germetik falsafaning nazariy jihatini tashkil etadi. Germes Trismegest dastlab qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Germes Aristotelning ustozi bo'lgan va shu davrgacha donishmandlik Xudosi sifatida tan olingan. Germes insoniyat uchun kashf qilgan san'at va fan mahsulotlari. tibbiyot, kimyo, huquq, astrologiya, musiqa, (Germes lirani yaratgan), ritorika, magiya, falsafa, geografiya, matematika (geometriya), anatomiya va aniqlik san'ati kabilardir.

Eng qadimgi yashirin bilim - germetik falsafa qadimgi Misr sivilizatsiyasidir. Miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarda qadimgi Misr

sivilizatsiyasi dunyoni o'zlashtirishning o'ta qiziqarli g'ayriodday bo'lgan konsepsiyasi bilan ajralib turadi. Misr qadimgi Kem mamlakatining arabcha nomi bo'lib, «sir, jumboq» degan ma'noni anglatadi. Qadimgi yunon sivilizatsiyasi kabi, uni ham «insoniyat bolaligi» deb nomlash mumkin. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining kuch-qudrati unda insoniyat madaniy taraqqiyotida vorisiylikning ko'lami va mantiqi to'g'risidagi masalaning kun tartibiga qo'yilishida o'z ifodasini topadi. Zotan, yunonlar qadimgi Misr va Sharqdan olib ketilgan bilimlar yordamida yaratgan «qadimgi yunon mo'jizasi» (yunon sivilizatsiyasi qadimda shunday nomlangan) deb atalmish bilimlarning manba va mualliflarini oshkor etmaganlar. Ellinlarning matematik izlanishlaridan ancha (taxminan 2-3 ming yil) oldin mavjud bo'lgan teorema mashhur Pifagor teoremasi ham qadimgi Misr donishmandlarining geometrik konstruksiyasi ekanligi ma'lum.

Qadimgi Misr madaniyatining bizgacha yetib kelgan yodgorliklari «Marhumlar kitobi», «Piramidalar matnlari», «Sarkofaglar matnlari», «Sigir kitobi», «Bedorlik soatlari kitobi», «Narigi dunyodagi narsalar haqidagi kitob», «Nafas kitobi», «Admut»ga, shuningdek, antik davr mualliflari: Misrga miloddan avvalgi VII–V asrlarda barcha irq va xalqlar falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan xufyona, okkult ta'limotlarning barchasi qadimgi Misrdan tarqalgan, Hindiston, Eron, Xaldun, Xitoy, Yaponiya, hatto qadimgi Yunoniston va Rim olimlari o'z bilimlarini aynan yashirin ta'limotdan o'zlashtirganlar. Zotan, qadimgi Misr sivilizatsiyasida deyarli bir vaqtda vujudga kelgan inson bilimining rang-barang sohalari – tibbiyot, kimyo, astrologiya, musiqa, akustika, ritorika, magiya, falsafa, matematika, geometriya, anatomiya, geografiya va notiqlik san'ati hozirda ma'lum va mavjud tizimlar orasida eng qadimiydir.

Miloddan avvalgi IV-ming yillikda qadimgi Misr xo'jaligining negizini sug'oriladigan dehqonchilik va chorvachilik tashkil qilgan. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari, shu jumladan, har yili aniq bir vaqtda yuz bergan Nil daryosi suvining toshishi qadimgi misrliklarning dunyoga munosabatida maromlilik va davriylik kabi omillar asta-sekin birinchi o'ringa chiqishiga sabab bo'lgan. Nil daryosidagi toshqinlar «yerning hosildorligini oshirgan va odamlar hayotini belgilagan».

Mamlakat hayot faoliyati maromining barqarorligi ayni shu toshqinlarga bog'liq bo'lgan.

Dehqonchilikning rivojlanishi yer o'lchash haqidagi bilim sifatida geometriyaning rivojlanishiga olib kelgan. Yer maydonlari tarixini o'zida ifodalovchi ilk geografik xaritalar ham paydo bo'lgan. Yelkanning ixtiro shamol energiyasidan foydalanish yo'lida tashlangan birinchi qadam bo'lgan. *Misr matematiklari aylana uzunligining diametrga nisbati shakli («pi» hisobini aniqlaganlar, kasrlar bilan hisoblash amallarini bajarganlar, ikki noma'lumli tenglamalarni yechishni amalga oshirganlar.* Qadimgi Misr sivilizatsiyasida boshqaruv shakli sifatida fir'avn despotiyasi hukm surgan. Fir'avnlarni dafn etish amaliyoti yaratilgan. Quyosh «o'g'li» bo'lgan fir'avn bu dunyoni o'zidan iz qoldirmasdan tark etishi mumkin bo'lmagan. Shu sababli fir'avnlarning maqbaralari – ulkan piramidalar qurilgan, dafn etish marosimi esa ramziy ahamiyatga ega bo'lgan ko'p sonli va keng ko'lamli rasm-rusumlarni o'z ichiga olgan. Qadimgi Misrdan keyingi avlodlarga ulkan harsangtoshlardan qurilgan *saksonta piramida* meros qolgan. Qadimgi Misrning misli ko'rilmagan darajaga ko'tarilgan qurilish san'ati (loydan, shuningdek, xom g'ishtdan qurilgan imoratlar) mis metallurgiyasining rivojlanishiga, yog'och va toshga ishlov berish ishlari, kulollik san'atining takomillashuviga olib kelgan. Ingliz fiziki va fan sotsiologi J.Bernal (1901–1971) qayd etganidek, "bizning stul va stollarimiz ularni misrlik ilk ustalar yaratganidan beri o'zgargani yo'q. Novdalardan to'qilgan o'rindiqli va bukilgan oyoqli kreslolar 4500 yil oldin ma'lum bo'lgan. Papirusga ishlov berish, ko'nchilik va zig'ir tolasidan mato to'qish alohida o'rinda turgan".

Misr tabiblari inson anatomiyasi haqidagi bilimlari bilan ajralib turganlar, ko'pgina kasalliklarning kechish jarayonini aniq tavsiflaganlar. Ular qon aylanishi haqida ham tasavvurga ega bo'lganlar. Qadimgi Misr kimyogarlari yaratgan qotishma va bo'yoqlardan aholi o'z amaliy faoliyatida keng foydalangan. Qadimgi Misr mifologiyasida tavsifi keltirilgan tarozi xo'jalik amaliyotining ulkan yutug'iga aylangan. Taqvim va astronomiya elementlarining ixtiro qilinishi ham insoniyatning keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining yuqorida zikr etilgan va shuningdek boshqa yutuqlari

madaniy rivojlanish jarayonidagi alohida bosqichdir.

Qadimgi Misr mifologiyasi yuksak sivilizatsiya negizida rivojlanishi jarayonida yozuv ixtiro qilingan, biroq hozirda qadimgi Misr ieroglifiarini o'qish juda qiyin. Yevropa muzeylarida saqlanayotgan papirus o'ramlaridan ayrimlaridagi matnlarning mazmuni hanuzgacha jumboq bo'lib qolmoqda. Ularda gap magik amallar, magik matnlar, duo va afsunlar haqida borishini taxmin qilish mumkin, ammo ularning yordamida nimaga erishish mo'ljallangani ma'lum emas. Mazmuni, ayniqsa, tushunarli bo'lgan papiruslar orasida «Garrisning magik papirusi» bor. Uning mazmuni, asosan, tiriklarni yomon ko'zlardan asrashga xizmat qiluvchi duo va afsunlardan iborat[1].

Misr magiyasini o'rganish bilan bog'liq qiyinchiliklar kohinlar tomonidan saqlanadigan sirli bilimdir, kohinlar yashirin bilimlarning xalq orasida tarqalib ketmasligini qattiq nazorat qilganlar. Buni «Marhumlar kitobi»dan olingan parchalar ham tasdiqlaydi: ularda tavsifi keltirilgan marosimlarni guvohlar ko'z o'ngida o'tkazish qat'iyan taqiqlangan, bu marosimlarda marhumning otasi va o'g'li ham ishtirok etishi mumkin bo'lmagan. Magik bilimlar ifodalangan muqaddas kitoblarni qo'lga kiritishga, binobarin, ulardan muayyan maqsadlarda foydalanishga qaratilgan har qanday harakat qattiq jazolangan. Germetizmni yashirin bilim sifatida tushunish hozirgi zamon tilida ham saqlanib qolgan. Germetizmda Koinot va inson haqidagi yashirin bilimlarni ushbu sohadan bexabar odamlardan sir saqlash, biroq ularni shogirdlar bilan baham ko'rish tamoyiliga rioya etilgan. Qadimgi Misr mifologiyasida Xudo muayyan hayvon shakl-shamoyilida gavdalantirilgan va hayvonlar ilohiylashtirilgan, bu zoomorfizm deb nomlangan. Xudo Tot ibis (issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o'xshash uzun oyoq qush) obrazi bilan bog'langan, boshi va tumshug'i qushnikiga o'xshash odam qiyofasida tasvirlangan. Demak, *qadimgi Misrda zoomorfizm rivojlangan, qadimgi yunon mifologiyasida xudoning zoomorf alomatlari antropomorf belgilar bilan birikkan.*

Qadimgi Misrning borliq suvli xaosdan paydo bo'lgani haqida hikoya qiluvchi kosmogonik miflarida ham zoomorfizmga duch kelish

[1] M. Stavish. Introduction to hermetism. Its theory and Practice. Institute for Hermetic Studies P.O. Box 513. Wyoming. PA. 9005

mumkin. Osmon butun tanasi yulduzlar bilan qoplangan sigir sifatida tasavvur qilingan. Ba'zan u yoy kabi egilib, qo'l va oyoqlari bilan yerni tutib turgan iloha – Nut obrazi bilan ayniylashtirilgan. *Butun Misrda mashhur enneada– xudolar to'qqizligi mavjud bo'lgan. Quyosh xudosi – Ra va xaosdan bino bo'lgan Nun bilan ayniylashtirilgan xudo Atum o'z urug'ini yutib, o'zini o'zi urug'lantirgan, so'ng tupurib, dastlabki xudolar – Shu (havo xudosi) va Tefnut (namlik ilohasi)dan iborat juftni yaratgan.* Ulardan ikkinchi juftlik – yer xudosi Geb va osmon ilohasi Nut tug'ilgan. Ulardan Isida va Neftida, Osiris va Set dunyoga kelgan.

Qadimgi Misr mifologiyasi monistik yoki plyuralistik xususiyatga ega, chunki misrliklar oliy Mavjudot - Yaratuvchi Xudo bilan bir qatorda xudolar yoki ilohalarning tilga olinishida biron-bir ziddiyat ko'rmaganlar. Masalan, Misrda oliy Mavjudot-Yaratuvchi sifatida Quyosh xudosi Ra amal qilgan, unga misrliklar ilk tarixiy davrdayoq sig'inganlar. Bunda *botayotgan Quyosh – Atmu, chiqayotgan Quyosh – Xepera, choshgohdagi Quyosh esa – Ra deb atalgan.* Bular Quyosh xudosining uch siymosi hisoblangan.

Ammo deyarli har bir qishloq yoki shahar aholisining ham o'zi yoqtirgan xudolari mavjud bo'lgan. Ba'zan odamlar ulardan yuz o'girganlar va natijada ikkinchi darajali xudolar oliy xudolarga aylanishlari mumkin bo'lgan. Goho bir xudo atributlari boshqa xudoning atributlari bilan qorishib ketgan. Mahalliy xudolar panteoni o'ta o'zgaruvchan bo'lgan. Mahalliy, oilaviy, milliy xudolardan tashqari unga tabiiy stixiyalar – daryolar, tog'lar, yer va osmon xudolari kirgan. Tadqiqotchilar xudolarning mazkur rang-barangligini tushuntirishga harakat qilar ekanlar, qadimgi Misrda bir nechta yirik teologik markazlar mavjud bo'lgani va ularning kohinlari aynan o'z xudolarini madh etish va ularning ustunligi g'oyasini ilgari surish bilan shug'ullanganlar, deya taxmin qiladilar[1].

Qadimgi Misrda, xudo Totni xudolar mirzasi va «Ustalar Ustasi» deb ataganlar, u tabiiy xususiyatlarni emas, balki ma'naviy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, shu bois u mashhur to'qqizlik – enneadaga kirmagan. Qadimgi Misr mifologiyasida Tot Xudosi narigi dunyodagi savol-javob jarayonini boshqargan. Xususan, «Marhumlar kitobi»ning

[1] Балк Г.А.У. Египетская религия. Египетская магия. – М.: 1996. – С. 24.

125-bobida hamma ishning narigi dunyoda javobi borligiga bo'lgan ishonch, insonning tiriklik paytidagi faoliyati va qilmishlari uchun kuchli motiv sifatida amal qiladigan «Rad etuvchi istig'for» bayon etilgan. Qadimgi manbalarda misrliklar vafot etgandan keyin narigi dunyoda savol-javob bo'lishini kutganlar. Bunda ularning mayiti mo'miyolashtirilgan va daxmaga joylashtirilgan. Narigi dunyodagi so'roqni Osiris amalga oshirgan. Bunda, eng avvalo, *psixostasiya - marhumning yuragini tarozida o'lchash amalga oshirilgan.* Tarozining bir pallasiga *marhumning* yuragi, ikkinchisiga esa haqiqat va adolat ramzi sifatida Maatning (Totning xotini) haykalchasi qo'yilgan. Agar tarozining ikki pallasi teng kelsa, marhum oqlangan. Donishmandlik xudosi Tot tarozida o'lchash natijasini qayd etgan. Marhumni oqlash «Marhumlar kitobi»ning 125-bobida bayon etilgan «Rad etuvchi istig'for» vositasida amalga oshirilgan. Bu yerda marhum sodir etmagan gunohlar ro'yxati keltirilgan. Qadimgi Misrning o'ziga xos axloq kodeksi sanalgan «Rad etuvchi istig'for» marhum o'z yuragi tarozida o'lchanishi va hukm chiqarilishidan oldin talaffuz qilishi lozim bo'lgan 42 qoidani o'z ichiga oladi. Bu qoidalarning aksariyati hozirgi zamon uchun ham ibratli.

1. Men adolatsizlik qilmadim.
2. Men bosqinchilik qilmadim.
3. Men biron-bir kishiga zo'rlik qilmadim.
4. Men o'g'irlik qilmadim.
5. Men biron-bir erkak yoki ayolni o'ldirmadim.
6. Men buyumga o't qo'ymadim.
7. Men xoinlik qilmadim.
8. Men Xudoning haqiga xiyonat qilmadim.
9. Men yolg'on gapirmadim.
10. Men birovning molini kuch bilan tortib olmadim.
11. Men yomon so'z gapirmadim.
12. Men birovning og'zidan ovqatini tortib olmadim.
13. Men birovni aldamadim.
14. Men o'z yuragimni yemadim (ya'ni, darg'azab bo'lmadim).
15. Men birovning yerini bosib olmadim.
16. Men Xudoga atalgan hayvonlarni o'ldirmadim.
17. Men hosildor yerlarni sahroga aylantirmadim.
18. Men har qanday yomon ishdan o'zimni tiydim.

19. Men birovga qarshi og'iz ochmadim.
20. Men o'z qahrimga sababsiz erk bermadim.
21. Men zino va bachchabozlik qilmadim.
22. Men o'zimni tahqirlamadim.
23. Men birovning xotiniga ko'z olaytirmadim.
24. Men birovning yuragiga vahima solmadim.
25. Men o'z g'azabimni birovga to'kib sochmadim.
26. Men haqsizlik va adolatsizlik qarshisida o'zimni ko'r va soqovga solmadim.
27. Men birovning ko'z yoshi sababchisi bo'lmadim.
28. Men Xudoga shak keltiradigan so'zlarni gapirmadim.
29. Men birovga zo'rlik ishlatmadim.
30. Men oqibatini o'ylamasdan bir ish qilmadim.
31. Men o'z terimni teshmadim va Xudoning g'azabiga uchramadim.
32. Men birovga ortiqcha gap gapirmadim.
33. Men yomonlikka ergashmadim.
34. Men hech qachon fir'avn sha'niga la'nat o'qimadim.
35. Men oqar suvni iflos qilmadim.
36. Men birovga qattiq gapirmadim.
37. Men Xudoga shak keltirmadim.
38. Men surbetlik qilmadim.
39. Men odamlarni boyligi yoki amaliga qarab ajratmadim.
40. Men o'z boyligimni birovning mol-mulki hisobiga oshirmadim.
41. Men Xudoga tegishli bo'lgan va o'zim bilan birga turgan narsaga la'nat o'qimadim.
42. Men shahar Xudosi haqida yomon o'ylamadim[1].

Shu savollar berilgandan so'ng, tarozida yuragi yengil tortgan marhumning boshi kundaga qo'yilgan va uni gippopotam tishlab tanasidan judo qilgan. Yomon ruhlar «ikki marta o'lganlar» deb atalgan. Demak, haqiqiy iblislar misrliklarga ma'lum bo'lmagan. Ular xudo Set va uning yo'ldoshlari kabi yovuz kuchlarga, shuningdek, hali yerda daydib yurgan «ikki marta o'lganlar»ga qarshi kurashganlar[2].

Darbadar ruh o'z yo'lida turli insu jinslarga duch kelishi mumkin

[1] Балж'О.А.У. Египетская религия. Египетская магия. – М.: 1996. – С.111–114.
[2] Иллюстрированная история суеверий и волшебства от древности и до наших дней. – Киев: 1993. – С.106.

bo'lgan. Ulardan qutulish uchun maxsus duo va afsunlarni bilish talab etilgan. Dafn marosimining batafsil tavsifi keltirilgan «Marhumlar kitobi» tiriklarga ham foydali bo'lgan. Chunonchi, kitobning «Totga sig'inish» deb nomlangan o'n sakkizinchi bobi odam vafotidan keyin uning ruhi yana yorug'lik ko'rishiga ko'maklashgan. Tirikligida ushbu bob ro'yxatini yonida olib yurgan odam hech qachon kasal bo'lmagan, o't balosi va boshqa xavf-xatarlar uni chetlab o'tgan.

Qadimgi misrliklarning xudolarga murojaat etish usuli ham diqqatga sazovor. Bu usul keyinchalik teurgiya, ya'ni xudolarga buyruq berish yoki ularga tahdid qilish sifatida tavsiflangan. Bunday afsunlar vositasida xudolarga iltijo qilmaganlar, balki ularga amr etganlar, ulardan yordam talab qilganlar. Ba'zan xudolarni yordamga chaqirmaganlar, balki xavf-xatarga nari ketishni buyurganlar, shu tariqa o'zlarini xudo o'rniga qo'yganlar. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining ko'p sonli yutuqlari hozirgi davrda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Misrning mashhur shahri – Aleksandriya miloddan avvalgi III-asrdan boshlab antik davrning butun dunyoda tan olingan madaniy markaziga aylangan. Aleksandriyaning vayron qilinishi, ayniqsa, Aleksandriya kutubxonasiga o't qo'yilishi butun insoniyat uchun ulkan yo'qotish bo'lgan. Keyinchalik, miloddan avvalgi VI-IV-asrlarda paydo bo'lgan, «yunon mo'jizasi» degan nom olgan hodisaga qadimgi Misr sivilizatsiyasi yutuqlari zamin yaratgan.

Qadimgi Misr sivilizatsiyasidan bizga meros qolgan intellektual xulosalarga ham ishonch bildirish o'rinli bo'ladi. Ana shunday xulosalardan biriga ko'ra, barcha ishlar, san'atlar, inson qo'li bilan yaratilgan narsalar tafakkur va oxir-oqibat ilohiy aql amri bilan bino bo'lgan. Hozirgi zamon tilida bu quyidagicha talqin qilinadi: «Muayyan maqsadni ko'zlovchi g'oya, reja, mo'ljal, ideallik sohasi bevosita mehnat jarayoniga zamin yaratadi». Bu fikrga qo'shilmaslik qiyin, qo'shilgach, aynan fikr va aqldan chiqadigan energiya germetik falsafaning birinchi asosi hisoblanishini tan olmay ilojimiz yo'q.

Germes Xudosiga qadimgi Misr, Ellin va Rimdagi munosabat

Germetizm falsafasining bosh sub'yektlaridan biri Xudo Germesdir. Misr zaminida vujudga kelgan eng qadimgi ma'lumotga ko'ra "Hermes trismegistos", ya'ni uch karra buyuk Germes qadimgi misrliklarning

yozuv, hisob va donishmandlik xudosi Totdir. Tot (Jexuti) boshi *ibis qushnikiga o'xshash odam qiyofasi*da tasvirlangan. Biroq Totning tashqi ko'rinishi xususida oldinroq yaratilgan ma'lumot ham mavjud. Uollis Badj bergan ma'lumotga ko'ra, sulolalar davrida xudo Tot boshi itnikiga o'xshash pavian qiyofasida tasvirlangan. Qadim zamonlardan boshlab maymunni aqlli, ayyor, epchil hayvon deb hisoblab, shu xususiyatlari uchun uni hurmat qilganlar. Haykal va papiruslarda ifodalangan boshi itnikiga o'xshash pavianning alohida turi o'zining ayyorligi bilan mashhur bo'lgan, uning Totga, u orqali esa Osirisga yetkazilgan so'zlari ismi so'nggi zikr etilgan xudoga «Haqiqat ovozi»ga aylanish, o'z dushmanlari ustidan g'alaba qozonish imkonini bergan. Shuning uchun bo'lsa kerak, boshi itnikiga o'xshash xudo qadimgi Misr mifologiyasida marhumlar do'sti sifatida gavdalanadi[1].

Londondagi Britaniya muzeyida «Marhumlar kitobi»dan olingan rasmda Tot (ibisnikiga o'xshash boshli) va Ra tasvirlangan (taxminan miloddan avvalgi 970-yil). Oy xudosi sifatida Tot kunlar hisobini yuritgan, vaqtni oy va yillarga ajratgan, shuning uchun «vaqt hukmdori» degan nom olgan. Tot astral xudo hisoblangan, u oy bilan ayniylashtirilgan va Quyosh xudosi – Ra yuragi sifatida namoyon bo'lgan. Tot kohinlari miloddan avvalgi 2 ming yillik oxirida uning o'g'illari unvoniga ega bo'lganlar.

Tot Misrda intellektual hayotga asos solgan, yozuvni yaratgan, odamlarga yozish va hisoblashni o'rgatgan, shuningdek u «barcha tillarni boshqargan». Tot arxiv va mashhur Germopol kutubxonasiga homiylik qilgan. Aytishlaricha, muqaddas «Nafas kitobi»ni ham Tot yozgan; bu kitobni magik kuchga ega deb hisoblaganlar va «Marhumlar kitobi»ga qo'shib marhumning tobutiga joylaganlar. Totni «ilohiy kitoblar podshosi», «ilohiy so'zlar podshosi» deb ham ataganlar. Bu yerda u do'st va dushmanlarni o'ziga bo'ysunishga majbur qiladigan duolar bilimdoni sifatida e'tirof etilgan. Miniatyuralarda Tot ko'pincha qo'lida qamish tayoqcha va taxtacha ushlagan holatda tasvirlanga.

«Tot muqaddas kitobi» insonni tiriltirish amalining sirlarini jamlagan va Totning boshqa kitoblarini tushunish uchun o'ziga xos «kalit» bo'lib xizmat qilgan. Belgi va simvollardan foydalana oladigan odamlar havo

[1] Баха Т.А.У. Египетская религия. Египетская магия. М. 1996. 77-78-б.

ruhlari va dunyoviy ilohlar ustidan cheksiz hokimiyatga ega bo'lgan. Miyaning muayyan qismlari misteriyalardagi maxfiy jarayonlar bilan rag'batlantirilganda, inson ongi kengaygan. U ko'p narsalarni ko'rish va ko'p jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Menli P.Xoll fikricha, "Tot kitobida bunday rag'batlantirishga erishish yo'llari ko'rsatilgan"[1].

Afsonaga ko'ra, Tot kitobi ibodatxonaning ichki mehrobida tilla qutida saqlangan. Bu qutining faqat bitta kaliti bo'lgan u Misteriyalar Ustasida turgan. Maxfiy kitobda nimalar yozilganini faqat Tot bilgan. Misteriyalar so'nishi bilan Tot kitobi yo'qolgan, sodiq muridlar uni muqaddas qutida muhrlangan holatda boshqa yurtlarga olib ketganlar.

"Arcanum" atamasi muayyan qonun va tamoyillarni bilish uchun zarur bo'lgan sirni "Mysterium" tushunchasi muayyan maktab doirasida sintezlangan arkon va sirlarning izchil tizimi sifatida tavsiflangan[2]. Kichik misteriyalar umumiy ta'lim fanlari deb ataydigan fenomenga o'xshash.

Dafn marosimida Tot har bir marhumni qo'riqlagan, uni marhumlar saltanatiga olib kirgan. Shu asosda Tot Germes Psixopomp («ruh yetakchisi») bilan ayniylashtirilgan. Marhumni yo'lda juda ko'p xavf-xatarlar kutgan. Bu yo'l yer osti saltanatining ko'p sonli qasrlari orqali o'tgan. Bu qasrlarni insu jinslar qo'riqlagan va ular o'zlariga noto'g'ri murojaat qilgan har kimga dushmanlik ko'zi bilan qaragan. Shu bois Tot marhumga nisbatan «maa xeru», ya'ni «to'g'ri ovozli», «to'g'ri so'zli» degan iborani ishlatgan. Natijada marhum o'ziga ko'rinmas mavjudotlarga qo'rqmasdan murojaat etish imkonini beruvchi kuch-qudrat kasb etgan. Bu ovoz yordamida u insu jinslarni o'ziga xizmat ko'rsatishga majbur qilgan. Magik duo va afsunlar xuddi shu tarzda talaffuz qilingan. Noto'g'ri ovoz ohangi yoki tovushlar ishlatilishi yomon oqibatlarga, hatto, so'zlovchining o'limiga olib kelishi ham mumkin bo'lgan.

Misr mifologiyasida Osiris – tabiatning unumdor kuchlari xudosi va marhumlar dunyosining podshosi sifatida ta'riflangan. Plutarxning aytishicha, Osiris odamlarni yovvoyi turmush tarzidan chiqargan, ular

[1] Мэнли П.Холл. Энциклопедическое исследование мистической, герметической, каббалистической символической философии. Новосибирск, 1993. С.113-121.
[2] Курс энциклопедии оккультизма. Киев, 1994. С.11.

odamxo'rlik odatini unutishlariga ko'maklashgan, ularga don ekish, uzumzor bog'lar barpo etish, non yopish, bo'za va sharob pishirishni o'rgatgan. Bundan tashqari u odamlarga qurilish ishi va tabobat mahoratidan ham saboq bergan.

Toning xotini Maat – Misr mifologiyasida haqiqat va tartib ilohasi yerda tizzalarini quchoqlab o'tirgan ayol sifatida tasvirlangan. Maat quyosh xudosi Raning qizi, u dunyoni yaratishda, xaosni yo'q qilish va tartib o'rnatishda ishtirok etgan. Marhumlarning savol-javob marosimida tarozining bir pallasiga marhumning yuragi, ikkinchi pallasiga esa Maat haykalchasi qo'yilgan. Muvozanat holati marhum oqlanganini, u Osiris saltanatida huzur-halovatda yashashga loyiqligini anglatgan. Aks holda u gippopotamga yem bo'lgan. Gannoverdagi Kestner muzeyida Maat hamda Iblis qiyofasidagi Tot haykalchasi saqlangan. Bu haykalcha miloddan avvalgi VII–VI asrlarga mansubligi taxmin qilinadi.

Yunon mifologiyasida Germes ismining etimologik tahlili yunoncha «germa» so'zidan olingan bo'lib, toshlar uyumi yoki qabr boshiga qo'yiladigan tosh ustunni anglatgan. Germalar amalda yo'l belgilari, chegara ustunlari sifatida ham xizmat qilgan. Germalarni buzish va ularga shikast yetkazish kufr hisoblangan.

Germesning funksiyalari

Qadimgi yunonlar xudosi Germes qadimgi misrliklar xudosi Totga o'xshab ketadi, u ham ko'p sonli funksiyalarni bajaradi[1]. Menli P.Xoll o'z kitobida Tot Germes Trismegistni, Germes Merkuriy Trismegistni ham uch dunyo homiysi sifatida tavsiflaydi. Shu o'rinda: Trismegist, ya'ni «uch karra buyuk» iborasi nimani anglatgan?, degan tabiiy savol tug'iladi.

Germes barcha faylasuflarning eng buyugi, barcha kohinlarning eng buyugi va barcha podsholarning eng buyugi hisoblangan. U xudolar hukmining sharhlovchisi, ularning darakchisi, sayyohlar posboni va marhumlar ruhining sarboni bo'lgan. Germes o'z funksiyalarini barcha sohalarda: osmonda, yerda va yer osti dunyosida amalga oshirgan.

[1] Гермес Трисмегист // Словарь античности. М., 1989. Тот Меркурий Осирис Маат Гермес // Мифы народов мира: Энциклопедия. М., 1992. Т.1-2. Тураев Б.А. Бог Тот. – Леншшг, 1898. Тахо-Годи А. Гермес // Мифологический словарь. М., 1991. Лешкевич Т.Г. Спецкурс: Цивилизация Древнего Египта (Герметика). Ростов н/Д, 1997.

Germesning ayyorlik va epchillik kabi xususiyatlari uni makkorlar va o'g'rilar homiysiga aylantirgan. Favqulodda topqirlik Germesning ehsoni hisoblangan – u sayyohlarga xudo omad yo'llayotganidan darak bergan. Suqrotdan Germes ismi nimani anglatadi, deb so'rashganida u shunday javob beradi: «Bu ism so'zga taalluqli bo'lsa kerak: u xudolar hukmining sharhlovchisi – germenevt va darakchi, u ham o'g'ri, ham so'zamol, ham bozor homiysi, bu amallarning barchasi esa so'z hokimiyati bilan bog'liq»[1].

Antik davrda barcha e'tibor Germes Trismegist obraziga qaratilgan: uch karra buyuk zot – Germes Trismegist bilan ayniylashtirilgan qadimgi misrliklar xudosi Tot unutilgandek tuyulgan. Balki, Germes prообrazi bo'lib xizmat qilgan buyuk donishmand amalda mavjud bo'lgandir, degan faraz ham ilgari surilgan. Ammo Germes obrazi donishmandlar ko'p sonli avlodlarining jamuljam ifodasi bo'lsa kerak, degan taxmin haqiqatga yaqinroq. Antik davri tarixchisi Yamvlix fikricha Germesni 20 mingta kitobning muallifi bo'lib, bu kitoblarda tabobat, kimyo, astrologiya, musiqa, ritorika, magiya, falsafa, matematika, geometriya, anatomiya, geografiya va noziqlik san'ati kabilarga izoh berilgan. Bu qadar ko'p axborot bir donishmand yoki donishmandlar guruhi tomonidan olinishi mumkin emasligi boshqa taxminlar ustida ham mulohaza yuritish imkonini beradi. «Germetizm falsafasi instituti» asoschisi va direktori Jon Beyns aniqlagan afsonaga ko'ra, Germes Trismegist Yerga Kosmosdan 30 ming yil muqaddam misteriyalar Ittifoqining Buyuk, Oliy Ustozi sifatida tushgan.

Boshqa manbalarda, xususan, «Stromata» asarida Aleksandriyalik Kliment Germesning 42 kitobi haqida yozadi. Uning fikricha mazkur kitoblarning 36 tasi umumfalsafiy, qolganlari esa tabobat mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ularning hammasi Aleksandriya kutubxonasidagi yong'in paytida yo'qolgan. Rivoyat qilishlaricha, bu kitoblardan birida xudolarga madhiyalar, boshqasida podsho hayotining qoidalari jamlangan, uchinchi kitobda ibodatxonadagi ashyolar ro'yxati keltirilgan, o'nta kitob xudolarga sig'inish va rasm-rusumlarga, yana o'ntasi – kohinlik qonun-qoidalariga, to'rttasi – yulduzlar va sayyoralar, kunchiqar va kunbotar tavsifiga, oy fazalariga, geografiya ilmiga bag'ishlangan.

[1] Платон. Собрание сочинений В 4 т. М. 1990. Т 1. 642б

Odatda Germes Trismegist ikki mashhur asar «Zumrad lavha» (uning «Zumrad stol» yoki «Zumrad taxtacha» degan tarjimalariga ham duch kelish mumkin) va «Ilohiy pimandr» (odamlar cho'poni) deb ataladi. «Ilohiy pimandr»da . misrliklar insoniyatni qo'ylar podasiga o'xshatganlarini nazarda tutish kerak. Oliy Ota Cho'pon, Germes esa uning qo'riqchi iti bo'lgan. Diniy timsollar orasida cho'pon tayog'i paydo bo'lishi sababini ham shu bilan izohlash mumkin. Misrning uch skipetri (podsholik alomati) fir'avn o'z xalqi taqdirini hal qilishda tayanadigan kuch ramzi sanalgan cho'pon tayog'ini ham o'z ichiga oladi.

Germes Merkuriy Trismegistning «Ilohiy pimandr» asari 17 lavhadan iborat germetik adabiyotning dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi. «Ilohiy pimandr»ning ikkinchi kitobi «Pomandrs» "Ro'yo" deb ataladi, unda Germes ilohiy donishmandlikni ilk bor qay yo'l bilan anglab yetgani tavsifi keltirilgan. «Ro'yo» Germes kosmologiyasi bayoni hamda misrliklarning jon va madaniyat haqidagi maxfiy fanlari tavsifini o'z ichiga oladi.

Rim mifologiyasida Tot va Germes sifatida mashhur bo'lgan xudo – Merkuriy ismi bilan namoyon bo'ladi. Merkuriy savdo-sotiq xudosi sifatida namoyon bilan tasvirlanadi va unga «saodatmand», degan sifat beriladi. U hunarmandchilik va san'at homiysi, magiya, astrologiya sirlari bilimdoni «biluvchi va donishmand» sifatida tasvirlanadi. Biroq uning yangi xususiyatlari ham e'tirof etilgan. Masalan, *astrologiyada Mars erkak sayyora, Oy va Venera esa ayol sayyoralar bo'lsa, Merkuriy (Germes) germafrodit sayyora ekanligi* qayd etiladi. U erkaklar davrasida o'zini erkak kabi, ayollar davrasida esa ayol kabi tutadi. Merkuriyning uyi – Egizaklar burji. May esa o'z ismini Merkuriyning onasi – Mayya ismidan olgan.

Shunday qilib, Tot haqidagi g'oyalarqadimgi Misrdan Yunonistonga o'tgan va bu yerda Germes degan nom olgan; shundan so'ng u Rimga kelgan va bu yerda xudo Merkuriy qiyofasida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon obrazning ahamiyati va funksiyalariga doir ayrim o'zgarishlar bilan birga kechadi.

Yashirin donishmandlikning konseptual tahlili

«Tot muqaddas kitobi» va Germesning [illegible] tasavvurga ega bo'lmay turib germetikani o'rganish [illegible].

DENGIZ TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM № 34337

Ammo bu yerda katta bibliografik qiyinchiliklar tug'iladi. Gap shundaki, bu qadimgi madaniy-tarixiy yodgorlik, nafaqat keng ommaga, balki okkult fanlar namoyandalarining ko'pchiligiga ham sir bo'lib qolgan. Mistik asarlar mualliflarining aksariyati hamma narsani yoritib beruvchi qandaydir yashirin ta'limot mavjudligini ta'kidlaydi. Ammo uning asl mazmuni va tavsifi xususida ular sukut saqlaydilar.

Rivoyatlarga ko'ra, Tot kitobi degan nom bilan mashhur bo'lgan qadimgi bilimlar to'plami dastavval tilla tavtachalarda aks etgan. Atlantida davridan boshlab bu bilimlar qadimgi Misr ibodatxonalarida saqlangan va kohinlar bilimining oliy asoslarini tashkil qilgan. Bu bilimlarda oliy haqiqat ifodalangan deb taxmin qilingan[1].

Germetika fanining asosiy ta'limoti sifatida «Mutlaq borliqning yagonaligi" amal qiladi. Hozirgi zamon tili bilan aytganda u monizm tamoyiliga muvofiq tuzilgan. Yagona borliq g'ayritabiiy hodisa sifatida emas, balki kosmos, aniqroq aytganda, mutlaq xususiyatga ega bo'lgan kosmik ruh – Omnipotentia Naturalis sifatida tushuniladi. Bu yerda monizm tamoyili ikki yo'nalishda rivojlanadi. Birinchisi Yagona borliqning rang-barangligi va bosqichma-bosqich rivojlanishi; ikkinchi inson o'zligining rivojlanishi. Buni ham hozirgi zamon tiliga o'girish orqali borliq haqidagi fan – ontologiya tamoyili va inson donishmandligi haqidagi fan – antroposofiya tamoyili sifatida tavsiflash mumkin. V.Shmakov fikriga ko'ra, oliy sintetik ta'limot, «Tot muqaddas kitobi» Yagona voqelik rivojlanish jarayonining ayrim bosqichlarini ifodalovchi ta'limotlar tizimidir[2].

«Inson aql dunyosida, aql bilan va aqlda yashaydi. Mutlaq Sintezni u faqat Barkamol aql sifatida idrok etishi mumkin», degan ta'rif aql oddiy ong o'ylagan idrok etish qobiliyatidan ong hayotining formal tomonini boshqaruvchi va mazkur ong moduslarining takrorlanish tartibini ham, uning qonuniyatlarini ham belgilovchi substansional kuchga aylanishiga ishora qiladi. Binobarin, inson axloqiy jinoyatlarning oldini olishga va o'zining bor kuch-g'ayratini yomonlikka qarshi kurashga qaratishga qodir.

[1] Шмаков В. Священная книга Тота Великие Арканы Таро. Начало синтетической философии гиперпространства. Киев. 1993. С. 41.
[2] Шмаков В. Священная книга Тота Великие Арканы Таро. Начало синтетической философии гиперпространства. Киев. 1993. С. 43.

Tot kitobi uch qismga bo'linadi va uch dunyo – Ilohiy Absolyut dunyosi, inson dunyosi va Koinot dunyosini ajratadi. Bu asrlar hatto, ming yilliklar osha ajratilgan falsafaning uch vazifasi bilan ajabtovur tarzda hamohang. Xususan, ingliz materialisti F.Bekon ijodida bu quyidagicha yangraydi: «Falsafa predmeti uchta: Xudo, Tabiat, Inson».

«Tot muqaddas kitobi»da inson barcha narsa va hodisalarning mohiyatini anglab yetishi uchun dunyoda yashashi lozimligi qayd etiladi. Dunyodan ajralish mumkin emas, unda yashash va uni anglab yetish zarur. Dunyo Xudoning in'ikosidir, dunyo undan kelib chiqqan. Shakllar rang-barangligi ortida uning yagonaligi yashirinib yotadi. Xudo turli ism va obrazlar vositasida ifodalanadi. Binobarin, bu yerda hodisalar dunyosi ortida ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatni anglab yetish muammosi yuzaga keladi. «Tot muqaddas kitobi»ning mazmunidan anglaniladigan bunday fikr-mulohazalar keyinchalik Yevropa falsafasida rivojlangan.

«Tot muqaddas kitobi» va Germesning «Zumrad lavha» asaridagi o'xshashliklar muammosi abadiy muammo bo'lib qolmoqda. Rivoyatlarda bu ikki asar bir-biri bilan uzviy bog'liqligi qayd etiladi. Bibliografik manbalarda esa Germesning «Zumrad lavha» asari germetizmning birinchi va asosiy asari deb e'lon qilinadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Makedoniyalik Aleksandr amriga binoan alximiya san'atining afsonaviy asoschisi Uch karra buyuk Germes qabriga o'rnatilgan toshga uning «Zumrad lavha» asaridan olingan o'n uch qoida o'yib yozilgan[1].

«Zumrad lavha» asari qisqa bayon etilgan hikmatlardan iborat bo'lib, ularning mazmunini tushunish matnni chuqur tahlil qilishni talab etadi. *Kitob quyidagi so'zlar bilan boshladi: «To'g'ri, yolg'onsiz rost va shak-shubhasiz haqiqat». Bu hikmatni uch bosqichdan iborat bo'lgan bilish metodiga ishora qilgan holda sharhlaydilar. «To'g'ri» sezgi organlaridan axborot olishni, ishonchli hissiy idrok etishga erishishni anglatadi, moddiy dunyoga ishora qiladi. «Yolg'onsiz rost» fikrlash faoliyati natijasida axborotning mazkur haqqoniy qismini ajratish mental dunyo to'g'risida so'z yuritadi. «Shak-shubhasiz haqiqat» olingan bilimni mistik amaliyot jarayonida Xudoga murojaat etish yo'li bilan uzil-kesil verifikatsiya qilish. Olingan natijaning Koinot harakati umumiy oqimi*

[1] Оригинал: Зеленая изумрудная скрижаль. М. 1990. 67-б.

bilan mutanosibligini butun his qilish hodisalarining astral dunyosida bahs etadi[1].

«Zumrad lavha» asarida asosiy metod sifatida analogiya metodi belgilangan. Yuqorida zikr etilgan holda ham tahlil qilinayotgan hikmat bilishning mashhur bosqichlari bilan o'xshashlik bo'yicha idrok etiladi. Jonli musholrada yuritishdan tushunishga va undan amaliyotga qarab harakatlanish haqiqat yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kontekstda gap hissiy-predmetli faoliyat sifatidagi amaliyot haqida emas, balki boshqacha amaliyot dildagini aytish, to'yi-rost gapirish haqida boradi.

Germetik falsafa mazmuni va uning tarkibiy elementlari

Miloddy II va III asrlarda xudo Germesning fikr-mulohazalari ifodalangan muloqotlar tarzidagi magik-teosofik asarlar to'plami germetika degan nom olgan. Qomusiy manbalarda bu muloqotlar pand-nasihat va ma'ruza tarzida yozilgani, yunonlar, yahudiy va misrliklar orasida tarqalgan diniy gnostik g'oyalar qorishmasidan iborat ekanligi qayd etiladi.

Germetikaning bosh muammosi ruhning dunyoni yaratishiga jonning gunohga botishi va undan forig'lanishga xizmati hisoblanadi. Germetizm asarlari yunon, lotin, kopt tillari va boshqa tillarda yozilgan. *Germetizm ikkiga «ommaviy germetizm» (miloddan avvalgi III asr – miloddy III asr) va «ilmiy germetizm» (miloddy II–III asrlariga bo'linadi. Ommaviy germetizm astrologiya, alximiya, magiya va okkult fanlarga oid risolalarni o'z ichiga oladi. Ilmiy germetizmda ikki qarama-qarshi tendensiya: optimistik-panteistik (5, 8, 9-risolalar) va pessimistik-gnostik (1, 4, 6, 7, 13-risolalar) tendensiyalar to'qnashadi.* Birinchi risola «Pimandr» («Poy-mandr») germetizm ta'limotining eng izchil tavsifini o'zida ifodalaydi[2]. Ilmiy germetizm teologiya, kosmologiya, antropologiya, soteriologiya (panoh topish haqidagi ta'limot) va esxatologiya (oxir zamon haqidagi ta'limot)ni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, germetizmda keyinchalik falsafa fani doirasida o'z rivoji va qisman fanda o'z isbotini topuvchi eng muhim bo'limlarning barchasiga duch kelish mumkin. Masalan, J.Bruno va N.Kopernikning "Yer o'zining tarkibiy qismlari butun bilan birga harakatlanishga majbur bo'lgan

[1] Немировский Л.Н. Мистическая практика как способ познания. – М.: 1993. – С. 22–34.
Знание и чувственный опыт. – М.: 1986. – С. 70–73.

muayyan organizmdir", degan postulat P.Feyerabend fikricha, germetizm ta'limotidan olingan bo'lishi mumkin. Kopernik Quyosh o'rnini muhokama qilar ekan, Germes Trismegistni ham tilga oladi: «Ammo markazdan Quyosh o'rin olgan bo'lib, uni Trismegist ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan Xudo deb atagan»[1]. Shu tariqa biz germetizmda geliotsentrik Koinot haqidagi to'g'ri tasavvurga duch kelamiz. Bu tasavvurni asoslash uchun keltirilgan dalillar ilmiy-oqilona dalillardan butunlay farq qiladi. Biroq Koinot geliotsentrik xususiyatga ega ekanligini asoslash uchun yunon va Yevropa sivilizatsiyasi asrlar bilan o'lchanadigan va ko'p sonli ishtibohlardan iborat bo'lgan uzundan-uzoq yo'l bosib o'tgan.

Germetika ta'limotida dunyoning kosmogonik manzarasining asosi ilohiy nur yoki oliy aql e'tirof etiladi. Shundan so'ng zulmat (yoki materiya) paydo bo'ladi. *Oliy aql – logosning birinchi emanatsiyasi natijasida tabiiylikning to'rt elementga ajralishi yuz beradi.* Ikkinchi emanatsiya olov va havodan yetti qavat osmonni yaratadi. So'ngra xudo va logosning kuch-g'ayrati bilan butun koinot yaratiladi. Oliy aqlning uchinchi emanatsiyasi – birinchi inson («antropos») tabiat bilan birikishi natijasida odamzot paydo bo'ladi. Shu tufayli ham inson ikki yoqlama xususiyatga ega: antroposdan meros bo'lib o'tgan jon va aqlga ko'ra u umrboqiydir, biroq tabiatdan olingan tanaga ko'ra u o'limga mahkumdir. Inson vafotidan so'ng uning joni yetti qavat osmon orqali o'tish jarayonida poklanadi.

Borliq yaratilishining zaruriy bosqichi sifatida emanatsiyaga ishoralar germetizm energiya xususiyatiga ega ekanligidan darak beradi. Emanatsiya oliy darajadan quyi darajaga o'tishni nazarda tutadi. «Emanatsiya» atamasining o'zi chiqish yoki oqish degan ma'noni anglatadi. Dunyo ijodiy-oquvchan holatga o'tadi. Energiya ichki mazmunni yuzaga chiqarish usulini o'zida ifodalaydi. Emanatsiya haqidagi ta'limotga aylangan energizm olamning yangi va yangi sohalarini namoyon etadi.

Birinchi asos sifatida olingan ilohiy nur germetikaning bevosita kuzatish mumkin bo'lgan, ochiq tomoni qay darajada kuchli ekanligini namoyish etadi. Aql – ruh (tafakkur) yorug'lik bilan birikadi. Poklanish

[1] Фейерабенд П. Избранные труды по методологии науки. – М.: 1986. – С.234.

zaruriyatini ham shu bilan izohlash mumkin. Yorug'lik va poklikka dag'al dunyoviy materiya – zulmat qarama-qarshi turadi. Shunday qilib, germetizm ta'limoti dunyoda yomonlik borligini tan oladi.

Germetik ta'limotning ko'p darajali dunyoni konsepsiyasi tashkil etishning yetti tamoyili va inson borlig'ining yetti darajasini o'z ichiga oladi.

Birinchi tamoyil «Hamma narsa fikrdir», zero har qanday yaxshilik va yomonlik fikrdan boshlanadi. Binobarin, Koinot oqilona tuzilishga ega va borliqning barcha darajalari o'zaro aloqaga kirishganda aynan oqilonalik ro'yobga chiqadi. Nooqilonalik me'yordan og'ishdan boshqa narsa emas. Inson har narsadan ilohiy fikr uchqunini olishni o'rganishi kerak. *Bu tamoyil mentalizm tamoyili degan nom olgan.* U Energiya, Kuch va Materiyaning ta'sirchan tabiatini tushuntiradi, shuningdek, ular Aqlning Mahoratiga bo'ysunishlaridan darak beradi. Biroq Koinot o'z tabiatiga ko'ra, fikrlash qobiliyatiga ega bo'lsa, u holda mental transmutatsiya Koinotning ruhiy holatini ham, uning sharoitlarini ham o'zgartirishga qodir. Hozirgi zamon mental fanining ko'pgina namoyandalari va amaliyot mutaxassislari boshqa kishilar aqliga bog'liq bo'lgan har bir moddiy sharoit kuchli istak mavjud bo'lgan taqdirda mazkur shaxs tomonidan o'zgartirilishi mumkinligini yaxshi biladilar[1]. «Hamma narsa» deganda cheksizlik sifatidagi borliq tushuniladi. Uni cheklash, chegaralashga qodir narsaning o'zi yo'q. U vaqtda chegara bilmaydi, butun makon bo'ylab uzluksiz yoyilgan holatda bo'ladi. Mazkur germetik tamoyilning shaxsiy ahamiyatga molik oqibati quyidagicha ta'riflanadi. *O'zingizni xavf ostida deb his qilmang va hech narsadan qo'rqmang. "Siz Cheksiz Aql Ummonidasiz".* Bu osoyishtalik, xavfsizlik va baxt-saodat dunyosi biz muayyan lahzada unga erishgan paytda amalga oshadi.

Ikkinchi tamoyil – o'xshashlik tamoyili bo'lib, inson, mikrokosm sifatida, makrokosm (Koinot) bilan o'xshashdir. Germetizmning o'xshashlik tamoyili quyidagicha: «Yuqorida nima mavjud bo'lsa, pastda ham shu mavjud bo'ladi». Bu tamoyil bizga voqelik va noma'lumlik o'rtasidagi to'siqdan oshib o'tish imkonini beradi. U borliqning turli darajalari o'rtasida muvofiqlik har doim mavjudligidan bahs etadi.

[1] Кайзов. М. 1993. С. 16-17.

Barcha narsa va hodisalar muayyan xossa va sifatlar, masalan, issiqlik, sovuqlik, dovyuraklik, qo'rquv, qayg'u, g'azab, mehribonlik yoki boshqa biron-bir mayl yoki kuch bilan tavsiflanadi. Bu narsa va hodisalarning barchasi ayni shunday xossalar va sifatlarga ega bo'lgan boshqa narsa va hodisalar bilan muvofiq keladi, ularda ham shunday kuchlarni hosil qiladi. Mazkur muvofiqlikni qadimgi yunonlar «simpatiya» deb ataganlar. Simpatiya va antipatiya qonuni neoplatoniklar falsafasida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan. U tabiatning umumiy qonuni darajasiga ko'tarilgan (Agrippa tomonidan) va ikki asrdan ko'proq vaqt mobaynida barcha hodisalarni tushuntiruvchi model bo'lib xizmat qilgan. Shu tariqa tushunilgan magiya natural falsafa degan nom olgan[1]. *Fanda ham insonning tuzilishi tabiat tuzilishi bilan ayniydir degan xulosaga kelmoqda, zero uning ham tarkibida tabiatda bor bo'lgan barcha mikroorganizimlar va kimyoviy elementlar mavjud.*

Uchinchi tebranish tamoyili bo'lib, unga ko'ra «hamma narsa harakatlanadi yoki tebranadi». Mushohada yuritish – ongning eng faol tebranish holatlaridan biri. U shu darajada teran qatlamlarda yuz beradiki, sirtdan mutlaq osoyishtalik va harakatsizlik holati sifatida idrok etiladi. Zaruriy darajaga moslasha olish o'z-o'zini tushunish va o'zini qurshagan muhitni o'zgartirish imkonini beradi. «Tebranish tamoyilini tushunib yetish hokimiyat tizginini qo'lga olish bilan barobar»[2]. Shuningdek, insonning hayoti, mo'ljallari va tafakkuri ham tebranma holatda bo'ladi. Hozirgi vaqtda materiyaning teran qatlamlari bilan o'zaro aloqaga kirishishni tebranma harakatlar vositasida amalga oshirish mumkin deb hisoblanadi. Bunday tebranishlarni inson nafas olish jarayonida amalga oshiradi, ular yurakning ritmik zarbalari ta'sirida hosil bo'ladi. Ma'lumki, xitoy yoglari nafas olish jarayoniga alohida e'tiborni qaratadilar. *O'zaro aloqaga kirishishning mazkur usuli fizikadagi interferensiya nazariyasini eslatadi.* Unga ko'ra, tebranishlar markazdan uzoqlashgan sari so'nib boradi. Ba'zan tabiati bir, ammo davr va yo'nalishlari turlicha bo'lgan tebranishlar ta'sirlanish markazidan uzoqlashgan sari kuchayib yoki pasayib boradi.

To'rtinchi - qutblilik tamoyili hamma narsa ikki yoqlama ekanligi va hamma narsaning qutblari borlig'iga ishoradir. «Hamma narsa o'z ziddi

[1] Калиш У. Оккультизм. М. 1994. 123-б.
[2] Кайзов. М. 1993. С. 11.

(qarama-qarshiligi)ga ega. qarama-qarshiliklar tabiatan o'xshash, biroq daraja jihatidan har xil. Qarama-qarshiliklar birikadi. Barcha haqiqatlar aslini olganda yarim haqiqatlardir. Barcha jumboqlarni murosaga keltirish mumkin». Qutblilik tamoyili hamma narsaning ikki qutbi, musbat va manfiy deb tavsiflash mumkin bo'lgan ikki qarama-qarshi tomoni mavjudligini tushuntiradi. Germetistlar qutblilik tamoyili yordamida yaxshi tomonga o'zgartirish san'atidan xabardorlar. Ammo bu o'zgartirish bir narsaning tabiatini butunlay boshqa narsaning tabiatiga aylantirishdan emas, balki ayni bir narsaning darajasini o'zgartirishdan iborat. Masalan, issiqni osongina sovuqqa aylantirish mumkin, biroq uni tovushga aylantirish mumkin emas. Muhabbat va nafrat, qo'rquv va mardlikni bir-biriga aylantirish mumkin. Qo'rquvni Muhabbatga aylantirish mumkin emas. Ruhiy holatlar ko'p sonli turkumlarga bo'linadi va ularning har biri transmutatsiya uchun imkoniyat yaratadigan o'z qarama-qarshiliklari qutblariga ega. Bu tamoyilni tushunish o'z qutblarini ham, birovning qutblarini ham o'zgartirish imkonini beradi.

Beshinchi tamoyil – ritm qonuni bo'lib, unga ko'ra: «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'z yuksalish va pasayish bosqichlariga ega, mayatniksimon tebranish hamma narsada namoyon bo'lishidir». Chap tomonga tebranma harakat o'ng tomonga tebranma harakat bilan muvozanatga solinadi. Ritmlar kompensatsiyalanadi. Qutblilik xossalari vaqtda ritmik tarzda namoyon bo'ladi. Yuksalish – pasayish, harakat - qarshi harakat o'zaro bog'lanadi. Ammo inson ritm to'lqinlarini jilovlashga, uning o'zgarmas va shikastli ta'sirlaridan o'zini olib qochishga qodir. Germetistlar neytrallashtirish xayoliy qonunlarini qo'llaydi. «Germetiklar ustasi o'zi orom topishni istagan nuqtada o'zini qutblashtiradi, shundan keyin esa o'zini boshqa qutbga olib ketishga harakat qilayotgan mayatnikning turli tebranishlarini neytrallashtiradi»[1]. Baxt va baxtsizlik o'zaro mutanosib, ular bir-biri bilan doimiy almashadi va bir birini taqozolaydi.

Oltinchi tamoyil – sabab va oqibat qonuni bo'lib, unga ko'ra «Har bir sabab o'z oqibatiga ega, har bir oqibatning o'z sababi bor. Hamma narsa qonunga muvofiq yuz beradi. Tasodif aslida hali aniqlanmagan qonunning nomidan boshqa narsa emas. Sababiyat darajalari ko'p,

[1] Кибалион. М. 1993. С. 13.

ammo qonun izmidan hech narsa chetga chiqa olmaydi». Bir qarashda tasodifiy bo'lib tuyulgan natija aslida bizga ma'lum bo'lmagan sabablarning o'zaro aloqasi mahsulidir. Germetizm ustalari oliy darajali sababiyatga bo'ysunadi, ammo ular o'z darajalarida hukm surishga yordam beradi, ular oqibatlar sifatida amal qilish o'rniga manbalarga aylanadi.

Yettinchi tamoyil – «jins tamoyili qarama-qarshi qutblarda yo faol, harakatchan erkaklik asosini, yo passiv ayollik asosini ko'rishni taklif qiladi». Erkaklik asosi energiya bilan, ayollik asosi esa shakl bilan muvofiq keladi. *«Hamma narsada jins bor – hamma narsa o'z erkaklik va ayollik tamoyiliga ega. Jins barcha darajalarda namoyon bo'ladi».* Jins tamoyili bunyodkorlik va ijodkorlik yo'nalishida amal qiladi.

Germetizmda magiya xudolarga do'q-po'pisa qilish orqali teurgiya shakl-shamoyilini kasb etadi. Teurgiyaning asosiy qoidasini quyidagicha ta'riflash mumkin: «Xudolar o'zlariga iltijo qilayotgan jon darajasiga tushmaydilar, balki jon xudolar darajasiga ko'tariladi»[1]. Duo – xudolar bilan tenglashish vositasi. Insonning xudolarga ta'siri odam jonini oliy tabiatga, demak xudolar kuch-qudratiga ham daxldor etishga qaratiladi. Bashorat qilish qobiliyati teurgik amallar vositasida amalga oshiriladi. Teurg o'z jonini xudolar bilan teng darajaga yuksaltirish orqali o'zi istagan narsalarga erishadi. Bu o'rinda yaxshi ruhlar yordamida ish ko'radigan teurgiya bilan iblisdan kuch oladigan oddiy magiya o'rtasida o'rta asrlarda, ayniqsa bo'rtib namoyon bo'lgan farq ko'zga tashlanadi. Ayni shu sababli o'rta asrlar magik olimlari jodugarlardan o'zlarini olib qochganlar.

Magiya yo'li bilan ta'sir ko'rsatish vositalariga quyidagilar ham kirgan:

- yuz berishi lozim bo'lgan voqealarning yorqin obrazlarini xayolan gavdalantira olish;

- irodani bir yerga jamlay olish;

- qabr toshidagi ismni yo'q qilib tashlash (zero, ismni yo'q qilish insonning o'zini yo'q qilish demakdir);

- tumorlar va magik malhamlarni ishlata olish.

Germetizmning oliy haqiqatlariga bilan alohida qobiliyatlarga ega

[1] Иллюстрированная история суеверий и волшебства от древности и до наших дней. – Минск. 1993. С. 108.

kishilargina erishganlar. Ular oddiy o'z bilimlarini odamlardan sir tutilgan. Aleksandriyadagi maktablarda milodiy III asrda «germetik fanlar» - alximiya, astrologiya va kabala ajratilgan. Alximiya asoslari haqida manbalarda jo'r ovozdan unga Germes Trismegist (uch karra buyuk) asos solgani qayd etiladi. Ma'lumki, Germes misrliklarning donishmandlik xudosi Totning yunoncha ismi. U ko'p sonli asarlar muallifi hisoblanadi. Shulardan biri «Xena» deb atalgan, ayrim manbalarda undan «ximiya» so'zi kelib chiqqani ta'kidlanadi. Arablar bu so'z oldiga «al» old qo'shimchasini qo'ygan, tilla olish san'atini ifodalovchi «alximiya» atamasi hosil bo'lgan. Qadimgi yunon faylasuflarining ko'pchiligi: Fales, Geraklit, Demokrit, Aristotel, Platon alximiklar qatoriga kiritilgan, biroq mazkur fanning obro'sini oshirish uchun ularning ismlaridan foydalanilgan bo'lsa kerak. Demokritning Misr bo'ylab ko'p karra sayohat qilgani, magiya sirlaridan xabardor bo'lgani haqida ma'lum. Manbalarda u oltin, kumush va qimmatbaho toshlar rangi haqida asar yaratgani aytiladi. Qadimgi alximiklardan Zosima, Afrikan (milodiy III asr), Sineziy (milodiy V asr) ismlari saqlanib qolgan[1].

Alximiklarning asarlari xususida shu narsa ma'lumki, ular nainki alximiyaga oid bilimlar, balki afsun va astrologik jadvallarni ham o'z ichiga olgan. Xristian imperatorlarining ko'pchiligi, ayniqsa, rim davri imperatorlari magiyani qattiq ta'qib ostiga olganlar va topilgan magik asarlarning barchasini olovga tashlashni buyurganlar.

Germes simobni barcha metallar onasi, oltingugurtni ularning otasi deb hisoblagan. Quyosh oltin izlash bilan shug'ullanuvchi alximiya insonni ham bilishga harakat qiladi. Alkimyoviy evrilishlar inson materialida amalga oshiriladi. Kasallikning oqibatini bashorat qilish uchun ishlatilgan magik jadval («Germes asbobi») haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, eng so'nggi alkimyogarlarning so'zlariga qaraganda, uni Germes tuzgan.

Germetik aksiomalar

Jahon madaniyati xazinasidan o'rin olgan germetik aksiomalar инкўт кгритии ma'naviy tarbiyalashga xizmat qiladi. «Kibalion» degan nom bilan mashhur asar Ustozdan shogirdga o'tuvchi asosiy germetik tamoyillar to'plamini o'zida ifodalaydi. Bu atamaning aniq ma'nosi

[1] Гилязов Ф. Первобытная культура. М., 1989. 181–5.

bizgacha yetib kelmagan. «Kibalion»da germetik aksiomalar bayoniga debocha sifatida quyidagi nasihat keltirilgan: *«Bilimga ega bo'lish, agar undan amalda foydalanilmasa, befoyda va behuda mashg'ulot qimmatbaho toshlar yig'ish bilan barobardir. Salomatlik kabi bilim ham foydalanish uchun mo'ljallangan».*

Germetik aksiomalar insonni yorug'lik va aql-idrok olamida yashashga, yaxshilik va hayotga chanqoqlik ideallarini targ'ib qilishga chaqiradi: Germetik aksiomalarning mohiyati:

- kayfiyatingiz o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, o'z ruhingiz, qalbingiz maromini o'zgartiring;

-ruhiy tebranishning nomaqbul maromini buzmoqchi bo'lsangiz, qutblilik tamoyilini ishga soling va e'tiboringizni o'zingiz so'ndirmoqchi bo'lgan qutbning ziddiga qarating. Nomaqbul narsadan uning qutblarini o'zgartirish yo'li bilan xalos bo'ling;

-jon (xuddi metall va elementlar kabi) bir holatdan boshqa holatga, bir darajadan boshqa darajaga, bir qutbdan boshqa qutbga, bir tebranma harakatdan boshqa tebranma harakatga o'tishi mumkin;

-ritmlarni qutblashtirish san'atini ishga solish yo'li bilan neytrallashtirish mumkin;

- sabab va oqibat tamoyilini hech kim chetlab o'tolmaydi, ammo sababiyatning ko'p sonli darajalari mavjud va quyi daraja qonunlarni chetlab o'tish uchun oliy daraja qonunlardan foydalanish mumkin.

Jonning haqiqiy evrilishi aql san'ati hisoblanadi[1].

Xulosa. «Makrokosm – mikrokosmda», «O'zingni anglab yetsang, dunyoni anglab yetasan» kabi qadimgi mashhur iboralar strukturaviylik, tizimlilik, kogerentlik, ierarxiyaviylik, yaxlitlik kabi atamalar ko'rinishida bizgacha etib kelgan. Qadimgi germetik falsafa tamoyillarida keyinchalik an'ana dialektik fikrlash uslubi bilan bog'laydigan mulohazalarning konseptual sxemalarini farqlash qiyin emas.

Umumiy tasnifga ko'ra falsafaning tarixiy kelib chiqishi muammosi boshqacha xronologik doira kasb etadi. Aynan qadimgi donishmandlarning yashirin bilimlari keyinchalik falsafa deb nomlangan dunyoni bilish usulining hayotbaxsh manbaiga aylanadi.

[1] Кибалион. – М.: 1993. – 75–78-б.


Tajribaviy amaliy matnlar


Qadimgi Misr, Tot, "Marhumlar kitobi", Quyosh, Mitra, Gerodot, Plutarx, kohinlar, Aleksandriya, dafn marosimi, jon, makrokosm, mikrokosm, aql san'ati, dunyoni anglash, germetik aksioma, teurgiya.


Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar


1. Germetik ta'limotning ko'p darajali dunyosini bilasizmi?
2. Siz miflarga ishonasizmi?
3. Qadimgi miflarda hayotning ma'nosi talqinini tasniflang
4. Gomerning Odisseya mifining falsafiy tahlilida qanday yashirin ma'noni angladingiz
5. Mif va hozirgi zamon dialektikasini izoxlang
6. Misr magiyasining afzalliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Qadimgi Misr sivilizatsiyasini o'rganishning manbalari qaysilar?
8. Toto nimaning ifodasi?
9. Zoomorfizmga ta'rif bering va uning ahamiyatini tushuntiring
10. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini izoxlang
11. Misr sivilizatsiyasining asosiy manbalarida hayot ma'nosiga qanday munosabat bildirilgan
12. Qadimgi miflarning hozirgi davrdagi ahamiyati mavzusida esse tayyorlang
13. Teurgiya atamasining ma'nosini tushuntiring

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar










Qadimgi Misr mifologiyasining zoomorfizm deb nomlash mumkin bo'lgan noyob xususiyati hayvonlarni ilohiylashtirish va o'z xudolarini hayvon qiyofasida tasavvur qilish bilan bog'liq bo'lgan





Qadimgi Misrliklar barcha suvli xavzadan bino bo'lgan hadda hilolya qiluvchi kosmogonik miflarida ham zoomorfizm izlariga duch kelish mumkin. Samovat odatda butun tanasi yulduzlar bilan qoplangan ulkan sifatida tasavvur qilingan



Qadimgi Misr dini monistik yoki plyuralistik xususiyatga ega ekanligi to'g'risidagi masala o'ziga xos tarzda yechiladi, chunki misrliklar oliy Mavjudot va Yaratuvchi sifatidagi Xudo bilan bir qatorda xudolar yoki ilohalarning ilgari o'tmishda biron-bir alohidalik ko'rmaganlar

Germes Xudoga qadimgi Misr, Ellin va Rimdagi munosabat

Misr mifologiyasi

Rim mifologiyasida

Yunon mifologiyasi

«Zumrad lavha» asari

«Zumrad lavha» asarida uyushiq atamad sifatida analogiya metodi belgilangan. Yuqorida ilk etilgan holda tasir tahlil qilinayotgan hikmat bilishning mistik-ur bosqichlari bilan o'xshashlik bo'yicha idrok etiladi. Jonli muloqotda yuritiluvchi tushunishga va undan amaliyotga qarab harakatlanish haqiqat yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kontekstda gap falsafiy-predmetli faoliyat sifatidagi amaliyot haqida emas, balki boshqacha amaliyot – dildagini aytish, ro'yirost gapirish haqida boradi.

Germetik falsafa mazmuni va uning tarkibiy elementlari

Miloddiy II va III asrlarda Xudo Germesning fikr-mulohazalari ifodalangan dialoglar tarzidagi magik-teosofik asarlar to'plami germetika degan nom olgan. Qomusiy manbalarda bu dialoglar pand-nasihat va ma'ruza tarzida yozilgani, yunonlar, yahudiylar va misrliklar orasida tarqalgan diniy gnostik g'oyalar qorishmasidan iborat ekanligi

Germetik aksiomalar

Kayfiyatingiz yoki ruhiy holatingizni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, o'z tebranishingiz maromini o'zgartiring.

Ruhiy tebranishning nomaqbul maromini buzmoqchi bo'lsangiz, qutblilik tamoyilini ishga soling va e'tiboringizni o'zingiz so'ndirmoqchi bo'lgan qutbning ziddiga qaratng. Nomaqbul narsadan uning qutblarini o'zgartirish yo'li bilan xalos bo'ling.

Jon (xudo metall va elementlar kabi) bir holatdan boshqa holatga, bir darajadan boshqa darajaga, bir qutbdan boshqa qutbga, bir tebranma harakatdan boshqa tebranma harakatga o'tishi mumkin.

Ruhlarni qutblashtirish san'atini ishga solish yo'li bilan neytrallashtirish mumkin.

Germetik ta'limotning ko'p asrlik dunyoni, Kosmosni tushuntirishga yetti tamoyilini

Birinchi tamoyil «Hamma narsa fikrdir».

Ikkinchi tamoyil – o'xshashlik. Inson, mikrokosm sifatida, makrokosm (Kosmos) bilan o'xshashdir.

Uchinchi tamoyil – tebranish U quyidagicha yangraydi: «hech narsa tinch turmaydi, hamma narsa harakatlanadi yoki tebranadi».

To'rtinchi tamoyil – qutblilik. hamma narsa ikki yoqlama ekanligiga, hamma narsaning qutblari borligiga ishora qiladi.

Oltinchi tamoyil – sabab va oqibat qonuni

Beshinchi tamoyil– rizm qonuni quyidagicha yangraydi: «Hamma narsa oqadi, oqib keladi va oqib chiqadi, hamma narsa o'z yuksalish va pasayish bosqichlariga ega bo'ladi – mayatniksimon tebranish hamma narsada namoyon bo'ladi.

Yettinchi tamoyil– jins tamoyili qarama-qarshi qutblarda yo faol, harakatchan erkaklik asosini, yo passiv ayollik asosini ko'rishni taklif qiladi.

Sabab va Oqibat tamoyilini hech kim chetlab o'tolmaydi, ammo sabablyatning ko'p sonli darajalari mavjud va quyi daraja qonunlarini chetlab o'tish uchun oliy daraja qonunlardan foydalanish mumkin.

Insonning haqiqiy Evrilishi Aql San'ati hisoblanadi.

Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Qadimgi Misr falsafiy tafakkuri nechanchi asrga tegishli?

A. Mil.av. VI ming yillik
B. Mil. av. IV ming yillik
V. Mil. av. III ming yillik
G. Mil. av. V ming yillik

2. Eng qadimgi Misrda qanday bilim yashirin bilim hisoblangan?

A. Germetik falsafa
B. Sinergetik falsafa
V.Ontologik falsafa
G. Gnoseologik falsafa

3. Miloddan avvalgi VI–IV ming yilliklarda mavjud bo'lgani taxmin qilinadigan qadimgi Misr nimasi bilan ajralib turadi?

A. Sivilizatsiyasi dunyoni o'zlashtirishning o'ta qiziqarligi
B. Ratsionalist nuqtai nazaridan g'ayrioddiy bo'lgan konsepsiyasi.
V.Tabiiy iqlim sharoitining o'ziga xosligi
G. To'g'ri javob yo'q

4. Misr tarixida "Kem" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

A. Qadimgi Kem mamlakatining arabcha nomi, "sir, jumboq" degani
B. Misrliklar tilida "Qora tuproq" degani
V. Xudolar darvozasi"
G. "Yuqori shahar"

5. Ellinlarning matematik izlanishlaridan ancha (taxminan II–III ming yil) oldin mavjud bo'lgan kimning teoremasi aslida qadimgi Misr donishmandlarining geometrik konstruksiyasi ekanligi ma'lum bo'lgan?

A. Pifagor
B. Fales
V. Dekart
G. Ptolemey

6. Nechanchi ming yillik qadimgi Misrda jadal sur'atlarda rivojlangan davr hisoblangan?

A. Mil. av. IV ming yillik
B. Mil. av. III ming yillik
V. Mil. av. II ming yillik
G. Mil. av. VI ming yillik

7. Qadimgi Misr xo'jaligining negizini sug'oriladigan dehqonchilik va chorvachilik tashkil qilgan. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlari, shu jumladan, har yili aniq bir vaqtda yuz bergan Nil daryosidagi toshqinlar yerning nimasini belgilar edi?

A. Yerning hosildorligini oshirar va odamlar hayotini belgilar edi.
B. Mamlakat hayot faoliyati maromining barqarorligi ayni shu toshqinlarga bog'liq bo'lgan.
V. Turli xildagi tabiiy ofatlarni ketirib chiqargan
G. Xosildorlikni pasayishiga olib kelgan

8. Dehqonchilikning rivojlanishi yer o'lchash haqidagi bilim sifatida geometriyaning rivojlanishi natijasida qanday ixtirolar qilingan?

A. Geografik xarita va yelkan
B. Kompas va yelkan
V. Yer ag'daruvchi plug va g'ildirak
G. Transportir va aylana radiusini o'lchovchi asbob

9. Misr matematiklari qanday tadqiqotlarni amalga oshirganlar?

A. Barcha javoblar to'g'ri.
B. Aylana uzunligining diametrga nisbati shakli («pi» hisobi)ni aniqlaganlar
V. Kasrlar bilan hisoblash amallarini bajarganlar
G. Ikki noma'lumli tenglamalarni yechish amallarini bajarganlar

10. Qadimgi Misr sivilizatsiyasida boshqaruv shakli qanday bo'lgan?

A. Fir'avn despotiyasi
B. Respublika
V. Anarxiya
G. Imperiya

Adabiyotlar:

1. Иллюстрированная история суеверий и волшебства от древности и до наших дней. Киев, 1993.
2. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. М.: 1989.
3. Мелли П.Холл. Энциклопедическое изложение магической, герметической, каббалистической, символической философии. Новосибирск: 1994.
4. Курс энциклопедии оккультизма. Киев: 1994.
5. Гермес. Герметика // Словарь античности. М.: 1989;
6. Тот. Меркурий. Осирис. Маат. Гермес // Мифы народов мира. Энциклопедия. М.: 1992. Т. 1-2;
7. Тахо-Годи А. Гермес // Мифологический словарь. М.: 1991;
8. Кибалион. М.: 1993.
9. Заблуждающийся разум. М.: 1990.
10. Немировский Л.Н. Мистическая практика как способ познания. М.: 1993.
11. Знания за пределами науки. М.: 1996.
12. Фейерабенд П. Избранные труды по методологии науки.
13. Калин У. Оккультизм. М.: 1994.
14. Балж Э.А.У. Египетская религия. Египетская магия. М.: 1996. С. 24.
15. Шмаков В. Священная книга Тота: Великие Арканы Таро. Начало синтетической философии эзотеризма. – Киев, 1993. С. 41.
18.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. Toshkent: Noshir, 2013
19.Ysmonov M. Mif va mifologizatsiya dialektikasi. Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi. 2021. 136 b.

2-MAVZU. MIFOLOGIK ONGNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mifologiya - eng qadimgi ma'naviy madaniyat shakli

«Mif» (yunon.) so'zi afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. Mifologiya deganda tajribada bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan, voqelikni xayoliy tasvirlaydigan «hikoyalar» to'plami tushuniladi. Miflar haqidagi fan mifologiya deb ataladi. Fanda «mif» tushunchasiga berilgan besh yuzdan ortiq ta'riflar mavjud. *Mifologiya nima? degan* savolga u, qadimgi davrlarning sakral-kognitiv qarashlarining oqilonalik va nooqilonalikning o'zaro mutanosibligi doirasidagi rivojlanish jarayoni deb javob berish mumkin. Markazdan transsendentlikka bo'lgan ishonch o'rin olgan, oqilonalik esa sakral-magik va ritual-simvolik harakatlar kognitiv strukturalarining qo'shimcha mahsuli sifatida chetga chiqarib qo'yilgan. Keyingi evolyutsiya jarayoni markazning siljishi va oqilonalikka to'la periferiya madaniyat o'zagiga aylanishi yo'nalishida kechgan[1]. Oqilonalik sakral kompleksning ikkinchi darajali, yordamchi omilidan Yevropa ratsionalizmi taqdirini ko'p jihatdan belgilangan birlamchi o'zak omilga aylangan.

Mif –turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.

Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, ma'naviy madaniyatning turli elementlari, san'at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi muayyan darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa qisman tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar ular orqali ifodalanadi. Shu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham ta'minlanadi.

Mif deganda ba'zan ertakka aylantirilgan voqeani, ba'zan voqelikka aylantirilgan ertak tushunilgan. Ammo *keng ma'noda mif xudolar, ruh yoki qahramonlar haqidagi, dunyo yoki uning madaniy va tabiiy elementlarini yaratishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan ilk ajdodlar haqidagi fantastik uydirma sifatida tushuniladi.* Sirtdan miflar

[1] Огурцов А.П. Дисциплинарная структура науки. – М.: 1988. – 63-б.

rang-barang bo'lib ko'rinsa-da, ularning mavzulari ro'yxati asosan takrorlanadi. Eng qadimgi miflar qatoriga hayvonlar haqidagi, odamlarning hayvon va o'simliklarga aylanishi haqidagi miflar kiradi. Olamning yaratilishi va tuzilishi haqidagi kosmogonik miflar o'zak guruhni tashkil qiladi. Madaniy omillar kasb-hunarlar, nikoh munosabatlari, odat va rasm-rusumlarning paydo bo'lishi haqidagi miflarni ham alohida guruhga kiritish mumkin. Mazkur omillarning paydo bo'lishi, odatda, madaniy qahramonlar bilan bog'langan. Madaniy qahramonlar haqidagi miflarga egizaklar haqidagi miflar yaqin turadi. Bu yerda madaniy qahramon obrazi go'yoki ikkiga ajraladi. Egizaklardan biri aqlli, adolatli, mehribon bo'ladi, ikkinchisi esa butunlay qarama-qarshi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Falsafaning negizini mifologik dunyoqarash tashkil etadi. Mifologiya dunyoni hissiy-ko'rgazmali tarzda antropomorf kuchlarning harakat maydoni sifatida tavsiflaydi. *Antropomorfizm (yunon. antropos – inson, morfe – shakl) dunyoni idrok etishning shundan bir usulini anglatadiki, unga ko'ra tabiat hodisalari, osmon jismlari, hayvonlar va afsonaviy mavjudotlar ruhiy xossalarga, hatto, inson qiyofasiga ega bo'ladi.* Antik xudolardan ko'pchiligining ismlari hanuzgacha majoziy ma'noda ishlatiladi. Masalan, «Mars» deganda - urush, «Venera» deganda muhabbat, «Minerva» deganda donishmandlik, «Zevs» deganda xudolar va odamlar otasi tushunilgan.

Mifologik ong real jarayon va hodisalarda inson maylari bilan bog'liq bo'lgan yashirin, g'ayritabiiy kuchlar ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Dunyoning bu manzarasida xudolar, ilohalar, yarim xudolar va devlar to'dasi nainki odamlar, balki shahar-davlatlarning taqdirini ham hal qilganlar. Stixiyalar timsoli sanalgan xudolar bir-biri bilan murakkab qarindoshlik, er-xotinlik va ierarxiyaga nisbatan munosabatlarda bo'lganlar. Ular janjallashishlari, bir-birlariga kek saqlashlari, bir-birlaridan o'ch olishlari mumkin bo'lgan. Yerdagi ziddiyatlarning ko'pchiligi xudolarning injiqliklari tufayli yuz bergan. Umuman olganda, mif olami inson siyratidagi mavjudotlar olami, mifda muayyan antropologik modellashtirish amalga oshirilgan, deb aytish mumkin[1].

[1] Антология мировой литературы. Греция. Античность. – М.: 1989. – С. 55.

Mifologik ong asosan o'zining obrazliligi, dunyoni mavhum tushunchalar vositasida emas, balki badiiy obrazlar yordamida ifodalashga intilishi bilan ajralib turadi.

Mifologik ongning ilk bosqichida yaratilgan sodda va qisqa miflar sinfiy jamiyat bo'sag'asida keng hikoyatlarga aylanadi, voqelik haqidagi o'ziga xos, fantastik tasavvurlarning turkumlariga birlashtiriladi. Mifologiya davri va hozirgi davrni bir-biridan ajratish mifologik tasavvurlarning deyarli barchasiga xos.

Miflarga umumiy personifikatsiya hamda tabiiy va ijtimoiy ob'yektlarni keng miqyosda «metaforik» taqqoslash xos. *Miflarda kosmos ko'pincha tirik dev sifatida tasvirlanadi.* Dunyo ayni shu dev tanasining qismlaridan yaratiladi. Kasalliklar jonlarni kemiruvchi mahluqlar shakl-shamoyilini kasb etadi. Kuch ko'p qo'llilik bilan ifodalanadi[1].

Mifologik tafakkurning birinchi muhim jihati simvolizmda namoyon bo'ladi. Simvolizm muayyan narsa va hodisalar o'zining aniq mohiyatini yo'qotmasdan, boshqa narsa va hodisalarning belgilariga aylanadi va majoziy ma'noda ularning o'rnini bosa oladi.

Mifologik tafakkurning ikkinchi muhim jihati, genetizmda narsa yoki hodisaning paydo bo'lishi uning mohiyati sifatida tavsiflanadi. Dunyo yoki biron-bir hodisani tushuntirish uning paydo bo'lishi haqida hikoya qilishni anglatadi. Mifda insonni qop-qorong'i bo'shliq sifatida qurshagan muhitni tartibga solingan ko'rinishda ifodalashga intilish bo'rtib namoyon bo'ladi. Mifologik tafakkur obrazlar va harakatlarning xayoliy birikmalari yordamida cheksiz kosmosni o'ziga bo'ysundirishga hamda anglab yetish mumkin bo'lmagan kengliklar doirasini cheklashga harakat qiladi.

Mifologik tafakkurning uchinchi muhim jihati, sinkretizm bo'lib, unda miflar o'z tarkibiy elementlarining yaxlitligi va yagonaligi bilan ajralib turadi. San'at, empirik tajriba, diniy odatlar, axloqiy me'yorlar, estetik mo'ljallar va falsafa ilk kurtaklari chatishib, dunyoning yagona obrazli mifologik manzarasini hosil qiladi. Bu manzara voqelik va xayolot, tabiiylik va g'ayritabiiylikni o'zida mujassamlashtiradi. Mifologik ongning zavol topishi ma'rifiy, axloqiy, estetik va huquqiy elementlar undan ajralib chiqishi va ijtimoiy ongning o'z xususiyatlariga ega bo'lgan alohida shakllariga aylanishiga olib keladi.

[1] Античная литература. Греция. Античность. – М.: 1989. – С. 71.

Mifologiya davri birinchi predmet va birinchi harakatlar davri «paradigma» (yunon. — namuna, andoza) ahamiyatini kasb etib, amalda gavdalantirish uchun andoza bo'lib xizmat qiladi. Miflar rad etish va o'zgacha bayon qilish mumkin emas. U «bizgacha» ko'plab avlodlar tomonidan qabul qilingan, shu tufayli ham oliy borliq sifatida baholanadi. Shu narsa diqqatga sazovorki, mif mavjudligining mazkur xususiyati Platon dialoglaridayoq qayd etilgan. Masalan, «Fedr» dialogida Suqrot so'zlaridan miflarga indifferent munosabatda bo'lish, ularni asl holida chetga surib qo'yib, insonga daxldor masalalar bilan shug'ullanish lozimligi anglashiladi.

Ba'zan mifologiyani protofalsafa, metafizikani esa ikkinchi mifologiya deb ataydilar. Aristotel miflarni yaxshi ko'radigan yoki ularni to'qib chiqaradigan odam ma'lum darajada faylasufdir, zero donishmandlik sabablarni bilishda ifodalanadi, miflar esa voqelikning sabablarini o'ziga xos tarzda tushuntiradi, deb hisoblagan. *Neoplatonchilar fikricha miflarda yashirin haqiqat o'rganiladi.* Ular qadimgi yunon falsafasining allegorik talqinini rivojlantirganlar. Zevsni birinchi umumiy asos, Afinani donishmandlik timsoli deb hisoblaganlar. Gomer asarlaridagi xudolar to'qnashuvida olov, suv stixiyalari va boshqa tabiiy kuchlar kurashini, Zevs va Geraning janjalida issiqlik va sovuqlik to'qnashuvini ko'rganlar.

Shunday qilib, mif — umumbashariy ahamiyatga molik tarixiy hodisa. Mif ijodkorligi insoniyat madaniy tarixining eng muhim elementi hisoblanib, dastavval, ibtidoiy jamoa davrida, dunyoni tushunishning asosiy usuli, uni ma'naviy o'zlashtirishning boshlang'ich shakli sifatida maydonga chiqadi. Miflarda timsol va majoziy obrazlar ortida falsafa kurtaklari, axloqiy aqidalar, ilmiy haqiqatlar yashirinib yotadi. Ammo mif qaysi qonunlarga muvofiq tuzilishi, qaysi ehtiyojga javoban yaratilishi ko'pgina etnolog va faylasuflar uchun jumboq bo'lib qolgan.

Kosmogonik miflarning turlari

Fanda shunday chegara borki, undan o'tishga fanning o'zi ham qodir emas. Bu o'rinda gap «barcha asoslar asosi» muammosi — olamning kelib chiqishi yoki Koinotning vujudga kelishi haqida boradi. Mif talqinchilari tilida bu turli qabila va xalqlarda ko'p jihatdan o'xshash bo'lgan «kosmogonik miflar» deb ataladi. Umuman olganda, mifologik

syujetlarning o'xshashligini hozirgi zamon psixoanalizi arxetiplar — tajribani tashkillashtirishning muayyan modellari tizimi tarzida namoyon bo'luvchi yungcha jamoaviy ongsizlik holati bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Dunyoning yaralishi Koinot Tuxumining sinishi bilan bog'lanuvchi kosmogonik mif hozirgi zamon fizikasida ilgari surilgan «Ulkan portlash» yoki «Antikollaps» haqidagi g'oyalarni eslatadi. Ammo, fiziklar «Ulkan portlash»dan oldinroq mavjud bo'lgan Olamning dastlabki singulyar holati haqida so'z yuritar ekanlar, bu dastlabki singulyar holatning substratlar tarkibi qanday bo'lgani haqida ishonchli bir g'oyani hanuzgacha ilgari surganlari yo'q, balki makon va vaqt, materiya va energiya haqidagi hozirgi tasavvurlarni unga tatbiq etish mumkin emas, degan fikrlarni ro'kach qilish bilan qutulishga harakat qiladilar. Demak, ular yo yo'q bo'lgan, yo hali mavjud emas. Shu o'rinda zamondoshimiz A.Chanishevning yo'qlikning birlamchiligini asoslashga qaratilgan «Yo'qlik haqida risola»sida qiziqarli tezis yodga keladi. Vaqt bilan bog'liq dalillar hozirning mavjudligi o'tmish va kelajakning, ya'ni yo'q bo'lgan yoki hali mavjud bo'lmagan davrlarning mavjudligini nazarda tutadi, qabilidagi oddiy mulohazalarga tayanadi. Bu yo'qlikning vaqtga doir modusidir[1].

Ezoteriklar bu birinchi va bosh tamoyilning tagiga bilish mumkin bo'lgan barcha xususiyatlarni istisno etish yo'li bilangina yetish mumkin, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, mavjud barcha narsalar e'tibordan soqit etilganidan keyin nimaiki qolgan bo'lsa, u borliqning abadiy holatidir. Garchi uni aniqlash mumkin bo'lmasa-da, bu ifodalab bo'lmaydigan mohiyat manbaidir. Shunday qilib, dunyo yaralishining fandagi boshlang'ich modeli mohiyat e'tibori bilan isbotsiz va izchil ilmiy maqomga ega bo'lmagan ta'limot yoki mifologemadir. U «mifologik», mo'jizaviy tarzda Koinot vujudga kelishini tushuntiruvchi model faxrli o'rnini egallashga muvaffaq bo'lgan.

Ilmiy haqiqat va mif kesishuviga boshqa bir misol entropiyaning tabiati haqidagi bahslarda ikki asos: yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, tartib va xaosning birgalikda mavjudligi, bir-biri bilan kurashini tushuntiruvchi syujetlarda namoyon bo'ladi. Yomonlik, zulmat, xaos –

[1] Чанышев А. Философия небытия. М., 1990. С.322-323.

tartibsizlikning sinonimlari. Yaxshilik, nur, tartib – uyg'unlik va uyushqoqlik saltanati. Metodologik nuqtai nazardan muammoni yomonlik yaxshilikning ziddidir, degan dialektik-monistik yondashuv asosida yechish mumkin. Bunday yechim ikki asosning birgalikda mavjudligini, ularning bir-biri bilan faol kurashuvi va ancha mustaqil amal qilishini nazarda tutuvchi binar, dualistik yondashuv doirasida topilishi ham mumkin. Metodologiya ko'rsatilgan modellar bilangina cheklanmaydi, balki ancha samarali bo'lgan sikllilik tamoyili va qo'shimchalilik tamoyilini ham o'z ichiga oladi. Tartibsizlik mezoni entropiyaning o'sishi tamoyili shundan dalolat beradiki, o'z holiga tashlab qo'yilgan tizim eng kam ehtimol tutilgan holatdan eng ko'p taxmin qilingan holatga, ya'ni tartibsizlikning spontan tarzda kuchayishi sari intiladi. Binobarin, yomonlik tarqalishga moyil bo'ladi, unga qarshi muttasil kurashish talab etiladi. Xullas, hozirgi zamon termodinamikasi dunyoning mifologik manzarasida o'zining o'zgartirilgan timsoliga ega.

Dunyoning yaralishi haqidagi kosmogonik miflarning yana bir yondashuvlarida Yerning vujudga kelishi ikki xil tarzda tushuntiriladi. Birinchi yondashuvga ko'ra, dunyoni g'ayritabiiy mavjudot yaratgan, degan g'oya yotadi. Ikkinchi yondashuvda, o'z-o'zidan rivojlanish, ya'ni tartibli strukturalarning asta-sekin vujudga kelishi haqidagi sinergetik g'oya ilgari suriladi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra, dunyo dastlabki xaosdan, muayyan shaklsiz holatdan paydo bo'lgan va rivojlangan. Gesiod ta'biri bilan aytganda, Olamda avval xaos paydo bo'lgan. Keyinroq Tun – Nokta va Ereb – Iroqdan abadiy yorug'lik – Efir va yorug' kun – Gemera tug'ilgan[1].

Dunyoning yaralishi haqidagi qadimgi hind kosmogonik mifida kosmogoniyaning tadrijiy talqini namoyon bo'ladi. Bu yerda xaosdan Koinot vujudga kela boshlaydi va iloh – Brahma paydo bo'ladi, u olamni yaratish jarayonini davom ettiradi.

Dunyoni mifologik tasavvur qilish unsurlari hozirgi zamon tilida uning poetik shakli («yer uxlayapti», «havoning avzoyi buzildi» va sh.k.)dagina emas, balki ilmiy-texnika tili, xususan kibernetik tilda («mashina izlaydi», «mashina eslab qoladi va sh.k.)da ham saqlanib qolgan.

[1] Античная литература Греции. Антология. Ч. 1. – М.: 1989. – С. 71.

Dunyoning ilmiy manzarasi mifologik manzarani rad etadi, tarix mifdan logos sari harakat qiladi, deb qaraladi. Ammo muayyan daraja yoki fragment sifatida mifologiya turli madaniyatlarda mavjud bo'lishi, mifologik ong xususiyatlari ommaviy ongda hozirgi kungacha saqlanib qolishi mumkin. Fanda haqiqat izlovchilar ilohiyatdan xolislikka qarab mo'ljal olsa, mifning «to'laqonliligi»ga unga emotsional, obrazli va intuitiv asoslarni kiritish hisobiga erishiladi. Bu uni faqat arxaik davrlarning yetakchi elementi deb e'lon qilish va mif bilan fan o'rtasida diaxron munosabatni o'rnatish, shunga muvofiq mifologik tafakkurga ilmiy dunyoqarash asosi sifatida qarash imkonini bermaydi. Bu yerda *sinxron munosabatni, ya'ni mifologiya va ilmiy tafakkur dunyoni ideal aks ettirishning ikki darajasi yoki yo'nalishi sifatida mavjudligini ko'rish to'g'riroq bo'ladi.*

Eski miflar zamirida ba'zan inson kechinmalarini aks ettiruvchi haqiqat yashirinib yotadi. Masalan, shoh Edip haqidagi mif antik polis vakilini qay darajada larzaga solgan bo'lsa, hozirgi davr kishisi ham undan shu darajada ta'sirlansa kerak. Sizif haqidagi mif o'nlab asrlar muqaddam qanday ibratli xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, hozir ham shunday ibratli xususiyatga ega. O'rta asrlarda, masalan, falsafa toshi haqidagi alximik mif mavjud bo'lgan. Oltin temirning aks ko'rinishi sifatida talqin qilingan va vazifa uni yashirin mohiyat – tillalikdan xalos qilishdan iborat bo'lgan. Cherkov xristiancha mifdan foydalangan va hozir ham ba jarayon davom etmoqda. «Xudo nazari tushgan xalq» haqidagi mif ba'zan siyosatda ham o'zini namoyon etadi: nemis natsizmi o'z g'oyalarini odamlar ongiga singdirish uchun qadimgi german miflaridan ancha samarali foydalangan, shuningdek, fyurer shaxsiga sig'inish bilan birikuvchi yangi «irqiy» mifni yaratgan. Bu yerda XX asrning ko'p sonli ssientistik va antissientistik miflarni, masalan: fil suyagidan qurilgan minorada o'tirgan olim haqidagi mifni yoki yerda iloh podsholigi o'rnatilishi haqidagi xoliazmik mifni esga olish mumkin. Mifologik fikrlash usuli har qanday davr kishisiga u yoki bu darajada xos. Y.Lotman mifni unutish ham, xalos bo'lishga harakat qilish ham o'rinli bo'lmagan atoqli otlar tiliga tenglashtirganida, bizningcha, to'la haq edi. Fan va mifologiyani taqqoslash esa shuni nazarda tutadiki, ilmiy tavsifning metatiliga mifologik bayonning metamatni mos keladi.

Mif va mifologizmning tiklanishi adabiyotlarda sivilizatsiya inqirozini anglab yetish, sxematizm, pozitivizm, umuman, fandan hafsalasi pir bo'lish mahsuli sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, XXI asrda biz mif bilan avvalgi romantik qiziqishlarning barchasidan ko'p karra kuchli bo'lgan remifologizatsiya bilan to'qnash kelamiz. Zero, aynan mifologik tafakkurga xos bo'lgan ifodalash vositalari «nomutanosib, beqaror dunyo» degan nom bilan tarixdan o'rin olgan dunyoni his etishning hozirgi qatlamiga ko'p jihatdan mos keladi.

Remifologizatsiya mifologiyaning tiklanishi jarayoni manbai dunyoga vaqt nazar tashlashga bo'lgan qondirilmagan ehtiyojdir. Dunyodagi xaosni fantaziya yordamida bartaraf etishdan iborat bo'lgan mif ijodkorligi funksiyasi ham ancha muhim rol o'ynaydi. U emotsional va intellektual komfort hissini qaytarishga qaratilgan. Mif xaosni kosmosga aylantirishga qarab mo'ljal oladi, deb aytish mumkin.

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati

Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu oddiy rivoyat emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan barliq sifatidagi in'ikosidir. Mif, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan, chunki unda axloqiy qarashlar, insonning borliqqa estetik munosabati o'z ifodasini topgan. Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmas: tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

Mifologik dunyoqarash kimningdir uydirmasi yoki «o'tmish xarqiti» emas, balki shunday o'ziga xos tilki, inson uning yordamida qadim zamonlardanoq dunyoni tavsiflagan, o'zining o'sib borayotgan tarqoq bilimlarini umumlashtirgan, talqin qilgan, tasniflagan va muayyan tizimga solgan. Xususan, mifologik dunyoqarashda olam makon va vaqtda bir vaqtning o'zida chekli va cheksizdir. Masalan, makon bu yerda umumiy cheksiz makondan, ayni vaqtda, katta makonga o'xshash ko'p sonli chekli kichik makonlardan iborat. Vaqt haqida ham shunday deyish

mumkin – umumiy cheksiz vaqt davriy bo'lib, o'zini katta vaqtga o'xshash kichik vaqtlar sifatidagi sikllarida takrorlaydi. Umuman olganda, mifologik dunyoqarashda katta olam doirasida dunyolarning cheksiz rang-barangligi yuzaga keladi, har bir dunyo o'z makoni va vaqtiga ega bo'ladi. Odamlar yashaydigan dunyo bor, biroq u mavjud birdan-bir dunyo emas. U «barcha tomondan» boshqa dunyolar bilan qurshalgan. Bu dunyolarning o'z aholisi, o'z qonun-qoidalari, o'z maqsadlari bor. Bu dunyolarning hammasi odamlar dunyosi bilan muayyan darajada bog'langan. Boshqa dunyolarning ko'pgina kuchlari va mohiyatlari odamlar yashaydigan dunyoga kiradi va insonga faol ta'sir ko'rsatishi, xususan, unga yordam yoki xalaqit berishi mumkin. Shu sababli inson o'zi yashaydigan dunyoda o'z maqsadlariga erishishi uchun boshqa dunyolar haqida mumkin qadar ko'proq bilishi va shu dunyolardan kelgan kuchlarga ta'sir ko'rsatishi, ular bilan til topishni bilishi kerak. Bir vaqtning o'zida ham odamlar dunyosida, ham undan tashqarida – bir dunyodan boshqa dunyoga o'tish va har bir dunyoga chetdan nazar tashlash imkonini beruvchi umumiy dunyoda yashashi lozim. Shu sababli inson, dunyoning mifologik manzarasidagi har qanday obyekt kabi, tomonga ega bo'lgan asosdir. O'zining bir tomoni («tanasi») bilan inson o'zining kichik dunyosida, boshqa tomoni («joni») bilan u barcha dunyolar o'rtasida yashaydi. Mifologik dunyoqarashda barcha obyektlar jonli bo'ladi, shu bois bu yerda hatto toshlar bilan ham ehtiyot bo'lib muomala qilish talab etiladi, aks holda ularning g'azabiga duchor bo'lish mumkin. Barcha dunyolar va ularda mavjud mohiyatlar turli dunyolarda amalda bo'lgan har xil qonun-qoidalarga bo'ysunadi. *Masalan, daryodan o'tish uchun avval undan ruxsat so'rash kerak, ovchi otgan tosh nishonga tegishi uchun avval tosh bilan kelishish yoki uni o'z xohish-irodasiga bo'ysundirish lozim, aks holda tosh hech qachon nishonga tegmaydi. Daryo, tosh, tog', bulut – bularning hammasi jonli mavjudotlar yoki ularning ko'rinishlari va ularning barchasiga jonli mavjudotlar sifatida yondashish: so'rash, tahdid qilish, jalb etish, xizmat qilish kerak.* Insonga ta'sir o'tkazish uchun bu odam nimadan qo'rqishi va nimani yaxshi ko'rishini, u nimaga sajda qilishi va nimani yomon ko'rishini bilish lozim, shunda unga yaxshi ko'rgan narsasini taklif qilish yoki qo'rqadigan narsasi bilan qo'rqitish, bu odamga ta'sir o'tkazishga

harakat qilish mumkin. Ayni shu harakatlar har qanday dunyoda yashaydigan barcha tirik jonzotlarga nisbatan ham o'rinlidir. Hatto, odamlar va boshqa mohiyatlarni boshqaruvchi qonunlar ham tirik mavjudotlarning alohida turi bo'lib, ular bilan ham yo til topishi, yo ular ustidan g'alaba qozonishga harakat qilish mumkin. Butun dunyo rang-barang mavjudotlar o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladigan katta jang va kurash maydoni. Ularning barchasi dunyoning buyuk Qonuni (Qismat)ga bo'ysunadi, biroq bu Qonunning o'zi ko'p sonli kichik qonun-taqdirlarga bo'linadi, ya'ni har bir mavjudotning o'z qonuni - taqdiri bo'ladi. Qonun-taqdir har kimni muayyan yo'lga boshlaydi va har kim o'z Qismatiga bo'ysunadi. Bu hol toki mavjudot o'z taqdiridan yuksalgunga yoki uni yenggunga qadar davom etadi. Mifologiyada dunyoning mazmuni o'z Qismatini yengishdan iborat bo'lib, bu yerda ikki yo'l bor. Bir yo'l juda uzoq va ko'pchilik uchun mo'ljallangan bo'lib bu o'z taqdiriga to'la bo'ysunish va uning barcha talablarini bajarish orqali uni yengish yo'li. Boshqa yo'l qisqa bo'lib, undan kamdan-kam odam borishi mumkin. bu o'z taqdirini yengib, yangi, oliyroq taqdirga sazovor bo'ladigan va shu zahoti u bilan ham jangga kirishadigan qahramon yo'lidir.

Gegel ta'biri bilan aytganda, *mifologiya zamirida fantaziyaga berilgan tafakkur yotadi. U foydalanuvchi obraz va tasavvurlar, tushunchalarning nomukammal shakllari, xolos.* Shu sababli mif tafakkurning boshlang'ich shakli sifatida qaralishi mumkin. Bunda fikr o'zini aniq ifodalay olmaydi, amalda oqilona mazmunni oqilona tarzda aks ettira olmaganidan yordamchi vositalar obraz va tasavvurlarga murojaat etib, fantaziyaga berila boshlaydi. Mifologiyada aql-idrok va tasavvur ayniydir, deb aytish mumkin. Tushunchalardan xoli aql-zakovat emotsiyalar hukmi ostiga tushib qoladi. Shu sababli dunyoning mifologik manzarasida biron-bir fikrni empirik darajada tekshirish mumkin emas. tabiat hodisalari esa tirik mavjudotning xatti-harakatlariga qiyosan idrok etiladi. *Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror topgan an'analar muhim rol o'ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zamirida e'tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi.*

Qadimgi miflar tasnifi

Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'q. Masalan, *Zaroastrizm mifologiyasida dunyo yaxshilik xudosi Axuramazda va yomonlik xudosi Axrimanning doimiy ziddiyatida rivojlanadi.* Maya qabilalari miflarida Ketsalkoatl xudosi - dunyoning yaratuvchisi.

Qadimgi Hindiston mifologiyasining asosiy manbasi Rigvedalar Mandallarning 10 ta kitobi va mingdan ortiq gimnlardan iborat bo'lib, u dunyoning paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik g'oyalarga asoslanadi. (RVdadan tashqari yana uchta vedalar: Samaveda, Yadjurveda, Atxarvedalar bor). Unga ko'ra, olam o'zida hayot urug'iga ega bo'lgan suvdan tashkil topgan, dastlab olamda na osmon va yer, na kun va tun, yaxshilik va yomonlik, erkak va ayol bo'lmagan. Bunday holat qorong'ilik deb nomlangan, undan yakka narsalar paydo bo'lgan. Rigvedaning boshqa gimnlarida olamdan tashqaridagi olamda Indra xudosi paydo bo'lgan, u olamga yorug'lik va qorong'ilik, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'limni teng kuchli qilib olib kirgan. Boshqa mifda Indra suzayotgan tepalikni (tepalik yer ma'nosida) yondirgan va suv ustida suzishda davom etgan. Bu jarayonda Indra Vritu ajdahosining qarshiligini bostirgan va natijada suzayotgan tepali-yerdan suv va olov birligidagi hayot paydo bo'lgan suv to'rtta daryolar, olov esa quyoshdir. Tepalik asta-sekinlik bilan kattalashib, yer shakliga ega bo'lgan.

Keyin Indra osmonni ko'tarib uni ustun bilan suyaydi, shu orqali dunyo daraxti paydo bo'ladi. U osmon va yerni bir-biridan ajratadi va murosaga keltiradi. Dunyoning paydo bo'lishi yangi g'oyalar bilan to'ldiriladi. Xususan, olam xudolar bilan to'ldirilgan va muayyan bosqichda o'z o'rnini tepalikdan paydo bo'lgan devlarga bo'shatib bergan. Asuralardan biri devlar tomonga o'tib, u dunyo va bu dunyo oralig'ida vositachiga aylangan va h.k.

Qadimgi yunon mifologiyasiga ko'ra, olam dastlab cheksiz, qorong'i xaosdan iborat. Xaosdan yer xudosi Geya paydo bo'lgan. U o'z bag'ridagi barcha narsalarning hayot manbai. Yerdan juda uzoqda osmon va cheksiz chuqurlikda abadiy zulmat hukmdori Tartar paydo bo'lgan. Xaosdan hayot va muhabbat manbai Eros paydo bo'lgan. Shu tartibda dunyoda hayot paydo bo'lgan. Cheksiz xaos abadiy zulmat- Erebni va tun

Nyuktuni yaratdi. Tun va zulmatdan abadiy yorug'lik -Efir va yorug'- kun Gemera paydo bo'lgan. Yorug'lik olamda teng tarqalgan va shu tariqa, tun va kun doimiy almasha boshlagan. Bag'rikeng Yer cheksiz osmon Uranni yaratgan va u yer uzra tarqalgan. Uning yonida tog'lar va sarqash dengiz paydo bo'lgan. Barcha narsalarni osmon, tog'lar va dengizlarni ona Yer yaratgan. Biroq ularning otasi bo'lmagan. Osmon-Uran dunyoni egallagan, u Yer-Geyaga uylangan. Uran va Geyaning olti o'g'li va olti qizi bo'lgan. Ularning o'g'li titan Okean va xudo Fetida o'z suvlarini dengizga quyuvchi daryolar va okeanidlarni yaratganlar. Titan Gepperiosl va Teyya dunyoga Quyosh-Geliosni Oy-Selenni va qirmizi ufq Eosni keltirganlar. Astreya va Eosdan qorong'i osmon yulduzlari va shamollar paydo bo'lgan. Titanlardan tashqari Geya uchta bir ko'zli sikloplarni va yuz qo'lli gekatonxeyralarni dunyoga keltirgan. Ularning kuchiga hech narsa teng kela olmagan. Uran o'z farzandlarini yomon ko'rib qolgan va ularni yer qa'ridagi zulmatga qamab qo'ygan. Ona Yer farzandlarining iztiroblariga chiday olmagan, shuning uchun o'g'illarini otasining qaroriga qarshi isyon ko'tarishga da'vat qilgan, biroq farzandlar otasiga qo'l ko'tarishga qo'rqqan. Biroq eng kichik farzandi Kron ayyorlik bilan o'z otasini taxtdan ag'dargan. Kronning harakatdan g'azablangan xudo-Tun qator xudolarni O'lim - Tanatani, Erida-nifoqni, Apadu-yolg'onni, Ker-talon-tarojlikni, Gipnos- turli qo'rqinchli tushlarni, Nemesida- turli jinoyatlar uchun qasos, va shu kabi yomonliklarni o'zida namoyon qiluvchi xudolarni dunyoga keltirgan. Shu tariqa hozirgi kungacha dunyoda yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashi hukmronlik qilmoqda.

Ammo buyuk bilimlar faqat maxsus kishilarga berilishi lozimligi qadim zamonlardayoq belgilangan. Buni simvolik tilini maxsus tayyorgarlik va uquvsiz tushunish mumkin bo'lmagan Taro arkonlari ham tasdiqlaydi. Mazkur bilimlar bilan oshno etish xususida qadimgi shiorda shunday deyilgan: «Muxlisni yasash mumkin emas, bunga faqat mehnat bilan erishish mumkin». Qadimgi misrliklarning xudolarga murojaat etish usuli ham diqqatga sazovor. Bu usul keyinchalik teurgiya, ya'ni xudolarga buyruq berish yoki hatto ularga tahdid qilish sifatida tavsiflangan. Bunday afsunlar vositasida xudolarga iltijo qilmaganlar, balki ularga amr etganlar, ulardan yordam talab qilganlar. Ba'zan xudolarni yordamga chaqirmaganlar, balki xavf-xatarga nari ketishni

buyurganlar, shu tariqa o'zlarini xudo o'rniga qo'yganlar[1].

Vikinglar mifologiyasi dunyoning paydo bo'lishi asosida olov va muzlikning to'qnashishi g'oyasi yotadi. To'qnashuv oqibatida Ivir xudosi paydo bo'lgan, uning sochlari o'simlik dunyosi, tomiridagi qondan daryo va dengiz suvlari, qovirg'asidan ayol, mushaklaridan erkak paydo bo'lgan. Vikinglar mifologiyasi ham ko'p xudolilikka asoslangan.

Mifologik dunyoqarashda odamlarga o'z dunyolarida yashaydigan va boshqa dunyolarni boshqaradigan ayrim oliy mavjudot sifatida qaraladi. Bu xudolar orasida biron-bir eng katta va eng qudratli xudo, masalan, antik mifologiyada Zevs mavjud bo'lishi mumkin, biroq shu xudo ham faqat o'ziga teng xudolar orasida birinchidir. Uni istalgan paytda taxtdan «ag'darish»ga harakat qilish va oliy hokimiyatni boshqa xudo egallashi mumkin. Masalan, Zevs bir paytlar o'z otasi – xudo Kronosni taxtdan ag'dargan. Kronas esa o'z otasi Uranni taxtdan ag'dargan, shuning uchun Zevsning o'zi ham kimdir uning hokimiyatini egallashga harakat qilmasligi uchun sergak bo'lishiga to'g'ri kelgan. Shu sababli, hatto eng katta xudo mavjud bo'lsa ham, dunyoning mifologik manzarasida yuqorida doim dunyoni boshqarishga ko'p sonli nomzodlar mavjud bo'ladi. Hatto eng katta xudolar ham Qismat hukmi ostida bo'lsalar-da. Qismatning o'zi ham nimalardadir shu xudolarga bo'ysunadi. Dunyoning vujudga kelishini ta'riflar ekanlar, qadimgi yunon mifologiyasi ham cheksiz xaos g'oyasiga tayanadi.

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Kundalik ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televidenie, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyatsiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

---

[1] Огурцов А.П. Дисциплинарная структура науки. – М.: 1988. – С.107.

Mif haqida qarashlar tasnifi

XVIII asr italyan mutafakkiri Jovanni Battista Viko (1668–1744) o'zining teranligi bilan ajralib turuvchi *mif falsafasini* yaratgan. «Yangi fan asoslari» asarida u mifni «ilohiy poeziya» deb nomlagan, ibtidoiy insoniyatning poetik donishmandligida ongsiz ko'rinishda yashirinib yotgan unsurlarning barchasi keyinchalik falsafiy donishmandlik doirasida ongli tarzda rivojlantirilganini qayd etgan. Viko J. mifning o'ziga xos xususiyatlari sifatida uning hissiy darajada konkretligi, moddiyligi, emotsionalligini ko'rsatgan.

Fransuz etnologi Levi-Bryul L. (1857–1939) mifologik tafakkur har qanday mantiqni rad etuvchi alogik xususiyatga emas, balki dologik xususiyatga ega, degan fikrni ilgari surgan.

Nemis idealist faylasufi Kassirer E. (1874–1945) mifning o'ziga xos xususiyati unda «simvolik dunyo yaratilishi» bilan tavsiflanadi, deb hisoblagan.

Levi-Stross (1908) fikricha, mif – ongsiz mantiqiy amallar maydoni, ziddiyatlarni yechishning mantiqiy vositasi. Eng fundamental ziddiyat – hayot va o'lim o'rtasidagi qarama-qarshilik, ikkinchi darajali ziddiyat – mavjudlikning hayvon va o'simlik shakllari o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan almashtirilgan.

Fransuz etnologi va strukturaviy antropologiya asoschisi Levi-Stros K. (1908-2009) mifologik tafakkur umumlashtirish, tasniflash va tahlil qilishga qodir deb hisoblagan, ilmiy mantiqdan farqli o'laroq, mifologik fikrlash usulidan «aylanma» yo'llar bilan foydalaniluvchi vaziyatni «brikol-laj» degan atama bilan nomlaydi. U mifologik tafakkur xulosalar chiqarish va dalillar keltirishga, tasniflash va tahlil qilishga qodir ekanligini isbotlashga harakat qilgan. U mifni ongsiz mantiqiy amallar maydoni, ziddiyatlarni yechishning mantiqiy vositasi deb hisoblagan. Uning fikricha, mifologik mantiq o'z maqsadlariga aylanma yo'llar bilan erishgan. Ko'p sonli ziddiyatlar: balandlik – pastlik, issiq – sovuq, chap – o'ng va hokazolar uning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lgan. Fundamental ziddiyat, masalan, hayot va o'lim o'rnini hayvon va o'simliklarning mavjudlik shakllari egallagan. O'z navbatida, hayvon va o'simliklar olami yanada tor ziddiyatlarni nazarda tutgan. Shu tariqa

yangi va yangi mifologik tizimlar vujudga kelgan[1].

Atoqli antik mifologiya mutaxassisi Losev A.F. (1893–1988) mifda iddallik va moddiylik uzviy ekanligini ta'kidlagan. Voqelikka tatbiq etilgan mif falsafasini o'rganar ekan, u: «Mif hayot darajasida his qilinadigan va yaratiladigan moddiy reallikdir»[2], degan xulosaga kelgan. Mifga har qanday madaniyatning dastlabki hayotiy sharti sifatida yondashish o'rinli bo'ladi, zero muayyan qadriyat va mo'ljallar aynan mif vositasida shakllantiriladi. Qadimgi rivoyat kabi, mif barqaror va o'zgarmas madaniy an'anani sharhlashdan boshqa biron-bir maqsadni ko'zlamaydi.

Nemis faylasufi Gadamer G.G. (1900-2002): «Mif oqilona tushuntirish mumkin bo'lmagan o'z haqiqatining tashuvchisiga aylanadi»[3], degan. Miflarni tadqiq etish bilan ularda ifodalangan donishmandlikni aniqlash uchun olimlar shug'ullanadilar.

Miflarning funksiyalarni

Mifning dunyoqarashga doir funksiyasi dunyo manzarasida insonning o'z o'rnini anglashi o'zgalar dunyosida o'zining individual dunyosini yaratishi, yaxshilik va yemonlik, go'zallik va xunuklikni o'zining ichki ruhiy dunyosi nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

Mifning integrativ funksiyasi poetik qo'shiqlar, urf odatlar bilan urug' jamoasini "etnik birlik" sifatida birlashtiradi, va umumiy qadriyatlar tizimiga rioya qilishni nazarda tutadi. Totemizm individlarni yagona jamoaga birlashtirgan dastlabki din sifatida mifologiyaning integrativ funksiyasi mahsuli sifatida paydo bo'lgan.

Mifning psixologik funksiyasi alohida olingan shaxsning tabiiy kuchlar oldidagi ojizligiga qarshi jamoa ruhini shakllantirish, hayot donishmandligi kundalik bilimlarga tayanib tasodiflar dunyosiga umid bilan yashashga, faqat g'alaba qozonishga o'rgatadi, masalan yemonlik bilan tugaydigan birorta ertak yo'q, shu nuqtai nazardan mifning psixologik funksiyasi odamlarda o'zining kuchi va bilimiga ishonchni

[1] Токарев С.А., Мелетинский Е.М. Мифология // Мифы народов мира: Энциклопедия. Т.1. – М.: 1991; Овсянченко В.Г., Дмитриева Л.В. Введение в философию мифа. – М.: 1993; Хюбнер К. Истина мифа. – М.: 1996; Леви-Строс К. Структура мифов // Вопросы философии. 1970. № 7; Иванов В.М. Миф и система культуры. – Петрозаводск, 1991.

[2] Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: 1991. – С.13.

[3] Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – М.: 1991. – С. 91.

shakllantiradi.

Mifning boshqaruvchi funksiyasi insonning o'z dunyosi va boshqa ijtimoyi muhitda o'zining hatti xarakatlarini boshqarish, vaziyatga moslashish, o'zi va boshqalarga nisbatan axloqiy me'yorlarga rioya qilishda namoyon bo'ladi. (o'zganing mulkini o'zlashtirmaslik, aldov, o'g'irlikdan saqlanish shular jumlasidandir kabilar).

Mifning umumiylik funksiyasi mavjudlikni ta'minlaydigan psixologik vordamni ifodalaydi. Miflar "Bizning maqsadimiz nimadan iborat?" yoki "Nega biz o'lishimiz kerak?" kabi savollarga javob bera oladi. Bu kabi aniq vazifalar xayot yo'lining asosiy jarayonlarini qamrab oladi. Miflar madaniyatning ilohiy tarixiy jarayonlari kabi o'zida real olamdan tashqarida bo'lgan xudolar va mavjud reallikni ham qamrab oladi.

Mifning kompensatorlik funksiyasi mavjud bo'lmagan aloqalar o'rnini bosadi va «boqiy» psixologik asoslarni, barqaror madaniy andozalarni ifodalashning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, *mifning kompensatorlik funksiyasi* ocharchilik, urushlar yoki yangi rahbarlarning hokimiyat tepasiga kelishi davrlarida ijtimoiy an'analar shaklida namoyon bo'lgan mifologik jarayonlarda namoyon bo'ladi. Miflarda saqlanib qolgan kosmik va ijtimoiy modellar urushlar davrida yoki ijtimoiy tarqoqliklar davrida jamiyatni legitimligini ushlab turish imkonini beradi. Mifologik personajlar, mif va ijtimoiy qadriyatlar jamiyatning ideallarini namoyon qiladi. Postmodern davri yozuvchilari: Joys, Kafka, Markes va boshqalar mifologiyaga ko'p murojaat etishini ayni shu omil bilan izohlash mumkin bo'lsa kerak.

Mifning ijtimoiy qadriyat sifatidagi funksiyasi skandinaviya davlatlari xududlarida keng tarqalgan chaqmoq xudosi bo'lgan Toro kabi ilohiy mavjudotlarga sig'inishni ifodalaydi. Toro Skandinaviya osmonini himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotda mif va mifologizmning uyg'onishi sivilizatsiyadagi inqirozni teran anglab yetish, ssientizm va pozitivizmdan voz kechish mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Yangi davrda mifning «to'liqligi»ga ruhiy, obrazli va intuitiv asoslarning kiritilishi hisobiga erishiladi. Bu mifni faqat qadim zamonlarning yetakchi elementi deb e'lon qilish g'oyasidan voz kechishni taqozo etadi. Mifologik tafakkur va fan o'rtasida sinxronik munosabatni kuzatish, ya'ni mifologiya va ilmiy

tafakkurni dunyo haqidagi ideal tasavvurning ikki darajasi sifatida tan olish lozim, bu esa mif bilan fan o'rtasida diaxronik munosabat o'rnatish imkonini bermaydi. Mifologik fikrlash uslubi barcha zamonlar odamiga u yoki bu darajada xos. Mifning asl ahamiyatini anglashga qodir bo'lmagan kishigina uni insoniyat taraqqiyotining o'tgan bosqichi, ajdodlarimiz nechog'li sodda bo'lganini ko'rsatuvchi dalil deb hisoblashi mumkin.

Mifologiya dunyoni hissiy-ko'rgazmali tarzda antropomorf kuchlarning harakat maydoni sifatida tavsiflaydi. Antropomorfizm (yunon. antropos – inson, morfe – shakl) atamasining o'zi dunyoni idrok etishning shunday bir usuliki, unga ko'ra tabiat hodisalari, osmon jismlari, hayvonlar va afsonaviy mavjudotlar ruhiy xossalarga va hatto inson qiyofasiga ega bo'ladilar. Antik xudolardan ko'pchiligining ismlari hanuzgacha majoziy ma'noda ishlatiladi. Masalan, «Mars» deganda urush, «Venera» deganda – muhabbat, «Minerva» deganda – donishmandlik, «Zevs» deganda – xudolar va odamlar otasi tushuniladi.

Mifologiya tarixi o'z davri an'analarini tahrir qilish imkonini beradi. Qadriyatlar shakllanish jarayoniga ko'ra madaniyat o'choqlarining oqsoqollari "vaqtning boshlanqich davridan boshlab biz doim o'z ishlarimizni bajarganmiz va bajarib boramiz" deb aytish imkoniyati bo'lgan. Miflarda ilohiy o'tmish tarixiy urf odatlar jarayonlar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shu kabi miflar va an'analar ijtimoiy ideallarni hamda jamiyatni xudolar bilan bog'lab turish imkonini bergan.

Mifologiya, teogoniya va naturfalsafa mutanosibligi

Mifologiyaning vujudga kelishi jarayonida falsafadan teogoniya (yunon. theos – xudo, goneia – tug'ilish) ilk falsafa shakli sifatida ajralib chiqadi. Ba'zan mifologiyaning o'zgarish jarayonini qayd etgan holda teogoniyani postmifologiya deb ham atashgan. Unda ham kosmosning paydo bo'lishi xudolar mavjudligi bilan tushuntiriladi. Xaos paydo bo'lganidan so'ng tabiat va jamiyat hodisalarining timsoli sanalgan xudolarning bir necha avlodlari tug'iladi. Ular dunyoni yaratishda ishtirok etib, bu jarayonga o'ziga xos mantiq baxsh etadilar.

Teogoniyada mifologik obraz so'na boshlaydi va obrazli o'xshatishlar emas, balki filosofemalar, ya'ni tushunchalarga aylantirilgan mifologik obrazlar ilk kosmologiyalar mazmuniga aylanadi.

Dunyoning yaratilishi jarayonini Ferekid quyidagicha tavsiflaydi: «Dunyoni yaratishga taraddud ko'rar ekan, Zevs Erotga aylandi: u qarama-qarshiliklardan kosmosni yaratib, bu yerda totuvlik va muhabbat urug'ini ekdi, butun universumni qamrab olgan ayniylik va yagonalikni barqaror etdi». Bu tavsifda oliy darajadagi qarama-qarshilik, ayniyat, yagonalik, rivojlanish, butun va qism bor. Ular botiniy darajada anglab yetish mumkin bo'lgan tushunchalarga aylanadi. Mifologiyaning antropomorfizmi va zoomorfizmi dunyo obyektiv shaxssiz kuchlarning harakat maydoni, degan falsafiy tasavvurga qarama-qarshi qo'yila boshlaydi.

Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida mif tafakkurga, narsalar va hodisalar tabiati haqidagi oqilona fikrga o'rin bo'shatadi. Mifologiya negizida tarixan falsafaning birinchi ko'rinishi naturfalsafa shakllangan. Unda antropomorf kuchlardan voz kechiladi. Dunyoning birinchi elementlari (suv, olov, yer, havo) haqidagi ta'limotni ilgari surgan *ilk «fiziologlar» yoki naturfalasuflar* paydo bo'lgan. Falsafiy tizimlar asta-sekin u yoki bu darajada asoslangan oqilona bilim shakl-shamoyilini kasb eta boshlagan. Mifning shaxsli-obrazli shakli o'rnini falsafaning tushunchalarga asoslangan shaxssiz shakli egallagan.

Inson siyratidagi ko'p sonli xudolar o'rniga yagona «tabiiylik» - abadiy va rang-barang tabiat hamma narsaning asosi sifatida e'tirof etiladi. Mifologiyada voqelik tasavvur qilingan bo'lsa, naturfalsafada u tushunila boshlandi.

Seneka qadimgi Yunonistonning Suqrot va sofistlardan oldingi falsafiy oqimlarining umumiy nomi sifatida philosophia naturalis atamasini birinchi bo'lib qo'llagan.

Ilk naturfaylasuflar – Milet maktabi namoyandalari: Fales, Anaksimen, Anaksimandr, shuningdek, Efeslik Geraklit astronomiya, geografiya, geometriya, meteorologiyani o'rganish bilan shug'ullanganlar. Masalan, Fales quyosh tutilishini bashorat qilgan, oy yog'dusining tabiatini birinchi bo'lib tushuntirib bergan. Geometriyaning eng sodda teoremalarini isbotlash uchun u deduksiya metodidan foydalangan. Fales qalamiga mansub deb taxmin qilinadigan asarlarning nomlari «Dengiz astrologiyasi», «Quyosh turishi haqida», «Teng kunlik haqida», «Asoslar haqida» kabilar uning tafakkuri tabiatni bilishga qay

darajada qaratilganidan dalolat beradi. Falesning shogirdi Anaksimandrni «tabiat haqidagi fanning chinakam bunyodkori» deb ataydilar. Uning fikricha cheksiz apeyron borliqning asosi (tamoyili) va stixiyasi (elementi) hisoblanadi. Qadimgi yunon tilida apeyron hamma narsaning zamirida yotadigan, ijodiy kuchga ega bo'lgan, hamma narsaning vujudga kelishi va yo'q bo'lishi sababi hisoblanadigan cheksizlik, nomuayyanlik degan ma'noni anglatadi.

Mifologiya, teogoniya, naturfalsafa dunyo haqida falsafiy tasavvur shakllanish jarayonining uch bosqichlaridir. Ba'zan falsafaning shakllanish jarayonini anglab yetish uchun «ilk falsafa» atamasini ham ishlatadilar. Bu atama mazkur jarayonning rivojlangan mifologiya va matematika, tibbiyot, astronomiya, fizika, kimyo kabi fanlarning kurtaklari mavjud bo'lgan bosqichni ifodalaydi. Naturfalsafa mifologiya va falsafa o'rtasidagi oraliq bosqich deb nomlash mumkin.

Naturfalsafa tarixan falsafaning birinchi shakli. Qadimgi Yunonistonning klassik falsafasi falsafaning ikkinchi shakli sifatida e'tirof etiladi. U Pifagorchilar uyushmasi, eleatlar, Empedokl va Anaksagor, atomistlar plyuralistlar va sofistlarni o'z ichiga oladi.

Naturfalsafaga nisbatan bunday yondashuvlar, asosan, *tafakkurning yalpi ratsionallashuvi* bilan bog'liq. *Majoziylikdan xalos bo'lish va xayoliy obrazlarga asoslangan fikrlash uslubidan tushunchalar yordamida fikrlaydigan intellektga o'tish falsafaning odatdagi muammolari yangicha shakl-shamoyil va ohang kasb etishiga olib kelgan.*

Pifagorchilar falsafani matematika bilan bog'lab, dunyoning sanoqli strukturasi to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yganlar. Pifagorchilar uyushmasi o'zining qat'iy belgilangan odatlari bilan, uning a'zolari esa kamtarona (asketik) hayot kechirishi bilan ajralib turgan.

Pifagorchilar uyushmasining asoschisi Pifagor chiqargan asosiy xulosa quyidagicha: «Donolar donosi sondir»; «Barcha narsa va hodisalarni son boshqaradi»; «Hamma narsalar o'z mohiyatiga ko'ra sonlardir». Pifagor borliq darajalarining uyg'unligi to'g'risida so'z yuritadi, kosmosni tartibga solingan, simmetrik yaxlitlik deb hisoblaydi. Pifagorchilar ta'limotida matematika ezoterika bilan birikadi, uning zamirida matematika yotadi.

Eleatlar, shu jumladan, Ksenofan, Parmenid, Zenon va Meliss

borliqning substansional asosi hamda tafakkur va borliqning o'zaro nisbati to'g'risidagi masalalarni kun tartibiga qo'yadilar. Parmenid o'zining «Tabiat haqida» asarida: «Predmet haqidagi fikr va fikrning predmeti ayni bir narsadir», deydi. Yo'qlik mavjud emas, chunki uni fikrlab bo'lmaydi. Zero, yo'qlik haqidagi fikrning o'zi yo'qlikni fikr predmeti sifatida borliqqa aylantiradi. Borliq bor, yo'qlik yo'q. Borliqning mohiyati yagona, o'zgarmas va bo'linmas yaxlitlikdir. Haqiqiy borliqni aql bilan anglab yetish mumkin. Muvaqqat, ya'ni oquvchan va o'zgaruvchan bo'lgan narsa va hodisalarning barchasi hissiy idrok etish bilan bog'liq. Fikr va bilim o'rtasida qanday qarama-qarshilik mavjud bo'lsa, sezgilar dunyosi va haqiqiy borliq o'rtasida ham shunday qarama-qarshilik mavjud.

Parmenidning shogirdi Zenon borliqning yagonaligini qarama-qarshilik metodi, uning harakatsizligini aporiyalar, ya'ni yechish mushkul bo'lgan muammolar yordamida asoslashga harakat qilgan. Zenonning «harakatga qarshi» mulohazalari Aristotel «Fizika»si orqali bizgacha yetib kelgan va ular keyinchalik «Dixotomiya», «Axilles va toshbaqa», «Yoy o'qi», «Stadion» degan nom olgan. «Dixotomiya» aporiyasida Zenon ziddiyatsiz harakat va o'zgarish bo'lmaydi, degan xulosaga keladi.

Falsafada plyuralistik yondashuv Empedokl va Anaksagor ismlari bilan bog'liq. *Empedokl koinot asosi sifatida to'rt stixiya – suv, havo va olovni ajratadi.* Bu asoslarning turli birikmalari hodisalar rang-barangligini belgilaydi. Dunyodagi jarayonlar ikki asosning kurashi bilan bog'liq. Bu asoslarning kelib chiqishi fizik emas, balki ruhiy xususiyatga ega. Birinchi asos muhabbat Filiya yagonalik va yaxshilikning kosmik sababi; ikkinchi asos Neykos nafrat yoki adovat ko'plik va yomonlik sababidir. Empedokl fikriha dunyo sharsimon ko'rinishga ega. Oltin asrda Adovat sirtda, Muhabbat esa ichda bo'lgan. So'ngra dunyoga Adovat kirgan, Muhabbat esa, undan quvg'in qilingan. Inqiroz davrida Muhabbat dunyodan tashqarida qolgan. Keyinchalik teskari harakat yuz bergan va sikl takrorlangan. *Birinchi bosqichda Muhabbat g'olib chiqqan, ikkinchi bosqichda muhabbat va nafrat o'zaro muvozanatga kirishgan, uchinchi bosqichda g'alaba Neykos tomonda bo'lgan, to'rtinchi bosqichda esa Neykos va Filiya o'rtasida muvozanat yuzaga kelgan.*

Anaksagorning plyuralizmida *yer, suv, havo va olov* stixiyalari birinchi asoslar sifatida rad etilgan, u moddaning barcha holatlarini birlamchi deb hisoblagan. Uning fikricha, bunday holatlar «nomuayyan» darajada ko'p bo'lib Anaksagor ularni urug'lar deb ataydi. Aristotel esa ularga «gomeometriya» deb nom beradi. Har qanday gomeometriya bir jinsli emas, cheksiz darajada bo'linuvchan, yaxlitlik kabi mavjud narsalarning barchasini o'z ichiga oladi. Uning «Tabiat haqida» asari: «Hamma narsalar birga edi», degan so'zlar bilan boshlanadi.

Ammo Anaksagor gomeometriyalari passiv materiya rolini o'ynaydi, xaos esa faol asos mavjud bo'lgan holdagina rivojlanib kosmosga aylanishi mumkin. Anaksagor ta'limotida bunday asos sifatida Nus yoki Aql maydonga chiqadi. Dastavval, u dunyodagi hamma narsa va hodisalarni aylanma harakatga keltiradi, so'ngra shakl hosil bo'lish jarayoni yuz beradi. Yengil narsalar chetga o'tadi, og'ir narsalar esa markazga tushadi. Xullas, Anaksagor – ratsionalistik an'ana davomchisi. Uning fikricha Aql harakatlantiruvchi asosdir, lekin narsa va hodisalarning mexanistik talqinini ilgari suradi. Uning kosmologiyasida «taqdiri azal» tan olinmaydi.

Atomistika va uning namoyandalari – Levkipp, Demokrit, Epikur va Lukresiy Kar, yo'qlikni rad etuvchi eleatlardan farqli ravishda, bo'shliq va yo'qlikning mavjudligini tan olganlar. Ular yo'qlikni, garchi uning o'zi harakatsiz, sarhadsiz va zichlikdan xoli bo'lsa-da, barcha jarayon va harakatlar omili deb hisoblaganlar. Yo'qlik bo'linmas (yunon. «atomos»)dir. Atom o'z-o'zi bilan ayniy, biroq shaklan har xil bo'lishi, tartib va holat bilan ajralib turishi mumkin. Bu atomlarning rang-barang birikmalari sababi hisoblanadi. Birikish va chatishish yo'li bilan ular turli narsa va hodisalarni hosil qiladilar, dunyoning atomistik manzarasida vujudga kelish, yo'q bo'lish, harakat jarayonlarini, shuningdek, ko'p sonlilikni aks ettiradilar. Demokrit ta'limotida, hatto, jon ham atomlardan iborat.

Atomistlar narsalar dunyosi oquvchan, narsalarning elementlari dunyosi esa o'zgarmas ekanligini tan olib, Geraklit va Parmenidni murosaga keltiradilar[1]. Aniqlangan borliqning saqlanish qonuni, harakatning saqlanish qonunidan tashqari atomistlar sabablyat qonunini

[1] Чанышев А.Н. Курс по древней философии. М.: 1981. С.185

e'lon qiladilar: «Biron-bir narsa yoki hodisa behuda emas, balki sababiy bog'lanish tufayli va zaruriyat taqozosi bilan yuz beradi».

Naturfalsafa logosi koinot asoslarini, dunyoning tuzilishi sabab va qonunlarini aniqlashni nazarda tutadi. Naturfaylasuflar rang-barang tabiiy hodisalarning yagona mohiyatini anglashga harakat qilganlar. Ular birinchi asos sifatida ilgari surgan mohiyat fizik stixiyalargina bo'lmagan, dunyoning yagonaligi manbalari sifatida ham amal qilgan. «Logos»ning o'zi serma'no atama hisoblangan. U umumiy qonun, dunyoviy aql va so'z sifatida talqin qilingan. Borliq haqida so'z sifatida logos mif uydirmasigagina emas, balki narsalarni sezgilar yordamida idrok etish mumkinligi haqidagi tasavvurga ham qarama-qarshi qo'yilgan. Universumni o'zlashtirish uchun insoniyat tanlagan yo'l maxtasar qilib «mifdan logos sari» deb nomlangan.

Naturfalsafa tabiatni tavlit hodisa sifatida tushunishga qaratilgan falsafiy tafakkurning tarixan birinchi shakli sifatida maydonga chiqadi. Naturfalsafa mifologiyada hukm surayotgan «oqibat» obrazi o'rniga sababiyat g'oyasini kiritadi. Naturfalsafa doirasida fan tarixida ulkan rol o'ynagan bir qancha gipotezalar, masalan, atomistik gipoteza, tartibning xaosdan paydo bo'lgani haqidagi gapoteza ilgari suriladi.

Naturfalsafa doirasida shakllangan dunyoni tushuntirishga nisbatan ikki xil yondashuvni «Ko'plik - yagonalik demak» va «Yagonalik - ko'plik demak» deb ifodalash mumkin. Birinchi yondashuvga ko'ra, rang-barang tabiiy dunyo zamirida muayyan yagona substansiya yotadi, birlamchi elementlar, «birinchi g'ishtlar» - atomlardan tarkib topadi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra, yaxlit va yagona universum rivojlanish jarayonida rang-barang tabiiy hodisalarni yaratadi.

Shu tariqa *naturfaylasuflar bo'lg'usi falsafaning ikki muhim muammosi: butun borliqning abadiy va o'zgarmas asosi sifatidagi substansiya muammosi hamda barcha o'zgarishlar manbai sanalgan harakatlantiruvchi tamoyil muammosini kim tartibiga qo'yganlar.* Birinchi savolga Fales: «Hamma narsaning asosi suvdir», deb javob bergan. Ammo, Aristotelning guvohlik berishicha, Fales jonni muayyan harakatlantiruvchi asos deb hisoblagan: «...magnit temirni harakatga keltirgani uchun ham u magnitning joni bor deb aytadi»[1].

[1] Маковельский А.О. Досократики. Казань, 1914. 1919. Ч.1. С.23.

Naturfalsafiy tafakkur ob'yektga qarab mo'ljal oladi. Bunda mavjud noma'lum aloqalar «ideal fantastik aloqalar» bilan, «yetishmayotgan dalillar» esa «uydirmalar» bilan almashtiriladi. Aristotel o'z o'tmishdoshlari – «fiziologlar» element va asoslarni aniqlar ekan, mantiqiy asoslashlarsiz bo'lsa ham haqiqat ta'sirida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar (tanantia legoysin) to'g'risida so'z yuritganlarini ta'kidlaydi, shu tariqa naturfaylasuflarning stixiyali dialektikasi kurtaklarini qayd etadi.

Sofistlar va sofistika

Qadimgi yunoncha «sofistes» so'zi bilimdon, ustod, donishmand degan ma'noni anglatgan. *Notiqlik san'ati va ishontirish qobiliyati qadrlangani bois, miloddan avvalgi V asrda qadimgi Yunonistonda odamlarda fikrlash va so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan shug'ullangan sofistlar paydo bo'lgan.* Ularning faoliyatida falsafiy qiziqishlar mavzusi naturfalsafa sohasidan axloq sohasiga, siyosatga, bilish nazariyasiga ko'chadi. Sofistlar – notiqlik san'atidan saboq beruvchilar va o'z bilimlari bilan haq evaziga o'rtoqlashuvchi donishmandlardir. Sofistlar bahslashish mahoratidan saboq berganlar, u yoki bu fikrni himoya qilish yoki unga qarshi chiqish yo'llarini o'rgatganlar. Ritorika va mantiqiy mulohaza yuritish asoslari sofistika doirasida yaratiladi, deb hisoblangan.

Sofistlar tilga, so'zlarning nominativ funksiyasiga qiziqishining kuchliligi bilan ajralib turganlar. Tabiiy va ijtimoiy qonunlarni qarama-qarshi qo'yish, me'yorlarni shakllantirish, dinni inkor etish muammolari katta sofistlar uchun ham, kichik sofistlar uchun ham alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Sofistlar formal mantiqni shakllantirish uchun zamin yaratganlar. Ularning o'z fikrini dalillar yordamida isbotlash uslubi yevropacha fikrlash uslubining o'ziga xos debochasi bo'lgan. Qadimgi yunon falsafasining zaruriy tarkibiy qismi sifatida sofistika yevropacha fikrlash uslubining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. *Zero, sofistika tizimdagi har qanday ziddiyatlarni aniqlashga ko'maklashadi, ilmiy dalillash bilan o'zaro nisbatga kirishish orqali u qarama-qarshiliklar birligini hosil qiladi, bilimning rivojlanish jarayonida vorisiylikni ta'minlaydi.*

Sofistlar faoliyatining asosiy davrlari

Birinchi, mumtoz yoki eng qadimgi sofistika eramizdan avvalgi V asri IV asrning I yarmida rivojlangan va u katta va kichik sofistlar maktablari faoliyatida namoyon bo'lgan.

Katta sofistlar maktabining vakillari Protagor, Gorgiy, Gippiy, Prodik, Antifontdir. Protagor notiqlik va bahslashish san'atlari ritorika muallimi bo'lgan, falsafadan ta'lim bergan. U Yunoniston shaharlari bo'ylab «mahorat darslari»ni o'tkazgan, amaliy muvaffaqiyatga erishish, yuksak madaniyatni o'zlashtirish istagida bo'lgan har qanday odamga u haq evaziga saboq bergan, omma o'rtasida bahs-munozaralar tashkil qilgan, kuchsiz dalilni kuchaytirish mahoratini o'rgatishga u alohida e'tiborni qaratgan. Protagor o'zining: «Inson hamma narsalarning mezonidir», degan tezisi bilan mashhurdir. Ayni shu tezisni, odatda, axloqiy relyativizm manifesti sifatida talqin qiladilar. Ayni paytda bu tezisning antropologik talqini ham mavjud bo'lib, unda tabiatning shaxssiz kuchlari emas, balki aynan inson koinot markazi va asosiy mezoni deb e'lon qilinadi.

Qadimgi yunon faylasufi, «Haqiqat» va «Kelishuv» asarlarining muallifi, sofist Antifont Protagorning "Ijtimoiy hayot siyosiy san'at mahsulidir", degan fikriga qo'shiladi. Qonunlarning amrlari kelishuvlar natijasi bo'lib, ular sun'iy va qalbakidir. Tabiat qonunlari o'z-o'zidan paydo bo'lgan. Xudolar ham «san'at» natijasidir, degan qoida alohida tashvish uyg'otgan. Xudolar haqidagi mazkur tasavvurni «Sizif»da Kritiy bayon etadi. Xudolarning sun'iy kelib chiqishi haqidagi fikrni Protagorning shogirdi Prodik ham qo'llab-quvvatlagan. «Quyosh, oy, daryo, buloqlarni, umuman, bizning hayotimiz uchun foydali bo'lgan hamma narsalarni qadimgilar ulardan foyda olganlari tufayli xudolar deb e'tirof etganlar. Buni misrliklarning Nil daryosiga sig'inishlari misolida ham kuzatish mumkin»[1]. Prodik til tahlili, sinonimiya muammolari bilan shug'ullangan, so'zlarni to'g'ri ishlatishni o'rgatgan, bahslashish qoidalariga alohida e'tibor qaratgan. Prodikning mashhur aksildiniy tezisi quyidagicha yangraydi: «Odamlar o'zlariga foydali bo'lgan barcha narsalar - quyosh, daryolar, buloqlarni xudolar darajasiga ko'taradilar»[2].

[1] Боченский И.М. Диалектический метод. М. 1982. С. 207.
[2] Философская энциклопедия. Т.1. М. 1960-1970. Т. 4. С. 383.

Kichik sofistlar maktabi Likofron, Alkidamant, Frasimaxning g'oyalarida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi yangi sofistika eramizning II asr III asr boshlarida Lukian Samosatskiy, Flaviy Filostran va boshqalar ijodida rivojlangan.

Uchinchi kechki sofistika eramizning IV asrida paydo bo'lgan, uning asosiy vakillari Libaniy, Yulian Otstupnik, Femistiy, Gimeriy, Proeresiy kabilardir.

To'rtinchi sofistika VI asrlarda erta vizantiya sofistikasi sifatida nom qozongan. Xristian sofistlari Prokopiy, Gazskiy, Xorikiy antik an'analarini rivojlantirgan.

Ikkinchi va uchinchi sofistika klassik sofistika g'oyalari va uslubini rivojlantirgan.

Sofistlar ijtimoiy siyosiy qarashlariga ko'ra demokratik va antidemokratik guruhga ajratiladi. Demokratik guruh vakili Protagor bo'lsa, antidemokratik guruh vakili Kritiydir.

Sofistik mulohazalar har qanday narsa yoki hodisa haqida bir-birini istisno qiluvchi ikki xil nuqtai nazardan hukm chiqarish imkonini bergani bois, sofistika insoniyatning intellektual tafakkuri tarixidan relyativizm asosi sifatida o'rin olgan. Sekst Empirik yozib qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, Protagor materiyani oquvchan deb hisoblagan, shunga tayangan holda materiya ham, u haqdagi tasavvur ham uzluksiz o'zgarish jarayonida bo'ladi[1], degan xulosaga kelgan. *Uning bu qoidasi relyativizmni ontologik asoslash uchun zamin yaratadi.*

Relyativizm falsafiy mo'ljal sifatida mutlaq o'zgaruvchanlikni tan olish, hatto nisbiy barqarorlikni ham inkor etish bilan bog'liq. Mulohazalarda o'zaro aloqalarning haqiqiy xususiyatidan foydalaniladi. Bunda biron-bir narsa alohida, o'z-o'zicha emas, balki boshqa narsalar bilan o'zaro aloqa jarayonida mavjud bo'lishi nazarda tutiladi. Mavjud narsalarning barchasi o'ziga qarama-qarshi holatga kiradi, shu tufayli ham har bir narsa haqida qarama-qarshi fikr bo'lishi mumkin. Relyativizmdan qotib qolgan aqidalarni tanqid qilish uchun faol foydalaniladi. Ayni paytda u sub'yektivizmni asoslash, umumiy ahamiyatga molik me'yorlar va qonunlarni inkor etishga ham imkoniyat yaratadi. Ontologik relyativizm gnoseologik relyativizmga ulanadi va axloqiy relyativizm

[1] Против Этиков. Соч. 4 т. – М. 1976. Т. 2. – С. 252.

bilan tugaydi.

Yunon madaniyati ravnaq topgan davrda diqqat markazi tabiat «nazariyasi», naturfalsafa va kosmologiyadan antropologik muammolar tahliliga ko'chadi. Suqrot tushunchalarni sinchiklab o'rganish asosida o'zidan oldingi naturfalsafani to'laligicha «qoniqarsiz» deb e'lon qiladi. Inson jonining tahlilini u birinchi o'ringa qo'yadi. Bu o'rinda uning intellektualizmi o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Falsafa paydo bo'lishining mifologen, gnoseogen va gnoseomifologik konsepsiyalari

Hozirgi zamonda falsafaning genezisi, paydo bo'lishini asoslovchi mifogen, gnoseogen, gnoseomifogen konsepsiyalar bor, ular ancha sodda va sxematik xususiyatga ega.

Mifogen konsepsiyada falsafaning paydo bo'lishiga mifologiya va falsafaning uzviy aloqasi sabab bo'lganligi tan olinadi. Mifogen konsepsiyaga ko'ra, sotsioantropomorfik kompleks falsafaning birdan-bir manbai deb e'lon qilinadi. «falsafa mifologiyadan so'nggi zikr etilgan hodisaning ichki immanent rivojlanishi natijasida faqat shaklning o'zgarishi hisobiga kelib chiqadi. shavsli-obrazli shakl o'rnini tushunchalarga asoslangan shaxsiz shakl egallaydi»[1].

Mifologiya va falsafa o'rtasida oraliq shakllarning mavjudligi ham mifogen konsepsiyani o'zida ifodalaydi. Ingliz faylasufi Kornfort M. (1900–1980) din va intellektni falsafaning ma'naviy manbalari sifatida ajratar ekan, o'zining individual intellekt «falsafaning otasi» darajasiga ko'tariladigan, din esa «qadimgi va ulug'vor ona» sifatida tavsiflanadigan obrazli mulohazasida birinchi o'ringa mifogen konsepsiyani qo'yadi.

Gnoseogen konsepsiya tabiat haqidagi fan naturfalsafa ko'rinishida birinchi falsafaning mavjudligi va falsafa kelib chiqishini tushuntiruvchi asos bo'lib xizmat qilgan. Gnoseogen konsepsiyaga muvofiq, falsafa bilimlarning umumiy tizimi sifatida vujudga keladi. Falsafaning kelib chiqishini bunday tushuntirish foydasiga dalil sifatida asrlar osha amal qilib kelgan «falsafa – barcha fanlar yig'indisi» degan tezis keltiriladi. Mazkur yondashuvning tarafdorlaridan biri Bogdanov A.A. bo'lib, u falsafani faqat maxsus ilmiy bilim ehtiyojlaridan keltirib

[1] Qarang: Чанышев А.Н. Начала философии. – М.: 1982. – С. 30.

chiqaradi, mifologiya, din va falsafa an'analarining vorisiyligi haqidagi har qanday fikrni rad etadi[1].

Mazkur muammo Chanishev A.N. falsafa vujudga kelishini tushuntiruvchi uchinchi – gnoseomifogen konsepsiyani asoslaydi[2]. *Gnoseomifogen konsepsiyada falsafa uch manba – mifologiya, bilim va hayot donishmandligi negizida vujudga keladi.* Ayni shu konsepsiya falsafaning vujudga kelish jarayonida mifologiyaning ahamiyati va bilimning roli bilan bir qatorda, inson donishmandligi tarkibiga kiruvchi hayot hikmatlarining o'rni va ahamiyatini ham inobatga olishga harakat qiladi.

Xulosa. Insoniyat tarixida falsafiy tafakkur va dunyoqarash shakllanishining empirik asosi miflar bo'lib, u arxaik ongda dunyoning ilmiy manzarasi yaratilganidan dalolat beradi.

Suqrot jonni aqliy faoliyat bilan bog'laydi, uni aql-idrok va tafakkur makoni sifatida tavsiflaydi. Uning ta'biri bilan aytganda, «jon bizga o'z hukmini o'tkazadi», ammo tanadan farqli ravishda u ko'zga ko'rinmaydi. Ko'rinmas «hukmdor» - jon bizning tanamizni ham, xatti-harakatlarimizni ham boshqaradi.

Tajribaviy amaliy matnlar

Mifologik ong, gnoseomifogen konsepsiya, teogoniya, naturfalsafa, fisiolog, etnolog, Suqrot, sofistlar, ontologik relyativizm, gnoseologik relyativizm, geometriya, aqliy faoliyat, inson joni.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Mifologik tafakkurning asosiy jihatlarini tasniflang
2. Gnoseomifogen konsepsiyaning nazariy asosi bormi?
3. Naturfalsafa nima?
4. Losevning miflar haqidagi qarashlari (Filosofiya. Mifologiya. Kultura asari asosida) mavzusida esse tayyorlang
5. Mifologiya va falsafa uyg'unligi va farqi bo'yicha krossvord tayyoylang
6. Bogdanovning miflar haqidagi ta'limoti bo'yicha esse tayyorlang

[1] Qarang: Лотман Ю.М. Философия. Вводный курс. – М.: "Контур", 1998. – С. 83.
[2] Qarang: Чанышев А.Н. Курс по древней философии. – М.: 1981. – С.67.


7. Katta va kichik sofistlar maktabi namoyondalarini tasniflang va ular faoliyati kaysi jihatlari bilan farqlanishini asoslang.
8. Relyativizmning falsafiy ma'nosini ayting.
9. Demokrit ijodida jonning talqini mavzusida esse tayyorlang.
10. Naturfalsafa falsafaning nazariy asosini I sxemasi bo'yicha tushuntiring

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar.





Yunoncha antropos – inson, morfe- shakl atamasining o'zi dunyoni idrok etishning shunday bir usulini anglatadiki, unga ko'ra tabiat hodisalari, osmon jismlari, hayvonlar va afsonaviy mavjudodlar ruhiy xossalarga, hatto inson qiyofasiga ega bo'ladilar.




Falsafani paydo bo'lishi konsepsiyalari

Mifogen konsepsiya	*sotsioantropomorfik kompleks falsafaning birdan-bir manbai deb e'lon qilinadi va «falsafa mifologiyadan so'nggi zikr etilgan hodisaning ichki (immanent) rivojlanishi natijasida faqat shaklning o'zgarishi hisobiga kelib chiqadi: shaxsli-obrazli shakl o'rnini tushunchalarga asoslangan shaxsiz shakl egallaydi»*
Gnoseogen konsepsiya	*naturfalsafa ko'rinishida birinchi falsafaning mavjudligi falsafa kelib chiqishini tushuntiruvchi asos bo'lib xizmat qildi*
Gnoseomifogen konsepsiya	*uch manba – mifologiya, bilim va hayot donishmandligi negizida vujudga kelgani qayd etiladi.*

Mif nimaligi haqidagi faylasuf va etnologlarning bahslari

Italyan mutafakkiri Jovanni Battista Viko	Mifning o'ziga xos xususiyatlari sifatida uning hissiy darajada konkretligi, moddiyligi, emotsionalligini ajratgan.
Fransuz etnologi L.Levi-Bryul	Mifologik tafakkur har qanday mantiqni rad etuvchi, aiogik xususiyatga emas, balki dologik xususiyatga ega, degan fikrni ilgari surgan
Nemis idealist faylasufi E.Kassirer	Mifning o'ziga xos xususiyati unda «simvolik dunyo yaratilishi» bilan tavsiflanadi, deb hisoblagan.
Strukturaviy antropologiya asoschisi K.Levi-Stros	U mifni ongsiz mantiqiy amallar maydoni, ziddiyatlarni yechishning mantiqiy vositasi deb hisoblagan
Antik mifologiya mutaxassisi A.F.Losev	U mif hayot darajasida his qilinadigan va yaratiladigan moddiy reallikdir deb hisoblagan


Pifagor xulosalari
Donolar donosi sondir
Barcha va narsa hamda hodisalarni son boshqaradi
Hamma narsalar o'z mohiyatiga ko'ra sonlardir
Zenon aporiyalari
Dixotomiya
Axilles va toshbaqa
Yoy o'qi
Stadion
Pifagorchilar
Borliq darajalarining uyg'unligi to'g'risida so'z yuritadi va kvadratsiz tartibga solingan, simmetrik yaxlitlik deb hisoblashadi
Pifagorchilar
Matematika esoterika bilan ajabtovur tarzda birikadi esoterika zamirida esa matematika yotadi, deyishadi
Plyuralistlar
Dunyodagi jarayonlar ikki asosning kurashi bilan bog'liq. Bu asoslarning kelib chiqishi fizik emas, balki ruhiy xususiyatga ega
Eleatlar
Ksenofan, Parmenid, Zenon va Melliss borliqning substansional asosi hamda tafakkur va borliqning o'zaro nisbati to'g'risidagi masalalarni kun tartibiga qo'yadilar
Atomistik
Atom o'z-o'zi bilan ayniy, biroq shaklan har xil bo'lishi, tartib va holat bilan ajralib turishi mumkin. Bu atomlarning rang-barang birikmalari sababi hisoblanadi
Sofistlar
Ko'maklashadi, ilmiy dalillash bilan o'zaro nisbatga kirishish orqali u qarama-qarshiliklar birligini hosil qiladi va bilimning rivojlanish jarayonida voqeylikni ta'minlaydi


SOFISTLARNING IKKI MAKTABI
Katta sofistlar
Protagor, Gorgiy, Gippiy, Prodik, Antifont kuchsiz dalilni kuchaytirish mahoratini o'rgatishga alohida e'tibor qaratishgan.
Kichik sofistlar
Alxidam, Trasimax, Kritiy Kallika Xudolarning aniq mavjudligi haqidagi g'oyalarni inkor etishgan.
Sofistlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan muammolar
Tabiiy va ijtimoiy qonunlarni qarama - qarshi qo'yish
Me'yorlarni shakllantirish
Falsafiy mo'ljal sifatida mutlaq o'zgaruvchanlikni tan olish va hatto nisbiy barqarorlikni ham inkor etish
Dinni inkor etish
Mulohazalarda o'zaro aloqalarning haqiqiy xususiyatidan foydalanish

Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Falsafaning tarixan birinchi shakli qanday?

A. Naturfalsafa

B. Iroda

V. Patiziv

G. Antropologiya

2. Pifagor kosmosga qanday tarif bergan?

A. Tartibga solingan simetirik yaxlitlik

B. Soat mexanizmga o'xshagan osmon mashinasi

V. Sayyoraviy tizimning birligi

G. Osmon yoritqichlari harakatlarini boshqaruvchi tizim

3. Pifogorchilar ta'limotida ezoterika zamirida qaysi fan yotadi?

A. Astrologiya

B. Matematika

V. Fizika

G. Astrofizika

4. Zenon borliqning yagonaligini qaysi metod yordamida isbot qiladi?

A. Qarama-qarshilik

B. Induksiya

V. Deduksiya

G. Analogiya

5. Aporiyalar nima?

A. Yechish mushkul bo'lgan muammolari

B. Voqeylikning muhim strukturasi

V. Materiyaning tashkiliy struktura darajalarsi

G. Harakat shakllari

6. Plyuralistik yondashuv qaysi faylasuf nomlari bilan bog'liq?

A. Levkipp. Demokrit

B. Epikur. Lukresiy

V. Aristotel. Platon

G. Empedokl. Anaksagor

7. Empedokl ta'limotida dunyodagi jarayonlar ikki asosning kurashi bilan bog'liq. Bu asoslar qaysilar?

A. Filiya, Neykos

B. Laxet, Xarmid

V. Kratil, Ion

G. Nus , Ion

8. Anaksagor plyuralizmida moddaning barcha holatlari birlamchi hisoblanadi. Uning fikricha, bunday xolatlar "nomuayyan darajada" ko'p. Anaksagor ularni nima deb ataydi?

A. Gomometriya

B. Atomos

V. Urug'

G. Shakl

9.Aristotel plyuralizmida moddaning barcha holatlariga qanday nom berilgan?

A. Gomometriya

B. Atomos

V. Urug'

G. Shakl

10.Anaksagor ta'limotida xaos faol asos mavjud holdagina rivojlanib kosmosga aylanishi mumkin. Uningcha, nima faol asos hisoblanadi?

A. Jon

B. Muhabbat

V. Aql

G. Ruh

11. Antropomorfizm so'zining ma'nosi?

A. Yun. antropos – inson, morfe – shakl

B. Lt. antropos – inson, morfe – usul

V. Yun. antropos – inson, morfe – haqidagi

G. Lt. antropos – inson, morfe – ichki olami

12.Antropomorfizm atamasining o'zi dunyoni idrok etishning qanday usulini anglatadi?

A. Barcha javoblar to'g'ri

B. Tabiat hodisalarini

V. Osmon jismlarini
G. Hayvonlar va afsonaviy

13.«Mars» so'zining majoziy ma'nosi?
A. Urush
B. Muxabbat
V. Donishmandlik
G. Xudolar va odamlar otasi

14. «Venera» so'zining majoziy ma'nosi nima?
A. Muhabbat
B. Urush
V. Donishmandlik
G. Xudolar va odamlar otasi

15. «Minerva» va«Zevs» deganda qanday xudolar tushuniladi?
A. Donishmandlik, xudolar va odamlar otasi
B. Muhabbat va urush
V. Urush. Xudolar va odamlar otasi
G. Muhabbat va donishmandlik

16. Stixiyalar timsoli sanalgan xudolar bir-biriga qanday munosabatda bo'lgan?
A. Murakkab qarindoshlik
B. Er-xotinlik
V. Ierarxiyaviy
G. Barcha javoblar tg'ri

17. Gegel mifologiyaga qanday ta'rif bergan?
A. Xayolotga berilgan aql
B. Tafakkurdagi idrok
V. Tasavvurning obrazi
G. To'g'ri javob yo'q.

Adabiyotlar:

1. Чанышев А.Н. Начало философии. – М.: 1982.
2. Чанышев А.Н. Курс по древней философии. – М.: 1981.
3. Маковелский А.О. Досократики. – Казан, 1914–1919. Ч.1.
Мелетинский ЕМ. Мифология Мифы народов мира. Энциклопедия. Т.1. – М.: 1991.
4. Осадченко Ю.С., Дмитриева Л.В. Введение в философию мифа. – М.:1994.
5. Хюбнер К. Истина мифа. – М.: 1996.
6. Леви-Строс К.Структура мифов //Вопросы философии.1970.№ 7.
7. Ивоев В.М. Миф в системе культуры. – Петрозаводск: 1991.
8. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: 1991.
9. Секст Эмпирик. Соч: В 4 т. – М.: 1976. Т. 2. – С.252.
10. Философская энциклопедия. –М.: Современные тетради, 2001.
11. Qahharova Sh.B. Mif va mo'jiza orasidagi uzviy bog'liqlik.//Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Ma'naviyat, 2009.
12. Qahharova Sh.B. Mifologiyani tushunishda evolyutsion va traditsionalistik tamoyillar// global ma'naviyat globallashuvning g'oyaviy asosi. –T.: Tafakkur, 2009.
13. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. –T.: Noshir. 2018
14.Kalin U. Okkultizm. – M.: 1994.
15.Usmonov M. Mif va mifologizatsiya dialektikasi. Falsafa doktori PhD dissertatsiyasi. –T.: 2021 136 b.

3-MAVZU. DUNYOQARASHNING MOHIYATI VA UNING ASOSIY SHAKLLARI

Dunyoqarashning mohiyati

Dunyoga bo'lgan qarash, madaniyatda dunyoqarashning o'rnini aniqlab olish uchun "dunyo" va "dunyoning ko'rinishi" tushunchalarining mohiyatini bilish lozim.

"Dunyo" tushunchasi ongimizda, amaliyotda va hissiy jihatdan bilish mumkin bo'lgan keng atrof muhit hisoblanadi. Shu asosda biz o'zimiz yashayotgan "dunyo" haqida gapiramiz. Dunyo biz tahlil qiladigan madaniy jarayonlarning sabablarini farqlash imkonini berishi mumkin. Shu sababli biz "qadimgi davr" yoki "eskimoslar dunyosi" kabi tushunchalarni ishlatamiz. "Dunyo" nafaqat "yer", "kosmos", "kuzatilayotgan butun Olam" kabi jarayonlarda namoyon bo'lmasdan, balki, biz yashayotgan davrda, barcha narsalarda namoyon bo'ladi.

Dunyoqarash aql imkoniyatlari bilan tushunish mumkin bo'lgan, tajribamiz kuchi yetadigan ko'plab elementlarni qamrab olgan global olam manzarasini yaratish imkonidir. Jamiyat hamda jismoniy shaxslar doimo o'zlari hamda olamning mavjudligi, shakllanishiga bog'liq bo'lgan chuqur savollarni tahlil qilib kelishgan. Amaliy jihatdan olib qaraganda, biz shunga aminmizki, dunyoni o'rganishga doir bo'lgan tadqiqotlar har doim nazariy qiziqishlarning birinchi o'rnida turadi. U mavjudlikka nisbatan inson aqlining cheksiz imkoniyatini namoyon qiladi.

Dunyoqarash insonning to'plangan bilimlari, amaliy ko'nikmalari, vujudga kelgan qadriyatlar, o'zi va o'zini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlari majmuidir.

Keng ma'noda, *dunyoqarash insonning o'zini qurshagan borliq va o'z-o'ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.*

Shu tariqa ta'riflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo'lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog'liq. Bunda inson nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni ta'riflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan yangi bilim olish uchun foydalanadi. Insonning bunday faoliyatini, uning ijodiy faolligini tavsiflovchi aql odamzot va jamiyat

evolyutsiyasini jadallashtirishning qudratli omiliga aylanadi hamda pirovardda insonni hayvondan ajratish imkonini beruvchi asosiy belgi sifatida amal qiladi.

Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlagan, unda o'z «meni», o'zgalar haqidagi tasavvuri shakllanganadi va rivojlanadi. Shu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan dunyoning yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va o'zini qurshagan borliq haqidagi tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga ma'qul va noma'qul narsalarni farqlaydi, baho beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi.

Nemis ekzistensialist-faylasufi M. Xaydegger (1889–1976) fikriga ko'ra, «dunyoqarash» so'zi insonning dunyoga munosabati sifatida XVIII asr oxiridagina muomalaga kirib, unda o'rnashib qoldi[1].

«Dunyoqarash» so'zini dunyoni kuzatish, unga nazar tashlash sifatida talqin qilish oson bo'lgani uchun ham XIX asrdayoq dunyoqarashga oid yondashuv, eng avvalo, hayot pozitsiyasini anglatishini ta'kidlay boshlaganlar. «Dunyoqarash» so'zi inson va borliq o'rtasida mezonni biluvchi va me'yorni belgilovchi subyekt sifatida paydo bo'lishini nazarda tutadi. Ayni paytda, inson hayot jarayonida qatnashadi, o'zini u bilan ayniylashtiradi, uni idrok etadi. Shu tufayli ham dunyoqarashni *inson hayot faoliyatining tarixiy vaqt o'qidagi in'ikosi* sifatida ta'riflash o'rinli bo'ladi.

Dunyoqarashning quyidagi tarkibiy elementlarni ajratish mumkin. *Birinchidan, bu dunyo haqidagi konkret-tarixiy tasavvurlarni o'z ichiga oluvchi dunyoning barqaror manzarasi, ikkinchidan, ideallar tizimiga tayanuvchi hayotga munosabat, uchinchidan, qadriyatlar tizimiga qarab mo'ljal oluvchi asosiy g'oya, to'rtinchidan insonning aqliy qobiliyatini boshqalardan ajratuvchi intellektual, emotsional va ruhiy asos.* Ayni shu tarzda tushunilgan, voqelik, qadriyat va mazmundan iborat bo'lgan dunyo falsafiy dunyoqarashning mohiyatini tashkil qiladi.

Dunyoqarashning intellektual elementi «dunyoni tushunish»ni o'zida

[1] Хайдеггер М. Время и бытие. М., 1993. С.51.

mujassamlashtiradi. Dunyoni tushunish asosida shakllangan dunyo haqidagi tasavvur ancha barqarordir, chunki u dunyo haqidagi aniq bilimlar tizimi, qonunlar, nazariyalar, tamoyillar va me'yorlarni o'z ichiga oladi.

Dunyoqarashning emotsional elementi «dunyoni his qilish» va «dunyoni idrok etish» tushunchalari bilan ifodalanadi. Dunyoni his qilish, sezish sub'yekt (inson) va ob'yekt (dunyo)ni birlashtiruvchi eng birinchi omil hisoblanadi. U inson va dunyoning bevosita hissiy aloqasidan darak beradi. Dunyoni idrok etish voqealar va vaziyatlarni aniq obrazlar va tasavvurlar tarzida yaxlit aks ettirishni nazarda tutadi.

Dunyoqarashda intellektual, emotsional va ruhiy elementlar uzviy bog'liq bo'lib, ular har bir inson uchun muhtaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qiladi.

Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar ularga bilan uyg'unlikda e'tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning eng darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni vujudga keltiradi.

Dunyoqarashga sub'yektning yoshi, jismoniy va ruhiy holati, fe'l-atvori xususiyatlari, odat va e'tiqodlari, shuningdek, milliy madaniyat tipi, etnos xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo haqidagi tasavvurda ob'yektiv va sub'yektiv tomonlarni ajratish ham o'rinli bo'ladi. Dunyoqarashning shakllanishi natijasi o'laroq subyektning e'tiqodlari, qilmishlari va harakatlari majmui vujudga keladi. Dunyoqarashda inson va insoniyat o'z o'zligini namoyon etadi. Dunyoqarash inson xulq-atvori, uning barcha harakatlari va qilmishlari uchun asos sifatida amal qiladi. Dunyoqarashning mental mezoni sifatida ongni aks ettiruvchi ishonch va e'tiqod maydonga chiqadi. Dunyoqarash umumiy va shaxsiy ahamiyatga molik mo'ljal tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Dunyoqarash ko'p qavatli uyga o'xshaydi, uning turli qavatlaridan o'z ratsional-irratsional elementlariga ega bo'lgan hayotga oid, mifologik, diniy, badiiy, siyosiy, ilmiy qarashlar o'rin oladi. Dunyoqarashning shakllanishi ikki darajada amal qiladi.

Dunyoqarashning amaliy darajasi stixiyali tarzda shakllanadigan dunyoqarashdir (unga oddiy, kundalik dunyoqarash misol bo'lishi mumkin). Unda dunyoning manzarasi rolini hayot haqidagi tipik

tasavvurlar to'plami o'ynaydi. Bu to'plam kundalik hayotda, ayniqsa, ko'p uchraydigan vaziyatlar, mazkur muhitga xos bo'lgan ko'nikmalar, munosabatlar va odatlardan tarkib topadi. Bunday dunyoqarashga uning egasiga xos bo'lgan kasbiy mo'ljallar, ayniqsa, kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvor reaksiyalari tipining shakllanishida sub'yektning kasb-kori (amaldor, savdo xodimi, ofitser, uy bekasi, shifokor va h.k.) hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oddiy dunyoqarash egasi dunyoga munosabatning o'z muhitiga ayniqsa xos bo'lgan andozalarini umumlashtirib, ularni harakatlar va qarashlarning o'zgartirish oson bo'lmagan muayyan mezoniga aylantiradi. «Oddiy dunyoqarash» kategoriyasining sinonimlari sifatida «kundalik dunyoqarash», «amaliy dunyoqarash», «noilmiy dunyoqarash» tushunchalari amal qiladi.

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash nazariy dunyoqarash deb ataladi, insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi.

U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi, odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi.

Falsafa borliq va inson tafakkurining asosiy tamoyillarini ifodalash orqali dunyoni anglab yetish barcha shakllarining ma'naviy asosi sifatida maydonga chiqadi. Hozirgi zamon fundamental falsafasi dunyoqarashning eng oliy, nazariy darajasidir, desak, aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. *Nazariy dunyoqarash asrlar osha davom etgan individning ijtimoiylashuvi jarayoni mahsuli hisoblanadi.* Bunda individ o'zining voqelikka bo'lgan munosabatida jamiyatdan olinadigan ne'matlarni bevosita o'zlashtirishdan tarixiy bunyodkorlik va insoniy qadriyatlar mazmunini tushunishga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

Dunyoqarashning nazariy darajasini voqelikning bevosita in'ikosi sifatida tasavvur qilish to'g'ri bo'lmaydi. Uning tarkibiga ideallar va konseptual modellar kiradi. Aynan ideallarning mavjudligi dunyoqarashni oddiy in'ikos sifatida emas, balki ildam in'ikos sifatida, hali mavjud bo'lmagan hodisa – kelajakni shakllantiruvchi va belgilovchi ideal kuch sifatida tavsiflaydi.

Dunyoqarashni shakllantirish muammosining mohiyati shu bilan belgilanadiki, nazariy darajaning izchil rivojlanishi insonda

dunyoqarashning boshqa qatlamlarini, xususan mifologik dunyoqarash qoldiqlari yoki kundalik dunyoqarash unsurlarini bekor qilmaydi.

Shunday qilib, dunyoqarashning har bir darajasi inson hayot faoliyatida o'z vazifalarini hal qiladi. Ularning ahamiyati va o'ziga xosligi ham shunda. Tanqid faqat u yoki bu (diniy, oddiy, pragmatik yoki ssientistik) dunyoqarash universallikni asossiz ravishda da'vo qilgan holda o'rinli bo'ladi.

Dunyoqarashda bilish, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvorni belgilash funksiyalari mujassamlashadi.

Dunyoqarashning bilish funksiyasi insonda qiziqish uyg'otuvchi barcha savollarni, shuningdek, muayyan vaqt bilan topuvchi javoblarni o'z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq bo'lib boradi.

Dunyoqarashning qadriyatlarga munosabat funksiyasi insonning hayotni va o'zini oliy qadriyat deb hisoblagan holda shakllanadi. Zero, o'z qadrini bilmagan inson o'zgalar qadrini bilmaydi va hayotda o'z o'rnini topa olmaydi.

Dunyoqarashning xulq-atvorni belgilash funksiyasi insonda o'z-o'zini tarbiyalash, ma'naviy madaniyatini takomillashtirish, faqat o'zining ma'naviy dunyosiga munosib muhit tanlash malakalarini shakllantiradi.

Dunyo juda rang-barang bo'lib, muttasil o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi, qoniqarli javoblarga ega bo'lmagan savollar esa, uzil-kesil javob berish mumkin bo'lgan savollarga qaraganda, ko'proq. Shu bois, muammolarga nisbatan muayyan tarzda yondashadigan har bir odamning dunyoqarashi, savol va javoblari doim shaxsiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi, shu sababga ko'ra biro damning dunyoqarashi boshqa odamlarning dunyoqarashiga hech qachon o'xshamaydi.

Dunyoqarashning muhim elementi shubha bo'lib, u insonni dogmatizm, ya'ni biryoqlama, notanqidiy fikrlash, u yoki bu qoidani shak-shubhasiz haqiqat deb qabul qilishdan asraydi. Dogmatizmning qarama-karshisi skeptitsizm bo'lib, bunda shubha mutlaqlashadi. fikrlashning asosiy omiliga aylanadi, bilish va borliqni idrok etishning bosh tamoyili sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashning tuzilishi - dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

Dunyoni sezish – o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini subyektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojiaviy tiplari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilish. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi.

Dunyoni tushunish – inson va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqea va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyati.

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyati.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari

Turli davrlardagi ijtimoiy taraqqiyot bilishni yanada teranlashtirgan, inson dunyoqarashini kengaytirgan. Shunga mos ravishda oddiy (empirik) dunyoqarash ham boyib borgan, uning negizida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq yanada murakkab tuzilmalar asta-sekin shakllangan, bu pirovard natijada dunyoqarashning alohida tarixiy shakllarini farqlanishiga olib kelgan.

Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari mif va din, falsafa va fan bo'lib, bu hol insoniyat tadrijiy rivojlanishining umumiy mantiqi bilan mushtarak. Ko'nikmalar, tajriba va oddiy bilimlar to'planishiga qarab, nafaqat ularni avloddan - avlodga o'tkazish muammosi yuzaga kelgan, balki ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi ham murakkablashib borgan. Bu dunyoqarash rivojlanishning muayyan bosqichida, to'plangan

bilimlarning «yuqori bosqichiga» yetilgach, boshqa har qanday murakkab tizimda bo'lganidek, dunyoqarashda ham o'zini o'zi tashkil etish qonunlari amal qila boshlagan.

Masalan, muayyan hodisaning mohiyatini vaxshuroq tushunish uchun shaxsiy kutubxonada kitoblar to'plami bilan bog'liq misolga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Mazkur kutubxonada kitoblar bir nechta bo'lsa, ularni tizimga solish talab etilmaydi, ular qayerda turgani va ularning o'zaro munosabati qandayligi ham ahamiyat kasb etmaydi. Kutubxona hajmi o'nlab kitoblar bilan o'lchangan taqdirda esa, ulardan foydalanishga qulaylik yaratish uchun kitoblarni muayyan tarzda joylashtirish, tizimga solish talab etiladi. Kitoblar soni qancha ko'p bo'lsa, ular bilan ishlash oson va qulay bo'lishi uchun ularni tasniflash, tartibga solish, rukniarga ajratish tizimi shuncha murakkab bo'ladi.

Ibtidoiy odamlarning ancha rivojlangan dunyoqarashida o'zini - o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq ayni shunday tartiblilik, dastavval, mif hamda dinning ilk shakllari ko'rinishida vujudga keldi.

Oddiy dunyoqarash mif bilan, bir tomondan, o'ta g'ayritabiiy uydirma haqidagi tasavvurni, boshqa tomondan esa, majoziy tarzda bayon etilgan saboq bo'ladigan g'ayrioddiy voqeani bog'laydi.

Falsafada borliq idrok etilsa, mifologiyada u tasavvur qilinadi. Gegel ta'biri bilan aytganda, mifologiya zamirida sayolotga berilgan aql yotadi. Bunda u foydalanadigan obraz va tasavvurlar tushunchalarning lavhalari, xolos. Shu tufayli ham mif tafakkurning boshlang'ich shakli sifatida qaralishi mumkin. Ayni holda tafakkur o'zini aniq ifodalay olmaydi obyektiv oqilona mazmunni oqilona shaklda ifodalay olmagani uchun ham xayolotga beriladi, o'z xayoliy konstruksiyalarini yaratishda yordamchi vositalar – obraz va tasavvurlardan foydalanadi.

Mifologiyada aql va tasavvur ajralmaydir. Tushunchasiz intellektni emotsional stixiyalar o'z tskanjasiga oladi. Ayni shu sababli dunyoning mifologik manzarasida ilgari surilgan fikrlarni empirik yo'l bilan tekshirib bo'lmaydi, tabiat haqidagi tasavvur esa tirik mavjudot haqidagi tasavvurni eslatadi[1].

Mif rad etilishi va o'zgartirilishi, qayta tuzilishi mumkin emas. U bizgacha yashagan ko'plab avlodlar tomonidan qabul qilingan, shunga

[1] Гегель Г. В. Ф. Лекции по ... М., 1987. С. 90.

muvofiq oliy borliq sifatida e'tirof etiladi va baholanadi. Ba'zan mifologiyani protofalsafa deb, metafizikani esa ikkinchi mifologiya deb ataydilar. Aristotel miflarni ardoqlovchi yoki ularni to'qib chiqaruvchi odam ma'lum darajada faylasufdir, chunki donishmandlik sabablarni bilishdan iborat, miflar esa yuz berayotgan hodisalarning sabablarini o'ziga xos tarzda bo'lsa ham tushuntiradi, deb qayd etgan. Neoplatonchilar miflar zamirida haqiqat yashirin va ular haqiqatni o'rgatadi, deb hisoblagan. Ular qadimgi yunon falsafasi miflarining allegorik talqinini rivojlantirganlar. Zevsda hamma bo'ysunadigan umumiy birinchi asosni, Afinada dunyoning oqilona tuzilishiga xos bo'lgan donishmandlikni, Gomer xudolarining to'qnashuvlarida olov, suv va boshqa tabiiy kuchlar stixiyalarining kurashini, Zevs va Gera o'rtasidagi kelishmovchilikda – issiq va sovuqning kurashini ko'rganlar. (mifologik dunyoqarash haqida yuqorida keng qamrovli fikr yuritilgan).

Din dunyoqarashning tarixan ikkinchi shaklidir. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) Mif kabi din zamirida ham e'tiqod, tuyg'u va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqlli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta'sirida insonning mavhum fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan.

Diniy dunyoqarash mifologik manzaradan, asosan, dunyoni oliy mavjudot, hech kim buzishga qodir bo'lmagan mutlaq hokimiyatga ega, bosh harf bilan yoziladigan Xudo boshqaradi, degan tasavvur bilan farq qiladi. Xudo boqiy va shak-shubhasiz, u hamma narsa – makon va vaqt, materiya, barcha tirik jonzotlarni yaratgan. Xudo barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan va hamma narsaga qodir. U dunyoni yaxshi ishlar uchun yaratgan. U dunyoga erkinlik ham bergan, yaxshilikka har kim zo'rlik ostida emas, balki o'z ixtiyoriga ko'ra kelishiga imkoniyat yaratgan. Ammo erkinlik xatolarga, yomonlikka olib kelishi ham mumkin. Bunda yomonlikning yuz berish ehtimoli erkinlik uchun to'lanadigan haq sifatida qaraladi. Shu sababli Xudo erkinlikka erishish yo'lida yomonlikka ham izn beradi.

Diniy dunyoqarashga ko'ra Xudo materiyani, son-sanoqsiz jonsiz

moddalar, tirik mavjudotlarni yaratadi. Inson dunyoning markazida turadi. Insondan tubanroq mavjudotlar -hayvonlar, o'simliklar bor, ayni vaqtda, insondan yuksakroq mavjudotlar tarishtalar ham bor. Biroq barcha mavjudotlar orasida Xudoning tabiatini eng to'liq aks ettiradigan jonzot insondir. Vaqti kelib odamzot dunyoda yaratilgan barcha mavjudotlardan yuksakroqqa ko'tarilishi mumkin. Dunyoda mavjud barcha qonunlar pirovard natijada Xudo xohish-irodasining ifodasidir. Yomonlik – mazkur xohish-irodani buzish, ayni vaqtda uni bajarish, chunki hech kim va hech narsa Xudoning xohish-irodasiga qarshi borishi mumkin emas.

Diniy dunyoqarashga ko'ra Dunyoda oliy qonun – muhabbat qonuni mavjud. Dunyoda hamma narsani muhabbat harakatga keltiradi, hatto nafrat zamirida ham muhabbatga tashnalik yotadi.

Diniy dunyoqarashda dunyoning maqsad va mazmuni – hammaning hammaga nisbatan umumiy muhabbatiga erishish, biroq bunga yo'l erkinlik hamda yomonlik imkoniyati orqali o'tadi. Xudo muhabbat va yaxshilikka majburlov yo'li bilan erishishni xohlamaydi. U Ilohiy muhabbatni hayotning birdan-bir to'g'ri qonuni sifatida o'zi anglab yetishi uchun dunyoga erkinlik bergan. Dunyo buni anglab yetgunga qadar maqsaddan ko'p sonli chetga chiqishlar yuz berishi mumkin. Inson hayotining mazmuni – Xudoning xohish-irodasini erkin qabul qilish, o'zidagi muhabbat bilan mushtarak bo'lmagan ko'r-ko'rona erkinlikni yengish, erkinlik bilan Xudoning muhabbatini o'zida birlashtirish.

Diniy dunyoqarash odamlarning diniy tajribasini umumlashtirish va sintez qilish natijasida yuzaga keladigan tabiatning umumiy xossalari hamda qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Diniy dunyoqarash o'zicha borliq va mavjudlikni, ya'ni yaratilgani tufayli borliqqa ega bo'lgan dunyoni farqlashdan kelib chiqadi. Bu farq mazkur yondashuvni tushunish uchun muhim. Gap shundaki, borliqning diniy konsepsiyasi ikki yoqlama, ya'ni dual xususiyatga ega, chunki u Xudo bilan ayniy bo'lgan mutlaq, g'ayritabiiy borliqni borliqqa ega bo'lgan tabiiy narsalarning rang-barang dunyosiga qarshi qo'yadi. Mohiyat e'tibori bilan bu manzara bir-biridan mutlaqo farq qiladigan ikki ontologiya: yaratilmagan borliq ontologiyasi va yaratilgan borliq ontologiyasini nazarda tutadi. Mutlaq borliqni oqilona yo'l bilan

tushunish mumkin emas.

Dunyoni o'ziga xos jarayon sifatida idrok etuvchi odam aqlning imkoniyatlari dunyoning alohida diniy manzarasidan kelib chiqib, uni uch jahon dini: *buddizm, xristianlik va islomga tatbiqan ko'rib chiqamiz.*

Buddaviylik dini dunyoqarashi shakllanishiga borliqning cheksiz aylanma oqimi g'oyasi kuchli ta'sir ko'rsatdi. Buddizm mutafakkirlari bu jarayon o'limdan o'limga, qiynoqdan qiynoqqa, sinovdan sinovga solinuvchi inson uchun cheksiz darajada uqubatli deb hisoblaganlar.

Hayotning azob-uqubatlarga to'laligi haqidagi fikrdan qattiq ta'sirlangan Budda o'zgarish konsepsiyasini ta'riflaydi. Hayot vujudga kelish, shakllanish va yo'q bo'lishlardan iborat. Dunyo o'lish va tug'ilishlarning muttasil yangilanuvchi aylanma harakatidir. Hamma narsalar o'zgaradi. Ilohiy narsalar orasida ham, dunyoviy narsalar orasida ham o'zgarmas narsa mavjud emasligiga Budda tarafdorlarining ishonchi komil. Budda uchun olov shakllanish, boshsiz va adoqsiz shakllanishning cheksiz oqimi ramzidir. Dunyo – yuz beruvchi va yo'qoluvchi o'tkinchi, karma bilan bog'langan voqealar oqimi. Faqat harakat mavjud; arboblar mavjud emas, qilmish mavjud; shakllanishdan boshqa hech narsa mavjud emas.

O'zgarmas substrat mavjud bo'lmagan holda dunyoning uzluksiz mavjudligini tushuntirish uchun Budda sababiyat qonunini e'lon qiladi va uni uzluksizlikning asosiga aylantiradi. Mavjud hamma narsalar sabablar va shartlardan yuzaga keladi, barcha jihatlardan o'zgarmas hisoblanadi. Sababli narsalarning hammasi halok bo'lishi lozim. Dunyoga keluvchi va uyushuvchi narsalarning barchasida yo'q bo'lish tug'ma zarurati mujassam. Har qanday substansiya cheklangan bo'lib, uning mavjudligi o'zgarishlarning o'zgarmas ketma-ketligidan iborat. Bu o'zgarishlarning har biri oldingi shartlar bilan belgilanadi. O'tgan lahzalar oqimga tortiladi. Sababiy evolyutsiyaga harakatlarning mexanik ketma-ketligi sifatida qaralishi mumkin emas. Bu o'tmish hozirni belgilovchi yagona holatdir.

Buddizm sababiyatga – o'tmish hozirning taqdirini belgilashiga qattiq ishonadi. Hatto ruhsiz olamning oddiy mexanizmida ham u boqiy koinot qonunini ko'radi. Bu rejasiz ulkan labirintdir. Koinot tartibining g'ildiragi yaratuvchisiz, ma'lum asossiz harakatlanadi, sabab va

hozirda beriladi. Ilohiy niyatda barcha g'oyalar mutlaqo mushtarakdir. Yaratiluvchi narsalar uchun g'oyalar ularni yaratish andozalari, ularning borlig'i asos va sabablari sifatida amal qiladi.

Yaratilgan olam tartibi uni yaratgan hikmatning tartibini aks ettiradi: narsalar tartibi g'oyalar tartibining in'ikosidir. Tartib tufayli dunyo o'z o'rinlari bo'ylab taqsimlangan, har xil nisbiy qimmatga ega bo'lgan mavjudotlarning tartibga solingan ierarxiyasiga aylanadi. Yaratilgan narsa Xudoga qancha yaqin bo'lsa, u shuncha ko'proq qimmat kasb etadi. «Zero qandaydir tarzda mavjud bo'lgan, biroq uni yaratgan Xudo uchun bo'lmagan narsalar qatorida jonli jonsizdan yuqoriroq. Tirik mavjudotlar orasida esa sezuvchilar sezmaydiganlardan ustun turadi, xuddi, masalan, hayvonlar o'simliklardan ustun turganidek. Sezuvchilar orasida esa aqllilar aqlsizlardan ustun turadi, xuddi odamlar tabiat tartibiga ko'ra boshqa jonzotlardan ustun turganidek», deb yozadi Avgustin[1].

Shunday qilib, ilohiy tartib dunyosi xristianlikda Xudo yaratgan jonzotlarning yuksalib boruvchi zinapoyasidan iborat.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kreatsionizm xristian ilohiyotchilarini dunyoda tartib, uyg'unlik va go'zallikni ko'rishga da'vat etgan. Biroq insonga dunyoda ko'p narsalar aqlga nomuvofiq bo'lib ko'rinadi. Dunyoda tartibsizlik va yomonlikning mavjudligi uchun Xudoni qanday oqlash mumkin? Bu muammo sof nazariy xususiyat kasb etmagan. Taqvodor xristianlar dunyoviy va ilohiy dunyo o'rtasida tubsiz jarlikni his etganlar. Shu bois Xudoni oqlash masalalariga xristianlik ko'p e'tibor beradi. U Xudoni oqlashning ikki yo'lini taklif qiladi. Birinchi yo'l — metafizik teoditseya. Garchi dunyoni barkamol Yaratuvchi yaratgan bo'lsa-da, u insonni erkin qilib yaratgan; yomonlik jonzotning shu erkinligidan kelib chiqadi. Yomonlik va nuqson Xudodan emas, balki jonzotdandir. Ikkinchi yo'l — estetik teoditseya dunyo va insonni, dunyoning barkamolligi va inson idrokining nomukammalligini qaramaqarshi qo'yishga asoslanadi. Ilohiyotchi olimlar fikriga ko'ra, inson dunyoda yaxlitlikni qamrab olishga qodir emasligi tufayli tartibsizlik va yomonlikni ko'radi. Rang-barang bo'yoqlarga boy suratning bir qismiga nazar tashlab, uning go'zalligi va ma'nosi haqida hukm chiqarish mumkin bo'lmaganidek, ayrim voqea va tasodiflarga baho berib dunyoni tushunish

[1] История философии. Энциклопедия. Минск: Книжный дом, 2002. – С.55.

mumkin emas. Hatto yomonlik bo'lib tuyulgan narsa ham amalda umumiy tartibga, ya'ni insonning foydasiga xizmat qiladi.

Estetik teoditseya tabiiy tartib g'oyasiga olib keladi. Eng o'ziga xos va g'ayrioddiy voqealar tizim nuqtai nazaridan tabiiy xususiyat kasb etadi. Xudo yaratgan narsalarning birortasi ham tabiatga zid emas, chunki uning uchun tabiat U yaratgan narsadir. Faqat mavjudligini hamma oddiy va tabiiy deb e'tirof etuvchi dunyo va insonning yaratilishini chin mo'jiza deb hisoblash mumkin.

Xristiancha diniy dunyoqarash tabiatda yuz beruvchi barcha narsalarning tabiiyligi ilohiy g'oyalarning azaliy muvofiqligi bilan izohlanadi. Yaratilgan tabiat o'z qonunlarini Xudodan oladi. Shu ma'noda tabiat qonunlarining buzilishi ilohiy hukmning buzilishini anglatadi.

Xudo dunyoni uzluksiz boshqaradi, degan qoida xristiancha diniy dunyoqarashning universal tamoyili hisoblanadi. Kosmologiyaga nisbatan tatbiq etilgan holda bu tamoyil dunyoning uyg'unligi va unda yuz berayotgan voqealarning anglab yetilganligi g'oyasiga olib keladi.

Inson hayoti iloh bilan muvofiqlikdagina, insoniyat tarixi esa ilohiy panoh belgisi ostidagina ma'no kasb etadi. Shu tariqa monoteizm (yakkaxudolik)ning ko'rinishi islom paydo bo'ldi.

Islom dini dunyoqarashida islom dini madaniy-tarixiy rivojlanishi jarayonida avvalgi «dialektik» asoslarga qaytib, aristotelizmga ham, so'fizmga ham erishadi. Islom dinining o'ziga xosligi to'g'risida so'z yuritishdan oldin uni xristianlik bilan bog'lovchi jihatlarga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Islom ko'p jihatdan xristian dinining monoteizm yoki yakkaxudolik g'oyasi arablar ongida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan.

Islom dini dunyoqarashida yagona transsendent Xudo - Allohga e'tiqod qilinadi. Alloh dunyo va insonni yaratgan, odamlarga vahiy yuborgan, dunyoni tasarruf etgan, unga qiyomat sari yo'l ko'rsatgan. Qiyomatda tiriklar ham, tirilganlar ham o'z qilmishlari uchun javob beradi.

Islom va xristianlik o'rtasidagi farq mazkur din asoschilarining so'zlari va qilmishlaridagi farqlarda namoyon bo'ladi. Xristianlik asoschisi muvaffaqiyatga erishmadi va «bandaga xos o'lim» bilan halok bo'ldi. Bu o'lim uning asosiy qilmishi hisoblanadi. Bu yerda aniq, tashqi

muvaffaqiyat qancha kam bo'lsa, din asoschisi qilmishi o'lim ustidan g'alaba, insoniyat gunohlarini yuvish, o'ziga e'tiqod qiluvchilarga boqiy hayot hadya etishning miqyosi shuncha keng bo'lishi lozim. *Din asoschisi shaxsining miqyosi ham o'z shogirdlari ongida kengayib boradi. Bunday qilmishni odam sodir etgan emas.* Xudo

Muhammad payg'ambar obrazi va uning qilmishlari Iso Masih va uning qilmishlaridan ancha farq qiladi.

Muhammad payg'ambar o'ladi. Alloh taolo gapiradi. Biroq ayni vaqtda u oddiy hayot kechirgan «normal odam». Muhammad payg'ambar erishgan muvaffaqiyat uning aytganlari Alloh so'zlari ekanligi, Allohning o'zi unga vahiy ko'rsatganligining dalilidir. Muhammad payg'ambarning nutqi Iso Masih nutqidan farq qiladi, ya'ni U faqat «vahiy»ni ifodalovchi, gavdalangan Xudo emas, balki «Xudoning vositasi», payg'ambardir.

Asoschilar shaxsi, hayotining har xilligi, ularning vazifasi har xil anglanishi ular yaratgan dinlardagi farqlarning asosiy elementlaridir.

Din asoschilarining Xudo bilan munosabatlari va ularning vazifasi har xil anglanishi Xudo haqidagi tasavvurdagi farqlarni ham belgilaydi. Xristianlikda ham, islomda ham Xudo bir va yagonadir. Biroq xristianlikning monoteizmi chorcho'pga mixlangan odam Xudo ekanligiga ishonch bilan uyg'unlashadi, bu Muqaddas uchlik (troitsa) haqidagi ta'limotda o'z aksini topadi. Bu yerda monoteizmda, Xudo va uning banda bilan munosabatlarida inson aqli anglay olmaydigan, unga zid bo'lgan va faqat e'tiqod predmetini tashkil etishi mumkin bo'lgan jumboq namoyon bo'ladi. *Islom monoteizmi xristianlikdagi jumboqlardan xoli bo'lgan «sof» yakkaxudolik. Qur'oni karimda Allohning yagonaligi aniq qayd etilgan. Allohga teng jonzotlarning mavjudligini tan olish islomga qarshi eng katta jinoyatdir.*

Xudo haqidagi har xil tasavvurlar insonga nisbatan turli qarashlar bilan uzviy bog'liq. *Xristianlikda insonni «Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan», biroq Odam atoning dastlabki gunohi inson tabiatini «buzgan», natijada Xudo uni yuvish uchun qurbonlik keltirishga majbur bo'lgan.*

Islomda *Xudo insonni o'ziga o'xshatib yaratgan deb hisoblamaydi, biroq u odamni «buzuq» deb ham bilmaydi. Inson «buzuq» emas, balki zaifdir.* Shu sababli u gunohlar uchun tavba qilishga emas, balki

Xudoning yordami va yo'lboshchiligiga muhtojdir. Alloh Qur'oni karim orqali unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Inson haqidagi tasavvurlarning har xil tizimlari axloqiy qadriyatlarning ham turli - tumanligini nazarda tutadi.

Xristianlikda e'tiqod insonga qattiq mehr qo'yib, uning uchun chorcho'pda azob-uqubatlarga dosh bergan Xudoga muhabbat bilan uzviy bog'liq.

Islom ham e'tiqodni nazarda tutadi, biroq bu boshqacha e'tiqod. «Islom» so'zining o'zi bo'ysunish, itoat etish degan ma'noni anglatadi. Biroq bu oddiy bo'ysunish, itoat etish emas, balki o'zini Alloh irodasiga topshirishdir. Bu o'rinda e'tiqod chorcho'pga mixlangan Xudo jumbog'iga ishonish emas, balki Allohning payg'ambar orqali Qur'oni Karimda berilgan ko'rsatmalariga bo'ysunishdir. Bu ko'rsatmalar odamlar uchun aniq va tushunarli. Ular oz sonli va og'ir bo'lmagan (shu sababli qat'iy bajarilishi lozim bo'lgan) ibodat qoidalari va nikoh, ajrashish, meros, jinoyat uchun jazo masalalariga doir huquqiy me'yorlarga tegishlidir. Diniy talablarning soddaligi islomning ilohiy belgilanganlik haqidagi fundamental g'oyasidan kelib chiqadi. Alloh o'z rejalariga muvofiq ish ko'radi va hamma narsani, hatto eng ahamiyatsiz voqealarni ham belgilaydi. Ilohiy qismatning muqarrarligi, insonning biron-bir amali o'z-o'zidan yuz bermasligi quyidagi misol bilan ko'rsatiladi. *Inson qalam bilan yozayotgan ekan, bu aslo uning amali emas, zero, amalda Alloh bir vaqtning o'zida to'rt amal: 1) qalam bilan yozish istagi; 2) qalam bilan yozish qobiliyati; 3) qo'l harakati; 4) qalam harakatini yaratadi. Bu amallar bir-biri bilan bog'liq emas va ularning har biri zamirida Allohning cheksiz irodasi yotadi.*

Islom dinining xususiyati dunyoning diniy modeli musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidan mustahkam o'rin olishini nazarda tutadi. Bu tizim xristianlik tizimidan mustahkamroq. U yangi, nodiniy sivilizatsiyaga o'tish uchun zamin yaratmagani ayni shu holat bilan izohlanadi.

Umumiy holda diniy dunyoqarash odamlarning g'ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo'lgan e'tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o'ziga xos harakatlaridir.

Agar mifologiyada an'anaga, rivoyat qiluvchining, ya'ni

oqsoqolning idrok'ega e'tiqod kuchli bo'lsa, dinda g'ayritabiiy narsalarga e'tiqod birinchi o'rinda turadi, odat kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar idrok'i va ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Xullas, din murakkab ma'naviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, unda e'tiqod muqarrar tarzda birinchi o'ringa qo'yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

Dinning asosiy funksiyalari

dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi butun borliq qachon va nima uchun paydo bo'lgan va bunda g'ayritabiiy kuchning roli qanday namoyon bo'lgan, degan savollarga javob beradi.

kommunikativ funksiyasi muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan tipini ta'minlaydi, jamiyatning ajralishuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi.

tartibga solish funksiyasi odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli me'yor va qoidalarni belgilaydi;

kompensatorlik funksiyasi yetishmayotgan axborot, diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik o'rnini to'ldiradi, hayot ma'nosi, istiqbollar va shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, va'zu insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'rnini to'ldiradi.

Dinning asosiy ildizlari: Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo'lib, u insonning g'ayritabiiy narsa va hodisalarga bo'lgan e'tiqodini to'yintiruvchi chuqur ildizlarga ega.

Dinning psixologik ildizi, avvalo, inson tabiatida mavjud bo'lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat'iy nazar, nafaqat tushunish, anglash, balki e'tiqod qilish istagi, hattoki, ehtiyojining hamisha namoyon bo'lishidir.

Dinning gnoseologik ildizlari oqilona bilim nuqtai nazaridan dunyo o'z rang-barangligida insonga cheksiz murakkab bo'lib tuyulishida namoyon bo'ladi. Forobiy fikricha, "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, ta'limi, tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt - saodat uchun yetarli bilim olishi mumkin".[1] Odamzot o'zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab yetadi. Ayni shu sababli olam inson uchun sir va mo'jizalarga to'la. Odamzot o'zi e'tiqod

1) Farobi. Fozil odamlar shahri. T. Sharq 1993. 67-bet.

qiladigan ko'p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo'lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sir va mo'jizalarga javob topishga ham (balki hozircha) qodir emas. Psixologlar qayd etganidek, «o'ta mushkul vazifa aqlni o'tmaslashtiradi», inson yechimsiz muammolar qarshisida o'zini ojiz his qiladi, aql dalillarini uydirma, g'ayritabiiy narsalar bilan osongina to'ldiradi.

Dinning ijtimoiy ildizlari jamiyatda doimo mavjud bo'lgan tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlikni, odamlar qancha urinmasin o'zgartira yoki yenga olmaganligi bilan bog'liq. Adolatsizlik va foniy dunyoning nomukammalligi tuyg'usi chorasizlik va umidsizlikni yuzaga keltiradi, so'nggi zikr etilgan tuyg'ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo'lgan ishonchga aylanadi. Vaholanki, har qanday din haqiqiy hayot u dunyodadir, deb o'rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o'ziga tayanch topa olmagan inson g'ayritabiiy kuchlarga umid bog'lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e'tiqod qilib, odamzot taskin, tasalli topadi va oxir-oqibatda taqdirga tan beradi.

Dinning siyosiy ildizlari turli siyosiy kuchlarning dindan o'z mayda-chuyda manfaatlarida foydalanish imkoniyati va shu tariqa uni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashi orqali uning jamiyatdagi roli va ta'sirini kuchaytirishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda din va siyosat o'rtasida ham uzviy va doimiy aloqa mavjud.

Dinning yashovchanligi shu darajada mustahkamki, hatto hozirgi zamon fanining muhim yutuqlari ham uning negiziga putur yetkaza olgani yo'q, ilmiy bilimning o'sishi esa olimlar orasida ham dindorlar va Xudoga ishonmaydiganlarning foiz nisbatini deyarli o'zgartirmaydi. Masalan, tabiatshunoslik insoniyatga dunyoni bilish borasida cheksiz imkoniyatlar yaratayotgani keng e'tirof etilgan 1916-yilda Jeyms Lyuba o'z tadqiqotlarida AQSh olimlarining 40% Xudoga ishonishini asoslagan. 90-yillarning oxirida amerikalik tarixchilar Larson E. va Uitxemlar I. tomonidan o'tkazilgan yangi tadqiqotlarda XX asrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar va fan yutuqlari ta'sirida olimlar dunyoqarashi qay darajada o'zgarganini aniqlashga qaror qildilar. Shu bois ularning AQShda tasodifiy tanlangan ijtimoiy fanlar namoyandalari va tabiatshunoslik vakillari orasida o'tkazgan so'rovi olimlarning 40%

avvalgidek Xudoga va narigi dunyoda hayot mavjudligiga ishonishini ko'rsatdi. Bunda Xudoga ishonmaydiganlar va ateistlar (Xudoning borligini inkor etuvchilar) soni ham deyarli o'zgargan emas, bugungi kunda, avvalgidek, taxminan 48% va 15% ni tashkil etadi.

Davr, mamlakat va qit'alardan qat'i nazar, diniy dunyoqarashning yashovchanligi haqidagi umumiy xulosa O'zbekistonda ham mavjud. XX asrda qariyb 80 yil dinni «fosh qilish» uchun mavjud barcha dalillardan foydalangan kurashchan ateizm sharoitida yashagan O'zbekistonliklar orasida mamlakat aholisining uchdan ikki qismi o'zini dindor deb hisoblagan.

Dinni e'tiqodlarning tarixiy shakllari. Insoniyat tarixida ko'p sonli turli-tuman dinlar ma'lum. Xususan, madaniyat va bilimlar darajasi juda past bo'lgan inson o'ziga qudratli, yot va sirli bo'lib tuyulgan tabiatning favqulodda kuchlariga qarshilik ko'rsata olmagan ibtidoiy jamoa davrida dinning ancha sodda shakllari: fetishizm, animizm, totemizm, magiya va boshqalar yuzaga kelgan.

Fetishizm muayyan predmetni mo'jizakor xislatlarga, odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Bunday predmet ilohiylashtiriladi, sig'inish va topinish obyektiga aylanadi.

Animizm (lot. anima – jon) nafaqat odamlar, balki hayvonlar, predmetlar va borliq hodisalarini ham ruh, ham jon boshqarib turishiga ishonishdir. Animizm nuqtai nazaridan butun dunyo ruhli va jonli.

Totemizm negizini muayyan odamlar guruhining totem, ya'ni sig'inish obyekti sanalgan ajdod deb e'lon qilinadigan muayyan hayvon, o'simlik, predmet bilan umumiy kelib chiqishiga bo'lgan ishonch tashkil etadi. Zero totem mazkur jamoa yoki urug'ning qudratli homiysi, himoyachisi hisoblanadi, uni oziq-ovqat va shu kabilar bilan ta'minlaydi. (Hindistonda Xonumon maymuni, sigir, Avstriyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu ilohiy predmet.)

Magiya (yunon. mageia – sehrgarlik) ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lib, tabiatning okkult kuchlarini va Koinot qonunlarini ularni buzmasdan, binobarin, tabiatga zo'rlik qilmasdan teran bilishdir. Y.Blavatskaya qayd etishicha, «magiya» so'zi tabiat haqidagi oliy bilim va uni o'rganishni, uning yashirin kuchlarini, har bir elementning negizini belgilovchi sirli, okkult qonunlarni teran tushunishni anglatadi. Bu so'z

qadimgi Oliy kohinlar unvonidan kelib chiqqan bo'lib, ularni Maxa, Maglar yoki Maginslar deb, zarosizm izdoshlarini esa Magistrlar («Meh ah» o'zagidan - «buyuk, biluvchi, dono») deb atashgan. Magiya deganda qadimda «yorug'likka sig'inish» sifatida mashhur bo'lgan ibodatxonadan tashqarida sig'inishni yoki jaholat va riyoning ziddi sifatidagi ilohiy ma'naviy donishmandlikni tushunganlar. Magiya va afsungarlik oddiy odamning kundalik hayotdagi ongi va tafakkuridan yuksakroq darajadagi ong osti sohasiga bog'liq bo'lib, ruhiyatning botiniy qismi bilan ish ko'rgan. Magiyani insonning yashirin qobiliyatlaridan foydalanish haqidagi fan yoki ta'limot deb nomlash mumkin. U ko'p jihatdan intuitsiyaga asoslanadi. Zero, intuitsiya insonning ko'rish yoki eshitish qobiliyatidan ko'proq darajada informativ xususiyatga ega. *Energiya oqimlarining qutbliligi tufayli magiyada ikki mo'ljal – oq va qora magiya haqida gapirish odat tusini olgan.* Qadimgi afsonalarga ko'ra, inson gunoh qilganidan so'ng dunyoviy jism kasb etganidek, maxfiy bilimlarni o'z ichiga olgan ilohiy fanlar ham ularning transsendental mohiyatini ko'zdan yashiruvchi qattiq qobiqqa o'raldi. Shu tariqa alximiya kimyoga, astrologiya astronomiyaga aylandi.

Dinning ushbu qadimgi shakllari keyingi diniy e'tiqodlar negizini tashkil etdi va *politeizm (ko'pxudolik)da ham, monoteizm* (yakkaxudolik)da ham muayyan darajada o'z aksini topdi. Ular hozirda ham qisman mustaqil holda mavjud.

Taxminan 10 ming yil muqaddam, inson chorvachilik va ziroatchilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirishga o'tgach, neoletik inqilob yuz berdi. Jamiyat rivojlanishining ayni shu bosqichida politeizm yuzaga keldi, chunki mehnatning ijtimoiy taqsimoti, hukmronlikka bo'ysunish ruh va sanamlarga bo'lgan ishonchga emas, balki xudolarga bo'lgan e'tiqodga ko'proq mos kela boshladi.

Keyingi davrlarda davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi, qadimgi buyuk madaniyatlarning paydo bo'lishi, quldorlik munosabatlarining shakllanishi, monarxiyalar tashkil topishi va shundan kelib chiqadigan yakkaboshchilikning yuzaga kelishi natijasida diniy dunyoqarashda ham bir xudoga sig'inish tendensiyasi paydo bo'ldi. Odamlar ko'p sonli xudolar orasida kuch-qudratda yagona bir xudoni farqlab, shu tariqa dunyoviy podsho hukm suruvchi real hayot haqidagi

o'z tasavvurlarini yagona va qudratli xudo yashaydigan narigi dunyo bilan qo'yoki muvofiq holatga keltirdilar.

Shu tariqa monoteistik dinlar (yunon mono – bir va theos – xudo) – mil. av. VII asr, buddizm – mil. av. VI-V asrlar, xristianlik – I asr va islom (VII asr) vujudga kelib. Xullas, har bir din ma'lum falsafaga asoslanadi. Haq dinning asosi to'g'ri (analitik) falsafadir, haq bo'lmagan dinning asosi esa yolg'on falsafadir yoki yolg'on muhokamalar ustiga qurilgan qarashlardir[1].

Falsafa dunyoqarash insonning mavhum nazariy fikrlash qobiliyati va to'plangan bilimlar ko'rinishidagi real asoslarga ega bo'lishi natijasida o'z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko'tarildi. Chunki miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib asosan mif va din ta'sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashgan. Bunga, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi ham imkoniyat yaratgan. Bularning barchasi muayyan shaxslar doirasiga intellektual faoliyat bilan professional darajada shug'ullanish imkonini bergan.

Shunday qilib, taxminan 2500 ming yil muqaddam dunyoqarashning uchinchi shakli – falsafa payqo bo'lishi uchun zarur shart-sharoit Yevropa va Osiyoda deyarli bir vaqtda yuzaga keldi. *Dunyoqarashning avvalgi shakllari – mif va dindan farqli o'laroq, falsafa dunyoni e'tiqod va tuyg'ularga tayanib emas, balki aql va bilimlarga tayangan holda tushuntiradi.*

Falsafa Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda avvalo dunyoni oqilona anglash usuli sifatida vujudga keldi. Bu vaqtga kelib mif va din o'zlarining tayyor, uzil-kesil javoblari bilan insonning bilimga nisbatan tinimsiz kuchayib borayotgan qiziqishini qondira olmadi. Shuningdek, ular sezilarli darajada o'sgan va murakkablashgan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish hamda avlodlarga qoldirish vazifasining ham uddasidan chiqolmay qoldi.

Falsafiy dunyoqarash universumga bevosita yoki potensial amaliy qiziqish sohasi, hayot muhiti sifatida nazar tashlaydigan ko'z qarashlarning ilmiy asoslangan, izchil majmuini o'zida ifodalaydi. Ayni

[1] Назаров М. Цивилизация прошлое, настоящее и будущее. – Ташкент: Мехнат, 2001. – В 77.

holda *dunyoning barqaror manzarasi falsafiy dunyoqarashning eng muhim tarkibiy elementlaridan biri hisoblanadi.* U ontologiyaning shakl-shamoyili va chegarasini, ilmiy izlanishlarning mo'ljallarini belgilaydi. Falsafiy dunyoqarashda ilmiy tadqiqotlarning asosiy natijalari aks etadi. U taklif qilinayotgan dunyoning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarning haqqoniyligi uchun javob beradi. Unda dunyoqarashning aks ettiruvchi qobiliyati nazariylashuv va oqilonalashuvning ancha yuksak darajasiga ko'tariladi.

Shu o'rinda *dunyoqarashning tarixiy mezoni dunyoga konkret davr nuqtai nazaridan yondashishga asoslanadi, har bir inson muayyan tarixiy zamon va makonda tug'ilishini nazarda tutadi.* Har bir inson muayyan madaniy-tarixiy an'ana bag'rida voyaga yetadi , asosan, o'z davrining mezonlariga muvofiq hayot kechiradi. Sinchkov ko'z har kimning xatti-harakatlarida o'z davri ma'naviy muhitining «dastxati»ni kuzatishi mumkin.

Falsafiy dunyoqarash etnos arxitektonikasini ham o'z ichiga oladi. Har qanday xalqning hayoti muayyan ideallar va uning milliy o'zligiga xos bo'lgan mo'ljallar bilan belgilanadi. «Yunon falsafasi», «nemis falsafasi» yoki «o'zbek falsafasi» degan nomlar sof jug'rofiy maqsadni ko'zlamaydi. Ular dunyo va vaqtni intellektual o'zlashtirish xususiyatlaridan, milliy tafakkurning universum mezonlarini o'zlashtirish, ularni qabul qilingan fikrlash uslubi bilan moslashtirish va shakllangan mentalitetga bo'ysundirish yo'lidagi harakatlaridan dalolat beradi.

Dunyoqarashning quyidagi tarkibiy elementlarini ajratish mumkin. Birinchidan, *bu dunyo haqidagi konkret-tarixiy tasavvurlarni o'z ichiga oluvchi dunyoning barqaror manzarasi, ikkinchidan, ideallar tizimiga tayanuvchi hayotga munosabat, uchinchidan, qadriyatlar tizimiga qarab mo'ljal oluvchi asosiy g'oya.* Ayni shu tarzda tushunilgan, uch «saltanat» - voqelik, qadriyat va mazmundan iborat bo'lgan dunyo falsafiy dunyoqarashning mohiyatini tashkil qiladi.

Nemis faylasufi M.Xaydegger fikriga ko'ra, «dunyoqarash» so'zining o'zi insonning dunyoga tamoyillar munosabati sifatida XVIII asr oxiridagina tilga kirib kelgan va unda o'rnashib qolgan[1]. «Dunyoqarash» so'zini dunyoni kuzatish, unga nazar tashlash sifatida talqin qilish oson

[1] Хайдеггер М. Время и бытие. – М.: 1993. – С 51.

bo'lgani uchun ham XIX asrdayoq dunyoqarashga oid pozitsiya, eng avvalo, hayot pozitsiyasini anglatishini ta'kidlay boshlaganlar. «Dunyoqarash» so'zi inson borliq o'rtasida mazmuni biluvchi va me'yorni belgilovchi subyekt sifatida paydo bo'lishini nazarda tutadi. Ayni paytda inson hayot jarayonida qatnashadi, o'zini u bilan aynilashtiradi, uni idrok etadi. Shu tufayli ham *dunyoqarashni inson hayot faoliyatining tarixan vaqt o'qubga mos ikoni* sifatida ta'riflash o'rinli bo'ladi.

Nemis faylasufi Karl Yaspers ta'biri bilan aytganda, bu davrda (uni faylasuf «dunyoviy vaqt» deb ataydi) insoniyat o'z rivojlanishida katta burilish yasagan. Osoyishtalik va barqarorlik ruhi bilan yo'g'rilgan mifologiya davri nihoyasiga yetdi, oqilonalik va oqilona tekshirilgan tajribaning mifga qarshi kurashi natijasida u asta-sekin chekina boshladi. «Jahon tarixi o'qini taxminan miloddan avvalgi 500, 800 va 200 yillar oralig'ida yuz bergan ma'naviy jarayon bilan bog'lash o'rinli bo'lsa kerak, - deb yozadi Yaspers K. Shu davrda tarixda eng katta burilish yasaldi. Hozirgi tipdagi inson va ilk faylasuflar paydo bo'ldi. Inson ayrim individuum sifatida o'z-o'zida tayanch izlashga jur'at etdi. Xitoy zohidlari, Sharq mutafakkirlari, Hindiston tarkidunyochilari, Yunoniston faylasuflari va Isroil avliyolari e'tiqodi o'z ta'limotining mazmuni va mohiyatiga ko'ra, yaqindir. Endi inson botiniy darajada o'zini dunyoga ichki tuzilishiga ko'ra bir-biridan qay darajada farq qilmasin, o'z qarshi qo'yishi mumkin bo'ldi. Inson o'zida unga dunyodan va o'z-o'zidan yuksakroq ko'tarilish imkonini beruvchi ichki salohiyatni kashf etdi»[1].

Yuz bergan o'zgarishlarning yana bir sababi shundaki, mifologiya rivojlantirish va tushuntirish uchun navbatdagi miflar emas, balki tabiiy qonuniyatlar va tabiiy-sababiy bog'lanishlarga murojaat qilish talab etilgan ilmiy bilim kurtaklari bilan to'qnashdi. Pirovardida odamlar dunyoqarashida nisbatan qisqa vaqt ichida tub o'zgarishlar yuz berdi: unda bilim, tafakkur, tahliliy fikrlash tobora muhimroq rol o'ynay boshladi, ular sirtdan olingan axborotni sezgi va emotsiyalar darajasida idrok etishga asoslangan har xil e'tiqodlarni chetga chiqarib qo'ydi. *Faqat so'zlariga ishonish kerak bo'lgan ota, kohin, ruhoniy o'rnini, savollar beruvchi va anglashga chorlovchi muallim faylasuf egalladi. U shubha*

[1] Ясперс К. Смысл и назначение истории. М. 1991. С. 32-34.

urug'ini sochib, qiziqish uyg'otdi va: «Ishonma, balki o'zing fikr qil!», deya da'vat etdi.

Faylasuf tafakkurni xurofot va bid'atlardan tozalab, uni erkinlashtirdi, mifologik yoki diniy dunyoqarashga mutlaqo xos bo'lmagan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi. *Ajdodlardan meros qolgan «donishmandlik» manbai sanaluvchilar, tayyor bilimlar, shak-shubhasiz haqiqatlarni e'tiqod sifatida qabul qilishga chorlovchilardan farqli o'laroq, faylasuf savollarni ta'riflashni va avvalo sog'lom fikr va o'z aql-zakovatining kuchiga tayanib, ularga javob qidirishni o'rgatadi.*

Dunyoni falsafiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati dunyoni bilish, sezish, ko'rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

Falsafa – nafaqat muayyan odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig'i va bilishining umumiy tamoyillari, ularning dunyoga munosabatini aks etuvchi, tabiat, jamiyat, tafakkurning eng umumiy qonunlari kashf etiluvchi va ta'riflanuvchi ma'naviy faoliyat. Ya'ni, bu dunyoga va insonning undagi o'rniga nisbatan qarashlarning umumiy tizimidir. Bunday qarashlar zamirini savollar va insonning ularga javob topish istagi yotuvchi oqilona yo'l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko'pincha boshqa savollarni yuzaga keltiradi, ba'zan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi, yangi tadqiqotlarga da'vat etadi. Xullas, bunda ijod, tinimsiz izlanish, yangilikka intilish muhim o'rin egallaydi.

Agar mifologiya va dinda javobga urg'u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o'rinda turadi. U to'g'ri va yaxshi ta'riflangan bo'lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi. Savol, masala insonni ijodga rag'batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga yetilganiga ishonch paydo bo'lmagunicha insonni izlanishga da'vat etadi. Bunda savolning o'zi, muammoning qo'yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, ba'zan undan ham muhimroq deb qaraladi.

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta'riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin shuning o'zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani, avvalo, inson madaniyati sohasida yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o'zaro ta'sirlar bilan

uzviy bog'liq, ayni vaqtda, o'zga sohalarga o'tish hamda ularda gavdalanish qobiliyatiga ega bo'lgan ma'naviy jarayon sifatida tushunish lozim.

Bundan xulosa shuki, *falsafa mushohada yuritish savol berish, shubha qilish, javoblar izlash va kun kecha uchilgan deb hisoblangan, shak-shubhasiz bo'lib tuyilgan masalalarga qaytish demakdir.* Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. *Falsafa savollar berish, narsa va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.*

Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning muayyan davrida mifologiya va falsafa negizida odamlarning kundalik ehtiyojlariga javob sifatida paydo bo'lgan, va insoniyatning aql imkoniyatlarini tizimli namoyon etgan. Ilmiy dunyoqarash fan taraqqiyotida o'z ifodasini topgan va bu taraqqiyot haqida keyingi mavzularda batafsil muloha yuritamiz.

Xulosa. *Falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa – uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo'lsa, din timsol va shakl.* Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli a'yonlari uchun kerak. Vahiy yo'lidagi ifoda xalq ommasining idroki, tarbiya va ta'limi uchun kerak.

Tajribaviy amaliy matnlar

Falsafa, dunyoqarash, shaxs, idrok, dunyoqarashning tarixiy shakllari, fetishizm, animizm, totemizm, magiya, ontologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya, metafizika, ong, tafakkur, ruh, materiya, tabiat, borliq, fan, paydeyya.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday muammolar falsafiy muammolar deb ataladi?
2. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos jihatlarini ayting.
3. Dinning asosiy funksiyalari qaysilar?
4. Falsafiy dunyoqarashning mifologik va diniy dunyoqarashdan asosiy farqi nimada?
5. Falsafa nimani o'rgatadi?
6. Falsafa va fanning o'zaro nisbati qanday?

7. Dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllarini ta'riflang.
8. Falsafa tarixini o'rganish qanday maqsadni ko'zlaydi?
9. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me'yor hisoblanadi?
10. Ayrim insonning yaxlit falsafiy dunyoqarashi falsafiy plyuralizm asosida qanday shakllanadi?
11. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta'rif berish qanday amalga oshirilgan?
12. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?
13. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllarini tasniflang.
14. Diniy e'tiqodlarning kurtaklari va tarixiy shakllari.
15. Insoniyatning muhim muammolarini hal qilishda falsafiy dunyoqarashning roli mavzusida esse tayyorlang.


Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining tizimsiz majmui sifatida amal qiladi.

Dunyoqarsh - insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek uning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va ma'jallariidir.

Insonning bunday faoliyatini, uning ijodiy faolligini tavsiflovchi aql odamzot va jamiyat evolyutsiyasini jadallashtirishning qudratli omiliga aylanadi hamda pirovardda insonni hayvondan ajratish imkonini beruvchi asosiy belgi sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashda ijtimoiy muhitning roli.



Dunyoqarashning tuzilishi

Dunyoni sezish

Dunyoni idrok etish

Dunyoni tushunish



Dunyoqarashning tarixiy shakllari



Mifologik dunyoqarash. "Mif" so'zi ... [illegible]



Diniy dunyoqarash. [illegible]



Falsafiy dunyoqarash. [illegible]

Dunyoni sezish — bu ... [illegible]

Dunyoni idrok etish — ... [illegible]

Dunyoni tushunish — ... [illegible]

Dinning asosiy funksiyalari:

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi butun borliq *qachon va nima uchun paydo bo'lgan va bunda g'ayritabiiy kuchning roli qanday namoyon bo'lgan, degan savollarga javob beradi;*

Kompensatorlik funksiyasi yetishmayotgan axborot, diqqat-e'tibor, *g'amxo'rlik o'rnini to'ldiradi, hayot ma'nosi, istiqbollar va shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, ya'ni insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'rnini to'ldiradi.*

Kommunikativ funksiyasi muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan tipini ta'minlaydi, jamiyatning jipslashuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi.

Tartibga solish funksiyasi *odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli meyorlar va qoidalarni belgilaydi;*

Diniy e'tiqodlarning tarixiy shakllari

Fetishizm u yoki bu predmetni ma'jizakor xislatlarga, odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega deb hisoblaydi. Bunday predmet ilohiylashtiriladi, sig'inish va topinish obyektiga aylanadi.


Animizm (lot. anima- jon)- nafaqat odamlar, balki hayvonlar, predmetlar va borliq hodisalarini ham ruh, jon boshqarib turishiga ishonishdir. Animizm miqual mazmundan butun dunyo ruhli va jonli.

Totemizm negizini muayyan odamlar guruhining totem, ya'ni sig'inish obyekti sanalgan ajdod deb e'lon qilinadigan u yoki bu hayvon, o'simlik, predmet bilan umumiy kelib chiqishiga bo'lgan ishonch tashkil etadi, zero totem mazkur jamoa yoki urug'ning qudratli homiysi, himoyachisi hisoblanadi, uni ozig-ovqat va shu kabilar bilan ta'minlaydi. (Hindistonda Xanuman maymuni, sigir, Avstriyada kenguru, turli qabilalarda u yoki bu ilohiy predmet).

Magiya (yunon. mageia – sehrgarlik) ham ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lib, uning zamirida tabiiy kuchlar yordamisiz sehr tarzida, rasm-rusumlar, o'ziga xos usullar majmui bilan narsalar, odamlar, hayvonlar va hatto g'ayritabiiy kuchlar — ruhlar, inson timlar va shu kabilarga ta'sir ko'rsatish mumkinligiga bo'lgan ishonch yotadi.

Politeizm (ko'pxudolik) – muayyan ijtimoiy guruhlarga bo'lgan ishonchga emas, balki xudolarga bo'lgan e'tiqodga ko'proq mos kela boshladi.

Monoteizm (yunon. mono – bir va theos-xudo) Iudaizm (mil. Av. VII asr), Buddizm (mil.av. VI-V asrlar), Xristianlik (I asr) va Islom (VII asr) vujudga keldi. Xullas, har bir din ma'lum falsafaga asoslanadi. Haq dinning asosi to'g'ri (analitik) falsafadir. Haq bo'lmagan dinning asosi esa yolg'on falsafadir, yoki yolg'on mulohazalar ustiga qurilgan qarashlardir.



Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. «Falsafa» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) Yunoncha. phileo sevaman. sophia donolik
B) Yunoncha. phileo sevaman. sophia bilish
V) Lotincha. philo sevaman. sophi donishmandlik
G) Lotincha. phileo sevaman. sophia donolik

2. O'byektiv dunyoga va insonning undagi o'rniga, odamzotning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga nisbatan yondashuvlar tizimi, bu – ...

A) Dunyoqarash
B) Tafakkur
V) Idrok
G) Tasavvur

3. Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Mif va din
B) Din va san'at
V) San'at va mifologiya
G) Poetika va lirika

4. Dinning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?

A) Dunyoqarashni shakllantirish, kommunikativ, tartibga solish, kompensatorlik funksiyalari
B) Dunyoqarashni shakllantirish, komillikka ko'tarish funksiyalari
V) Kamolotga etkazish, kompensatorlik, kommunikativ funksiyalar
G) Boshqaruvchi, tartibga soluvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi, kompensatorlik funksiyalari

5. Falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) Ontologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya
B) Fenomenologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya, falsafiy antropologiya
V) Pragmatizm, pozitivizm, strukturalizm, etika, estetika, aksiologiya, fenomenologiya
G) Ontologiya, ma'naviyat asoslari, g'oyalar falsafasi, falsafa tarixi, antropologiya

6. Iudaizm qaysi asrda paydo bo'lgan?

A) Mil. av VIII asrda
B) Mil. av. VII- VIII asrda
V) Mil. av. V asrda
G) Mil. av. VI asrda

7. Dunyoqarash nima?

A) Barcha javoblar to'g'ri.
B) Odamlarning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari.
V) Bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.
G) Insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatga nisbatan yondashuvlar tizimi.

8. Dunyoqarashning o'ziga xosligi va betakrorligi unda intellektual asos bilan bir qatorda emotsional, ruhiy asoslarning uzviy bog'liqligi hamda ularning jamuljam holda har bir inson uchun mutlaqo muayyan, qanday xususiyatlar sifatida amal qilishidir.

A) Individual

B) Ilmiy

V) Xissiy

G) Ruhiy

9. Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar bu?

A) Odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi.

B) Dunyoni xissiy va aqliy tushunishdan iborat.

V) Dunyoni tushunish va tushunmaslik kabi eng muhim elementlardan iborat.

G) Dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

10. Dunyoqarashning tuzilishi?

A) Dunyoni hissiy va aqliy tushunish.

B) Dunyoni tushunish va tushunmaslik kabi eng muhim elementlardan iborat.

V) Dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

G) Barcha javoblar to'g'ri.

Adabiyotlar:

1. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. Toshkent: Noshir, 2018
2. Shermuhamedova N. A. Falsafa. IdrisAbdurauf. 2021
3. Qahharova Sh. Falsafaga kirish. -Toshkent: Universitet, 2005.
4. Введение в философию: Учебное пособие для вузов / И.Т.Фролов и др. 3-е изд., перераб. и доп. М.: 2003.
5. Qambarov A.A. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli: Falsafa fan. nomzodi Avtoref/ A. A. Qambarov; Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy un-ti. - Toshkent, 2006.
6. Воронина Т.П. Философские проблемы образования в информасионном обществе: диссертация доктора философских наук: М.: 1995.
7. Брысина Т.Н. Сознание в мире: Методолог. онтолог. сос.-филос. аспекты анализа : диссертация доктора философских наук : М.: 1996.
8. Хайдеггер М. Время и бытие. – М.: 1993.
9. Ал-Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т.: Шарк, 1999.
10. Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. –Тошкент: Минож, 2003.

4-MAVZU. FALSAFA: UNING PREDMETI, MAZMUNI VA JAMIYATDAGI ROLI

Falsafa tushunchasining kelib chiqishi

Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. *«Falsafa» tushunchasi yunoncha philosophia – sevaman, sofya – donolik* so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, *mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin.* Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda tafsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan – avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Pifagor ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo'lgan va mohiyat e'tibori bilan «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko'targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o'zlarini donishmand deb hisoblamaganlar, donolikka da'vo qilmaganlar, zero, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, *haqiqiy donishmandlik qadimdan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan.* Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so'nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo'lgan basharatgo'ylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so'zlari shak-shubhasiz va birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko'ra, izlanuvchi, donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan, shu jumladan, boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan.

Biroq, insonning dunyo va o'ziga bunday munosabati darhol yuzaga kelgani yo'q. Insonning tabiatga qarshilik ko'rsatish, mavjudlik vositalarini yaratish va ko'paytirish qobiliyatlari rivojlangunga va o'sgunga, buning natijasida yetarli tajriba va bilimlar to'plangunga, odamlar aqli ko'p sonli savollarga javob izlash uchun yetarli darajada

yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Shu bois falsafaning mohiyatini, shuningdek, uning paydo bo'lish sabab va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. Nima uchun? Chunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Yerda paydo bo'lish tarixi haqida gapirish demak. Bu yerda biz hali kam o'rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida yechilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qayerdan, qaysi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan, degan savolga aniq, umumiy e'tirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borlig'ida mavjudligi obyektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi, degan savol ham hali o'z javobini topganicha yo'q.

Biroq, insoniyat tarixi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtai nazaridan ayrim masalalar mavjud bo'lib, ular xususida olim va mutaxassislar ma'lum to'xtamga kelganlar. Xususan, boy tarixiy material, arxeologiya fani olgan daliliy ma'lumotlari, shuningdek, boshqa fanlarning metodlari bilan olingan natijalar (masalan, jinslar, foydali qazilmalar yoshini aniqlash va sh.k.)ni e'tiborga olgan holda, ishonch bilan inson sayyoramizda hayotning tadrijiy (evolyutsion) rivojlanishi mahsulidir, deb qayd etish mumkin. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat qurollarini yasagan insonsimon mavjudotlarning (lot. homo habilis – uquvli odam) qadimgi manzilgohlari taxminan 3-5 mln. yil oldin paydo bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, *qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan 1,5 mln yilni tashkil etadi. Homo sapiens, ya'ni aqlli odamlar tipi atigi 40-60 ming yil oldin vujudga keldi. Insonda ong paydo bo'lib, u ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, mutaxassislar fikricha, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani yo'q, ya'ni u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi.*

Ong paydo bo'lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o'sib borayotgan mehnat faolligi va verbal

(nutq orqali) muloqot ta'sirida o'ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga etgan davri bilan bog'lanadi. Shunday qilib, inson tushunchalarga ta'rif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo'li bilan sodda, lekin so'zning to'la ma'nosida aqliy ish olib bora boshladi.

Falsafaning mazmuni va bosh vazifasi haqidagi qarashlar

Falsafani odatda davrning tikrlardagi mikosi, o'z davrining ma'naviy kvintessensiyasi deb atashdilar. Falsafaning mazkur tavsifidan uning vazifasi o'z davrining jarchisi sifatida amal qilish, ma'naviy-tarixiy o'zgarishlar bilan hamqadam va hamnafas bo'lish kelib chiqadi. Bu yerda falsafaning hayot bilan chambarchas aloqasi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Voqelikni tushunish va tushuntirish falsafaga qo'yiladigan asosiy talabga aylanadi. Davrning haqqoniy manzarasini yaratish kelajakning spekulyativ sxemalarini yaratishga barham beradi. borliqning mazmun va mohiyatini anglab yetishga keng yo'l ochadi.

Falsafa o'z davri ma'naviy madaniyatining markazi vazifasini bajarish orqali koordinatalar abadiy tizimini yaratishga yordam beradi. davr saboqlarini aniqlash va tushuntirish yo'li bilan inson tafakkuriga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Qadim zamonlarda Platon shunday degan edi: «Toki davlatlarda faylasuflar podsholik qilmas ekanlar yoki hozirgi shohlar va podsholar oqilona falsafiy mulohaza yuritishni o'rganmas va davlat hokimiyati bilan falsafaning mushtarakligi qaror topmas ekan, davlat yovuzliklardan xalos bo'la olmaydi»[1].

Boesiy poetik intuisiyasida "falsafa o'ng qo'lida kitob, chap qo'lida esa saltanat hassasi skipetr tutgan Iloha obrazida gavdalanadi". Bu timsollarning mavjudligi tasodifiy hol emas. Falsafa bilim berish bilan bir qatorda, dunyoni oqilona boshqaradi va skipetr bu fikrni tasdiqlaydi.

Yangi davrda fransuz olimi Rene Dekart (1596-1650) har qanday mamlakat aholisining fuqarolik va o'qimishlilik darajasi bu yerdagi falsafiy tafakkur darajasi bilan belgilanadi", degan fikrni ilgari surgan. Ingliz faylasufi David Yum (1711-1776) falsafaga bo'lgan munosabat

[1] Платон Соч. В 3-х т. М. 1968-1971. Т.1. С.375.
[2] Декарт Р. Избранные произведения. М. 1950. С.412.

asosida millatga «tashhis» qo'yish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. David Yum fikricha, *falsafiy bilimga qiziqishning yo'qligi millat tafakkurining cheklanganligi alomatidir.*

Qadimgi yunon falsafasida bilim va xulq-atvor oliy ideali "donishmandlik" tushunchasi bilan bog'lanadi. U inson aqliga abadiyat va cheksizlik sari yo'l ochadi, o'tkinchi narsalarga sabr-toqatlilikni o'rgatadi. Ayman donishmandlik yordamida inson munosib va to'laqonli hayotga erishishi mumkin. Donishmandlikka intilayotgan odam har doim narsa va hodisalar tabiatiga mos ravishda ish ko'rishi lozim.

Platon inson tanasi haqida gap borganda tabiblarni, o'simliklar to'g'risida so'z yuritilganda esa – ziroatchilarni donishmandlar deb ataydi. U o'zining «ideal davlat» haqidagi nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari – faylasuflar; soqchilar (harbiylar); dehqonlar va hunarmandlarga ajratadi. bunday davlatda donolik, jasorat, sabr-bardoshlilik va adolat kabi to'rt tamoyil ustuvor bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Aristotel fikricha insonning qadr-qimmati uning aqliy faoliyatida ko'zga tashlanadi. O'z davrining eng dono kishilaridan biri bo'lgan Siseron falsafaning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: «Falsafa (donishmandlik), qadimgi faylasuflar ta'biri bilan aytganda, ilohiy va insoniy qilmishlarni ularning sabablari va mohiyatlari nuqtai nazaridan bilishdir»[1].

Sofistlar falsafani dunyoviy donishmandlik, mulohaza yuritish san'ati sifatida tushungan bo'lsalar, stoiklar donishmandlikning «amaliy maqsadlari»ga, ya'ni o'z hayotini oqilona tashkil etishga qaratganlar. Faylasufning so'zlari insonni azob-uqubatlardan forig' etishiga Epikurning ishonchi komil bo'lgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida donishmand-faylasuf «szi», ya'ni o'g'il, bola deb atalgan. «Tyan sze» - «Osmon o'g'li» degan ism ostida yangi podsho paydo bo'lishi bilan donishmand-faylasufning unga mos keladigan, «szyun szi» - «podsho o'g'li» g'oyalarini targ'ib qiluvchi tipi ham paydo bo'lgan. Qadimgi Xitoy falsafasining muhim mezoni – «ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oilada, jamiyatda, davlatda rioya qilish inson hayotining mazmuni hisoblangan; bunga jamiyatda

[1] Цицерон М.Т. О старости. М. 1979. С.105.

qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusum va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratgan. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi darkor[1]. Qadimgi Xitoy falsafasining buyuk namoyandasi Konfusiy (mil. avv. 551-479-yillar) shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga etadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi, qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirsa va kamol topsa, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»[1]. Qadimgi Xitoy faylasuflaridan yana biri Lao szi (miloddan avvalgi VI asr boshlarida yashagan): «Boshqalarni biluvchi oqil, o'zini biluvchi donishmanddir», deb o'rgatadi.

Donishmandlikning tarixan shakllangan gnoseologik, axloqiy va ekzistensial xususiyatlari hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda zero, e'tibordan soqit etilishi mumkin emas. Donishmandlik fenomeni haqida umumiy tasavvur hosil qilish yo'lidagi izlanishlar quyidagi natijalarga olib keladi. Donishmandlik kundalik hayotdagi mulohazakorlikka qarama-qarshi qo'yiladi. U mutlaqo go'zal va mutlaqo adolatli dunyoning mohiyatini intellektual anglab yetishga intilish sifatida, haqiqatni qaror toptirish yo'lida beg'araz xizmat qilish sifatida tushuniladi. Bu nainki to'liq bilim, balki ma'naviy barkamollik, ruhning ichki yaxlitligi hamdir. Bu shunday bir e'tiqodki, unga erishishda insonning butun mohiyati ishtirok etadi. Donishmandlik belgisi sifatida me'yor hissi amal qiladi. Uni intuitiv aniqlash «hayot haqiqati»ni anglab yetish sifatida namoyon bo'ladi. Yetuklik donishmandlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Qisqa va lo'nda hikmatlarda o'z ifodasini topuvchi donishmandlik har bir xalq hayotida mavjud bo'ladi, maslahatlar va pand-nasihatlarning keng to'plami vositasida uni g'amxo'rlik bilan qo'llab-quvvatlaydi. Qadimgi afsonalar, rivoyat va hikmatlar ko'rinishida u avloddan-avlodga o'tadi,

[1] Лукьянов А.Е. Становление философии на Востоке: Древний Китай и Индия. М., 1989. С. 109.
[1] Бу-цзы. Конфуций. Жизнь и учение. М., 1995. С. 139.

ulardan har birining hayot yo'lini yyengillashtiradi.

Falsafani ko'pincha «tafakkur maktabi» deb ataydilar. U bir qolipda fikrlash uslubi tugagan, oydek ravshan bo'lgan narsa shubha va taajjub uyg'otgan joyda boshlanadi. Inson hayot mazmuni bilan bog'liq masalalar (Immanuil Kant tilida ular quyidagicha: «Men nimani bilishim mumkin?», «Men nima qilishim kerak?», «Men nimaga umid qilishim mumkin?», «Inson nima?») ustida bosh qotira boshlagani zahoti u darhol falsafaga «asir» tushadi, borliqni falsafiy anglab yetish sohasiga kirib qoladi. Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588–1679): «Falsafa sening tafakkuring farzandi va sening o'zingda yashaydi»[1], deganida, bizningcha, to'la haq bo'lgan. Darhaqiqat, falsafiy mulohaza yuritish har bir insonga xos xususiyat. Zero, hayotning mazmuni, erkinlik, adolat va umrboqiylik haqida mulohaza yuritishni biron-bir insonga taqiqlash mumkin emas.

Falsafa borliqni bilish, asoslar va birinchi tamoyillarni tadqiq etish bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida, his etish, mushohada yuritish va tasavvur qilish tarzida amal qiladigan oddiy ongdan farqli ravishda, tushunchalar vositasida bilishni nazarda tutadi. Tushunchalar bilan ish ko'rish san'ati zaruriy aloqalar va sababiy bog'lanishlarni aniqlashni, hayot taassurotlarining xaotik tasodifiy oqimini tartibga solishni talab qiladi. Mulohaza kuchini tarbiyalash e'tiborni jamlash, uni predmetga qaratishni nazarda tutadi. Tafakkur intensional, ya'ni u muayyan predmetga qarab mo'ljal oladi. Tafakkur predmetning tabiati haqidagi tasavvurga mos ravishda mulohaza yuritadi. Predmetni o'zida «idrok etgan» kishigina mazkur predmet o'zi haqida so'zlovchining tili bilan gapirishiga umid qilishi mumkin.

Falsafaning predmeti

Falsafa predmeti uning rivojlanish davri mobaynida uzluksiz o'zgarib turgan, asosiy masala esa o'zgarishsiz qolgan, degan fikr real asoslardan xoli emas. Falsafa muammolari uning predmeti bilan belgilanadi. Ma'lumki, falsafa predmeti tarixiy rivojlanish jarayoni mobaynida sezilarli darajada o'zgargan. Falsafiy fanlarning har biri: ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik, falsafa

[1] Гоббс Т. Избранные произведения. В 2 т. М., 1964. Т. 1. С. 49.

tarixi ham o'z alohida predmetiga ega. Shu tufayli ham falsafa predmetini faqat o'ta abstrakt tushunchalar yordamida belgilash mumkin. Shu ma'noda «dunyo — inson» munosabatlari tizimidagi umumiylik falsafaning predmeti hisoblanadi, degan fikr mazkur talablarga javob beradi.

Endi «Falsafa nimani o'rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qo'niqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuisiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday obyektiv va sub'yektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, *inson o'z qiziqishi ob'yekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmetidir*. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida, hatto, uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi, bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta'rifda «inson» tushunchasi yig'ma ma'noda qo'llanilgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmetiga biz umumiy nuqtai nazardan ancha keng ta'rif bergan bo'lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda, ma'lum sabablarga ko'ra, muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmosentrizm ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab yetishga qaratilgan. Keyinchalik, Qadimgi yunon shahar-polislari ravnaq topgan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Yevropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi teosentrik (yunon. theos — markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya'ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa san'at (estetika) va ko'p jihatdan insonga

murojaat qilindi. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va rasionallik inqirozi irrasionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi. XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmetiga aylandi, bu esa, o'z navbatida, matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo'ygan postnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma'nolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e'tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Yevropa an'anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlari va chegaralarini o'zgartirish g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o'ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o'rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olib, davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini topish bu muammolarni shu jumladan falsafiy darajada anglab yetishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e'tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, falsafaning predmetini, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog'lash mumkin emas. U vaqt omili va obyektiv sabablar to'plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o'ringa chiqadi. Ammo bu

boshqa mavzular, masalalar va muammolar o'z ahamiyatini yo'qotadi, falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo'lmay qoladi, degan ma'noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o'ringa surib qo'yadi, ular muayyan davr va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o'rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvorliklar yunalishi bo'ylab yuqoriga ko'tarilish uchun o'z vaqtini «kutib», go'yoki panada turadi, desak, to'g'riroq bo'ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o'zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafa hamjamiyatning asosiy e'tibori ma'lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko'ramiz.

Falsafaning strukturasi

Falsafa o'z shakllanishi hamda rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma'naviyatni, shuningdek, sababiy bog'lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi, rasionallik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvuriga aylandi. Ammo olamning cheksiz darajada rang-barangligi va serqirraligi tufayli o'sha davrdayoq parchalanmagan falsafiy bilimlar va tasavvurlardan ayrim bo'limlar ajralib chiqa boshladi, vaqt o'tishi bilan ular rivojlanib, ancha aniq shakl-shamoyil kasb etdi, yangi bilimlar bilan to'ldirildi. Pirovard natijada ular falsafiy bilimning tuzilishini (strukturasini) tashkil etdi.

Falsafaning asosiy masalasi uning strukturasida ikki tomon ajratiladi. Ruh birlamchimi yoki tabiatmi, degan savol mazkur masalaning ontologik tomonini tashkil qiladi. Dunyoni bilish imkoniyati to'g'risidagi masala, «Inson tafakkuri dunyoni haqqoniy bilishga qodirmi, u o'zining haqiqiy dunyo haqidagi tasavvurlarida voqelikni to'g'ri aks ettirishga qodirmi», degan savol falsafa asosiy masalasining gnoseologik tomonini o'zida ifodalaydi.

«Dunyo inson» tizimidagi munosabatlarning rang-barangligi predmetli-amaliy, gnoseologik, akseologik, estetik, axloqiy va boshqa xil munosabatlar bilan belgilanadi. Quyidagilar falsafiy bilimning strukturasi hisoblanadi:

ontologiya mavjudlik, borliq haqidagi bilim;

gnoseologiya (boshqa bir terminologiyaga ko'ra – epistemologiya) – bilish nazariyasi;

ijtimoiy falsafa – jamiyat haqidagi ta'limot;

etika – axloq haqidagi ta'limot;

aksiologiya - qadriyatlar haqidagi ta'limot;

falsafiy antropologiya – inson haqidagi ta'limot va boshqalar.

Falsafa ularning muhim xususiyatlari, birinchi sabab va asoslarini aniqlashdan manfaatdor. Muayyan munosabatni dunyoga yondashuv mezoni sifatida tanlash (masalan, dunyoga uyg'unlik, go'zallik, mutanosiblik nuqtai nazaridan yondashish) u yoki bu falsafiy fanni (ayni holda estetikani) belgilaydi. Dunyoga uni bilish imkoniyat va qonuniyatlari nuqtai nazaridan yondashish bilish nazariyasi – gnoseologiyani vujudga keltiradi. «Inson – dunyo» tizimiga hokimiyat munosabatlari nuqtai nazaridan yondashish siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi. Munosabatlar o'zagini axloqiy me'yorlar tashkil qilgan taqdirda esa tadqiqotchi etika sohasiga qadam qo'yadi.

Shunday qilib, falsafaning asosiy masalasi strukturasi falsafaning o'z strukturasini aks ettiradi, falsafa esa o'z asosiy masalasining keng nazariyasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, falsafaning asosiy masalasi xususida mulohaza yuritish jarayonida biz "Borliq nima?", "Tafakkur nima?" degan savollarga turli javoblar olamiz. Vaqt o'tishi bilan bu javoblar o'z dalillar tizimi, metodologik tamoyillarini shakllantiradi va falsafiy yo'nalishlarga aylanadi. Masalan, *borliqda, eng avvalo, faqat fan doirasida aniqlanishi va til tizimida belgilar yordamida ifodalanishi mumkin bo'lgan aloqa hamda qonuniyatlarni ko'rish maxsus yo'nalish – pozitivizm, aniqroq aytganda, uning oxirgi bosqichi – analitik falsafa nuqtai nazari bilan muvofiq keladi. Bu yerda "Borliq nima?" degan masala muayyan bilimlarni to'g'ri ifodalash muammosiga, til tahliliga borib taqaladi. Analitik falsafa doirasida «lingvistik burilish» amalga oshirilgan va til falsafasi butun falsafaning asosi sifatida qabul qilingan.*

Pozitivizm falsafani konkret fanlarga qarama-qarshi qo'yadi, ilmiy bilimni dunyoni o'zlashtirishning birdan-bir ijobiy shakli, deb e'tirof etadi. Metafizika falsafaning sinonimi sifatida, eng avvalo, til mantiqiy me'yorlari nuqtai nazaridan mazmundan xoli deb e'lon qilinadi.

Neopozitivistlar fikriga ko'ra, falsafaning hayot mazmuni, cheklilik va cheksizlik, borliqning birinchi asoslari, universumning atributivligi kabi azaliy muammolari soxta tushunchalar sanalgan atamalar yordamida shakllantiriladi, zero ularga berilgan ta'riflarni tekshirish mumkin emas.

Ayni shu darajada fan falsafasi ham amal qiladi, ilmiy bilish faoliyati muammolarini tadqiq etadi. Avvaliga unda ilmiy faoliyatni muayyan metodologik tamoyil va normativ-mantiqiy ideallar bilan muvofiq holatga keltirish, aniqroq aytganda, fanni fizika tili negizida unifikasiya qilish vazifasi qo'yilgan edi. U fizikalizmga qarab mo'ljal olardi. Keyinchalik bilishning ijtimoiy-madaniy omillariga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Bilish jarayoniga normativ yondashuvning imkoniyatlari tor ekanligi namoyon bo'lganidan so'ng ilmiy bilish faoliyati me'yorlarining relyativligi g'oyasi tug'ildi. Fan falsafasiga ijtimoiy-madaniy bilim (sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, antropologia va kulturologiya) natija va metodlari kirib kela boshladi.

"Borliq nima?", degan savolga javob izlar ekan, falsafa borliqni eng avvalo inson mavjudligi dunyosi sifatida qayd etuvchi nuqtai nazarda to'xtaydi. Bu o'ziga xos tushunchalar apparatiga ega bo'lgan ekzistensial falsafa vujudga kelganini anglatadi. Ikkinchi jahon urushidan, insoniyat sivilizatsiyasida yuz bergan tub o'zgarishlardan so'ng borliq insoniyat ko'z o'ngida metafizik dahshat, qo'rquv, tashvish, zerikish, hatto behuzurlik tarzida namoyon bo'ladi. Ekzistensial falsafa ikki yo'nalish ham diniy, ham ateistik falsafa sifatida rivojlanadi. Diniy ekzistensial falsafa borliqni e'tiqod sifatida tushunadi, e'tiqodni, ayni paytda, uning inson borlig'i ufqida paydo bo'lishini «haqiqiy mavjudlik»ka erishish usuli deb e'lon qiladi. Ateistik ekzistensializmda esa butunlay boshqacha kayfiyat hukm suradi. Ta'riflarda ko'p sonli ziddiyatlar mavjudligi tufayli Xudoning borligi inkor etiladi. Mustaqil va anonim tarzda o'z-o'zida mavjud bo'lgan borliq ongga ega bo'lishi mumkin emas, u insonga nisbatan rahmsiz, bu esa amalda Xudo yo'qligini anglatadi, degan xulosaga kelinadi.

Borliq hayot fenomeni sifatida, materiya va ruhning ajralishidan oldin yuz bergan vaxlit organik jarayon sifatida talqin qilinganda hayot falsafasi yuz ko'rsatadi. Bu yerda birlamchi hayot voqeligi o'zini turli ko'rinishlarda namoyon etadi. Nisshening volyuntarizmida u

«hokimiyatga intilish» sifatida namoyon bo'ladi. Bergson tasavvurida hayot kosmik yuksalish bo'lib, uning mohiyati ong va o'ta yuksak ong bilan belgilanadi. Diltey va Zimmel hayotni madaniy-tarixiy xususiyatga ega bo'lgan kechinmalar oqimi sifatida tavsiflaydi. Biroq taklif qilingan talqinlarning barchasida hayot ijodiy shakllanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Harakat, eng avvalo, oqilona umumli harakat sifatida tushunilgan borliq bizni AQShda ayniqsa keng tarqalgan pragmatizm sohasiga olib kiradi. Ushbu falsafiy konsepsiyaga ko'ra, har qanday harakat kelajakka qaratilgan. Amerikalik faylasuf Ch.Pirs (1839–1914)ning: «Narsa g'oyasi uning hissiy oqibatlari g'oyasidir», degan tezisi pragmatizmning manifesti sifatida qaralishi mumkin. Haqiqat muayyan g'oyaning samaraliligi va ish qobiliyati, uning maqsadga erishish uchun foydaliligi demakdir.

Borliqqa intuitiv tarzda anglab yetiladigan sir sifatida yondashuv intuitivizm deb nomlanadi. Intuisiya intellektga qarama-qarshi turadi va predmetning mohiyatiga biron-bir manfaatni ko'zlamasdan, xolisona nazar tashlashni, subyekt va obyekt o'rtasidagi masofani qisqartirishni nazarda tutadi. Intuitivizmda bilim kechinma tarzida amal qiladi.

Borliq vaziyatlardan tarkib topsa, ularni talqin qilish usuli birinchi darajali ahamiyat kasb etsa, demak, bu erda gap germenevtika haqida boradi. Uning doirasida tushunuvchi talqin qilish borliqni gavdalantirishning asosiy modusi hisoblanadi. Biror narsani tushunish uchun uni tushuntirish kerak, tushuntirish uchun esa tushunish zarur.

Falsafiy muammolar mohiyatini tushunib etish, ularning eng muhimlarini aniqlash, nihoyat, falsafiy bilimlar bilan oshno bo'lish – ko'rsatilgan bo'limlarni sinchiklab o'rganish, bunda ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish demak. Pirovardida biz falsafaning o'ziga xos tili, o'z yondashuv va metodlari, nihoyat, tabiat, jamiyat va tafakkurga oid eng muhim aloqalar, xossa va qonunlarni o'zida aks ettiruvchi umumiy tushunchalar – kategoriyalar tizimi vujudga kelganining guvohi bo'lamiz. Bunda falsafadagi har bir bo'lim yoki yo'nalish ham o'z tushunchalar apparatiga, ya'ni bilimning faqat shu sohasiga xos bo'lgan va uning asosiy mohiyatini yoritib beradigan kategoriyalar tizimiga ega.

Falsafada ko'rib chiqilgan mavzular bilan bir qatorda shunday bilim sohalari ham mavjudki, ular qolgan barcha bilim sohalariga kirib boradi, ular bilan uyg'unlashadi va ularni to'ldiradi. Masalan, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkurida yuz beruvchi harakat, rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi falsafiy ta'limot – dialektika ana shunday bilim sohalaridan biri hisoblanadi.

Ob'yektiv sabablarga ko'ra, falsafiy bilimning ayrim sohalari sezilarli darajada rivojlandi, vaqt o'tishi bilan mustaqil falsafiy fanlarga aylandi. Bunday bilim sohalari qatoriga, masalan, insonning bilishni amalga oshirish shakllari, qonun va usullarini o'rganadigan fan - mantiqni; ma'naviyat va axloq haqidagi ta'limot - etikani; go'zallik qonunlariga muvofiq ijodning mohiyati va shakllari haqidagi fan – estetikani kiritish mumkin.

Shu ma'noda, *falsafa tarixi fan sifatida duppatga sazovor, zero u, mohiyat e'tibori bilan, nafaqat falsafiy, balki tarixiy fan hisoblanadi.* Ayni vaqtda u falsafiy bilim tarkibiga ham kiradi, chunki falsafiy tafakkurning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini, falsafiy g'oyalar evolyutsiyasi va xususiyatini turli faylasuflar, yo'nalishlar, oqimlarning ta'limotlarida qanday tavsiflangani nuqtai nazaridan o'rganadi. Falsafa tarixi fanida falsafiy ta'limotlarni tizimga solish va tasniflashga, matnlar, tarixiy sanalarni tahlil qilishga, dalilliy material, biografik ma'lumotlar yig'ishga alohida e'tibor beriladi. Shu munosabat bilan dunyoqarashni kengaytirish va teranlashtirishga, o'z falsafiy yondashuvlarini yaratishga qaratilgan falsafani o'rganish, uning tarixi, asosiy namoyandalari, eng muhim falsafiy asarlari bilan tanishishni nazarda tutadi.

Falsafaning yangi sohalari

Falsafiy bilimning tuzilishi o'zgarmas, uzil-kesil shakllangan emas. Falsafaning rivojlanishi va u hal qilayotgan muammolar doirasi kengayishiga qarab falsafiy bilim tuzilishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Ilmiy nazariya yoki falsafiy g'oyalar inqirozga uchragan huddi o'zining asossizligini namoyish etgan taqdirda, ularning bilim tizimidagi o'rni va rolini qayta baholash amalga oshiriladi, bu esa ba'zan ularning nazariy va amaliy ahamiyati yo'qolishiga olib keladi. Masalan, flogiston nazariyasi,

«falsafa toshi»ni izlash, empiriokritisizm falsafasi va o'z ahamiyatini yo'qotib, tarix mulkiga aylangan boshqa ko'pgina g'oyalar bilan shunday bo'lgan. Bugungi kunda falsafa bilan ham shunga o'xshash hodisa yuz beryapti, degan fikr mavjud. Hatto falsafa o'lyapti deb hisoblaydiganlar ham yo'q emas.

Darhaqiqat, o'zini oqlamagan g'oyalar, yo'nalish va konsepsiyalar bisyor, ularning aksariyati hozir juda og'ir ahvolda, ayrimlari esa kuchli inqiroz holatini boshdan kechirmoqda. Ammo falsafa o'zining birinchi ma'nosida – «donolikni sevish» sifatida, haqiqatning tagiga yetish usuli sifatida, jon holati sifatida nihoyat, dunyoqarashning alohida shakli sifatida insoniyat turguncha mavjud bo'ladi.

Buni falsafiy bilimning nisbatan yangi ayrim sohalari ham tasdiqlaydi (ba'zan ular mustaqil falsafiy fanlar maqomiga da'vogarlik qiladi). Ular falsafa yondashuvlari va metodlari jamiyat hayotining ayrim jabhalari, murakkab obyektlar, muayyan fanlar va shu kabilarni o'rganishga nisbatan qo'llanilishi natijasida yuzaga keldi. Ularning aksariyati falsafaning eng yangi tarixi bilan bog'liq bo'lib, asosan XX asrga tegishli. Bu yerda, avvalo, tabiat falsafasi, huquq, fan, tarix, siyosat, san'at, din, texnika falsafasi, tanatologiya, gerontologiya va boshqalar nazarda tutilmoqda. O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida tadqiqotning yana bir yangi va o'ta muhim sohasi – globallashuv va u yuzaga keltirayotgan global muammolar falsafasi paydo bo'ldiki, uni o'rganish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Falsafaning asosiy masalalari

Falsafani o'rganayotgan har bir odamda falsafada qolgan barcha muammolarga nisbatan ustunroq ahamiyat kasb etadigan, ya'ni muhimroq, asosiyroq hisoblanadigan masalalar, muammolar mavjud yoki mavjud emasligiga qiziqish ertami, kechmi yuzaga keladi. Bu mavzu nafaqat boshlovchi, balki professional faylasuflar uchun ham diqqatga sazovor. Ularning orasida kimdir bu mavzuga jiddiy e'tibor beradi, kimdir esa, aksincha, uni muhim deb hisoblamaydi. Falsafaning uzoq tarixiga umumiy nazar tashlasak, olam va insonning kelib chiqishi, rivojlanishi va mohiyatiga, shuningdek, hayotning ma'nosi, inson bilishining tabiatiga tegishli «boqiy» falsafiy muammolar deyarli barcha falsafiy ta'limotlarda

muayyan tarzda mavjudligini, turli falsafiy asarlarda, ular aynan kimga qarashliligi va qaysi davrga mansubligidan qat'i nazar, qisman yoki, aksincha, atroflicha muhokama qilinishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, ong, tafakkur, ruh, ideallik va ularning materiya, tabiat, borliq bilan o'zaro nisbati masalalariga o'z munosabatini bildirmagan yoki, aytaylik, o'z mulohaza va xulosalarida shubha qilmagan faylasufni topish mushkul. Bu hol o'z vaqtida olimlar tomonidan «falsafaning asosiy masalasi»ni ta'riflashiga turtki bergan bo'lib, unda ikki jihat alohida ajralib turadi.

Birinchi jihat moddiylik va ideallikning o'zaro nisbatiga tegishli. Savol shunday qo'yiladi: «Materiya birlamchimi yoki ruh (ong)mi?» yoki «Tafakkur va borliqning nisbati masalasi butun, ayniqsa, eng yangi falsafaning buyuk asosiy masalasidir».

Ikkinchi jihat birinchi jihat bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda: «Dunyoni bilish mumkinmi?» Boshqacha aytganda: «Biz haqiqiy dunyo haqidagi o'z tasavvurlarimiz va tushunchalarimizda borliqni to'g'ri aks ettirishga qodirmizmi?» degan savollarga javob izlanadi.

Dunyo azaldan moddiy ong esa bu materiyaning mahsulidir degan bu faylasuflar *materialistlar*, dunyo zamirida materiyadan oldin paydo bo'lgan va uni yaratuvchi ideal narsa va hodisalar yotadi ya'ni Xudo, degan fikrni himoya qiluvchilarga *idealistlardir*.

Bunda idealizmning ikki turi – ob'yektiv va sub'yektiv idealizm farqlanadi. Nomoddiy hamda inson ongiga bog'liq bo'lmagan (ya'ni ob'yektiv mavjud bo'lgan) narsalar va hodisalarni (Xudo, dunyoviy aql, g'oya, ruh va shu kabilar) butun borliqning asosi deb e'tirof etuvchilar *ob'yektiv idealistlar* hisoblanadi. Falsafa tarixida Platon, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, Gegel G., Berdyaev N. kabi mutafakkirlar ob'yektiv idealizm namoyandalaridir. *Sub'yektiv idealizm* dunyo faqat individual sub'yektiv ong mahsulidir degan g'oyaga tayanadi Berkli J., Yum D., Fixte I.G. sub'yektiv idealizmning yorqin namoyandalaridir.

Falsafa tarixida materialistik yo'nalish va oqimlar ham mavjud. Xususan, materiyani yaratish va yo'q qilish mumkin emasligi haqidagi fikr-mulohazalarga *sodda materializm* bo'lib, uning vakillari: *Qadimgi Xitoy faylasuflari – Lao-szi, Yan C'hju;*
Qadimgi hind faylasuflari – lokayata yo'nalishi namoyandalari:

Qadimgi davrning mashhur faylasuflari – Geraklit, Empedokl, Demokrit, Epikur va boshqalar.
Qadimgi Markaziy Osiyo faylasuflari- Zardo'sht Sepitoma kabilardir.

Klassik mexanika vujudga kelgan va faol rivojlangan Yangi davrda *mexanistik materializm* (Golbax P., Gassendi P., Lametri J.) keng tarqaldi.

XVIII-XIX asrlarda falsafiy materializmning yo'nalishlari:
antropologik materializm (Feyerbax L.);
vulgar materializm (Fogt, Byuxner, Moleshott);
dialektik materializm (Marks K., Engels F.) shakllandi.

Biroq, mazkur tasnifga muvofiq materialistlar yoki idealistlar deb nomlanuvchi muayyan faylasuflar bunday farqlashga asossiz sxemalashtirish va soddalashtirish deb qarab, o'zini bu yo'nalishlarning birortasiga ham mansub deb hisoblamasligi mumkin. Bunday qarashlar shu bilan izohlanadiki, to'g'ridan-to'g'ri va uzil-kesil tarzda, bu muammoni tushunishga nisbatan boshqacha yondashuvlarni e'tiborga olmasdan ta'riflangan «falsafaning asosiy masalasi» muqarrar tarzda barcha faylasuflarni ikki katta qarama-qarshi lager – materialist va idealistlarga ajratadi, bu hodisaning ayrim ko'rinishi sifatida faqat moddiy va ma'naviy substansiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblovchi *dualistlar*nigina (masalan, Dekart R.) farqlaydi.

Ammo falsafiy tafakkur tarixida u yoki bu faylasuflar fikriga ko'ra, eng muhim deb qaraladigan boshqa muammolar ham mavjud. Ayni shu sababli aksariyat faylasuflar substansiya (dunyoning birinchi asosi) haqida mulohaza yuritar ekan, mazkur masalaning qo'yilishini «falsafaning asosiy masalasi» bilan bog'lashga moyil emas. Masalan, ilk antik faylasuflar uchun falsafaning asosiy muammosi: «Dunyo nimadan yaratilgan?», degan savol bilan bog'langan. O'sha davrda bu savol eng muhim, asosiy, birinchi darajali hisoblangan.

O'rta asrlar sxolastikasida «falsafaning asosiy masalasi» «Xudoning borligini qanday qilib oqilona asoslash mumkin?» degan savolga javob izlashda o'z ifodasini topadi. Hozirgi diniy falsafiy konsepsiyalar, xususan neotomizm uchun u hozir ham bosh masala bo'lib qolmoqda. Ibn Sino fikricha, falsafaning asosiy masalasi – mavjudotni barcha mavjud narsalarni kelib chiqishi, targ'iboti, o'zaro munosabati, biridan-ikkinchisiga o'tishni har tomonlama tekshirish uchun zaruriy

imkoniyat, voqelik sabab tamoyillari asos qilib olishdan iborat.

Yangi davrda I.Kant falsafaning asosiy masalasi, «Inson nima?» degan savolga javob izlash deb bilib bergan. Uning fikricha, *inson ikki xil dunyo – tabiiy zarurat va ma'naviy erkinlikka mansub bo'lib, ularga muvofiq odamzot, bir tomondan, tabiat mahsuli hisoblanadi, boshqa tomondan esa, u «erkin harakat qiluvchi mavjudotning o'z-o'zidan yaratish» natijasidir*[1].

Ekzistensializm falsafasida asosiy masala har bir individ o'zi uchun o'zi hal qilishi lozim bo'lgan «Hayot yashashga arzivdimi?», degan savolga javob izlash bilan bog'liq, zero, mazkur yo'nalish namoyandalarining fikriga ko'ra, bu savolga javobsiz qolgan hamma narsa o'z ma'nosini yo'qotadi. Fransuz ekzistensialist faylasufi Kamyu A. ta'biri bilan aytganda: «Hayot yashashga arzishi yoki arzimasligi masalasini hal qilish, falsafaning asosiy masalasiga javob topish demakdir».

Masalan, pragmatizm asosiy e'tiborni "Haqiqat" tushunchasiga va uni aniqlash muammosiga qaratadi. Bu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, falsafa, avvalo, ayni shu muammo bilan shug'ullanishi va insonga amalda foyda keltirishi lozim.

Falsafaning asosiy funksiyalari

Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta'riflar ekan, ayni vaqtda har xil funksiyalarni ham bajaradi. Falsafaning barcha funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Falsafaning dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi, insonning dunyoga munosabati, uning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek, turli voqealar, hodisalar va o'z burchini qanday talqin qilishi, avvalo, bevosita uning dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqod va bilimlar, tuyg'u va emotsiyalar, ratsionallik va irratsionallik, tajriba, intuisiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki

[1] Kant I. Op. T. 6. M. 1966. C. 351.

«donolikni sevish» sanaladigan, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o'zaro bog'lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to'g'ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi, umumiy aloqalarga, turli narsa va hodisalar xossalarining birligiga e'tiborni qaratadi, shu tariqa o'zining bosh funksiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsa va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariya va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rnini ma'lum darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog'liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, muayyan tarzda haqiqatning tagiga yetishga qarab mo'ljal oladi, bu esa eng muhim masaladir.

Falsafaning metodologik funksiyasi maqsadni aniq belgilash, faoliyatni to'g'ri tashkil etishda oz ifodasini topadi va u muayyan metodlar yordamida amalga oshiriladi. Metod yunoncha methodos – yo'l, tadqiqot, tekshirish so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek, borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan usul yoki amallar majmuini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmetning tadqiqot yo'lidir. Odatda, metodologiya muammolari falsafa doirasida o'rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funksiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o'ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishidan iborat.

Falsafaning integrativ funksiyasi real borliqning yangi ob'yekt hamda hodisalari inson nazariy tadqiqotlari sohasidan o'rin olishi,

shuningdek ilgari ma'lum darajada anglab yetilgan narsa va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyojda o'z ifodasini topadi. Buning natijasida ayrim fanlar paydo bo'lib, ular nafaqat o'z tadqiqot obyekti va predmetini ajratdi, balki o'zining faqat mazkur fanga xos bo'lgan tili, kategoriyalar apparati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo'lda jiddiy xavf ham mavjud bo'lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o'rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni yechishda faol o'zaro aloqa qilish qobiliyatini yo'qotadi. Qarama-qarshi jarayon ilmiy bilimlarning integrasiyalashuvi va muayyan muammolarni yechish uchun kuch-g'ayratni birlashtirish jarayoni bu xavfning oldini olish imkonini beradi. Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi zamon fanida ba'zan ayrim ilmiy fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, ya'ni har biri o'z fanining tilida gapirgani bois tushunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinib, qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljal oladi. Murakkab ob'yektlarni kompleks tadqiq qilishda har bir muayyan fan o'z predmetidan kelib chiqadi. Bu predmet doirasi unga o'rganilayotgan obyektni yaxlit ko'rish, uning aloqalarini aniqlash imkonini bermaydi. Bu vazifani hal qilishga ham faqat falsafa qodir bo'lib, u butun vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi, bu jihatdan nafaqat fanlar o'rtasida, balki inson faoliyatining ayrim jabhalari, masalan, o'tkazilayotgan tadqiqotlar bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy, siyosiy, axloqiy faoliyat o'rtasida ham bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Falsafaning madaniy funksiyasi odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali madaniy funksiyani ham bajaradi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakat va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishda hamda hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy

meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafaning aksiologik funksiyasi o'lim va umrboqiylik, voqea, hodisaga «yaxshi», «yomon», «muhim», «foydali», «foydasiz» kategoriyalari bilan baho berish orqali yana hayotning ma'nosini tusunishda o'z ifodasini topadi. U uzoq muddatli tendensiyalarni qisqa muddatli tendensiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsa va hodisalarni ikkinchi darajali narsa va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi. Shu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo'ljal va ustuvorliklari belgilanadi, ya'ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib topadi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko'p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlarning xulq-atvori va jamiyatda yuzaga keluvchi munosabatlar bilan bog'liq. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan me'yor va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday me'yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi, odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari xususiyati va o'zaro til topish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida muxtasar ko'rinishda namoyon bo'ladi, shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi insonning o'z o'zini tarbiyalash, doimiy o'z faoliyati natijalariga baho berish, bilim egallash va ijtimoiy hayotda undan foydalanishni nazarda tutadi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o'z-o'zini anglab yetishga yo'naltirilgan falsafaga muhtoj. Buni 2002-yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o'tkaziladigan "Jahon falsafa kunlari" ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e'tiborini qaratadigan Jahon falsafa kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat bunday kongress birinchi marta 1900-yilda

Fransiyada o'tkazilgan. 1948-yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o'tkazish an'anaga aylangan. Xususan, 1998-yilda Boston shahrida (AQSh) bo'lib o'tgan XX jahon falsafa kongressi "Paydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa" mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida "Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz" mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo'lmish Koreya Respublikasining Seul shahrida "Hozirgi davrda falsafani qayta anglash" degan umumiy mavzu ostida bo'lib o'tdi. Kongresslarning mavzularidan ko'rinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va eng muhim muammolarni anglab yetishga xizmat qilib keldi. Shunday muammolardan biri — insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli hamda ahamiyati masalasidir. Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi.

Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta'lim va tarbiyani, ya'ni o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qodir bo'lgan jismoniy va ma'naviy jihatdan komil insonni voyaga yetkazishni «paydeyya» (yunon. pais — bola) atamasi bilan ifodalaganlar. O'sha zamonlarda paydeyya aristokratiyaning o'ziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar ta'lim va tarbiya muammolarini yana birinchi o'ringa qo'yib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy ma'ruzalarning mualliflaridan biri fransuz faylasufi Per Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan ma'rifatli tabiatga o'tish imkoniyati qay darajada mavjud?», degan savolni o'rtaga tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki ma'noli bo'lib, faqat ma'rifat (paydeyya) odamzotni so'zning to'liq ma'nosidagi insonga aylantiradi yoki, Platon ta'biri bilan aytganda, paydeyya uning ko'zini ochadi.

Biroq ma'rifatning vazifasi ko'zga ko'rish qobiliyatini berishdan emas, balki unga to'g'ri qarashni o'rgatishdan iborat. Demak, Platon, Demokrit, Zardo'sht boshqa mashhur faylasuflar fikriga tayanib, ma'rifat yordamida ta'lim va tarbiya jarayonini zo'rlikka qarshi yo'naltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning boshqacha tabiatini yaratish mumkin. «Paydeyya» tushunchasi bolani tarbiyalab komil

insonga aylantiruvchi ta'lim jarayoniga e'tibor qaratadi. Qadimgi yunonlar «texne» va «paydeyya» kabi tushunchalarni farqlaganlar: birinchi atama bilimni, ya'ni o'rganish mumkin bo'lgan narsani anglatsa, ikkinchi atama bilim berish manbaini emas, balki to'g'ri fikr manbaini anglatadi. Bunda paydeyya, Aristotel ta'biri bilan aytganda, insonni o'zini o'zi kamol toptirishga rag'batlantirishi lozim. Shu bois Protagor, Suqrot va Platon aytganidek, falsafadan saboq berishda ishontirish mahoratini emas, balki to'g'ri fikr yuritish mahoratini o'rgatishga e'tibor qaratish muhim.

Falsafani siyosiylashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari

Falsafani o'ta siyosiylashtirish ma'lum ma'noda zararli. Chunki sobiq sovet tuzumi davrida ayni falsafiy bilimni mutlaqlashtirish, uni siyosiy bilim doirasi bilan chegaralash oqibatida falsafa siyqalashdi, uning asl mazmuniga putur etdi. Shuningdek, falsafaning barcha zamonlar va har qanday sharoitda o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin bo'lgan, qolgan barcha masalalarni istisno etadigan biron-bir bitta, birdan-bir to'g'ri asosiy masalasi bormi? Bizningcha, mazkur uzil-kesil ta'rif kontekstida bunday masala mavjud emas. Birinchidan, ayni holda tarixiy davrni ham, falsafiy bilimning plyuralistik tabiatini ham hisobga olish talab etiladi. Ikkinchidan, bitta muammoni faqat muayyan vazifani yechish maqsadida murakkab masalalarni sxemalashtirish, ataylab soddalashtirish to'g'risida so'z yuritilayotganini tushungan holda, ma'lum darajada shartlilik bilan mutlaqlashtirish mumkin.

Masalan, falsafaning «borliq» va «substansiya» kabi keng tarqalgan asosiy kategoriyalari haqida so'z yuritib, muayyan faylasuflarning ularga bo'lgan munosabatini aniqlashga harakat qilar ekanmiz, «falsafaning asosiy masalasi»ni uzil-kesil yechish tarafdorlari ilgari surgan mantiqqa muvofiq, barcha faylasuflarni ma'lum darajada shartlilik bilan materialistlar, idealist va dualistlarga ajratishimiz mumkin. Ayni vaqtda, muammoga nisbatan yangicha yondashuv yoki masalaning yangicha talqinini taklif qilishi mumkin bo'lgan boshqacha yondashuvlar paydo bo'lishi va mavjudligiga yo'lni berkitmaslik uchun har qanday sxemalashtirish cheklangan xususiyatga ega bo'lishini unutmaslik kerak.

Ayni bir masalaga boshqacha nuqtai nazardan, g'ayrioddiy yoki

mutlaqo kutilmagan tomondan yondashish taklif qilingan, pirovardida esa avvalgi qarashlar nuqtai nazaridan erishish mumkin bo'lmagan kashfiyotlar olingan hollarga tarixda misollar bisyor. Masalan, geosentrik qarashlar o'rnini geliosentrik qarashlar egallashi, nisbiylik nazariyasining paydo bo'lishi, Rim klubiga taqdim etilgan «O'sish chegaralari» ma'ruzasi va hokazolar ko'pchilik uchun tabiiy, o'z-o'zidan ravshan bo'lib tuyulgan narsalarga nisbatan noan'anaviy, g'ayrioddiy yondashuv mahsulidir. Mazkur misollar «qat'iy», uzil-kesil ta'riflarga nisbatan ancha ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim, zero bu ba'zan yanglishishlarga, oxir-oqibatda esa turg'unlik va dogmatizmga olib keladi, degan fikrni tasdiqlaydi.

Dunyoni bilish mumkinmi, degan savolga faylasuflar javoblari orasida ham ikki qarama-qarshi yondashuv ajralib turadi. *Bu yondashuvlardan biri gnoseologik optimizm bo'lib, unda, insonning bilish imkoniyatlari cheklanmagan, u o'zini qiziqtirayotgan tabiat va jamiyat qonunlarini kashf etish, narsalar mohiyatini aniqlash , dunyoning haqiqiy manzarasini yaratishga ertami, kechmi muvaffaq bo'ladi, deb hisoblanadi.* Bunda G.Gegel va u yaratgan ta'limotning ko'p sonli tarafdorlarini tilga olib o'tish o'rinli bo'ladi.

Agnostisizm (yunon. a – inkor, gnosis – bilim) namoyondalari dunyoni, narsa va hodisalar mohiyatini to'la (yoki hatto qisman) bilish amalda mumkin emas, deb hisoblaydi. qatoriga D.Yum, I.Kant agnostisizm namoyandalaridir.

Falsafada shubhaning roli

Gnoseologik optimizm va agnostisizm yondashuvlarini taqqoslash va ularga baho berishda muhim rol o'ynaydi. Shubha ijodiy yo'naltirilgan har qanday bilishning zaruriy elementi hisoblanadi. Shuningdek, falsafiy mulohazalar har qanday shak-shubhadan xoli bo'lsa, notanqidiy idrok etiladigan o'tmish va qadimda o'zlashtirilgan qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunish me'yorga aylanib qolsa, bu, dogmatizm, turg'unlik va tanazzulga eltadi.

Bunga qadimdayoq antik faylasuflar: elladalik Pirron, Arkesilay, Sekst Empirik va shubhani fikrlashning asosiy tamoyili, inson bilimini esa nisbiy deb e'lon qilgan falsafiy yo'nalish – skeptisizmning boshqa

asoschilari e'tibor qaratgan. Skeptisizm haqiqatga shak-shubhasiz egalik va narsalarni to'g'ri tushunishga da'vogar bo'lgan falsafiy ta'limotlar hukmronligiga munosabat sifatida vujudga keldi , shu ma'noda, ijobiy rol o'ynadi.

Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati yoki amaliy falsafa

Odatda falsafa kundalik hayot va amaliyotdan ancha uzoq bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud. Ammo bu fikrga qo'shilish mushkul, zero umumiy nazariyalar, agar ularga kengroq ma'noda va uzoqroq istiqbol nuqtai nazaridan yondashilsa, ba'zan bilimning tor sohalariga taalluqli bo'lgan ko'pgina muayyan g'oyalardan yaxshiroq samara beradi.

Albatta, falsafa doim kundalik hayotdan ma'lum darajada uzoq bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Uning o'ziga xos xususiyati, betakrorligi ayni shu omilda namoyon bo'ladi. Biroq, boshqa tomondan, falsafa oddiy ijtimoiy borliq, kundalik ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy hayot amaliyoti bilan muayyan ma'noda bog'liq. Falsafiy refleksiya va u bilan mushtarak bo'lgan harakatlarning mazkur yo'nalishi XX asrda hatto butun bir yo'nalish – amaliy falsafa vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunda falsafa siyosiy, ijtimoiy va boshqa qarorlar qabul qilishga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatishini mutlaqlashtirish yoki uni inkor etish mumkin emas. Shu narsa aniqki, falsafa odamlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, yuqorida zikr etilgan qarorlarni ishlab chiqish jarayonida ularning yondashuvlarini ham ko'p jihatdan belgilaydi, faylasuflarning o'zlari esa ba'zan odamlar hayotini butunlay o'zgartiruvchi muhim, olamshumul g'oyalar tashabbusi bilan chiqadilar.

Faylasuflar jamiyatdagi ma'naviyat va axloqning holati uchun ham sezilarli darajada javobgardirlar, zero ular nafaqat ijtimoiy me'yorlar va tamoyillarni rivojlantiradilar, ulardan dars beradilar yoki kitoblar, maqolalar orqali ijtimoiy ongni ular bilan oshno etadilar, balki aksariyat hollarda keng jamoatchilik fikrini uyg'otadigan, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va ma'naviyat masalalariga doir muhokama va munozaralar tashkil etadilar. Bunday munozaralarning ba'zilarini tahlil qilamiz. Masalan:

1. O'zingizni tarixiy voqelik qahramonlaridan biri sifatida ta'riflang. Hatti harakatlar, shaxsiy ko'nikmalar, so'zlaringizga o'sha qahramon ohangini bering. Sizga bu qahramonning qaysi xarakterli xususiyati yoqdi? Siz o'zingizning xulq atvoringizni o'zgartirgan bo'larmidingiz?

2. Biz hayotni ta'minlovchi "Baxt ko'zgusi" mashinasini yaratdik. Siz "Baxt ko'zgusi", qanchasini olsangiz cheksiz davom etuvchi yoqimli tuyg'uga ega bo'lasiz. Siz o'n soatga "Baxt ko'zgusi"ga kiritilasiz, shunda qolishni istaysizmi yoki undan chiqishni istaysizmi" Ha bo'lsa nega va yo'q bo'lsa negaligini tushuntiring.

3. Yaxshi odam albatta baxtli bo'lishi kerakmi?, agar baxtli bo'lishi shart bo'lsa, siz bu odamni qaysi mezonlar asosida yaxshiligini aniqlagan bo'lar edingiz?

4. Hayotning har qanday sinovlarini qabul qilishga tayyormisiz?, muammoli vaziyatning yechimini topishga qanday yondashgan bo'lar edingiz?

5. Siz qachonlardir mustaqil qaror qabul qilganmisiz? Bu majburiyat bo'lganmi yoki mas'uliyat?

6. Erkinlik doim ham yaxshilikka olib keladimi?, erkinlikning me'yori bormi?

7. Farzand qo'rishni istaysizmi? Agar ha bo'lsa nima uchun?

Bu savollarning ba'zilari yyengil bo'lsa, boshqalari chuqur falsafiy mohiyatga ega. Biroq ularning hammasi sizni shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Endi yana ba'zi savollarga javob berish lozim: masalan

8. Siz o'z ixtiyoringiz bilan o'limga tayyormisiz?

9. Faylasuf Suqrot o'limni o'z ixtiyori bilan qabul qilgan, chunki u o'z shahrining uni o'limga mahkum qilgan qonunlarini hurmat qilish lozim deb hisoblagan. Qonun uni o'limga mahkum qilgan tsm "Living Well"). (U zaharlanib o'lgan. U zahar solingan suvni ichgan va yarim soatdan so'ng o'lgan. Uning do'sti Kriton qochishga ishontirishga harakat qilgan. Biroq uning qonunga itoatkorlik tuyg'usi shu qadar kuchli bo'lganligi, o'zining qat'iyatligini namoyon qilish uchun u o'limni qabul qilgan. Bizning davrimizda qonunga itoatkorlik bormi? Qonunlarning hammasini inson manfaatlari himoyasiga yo'nalgan deb

o'ylaysizmi?

10. AQShlik yosh vatanparvar Natan Xeyl (1755-1776) urush davrida mustaqillik uchun jon fido qilib tarixda qoldi. Inglizlar uni dor ostiga olib kelib osishga tayyorgarlik ko'rayotgan daqiqada u "ming afsuski menda faqat bitta umrim bor, agar ikki marta umrim bo'lganida uni ham vatan uchun fido qilgan bo'lar edim" degan. (1985-yilda Konnektikut shtatining milliy qahramoni deb tan olingan. Nyu Yorkning siti xoll parkida haykal qo'yilgan). Siz vatan uchun jon fido qilishga tayyormisiz?

11. Ba'zi talabalar jonlarini o'zlarining qarindoshlari hayotini qutqarish uchun fido qilishga tayyorligini, ba'zilari o'z jonini Iso Payg'ambar uchun fido qilishga tayyorligini ta'kidlagan. Sizchi? Siz o'z hayotingizni birov uchun qurbon qila olgan bo'larmidingiz? Ba'zi talabalar o'z sha'nini himoya qilish uchun jonini qurbon qilishga tayyorligini ta'kidlagan. Ba'zilari esa o'z jonini qurbon qilishga munosib hech narsa yo'q deb hisoblaydi. Sizchi?

12. O'lim bilan yuzma-yuz qolganda siz xudoga murojaat qilasizmi?. Agar ha bo'lsa nima uchun? Siz bu vaziyatda nimalar haqida o'ylashingiz mumkin. Nihoyasiga yetmagan ishlar, sevgan musiqani eshitish, dunyoga so'nggi maktub bilan murojaat qilish haqida o'ylaysizmi?

13. 1970-yilda chuvalchanglar qiroli filmidagi bosh qahramon "biz hozirgina yashash uchun yana uch daqiqa oldik. Uch daqiqa bu naqadar go'zal deb murojaat qiladi. Siz hayotingiz qil ustida qolganda berilgan uch daqiqani qanday qabul qilgan bo'lar edingiz?

14. Siz Xudoga ishonasizmi? Yoki taqdirni o'z qo'lingiz bilan o'zingiz yaratishingizgami?

15. Siz o'zingizni baxtli hisoblaysizmi?, baxt va baxtsizlik me'yorlari bormi?

16. Agar Xudoga ishonsangiz boshqalar ham unga ishonishi kerakmi? Sizda ularni bunday harakatga ishontiruvchi dalillar bormi? Xudoga ishonish sizning shaxsiy ishingizmi? Agar Xudoga ishonsangiz dunyodagi cheksiz yomonliklar va azob uqubatlarning boisi nima? Agar siz Xudoga ishonmasangiz, siz hanuz hayot qandaydir oliy mohiyatga ega deb o'ylaysizmi? Aslida siz xudoga ishonmasangiz, olamning mavjudligi

uchun qandaydir sabab bordir?

17. Nima nisbatan real hisoblanadi? Siz o'tirgan kursimi yoki kursini tashkil qiluvchi molekulalarmi yoki siz kresloda o'tirganlik haqidagi tuyg'ularmi?

18. Biz eng aniq, ishonchli, tuyg'ularimiz uchun yomonroq ishonchli reallik haqida o'ylashga odatlanganmiz. Biroq, bizning tuyg'ularimiz uchun ishonchli voqealar odatda noto'g'ri bo'lib chiqadi. Olimlar fikricha balki bizning ishonchimizdan farqli o'laroq kursi, qattiq obyektdir, bu aslida to'g'ri emas. Ular fikricha, kursi ko'rinmas mayda zarrachalar, turli mexanizmlardan iborat atom va molekulalarning katta uyumi, bo'sh makonda katta tezlikda harakatlanadigan elektronlardir. Boshqa tomondan faylasuf yoki psixolog sizning tuyg'ularingiz real emas balki, stul borligi haqidagi tuyg'ulardir deb bahs boradi. Siz nima deb o'ylaysiz?

19. Sizni fikr va hissiyot emas, balki aql boshqaruvchiligini isbotlash uchun nima qilgan bo'lar edingiz?

20. Falsafada fizika, kimiya va biologiya metodlari orqali tushuntiriladigan moddiy olam jismlarining jismoniy, moddiy jihatlari aqlimiz bilan boshqariladigan aql mahsuli sifatida doim mahkamma qilinadi. Psixik holatlar va jarayonlar bizning tuyg'ularimiz va fikrlarimiz faqat insongagina ma'lum bo'lishi mumkin. Biroq, qanday qilib biror bilgan, birovning aqli mahsuli bo'lgan narsani boshqa tomga bildirish mumkin.

21. Ayoqlik faqat siz Yer Quyosh atrofida aylanadi deb hisoblaysiz. Bunday deb hisoblashingiz to'g'rimi? Qachonlardir bundan 500 yil ilgari kam sonli odamlargina Yer Quyosh atrofida aylanadi deb hisoblagan. Ulardan eng mashhuri Kopernik bo'lib, uning nazariyasi bugun barcha olimlar tomonidan tan olingan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki kundalik turmushda biz "quyosh chiqdi va botdi", kabi so'zlar bilan yerning stasionar holatini ifodalaymiz. Gap shundaki bunday lingvistik muhitda ham talabalar Kopernikning nazariyasi to'g'riligini asoslab beruvchi ishonchli sabablarni bera olmaydi. Agar siz jamiyat bilan qamrab olinmagan bo'lganingizda yer quyosh atrofida aylanishini ta'kidlagan bo'larmidingiz? Uning aylanishi sabablarini ko'rsata olgan bo'larmidingiz?, demak falsafiy dunyoqarash faqat savol berishgina

emas, balki ularga oqilona javob berish san'atidir. Falsafaning ijtimoiy ahamiyati unda shunga o'xshagan savollarga har bir inson o'zining ma'naviy qiyofasi nuqtai nazaridan bahs berishga qamrab oladi.

Falsafaning ijodiy xarakteri

Falsafa jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan holda, ayni vaqtda fan bilan doim yaqin aloqada ish ko'radi. U yoki bu fan qanday muayyan muammolarni hal qilishidan qat'i nazar, ular bilan bog'liq jarayon va hodisalarga, ya'ni butun voqiyatga, shu jumladan, oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo zaruriy shart hisoblanadi. Muayyan fan predmeti va uning oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng, mazkur fan chegarasidan chetga chiqadigan, bilimning boshqa sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni ham aks ettiradigan yaxlit yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman, fanning rivojlanishiga erishish ham mumkin emas.

O'z vaqtida dunyoga nisbatan (odatdagi, «klassik» fizika doirasida uzoq yillar hukm surgan yondashuvlarga qaraganda) kengroq yondashuv, masalan, A.Eynshteyn (1879-1955)ga dunyoning manzarasini tushunishga nisbatan butunlay yangicha yondashuvni taklif qilish va avvalgi fizikaning aksariyat qoidalari muayyan darajadagina haqiqiy bo'lib qolgan sharoitda klassik (Nyuton) mexanikasini ham o'z ichiga olgan «Nisbiylik umumiy nazariyasi»ni ta'riflash imkonini berdi. Ammo tabiiy savol tug'iladi: bu erda falsafa chindan ham ijodiy rol o'ynadimi? Agar ijodiy rol o'ynagan bo'lsa, bu nimada va qay tarzda namoyon bo'ldi?

Umumiy dalillarga to'xtalmay, shuni qayd etishni o'rinli deb hisoblaymizki, A.Eynshteyn ongida o'zidan oldingi va o'zi yashayotgan davrdagi falsafa g'oyalari to'qnashdi. Ular mutafakkirning butun ijodiy faoliyatiga, hech shubhasiz, kuchli ta'sir ko'rsatdi, zero u rasionalistik falsafaning ko'pgina klassiklari, ularning o'tmishdoshlari va izdoshlari bilan talabalik yillaridayoq tanishgan edi. «Biz A.Eynshteyn ijodiga bilan talabalik yillaridayoq tanishgan edi. «Biz A.Eynshteyn ijodiga XX asr o'rtalarining fizik konsepsiyalari va kelajakka prognozlar nuqtai nazaridan, retrospektiv nazar tashlar ekanmiz, uni insoniyat ma'naviy hayoti katta bir bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin. Bu bosqich faqat Nyuton mexanikasi bilan boshlangani yo'q. Butun rasionalistik fan

va XVII asr falsafasi uning negizi hisoblanadi. Eynshteyn asarlari bilan tanishar ekansiz, Galiley, Dekart, Spinoza, Gobbs, Nyuton satrlarini beixtiyor eslaysiz – ba'zan g'oyalarning ajabtovur o'xshashligiga duch kelasiz. XVII asr rasionalistik tafakkurining nomuayyan faraz va izlanishlari qanday qilib ijodiy, izchil shakl-shamoyil kash etayotganining guvohi bo'lasiz. Bu yerda tadrijiy aloqa mavjudligi shak-shubhasiz»[1].

Xulosa. Falsafiy tasavvurlar va tabiiy-ilmiy qarashlarni farqlash oson ish emas. Biroq falsafiy tasavvurlar tabiiy-ilmiy qarashlarga ta'sir ko'rsatgani, shuningdek, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, I. Nyuton, A.Eynshteyn kabi buyuk olimlarning ilmiy g'oyalari zamirida ularning keng va teran falsafiy bilimlari yotishi shak-shubhasiz. Ayni shu sababli ko'rsatilgan mutafakkirlarning yaxlit falsafiy ta'limoti haqida bo'lmasa ham ularning jiddiy falsafiy qarashlari haqida to'la asos bilan so'z yuritish mumkin.

Tajribaviy amaliy matnlar


Falsafa, dunyoni sezish, dunyoni idrok qilish, dunyoni tushunish, ijod, falsafaning funksiyalari, falsafaning asosiy masalalari, falsafaning predmeti.

Mustaqil ish savol va topshiriqlari


1. Falsafa mening hayotimda (esse tayyorlash).
2. K.Popperning «Falsafa nima?» asarining tahlili.
3. Falsafaning ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqligini asoslay olasizmi?
4. "Paydeyya" eng qadimiy va yangi muammo mavzusida esse tayyorlang
5. Falsafaning amaliy ahamiyatini tushuntiring
6. XXI asrda falsafaning ijodkorlik rolini tasniflang

[1] Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. Жизнь, смерть, бессмертие. – М.: 1980. – С. 414

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar









Materialistlar- dunyo azaldan moddiy, ong esa bu materiyaning maxsulidir, deb hisoblovchilar

Idealistlar- dunyo zamirida materiyadan oldin paydo bo'lgan va uni yaratuvchi ideal narsalar va hodisalar yotadi, degan fikrni himoya qiluvchilar.

Falsafa dunyoqarsh sifatida:

Falsafa- o'ziga xos ilmiy-nazariy dunyoqarash turi. Dunyoqarshning eng yuqori pog'onasi va turi, ratsionallik, sistemalilik, mantiq va nazariy shakli borlig'i bilan ajralib turadi.

Falsafiy dunyoqarshning diniy va mifologik dunyoqarshfan farqi

-Falsafiy dunyoqarash bilimga asoslangan (ishonch yoki rivoyatga emas);
-Falsafiy dunyoqarash refleksiv (fikrning o'ziga qaratilganligi);
-Falsafiy dunyoqarash mantiqqa asoslangan (ichki birlik va sistemaga ega);
-Falsafiy dunyoqarash aniq tushunchalar va kategoriyalarga asoslanadi.

Falsafaning dunyoqarash sifatidagi evolyutsiyasi etaplari

-**Kosmosentrizm**- falsafiy dunyoqarash, uning asosida olamni, tabiat hodisalarni tashqi kuchlar – Koinot (Kosmos) qudrati va cheksizligi orqali tushuntirish, unga ko'ra butun borliq Koinot va kosmik sikllarga bog'liq (bu falsafa qadimgi Hindiston, Xitoy boshqa sharq mamlakatlari va qadimgi Gretsiyaga xos).
-**Geosentrizm** - falsafiy dunyoqarashning turi bo'lib, uning asosida butun borliqni tushuntirib bo'lmaydigan, g'ayritabiiy kuch- Xudoning hokimiyati orqali tushuntirish (o'rta asrlarda Yevropada tarqalgan).
-**Antroposentrizm** – falsafiy dunyoqarashning turi, uning markazida inson masalasi turadi (Renessans davridagi Yevropa yangi va eng yangi davrlar, hoziegi zamon falsafiy maktablari.



Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. «Falsafa» atamasining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) Yunoncha phileo- sevaman, sophia -donolik so'zlaridan kelib chiqqan.

B) Lotincha philo-donishmandlik. Sophia-sevaman so'zlaridan kelib chiqqan.

V) Yunoncha phileo-sevaman va sophia-bilish ma'nosini anglatadi.

G) To'g'ri javob yo'q.

2. Falsafa so'zini ilk bor qaysi mutafakkirlardan biri miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan?

A)Pifagor

B)Aristotel

V)Platon

G)Suqrot

3. Donishmandlar deb .....?

A) Asrlar sinovidan, eng so'nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo'lgan bashoratgo'ylar.

B) Kohinlarning so'zlari shak-shubhasiz va birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan va ular donishmand deb hisoblangan.

V) Oqsoqollar deb e'tirof etilgan.

G) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Faylasuf deb ... ?

A) Qadimgilar fikriga ko'ra, izlanuvchi, donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga ishonadi.

B) O'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan.

V) Boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan.

G) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat qurollarini yasagan insonsimon mavjudotlarning (lot. homo habilis – uquvli odam) qadimgi manzilgohlari taxminan qpachon paydo bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi?

A. 3-5 mln. yil oldin

B) 5 mln. yil avval

V) 1,5 mln. yil avval

G) 2 mln. yil avval

6. Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan necha yilni tashkil etadi?

A) 1,5 mln. yilni

B) 2mln. yilni

V) 2,5 mln. yilni

G) 3 mln. yilni

7. Homo sapiens, ya'ni aqlli odamlar tipi necha yil oldin vujudga keldi?

A) 40-60 ming yil

B) 3 mln. yil avval

V) 50-60 ming avval

G) To'g'ri javob yo'q

8. Falsafa nimani o'rganadi?

A) Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar, ishonch va intuisiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday obyektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi.

B) Inson o'z qiziqishi obyekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmetidir.

V) Insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuisiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday subyektiv borliq falsafaning predmeti hisoblanadi.

G) Barcha javoblar to'g'ri.

9.Yunonistonda kosmosentrizm ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor nimani anglab yetishga qaratilgan?

A) «kosmos», «tabiat»ni

B) "kosmos", "fazo"ni

V) "fazo", "vaqt"ni

G) "makon", "zamon"ni

10. Yevropada xristianlikning, Sharqda islom dinining vujudga kelishi va mustahkamlanishi natijasida o'rta asrlar falsafasi qanday xususiyat kasb etdi?

A) Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmetiga aylandi.

B) Uyg'onish davrida falsafa san'at (estetika)ga va ko'p jihatdan insonga murojaat qilindi.

V) Barcha javoblar to'g'ri.

G) Teosentrik markazdan o'rin olgan xudo.

Adabiyotlar:

1. Декарт Р. Избранные произведения. М.:1950.

2. Платон и его эпоха. М.: 1979.

3. Кант И. Соч. Т. 6. М.: 1966.

4. Лукашов А.Э. Становление философии на Востоке. Древний Китай и Индия. М.: 1989.

5. Кушнеров Б.Г. Эйнштейн. Жизнь, смерть, бессмертие. М.: 1980.

6. Гоббс Т. Избранные произведения: В 2 т. М.: 1964. Т. 1.

7. Qahharova Sh. Falsafaga kirish. T.: Universitet. 2005.

8. Qahharova Sh.B. Global inqiroz davrida falsafaning asl mohiyatini tushunish muammosi//Global ma'naviyat - globallashuvning g'oyaviy asosi. T.: Ma'naviyat. 2009.

9. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2009.

10. Shermuhamedova N. Falsafa. –T.: Idris abdurauf. 2021. 457 b.

5 - MAVZU. FALSAFA MADANIYATLAR TIZIMIDA.

Fanning mohiyati

Falsafaning hozirgi zamon madaniyatidagi o'rni haqida tasavvur hosil qilish uchun uning fan, din va san'at bilan o'zaro nisbatini ko'rib chiqamiz.

Falsafa nafaqat fan, balki ijtimoiy hayotning boshqa, chunonchi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy jabhalari, san'at va shu kabilar bilan ham uzviy bog'liq.

Biz falsafa va fan munosabatlarining genezisi haqida ularning birligi va farqlarini aniqlashga harakat qilamiz. Mazkur masalani mufassalroq o'rganishga kirishar ekanmiz, avvalo, ko'rsatilgan tushunchalarning asosiy ma'no va mazmunlarini aniqlab olamiz.

Fanni tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning keng va tor talqinlari shakllangan.

Keng (yig'ma) ma'nodagi fan – butun inson faoliyati jabhasi bo'lib, uning vazifasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni o'rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iborat. Bu yerda «fan», «olim» tushunchalari muayyanlashtirilmaydi, umumiy, yig'ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. «Fan» tushunchasi falsafaga tatbiqan ko'pincha ayni shu kontekstda qo'llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o'rinli.

Muayyan ilmiy fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq ma'no yuklanadi. Bu erda fanga aniq ta'rif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu obyekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonun va metodlarga, mazkur fan uchun yagona sanalgan til, kategoriyalar apparati va hokazolarga ega bo'ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida yuz beradigan yoki muayyan

sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyat va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtai nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada olg'a siljish uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avloddan-avlodga o'tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo'li bilan olingan ba'zi oqilona javoblar mavjud bo'lgan. Bu javoblarni haqqoniy, ya'ni amaliyot sinovidan o'tgan, kundalik hayotda o'z tasdig'ini topgan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala «yopilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq ta'riflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch ta'sir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, ya'ni ular o'zining boshqa variantlarini istisno etadigan aniq yechimini topgan. Mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi tufayli o'zining ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. Yechilgan masala va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan, shu davrdan e'tiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi K.Yaspers bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi, bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

Shunday qilib, azaldan yaxlit va bo'linmas dastlabki bilim sifatida amal qilgan falsafa zaminida o'sha zamonlardayoq amaliy xususiyat va tegishli yo'nalishga ega bo'lgan bilim sohalari faol shakllana boshladi. Shu tariqa asta-sekin tabiatshunoslik vujudga keldi, muayyan fanlar (matematika, geometriya, fizika, tibbiyot, astronomiya, tarix va boshqalar) shakllanib, o'z shakl-shamoyilini kasb etdi va mustaqil tus oldi. Ayni shu ma'noda falsafa barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Bu

fanlar falsafadan ajralib chiqqach, keyinchalik ilmiy bilimning tabaqalanishi jarayonida ba'zan parchalanib, o'z tadqiqot predmetini yanada toraytira va mufassallashtira boshladi. Ular tahlilining teranligi va narsalar mohiyatini anglash darajasi ortsa, ayni vaqtda o'rganilayotgan masalalar doirasi torayadi.

Fan - dunyoqarash shakli

Bilimlarning o'sishiga qarab har xil muammo va masalalar soni ham tinimsiz ko'payib bordi. Bu jarayon fanning rivojlanish sur'ati yanada jadallashuvi va u falsafadan yanada ko'proq ajralishiga sabab bo'ldi. Biroq fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu Nyuton I, klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning asosiy bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo, Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari.

1. Ilk fan davri yoki fan emas davri miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni yechishda foydalaniladigan ma'lumotlar, usul va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo'limlar vujudga kelgan keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan.

Jumladan, Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular

haqidagi alohida fan «ka- toptrika»i farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astronomiya, al-Beruniy meneralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astronomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shishdi, ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy kuzatishlar va amaliyot ma'lumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eksperimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan spekulyasiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda vujudga kelgan ilmiy fanlar bu davr mobaynida falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, XVII asr oxirida Nyuton fizika asoslarini yaratgan o'zining «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini e'lon qilgan. Shunday qilib, falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatidagi fan hali mavjud bo'lmagan; u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai hayot amaliyoti va hunarmandchilik san'ati bilan bir vaqtda, lekin u bilan juda zaif aloqada rivojlangan. Xullas, bu davrda Qadimgi Yunonistonda "Platon akademiyasi", Markaziy Osiyoda "Ma'mun akademiyasi" tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

2. *XVI-XVII asrlar – ilmiy inqilob davri bo'lib, u klassik fan davri deb nomlanadi.* U Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnisning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Galiley vafoti (1642-yil 8-yanvar)dan so'ng oradan bir yil o'tgach Nyuton tug'ilgani (1643-yil 4-yanvar) ramziydir. Fanning bu buyuk ijodkorlari yashagan davr novatorlik kashfiyotlari hamda yangi ilmiy g'oyalarning mualliflari sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi qattiq kurash olib borgan romantik davrdir.

Bu davrda hozirgi zamon tabiatshunosligining asoslari yaratilgan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo'lga kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim

tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta'riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog'liq bo'lgan yangi me'yor va ideallari vujudga kelgan. Fan o'z metodologiyasini yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishga tobora faolroq yo'naltirilgan.

Biroq fan o'zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug'orilgani sari u o'z tarixiy vatani – falsafa qirg'oqlaridan uzoqlasha boshlaydi. Ko'rib chiqilayotgan davr oxiriga kelib u falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat'i nazar, rivojlanishi mumkin bo'lgan bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo'ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet ta'limi tizimi rivojlanadi. O'z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari hamda qoidalariga ega bo'lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va Yevropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta'sis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo'lib, u tashkil etilgan paytda 55 a'zodan iborat bo'lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a'zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Ammo Evropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan bo'lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o'n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan.

3. XVIII-XIX asrlar fani noklassik fan davri deb ataladi. Bu davrda ko'plab ayrim ilmiy fanlar vujudga keladi, ularda ulkan faktik material to'planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Texnika fanlari vujudga kelib, moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o'ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o'sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

XVIII asrning o'rtalarida jahonda fan bilan shug'ullanuvchi kishilar

10 ming kishidan oshmagan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XVI asrda «olim odamlar»ning yarmidan ko'prog'i diniy ma'lumot olgan kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog'iga aylanadi, u bilan universitet va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shug'ullanadi. 1850-yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950-yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi. 1825-yilda nemis kimyogari Yu.Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi, bu olimga ko'p miqdorda daromad keltira boshlaydi. XIX asr oxiriga kelib bunday laboratoriyalar soni ko'payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e'tiborini o'ziga tobora ko'proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarini mablag' bilan ta'minlay boshlaydilar.

I. XX asrdan fan rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bu davr fani postnoklassik deb ataladi, chunki mazkur asr bo'sag'asida fanda inqilob yuz beradi, buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me'yor va ideallarida olamshumul o'zgarishlar yuz beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi fanni yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar adabiyotlarda ko'pincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar shu bilan bog'liqki, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli ko'rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Fan energetikada (atom elektrostansiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kompyuterlar) ayniqsa ulkan

o'zgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish poygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablag'larni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida FTT axborot (kompyuter) inqilobi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. Shu tariqa fan bilan bog'liq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak ta'lim endilikda har qanday jamiyatning sivilizasion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o'rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo'lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo'linmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy hol bo'lib qoldi. Natijada XX asrning ikkinchi yarmi fani jadal sur'atlarda o'sib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Ko'p sonli ilmiy muassasalar ishiga son-sanoqsiz odamlar ommasi jalb qilindi. Olim kasbi kam uchraydigan kasb bo'lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o'zlarini qiziqtirgan muammolarni yechishga buning butun xavf-xatarini o'z bo'yniga olib qo'l urgan ayrim mutafakkirlarning mashg'uloti emas, balki buyurtmaga, rejali topshiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda bajarish va o'z ishi haqida hisobot berishga majbur bo'lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi. Fan bilan shug'ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalishi bejiz emas.

Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo'lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular faol o'zaro ta'sirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol shu bilan izohlanadiki, falsafa daliliy materialga, sinovdan o'tgan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, o'z mavhum g'oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini

qo'lga kiritadi. XXI asr boshiga kelib jahonda olimlar soni qariyb olti millionga yetdi, taxminan shuncha odam fanga xizmatlar ko'rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texniklar, nashriyot xodimlari va h.k.). Erda qadim zamonlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o'ndan to'qqiz qismi zamondoshlarimiz ekanligi ayon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 10‰ ni tashkil qiladi, fanni ta'minlashga milliy daromadning 5‰ dan ko'prog'i sarflanadi.

Hozirgi zamon fani jamiyat, texnika, iqtisodiyot, madaniyat, turmush va kundalik hayotni yo'lga soluvchi qudratli kuchga aylandi. Ayni vaqtda odamlar bugun fanning qudratinigina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan xavflarni ham yaxshi anglaydilar. Hozirgi dunyo o'z yutuqlari va o'zining jo'shqinligi uchun fan oldida mas'uliyatli. Ammo ilmiy haqiqat o'z holicha odamlarning ehtiyojlariga befarq. U beparvo va rahm-shafqatsiz. Ammo, I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "kuch bilim va taffakkur" da bo'lsa, bu kuch ortib borgani sari insoniyatga ziyon yetkazmaslik uchun undan yanada ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Shuni alohida qayd etish lozimki, mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonda fan barcha sohalari rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (O'zFA) mamlakatimizning bosh ilm tashkiloti bo'lib, uning tarkibida 38 ta ilmiy tadqiqot muassasalari, 4 ta davlat muzeyi, 3 ta hududiy bo'lim: Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qoraqalpog'iston va Samarqand bo'limi, 4 ta Andijon-Namangan, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo ilmiy bo'limlari kiradi, bugungi kunda ularning moddiy texnika bazasi yangi texnologiyalar bilan ta'minlandi.

2007-yilning 2-oktyabrida O'zFA "Astronomiya" institutining olimlari Maydanak baland tog' observatoriyasida (Qashqadaryo vil.) B.Xafizov hamda A.Sergeevlar tomonidan topilgan kichik sayyora Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning taklifiga ko'ra fan, jumladan, astronomiya ilmida olimu fuzalolarga doimo boy bo'lib kelgan qadimiy shahar "Samarqand" nomi bilan ataldi va u AQShning "Garvard kichik sayyoralar" forumida "210271" raqami bilan ro'yxatga olindi hamda O'zbekistoniya, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Beruniy, al-Xorazmiy

kabi kichik sayyoralar qatoridan o'rin oldi.

Astronom G.Neyman tomonidan 1934-yil 5-oktyabrda Silize (Qrim) shahrida kashf etgan yangi kichik sayyoraga o'zining ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarini Mirzo Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti bo'limi bo'lgan Kitob xalqaro kenglik stansiyasida olib borganligi uchun O'zbekistoniya nomini bergan. 1973-yil 26-sentyabrda Qrimlik astronom Lyudmila Chernix tomonidan kashf etilgan yangi sayyora buyuk olim, tabib, faylasuf Abu Ali ibn Sino nomi bilan atalgan. 1977-yil 21-avgust kuni Qrimlik astronom Nikolay Chernix tomonidan kashf qilingan kichik sayyora davlat arbobi va yozuvchilar ilmining bilimdoni Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalgan. 1986-yil 8-avgustda Bolgariya Milliy astronomik observatoriyasida Valter hamda Violeta Ivanovalar tomonidan topilgan sayyoraga minerolog, tarixchi, geograf, matematik, faylasuf Beruniy nomi berilgan. 1997-yil 31-dekabrda Louella observatoriyasining (Preskott, Arizona shtati, AQSh) rahbari astronom Pol Komba tomonidan kashf qilingan sayyora esa ilm fan oldidagi buyuk xizmatlari uchun matematika asoschisi Al – Xorazmiy nomi bilan atalgan).

Shuni tan olish lozimki, hozirgi vaqtda jamiyat ko'p jihatdan fanning ulkan yutuqlari tufayli o'zini o'zi yo'q qilish yoqasiga kelib qoldi. Bu ilmiy taraqqiyotni to'xtatish kerak, degani emas. Ammo ilmiy izlanishni insoniy, axloqiy munosabatga bo'ysundirish, balki uning qaysidir yo'nalishlarini cheklash zarurligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilmoqda. Ilmiy izlanishning insonparvarlashuvi, uning yo'llari va oqibatlariga axloqiy munosabat – davrimizning muhim muammolaridan biri.

Fan va falsafaning mutanosibligi

Ayni shu hol falsafa bilan, undan muayyan fanlar ilgari falsafiy tusga ega bo'lgan tadqiqot predmetlari bilan ajralib chiqqanida yuz berishini taxmin qilish o'rinli bo'ladi. Biroq, bunday hol yuz berayotgani yo'q. Tarix fan falsafadan qancha ko'proq ajralsa, unda shuncha ko'proq masala va muammolar paydo bo'lishini, ya'ni falsafa nafaqat kamaymasligi, balki, aksincha, ko'payishini ko'rsatadi. Buning sababi nimada? Bu savolga javobni fan va falsafaning o'ziga xos xususiyatlaridan, ularni alohida-alohida tavsiflovchi masalalar va ularning

yechimlari o'rtasidagi tafovutdan qidirish o'rinli bo'ladi.

Fan faqat o'zi olgan haqqoniy bilimlar va masalalarni yopuvchi muayyan natijalarga tayanishi unda o'z muammolari va «ochiq» masalalari mavjud emasligini anglatmaydi. Biroq aniq, shak-shubhasiz javoblarga ega bo'lmagan falsafiy masalalardan farqli o'laroq, ilmiy masalalar bilimdonlik qilishni emas, balki puxta o'ylashni talab qiladi, zero ular pirovardida dastlabki taxminlarni rad etuvchi yoki ishonchli bilimlar doirasini kengaytirib tasdiqlovchi muayyan yechimlar olish real yoki potensial imkoniyatiga ega. Shu tariqa vujudga keladigan ilmiy fanlar qaynayotgan suvdagi ko'piklar kabi kattalashib, falsafiy mushohada yuritish jabhasini, anglab yetilgan narsalar anglanmagan narsalar bilan yuzma-yuz keluvchi sohani ham kengaytiradi, chunki tabiatshunoslik doirasida javob berishning iloji bo'lmagan yangi masalalarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda eski falsafiy muammolardan yangi falsafiy jumboqlar sari o'tilmoqda. «Xudo bormi?», «Haqiqat nima?», «Ruhning tabiati qanday?» qabilidagi falsafiy masalalarni aniq va uzil-kesil yechish mumkin emas, balki ularni yechishning umuman iloji yo'q. Shu bois bu savollar ham javobsiz qolmoqda.

Nima uchun «balki» kabi savollar beriladi, shuning uchunki, qadimda donishmandlarni bugungi kun nuqtai nazaridan mutlaqo falsafiy bo'lmagan va tom ma'noda falsafiy sanalgan masalalar qiziqtirgan. Misol uchun: «Yulduzlar kunduzi, quyosh esa — tunda qayerga yo'qoladi?», «Nima uchun ayrim jismlar suvda cho'kadi, ba'zi jismlar esa suvda suzadi?», «Chopqir Axilles sudralib borayotgan toshbaqaga qanday yetishi mumkin, basharti har safar ularning o'rtasidagi masofani bosib o'tish uchun u mazkur masofaning teng yarmidan o'tishi lozim bo'lsa?» va h.k. Biroq bu va shunga o'xshash masalalar falsafadan tabiatshunoslik sohasiga o'tgach, ko'pincha yangi va yangi falsafiy muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan:

Yer va boshqa sayyoralarni ayni bir yo'nalishda aylantirgan kuch qayerda?

Agar bizning quyoshimiz o'rtacha kattalikdagi yulduz bo'lsa, unga o'xshagan milliardlab yulduzlarning hech bo'lmasa ayrimlari bizning Yerimizga o'xshash hayot mavjud bo'lgan yo'ldoshlarga ega bo'lishi mumkinmi? Biroq inson eng yaqin yulduzlarga yetishi uchun nafaqat

inson hayoti, balki uning sivilizatsiyasi tarixidan ham ko'proq vaqt talab etilar ekan, buni qanday qilib isbotlash yoki rad etish mumkin? Nihoyat, biz kuzata oladigan olam kengayib borayotgan bo'lsa, bu harakat zamirida qanday sabab va kuchlar yotadi?

Bu va boshqa ko'pgina shunga o'xshash muammolar odamlarni falsafaga qayta va qayta murojaat etishga majbur qiladi, chunki fan hozircha bunday savollarga aniq javob berishga qodir emas. Aksilolamlar va aksilgravitasiya, qora materiya va qora energiya, boshqa makon va vaqt o'lchovlaridagi dunyolar haqidagi har xil falsafiy g'oyalarning mavjudligi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, fan va falsafaning roliga baho berishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Fanning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan muammolarning anglab yetilishi keng omma ko'z o'ngida uning ikki xil obrazi paydo bo'lishiga olib keladi: hayrat va chuqur ehtirom tuyg'ulari bilan bir qatorda u ishonchsizlik va qo'rquv ham uyg'otadi. Fanni baholashga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv: ssientizm va antissientizm vujudga keladi.

XX asrda fanning yuksalishi falsafani amaliy fan metodlari asosida tashkil etishga urinishlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ssientizm (lot. scientia – «bilim, fan») ilmiy bilimni madaniyatning eng oliy andozasi deb e'lon qiladi, o'z tarafdorlari ko'z o'ngida «sof, qadriyat sifatida neytral katta fan» mafkurasi sifatida gavdalanadi. *Ssientizm tabiiy va texnik fanlarning metodlariga tayanishni, ilmiy mezonlarni esa inson tomonidan dunyoni o'zlashtirishning barcha turlariga, bilimning barcha shakllariga, shu jumladan, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan tatbiq etishni tan oladi.* Ssientizm bilan bir vaqtda uning ziddi – butunlay qarama-qarshi g'oya va mo'ljallarni e'lon qiluvchi *antissientizm fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlaridan kelib chiqib, fanning imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan qaraydi. Antissientizm fan ekspansiyasini cheklashni, an'anaviy qadriyatlar va faoliyat usullariga qaytishni talab qiladi*

Ssientistlar fanni buyuk qadriyat deb biladilar, odamlar hayotidagi barcha muammolarni yechishga nisbatan ilmiy yondashuv zarurligi va ijobiy samara berishiga ishonadilar. Ularga zid o'laroq antisayentistlar fan yutuqlari va ularning oqibatlariga salbiy baho beradilar, fanning

g'ayriinsoniyligi hamda uning rivojlanishini cheklash zarurligi haqida gapiradilar.

Ssientizm fanni yanada rivojlantirishgina fan-texnika taraqqiyoti natijasida yuz bergan kulfatlardan insoniyatni xalos etishi mumkinligini isbotlashga harakat qiladi. Antissientizm g'oyalarida esa fan-texnika taraqqiyotiga ham, fanga ham ishonchsizlik o'z ifodasini topadi. Hozirgi zamon fani texnika bilan birga tanqid ostiga olinadi; unda ma'naviy madaniyatga yot bo'lgan vayronkor kuchni ko'radilar va odamlarni baxtga eltuvchi birdan-bir to'g'ri yo'l — ma'naviy barkamollik yo'liga kirishga chaqiradilar. Ssientizm va antisientizmning qarama-qarshiligi zamirida rasionalizm va irrasionalizm madaniy paradigmalarining to'qnashuvi yotadi. Jamiyatda antisientistik kayfiyatning kuchayishi mistik va irrasionalistik mo'ljallarning kuchayishi bilan bir oqimga quyiladi.

Hozirgi zamon fani o'zining harbiy loyihalardagi ishtiroki bilan ham, insoniyatni halokatga olib kelishi mumkin bo'lgan dahshatli kashfiyot va ixtirolar haqida matbuot orqali tarqatilayotgan mishmishlar bilan ham ko'pchilikda vahima uyg'otmoqda. Fanning bunday salbiy obrazi shakllanishiga ommaviy san'at — «ilmiy-fantastik» asarlar va kinofilmlar ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Shu bilan bir vaqtda fanga jamiyat munosabatining ikki yoqlamaligi yana shunda ham ifodalanadiki, u jamoat ko'z o'ngida rang-barang ijtimoiy vazifalarni hal qilishga ko'maklashuvchi, odamlar mushkulini oson qiluvchi muhim kuch bo'lib qolayotir. Mazkur omil jamiyatni fan bilan hisoblashishga va uning rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishga majbur etmoqda.

Ammo antissientizm fanning obro'sini tushirishga zo'r berib harakat qilmoqda, bu fanni moliyalashtirishning yomonlashuviga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. XX asr oxirida yuzaga kelgan bu jarayon madaniyatda qachongacha davom etishini aytish mushkul. Fan rivojlanishda davom etmoqda va mazkur jarayon mavjudligiga qaramay uning jamiyatdagi roli kuchayib bormoqda. Ammo jamiyat va fan o'rtasidagi munosabatlarni yaxshi deb aytish qiyin. Fanga qarama-qarshi munosabatlar mavjudligi tasodifiy bir hol emas, balki hozirgi zamon madaniyatining ziddiyatliligi ifodasidir.

Harakat qarshi harakatni keltirib chiqaradi: ratsionalizm, texnisizm, ssientizm hozirgi zamon sivilizatsiyasining rivojlanishini amalda harakatlantiruvchi ma'naviy kuchdir; irratsionalizm va mistika, antisientizm va texnofobiya esa ayni shu kuchga bo'lgan munosabatdir.

Fanni yanada rivojlantirish yanada ko'proq mablag' talab etsa kerak, bu esa tanqid va qarshi harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi muqarrar. Resurslar taqchilligi — fanning o'sishini cheklovchi omil. Kelajakda bu omilning ta'siri faqat kuchayib borsa kerak. Ko'pgina mutaxassislarning fikricha, ayni shu omil ilmiy bilimlarning o'sishiga monelik qilayotgan boshqa ichki va tashqi qiyinchiliklar bilan birga XXI asrda fan rivojlanishining xususiyati sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Falsafa va fanning umumiy jihatlari

Falsafa fan bilan sinkretik yaxlitlikda vujudga kelgan va o'z tarixi mobaynida u bilan o'xshashlik jihatlarini saqlab kelmoqda. Quyidagilar fan va falsafaga xos bo'lgan umumiy jihatlar hisoblanadi.

Bilimning nazariy tipi. Mazkur bilimning xususiyati shundaki, u voqelikni nafaqat tavsiflaydi, balki uni tushuntiradi. Uni yaratishda fikrlar, mulohazalar, muhim rol o'ynaydi. U mantiqiy xulosa va dalillarga tayanadi abstrakt tushunchalarda ifodalanadi. Demak, falsafa va fan, eng avvalo, aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fanning asosiy tushunchalari kategoriyalar deb ataladi. Kategoriyalar apparatini (o'z tilini) yaratadi, o'zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi. Har bir fanning o'z kategoriyalari bor (masalan, termodinamikada — issiqlik, energiya, entropiya va sh.k.). Falsafiy kategoriyalarga hammaga yaxshi tanish bo'lgan tushunchalar ham (ong, vaqt, erkinlik, haqiqat va b.), kundalik muomalada kam ishlatiladigan, lekin muayyan falsafiy tizimlarda hal qiluvchi rol o'ynaydigan tushunchalar ham (monada, narsa o'zida, transsenzus, ekzistensiya va b.) ham kiradi. O'rganilayotgan obyekt va hodisalarning qonun va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo'ljal oladi.

Haqiqatga olim va faylasuf o'z faoliyatida erishishga intiladigan oliy qadriyat sifatida yondashish. Inson faoliyatining boshqa barcha turlarida

haqiqiy bilim biron-bir boshqa maqsadga erishish uchun zarur, unga aynan shu maqsadga erishish vositasi sifatida qaraladilar. Masalan, motorning nosozligini aniqlagan shofyorni uning sabablari haqidagi haqiqiy bilim o'z-o'zicha emas, balki mazkur nosozlikni bartaraf etish uchun qiziqtiradi. Sudyaga haqiqatni aniqlash unga asoslanib adolatli hukm chiqarish uchun talab etiladi.

Faqat fan va falsafadagina faoliyat maqsadi o'z-o'zicha haqiqat, so'zning o'z ma'nosidagi haqiqat hisoblanadi. Ushbu faoliyat sohasida haqiqiy bilim uning o'zi uchun topiladi, agar unda vosita sifatida ishlatiladigan bo'lsa, faqat yangi haqiqiy bilimni olish vositasi sifatidagina ishlatiladi.

Shu bilan bir vaqtda, jamiyatning fan va falsafaga bo'lgan ehtiyoji ular jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi. Ilmiy va falsafiy bilish chegarasidan tashqarida ularning natijalaridan amaliy maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi.

Fan va falsafa o'rtasida umumiy jihatlarning mavjudligi falsafiy bilimni ilmiy bilimning bir turi deb hisoblash odat tusini olishiga sabab bo'lgan. Ushbu odatga muvofiq falsafiy bilimning turli sohalari falsafa fanlari deb ataladi, faylasuflarga fan nomzodi va doktori ilmiy darajalari beriladi, falsafiy tadqiqot muassasalari Fanlar akademiyasi tizimiga kiritiladi va h.k. Biroq, falsafani fan bilan birlashtiruvchi umumiy jihatlar bor ekan, ayni hol falsafa fandir, degan xulosa chiqarish imkoniyatini beradimi? Bu savolga javob «fan» deganda nima tushunilishi bilan bog'liq. O'zbek tilida u juda keng mazmun kasb etadi. Odamlar o'rganadigan hamma narsani «fan» tushunchasi bilan ifodalash mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, falsafa ham, albatta, fandir. Ammo fan haqida unga fizika, geologiya, biologiya, arxeologiya, tilshunoslik, texnika fanlari va hokazolar kiritilganida mazmunda tutiladigan ma'noda gapiritsa, falsafa fanmi, degan savolga javob topish oson ish emasligi ayon bo'ladi.

Falsafaning fandan farqi

«Falsafa nima?», degan savolga «U barcha fanlar fanidir», degan javobni eshitish mumkin. Bu ko'p jihatdan qulay javob. Birinchidan, «barcha fanlar fani» maqomi falsafaga bo'lgan hurmatni o'z-o'zidan

oshiradi. Ikkinchidan, «barcha fanlar fanidir» degan ta'rif falsafadek ulkan fanni to'liq o'zlashtirish mumkin emasligiga ishonchi komil bo'lganlarning nuqtai nazarini bilvosita oqlaydi.

O'z-o'zidan ravshanki, inson tafakkurining biron-bir sohasi, shu jumladan falsafa ham dunyo haqidagi maxsus-ilmiy bilimlar to'plamini to'liq qamrab ololmaydi. Faylasuf amalda biolog, matematik, fizik va boshqa fanlarning vakillari o'rnini bosa olmaydi, buning keragi ham yo'q. Falsafa barcha fanlar fani bo'lishi, ya'ni ayrim fanlardan bir pog'ona yuqori turishi mumkin emas, shuningdek, uni ayrim fanlar qatoriga ulardan biri sifatida kiritish ham to'g'ri bo'lmaydi. Quyida buning sabablariga batafsilroq to'xtalamiz:

- falsafa doim muayyan faylasuf nomi bilan bog'lanadi, bunda uning g'oyalari, asarlari o'ziga xos bo'lishi va ularga boshqa faylasuflar qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga bog'liq bo'lmasligi mumkin. Fan esa mohiyat e'tibori bilan, jamoa mahsuli mahsulidir.

Xususiy fanlar voqelikning insondan tashqaridagi, odamzotdan ham, insoniyatdan ham qat'i nazar, mavjud bo'lgan hodisa va jarayonlariga qarab mo'ljal oladi. Ularni insoniy ma'nolar shkalasi qiziqtirmaydi, ular nisbiylikdan xoli. O'z xulosalarini fan nazariyalar, qonun va formulalarda ta'riflaydi, o'rganilayotgan hodisalarga va muayyan kashfiyot olib kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy oqibatlarga olimning shaxsiy, emotsional munosabati uning e'tiboridan chetda qoladi. Olimning shaxsiyati, uning fikrlash uslubi va temperamenti, qadriyat va mo'ljallari ham fanda alohida qiziqish uyg'otmaydi. Butun olam tortishish qonuni, kvadrat tenglamalar, Mendeleev sistemasi, termodinamika qonunlari obyektivdir. Ularning amal qilishi olimning fikri, kayfiyati va shaxsiyatiga bog'liq emas.

Faylasuf ko'z o'ngida dunyo voqelikning statik qatlami sifatida emas, balki faol yaxlitlik sifatida gavdalanadi. Rang-barang o'zaro aloqalarning mazkur majmuida sabab va oqibat, siklillik va spontanlik, tartiblilik va destruksiya, yaxshilik va yomonlik kuchlari, garmoniya va xaos o'zaro chatishadi. Falsafiy mulohaza yurituvchi aql dunyoga o'z munosabatini aniqlab olishi lozim. Shu tufayli ham falsafaning asosiy masalasi tafakkurning borliqqa (insonning dunyoga, ongning materiyaga) munosabati to'g'risidagi masala tarzida ta'riflanadi. Fan ma'lumotlarini

e'tiborga olgan holda, u narsa va hodisalar mohiyatiga inson borlig'i nuqtai nazaridan yanada teranroq nazar tashlaydi.

Ayrim fanlarning vakillari o'z-o'zidan mavjud va asoslashga muhtoj emas deb qaraladigan muayyan tasavvurlardan kelib chiqadilar. Tor mutaxassislardan birortasi ham bevosita ilmiy faoliyat jarayonida o'z fani qanday paydo bo'lganini, uning o'ziga xos jihatlari va boshqa fanlardan farqi nimadan iborat ekanligini aniqlashga harakat qilmaydi. Tabiiy fanlar tadqiqotchisi, agar u mazkur muammolarni o'rganishni istasa, tabiatshunoslikning falsafiy masalalari sohasiga kirishi kerak bo'ladi. Falsafa, avvalambor, har qanday, shu jumladan, falsafiy bilimning boshlang'ich asoslarini aniqlashga harakat qiladi. U barcha narsa va hodisalarni tushunish, ularga baho berish uchun tayanch nuqtasi hamda mezon bo'lib xizmat qilishga qodir bo'lgan ishonchli asoslarni aniqlashga qarab mo'ljal oladi.

Fan bosh vazifasi voqelik haqida obyektiv bilimlarni yaratish va tizimlashtirishdan iborat bo'lgan inson faoliyati sifatida o'zining munosib o'rnini egallaydi. U ijtimoiy ongning dunyoni anglab yetish, yangi bilimlar olishga qaratilgan shakllaridan biri sifatida tushunilishi mumkin. Fanning maqsadi har doim voqelik jarayon va hodisalarini o'zi kashf etgan qonunlar asosida tavsiflash, tushuntirish va bashorat qilish bilan bog'liq. Fanlar tizimi shartli ravishda tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarga ajratiladi. Ilmiy faoliyat hajmi, ilmiy axborot, kashfiyot va ilmiy xodimlar soni har 15 yilda taxminan ikki baravar ko'payishi aniqlangan. Fanning rivojlanish jarayonida esa ekstensiv va inqilobiy davrlar farqlanadi, ular fan strukturasi, bilish tamoyillari, kategoriyalari, metod va uni tashkil etish shakllari o'zgarishiga olib keladi[1].

Falsafa sub'yektning ob'yektga bo'lgan nazariy va amaliy munosabatiga asoslanadi. U yangi ideallar, me'yor va madaniy qadriyatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy borliqqa faol ta'sir ko'rsatadi. Uning tarixan shakllangan asosiy bo'limlari ontologiya, gnoseologiya, mantiq, etika va estetikadir. Ularning qatoriga boshqa tarkibiy elementlar: falsafiy antropologiya, akseologiya, madaniyat nazariyasi, ijtimoiy falsafa, tarix falsafasi, din falsafasi, fanlar metodologiyasi, fan falsafasini ham kiritish mumkin. Falsafaning rivojlanish jarayonini belgilovchi

[1] Большая энциклопедическая словарь. В 2 т. М., 1991. Т. 2. С. 11-6.

asosiy tendensiyalar dunyo va insonning undagi o'rni, hozirgi zamon sivilizatsiyasining taqdiri, madaniyatlar birligi va rang-barangligi, inson bilimining tabiati, borliq va til kabi muammolarni anglab yetish bilan bog'liq.

Falsafa voqelikka nisbatan har qanday ongli munosabatning chegaraviy asoslari va tartibga solish vositalarini aniqlashga harakat qiladi. Shu tufayli ham falsafiy bilim mantiqan izchil sxema tarzida amal qilmaydi, balki tahlilning barcha qiyinchiliklarini keng muhokama qilish va batafsil ta'riflash, qo'yilgan muammoni yechish yo'llarini tanqidiy taqqoslash va baholash shakl-shamoyilini kasb etadi. Lo'nda qilib aytganda, falsafada erishilgan natijagina emas, balki unga erishish yo'li ham muhim. Zero, yo'l natijani asoslashning alohida usuli hisoblanadi.

Fanda kumulyativ tarzda olg'a siljish, ya'ni erishilgan natijalarga tayangan holda olg'a bosish odat tusini olgan.

Falsafa esa, aksincha, erishilgan natijalarni o'zlashtirish bilangina kifoyalanmaydi. Masalan, hayotning mazmuni to'g'risidagi masalaga o'rta asrlar mutafakkirlari taklif qilgan javob bilan qanoatlanish mumkin emas. Har bir davr bu masalani kun tartibga qo'yadi va uning yechimini topadi. Ilmiy konsepsiyalar, nazariya va paradigmalardagi o'zgarishlar falsafaning rivojlanish jarayoniga o'z hukmini o'tkaza olmaydi. Zotan, falsafa o'zining alohida refleksiya metodini qo'llaydi. Falsafaga insoniyat tafakkuri tarixi mobaynida asosiy muammolarni qayta ta'riflash xos. Uning bu xususiyatini shartli ravishda «falsafaning refleksivligi» deb nomlash mumkin.

Fan dalillarga, ularni tajribada tekshirishga tayanadi. Falsafa kundalik hayotdan uzoqda turadi. U intelligibel, ya'ni faqat aql bilan bilish mumkin bo'lgan mohiyatlar dunyosiga nazar tashlaydi. Go'zallik, haqiqat, yaxshilik, adolat nima, degan savollar empirik xulosalar bilan bog'lanmaydi. Masalan, go'zallikni falsafiy tushunish mazkur hodisani umumiylik nuqtai nazaridan anglab yetishni nazarda tutadi.

Britaniyalik mantiqshunos, faylasuf va sotsiolog Bertran Rassel (1872–1970) falsafaning xususiyatini sodda qilib tushuntirar ekan, falsafa teologiya va fan o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi, degan edi. Uning fikricha, falsafa ikkala tomondan ham hujumlar uchun ochiq. Falsafiy savollarning aksariyatiga ilmiy laboratoriyada javob topish mumkin emas.

Bu savollarga ilohiyotchilar Muqaddas kitobga tayangan holda bergan javoblar ham qoniqarli emas. Fan va teologiya doirasida yechish mumkin bo'lmagan bunday masalalar bilan falsafa shug'ullanadi[1].

Falsafa tili termin va predmetni aniq qayd etuvchi fan tilidan ham, voqelik obrazlar yordamida ifodalanadigan poetik tildan ham, predmetlik kundalik ehtiyojlar doirasida ifodalanuvchi so'zlashuv tilidan ham sezilarli darajada farq qiladi. Dunyo haqida umumiylik nuqtai nazaridan bahs etishni nazarda tutuvchi falsafa olamning cheksizligini aks ettirish imkonini beradigan til vositalariga, universal tushunchalarga muhtoj bo'ladi. Shu tufayli ham falsafa o'z tilini umumiylik va zaruriylik maqomiga ega bo'lgan o'ta keng tushunchalar, kategoriyalar tilini yaratadi. Falsafiy kategoriyalarga sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik misol bo'lishi mumkin.

Konkret-ilmiy fanlar ijtimoiy ongning boshqa shakllarini hisobga olmasdan rivojlanishi mumkin. Masalan, fizika san'at tarixiy tajribasini inobatga olmasdan, kimyo diniy tasavvurlardan qat'i nazar, samarali rivojlanishi, matematika axloq me'yorlarini hisobga olmasdan o'z nazariyalarini ilgari surishi, biologiya esa huquqshunoslik imperativlariga e'tibor bermasdan rivojlanishda davom etishi mumkin. Falsafada bunday emas. Garchi u fanga ham, ma'naviy faoliyatning boshqa biron-bir shakliga ham bog'lanishi mumkin bo'lmasa-da, dunyo haqidagi umumiy tasavvurlarning empirik bazasi va tayanch nuqtasi sifatida unda insoniyat ma'naviy rivojlanishi, ijtimoiy ongning barcha shakllari: fan, san'at, din, huquq va hokazolarning umumiy tajribasi qabul qilinadi.

Fanda qadriyat sifatida inson omili ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Bu yerda bilish ob'yektiv shaxssiz xususiyat kasb etadi. *Fanni olimning shaxsiyati ham, uning tuyg'ulari, emotsiyalari, faoliyatining motivatsion sohasi ham qiziqtirmaydi.* Olim o'z kashfiyotlarining oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi. Falsafada ilmiy-nazariy omil bilan bir qatorda qadriyatlarga munosabat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Protagorning: «Inson hamma narsalar mezonidir», degan tezisiga mos ravishda, falsafa hozirgacha ham o'z dalillarini insoniy qadriyatlar shkalasi doirasida ilgari suradi. U ilmiy kashfiyotlar taqdiri va ularning ijtimoiy oqibatlarini sinchkovlik bilan kuzatib boradi, inson hayotini

[1] Рассел Б. История западной философии. В 2 т. Новосибирск, 1994. Т. 1. С. 11–6.

mutlaq qadriyat sifatida e'tirof etadi.

Falsafada millivlik muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa fani doirasida nemis falsafasi, ingliz falsafasi, fransuz falsafasi, o'zbek falsafasi, nihoyat, yunon falsafasi farqlanadi. Biroq nemis yoki ingliz fizikasi, matematikasi, kimyosi mavjud emas. Darhaqiqat, har bir millat yagona umuminsoniy fanga o'z g'oyalarini kiritishga haqli, biroq butun fanni mazkur maqsadlar bilan bog'lashga haqli emas.

Falsafaga «fan» so'zini tatbiq etish mumkinmi? Bu savolga javob fransuz mutafakkiri, birinchi pozitivist Ogyust Kont (1798–1857) mufassal javob bergan. Uning fikricha, ayrim fanlar bizni qurshagan dunyoning ko'pincha bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ba'zi bir pozitiv manzaralarini yaratadi, alohida-alohida fragmentlardan dunyoning yaxlit ilmiy manzarasini yaratishni esa ilmiy (pozitiv) falsafa ta'minlaydi.

Ilmiy bilim voqelikni aniq aks ettirishga da'vogar bo'ladi va haqiqat nomidan gapiradi. Uni sub'yektning haqiqatni aniqlash usuli sifatida tavsiflaydilar. Fanning ilmiylik mezonlariga kuzatishlardagi takroriylik, bilimning intersubyektivligi (uning umumiyligi va olim shaxsiyatiga bog'liq emasligi), tajribani tekshirish mumkinligi kiradi. Bu mezonlarni falsafaga tatbiq etish mumkin emas. Zotan, falsafiy nazariyalarni tajriba yoki eksperiment yordamida tekshirib bo'lmaydi, bundan tashqari ular mutafakkirning shaxsiyati bilan uzviy bog'liq.

Fan va falsafani demarkasiya qilish (ajratish) muammosi zamirida fanni irrasional va soxta ilmiy hodisalardan, ekzistensial farazlar va ideologik qatlamlardan xalos qilish niyati yotadi. Fan mezonlaridan biri – tajribada tekshirish imkoniyatining zaif jihati uning o'ziga xos emasligi hisoblanadi. Bu mazkur nazariyani tasdiqlamaydigan dalillarga amalda duch kelinishi mumkinligini anglatadi. Tajribada o'z tasdig'ini topgan bilim nazariyaning haqiqiyligiga to'la ishonchni ta'minlay olmaydi, zero nazariyani rad etish, uni falsifikasiya qilish imkoniyati paydo bo'lishi uchun unga zid bo'lgan bitta dalil mavjudligining o'zi kifoya qiladi. Misol uchun, Avstraliyada qora oqqushlar aniqlanmagunicha barcha oqqushlar o'z nomi bilan oq bo'lishiga biologlarning ishonchi komil edi. Ushbu holatlarni e'tiborga olib, Karl Popper (1902–1994) nazariyani tamoyilni rad etish, uni falsifikasiya qilish mumkinligini verifikasiyaning muqobili deb hisoblashni taklif qiladi. Falsifikasiya qilish mumkin

bo'lgan ilmiy nazariyalardan farqli o'laroq, noilmiy konsepsiyalarni, shu jumladan, metafizikani ham rad qilib bo'lmaydi, chunki rad etish imkoniyatining mavjudligi bilim tajribaga asoslangan empirik xususiyatga ega ekanligini, binobarin, uning ilmiyligini, ya'ni dalillar bilan aloqasini tasdiqlaydi. Ilmiylik idealidan uzoq bo'lgan noilmiy konsepsiyalarni rad etish mumkin emas. Ularni biron-bir dalil rad eta olmaydi, chunki ular dalillar bilan ish ko'rmaydi.

Ilmiy-texnika inqilobi sharoitida fanning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini anglab yetish zaruriyati taqozosi o'laroq yangi fan falsafasi vujudga keldi. Bu yosh fan XX asrning ikkinchi yarmidagina o'zini to'laqonli namoyon etdi. Fan falsafasining predmetini tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan olinib, tarixan o'zgaruvchi ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqiladigan ilmiy bilimlar ishlab chiqarish borasidagi alohida faoliyat sifatidagi ilmiy bilimning umumiy qonuniyat va tendensiyalari tashkil etadi. Fan falsafasida falsafiy konsepsiyalar hamda G'arb falsafasining zamonaviy yo'nalishi sifatidagi fan falsafasi doirasida o'tkaziladigan nazariy tadqiqotlarning kuchli ta'siri seziladi. Biroq uning maqsadi muhokama qilinayotgan ko'p sonli muammolarni integrativ tahlil qilish va ularga nisbatan sintetik yondashuvni qo'llash, fan maqsad va imkoniyatlarini, katta va amaliy fanlarning xususiyatlarini, fan va jamiyat o'zaro aloqasini, ilmiy bilish strukturasi va darajalarini, ilmiy tadqiqot funksiyalarini, bilish jarayoni metodologiyasi va hokazolarni aniqlashdan iborat.

Hozirgi zamon falsafasining yo'nalishi sifatidagi fan falsafasi asoschilari J.Mill, O.Kont, G.Spenser, J.Gershel hisoblanadi. «Pozitiv (ijobiy) fan» konsepsiyasining muallifi Ogyust Kont fikriga ko'ra, fan falsafasi yangicha tipdagi falsafa bo'lib, uning vazifasi ilmiy xulosalarni tizimlashtirish, tartibga solish va kodekslashtirishdan iboratdir. Kont tabiat va jamiyatning barcha hodisalariga tatbiqan ilmiylik g'oyasini keng targ'ib qiladi.

Fan odamlar dunyo haqida nimalarni o'ylashlarini emas, balki real dunyoning o'zini o'rganadi. Uni voqelik hodisalari haqida odamlarning subyektiv fikri emas, balki mazkur hodisalar haqidagi obyektiv bilim qiziqtiradi. Falsafa esa voqelikni odamlar tomonidan tushunish tamoyillarini o'rganish bilan shug'ullanar ekan, voqelikning o'zi bilan

emas, balki ayni shu tushunish bilan ish ko'radi. U odamlarning fikrlari, mulohazalari, e'tiqodlarini, ya'ni ularning bilimlari mazmunini o'rganadi.

Inson ongining mazmunini o'rganar ekan, falsafa ongda aks etuvchi voqelik haqida ham xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo odamlar ongi – ko'zgu emas, unda voqelik aks etibgina qolmaydi, balki unda insoniy munosabat ham shakllanadi. Voqelik haqidagi ilmiy bilimlardan tashqari ongda boshqa ko'p sonli har xil ma'naviy fenomenlar – shaxsning madaniy an'analari, hayot tajribasi va individual xususiyatlari bilan bog'liq tuyg'ular, emotsiyalar, mayllar, ideallar, fantaziyalar, madaniy an'analar bilan bog'liq e'tiqod va aqidalar ham mavjud bo'ladi. Ayni shu sababli falsafa, bir tomondan, voqelik haqidagi o'z mulohazalarida fandan kengroq va rang-barangroq materialga tayanadi, boshqa tomondan esa, mazkur material falsafani voqelikka insonning unga nisbatan muayyan tarixiy davr va kishilarning muayyan guruhida yuzaga kelgan munosabati nuqtai nazaridan qarashga majbur qiladi.

Shunday qilib, *fandan farqli o'laroq, falsafiy tafakkur doim dunyoning o'zini emas, balki insonning dunyoga munosabatini, uning dunyo haqidagi tasavvurlarini o'rganadi. Inson – dunyo haqidagi falsafiy mulohazalarning tayanch nuqtasi.*

Falsafada (muayyan fanlardan farqli o'laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu yerda fikrlar rang-barangligi me'yor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo'lmasa fanning muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonun va kategoriyalar tizimi (til)ga nisbatan yondashuvlar birligi, albatta, mavjud bo'ladi.

Falsafa ilmiy bilishning gumanitar tarmoqlari – madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, adabiyotshunoslik va hokazolar (ta'bir joiz bo'lsa «ruh haqidagi fanlar»)ga yaqin turadi. Ammo bu fanlarning har biri odamlar ma'naviy hayotining ayrim sohasinigina o'rganadi va ongning mazmuni to'laligicha tayanadigan umumiy, boshlang'ich, «chegaraviy» asoslarni o'z doirasida anglab yeta olmaydi. Bu vazifani faqat falsafa hal qiladi. Ammo, uni yechish jarayonida falsafa, hech shubhasiz, gumanitar fanlar bilan yaqin aloqalarga kirishadi, o'z xulosalari uchun ulardan material oladi.

Falsafa ilmiy bilim va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, zero ular

tayanuvchi sub'yektiv fikr va mulohazalariga asoslanadi.

Fan esa mohiyat e'tibori bilan isbotlangan va sinashta bilimlar olishga harakat qiladi, bunda olingan bilimlarni tekshirish yoki rad etish imkoniyatining mavjudligi mazkur bilimlar haqiqiyligi va ilmiy jihatdan asosliligining muqarrar sharti hisoblanadi.

Ilmiy bilim voqelikni, ya'ni amalda bor yoki ilgari bo'lgan, yoki kelajakda bo'ladigan narsalarni aks ettiradi. Falsafa esa mavjudlikni aks ettirish bilangina kifoyalanmaydi, eng avvalo, asos sifatida olingan g'oya va tamoyillarga muvofiq bo'lishi lozim bo'lgan narsalar va hodisalarni tavsiflash hamda tushuntirishga qarab mo'ljal oladi. Falsafiy ta'limotlarda gap inson qanday yashashi, nimaga intilishi lozimligi, dunyoni va insonning undagi o'rnini qanday tasavvur qilish kerakligi, haqiqatni qanday tushunish, uning tagiga etish va tekshirish uchun nima qilish zarurligi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar zamirida qaysi tamoyillar yotishi lozimligi, eng yaxshi jamiyat qanday bo'lishi kerakligi va hokazolar haqida boradi. Eng muhim falsafiy masalalar odamlar hayoti va faoliyatini belgilashi lozim bo'lgan hayotning oliy qadriyat va ideallari haqidagi masaladir.

Ammo hayotning oliy qadriyatlari — baxt, yaxshilik, go'zallik, ideal jamiyat, ideal oila va boshqalar haqidagi tasavvurlar amalda mavjud bo'lgan obyektlarning tavsiflari emas, balki amalda mavjud obyektlarni baholash uchun foydalaniladigan xayoliy andozalar.

Masalan, erkinlik va adolat ideallari biron-bir real jamiyatda mavjud bo'lgan erkinlik hamda adolatning tavsiflari emas. Mazkur ideallar to'liq ro'yobga chiqarilgan jamiyat hech qachon va hech qayerda bo'lmagan. Kim ideal adolat nimaligini anglab yetish uchun oldin uni amalda ko'rish kerak, deb hisoblasa, uni hech qachon anglab yetmaydi. Ideal adolatni «kashf etish», «o'ylab topish», xayolan tasavvur qilish zarur. Uni tushunishning boshqa yo'li yo'q.

Hayotning oliy qadriyat va ideallari haqida insonning tasavvurlari uning tafakkuri yoki insonni qurshagan dunyoda «o'z-o'zicha», tayyor holda mavjud bo'lgan narsalar emas. Ular insonning dunyoga ongli munosabati doirasida, balki bu munosabatdan ham tashqarida tug'iladi (ya'ni, ularning ildizlari ong osti sohasiga borib taqalishi ham mumkin).

Falsafiy mulohazalar insonga ayni shu tasavvurlarni, ularning

mazmunini aniqlash, unga ta'rif berish va ong mazmuniga aylantirishga yordam beradi. Ammo birovning falsafiy mulohazalari emas, balki o'z falsafiy mulohazalari! Zero, har bir shaxs noyob hamda betakror, har bir shaxsda hayotning oliy qadriyat va ideallarining o'z noyob va betakror majmui hosil bo'ladi. Bu qadriyatlar va ideallarni chetdan o'zlashtirish mumkin emas: ularni har bir shaxs o'zi yaratishi, idrok etishi va anglab yetishi lozim. Falsafani o'rganish mustaqil mulohaza yuritish uchun zaruriy bilimlarni beradi, lekin o'z oliy qadriyatlari va ideallarini darslikdan «yodlash» mumkin emas, falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas (aks holda ular ilmiy bilimlarga aylanadi).

Ilmiy bilim dalillarning mustahkam zaminiga tayanadi. Har qanday ilmiy faraz tajribada o'z tasdig'ini topishi lozim. Sinovdan o'tgan bilimgina fanda haqiqiy hisoblanadi. Ammo odamlarning voqelikka ongli munosabatining boshlang'ich, «chegaraviy» asoslariga doir falsafiy g'oyalar tajribada olingan faktlarning biron-bir to'plami bilan isbotlash ham, rad etish ham mumkin bo'lmagan fikrlar hisoblanadi. Bu hol mazkur g'oyalarning «chegaraviy» xususiyati bilan izohlanadi: ularning «chegaraviyligi» shunda namoyon bo'ladiki, *ular inson tajribasi chegarasidan chetga chiqadi, tajribada ko'rilishi mumkin bo'lmagan narsa va hodisalar haqida fikrlash me'yorlari (qoidalari, prinsiplari) sifatida amal qiladi.*

Aslini olganda, qadriyatlar va ideallar haqidagi falsafiy mulohazalar dalillarga emas, balki nimani maqbul, yaxshi va zaruriy deb hisoblash lozimligi haqidagi fikrga asoslanadi. Ayni shu sababli qadriyatlar va ideallar haqidagi fikrlarning haqiqiyligi yoki haqiqiy emasligini tajribada olingan ma'lumotlar bilan tekshirish ham, asoslash ham mumkin emas.

Aksariyat hollarda falsafiy fikrlarni tajribada olingan ma'lumotlar yordamida «uzil-kesil» isbotlash yoki rad etish mumkin bo'lmagani bois, falsafada ayni bir masala bo'yicha turli nuqtai nazarlar mavjud bo'lishi mumkin. Fikrlar, qarashlar, nazariya va ta'limotlar rang-barangligi (plyuralizmi) — falsafiy tafakkur rivojlanishining zaruriy sharti. Falsafada asrlar mobaynida muhokama qilinayotgan «abadiy» muammolar mavjud (masalan, erkinlik va zaruriyat, inson hayotining mazmuni muammolari). Mazkur muammolarning har qanday yechimi «birdan-bir to'g'ri yechim» hisoblanmaydi, u shubhalar, e'tiroz va bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.

Falsafa aniq prognoz bera olmaydi, ya'ni u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo'q. Ayrim faylasuflar falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi prognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas.

Yuqorida aytilgan fikrlar falsafiy bilish, umuman olganda, haqiqatning tagiga etishga qodir emas, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, falsafaning rivojlanish jarayonida «abadiy» muammolarning qo'yilishida o'zgarishlar yuz beradi, ular haqidagi tasavvurlar teranlashadi, ba'zan muqobil bo'lib tuyulgan haqiqatlar keyinchalik o'zaro birikadi va bir-birini to'ldiradi.

Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati

Bugungi kunda tezlik va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo'qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o'rinli, lekin ularga javobni hayotning o'zi beradi, u hozirgi zamon odami oldiga ko'p sonli, shu jumladan, ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, butunlay yangi falsafiy muammolarni qo'yadi.

Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini o'z birligini, biosfera holati va Yerda hayotning davom etishi uchun o'z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o'rtasida, shuningdek, jamiyat va tabiat o'rtasida insoniy, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan faylasuflar, avvalo, Yer yuzida ta'limning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko'pgina faylasuflar fikriga ko'ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta'lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo'qligi yotadi. Bu muammolarni yechishda falsafa ham o'z rolini o'ynashi lozim.

Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati falsafaga va o'zini, o'zining hayotdagi o'rni hamda vazifasini falsafiy

anglab yetishga muhtoj.

Falsafa real hayot bilan uzviy bog'liq va doim inson borlig'ining eng muhim muammolarini anglab yetishga qarab mo'ljal oladi. Ayni shu sababli hozirgi davrning muhim muammosi – globallashuv va uni falsafadagi butunlay yangi mavzu sifatida falsafiy anglab yetish muhim ahamiyatga ega. Falsafa predmeti va muammolarini muhokama qilishda alohida diqqatga loyiq bo'lgan boshqa bir mavzu - insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirishda falsafaning roli va ahamiyatidir.

Hozirgi zamon faylasuflari bunday muammolarni yechish ustida ishni davom ettirar ekanlar, «Falsafa nima? U kimga va nima uchun kerak?», «Falsafaning vazifasi nimadan iborat?», «Falsafadan qanday, qaysi yoshdan va nima maqsadda tahsil berish lozim?» qabilidagi bir qarashda allaqachon o'z yechimini topgan masalalarni yana kun tartibiga qo'ymoqdalar. Bu haqda ko'p va atroflicha so'z yuritilgan jahon kongresslari dunyoda falsafa predmetiga, shuningdek, u ijtimoiy rivojlanishga izchil ta'sir ko'rsatishga qodir yoki qodir emasligiga, agar qodir bo'lsa, buni u qay tarzda amalga oshirishi mumkinligiga nisbatan yagona yondashuv avvalgidek mavjud emasligini tasdiqlaydi. Fikrlarning bunday rang-barangligi, yuqorida qayd etib o'tilganidek, falsafaning o'ziga xos xususiyati, ya'ni u fikrlar plyuralizmi, har xil fikrlash imkoniyati bor joydagina mavjud bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Falsafaning unga yaxlit ta'limotga aylanish va tilning birligiga, umumiy qonunlar va metodologiyaga tayanish imkonini bermaydigan bu kamchiligi ayni vaqtda, u fanlararo kompleks muammolarni yechish talab etiladigan murakkab tizimlar bilan ish ko'rgan holda uning afzalligiga aylanadi.

Quyidagilar hozirgi vaqtda insoniyat uchun eng muhim fanlararo kompleks muammolar hisoblanadi: barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash; ekologiya muammolari; jamiyat hayoti barcha jabhalarining globallashuvi. Bu muammolarni falsafiy nuqtai nazardan anglab yetish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuvlardan farqli o'laroq, muammoga nisbatan falsafiy yondashish dalillarni talqin qilishda ko'proq erkinlik berilishi, ilgari surilayotgan qoidalarni isbotlashga nisbatan yyengilroq talablar qo'yilishi, mushohadaga asoslangan ta'riflar berish, subyektiv baholash huquqi va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Bunday tadqiqotlar bir qarashda uncha katta ahamiyatga ega emasdek bo'lib tuyulishi ham mumkin. Lekin amalda bunday emas.

Birinchidan, falsafiy tadqiqot rasional bilishning fanda olingan natijalarni tekshirish (verifikasiya qilish) yoki rad etish (falsifikasiya qilish) imkoniyati yo'qligi tufayli lozim darajada samara bermagan yoki umuman ojiz bo'lib chiqqan sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat oqilona bilishning bundan boshqa usullariga ega emas.

Ikkinchidan, falsafiy refleksiya muammoni ko'rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o'ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, shu jumladan, fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko'maklashadi. Zero, aniq ta'rif va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o'z fikr va xulosalarida bunday erkinliklarga yo'l qo'ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o'zining betakrorligini yo'qotadi.

Uchinchidan, hamonki plyuralizm falsafada me'yor hisoblanar, har bir alohida miyada esa monizmga, ya'ni qarashlarning tartibga solingan, yaxlit va nisbatan ziddiyatlardan xoli tizimiga kelish lozim ekan, falsafani qanday o'zlashtirish, undan qanday saboq berish mumkin?

Butun dunyoda aksariyat faylasuflarni, birinchi navbatda ayni shu masala qiziqtiradi. Xususan, Suqrot, Seneka va o'tmishning boshqa mutafakkirlari tajribasiga tayangan holda, hozirgi vaqtda o'quv jarayonida kamdan-kam holda hisobga olinadigan bir qarashda shak-shubhasiz va aniq-ravshan bo'lib tuyuluvchi fikrning mohiyati shunday: Falsafa faktlarni eslab qolishni o'rgatmasligi, balki mulohaza yuritish va savollarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Falsafadan saboqlar inson har bir masala yuzasidan mutafakkirlar fikriga murojaat etmasdan, o'zi mustaqil o'ylashni va o'z aqliga quloq solishni o'rganishini nazarda tutmog'i darkor. Ayni shu sababli falsafaning vazifasi insonga muloqot qilishni o'rgatish, u o'z shaxsiyatining ahamiyatini ko'rsatishga emas, balki haqiqatning tagiga etishga harakat qilishiga erishishdan iborat. Bu, o'z navbatida, barcha odamlar o'ziga atrofdagilar quloq solishiga loyiq ekanligini nazarda tutadi.

Juda topib aytilgan bu so'zlar falsafani fan sifatida o'rganish, uni bilimlar, tayyor qoidalar va ta'riflarning muayyan yig'indisi sifatida o'zlashtirish mumkin emas, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.

Insonga ta'lim berishda paydeyya yo'lini tanlash – unga «nimani ko'rish lozimligi»ni emas, balki «qayerga va qanday qarash kerakligi»ni o'rgatish demakdir. O'z-o'zidan ravshanki, mazkur vazifani ijodiy yondashuvsiz, o'quvchi va o'qituvchining qiziquvchanligi va intiluvchanligisiz hal qilib bo'lmaydi, falsafa esa o'zining sof ko'rinishida yo'qoladi, «havoga sovuriladi», pirovardida kimdir bayon etadigan, kimdir «o'tishi», o'rganishi, qolaversa, imtihon topshirishi lozim bo'lgan «fan»gina qoladi. Boshqacha aytganda, falsafadan ta'lim berish va uni o'zlashtirish zamirida ham, albatta, ijod yotishi lozim.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida bilimning dastlabki shakli sifatida falsafa paydo bo'lgan. Keyinchalik insonning dunyoni bilishga bo'lgan intilishi natijasida fan paydo bo'lgan. Hozirgi davrda fan inson tafakkurining mahsuli, uning ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida rivojlanmoqda.

Falsafa va san'at

Sa'nat antropogenez, yani insonning olamini estetik idrok etish va uni o'zgartirishga ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Demak, sa'nat bu badiy faoliyat soxasi bo'lib, unda badiy asarlar faoliyatning maxsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Ibtidoiy sa'nat 40–45 ming ilgari paydo bo'lgan bu aqilli odamning ruxiy, ma'naviy, madaniy hayoti shakillanishining davri hisoblanadi. Dastlabki badiy ijod maxsullari mifologik dunyoqarashda o'z ifodasini topgan, odamlar raqs tushgan, toshlarga odam haqidagi tasavvurlarni chizgan, ibtidoiy sa'nat sinkretik xususiyatga ega bo'lgan, zero unda olam haqidagi yaxlit tasavvur aks etgan.

Sa'natning asosiy mohiyati badiy obrozlarda o'z ifodasini topgan, topadi, abdiy obrozlarning muhim belgilari:

emotsionallik – ob'yektga nisbatan yuqori emotsional xissiy xarakatga doir munosabat bildiradi, ob'yekt haqidagi bilm, ob'ekt bilan bog'liq tuyg'ularni ifodalovchi fon vazifasini bajaradi;

shartlilik – sa'nat tufayli yaratilgan vaziyatga nisbatan munosabat bildirishda ongli yondashuvni taqazo etadi;

simvollik – badiy obrozda chuqur yashirin simvollik ma'noni ifodalaydi:

ko'p ma'nolilik badiy obrazdagi xilma-xil talqinining ifodasidir. Bu ko'p ma'noli insonning ruhiy holati, badiiy obrazga munosabati va yoshga doir dunyoqarashini qamrab oladi.

Har qanday badiiy asarni idrok etish turli darajalarda namoyon bo'ladi:

birinchi daraja – moslashish;
ikkinchi daraja – mo'ljal olish;
uchinchi daraja – umumiy emotsional;
to'rtinchi daraja – induvidual emotsional;
beshinchi daraja – analitik tahlil;

Sa'nat madaniyatning oliy darajasidir. Sa'nat asarini yaratuvchi shaxs bir paytning o'zida umma nazaridan mustaqil va ayni paytga unga bog'liqdir. Zero sa'nat asari yaratuvchining indevedual ma'naviy dunyosi bilan boshqa odamlarning ma'naviy dunyosi o'rtasida o'zaro aloqa mavjud, shu nuqtai nazardan sa'nat asarlarida davrning ruhi o'z ifodasini topadi .

Falsafaning san'atdan farqi shundaki, falsafa nazariy fikrlash sohasi, san'at esa badiiy fikrlash sohasi hisoblanadi. Faylasuf abstraksiyalar yordamida fikrlasa, shoir badiiy obrazlar vositasida fikrlaydi.

Faylasuf isbotlaydi va tushuntiradi, shoir esa tasvirlaydi va tavsiflaydi. San'atda eng muhimi muallifning kitobxon, tinglovchi, tomoshabin bilan ruhiy aloqasi. Badiiy obraz, eng avvalo, ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi, ayni shu ta'sir orqali ularni mulohaza yuritishga undaydi. Falsafada esa muallif kitobxon yoki tinglovchining aql-idrokiga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita murojaat etadi, uni o'z fikriga mantiq yordamida qiziqtirishga harakat qiladi, ruhiy vositalar esa bunda faqat yordamchi rol o'ynashi mumkin.

Ammo *falsafa va san'at o'rtasida umumiy jihatlar ko'p.* Faylasufning ham, san'atkorning ham diqqat markazida inson, uning ma'naviy dunyosi, voqea hodisalariga uning munosabati va ular haqida insonning tasavvurlari turadi. Faylasuf ham, san'atkor ham muayyan insoniy qadriyat va ideallarni himoya qiladi. (birinchisi – asosan mantiqiy dalillar yordamida, ikkinchisi – asosan ruhiy-estetik vositalar bilan): insonni qurshagan muhitni ular ayni shu qadriyat va ideallar nuqtai

nazaridan baholaydilar.

Bastakor yoki shoir o'z asarida aytmoqchi bo'lgan maqsadni inson qanday tushunishi, bu gap uning qalbida qanday javob topishi muallifgagina emas, balki insonning o'ziga ham bog'liq bo'ladi. Leonardo da Vinchining Jokondasi tabassumini har kim o'zicha tushunadi. Xuddi shuningdek, falsafiy g'oyalar mazmunini ham har kim turlicha talqin qilishi mumkin. Falsafiy asarlari mazmunining talqini ham, san'at asarlari mazmunining talqini ham madaniy-tarixiy sharoitlar, jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar, insonning ijtimoiy holati, uning individual xususiyatlariga qarab o'zgaradi.

San'at durdonalari kabi buyuk faylasuflarning asarlari ham eskirmaydi. Har bir davrda ularning yangi-yangi qirra va jihatlari kashf etiladi, natijada ular yangicha mazmun va dolzarblik kasb etadi. Ayni shu sababli ular har doim zamonga xos va mos bo'lib qoladi.

Falsafada ham, san'atda ham (fandan farqli o'laroq) o'tmishdoshlar hayoti va ijodining qisqacha bayoni jamlangan kitoblar va darsliklarni o'rganish ularning ijodi bilan bevosita tanishish o'rnini bosa olmaydi. Eynshteynning nisbiylik nazariyasini olim asarlaridan emas, balki darslikdan o'rganish mumkin. Ammo Yaspers K. asarlarini o'qimasdan ekzestensializmning mazmun va mohiyatini anglab yetish qiyin. *Falsafani o'zlashtirish uchun klassik falsafiy asarlarni mustaqil o'qib-o'rganish qay darajada zarur bo'lsa, Leonardo da Vinchi yoki Salvador Dali asarlarini to'laqonli tushunib etish va ularga baho berish uchun ularni o'z ko'zi bilan ko'rish shu darajada zarurdir. Bu erda tavsiflar va tushuntirishlar asarni ko'rish o'rnini bosolmaydi.*

San'atning rang-barang turlari orasida adabiyot va she'riyat falsafaga ayniqsa, yaqin. Kishilik madaniyati yirik arboblarining bir vaqtning o'zida ham taniqli faylasuf, ham hassos adib bo'lishi tasodifiy hol emas (Siseron, A.Navoiy, A.Jomiy, Z.Bobur, Volter, Russo, Gyote, Radishchev, L.Tolstoy, A.Avloniy, A.Fitrat va boshqalar).

Ba'zan poema yoki roman shaklida yozilgan adabiy-badiiy asar chuqur falsafiy mazmun kasb etadi (ammo har qanday falsafiy g'oyalarni ham bunday shaklda ifodalash mumkin emas). Bu turdagi asarlarni yo san'at, yo falsafaga uzil-kesil kiritish ancha qiyin ish.

Jahon badiiy adabiyotida jiddiy falsafiy masalalarni muhokama

qilishga bag'ishlangan asarlar anchagina. Ularning orasida Dantening «Ilohiy komediya», Gyotening «Faust» asarlari, Umar Hayyom ruboiylari, Dostoevskiyning «Jinoyat va jazo» va «Aka-uka Karamazovlar», T.Manning «Doktor Faustus» va «Iosif va uning aka-ukalari», O.Xakslining «Sariq Krom», «O, ajoyib yangi dunyo» romanlari bor.

Ba'zan badiiy asarlarda shunday parchalar ham uchraydiki, ularda muallif badiiy-obrazli tildan falsafiy nazariya tiliga o'tib, muayyan muammo bo'yicha o'z falsafiy konsepsiyasini izchil bayon etadi. Masalan, L.Tolstoy «Urush va tinchlik» romanining xotimasiga erkinlik va tarixda zaruriyat haqidagi haqiqiy falsafiy risolani joylashtirgan, T.Mann esa o'zining «Sehrli tog'» romaniga vaqt muammosiga bag'ishlangan falsafiy tadqiqotni kiritgan.

Ayni vaqtda, ba'zi faylasuflar falsafiy konsepsiyani ifodalash va ommaviylashtirish uchun adabiy-badiiy janrlardan foydalanadilar. Bunga hozirgi zamon ekzistensializm falsafasining yirik namoyandasi J.P.Sartr (1905–1980)ning «Behuzurlik» romani, falsafiy yo'nalish vakili A.Kamyu (1913–1960)ning «Begona», «Tubsanlik» qissalari misol bo'lishi mumkin. Shuningdek badiiy-falsafiy nasrga kiritish mumkin bo'lgan asarlar («falsafiy esse») ham bor. Mazkur uslubda P.Chaadaev (1794–1856) va V.Rozanov (1856–1919), S.Kerkegor (1813–1855), F.Nisshe (1844–1900) va boshqalar ijod qilgan.

O'zbek milliy badiiy adabiyoti va san'ati asarlarida ijtimoiy jarayonlarning millatning ruhiga ta'siri o'z ifodasini topadi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy siyosiy voqelikni aks ettirgan bo'lsa Tohir Malikning "Shaytanat" asarida XX asrning 80 - yillaridagi voqelikning oqibatlari ifodalangan.

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, yirik faylasuflar, hatto, o'ta izchil falsafiy-nazariy asarlarda ham fikrni badiiy obrazlar yordamida ifodalash imkoniyatlarini boy bermaslikka harakat qilganlar.

San'atning funksiyalari

San'atning tarbiyaviy funksiyasi – odamlar ongiga ta'sir orqali ularni tarbiyalash, ma'naviy yetuklikka yetaklashida namoyon bo'ladi. Badiiy

asar odamlar ongiga ta'sir etishda darslik vazifasini bajaradi. Shu ma'noda reaktiv va tarbiyaviy funksiyasining integratsiyasi umumiy ijtimoiy ong tarbiyasiga qarab mo'ljal oladi deyish mumkin.

San'atning bilish funksiyasi – san'at asarlari ma'nosini tushunish va tegishli xulosalar chiqarishda namoyon bo'ladi. Shu bois san'atning tarbiyaviy funksiyasidan yoshlarni tarbiyalashda unumli foydalaniladi.

San'atning reaktiv funksiyasi – san'atga eng soda va keng tarqalgan yondashuv bo'lib, u odamlarning kundalik dam olish, kundalik tashvishlardan forig'lanish vaziyatga moslashishni nazarda tutadi, bu funksiyani bajarishda san'at odamlar uni oson qabul qilishiga mo'ljal oladi, masalan komediyalar, masxarabozlar, aksiyabozlar faoliyati shular jumlasiga kiradi, bunda odamlar faqat vaziyatni tomosha qilib kuladi, xolos.

San'atning ma'rifatchilik funksiyasi – badiiy asar orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ko'tarish va ommaviy ong darajasida ularni tushunishga erishishda namoyon bo'ladi. Bu rassomlar, yozuvchilar asarlarida, kino va teatr ijodkorlari faoliyatida o'z ifodasini topadi.

San'atning emotiv funksiyasi – inson qalbiga yuqori ta'sir etadi, insonni jarayonlardan tashvishlanishga, yig'lash qayg'urish darajasiga yetkazadi.

San'atda badiiy obrazlarning emotsionalligi ob'yektga nisbatan emotsional qadriyatli munosabatni shakllantiradi, ob'yekt haqidagi bilim ob'yekt bilan bog'liq tuyg'ular faqat fon vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, ma'naviy ijodning turli shakllari sanalgan falsafa va san'at bir-biri bilan yaqin aloqada rivojlanadi. Ularning o'zaro nisbati falsafa va fanning o'zaro nisbati bilan o'xshash.

Falsafa va din mutanosibligi va farqi

Dinda ham, xuddi falsafadagidek, odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvurlari mujassamlashadi. Ma'lumki, diniy tasavvurlar Xudo va dunyoning ilohiy yaralishi haqidagi, jonning o'lmasligi va inson bajarishi shart bo'lgan ilohiy amrlar haqidagi ta'limotlarda ifodalanadi. Bu fundamental diniy g'oyalar o'z xususiyatiga ko'ra falsafiy g'oyalarga o'xshaydi. Ammo ular din doirasida asoslanmaydi, balki e'tiqod sifatida qabul qilinadi, tanqiddan mutlaqo xoli deb hisoblanadi. Falsafa esa,

o'zining barcha g'oyalarini dalillar bilan asoslashga harakat qiladi.

Falsafa mantiqan mulohazalar yordamida g'oyalarning nazariy tizimlarini rivojlantiradi, shu bilan bir vaqtda o'zining barcha xulosalarini tanqid qiladi.

Din avtoritar xususiyat kasb etadi, u inson aqliga «aqldan ustun» turadigan muayyan aqidalarni shak-shubhasiz qabul qilishni buyuradi. Falsafa erkin xususiyatga ega bo'lib, unda aql hech qanday tazyiqqa bo'ysunmaydi va barcha qarorlarni qabul qiladi.

Din Xudoning borligini isbotlash, diniy aqidalarni oqilona asoslashga kirishganda falsafaga yaqinlashadi. Bu din falsafasining (teologiya, nazariy ilohiyot) vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bu vazifani yechish dinning emas, balki diniy ta'limot tayanadigan asoslarning nazariy tizimini yaratuvchi diniy falsafaning ishidir. Binobarin, dindor odam o'z e'tiqodini asoslashga harakat qilar ekan, falsafaga murojaat etadi. *Ammo bu bilan diniy ta'limot falsafiy ta'limotga aylanib qolmaydi, ta'limotning o'zi emas, balki uni asoslash falsafiy tus kasb etadi.*

Shunday qilib, falsafa va din bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishishi mumkin. Turli diniy-falsafiy ta'limotlarda diniy mazmun falsafiy dalillar bilan mustahkamlanadi. Ammo, shu bilan bir vaqtda, dinga muvofiq kelmaydigan falsafiy ta'limotlar ham bor. Faylasuflar dindor bo'lishi ham, ateist bo'lishi ham mumkin. Falsafa va dinning o'zaro nisbati uning fan va san'at bilan o'zaro nisbatiga o'xshash.

Falsafa – madaniyatning alohida shakli

Falsafa aniq bir chegaraga sig'maydigan murakkab va o'zgaruvchan madaniy fenomendir. U fan, san'at, din bilan yaqinlashishi, hatto, ularning shakl-shamoyilini kasb etishi mumkin. Falsafaning fan, san'at va din bilan o'xshash jihatlari ko'p. Falsafani ulardan ajratuvchi chegara aniq va uzil-kesil emas. Ammo falsafani "fan" tushunchasiga ham, san'at yoki "din" tushunchasiga ham kiritish mumkin emas. Bu madaniyatning alohida shakli, ma'naviy faoliyatning nisbatan mustaqil sohasidir. Falsafaning ilk tarixi nazariy fanning vujudga kelish tarixi hisoblanadi. Falsafa ulkan tarixiy ahamiyati fanning paydo bo'lishiga zamin yaratganligidir. Ammo falsafaning madaniy missiyasi shuning o'zi bilan tugagani yo'q. Falsafa farzandi oyoqqa turgach, ayrim ota-onalar

kabi butun shuuri bilan uning hayotiga berilgani yo'q, balki o'z hayoti bilan yashab, yangi ishlar bilan shug'ullana boshladi. Falsafa tarixida u o'ynagan va o'ynashda davom etayotgan rollar anchagina: u inson hayotida o'ziga xos dasturilamal ham, aqlni tezlash vositasi ham, baxt-saodat va yaxshi fazilatlar haqidagi ta'limot ham, abstraksiyadagi sxolastik o'yin ham, din «xizmatkori» ham, ijtimoiy utopiyalarni yaratish vositasi ham, mistik mushohada yuritish sohasi ham, tilning alohida shakli ham, o'ziga xos badiiy «tushunchalar poeziyasi» ham bo'lgan. Bularning barchasini fan shakliga ham, biron-bir o'zgacha shaklga ham solish mumkin emas. Ular sig'ishi mumkin bo'lgan birdan-bir shakl – falsafa shakli.

Falsafiy g'oya va ta'limotlarning rang-barangligi shu darajada kuchliki, ularni falsafa bayrog'i ostida birlashtirishga qodir bo'lgan biron-bir umumiy belgini topish umuman mumkin emasdek bo'lib tuyulishi mumkin.

Falsafaning rang-barang tarixiy variantlarini yaxlit bir butunga birlashtiruvchi bosh omilni aniqlash mumkinmi? Bu omilni falsafaning mazmunini belgilovchi chegara sifatida tavsiflash, bizningcha, o'rinli bo'lmasa kerak. Falsafiy mulohazalarning mavzulari chegara bilmaydi. Turli masalalar dam faylasuflarning diqqat maydoniga tushadi, dam undan chiqadi: falsafa ijtimoiy hayotni sinchkovlik bilan kuzatib boradi, aksariyat hollarda keyinchalik fanda va odamlarning amaliy faoliyatida o'z yechimini topadigan masalalarni qo'yish yo'li bilan hozirgi davr ehtiyojlariga o'z munosabatini bildiradi. Falsafiy qiziqishning muvaqqat mintaqalari bilan bir qatorda falsafa predmetini tashkil etuvchi «abadiy» muammolar ham bor. Bular: inson hayotining mazmuni, materiya va ruhning o'zaro nisbati, cheksizlikning siri, insoniyatni kutayotgan kelajak istiqbollari, yaxshilik, adolat, insoniylik ideallari va sh.k. Ammo bunday muammolarning qo'yilishi ham, ularning faylasuflar tomonidan taklif qilinadigan yechimlari ham o'zgarishsiz qolmaydi. Falsafaning mohiyati va xususiyati ayrim «abadiy» muammolarni e'tiborga olmaganda o'zgaruvchan bo'lgan mavzularda emas, balki o'zi ko'tarayotgan muammolarga uning yondashuvida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv inson bilimi, hayoti va faoliyatining har qanday sohalarida boshlang'ich, chegaraviy asoslarni anglab yetishdan iborat.

Falsafa obrazi

Falsafaning madaniyat tizimidagi o'rni shu bilan belgilanadiki, u, bir tomondan, hammaga tanish bo'lgan narsani o'zida ifodalaydi, chunki har kim o'z hayotida falsafiy masalalar bilan u yoki bu tarzda to'qnash keladi, muayyan darajada falsafiy mushohada yuritadi; boshqa tomondan esa, u teran aql-zakovat va abstrakt fikrlash qobiliyatini talab etadiki, professional darajada u bilan hamma ham shug'ullana olmaydi. «Oddiy odamlar» ba'zan hayotning mazmuni, erkinlik, haqiqat, Xudoning borligi va hokazolar haqida o'ylar ekan, o'z mulohazalarida mazkur muammolarni falsafiy o'rganish an'ana va natijalariga tayanish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Kitobiy falsafiy donishmandlik ularga tushunarsiz bo'lib tuyuladi. Falsafa haqida keng omma, asosan, orqavarotdan biladi. Shu asosda falsafa haqida tasavvurlar, ya'ni falsafa obrazlari shakllanadi , madaniyatda keng tarqaladi.

O'z navbatida, falsafaning madaniyatda shkllangan obrazlari professional faylasuflar ishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ularda falsafani uning muayyan obraziga muvofiqlashtirish istagi paydo bo'ladi. Buyuk faylasuflar bunday «havas»ga berilmaydilar – ular madaniyatning ehtiyojlarini teran anglaydilar, falsafaning vazifalari haqidagi o'z tasavvurlariga qarab mo'ljal oladilar. Ammo falsafiy tafakkurni uning imkoniyatlari chegarasida rivojlantirish ko'p miqdorda intellektual kuch-g'ayrat, jamoatchilik fikriga tanqidiy munosabat va uning tazyiqiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini talab etadi. Shu bilan bir vaqtda, jamoatda doim savollar tug'iladiki, ularga javobni falsafadan kutadilar. Ayni shu sababli har qanday jamiyatda «kunning dolzarb masalalari»ga qarab mo'ljal oluvchi va ommani to'lqinlantirayotgan muammolarni vaziyat taqozosiga muvofiq yorituvchi «yengillashtirilgan» falsafa ham mavjud bo'ladi. U falsafaning jamoatchilik ongida mavjud bo'lgan muayyan obraziga muvofiq tuziladi.

Turli ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda falsafaning keng omma ongida amal qiladigan ba'zi tipik obrazlari mavjud.

Falsafa oliy donishmandlik sifatida

Falsafaning mazkur obrazi qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Qadimgi Yunonistonda falsafa ancha obro'li mashg'ulot sanalgan. Bu

erda faylasuflarga hurmat-e'tibor katta bo'lgan. Falsafaga oliy donishmandlik sifatida qarash jamiyatda hozirgi vaqtda ham saqlanib qolgan. Falsafaning mazkur obrazi turli kishilar aqlida – falsafani ozmi-ko'pmi mufassal o'rgangan odamlar aqlida ham, u bilan yaxshi tanish bo'lmagan, lekin qandaydir shaxsiy sabablarga ko'ra unga qiziqadigan odamlar aqlida ham mavjud. Falsafa haqida bildirilgan shu ruhdagi fikrlarga turli tarixiy davrlarda yaratilgan badiiy asarlarda duch kelish mumkin. Ammo falsafa haqidagi fikr-mulohazalar uning g'oyalarini teran tushunish bilan doim ham bog'liq emas. *Falsafaning oliy donishmandlik sifatidagi obrazi – syujeti uni chizayotgan odamning tafakkuri bilan belgilanmaydigan suratdir.* Oliy falsafiy donishmandlik sifatida qaralgan fikr yoki g'oya oddiy haqiqatlar to'plami bo'lib chiqishi ham mumkin. Falsafaning yuksak tasavvurni ifodalovchi xususiyatlari ba'zan juda jozibali ko'rinish kasb etadi, lekin noaniq mazmunga ega bo'ladi.

Bu obrazda falsafiy tafakkurning oddiy ong bilan anglab bo'lmaydigan mavhumlik darajasiga munosabat aks etadi. Faylasuflarning ishini tushunishga qodir bo'lmagan oddiy ong falsafaga hayotdan uzoq bo'lgan, keraksiz va befoyda mashg'ulot sifatida qaraydi. Falsafaning befoydaligi haqidagi tasavvur u qandaydir mazmunga ega bo'lsa kerak, degan farazdan falsafaning mavjudlik huquqini to'la inkor etishga qadar bo'lgan doirani qamrab oladi.

II asrdayoq Rim yozuvchisi Avl Gelliy kitobxonlarga: «Falsafa bilan tanishish kerak, lekin uni chuqur o'rganish yaramaydi», deb maslahat bergan. Karel Chapekning «Absolyut fabrikasi» qissasida ixtirochi Marek: «Falsafada men hech vaqoni tushunmayman, muhandis uchun u qop-qorong'i o'rmon, lekin unda nimadir bor», deydi. Falsafaning odamlarning ehtiyojlaridan uzoq bilim sohasi sifatidagi obrazi keng tarqalishiga ba'zan faylasuflarning o'zlari ham sababchi bo'ladilar. Ular o'ta maxsus masalalarni o'rganishga mukkalaridan ketadilar, o'z asarlarini professionallar tushunmaydigan «qush tili»da yozadilar. «Bizning davrimizda falsafa – mutaxassislar uchun ham oson bo'lmagan ish, begonalar uning nozik jihatlarini anglab yetishga umid qilmasalar ham bo'ladi», deb ogohlantiradi S.Moem. Amerikalik faylasuflardan birining yozishicha, AQShda falsafa jamiyatda ziyolilar e'tiborini o'ziga tobora kamroq tortayotgan alohida bilim sohasiga aylangan. Ammo,

shunga qaramay, deb yozadi u, «falsafiy ruh yashashda davom etmoqda»[1].

Falsafa mafkura sifatida

Falsafaning mafkuraviy funksiyasi unga davlat hokimiyati va siyosiy partiyalar e'tiborini tortadi. Ular o'z mafkurasini asoslash va ishlab chiqish uchun falsafadan foydalanishga harakat qiladilar. Avtoritar davlat tuzumi doirasida, odatda, hokimiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan rasmiy falsafa mavjud bo'ladi. U o'quv yurtlarida o'qitiladi, matbuotda targ'ib qilinadi, senzura bilan himoya qilinadi va h.k.

Natijada *falsafaning mafkuraviy funksiyasi uning jamoatchilik fikridagi obrazining negiziga aylanadi.* Falsafa ayni shu obraz asosida mafkura malayi sifatida talqin qilinadi, hatto u bilan bog'lanadi. Bunda falsafiy ongning xususiyati sezilarli darajada yo'qoladi.

Nazariylashtirilgan mafkuraga aylangan falsafa dogma tusini oladi va qat'iy ta'riflangan tamoyillar qobig'ida qotib qoladi. U fikrlash erkinligini yo'qotadi, madaniyatning chegaraviy asoslariga qo'rqmasdan chuqur kirish va inson borlig'ining yangi modellarini yaratishdan voz kechadi. O'zi mavjud bo'lgan jamiyatga nisbatan tanqidiy funksiyani bajarmay qo'yadi. Bularning barchasi fikrlovchi odamlarda falsafaga salbiy munosabat tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ammo o'zgacha fikrlaydigan faylasuflar ta'qib ostiga olinib, ularning asarlari ommaga etmay qo'yganida, omma shundan boshqa falsafani bilmaydi. Mafkura qobig'iga o'ralgan rasmiy falsafaga salbiy munosabat butun falsafaga tatbiq etiladi, uning obrazida muhrlanadi.

Bunga birdan-bir falsafa dogmaga aylantirilgan marksizm-leninizm falsafasining hukmronligi o'rnatilgan sho'ro jamiyati misol bo'lishi mumkin. Falsafaning sotsialistik jamiyatning davlat-partiya mafkurasi sifatidagi obrazi mamlakat aholisi ongidan mustahkam o'rin olgan. Jamoatchilik faylasuflarni erkin mutafakkirlar sifatida emas, balki marksча-leninча ta'limot asoschilarining «sodiq izdoshlari» va partiya ishining «faol targ'ibotchilari» sifatida tasavvur qilganlar. Sotsializm madaniyatida falsafaning mazkur obrazi saqlanishiga marksча ta'limot bilan boshqa biron-bir falsafiy yo'nalishlar raqobatlasha olmagani ham

[1] Qarang: Русская эмигрантская философия. Москва. 1978. №2(62). 2.4-6.

imkoniyat yaratgan: bunday yo'nalishlar madaniyatga kiritilmagan – ular faqat tanqid uchun material bo'lib xizmat qilgan. Marksча mafkuraning ijtimoiy ongdagi «hokimiyati» ag'darilganidan keyingina falsafaning mafkura sifatidagi obrazi asta-sekin yo'qola boshladi. Hozirgi vaqtda falsafani o'qitish tizimi talabalarni uning mazkur obrazini yaratishga majburlamaydi.

Xulosa. Falsafa insoniyatning madaniylashuvi jarayonida amaliy ahamiyat kasb etib boradi. Zero, har qanday ijtimoiy voqelikdagi muammolar falsafiy mushohada orqali yechimini topgan ijtimoiy ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan.


Tajribaviy amaliy matnlar


Falsafa, fan, amaliyot, tajriba, faoliyat, bilim, fan taraqqiyoti, ratsionallik, badiiy obrazlar, falsafa va din, «faol targ'ibotchilar», ruhiy-estetik vositalar, ekzistensializm, mafkuraviy funksiya, falsafiy ong, mafkura.


Mustaqil ish savol va topshiriqlari

1. Jamiyat ko'proq nimaga ehtiyoj sezadi: falsafagami, fangami va nima uchun?
2. Fanda olimning vazifasi nimalardan iborat?
3. Fan va falsafa bilish obyektlariga qanday yondashadi va o'rganadi?
4. Falsafaning o'ziga xos jihatlarini sanab bering.
5. Tarixiy davrlarda falsafa va fanga munosabat qanday kechgan?
6. Fan sohasini egallashga qaratilgan qanday mezonlar mavjud?
7. XX asrda fan va falsafaga munosabat qanday izohlanadi?
8. Fan va falsafaning mutanosibligini ochib bering.
9. Falsafa va fanning umumiy jihatlarini tasniflang.
10. Bilimning nazariy tiplarini tasniflang.
11. Falsafa – madaniyatning alohida shakli mavzusida esse tayyorlang.

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar







Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Falsafaning san'atdan farqi nimada?

A) Nazariy fikrlashda.
B) Xayotni tushunishda.
V) Olam haqidagi fan.
G) Barcha javoblar to'g'ri.

2. «Jinoyat va jazo» va «Aka-uka Karamazovlar» asarining muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) Dostoevskiy
B) T.Mann
V) O.Xaksli
G) L.Tolstoy

3. «Urush va tinchlik» asari muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

A) L.Tolstoy
B) Dostoevskiy
V) O.Xakslin
G) T.Mann

4. T.Mann qaysi romaniga vaqt muammosiga bag'ishlangan falsafiy tadqiqotni kiritgan?

A) «Sehrli tog'»
B) «Urush va tinchlik»
V) «Jinoyat va jazo»
G) «Aka-uka Karamazovlar»

5. «Ilohiy komediya» asari muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) Dante
B) Dostoevskiy
V) O.Xakslining
G) L.Tolstoy

6. A.Kamyu (1913 – 1960)ning falsafiy konsepsiyalarni ifodalash va ommaviylashtirish uchun adabiy-badiiy janrlarga qaysi qissalari misol bo'lishi mumkin ?

A) «Tubanlik», «Begona»
B) «Urush va tinchlik», «Sehrli tog'»

V) «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar»

G) «Begona», «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar».

7. Falsafaning oliy donishmandlik sifatidagi obrazi – bu ...?

A) Syujeti uni chizayotgan odamning tafakkuri bilan belgilanadigan surat.

B) Oliy falsafiy donishmandlik sifatida qaralgan fikr yoki g'oya.

V) A va B javoblar to'g'ri.

G) Falsafaning oliy donishmandlik sifatidagi obrazi insoning amaliy va nazariy faoliyati bilan belgilanadigan surat.

8. San'atning rang-barang turlari orasida qaysi turlari falsafaga ayniqsa yaqinroqdir?

A) She`riyat va adabiyot

B) Haykaltaroshlik va she`riyat

V) Haykaltaroshlik, adabiyot va tasviriy san`at

G) Barcha javoblar to'g'ri

9. Dostoevskiyning falsafiy asari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar».

B) «Urush va tinchlik», «Sehrli tog'»

V) «Sehrli tog'», «Begona»

G) «Begona», «Tubanlik».

10. Jahon badiiy adabiyotida jiddiy falsafiy masalalarni qo'yish va muhokama qilishga bag'ishlangan asarlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) Barcha javoblar tug'ri.

B) «Iosif va uning aka-ukalari», «Sariq Krom»

V) «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar»

G) «Ilohiy komediya», «Faust»

11. Fanni tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv mavjud, bular ...?

A) Keng va tor talqinlari shakllangan.

B) Moddiy va ma`naviy talqinlari shakllangan.

V) Ijtimoiy va iqtisodiy talqinlari shakllangan.

G) Katta va o`rta talqinlari shakllangan.

12. XX asrda taniqli nemis faylasufi ..... bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

A) Yu.Libix

B) K.Yaspers

V) I.Nyuton

G) Galileo Galiley

13. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu .... klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning asosiy bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo ..... tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi. Ular kimlar?

A) Yu.Libix va K.Yaspers

B) K.Yaspers va Galileo Galiley

V) I.Nyuton va K.Yaspers

G) I.Nyuton va Galileo Galiley

14. Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari?

A) 1. Miloddan avvalgi II ming yillikdan XVI asrgacha 2. XVI-XVI asrlar . 3 . XVII-XX asrlar fani

B) 1. Miloddan avvalgi I ming yillikdan XV asrgacha 2. XV-XVII asrlar . 3 . XVII-XIX asrlar fani

V) 1. Miloddan avvalgi II ming yillikdan XV asrgacha 2. XV-XVII asrlar . 3 . XVII-XIX asrlar fani

G) 1. Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha 2. XVI-XVII asrlar . 3 . XVIII-XIX asrlar fani

15. Nechanchi asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «katoptrika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi?

A) Miloddan avvalgi III-II asrlarda

B) Miloddan avvalgi IV-II asrlarda

V) Miloddan avvalgi VI-II asrlarda

G) Miloddan avvalgi II-I asrlarda

Adabiyotlar:

1. G. Skirbek, Nils. Gile. Falsafa tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2002.
2. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. T.: Sharq, 2001.
3. Микешина Л.А. Философия познания: диалог и синтез подходов // Вопросы философии. 2001. №4.
4. Микешина Л.А. Философия познания: Полемические главы. М.: 2002.
5. Русавин Г.И. Эволюционная эпистемология и самоорганизация // Вопросы философии. 1999. №11.
6. Делез Жил, Гваттари Феликс. Что такое философия: Философские технологии. Классика. М.: Академический проект, 2009.
7. Большой энциклопедический словарь: В 2 т. М.: 1991. Т. 2.
8. Рассел Б. История западной философии: В 2 т. Новосибирск. 1994.
9. Shermuhamedova N Falsafa. T.: IdrisAbdurauf. 2021

II-MODUL. AMALIY FALSAFA

6-MAVZU. JAMIYAT HAQIDAGI ASOSIY PARADIGMALAR

Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi

Jamiyat ibtidoiy odamlarning birgalikda yashashga ehtiyojini qondirish, jamoa mulkini birgalikda taqsimlash natijasida paydo bo'lgan jamoa ruhi mahsulidir. ijtimoiy ongning murakkablashuvi individual ongning rivojlanishiga ta'sir etgan va asta sekinlik bilan individual munosabatlar shakllangan. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'yektiv omil, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat hayoti turli fanlar, chunonchi: sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, etnografiya, iqtisodiy nazariya va hokazolar doirasida o'rganiladi. *Fanning vazifasi – jamiyat tuzilishini o'rganish tarixiy jarayonda takrorlanuvchi, umumiy xossalar, jihatlar, omil va qonuniyatlarni aniqlashdan iborat.* Ilmiy bilim tarixiy jarayondan taqqoslab bo'lmaydigan darajada qashshoqroq bo'lsa-da, u jamiyatga zarur, chunki uning haqiqiy tarixini o'rganish, uning o'tmish va hozirgi davrda rivojlanishining muqobil imkoniyatlarini aniqlash, bugungi kunning muhim vazifalari hamda hozirgi zamon va kelajakka ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash imkonini beradi.

Fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi va muayyan hodisalarning sabablari aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarini ijtimoiy mazmunini yoritar ekan, falsafa shunga asoslanib muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri tarixiy jarayonning birligi muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim

tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarning rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqim va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. Shu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, nafaqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Jamiyat taraqqiyoti haqidagi madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi XIX asrda vujudga kelgan bo'lsada, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy qoldiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini uchta madaniy-tarixiy tiplarga ajratadi. Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida er Yer yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Yerning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat.[1] Forobiy fikricha "Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar".[2] Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratar ekan, *Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir, deb e'tirof etadi.* Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi, deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir, deb ta'kidlaydi bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgarilab ketadi.

XIX asrda N.Ya.Danilevskiy o'zining "madaniy-tarixiy tiplar" konsepsiyasida, tarixni «o'ziga xos sivilizatsiyalar»ning o'zaro munosabatlari sifatida tasavvur qilgan. Bu sivilizatsiyalarning rivojlanishi etnik guruhlarning til jihatidan birligi va sivilizatsiyani tashkil etadigan xalqlarning siyosiy mustaqilligi: (ular bir tipning asoslarini boshqa tipga o'tkazmaydilar, lekin boshqa o'tmishdagi va hozirgi sivilizatsiyalar

[1] Qarang: Farobi. Baxt-saodatga erishuv haqida. Toshkent Sharq 1998. B.82-83
[2] Qarang: Farobi. Baxt-saodatga erishuv haqida. Toshkent Sharq 1998. B.101

ta'sirini his qiladilar); barcha sivilizatsiyalarning etnik jihatdan rang-barangligi va rivojlanish jarayonining birligi (ular o'sish, qisqa muddat ravnaq topish va tanazzul bosqichlarini boshdan kechiradi) kabi qonunlar bilan belgilanadi. N.Danilevskiyning g'oyalari keyinchalik Shpengler va Toynbi konsepsiyalarida rivojlantirildi, lekin ularning ilmiy asoslarini P.A.Sorokin taklif qildi.

P.A.Sorokin (1889-1968) jamiyatga individ va ijtimoiy guruhlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida qaragan. Jamiyatni gorizontal, vertikal yo'nalishlar va fluktuatsiya (tebranish) tarzida murakkab harakatda bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligi nuqtai nazaridan tavsiflagan. P.A.Sorokin sotsiologiyasida o'tmish va hozirgi sotsiologiya fanining muhim g'oyalari uyg'un birlikda jamlangan va ifodalangan.

Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy asoslari

Jamiyatning vujudga kelishi haqida to'liq manzarasi fanda hanuzgacha yaratilmagan. Jamiyat kelib chiqishining diniy talqini ham (u o'z mifologiyasini haqiqat deb tan olishni talab qiladi), idealistik konsepsiya (o'zining spekulyativligi tufayli) va materializm (ilmiy dalillar yetarli emasligi bois) ham asosli e'tirozlar uyg'otadi.

I.Kant materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas, deganida, ma'lum ma'noda haq edi. Ammo, daliliy ma'lumotlar ozligiga qaramay, biz jamiyatning vujudga kelish manzarasini ancha aniq yaratish imkonini beradigan ilmiy dalillarga ishonch bilan qarash lozim, deb hisoblaymiz.

Jamiyatning kelib chiqishini ilmiy tavsiflash borasidagi qarashlar mehnat va mehnat qurollari nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Bu nazariyaga ko'ra, mehnat, so'ngra burro nutq inson jamiyatini yaratgan. Inson hayotida mehnat qurollarining ahamiyatini rad etmagan holda, bu farazni tasdiqlovchi aniq ilmiy dalillarga duch kelmadik.

Z.Freyd inson vijdonini jamiyatning kelib chiqish manbai deb hisoblagan. Etnografik tadqiqotlar bu farazni tasdiqlamaydi. *Y.Xeyzinga o'yin va o'yin faoliyatiga madaniyatning insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi.* Ernst Kassirer (1875-1945) fikricha simvolik

shakllar, ya'ni inson va uning ongi paydo bo'lishini belgilagan ramz va belgilar madaniyatning turi shakllarini birlashtiruvchi oliy va universal tamoyil hisoblanadi. E.Kassirer fikriga ko'ra, qadimgi ajdodlarimiz ularning yashab qolishini ta'minlovchi yetarli tabiiy kuchga ega bo'lmagan. Inson o'zining hayvonlar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish qobiliyati bilan yashab qolish imkoniyatiga ega bo'lgan. O'z navbatida, taqlidga asoslangan xulq-atvor ramziy belgilar, keyinchalik esa nutq vujudga kelishiga asos bo'lgan.

To'plangan tajribani belgilar tizimida qayd etish va avloddan-avlodga o'tkazish qobiliyatining shakllanishi hayvonlar to'dasi kishilik hamjamiyatiga aylanishining muhim omili bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bunday qobiliyatga hayvonlarning biron-bir turi ega emas. Namoyish etish, o'rnak ko'rsatish, taqiq va cheklashlar tizimi muloqotning noverbal va verbal vositalarida o'z ifodasini topgan. Muloqot mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash, ovqat topish va unga ishlov berishni tartibga keltirish, o'z jamoa harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini bergan. Tajribani avloddan-avlodga o'tkazish va jamoa faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish shakli sifatida o'yin ulkan ahamiyat kasb etgan.

Jamiyat rivojida muayyan taqiqlar, masalan ovqatga doir xulq-atvor bilan bog'liq taqiqlar, seksual cheklashlar, yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqaga kirishishi – insestning taqiqlanishi insoniyat kelajagi uchun olamshumul ahamiyat kasb etgan. Zero, tartibsiz jinsiy aloqalar naslning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan. Aslida, olingan tajriba yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning taqiqlanishiga sabab bo'lgan. Bu nikoh aloqalari tizimini tartibga solish, ularni qat'iy qayd etish, ayollar, qizlar, singillarni ayirboshlash, so'ngra bu bilan o'xshashlik bo'yicha – oziq-ovqat, buyumlar, so'z-belgilar ayirboshlashni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Mazkur jarayonlar odamlar o'rtasida muloqot, munosabat va xulq-atvor me'yorlari o'rnatilishi hamda ularga rioya etish zarurligi anglab yetilishiga turtki bo'lgan. Me'yorlarning mustahkamlanishiga mifologik va ilk diniy tasavvurlar hamda taqiqlar tizimi ko'maklashgan. Jamoadan tashqarida yashab qolish imkoniyati mavjud emasligini anglagan jamoaning har bir a'zosi unda o'rnatilgan kundalik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilgan.

Demak, *jamiyat ishlab chiqarish va ko'payish ehtiyojlari bilan belgilangan odatlar, me'yor va qadriyatlar bilan tartibga solinadigan odamlarning birgalikdagi faoliyati va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan.* Me'yorlar inson hayot faoliyatining barcha sohalariga nisbatan tatbiq etiladi hamda madaniyat va sivilizatsiya vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Jamiyatda qanday o'zgarishlar yuz bermasin, u odamzot bilan birga vujudga kelgan mazkur muhim tarkibiy elementlarni saqlab qoladi.

Jamiyatning iqtisodiy asoslari

Jamiyat takror ishlab chiqarish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tashkil etish ichki mexanizmlariga ega bo'lgan tarixan, yaxlit va barqaror tizim sifatida namoyon bo'ladi. *Jamiyat – odamlarning shunday bir birlashmasiki, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlarning umuman ishlab chiqarish, o'z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta'minlanadi.*

Ijtimoiy ishlab chiqarish – muayyan vaqt davom etadigan va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan jarayon (takroriy ishlab chiqarish). Ayni vaqtda u o'zgaruvchanlikni, muayyan ijtimoiy dinamikani (ya'ni, sof ishlab chiqarishni) o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan omillarning birligi, bir tomondan, an'ana, ijtimoiy merosga, boshqa tomondan esa, amaliy va ma'naviy tajribaning oshishi va to'planishiga asoslanadi. Ijtimoiy dinamika, jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqarishda va odamlar xulq-atvorini boshqarishda to'plangan tajribani saqlash hamda kelgusi avlodlarga qoldirish usullarini takomillashtirish bilan ta'minlanadi. Tajribani baham ko'rishning muhim vositalari – til, namoyish etish, o'rnak ko'rsatish, eng muhimi – tajribani o'zlashtirayotgan odam qaysi xalq vorisi bo'lsa, shu xalqning ijtimoiy boyligi va madaniy mulki hisoblanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – ijtimoiy hayotning barcha elementlarini o'z ichiga oluvchi serqirra jarayon. Unga odamlarning ko'payishi; moddiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlar hayotini saqlash va quvvatlashning moddiy omillarini yaratish; ma'naviy ishlab chiqarish, ya'ni bilim, tajriba, qadriyatlarni yaratish; odamlarni boshqarish, ular faoliyatining muvofiqligini, jamiyatning yaxlitligi va uyushqoqligini

ta'minlash kabilar kiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish jamoaning ishi. Ayni shu sababli u ijtimoiy hayotning har bir elementiga xos bo'lgan munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ularning asosiylari oila-ro'zg'or, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy, ma'naviy (mafko'raviy), siyosiy munosabatlar. Ijtimoiy hayot murakkablashuviga qarab jamiyatda tabaqalanish va mehnat taqsimoti kuchayib boradi. Natijada jamiyatning nisbatan mustaqil bo'lgan alohida muhim kichik tizimlari vujudga keladi. Bu kichik tizimlarning har biri butun ijtimoiy organizm uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Jamiyatning muhim kichik tizimlari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy kichik tizimlardir.

Moddiy ishlab chiqarish iqtisodiy kichik tizim ishlab chiqarish faoliyatiga kishilarning munosabatlari shakllarining majmuidir. Har bir jamiyat o'z mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur tabiiy boyliklarga ega. Ammo ijtimoiy boylik inson mehnati bilan yaratiladi. Ajdodlar yaratib qoldirgan boyliklarni saqlash va ulardan foydalanish hamda jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish ijtimoiy boylikning o'sishiga olib keladi. Buning natijasida mulk instituti ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim vositasi va rag'batlantiruvchi omili sifatida vujudga keladi. Dastavval, kuch huquqi, obro', odatga tayangan mulkiy munosabatlar keyinchalik yuridik shakl-shamoyil kasb etadi. Rivojlangan ko'rinishda mulk ijtimoiy boylikning ma'lum ulushiga egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish huquqini anglatadi. U turli shakllarda mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud bo'lib, bu ijtimoiy ishlab chiqarishning shaklini ham belgilaydi. Iqtisodiy tizim moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni hamda moddiy va ma'naviy xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar

Xodimlar, ularning mehnati va ishlab chiqarish vositalari – mehnat quroli hamda vositalari ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi. Ishlab chiqarish moddiy-texnika vositalari va ularni ishga solishga qodir bo'lgan odamlar majmui jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida turli-tuman munosabatlar yuzaga keladi. Ularning orasida tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish-texnologik munosabatlar texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyati rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsa, tashkiliy-iqtisodiy, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk shakllari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan ne'mat va xizmatlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar tizimi ijtimoiy norma va huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk huquqining xususiyati bilan belgilanadi.

Mulk – xo'jalik jabhasi, iqtisodiy jabhada vujudga keladigan institut. U nafaqat ishlab chiqarish vositalari, balki iste'mol predmetlari bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ham tatbiq etiladi. Ijtimoiy boylikning barcha elementlari – ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, er va er osti boyliklari, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ijodiy va o'zga aqliy faoliyat mahsullari va hokazolar mulk bo'lishi mumkin. Mulk iqtisodiy hokimiyatga kim ega bo'lishini, xo'jalik faoliyatidan olingan foyda kimga tegishini va u qanday moddiy mulkiy manfaatlarni yuzaga keltirishini belgilaydi. Mulk shakllari ishlab chiqarish ijtimoiylashuvining amaldagi darajasi bilan belgilanadi. unga esa, o'z navbatida, umumiy texnologik taraqqiyot ta'sir ko'rsatadi. Mulkning davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, jamoa mulki kabi shakllari mavjud.

Jamiyat rivojlanishining siyosiy asoslari

Rivojlangan ijtimoiy tizimga ega bo'lgan jamiyatda ijtimoiy, etnik va diniy tabaqalanishning kuchayishi muqarrar. Mavjud mavqeidagi tub o'zgarishlardan kelib chiqadigan qarama-qarshi manfaatlarni ko'zlovchi ijtimoiy birlik va guruhlar mavjudligi ularning o'rtasida siyosiy munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu manfaatlarni muvofiqlashtirish zaruriyati jamiyat siyosiy tizimining tuzilishi va funksiyalarini belgilaydi. *Siyosiy tizim jamiyatda siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat va siyosiy tashkilotlar, institutlar va muassasalar majmuidir.* Siyosiy tizim murakkab tuzilishga ega. Jamiyatda fuqarolarga nisbatan qonuniylashtirilgan majburlov choralarini qo'llash yo'li bilan

o'zining siyosiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat siyosiy tizimning bosh elementi hisoblanadi. *Davlat jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy instituti bo'lib, muayyan hududda unga oliy hokimiyat vakolatlari beriladi. Bu vakolatlardan davlat odamlar, ularning guruhlari va birlashmalari xulq-atvorini boshqarish uchun foydalanadi.* Davlatning asosiy belgilari:

1. *Jamiyatdan ajratilgan xalq hokimiyati. Hokimiyat – bir sub'yekt (hokimiyat boshlig'ining o'z hukmi ostidagi fuqarolarga buyruqlar berish, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borish va ularni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llash imkoniyati.*

2. *Suverenitet, ya'ni o'z mamlakati hududida oliy hokimiyatga to'liq egalik qilish va tashqi siyosatda mustaqillik.*

3. *Hokimiyat chiqargan qonunlar va uning vakolatlari amal qilinadigan hudud.*

4. *Butun aholi uchun majburiy sanalgan qonunlar va normalar qabul qilish mutlaq huquqi.*

5. *Davlat xizmati xodimlari, qurolli kuchlar, majburlov organlari va hokazolarni ta'minlash uchun aholidan soliqlar undirish huquqi.*

Davlatning boshqaruv shakli (ya'ni hokimiyatni tashkil etish usuli) va davlat qurilishi shakllari mavjud. Boshqaruv shakllariga ko'ra, monarxiya va respublika farqlanadi.

Monarxiya boshqaruv shaklida birinchidan – hokimiyat bir shaxsga qarashli bo'ladi; ikkinchidan – davlat boshlig'iga hokimiyat meros bo'lib o'tadi. Davlat boshlig'ining vakolatlari hech qanday konstitutsiyaviy normalar bilan cheklanmaydigan mutlaq monarxiyalar va monarx vakolatlari konstitutsiya bilan cheklanadigan konstitutsiyaviy monarxiyalar farqlanadi.

Respublika boshqaruv shaklida hokimiyat manbai xalq hisoblanadi, davlatning oliy organlarini xalq saylaydi. Parlament, prezidentlik respublikalari va aralash respublikalar farqlanadi.

Parlament respublikasi hukumatni parlament ko'pchiligi tamoyiliga ko'ra shakllantirishni nazarda tutadi: qaysi partiya parlamentda ko'pchilikni tashkil qilsa, shu partiya parlamentga hisobdor bo'lgan o'z hukumatini shakllantiradi.

Prezidentlik respublikasi davlat boshlig'i va hukumat boshlig'i vazifalarini prezident bajarishi bilan tavsiflanadi.

Aralash respublika (yarim prezidentlik respublikasi)da *kuchli prezidentlik hokimiyati hukumat faoliyati ustidan parlamentning samarali nazorati bilan uyg'unlikda amal qiladi.*

Davlat qurilishi shakliga ko'ra unitar, federativ va konfederativ davlatlar farqlanadi. Ma'muriy birliklari o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan yagona, siyosiy jihatdan bir jinsli davlat unitar davlat hisoblanadi.

Federatsiya – siyosiy sub'yektlar (shtatlar, yerlar, federatsiya subyektlari va sh.k.), o'z konstitutsiyalari, qonunchilik, ijro va sud organlariga ega davlatlar uyushmasi. Ularning mustaqilligi markaz bilan federatsiya tarkibiga kiruvchi subyektlar o'rtasida vakolatlarning taqsimlanishi bilan belgilangan chegaralarga muvofiq cheklanadi. *Davlatlararo birlashmaning alohida shakli konfederatsiya bo'lib, u mustaqil davlatlar muayyan o'zaro maqsadlarga erishish uchun tuzgan doimiy uyushmadir.*

Forobiy fikricha, davlat jamiyatning tayanchidir. U jamiyatning mukammalligi va mukammal emasligi haqidagi g'oyaga tayanadi. mukammallik "shunday davlat vositasida qo'lga kiritiladiki, u ezgu an'analar, odamlar va yaxshi axloqni tarqata olsin" va jamiyatda bu xislatlarni barqaror eta olsin. Bunday davlat bo'lmasa fozila, ezgu xislatlar odamlarda uzoq saqlanmaydi va barqaror bo'lmaydi. Forobiy nazarda tutgan davlat, mustabidlikka emas, balki tiklanish va o'z faoliyatida xalqning istak va irodasi bevosita rol o'ynaydigan davlatdir. Xalq irodasiga asoslanmagan davlat ideal davlat emas. Demak, davlat – jamiyatning tayanchi, xalqning irodasi va xohishi uning shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Hozirgi davlatlarning aksariyati o'z faoliyatini konstitutsiyaga muvofiq amalga oshiradi. *Konstitutsiya – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquqlari va burchlarini, asosiy davlat organlarini tarkib toptirish mexanizmi va ularning faoliyat tamoyillarini, saylov tizimi asoslari va hokazolarni mustahkamlovchi davlatning asosiy qonuni.* Konstitutsiya boshqaruv va davlat qurilishi shaklini belgilaydi.

Huquqiy davlatda konstitutsiya nafaqat fuqarolar va davlatning

o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni, shaxs huquqlari va erkinliklarini belgilaydi, balki hokimiyatni cheklaydi. Konstitutsiyada inson huquqlarining davlat qonunlaridan ustunligi mustahkamlanadi. Huquqiy davlat rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjudligi bilan tavsiflanadi. Har bir individning erkinligi boshqa odamlarning erkinligi va huquqlari bilan cheklanadi. Qonunning ustunligi va huquqning umumiyligi, hokimiyat, qonunchilik, ijro va sud tarmoqlariga bo'linishi huquqiy davlatning muhim belgilari hisoblanadi.

Siyosiy tizim mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etuvchi turli-tuman partiyalar, harakatlar, tashkilotlar, institutlar, diniy muassasalar va ta'sir guruhlari majmuini ham o'z ichiga oladi. Siyosiy tashkilotlar davlat tuzilmalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z faoliyati dasturlarini belgilaydi, ijtimoiy birlik va guruhlarning manfaatlarini tegishli shiorlar, ijtimoiy loyihalarda ifoda etadi, ularni amalga oshirishda qonuniy vositalar bilan ishtirok etadi. Ularning faoliyati o'z guruhlarining o'zgalar manfaatlariga zid bo'lgan yoki ularni kamsitadigan manfaatlarini ro'yobga chiqarish zaruriyati bilan belgilanadi. Shu sababli partiya va harakatlar hokimiyat obro'siga tayanadi. Hokimiyatning aralashuvi ziddiyatlarni tartibga solish, manfaatlarni muvofiqlashtirishga ko'maklashadi.

Jamiyatni boshqarishni amalga oshiruvchi davlat faoliyati va ijtimoiy-siyosiy tashkilot va muassasalarning o'zining ijtimoiy muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun xalq hokimiyati institutlaridan foydalanish borasidagi faoliyati siyosat sohasini tashkil qiladi.

*Davlat siyosatining asosiy vazifasi – jamiyatning yaxlitligini ta'minlash, aholini jipslashtirish, qarama-qarshi manfaatlarni ilgari suruvchi ijtimoiy birlik va guruhlarning munosabatlarini oqilonalashtirish, mazkur vazifalarni hal qilish uchun huquqdan foydalanish*dir. Davlat jamiyatning xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jabhalarini mazkur jamiyat normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan darajada tartibga soladi.

Partiyalar va harakatlar siyosatining asosiy vazifasi – xalq hokimiyati institutlariga izchil ta'sir ko'rsatishdir. O'z siyosati bilan ular hokimiyat tuzilmasini yaratishda ishtirok etadilar, ularni qo'llab-quvvatlaydilar yoki vayron qiladilar. Jamiyat rivojlanishining inqirozli

davrlarida siyosatning asosiy vazifasi – hokimiyat uchun kurashish va uni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, siyosat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli sifatida amal qiladi. Davlat va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyati huquq bilan, shuningdek, jamiyatda hukm suruvchi odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi.

Siyosat – ongli yoki stixiyali harakatlar sohasidir. Siyosat ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini himoya qiladi, hokimiyat esa – o'z siyosiy vazifasini anglab yetishini nazarda tutadi. Siyosiy jarayon mazmuni va yo'nalishi asosan fuqarolarning siyosiy mentaliteti bilan belgilanadi. Shu sababli *siyosiy ong siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi.* U fuqarolarning hokimiyat institutlari bir-biri bilan jamiyat va davlatni boshqarishda o'z ishtirokiga doir aloqalari haqidagi hissiy va oqilona, qadriyatlarga doir va normativ, oqilona va intiutiv tasavvurlarini qamrab oladi. U fuqaro o'zining muayyan guruhga mansubligini va bundan kelib chiqadigan manfaatlarni anglab yetishini, hokimiyatga, o'z fuqarolik maqomiga, o'z huquqlari, erkinliklari va burchlariga nisbatan siyosiy nuqtai nazarini anglab yetishini nazarda tutadi.

Siyosiy ong ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari tizimidagi ahamiyatini anglash sifatida mafkurani o'z ichiga oladi. Siyosiy mafkura nazariy, dasturiy-siyosiy va empirik darajalardan tarkib topadi. Xususan, empirik daraja jamiyatning ayrim guruhlari siyosiy dasturlarni qay darajada o'zlashtirganini tavsiflaydi. *Siyosiy psixologiya siyosiy ong elementi sifatida ommaning siyosiy xulq-atvorini, ularning kayfiyati, mo'ljallari va odatlarini tavsiflaydi.* Ijtimoiy guruhlarning siyosiy psixologiyasi ommaning siyosiy xulq-atvorida onglilik va stixiyalilikning, oqilona va nooqilona harakatlarning o'zaro nisbati bilan ajralib turadi.

Siyosiy ong ommaning siyosiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U stixiyali tarzda shakllanishi ham, izchil shakllanishi ham mumkin. Shu sababli davlat o'z vazifalariga mos keladigan siyosiy ong shakllanishidan manfaatdor. Siyosiy ongning shakllanishida ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Ular «to'rtinchi hokimiyat» deb nomlanadi.

Kommunikasiya – siyosiy tizimning zaruriy elementi.

Kommunikasiya, birinchidan, siyosiy tizim institutlari o'rtasidagi aloqa vositalarini, ikkinchidan, hukumatga axborot uzatish yo'llarini, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Mazkur axborot tizimlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ommaviy axborot vositalari tufaqat aholiga axborot beradi, balki hokimiyat vakillari, partiya va harakatlarning u yoki bu siyosiy bayonotlarini sharhlaydi, ularga baho beradi, informasion materiallarni tegishli tarzda saralaydi, fuqarolarning kayfiyati va siyosiy mo'ljallarini shakllantiradi. Umuman olganda, siyosiy tizim ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. U o'z vazifalarini bajarish uchun nafaqat o'zining huquq va davlat majburlovi institutlaridan foydalanadi, balki jamiyatda vujudga kelgan qadriyatlar va me'yorlar tizimiga tayanadigan, o'z fuqarolarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantiradigan ishontirish vositalarini ham ishga soladi.

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya.

Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;

u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;

unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;

mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;

uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga ega. bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;

individlar shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar hamda erkinliklarga, shu jumladan, fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga

ko'chib yurish erkinligi, o'zi ishlaydigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;

bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;

davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;

hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan.

Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar asosiy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

Zamonaviy jamiyatda davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona mafkura va qadriyatlarning yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi. Kishilarning ming-bir xil manfaatlari qabul qilishga majburlamaydi. Kishilarning ming-bir xil manfaatlari orqali ro'yobga chiqariladi, bunga ularning hamkorlikdagi harak

amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar. Bular tijorat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, ularning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir. Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar, jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar».[1]

Fuqarolarning birlashmalari o'z a'zolarida hamkorlik, hamjihatlik va jamiyatga sadoqat tuyg'ulari rivojlanishiga ko'maklashadi. Keng maqsadli guruhga ixtiyoriy qo'shiladigan individlar nafaqat hamjihatlik ko'nikmalarini va jamoaviy harakatlar uchun fuqarolik mas'uliyati hissini kasb etadilar, balki o'zini o'zi boshqarish, sabr-toqatlilik va boshqalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar.

Davlat doim fuqarolar hayotining barcha tomonlarini o'z nazorati ostiga olishga, ularning tartibga solinmagan faoliyati doirasini toraytirishga, ularni bir-biridan ajratish va tarqatishga harakat qiladi. Fuqarolik jamiyati davlatga o'z faoliyat sohasini kengaytirish va uni kishilarning axloqiy, ma'naviy, diniy, milliy va boshqa munosabatlariga tatbiq etishga yo'l qo'ymaydi. Davlat fuqarolik jamiyatini «yutib yuborishi» totalitarizmga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir.

Fuqarolik jamiyati davlatga muttasil ta'sir ko'rsatadi. Bu shunday bir ta'sirki, usiz davlat o'z vakolatlari doirasini toraytirishga hech qachon bormaydi. Davlatga fuqarolik jamiyati ta'sirining bosh mexanizmi demokratiya (yunon. «demos» - xalq, «kratos» - hokimiyat) vaqti-vaqti bilan boshqariluvchilar boshqaruvchilarga o'z hukmini o'tkazishidir. Davlat va fuqarolik jamiyatining bu qarama-qarshiligi, ayni vaqtda, o'zaro bog'liqligi erkinlikning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi demokratik o'zgarishlarning negizidir. Kishilarni ijtimoiy tartibni ixtiyoriy ravishda, cho'chimasdan qabul qilishga majbur etadigan

[1] Алексис де Токвиль. Избранные произведения. М.: Наука, 2003. С. 45.

sharoitlar faqat fuqarolik jamiyatida mavjud.

Siyosiy erkinlik – fuqaroning davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqidir. Bu erkinlik faqat demokratiya sharoitida, ya'ni hamma o'z xohish-irodasini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitda ro'yobga chiqarilishi mumkin. K.Yaspers «Formal demokratiya, ya'ni erkin, teng huquqli va yashirin ovoz berish huquqi erkinlikning kafolati emas, balki aksincha, unga tahdiddir»[1], deb yozadi.

Demokratiya mexanizmi samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri qonunga zid aralashuvlardan muhofaza etilgan barqaror fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Shunday shartlardan yana biri huquqiy davlat - qonunlar faqat huquqiy yo'l bilan qabul qilinadigan va hammaga teng tatbiq etiladigan davlatdir. Bunday davlat insonni zo'ravonlikdan himoya qilish orqali unga o'z qarashlari va xohish-irodasini ifoda etish yoki demokratiya uchun imkoniyat yaratadi.

Demokratiya ochiq va hech narsa bilan cheklanmagan bahs-munozara imkoniyatini nazarda tutadi. Bunga erishish uchun matbuot, yig'ilishlar, so'z erkinligi talab etiladi. Demokratiya siyosiy partiyalar mavjudligini ham talab qiladi.

Demokratiyaning samaradorligini ta'minlashning yana bir muhim sharti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuksak darajasiga erishishdir. So'nggi ikki yuz yillik mobaynida sanoat inqilobi G'arb jamiyati hayotining muhim omiliga aylandi. U shahar aholisi sezilarli darajada o'sishiga, sinfiy tuzilishning o'zgarishiga, hayot andozalari, ta'lim va sog'liqni saqlash sezilarli darajada yuksalishiga olib keldi.

Demokratiya siyosatni iqtisod va dunyoqarashga oid muammolardan ajratishni, hokimiyatning bo'linishini, samarali faoliyat olib boradigan sud tizimini talab qiladi.

Jamiyat rivojlanishining ijtimoiy asoslari

Jamiyatning ijtimoiy asoslari ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va ixtisoslashish muqarrar tarzda ijtimoiy tabaqalanishga turtki beradi, o'ziga xos vazifalarnigina bajaradigan, jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lgan va o'z manfaatlarini ilgari suradigan nisbatan mustaqil ijtimoiy birlik va guruhlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

[1] Ясперс К. Смысл и назначение истории. М.: Наука, 1991. С. 124.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tabaqalanish va odamlar o'rtasidagi tengsizlik jamiyatning tabiiy holatidir. «Oltin asr», umumiy va to'la tenglik haqidagi orzu mutlaqo utilmiy bo'lgani bois uni ro'yobga chiqarish mumkin emas. Shuningdek, u *zararlidir*, chunki odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradi, ijtimoiy munosabatlarga keskin rus beradi. Tarixdan ma'lumki, umumiy tenglik haqidagi shiorlar hech qachon ro'yobga chiqmagan; bir tengsizlik o'rnida boshqa tengsizlik paydo bo'lgan. Oilada, urug' yoki qabilada ustun mavqega erishish uchun o'z shaxsiy obro'si - kuchi, mardligi yoki mahorati ha olmishi uchun kurash ijtimoiy hayotning dastlabki bosqichlaridayoq yuzaga kelgan. Ta'bir joiz bo'lsa, tengsizlik shaxs va pirovard natijada jamiyat rivojlanishining muhim omilidir.

Ijtimoiy tengsizlik vujudga kelishi va jamiyatning rivojlanishida mulk instituti alohida rol o'ynagan. Mazkur institut vujudga kelishi bilan odamlarning mulkiy tengsizlik bilan bog'liq tabaqalanishi kuchaygan. Alohida kasbiy faoliyat sifatida aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilar paydo bo'lgan. Mazkur jarayonlar mehnat taqsimotini faollashtirgan. Ayrim guruhlarning alohida ajralib chiqishiga, boshqalarining turli hamjamiyatlarga birlashishiga turtki bergan. Har qanday jamiyatning ijtimoiy tuzilishi mazkur jamiyat tarixining ma'lum davridagi muayyan-tarixiy ijtimoiy birlik va guruhlarning o'zaro munosabatlari hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus institut va muassasalar majmui bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy birlik va guruhlar

Ijtimoiy birliklar va guruhlar ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi hisoblanadi. Ular kishilarning umumiy ijtimoiy belgilari mavjudligi bilan ajralib turadigan birlashmalardir. Mazkur belgilar qatoriga guruh uchun umumiy sanalgan ehtiyoj va manfaatlar, qadriyat va me'yorlar, turmush tarzi, ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rin va ular bilan bog'liq ijtimoiy rollar kiradi. Ijtimoiy guruh xususiyati va tipi uning xulq-atvori va jamiyatning ijtimoiy kichik tizimidagi o'rnini ham belgilaydi. Ehtiyoj va manfaatlarning birligi ijtimoiy birlik va guruhlarni birlashtiruvchi asosiy belgi hisoblanadi. Mazkur ehtiyoj va manfaatlar ijtimoiy birliklar va guruhlarning jamiyatdagi mavqei bilan belgilanadi. Ijtimoiy birlik va

ijtimoiy guruhlar ijtimoiy bir jinslilik va barqarorlik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy guruhlarga taqqoslaganda ijtimoiy birliklar ijtimoiy jihatdan turli jinsliligi va tashkiliy jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy birliklarga jumladan etnik va konfessional birliklar, ekologik, siyosiy harakatlar, sport yoki havaskorlarning uyushmalari kabi jamoat birlashmalari misol bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy birlik va guruhlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Jumladan, katta va kichik ijtimoiy guruhlar farqlanadi.

Kichik ijtimoiy guruh a'zolarining yaqinligi, aloqalarning muntazamligi, munosabatlarning norasmiyligi, bevosita shaxsiy aloqalar o'rnatilgani, umumiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari amal qilishi bilan tavsiflanadi. Kichik guruhga korxona, muassasaning mehnat jamoasi, oila misol bo'lishi mumkin. *Jamoa umumiy faoliyat, manfaatlar va xulq-atvor qoidalarining birligi belgisiga ko'ra ajralgan kichik ijtimoiy guruh (masalan, mehnat, o'quv, harbiy, sport jamoalari). Oila - jamiyatning nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslanadigan muhim instituti.* Oilaviy munosabatlar nasl qoldirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadigan va bolalarni tarbiyalash, ularga jamiyatning madaniy an'analarini singdirishga qulay zamin hozirlaydigan shaxslararo o'zaro aloqalarning norasmiyligi bilan ajralib turadi. Oilaviy munosabatlar qarindoshlik aloqalari bilangina cheklanmaydi: ular oila a'zolarining bir-biri oldida o'zaro ma'naviy javobgarligi, birgalikdagi mehnat va turish-turmush hamda ular bilan bog'liq bo'lgan va huquq bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlar bilan mustahkamlanadi.

Katta ijtimoiy guruhlar — tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga keladigan sinfiy, etnik, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa guruhlar. Ular shaxs va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi.

Etnik birliklar ijtimoiy hayot an'analik, hudud, til, odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, e'tiqodlarning birligi belgisiga ko'ra tarkib topadigan va etnik birliklarning har xil turlarini tashkil etadigan kishilarning ayrim muayyan-tarixiy jamoalari doirasida kechadi. Urug' mazkur birliklarning ilk shakli. *Urug' qon-qarindoshlik belgisiga ko'ra uyushgan odamlar birlashmasi bo'lib, ibtidoiy jamoaning asosiy ishlab chiqaruvchi va etnik bo'g'ini hisoblangan.*

Qabila ikki yoki undan ortiq urug'ning bir necha yerdan bir necha

minggacha bo'lgan odamlardan iborat birlashmasidir. U umumiy mulk, umumiy boshqaruv, turish-turmushning umumiy jihatlari va ayrim umuniy xo'jalik faoliyatiga ega bo'lgan.

Elat va millat bir hududda yashaydigan, umumiy xo'jalik faoliyati, til, ruhiyat tarzining xususiyatlari, turmush, madaniyat va hayot tarzining odat va an'analarda mustahkamlangan ba'zi jihatlarini tavsiflaydi. Ammo ularning o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjud. Qabilalarning uyushmalari, aholi migrasiyasi, tilning yaqinligi elat vujudga kelishining omillari hisoblanadi. Ular qon-qarindoshlik, urug'doshlik aloqalarini buzuvchi omillardir. Ammo elatni birlashtiruvchi aloqalar ham ancha shartlidir. Elatni tashkil etadigan qabilalar yashaydigan hudud muhim birlashtiruvchi asos hisoblanadi.

Millatning asosiy o'ziga xos xususiyati – muayyan yaxlit tuzilmaga birlashgan va assimilyasiyalashgan elatlarning faol iqtisodiy aloqalari negizida shakllanadigan moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xosligi. Millatga uni tashkil etadigan elatlar uchun umumiy sanalgan til; ruhiyat tarzining umumiyligi; madaniyatning o'ziga xos jihatlari; shakllangan barqaror hayot tarzi; an'analar; tarixiy taqdirning birligi va rivojlangan etnik o'zlikni anglash tuyg'usi meros bo'lib o'tadi. Madaniy rivojlanish, til, umuman, milliy o'ziga xoslik muammolariga millatning ta'sirchanligi ayni shu omillar bilan belgilanadi.

Tabaqalar va sinflar

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida tabaqalar va sinflar salmoqli o'rin egallaydi. *Tabaqalar – sanoatlashish bosqichidan oldingi jamiyatlarda vujudga kelgan, yuridik yoki odatga asoslangan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan huquqlar, burchlarga ko'ra farq qiladigan ijtimoiy guruhlar.* Tabaqaviy bo'linish jamiyatning murakkab ierarxiyaviy tuzilishining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Yirik guruhlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik maqomiga ko'ra farqlanadigan sinflar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy belgi sinfning bosh belgisi hisoblanadi, zero sinfiy bo'linish shakllari ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat hamda mulk shakllari bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida sinflarni farqlashning boshqa asoslari ham mavjud. Masalan, ijtimoiy guruhlar ega bo'lgan

ijtimoiy boylik ulushiga ko'ra ular oliy, o'rta va quyi sinflarga bo'linadi. Bunda daromad manbai hisobga olinmaydi, shu bois oliy sinf vakillari orasidan mashhur kinoaktyorlar, estrada yulduzlari va bankirlar ham o'rin olishlari mumkin. Bu hol o'rta, hatto, quyi sinflarda ham kuzatiladi. Shuningdek, ijtimoiy mehnatni tashkil etishdagi roliga ko'ra boshqaruvchilar sinfi farqlanadi.

Hozirgi zamon jamiyatida yuqori malakali aqliy mehnat bilan professional tarzda shug'ullanadigan kishilarning katta ijtimoiy guruhi – ziyolilar alohida rol o'ynaydi. Ziyolilar soni tinimsiz ko'payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu, avvalo, fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda ma'naviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq. Ziyolilar guruhi kelib chiqishiga ko'ra ham, ijtimoiy maqomiga ko'ra ham turli jinslidir. Tegishli ravishda uning siyosiy mo'ljallari ham har xil.

Hududiy guruhlar

Aksariyat mamlakatlarda hududiy guruhlarning o'zaro munosabatlarida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bu ma'naviy hayot an'analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farq qiladigan viloyat va markaz, poytaxt va chekka o'lka hamda yirik mintaqalarning munosabatlari bo'lishi mumkin (masalan, AQSh yoki Italiyada Shimol va Janub munosabatlari). Etnik yoki diniy farqlar, bir ma'muriy birlikning boshqa ma'muriy birliklarga hududiy e'tirozlari hududiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy tuzilmasi murakkablashib boradi va bu miqdor va sifat jihatidan har xil ijtimoiy guruhlarning o'zaro aloqasi hamda manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Ijtimoiy birlik va guruhlarning turlari ularning o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy aloqalar xususiyatini ham belgilaydi. Aloqalar uzoq yoki qisqa muddatli, mustahkam yoki bo'sh va zaif, bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Aloqalar xususiyatining shakllanishida manfaatlar muhim rol o'ynaydi, ularni muvofiqlashtirish vazifasini esa jamiyatning maxsus institutlari, avvalo siyosiy tizim hal qiladi.

Moddiy borliq makoni kabi ijtimoiy makon ham moddiy ob'yektning tuzilishi bilan belgilanadi. Tegishli ravishda ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy

o'zaro aloqalar ijtimoiy makon xususiyatini belgilaydi. Makondagi aloqalar o'zaro aloqaga kirishayotgan subyektlar o'rtasida ma'lum masofa *mavjudligi bilan* ajralib turishi mumkin. *Biz mazkur masofa xususiyatini* o'zimiz uchun botiniy tarzda aniqlaymiz, uni yo saqlab qolishga, yo o'zgartirishga harakat qilamiz. Odamlar o'rtasidagi aloqalar ham makon mezoni bilan o'lchanadi. Ular vizual, yo bevosita, yo bilvosita, yo doimiy, yo nomuntazam bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy makon o'zining serdarajaliligi bilan ajralib turadi. Bu ayni bir inson turli birliklarda har xil maqomga ega bo'lishida namoyon bo'ladi (masalan, o'zi mehnat qiladigan ishxonada u xizmat pillapoyasida eng past o'rinni egallaydi, oilada esa boshliq hisoblanadi).

Insonning ijtimoiy makondagi o'rni uning butun umri mobaynida o'zgarib turadi. Bu hol «ijtimoiy mobillik» kategoriyasi bilan tavsiflanadi

Institutlar

Jamiyatning rivojlanish jarayoni alohida muhim vazifalarni bajaradigan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar – institutlarning tarmoqlangan tizimi yaratilishi bilan tavsiflanadi. Institutlar jamiyat normal faoliyatining zaruriy omili sanalgan ijtimoiy muhim faoliyatni amalga oshiradi. Bunday institutlar qatoriga davlat va uning institutlari, partiyalar va harakatlar, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, ta'lim va madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati tizimlari, bozor, banklar va hokazolar kiradi. Ijtimoiy institutlar faoliyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalari: oila va ishlab chiqarish, tovarlar va pullar harakati, ishlab chiqarish, iste'mol va hokazolarga nisbatan tatbiq etiladi. Institutlar turli birlik va guruhlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ularning samarali o'zaro aloqasini ta'minlaydi, vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi va yangilarini yaratadi.

Jamiyat rivojlanishining ma'naviy asoslari

Odamlarning ma'naviy faoliyati jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Odam ongli mavjudot bo'lib, o'z tafakkuri bilan ijtimoiylikning barcha ko'rinishlarini anglab yetadi. Bu jarayonda olimlar, rassomlar, jurnalistlar, turli partiya va harakatlarning mafkurachilari va shu

kabilarning ixtisoslashgan kasbiy ma'naviy faoliyati muhim rol o'ynaydi. Ularning nisbatan mustaqil kasbiy faoliyati ijtimoiy hayotning turli jabhalariga xizmat ko'rsatadi. Ma'naviy ishlab chiqarishda iqtisodiy kichik tizim qonuniyatlari, ya'ni jamiyatning xo'jalik jarayonlari o'rtasidagi takrorlanuvchi muhim - zaruriy bog'lanishlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ularning qatoriga ehtiyojlarning yuksalish qonuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarish qonunlari, qiymat qonunini kiritish mumkin.

Jamiyat ma'naviy kichik tizimining vujudga kelishi rang-barang ijtimoiy va shaxsiy ma'naviy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ularning eng muhimlari – ma'rifiy, axloqiy, estetik, diniy ehtiyojlar. Ularni qondirish axborot va kommunikasiya turli vositalarining mavjudligini nazarda tutadi. Axborot va kommunikasiya ham shaxs va jamiyatning muhim ma'naviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy muloqotga bo'lgan ehtiyoj ma'naviy ehtiyojlar orasida alohida o'rin egallaydi. Jamiyatda ma'naviy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari va institutlari asta-sekin vujudga keladi. Ular turli ma'naviy ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutadi. Masalan, ilmiy institutlar va olimlarning turli-tuman birlashmalari tabiat, jamiyat va insonni o'rganish bilan shug'ullanadi, shu tariqa odamlar faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlaydi. Fanda ham ijtimoiy amaliyotga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan o'z muammolari yuzaga keladi. Mazkur muammolarni yechish fan rivojlanishining sharti, uning ichki ehtiyoji hisoblanadi.

Axborot va kommunikasiya ma'naviy ishlab chiqarishning axborot almashinuviga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan sohalari bo'lib, bu, avvalo, aholiga to'g'ridan-to'g'ri axborot berish vositalaridir. Qadimda bular podsholarning farmonlarini maydonlarda o'qib eshittirgan jarchilar, voizlar, shoir va baxshilar, masxarabozlar, teatr, shuningdek, yozma adabiyot bo'lgan. Keyinchalik, axborot texnika vositalari rivojlanishi bilan ma'naviy muloqotga bo'lgan ehtiyojlar bosma nashrlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar) bilan qondirilgan, so'ng radio, kino, televidenie, ya'ni hozirgi ko'rinishdagi ommaviy axborot vositalari (OAV) paydo bo'lgan. Hozirgi sharoitda ommaviy axborot vositalari o'z mahsulotini ishlab chiqaradigan va uni bozorda sotadigan sanoatning alohida tipidir.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi odamlarning bevosita shaxsiy va jamoaviy muloqotiga bo'lgan ehtiyojga chek qo'ymaydi. Mazkur ehtiyoj butunlay boshqa vositalar bilan va o'zga sharoitda (uyda yoki teatrda, o'quv auditoriyasida yoki yozishmalar orqali va h.k.) qondiriladi. Shunga qaramay, ommaviy axborot vositalari hozirgi jamiyatda ma'naviy muloqotning muhim elementi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar va kundalik nutqda «axborot» va «kommunikasiya» tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Ammo ma'naviy muloqotning mazkur hodisalari amalda har xil ma'noni anglatadi. *Axborot deganda, yangi bilimni aks ettiradigan va mazkur axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o'zgartiradigan xabar tushuniladi. Kommunikasiya - g'oyalar, qarashlar, baholar almashinuvini nazarda tutadigan ma'naviy muloqot turi. U odamlar o'rtasida hamjihatlikning mavjudligi bilan belgilanadi.*

Insonga ta'lim va tarbiya berish ma'naviy ishlab chiqarishning alohida sohasi hisoblanadi. Jamiyatda ta'lim va tarbiya muassasalarining tarmoqlangan tizimi: bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab ta'limining turli-tuman shakllari - kollejlar, internatlar, oliy o'quv yurtlari tashkil etiladi. Axloqiy va estetik tarbiya berish, dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilar ongida dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish yo'li bilan, shuningdek, san'at, falsafa va diniy muassasalar yordamida amalga oshiriladi. Tarbiyalash funksiyasini oila, do'stlar va tanish-bilishlar davrasi, davlat muassasalari, huquqiy tartibot organlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bajaradi. Ijtimoiy ong ma'naviy kichik tizimning bosh bo'g'ini hisoblanadi. U bilimlar, g'oyalar, qarashlar, fikrlar, dunyoqarashga doir mo'ljallar, qadriyat va hokazolarning butun rang-barangligida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ong tuzilishi

Ijtimoiy ong ikki daraja: kundalik ong va nazariy ongni o'z ichiga oladi. Kundalik ong o'z tuzilishiga ko'ra turli jinslidir. U ajdodlar to'plagan mehnat faoliyati tajribasini, axloqiy me'yorlar, odatlarni, kundalik turish-turmush qoidalarini, tabiatni kuzatish natijasida shakllangan tasavvurlarni, dunyoqarashga doir ba'zi mo'ljallarni, xalq og'zaki ijodi (folklor) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Kundalik ong-

asosan, mehnatga, kundalik turish-turmush va odamlarning ular bilan bog'liq bo'lgan yashash sharoitlari va munosabatlariga qarab mo'ljal oladi. Kundalik hayot, ya'ni faoliyat, odat va munosabatlarning uzluksiz takrorlanadigan shakllari kundalik ong mazmunini tavsiflovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. U o'zining sinkretik xususiyati, mazmunan qashshoqligi, emotsiyalarga boyligi, stixiyaliligi va amaliyotga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Kundalik ongning bilish imkoniyatlari cheklangan: u hodisalar mazmunini teran anglashga, dalillarni tizimga solishga qodir emas. Nazariy ong kundalik ongga tayanadi, lekin uning tor doirasidan tashqariga chiqa oladi.

Mazkur darajalar ijtimoiy ong tuzilishini bilish harakatidagi uning obyektga muvofiqlik darajasi bilan farq qiladigan jihatlari sifatida tavsiflaydi. Ayni vaqtda ijtimoiy birlik va guruhlar ma'naviy faoliyatining mahsuli sanalgan ijtimoiy ong ularning subyektiv qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy ong manbalarining o'ziga xos xususiyatlari ta'siri ijtimoiy psixologiya va mafkurada aks etadi.

Ijtimoiy psixologiya

"Ijtimoiy psixologiya"da, ijtimoiy bo'lgan inson ruhiyatining namoyon bo'lish shakllari aksini topadi. Ijtimoiy psixologiya ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida kishilarning ommaviy xulq-atvori xususiyatlarini, ijtimoiy birlik va guruhlarning ijtimoiy hayot hodisalariga bo'lgan munosabatlarining muayyan tipini tavsiflaydi. Ular e'tiqodlar, ijtimoiy mo'ljallar, tuyg'ular, odatlar, stereotiplar va hokazolar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy psixologiya ruhiyat tarzini, muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'lgan jamoa xulq-atvorining ruhiy xususiyatlari va shakllari barqaror majmuini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy birlik va guruhlarni tushunishda ijtimoiy fe'l-atvorni hisobga olish muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologiyada u yoki bu guruh yoki butun jamiyatga mazkur jamiyat tarixining muayyan davrida xos bo'lgan ijtimoiy tuyg'ular muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy tuyg'ular juda faol va o'ta ta'sirchan. Ular aks etish va tarqalish xususiyati va usullariga ko'ra farq qiladi. O'zaro ruhiy induksiya, taqlid, ijtimoiy nazorat, ta'sir ko'rsatish, emotsiyalarni yuqtirish va hokazolar shular jumlasidan.

Ijtimoiy mafkura

Ong doim ijtimoiy rivojlanish ehtiyoj va istiqbollari bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim savollarga javob beradi. Mazkur savollar mafkura doirasida qo'yiladi va hal qilinadi.

Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarining tizimga solingan, nazariy ko'rinishda aks ettiradigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o'zgartirishga xizmat qiladigan g'oyalar, qarashlar majmuidan iborat. Mafkura mazmunini ijtimoiy rivojlanishning dolzarb va yechilishi lozim qiladigan ziddiyatlari tashkil etadi. Shunga muvofiq yuz berayotgan jarayonlar mazmuni va ijtimoiy muammolarni yechish yo'llariga nisbatan alohida yondashuvni aks ettiruvchi ayrim nazariy mulohazalar mafkuraning shakli hisoblanadi. Mafkuraning mazmuni muayyan ijtimoiy guruh – sinf, etnik guruh, hukmron elita yoki uning muxolifati va funksiyalarining manfaatlarini ifoda etishdan iborat. *Mafkura shaklan ob'yektiv, lekin mazmun jihatidan sub'yektiv xarakterga ega bo'ladi.* U nazariy jihatdan tizimga solingan ko'rinishda ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi, ularning ijtimoiy-siyosiy natijalarini nazariy jihatdan asoslash va oqlashga harakat qiladi.

O'zbek olimi A.Ochildiev *istibdod mafkurasi, istiqlol mafkurasi* va *jamiyat mafkurasi* kabilarni farqlagan. Istibdod mafkurasidan farqli o'laroq, "*Istiqlol mafkurasi millat, jamiyat, davlatni murakkab taraqqiyot yo'liga boshlaydigan, uni belgilab beradigan, erkin va ozod rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan g'oyalar, qarashlar tizimidir*"[1]. Uning fikricha, har qanday davlat o'z faoliyatida yagona etnosotsial birlik sifatida chiqadigan millat manfaatini himoya qilishga qaratilishi, uning jipsligi, tiraqqiyotini ta'minlaydigan milliy mafkuraga tayanmog'i lozim. Zero, milliy mafkura davlat organlari, ijtimoiy institutlar faoliyatini tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi qurol vazifasini o'taydi.

Ijtimoiy ong shakl va mazmun jihatidan rang-barang. Ijtimoiy ongning ilmiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy shakllari farqlanadi. Ular o'zi aks ettiruvchi hodisalar mazmuni, moddiylashuv shakli va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy ong fan yoki shakllari ko'p darajali tuzilmalar bo'lib, o'ziga xos ko'rinishga ega

[1] Ochildiev A. Milliy g'oya va mafkuraning mazmun-mohiyati. – T.: O'zbekiston, 2001. – B.28.

bo'lgan oddiy va nazariy darajalarni, ijtimoiy psixologiya va mafkurani o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy huquq va ijtimoiy axloq

Ijtimoiy huquq – davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui.

Ijtimoiy axloq – jamoatchilik fikri, yo'ni qilinishini ma'qullash yoki qoralash bilan mustahkamlanadigan xulq-atvor qoidalari majmui.

Axloq va huquq normalari o'zlari muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni, normativ talablarni mustahkamlash usullari, ularning shaxs xulq-atvoriga samarali ta'siri darajasiga ko'ra ajralib turadi. Ijtimoiy axloq va huquq normalarining mazmuni o'rtasida jiddiy farq mavjud emas. Masalan, «o'g'rilik qilma» - bu ham axloqiy qoida, ham huquq normasi.

Ammo huquq normalari o'zini tartibga solish doirasi bilan axloq me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ulkan hajmini to'la qamrab olmaydi. Masalan, huquq oilaviy munosabatlar sohasida ota-onaga o'z farzandlarini tarbiyalash majburiyatini yuklaydi, lekin ota-onani bir-birini sevish, bir-biriga g'amxo'rlik qilishga majburlamaydi. Huquq va axloq o'rtasidagi farqni ular ko'rsatadigan ta'sirining samaradorlik darajasida ham ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda, davlat majburlovi kuchiga tayanadigan huquq axloqqa qaraganda samarali. Ammo muayyan sharoitda inson uchun huquq axloqiy me'yorlar nufuzi qarshisida ojiz bo'lishi mumkin. Bu hol shaxsning qadriyatlarga munosabati mazmuni bilan, muayyan inson qaysi axloqiy qadriyatlarga tayanishi, shuningdek u yashaydigan muhit, ya'ni individ fikrini qadrlaydigan referent guruhning qanday'ligi bilan belgilanadi. Shu sababli axloqiy yo'l tanlashda ayrim inson uchun ishlab chiqarish jamoasi yoki maktab (talabalar) guruhining nufuzi muhim ahamiyat kasb etishi mumkin, boshqa shaxs uchun esa diniy sekta yoki ijtimoiy guruh a'zolarining fikri ustunlik qilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, axloq jamoatchilik fikriga tayanadi. Ammo inson xulq-atvoriga baho berish juda mushkul ish, chunki uning zamirida muayyan sabablar yotadi, u muayyan sharoitda sodir etiladi, obyektiv oqibatlarga olib keladi, maqsadga erishishning

muayyan vositalarini tanlashni nazarda tutadi. Jamoatchilik fikri shaxs xulq-atvoriga baho berishda ijtimoiy mustahkamlangan axloq me'yorlariga amal qiladi, shaxs esa axloq haqidagi o'z tasavvurlaridan kelib chiqadiki, ular umumiy e'tirof etilgan me'yorlardan ancha farq qilishi mumkin. Muayyan sharoitda bir individ o'z vijdonining ovoziga quloq solsa, boshqa individ umumiy qabul qilingan axloqiy tasavvurlarga qarab mo'ljal oladi, ya'ni «har qanday vijdonli odam» kabi ish ko'radi. Birinchi yoki ikkinchi individning qilmishini axloqiy deb hisoblash mumkinmi? Agar birinchi individ vijdonining ovozi umuminsoniy axloqiy tamoyillarga mos kelsa, uning qilmishiga axloqiy jihatdan shubhali, murosasoz va qo'rqoq shaxs, chunki uning qilmishi jamoatchilikning qoralashidan qo'rqish bilan izohlanadi. Sirtdan belgilangan qilmish axloqiy sanalmaydi. Huquqiy majburlov va jamoatchilik fikri yoki Tangri la'natidan qo'rqish emas, balki shaxsning ichki mayli axloqiy qilmishning muhim belgisi hisoblanadi.

Axloq shaxs erkinligini, uning o'zini, o'z ehtiroslarini boshqarish qobiliyatini, insonning o'z qilmishlari uchun o'zi oldida javobgarligini nazarda tutadi. Axloq inson aqlini ezgu ishlarga yo'naltiradiki, bu shaxsiy manfaatdorlik tuyg'usidan xoli yaxshi niyatlarda namoyon bo'ladi. Individ erkinligi va axloqiy qadriyatlarning mos kelishi axloqqa xos xususiyatdir. Jamiyatning axloqiy qoidalari shaxsga bu qoidalarga rioya etish majburiyatini yuklaydi, shu sababli burch axloqiy qilmishlarga turtki beradigan muhim ichki omil hisoblanadi. Bundan xulq-atvor me'yor va andozalariga oddiy rioya etish nari borsa ijtimoiy jarayon bir maromda kechishini ta'minlash imkonini beradi. Uning rivojlanishi uchun esa ijod imkoniyat yaratadi. Bunda ijodning vazifasi tarix talablariga javob berish, faoliyatning mutlaqo yangi dasturlarini topishdan iborat.

Individual ijtimoiy ong

Individual ijtimoiy ong – ayrim insonda uning yashash sharoiti va ruhiy xususiyatlari ta'sirida shakllanadigan dunyoning sub'yektiv obrazi. U shaxsning ichki borlig'iga ega bo'ladi, aksariyat hollarda hammadan yashirin ong oqimini tashkil qiladi. *Ijtimoiy ong ijtimoiy birlik va guruhlar tashqi omillar – jamiyat hayotining moddiy sharoitlari va uning ma'naviy madaniyati ta'sirida shakllantiradigan tasavvurlarni*

tavsiflaydi.

Individual va ijtimoiy ongning farqi faqat ijtimoiy onggina sosial xususiyat kasb etishini anglatmaydi. *Individual ong – jamiyat ongning ajralmas qismi.* Jamiyatda asrlar mobaynida shakllangan madaniyat shaxsni ma'naviy jihatdan boyitadi, individual ongning uzviy qismiga aylanadi. Har bir individ o'z xalqi, etnosining, o'zi istiqomat qiladigan joyning vakili bo'lib, uning ongi jamiyat bilan chambarchas bog'liq. Ayni vaqtda ijtimoiy ong faqat individual ong bilan muttasil o'zaro ta'sirga kirishish orqali rivojlanadi.

Ijtimoiy ong holatlari

Ijtimoiy ong holati, ommaviy ong, jamoatchilik fikri kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ijtimoiy ong holati mazkur tarixiy davrda qaysi g'oya va qarashlar yetakchilik qilayotgani, ijtimoiy ongning qaysi shakllari jamoatchilik fikri va kayfiyatiga, ayniqsa, samarali ta'sir ko'rsatayotgani, jamoatchilik fikrini shakllantirishning qaysi mexanizmlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi (u mafko'raviy majburlov mahsulimi yoki stixiyali tarzda shakllanadimi), jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalari orasida fan, din, siyosat va huquq qanday o'rin egallashi bilan belgilanadi. Ijtimoiy ong holatlarini tavsiflashda ilmiy va noilmiy tasavvurlarning o'zaro nisbatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ijtimoiy bo'hron va tangliklar davrida o'ta xurofiy aqidalar tiklanadi, sarosimalik kayfiyatlari, ijtimoiy ongning beqarorligi kuchayadi. Ijtimoiy ong madaniyatda o'zining amaliy ifodasini topadi.

Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi

Atrof borliqda odamlar e'tiboridan chetda qoladigan, ular qadriyat sifatida qaramaydigan hodisalar juda kam. Qadriyatlarni ijtimoiy hayot sohalariga ko'ra; sub'yektlari yoki manbalariga ko'ra; jamiyatdagi roliga ko'ra tasniflash mumkin. Quyida ularni tahlil qilamiz.

Qadriyatlar muammosi qadimgi davrdayoq faylasuflarni qiziqtirgan, o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo'sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi

faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, yengilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi, deb hisoblaydi. Aristotel inson, baxt, adolatni ya'ni haqiqiy qadriyatlarni, insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi. O'rta asrlarda g'arbda ham, sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, J.Rumiy, Leonardo da Vinche ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan, A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar rasionalizm nuqtai nazaridan tavsiflangan va bu fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga ta'sir etgan. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvesiy, Pol Anri Golbax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqumiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "yaxshi xulqlar - muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi "yomon xulqlar"ni farqlaydi. Keyinroq, XX asrda o'zbek faylasufi S.Shermuxamedov A.Avloniy g'oyasini davom ettirib insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishi inson o'z hayotining qadriga etishida ko'rinishini e'tirof etgan.

Immanuil Kant mavjudlik va joizlik, voqelik va ideal, borliq va yaxshilik tushunchalarini birinchi bo'lib farqlagan, erkinlik sifatidagi axloqiylik muammosini zaruriyat qonuni ta'siri ostida bo'lgan tabiat sohasiga qarama-qarshi qo'ygan.

Qadriyatlar nazariyasi falsafiy bilimlarning ilmiy tizimi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Vilgelm Vindelband, Rudolf Lotse, German Kogen, Genrix Rikkert kabi nemis faylasuflarining asarlarida shakllana boshlagan. Ayni shu davrda R.Lotse va G.Kogen ob'yekt ma'nosidagi "qadriyat" tushunchasiga ilk bor falsafiy ta'rif bergan. XX

asrning boshida fransuz faylasufi P. Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. axios - qadriyat, logos – fan, ta'limot) atamasini muomalaga kiritgan. Keyinchalik aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonda aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida XX asrning 80-yillaridan rivojlangan. Bu dastlab X.Shayxovaning ijodida milliy qadriyatlarning asosiy shakllari, inson qadri va shaxsiy qadriyatlarning tahlilida, so'ngra bir qancha yosh olimlar ijodida o'z ifodasini topdi. X. Shayxova inson qadri haqida fikr yuritar ekan, "Qarilik iborasini insonga nisbatan biologik ma'noda ishlatish mumkin, ammo bu tushunchani inson qadriga va qadriyatlariga nisbatan ishlatish nojoiz. Zero, qarilik qadrsizlanish bo'lmagani kabi yoshlik ham beqadrlik degani emas" deb ta'kidlagan. Binobarin o'z shaxsi va boshqalarning qadrini anglash uchun insonning ma'naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning bebaho ne'mat ekanligini anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmog'i lozim.

Demak, qadim zamonlardan boshlab hozirgi vaqtgacha falsafada *qadriyat muayyan narsaning atributi yoki shaxs va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilangan baholash mahsuli,* degan masala turli falsafiy maktab va yo'nalishlarning vakillari o'rtasida muhokama qilingan, u hozir ham davom etmoqda.

Muayyan narsaning atributi sifatida qadriyat insondan qat'iy nazar, mavjud bo'lgan ob'yektiv narsa yoki hodisa sifatida talqin qilinadi. Shaxs va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilangan baholash mahsuli sifatida "qadriyat" tushunchasi erkin xususiyatga ega bo'lgan sub'yektiv nisbiy mulohazalar bilan bog'lanadi. Qadriyatlar mazmuni ob'yektlardan emas, balki insonning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu ikki qarama-qarshi nuqtai-nazar "qadriyat" tushunchasining ba'zi xususiyatlarini aks ettiradi, lekin u haqda aniq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Qadriyat voqelikning, ya'ni tabiat, jamiyat yoki madaniyat hodisalarining xossasi, degan fikrga qo'shilsak, haqiqat va qadriyatning ayniylashtirilishi muqarrar. Ammo aksiologiyaning «Baxt-saodat nima?» degan asosiy masalasini birinchi bo'lib ta'riflagan Suqrot haqiqat va qadriyat o'rtasida jiddiy farqlarni ko'rsatib bergan. *Bilim baxt-saodatga*

erishishning muhim sharti, lekin u mazkur qadriyatga erishishning birdan-bir sharti emas. Bu shu bilan izohlanadiki, tabiat va jamiyat predmet va hodisalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni anglab yetish yo amalda nima mavjudligi haqidagi bilim shaklida, yo bu borliq qanday bo'lishi lozimligi, inson tabiat va boshqa odamlarga nisbatan o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi tasavvur ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Bilim shaklida qadriyat predmet haqidagi bilim uning haqiqiyligi yoki soxtaligi nuqtai nazaridan, inson tabiat va boshqa odamlarga nisbatan o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi tasavvur ko'rinishida – predmetning qimmati, ya'ni uning inson uchun ahamiyati nuqtai nazaridan tavsiflanadi.

Xo'sh aksiologiya yoki qadriyatlar nimani o'rganadi? Aksiologiya – falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi (yunon. axios - qadriyatlar, logos – bilim; qadriyatlar haqidagi fan). "*Qadriyatlar*" *tushunchasi insonning dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab yetish imkonini beradi.* Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi, chunki insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralish darajasini aynan qadriyatlar tavsiflaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot faoliyatida fundamental ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar odamlarni jipslashtirish, ularni hamjamiyatlarga birlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Umumiy qadriyatlar fuqarolar, ijtimoiy birlik va guruhlarning tinch-totuvligini ta'minlaydi. Qadriyatlar jamiyat rivojlanishining o'tish davrlarida, odamlarni yo o'zlari ko'nikkan eski qadriyatlarni saqlash, yo turli partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, harakatlarning vakillari tomonidan taklif qilinayotgan, hatto majburiy tarqatilayotgan yangi qadriyatlarga moslashishga majbur etuvchi davrlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyat va mo'ljallarni yo'qotish yoki vujudga kelgan qadriyatlar tizimidan voz kechish esa muqarrar tarzda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishiga olib keladi.

Qadriyatlar – madaniyatning tizim yaratuvchi muhim omili. Qadriyatlar mazmuniga qarab butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. Shu sababli qadriyatlar nima, qadriyat va bahoning o'zaro

munosabati qanday, qaysi qadriyatlar inson uchun eng muhim va qaysilari ikkinchi darajali, degan savollar bugungi kunda olamshumul ahamiyat kasb etadi. Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati, turli qadriyatlarning bir-biri, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi.

Qadriyatlar muayyan normativ kategoriya bo'lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmeti sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g'alaba, hayotning mazmuni, baxt, hurmat qadriyatlarning kategoriyalari hisoblanadi.

Qadriyat kategoriyasining mazmuni

Qadriyatlar so'zning etimologik ma'nosi ancha sodda bo'lib, *qadriyat – odamlar qadrlaydigan narsa.* Shu ma'noda narsa yoki buyumlar ham, tabiat hodisalari ham, ijtimoiy hodisalar ham, insonning xatti-harakatlari ham, madaniyat hodisalari ham qadriyat bo'lishi mumkin. Ammo «qadriyat» tushunchasining mazmuni, uning tabiati oddiy ong tasavvur qilganidek sodda emas.

Qadriyat, xuddi haqiqat kabi, xossa emas, balki fikr va voqelik o'rtasidagi munosabat. Inson o'zining individual tajribasiga asoslanib, o'zi uchun muhim bo'lgan ob'yekt bilan o'z ehtiyoj va manfaatlari o'rtasida aloqa mavjudligini anglab yetadi.

Inson uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa yoki hodisa qadriyat hisoblanadi. Muhimlik narsaning o'zidagi xossalari bilan emas, balki ularning inson hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. I.Kant tafakkur qadriyatlarning manbalari va ularni maqbul narsaga aylantiruvchi qadriyatlar o'lchovini anglab yetishga qodir ekanligini qayd etadi. Tabiat va madaniyat predmetlari sanalgan manbalar bo'lmasa, qadriyatlar ham bo'lmaydi. *Qadriyatlar o'lchovi ayrim mezonlarning mavjudligini nazarda tutadi.* Muayyan predmetning mazkur mezonlarga muvofiqligi uni shaxs yoki jamoa uchun qadriyatga aylantiradi. Maqbullik sub'yektiv darajada baholash, ya'ni turli hodisalarning inson uchun ahamiyatini aniqlash tarzida amal qiladi. Mazkur hodisalarning inson uchun ahamiyati uning ijtimoiy pozisiyasi, dunyoqarashi, madaniyat, aql-zakovat va ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli *qadriyatning borlig'i intellektual darajadagina emas, balki*

emotsional darajada ham anglab yetiladi. O'z-o'zidan ravshanki, sub'yektiv maqbul narsa yoki hodisa bilan qadriyat o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Masalan, inson uchun muhim madaniy hodisa – o'yinni ko'pchilik faqat bolalikdagina kechishi mumkin bo'lgan behuda va befoyda faoliyat deb hisoblaydi. Shiller, aksincha, o'yinning inson uchun ahamiyatini qayd etib: «Inson so'zning to'liq ma'nosida inson bo'lgan holdagina o'ynaydi va u faqat o'ynayotgan paytdagina to'laqonli inson bo'ladi»[1], deb yozadi.

Ammo baholargina emas, balki qadriyatlar dunyosi ham insoniyatga bog'liq bo'lib, uning rivojlanish darajasi, faoliyat sohasining kengayishi, madaniyat va sivilizatsiyaning xususiyati bilan belgilanadi. Tabiat aksiologik jihatdan neytral bo'lib u qadriyat sifatida insoniyat bilan bir kontekstda, insoniyat mavjudligi va rivojlanishining muayyan tarixiy sharoitlaridagina dolzarblashadi. Turli sivilizatsiyalarga xos bo'lgan me'yorlarni taqqoslash qadriyatlar dinamikasi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, qadimgi Yunonistonda inson hayoti to'laqonli tarzda uyg'un namoyon bo'lishi, Misrda esa inson hayotining o'limga bo'ysunishi oliy qadriyat hisoblangan.

Qadriyatlar individual bo'lib, ular anglanishi yoki anglanmasligi yoki noto'g'ri anglanishi mumkin. Ammo qadriyatlarni sub'yektiv darajada maqbul hodisa sifatida anglashning har qanday varianti baholash ko'rinishida amal qiladi. Haqiqatdan farqli o'laroq, baholash narsalarning haqiqiy holatiga bilimning muvofiqligiga erishishdan emas, balki narsa va ularning xossalarini inson uchun zarur va muhim deb anglab yetishdan iborat. Predmetning ob'yektiv mazmuni (ahamiyati) bilan sub'yekt baholash jarayonida eksplikatsiya qiluvchi shaxsga doir mazmun o'rtasida kuchli tafovut mavjud. Shu sababli baholashda dunyoni anglab yetishning shaxsiy xususiyati bilan izohlanuvchi sub'yektiv omil ustunlik qilishi mumkin. Bu tafovutga qaramay, haqiqat va qadriyat o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ma'lumki, haqiqiy bilim baholash predmeti bo'lishi, qadriyat sifatida tavsiflanishi mumkin. O'z navbatida, hodisalar dunyosining inson uchun ahamiyatini faqat ular haqidagi bilimlar yordamida aniqlash mumkin. Narsaning ahamiyati haqida xulosa chiqarish sub'yektga zarur bo'lgan sifatlarga ega ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lish demakdir.

[1] Шиллер М. Статьи по эстетике. – М., 1935. – С. 302, 303.

Qadriyatlar sub'yektning ehtiyojlari, manfaatlari, mayllari, maqsad va ideallari bilan ob'yektning amaldagi aloqasini aks ettiradi. Shu sababli qadriyatlar haqidagi mulohazalar to'g'risida ularning haqiqiyligi yoki soxtaligi nuqtai nazaridan so'z yuritish mumkin. Shunga qaramay, qadriyatlar haqidagi mulohazalar, ular haqiqiy bilim yoki xurofiy aqidalarga, fan yoki bid'atga, hayot tajribasi yoki uning mavjud emasligiga asoslanganidan qat'iy nazar, qadriyatlarni aniqlaydi, ularni qayd etadi.

Haqiqat va baholashning farqi ularni anglab yetish usullarida ham, ifodalash shakllarida ham, qadriyatlarni bilish jarayonida ishtirok etuvchi ong strukturalarida ham namoyon bo'ladi. Haqiqat sub'yektivlikni cheklash yo'li bilan anglab yetiladi, bilish o'rganilayotgan narsaga nisbatan tasodifiy va sirtqi xususiyatga ega bo'lgan narsalarni mavhumlashtirishni nazarda tutadi. Haqiqatda dunyo insondan qat'iy nazar, qanday bo'lsa, shunday ko'rinishda namoyon bo'ladi. Baholash yetakchi omil sifatida sub'yektiv asosni o'z ichiga oladi, unda predmetning o'z xossalari emas, balki uning inson uchun ahamiyati namoyon bo'ladi.

Haqiqat va baholashni aks ettirish shakllari ham bir-biridan ancha farq qiladi. Haqiqat tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlarini ochib beruvchi oqilona, mantiqiy jihatdan ziddiyatsiz bilim ko'rinishiga ega bo'ladi. *Baholash emotsiyalar, mayllar, iroda sohasiga qarab mo'ljal oladi. Garchi baholash bilim omilini ham o'z ichiga olsa-da, lekin bu bilim ancha mavhum obrazli shakl-shamoyil kasb etishi, dalil-isbotsiz bo'lishi, intuisiyaga tayanishi mumkin.*

Qadriyatlar san'at va din, axloq va huquq, siyosiy va madaniy hayot sohasida yetakchi o'rinni egallaydi. Ularni ilmiy tushunchalar tiliga o'girish mumkin emas, aksariyat hollarda ular badiiy-obrazli mifologik yoki diniy shakl-shamoyilga solinadi. Qadriyatlar haqidagi mulohazalarning muhim xususiyati shundan iboratki, ular baholash yoki ichki holat orqali, avvalo, qadriyatni emotsiyalar darajasida his qilish orqali harakatga da'vat etishdir. Ilmiy bilishning vazifasi to'laqonli aniq bilimga mumkin qadar yaqinlashishdan iborat bo'lsa, qadriyatlarga munosabat bizni «mazmun podsholigi»ga, muhimliklar dunyosiga olib kiradi.

Qadriyat tushunchasining falsafiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy va ob'yekt-sub'yektli xususiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat bo'lmagan joyda qadriyatlar mavjud bo'lmaydi. Zero, narsalar, voqealar ularning inson bilan, sosium hayoti bilan aloqasisiz, o'z holicha qadriyatlar bilan bog'lanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insoniylashgan tabiatga, ya'ni butun sivilizatsiyagagina emas, balki hatto ko'p sonli tabiat ob'yektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat bo'lgan atmosfera Yerda inson paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina atmosferaning odamlar hayoti uchun ulkan ahamiyati haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ilgan.

Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadni belgilashdan boshlanadi va mazkur faoliyat ayni shu maqsadga erishishga bag'ishlanadi. *Maqsad – individga o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin bo'lgan faoliyatning pirovard natijasi haqidagi insonning tasavvuri.* Shunday qilib, individ o'z faoliyatining mo'ljallangan natijasiga avval-boshdanoq qadriyat sifatida qaraydi. Shu sababli inson natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayoniga ham o'zi uchun muhim, qadrli bo'lgan jarayon sifatida yondashadi.

Insonning har qanday faoliyati va uning har qanday natijalari emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy ehtiyojlar va odamlarning manfaatlariga mos keladigan faoliyat va natijalargina qadriyatlarga aylanadi. Qadriyatlar qatoriga narsalargina emas, balki g'oyalar, munosabatlar, faoliyat usullari ham kiradi. Biz moddiy ne'matlarni ham, insoniy hatti-harakatlar ezguligini ham, davlat qonunlarining odilonaligini ham, olamning go'zalligini ham, aqlning ulug'vorligini ham qadrlaymiz.

*Qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga bo'lgan munosabatning faollik, qizg'inlik darajasini tavsiflay*di. Nimadir bizni ko'proq, nimadir kamroq ta'sirlantiradi, nimadir bizni o'ziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. Shuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», ya'ni ziyon xususiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. Yomonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyat va kasalliklar jamiyat

xamda shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan.

«Muhimlik» tushunchasi «qadriyat»ga qaraganda kengroq, demak, qadriyat – ijobiy muhimlik. Ijtimoiy rivojlanishda salbiy rol o'ynaydigan hodisalar salbiy ahamiyatga molik deb talqin qilinishi mumkin. Shunday qilib, har qanday muhimlik emas, balki inson, uning birlashmalari yoki butun jamiyat hayotida ijobiy rol o'ynaydigan muhimlikkina qadriyat hisoblanadi.

Har qanday qadriyat ikki xossa: funksional ahamiyat va shaxsga doir mazmun bilan tavsiflanadi. Qadriyatning funksional ahamiyati – narsa yoki g'oyalarning ularni mazkur jamiyatda qadriyatga aylantiruvchi ijtimoiy muhim xossalari, funksiyalarining majmui. Masalan, muayyan g'oyaga ma'lum informasion mazmun va uning haqqoniylik darajasi xos.

Qadriyatning shaxsga doir mazmuni – uning inson ehtiyojlariga bo'lgan munosabati bilan bogliq. Inson narsaning mazmun va mohiyatini anglab yetish jarayonida o'zining mazkur narsaga bo'lgan sof tabiiy ehtiyojidan emas, balki o'zi mansub bo'lgan jamiyat tarbiyalagan ehtiyojdan, ya'ni jins bildiruvchi ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqadi. U narsaga go'yoki boshqa odamlarning, jamiyatning ko'zi bilan qaraydi va unda mazkur jamiyat doirasida o'z hayoti uchun muhim bo'lgan narsani ko'radi.

Ayni vaqtda shuni qayd etish lozimki, *qadriyatlar odamlar uchun bir xil mazmun kasb etmaydi, u odamlarning jamiyatdagi mavqeiga va ular hal qilayotgan vazifalarga bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsiy avtomobil hal qilayotgan vazifalarga bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsiy avtomobil harakatlanish vositasi, qo'shimcha pul topish vositasi yoki shaxsning mavqeidan dalolat beruvchi buyum bo'lishi mumkin.* Bunday holda avtomobil uning egasi boshqa odamlar ko'z o'ngida muayyan nufuz kasb etishi uchun imkoniyat yaratuvchi egalik obyekti sifatida muhimdir. Ko'rsatilgan holatlarning barchasida ayni bir predmet turli ehtiyojlar bilan bog'liq.

Qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra ob'yektivdir. Bu qoida e'tiroz uyg'otishi mumkin. Zero sub'yekt mavjud bo'lmagan joyda qadriyat to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. *Qadriyat insonga, uning tuyg'ulari, mayllari, emotsiyalariga bog'liq bo'ladi, ya'ni qandaydir*

sub'yektiv narsa yoki hodisa sifatida qaraladi. Bundan tashqari, individning buyumga bo'lgan qiziqishi yo'qolgani, buyum uning ehtiyojlarini qondirmay qo'ygani zahoti individ uchun buyum o'zining qadriyat sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi. Boshqacha aytganda, sub'yekt bilan bog'liq bo'lmagan holda, uning ehtiyojlari, mayllari, manfaatlari bilan buyumning aloqasisiz qadriyat mavjud bo'lishi mumkin emas.

Demak, *Qadriyat – bu borliq rang-barang elementlarining ob'yektiv ahamiyati bo'lib, ularning mazmuni jamiyat sub'yektlarining ehtiyojlari va manfaatlari bilan belgilanadi.*

Qadriyatning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yondashuvlar shakllangan:

Naturalistik psixologizm yo'nalishning namoyondalari Aleksius fon Meynong, Ralf Barton Perri, Jon Dyui, Klarens Irving Lyuis qadriyatlarga manbai insonning biologik va psixologik ehtiyojlarida mujassamlashgan obyektiv omillar sifatida qaraydi. Mazkur yondashuv inson o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish jarayonida foydalanuvchi har qanday predmet va harakatlarni qadriyatlar qatoriga kiritish imkonini beradi.

Personalistik ontologizm yo'nalishning eng taniqli namoyandasi Mark Sheler qadriyatlarning ob'yektiv xususiyatini asoslashga harakat qilgan. M.Sheler konsepsiyasiga binoan, muayyan predmetlar, hodisalar qadriyatini ularning empirik tabiati bilan ayniylashtirish mumkin emas. Aytaylik, rang o'zi tegishli bo'lgan predmetlardan qat'iy nazar, mavjud bo'lishi mumkin bo'lganidek, qadriyatlar ham (go'zallik, ezgulik, foijaviylik) o'zlari tavsiflovchi narsalardan qat'iy nazar, idrok etilishi mumkin. M.Sheler fikriga ko'ra, qadriyatlar dunyosi muayyan ierarxiyaga ega. Bu ierarxiyaning quyi pog'onasini hissiy mayllarni qondirish va moddiy ne'matlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar egallaydi; yuksakroq qadriyatlar – «go'zallik» qadriyatlari va «ma'rifiy» qadriyatlar; «ilohiylik» va Xudo g'oyasi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyatlar dunyosining realligi ilohiy shaxsning qadriyatiga asoslanadi. Inson shaxsining tipi esa unga xos bo'lgan qadriyatlar ierarxiyasi bilan belgilanadi. Ayni shu ierarxiya mazkur shaxsning ontologik asosi hisoblanadi.

Aksiologik transsendentalizm yo'nalishning namoyondalari Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert qadriyatlarni ob'yektiv borliq sifatida emas, inson ehtiyoj va mayllariga bog'liq bo'lmagan ideal borliq sifatida tushunadi. Bunday qadriyatlar qatoriga mustaqil mazmun kasb etadigan va ideal me'yorlar tarzida mavjud bo'lgan qadriyatlar – haqiqat, yaxshilik, adolat, go'zallik kiradi. Shunday qilib, mazkur konsepsiyada qadriyat borliq emas, balki manbai muayyan transsendental, ya'ni g'ayrioddiy ong sanalgan idealdir.

Madaniy-tarixiy relyativizm yo'nalishining asoschisi Vilgelm Diltey ta'limotining zamirida aksiologik plyuralizm g'oyasi yotadi. Aksiologik plyuralizm tarixiy metod yordamida farqlanuvchi va tahlil qilinuvchi teng huquqli qadriyatlar tizimlarining ko'p sonliligidir. Mohiyat e'tibori bilan bu yondashuv real madaniy-tarixiy kontekstni mavhumlashtirib, qadriyatlarning birdan-bir to'g'ri, mutlaq konsepsiyasini yaratish yo'lidagi urinishlarni tanqid ostiga olgan.

Qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyaning asoschisi Maks Veber "qadriyat" tushunchasini sotsiologiyaga kiritgan, undan ijtimoiy harakat va ijtimoiy bilimni talqin qilish uchun foydalangan. Uning fikriga ko'ra, qadriyat – ijtimoiy sub'yekt uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan me'yor. Keyinchalik M.Veberning yondashuvini amerikalik sotsiolog Uilyam Tomas va polyak sotsiologi Florian Znaneskiy rivojlantirdi. Bu olimlar qadriyatlarni ularning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridangina emas, balki ijtimoiy mo'ljallar orqali ham tavsiflay boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, tavsiflash mumkin bo'lgan mazmun va muayyan ijtimoiy guruh a'zolari uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday predmet qadriyat hisoblanadi. Mo'ljallar esa, guruh a'zolarining qadriyatga bo'lgan subyektiv munosabatini anglatadi.

Hozirgi zamon falsafiy va sotsiologik adabiyotlarda qadriyatlarning tabiati hamda mohiyatini tushunishga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar qadriyatga insonning ma'lum bir ehtiyojini qondirish yoki unga muayyan foyda keltirishga qodir bo'lgan predmet sifatida; ayrimlar – ideal, me'yor sifatida; yana bir guruh olimlar – biron-bir narsaning inson yoki ijtimoiy guruh uchun ahamiyati sifatida yondashadilar. Zikr etilgan yondashuvlarning har biri mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki ularning barchasi qadriyatlarning muayyan jihatini aks ettiradi; ularga bir-birini istisno etuvchi emas, balki bir-birini

to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida qarash kerak. Mazkur yondashuvlar sintezi hozirgi zamon qadriyatlar umumiy nazariyasini tashkil etadi.

Ehtiyojlar va qadriyatlar

Inson faoliyatining birinchi manbai va harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlardir. Inson ehtiyojlari uning hayotini, xususan jismoniy, aqliy, ma'naviy, ishlab chiqarishga doir, oilaviy hayotni saqlash yoki o'zgartirish zaruriyatining ifodasi sifatida vujudga keladi. Ijobiy yoki salbiy aloqa va munosabatlarning butun rang-barangligi tegishli ehtiyojlarni muayyan tarzda vujudga keltiradi. Inson bu ehtiyojlarni anglashi yoki anglamasligi yoinki noto'g'ri anglashi mumkin. Ammo har qanday sharoitda ehtiyojlar insonni faoliyatga da'vat etadi. Bu faoliyat samarali yoki samarasiz, puxta o'ylangan yoki spontan va tartibsiz bo'lishi mumkin. Ehtiyojlar tashqi muhit predmet va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'yektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'yektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. Shaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayl va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongining nisbiy mezoni, uning mayllari, manfaatlari, did va ideallarining poydevori hisoblanadi.

Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va bir-birining o'rnini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilari yo'q bo'ladi, ayrimlari dolzarblashadi, ba'zilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero ularning shakllanishi individlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonliligi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar majmuining murakkablashuvi hamda differensiasiyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z me'yorlari, qadriyatlari bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi - bularning barchasi uning ehtiyojlari o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi.

Garchi qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan

barqaror; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarmas va individ tomonidan uning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida yuz bergan yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinining qimmatini tan olgunlariga qadar xristianlar asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Belorusiyalik mashhur rassom Mark Shagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan. mazkur buyuk rassomning o'limidan keyingina tan olingan. mazkur buyuk musavvirning asarlari tiriklik paytida Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nettuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor, hisoblamagan va sh.k.

Ehtiyojlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. Shu sababli amalda muhim hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ehtiyojlarni qondirishga yo ko'maklashuvchi, yo monelik qiluvchi hodisalar mavjud. Binobarin, ahamiyatga ega bo'lgan hamma narsalar ham qadriyat sanalavermaydi, balki ijobiy ahamiyatga molik hisoblanadi.

Shunday qilib, qadriyat deganda biron-bir ob'yektning ijobiy ahamiyati tushuniladi. Ammo ayrim hollarda biron-bir ob'yektning ijobiy ahamiyati tushuniladi. Ammo ayrim hollarda biron-bir ob'yektning ijobiy ahamiyati foydalilik chegarasidan chetga chiqmasligi mumkin (masalan, ahamiyatt foydalilik chegarasidan chetga chiqmasligi mumkin (masalan, quyosh nuri o'simliklar uchun foydali). Muhimlikni ob'yektiv talqin qilish mumkin. Qadriyat esa, inson uchun muhim bo'lgan hodisaning mazmunini aniqlashni nazarda tutadi. Shu sababli qadriyat tabiat hodisalarining insonga bog'liq bo'lmagan ob'yektiv aloqasi sifatidagi foydalilik ayrim ko'rinishi sanalgan hodisalarning moddiy predmetli borlig'i bilan mos kelmaydi.

Qadriyat borliqning insonning ma'naviy ehtiyojlariga bo'lgan munosabatidir. Bunda ijtimoiy manfaat hamda ehtiyojlargina emas, balki guruhiy va shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlar mavjudligini ham hisobga olish muhimdir. Ayrim guruhlar yoki individlar uchun qadriyat sanalgan narsa boshqalar uchun yovuzlik, adolatsizlik, o'zboshimchalik yoki asloqsizlik hisoblanishi mumkin. Ayni bir, hodisalarning turli

sub'yektlarga funksional munosabati har xil va hatto qarama-qarshi bo'lishi mumkin: muhimliklar dunyosi qadriyatlar dunyosi bilan ayniy emas. Qadriyatlar haqida mulohazalarning shakllanishida insonning ehtiyojlarini ijtimoiy shakl-shamoyilga soluvchi me'yorlar ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Qadriyatning borlig'i baholash bilan uzviy bog'liq. Baholash yo'li bilan individ ayrim qadriyatlarni dolzarblashtiradi, ba'zi qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiyasini o'rnatadi.

Qadriyatlarning turlari

Shaxs va jamiyat ehtiyoj va manfaatlarining rang-barangligi qadriyatlarning murakkab tizimida o'z aksini topadi. Bu qadriyatlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi.

Ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga muvofiq, qadriyatlarning ma'lum guruhi farqlanadi: moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ma'naviy qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar tabiiy ob'yekt va predmetlar, ishlab chiqarish-iste'molga doir intilishlar qadriyatlarini, mulkiy, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlarini qamrab oladi.

Tabiiy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklarda mujassamlashgan tabiiy ne'matlar kiradi. Moddiy qadriyatlar jumlasiga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, shuningdek, o'tmish madaniy merosi predmetlari kiradi. Moddiy qadriyatlar - tabiiy ne'matlar, mehnat mahsullarining iste'mol qiymati, ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ne'matlar, tarixiy voqealar, madaniy meros, axloqiy ezgulik, go'zallik mezonlarini qonunlashtiruvchi estetik hodisalar, diniy ibodat predmetlari yoki o'zining muayyan ramziy ifodasini topgan diniy g'oyalar va sh.k.

Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlar hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsa va hodisalar dunyosida mavjud bo'ladi. Moddiy qadriyatlarning asosiy sohasi – shaxs va jamiyatning barkamollik haqidagi tasavvurlarini qondiluvchi inson maqsadga muvofiq faoliyatining mahsullari. Bunda o'zining moddiy ifodasini topgan qadriyat sifatida faoliyat natijasi ham, faoliyatning o'zi ham amal qilishi mumkin. Moddiy, utilitar qadriyat vositaning qimmatidir, zero narsaning foydaliligi u nimaga xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, shu vazifa

bilan belgilanadi. O'z vazifasini bajargach, bu narsa qadriyat sifatida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Moddiy, utilitar qadriyatdan farqli o'laroq, ma'naviy qadriyat - o'zidan tashqarida yotuvchi motivlarga muhtoj bo'lmaydi. *Utilitar pragmatik moddiy qadriyatlar faoliyat maqsadini belgilasa, ma'naviy qadriyatlar inson faoliyatining mazmunini belgilaydi.*

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga, odatda, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda mujassamlashgan ijtimoiy imtiyozlar, shuningdek jamiyatning ravnaq topishi, xalqlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga ko'maklashuvchi tarixiy voqealarning progressiv ahamiyati kiradi.

Tarixiy xususiyatiga ko'ra, qadriyatlar jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos keladigan yoki turli demografik guruhlar (yoshlar, keksa avlod vakillarining, shuningdek, kasbiy, sinfiy, diniy, fuqarolik birlashmalarining qadriyatlarini aks ettiradi. Jamiyat siyosiy, boshqa birlashmalarining qadriyatlarini aks ettiradi. Jamiyat ijtimoiy tuzilishining bir jinsli emasligi qadriyatlarning va qadriyatlarga munosabatning bir jinsli emasligini va hatto, ziddiyatliligini vujudga keltiradi. Shu ma'noda, qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar mavjudligining moddiy shaklidir.

Ma'naviy qadriyatlar - ijtimoiy ong hodisalarining tegishli shakllarida namoyon bo'lgan me'yoriy tomoni axloqiy, ma'rifiy, estetik, shakllarda namoyon bo'lgan me'yoriy tomoni axloqiy, ma'rifiy, estetik, diniy g'oyalar, tasavvur va bilimlar. Jon, san'at, falsafa, huquq qadriyatlarini ma'naviy qadriyatlar deb hisoblash odat tusini olgan. Ma'naviy qadriyatlar qatoriga bust-saodat, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, tarixning mazmuni va insonning vazifasi va hokazolar haqidagi me'yoriy tasavvurlar ko'rinishida ifodalangan ijtimoiy idеallar, mo'ljal va baholar, qarashlar va taqiqlar, harakat tamoyillari kiradi.

Moddiy qadriyatlar inson ehtiyoji hamda manfaatlari ob'yektlari sifatida amal qilsa, ma'naviy qadriyatlar ikki xil funksiyani bajaradi: ular sifatida amal qilsa, ma'naviy qadriyatlar ikki xil funksiyani bajaradi: ular qadriyatlarning mustaqil sohasi va moddiy qadriyatlarni baholash asosi. Mezonidir. Ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos jihati shundaki, ular nomoddiy va instrumental xususiyat kasb etadi: ular boshqa biror narsaga xizmat qilmaydi, aksincha, boshqa barcha narsalar ularga

bo'ysunadi va oliy qadriyatlar bilan bog'liq holdagina muayyan mazmun kasb etadi.

Qadriyatlar borlig'ining ideal shakli – barkamollik, zaruriyat haqidagi aniq tasavvurlar ko'rinishida, yoki botiniy mayllar, xohish-istaklar, intilishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Barkamollik haqidagi tasavvurlar yo muayyan andoza, ideal ko'rinishida (masalan, estetik faoliyatda) namoyon bo'lishi, yo til vositalari bilan ifodalanishi mumkin.

Ma'naviy qadriyatlar mazmun jihatidan, funksiyalariga ko'ra va ularni ro'yobga chiqarishga qo'yiladigan talablarga ko'ra rang-barang. Faoliyat maqsad va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi standartlar, qoidalar, qonunlar, andozalarda o'z ifodasini topadi. Madaniyat algoritmi sifatida xizmat qiluvchi me'yorlar, didlar, ideallar qadriyatlarni ro'yobga chiqarishda ko'proq erkinlik beradi.

Me'yor – faoliyatning yagona va barqaror shartlar bilan belgilanuvchi optimalligi va maqsadga muvofiqligi haqidagi tasavvur. Me'yorlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: xatti-harakatlarning yagona ko'rinishi (invarianti)ni; xulq-atvorning boshqa ko'rinishlariga nisbatan taqiqni; mazkur ijtimoiy sharoitlarda xatti-harakatlarning maqbul varianti (andozasi)ni; me'yordan chetga chiqish mumkin emasligi haqida ogohlantirish maqsadida ayrim shaxslarning xulq-atvorini baholashni (ba'zan ayrim sanksiyalar ko'rinishida). Me'yoriy tartibga solish inson faoliyati va munosabatlari tizimini to'la qamrab oladi. Ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash tizimi ularni amalga oshirishning sharti hisoblanadi. Mazkur tizim xatti-harakatni ijtimoiy ma'qullash yoki qoralashni, o'z faoliyatida me'yorga rioya qilishi shart bo'lgan shaxsga u yoki bu sanksiyalarni tayinlashni nazarda tutadi. Shunday qilib, ehtiyojlarni anglash bilan bir qatorda ularni ijtimoiy me'yorlar nuqtai nazaridan anglash ham mavjud. Garchi me'yorlar ijtimoiy amaliyot va hayot sinovidan o'tgan faoliyat usullarini mustahkamlash vositasi sifatida vujudga kelsa-da, ular undan ortda qolishi, allaqachon eskirgan va shaxs o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqarishiga monelik qilayotgan, ijtimoiy taraqqiyot yo'liga to'g'anoq bo'layotgan taqiq va qoidalarning manbalari bo'lishi mumkin.

Ideal – barkamollikning oliy me'yori haqidagi tasavvur, insonning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga

solish, barkamollashtirish va uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, u inson ro'yobga chiqarishga butun umrini bag'ishlashga tayyor bo'lgan strategik maqsadlarni aniqlash imkonini beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Idealga amalda erishish mumkinmi? Aksariyat mutafakkirlar bu savolga rad javobini berishadi: ideal barkamollik va tugallanganlik timsoli sifatida empirik yo'l bilan kuzatiluvchi borliqda o'z o'xshashiga ega emas, u ongda transsendentallik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, ideal ma'naviy qadriyatlarning jamuljam ifodasi hisoblanadi

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida mavjud tafovutlarga qaramay, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va qadriyatlarning har bir turida boshqa bir turning muayyan jihati mavjud. Ayni paytda, shunday qadriyatlar ham borki, ularni moddiy qadriyatlar qatoriga ham, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga ham, ma'naviy qadriyatlar qatoriga ham kiritish mumkin. Bu avvalo umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlardir. *Hayot, sog'liq, erkinlik umuminsoniy qadriyatlardir.*

Qadriyatlarni tasniflashning ikkinchi asosi – sub'yektlarga ko'ra individual shaxsiy (sub'yektiv-shaxsiy), guruhiy, umuminsoniy qadriyatlar farqlanadi - (gruppaviy, milliy, sinfiy, umuminsoniy) qadriyatlar farqlanadi.

Individual shaxsiy qadriyat – narsa, hodisa, g'oyaning muayyan inson uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati. Har qanday qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra individualdir, zero narsa, hodisa, g'oyani faqat insongina baholashga qodir. Shaxsiy qadriyatlar ta'lim va tarbiya, individ hayot tajribasini to'plashi jarayonida shakllanadi, u individning ehtiyoj va manfaatlari ta'sirida vujudga keladi. Ular kishilarning mayllari, didlari, odatlari, bilim darajasi va boshqa individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Guruhiy qadriyatlar mazkur narsa, hodisani bir individ emas, balki ularning muayyan majmui ijobiy baholashiga urg'u beriladi. Guruhiy qadriyatlar – narsa, hodisa va g'oyalarning odamlar muayyan birligi (sinf, millat, mehnat jamoasi va sh.k.) uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati. Gruppaviy qadriyatlar muayyan jamoaga kiruvchi individlarni yagona manfaatlar, qadriyat va mo'ljallar bilan birlashtirib, mazkur jamoaning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar - narsa, hodisa va g'oyalarning jahon hamjamiyati uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati. Umuminsoniy qadriyatlarga, birinchidan, jahon hamjamiyati aholisining aksariyati amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyillar kiradi. Ikkinchidan, umuminsoniy ideallar, umumsalq maqsadlari va ularga erishishning asosiy vositalari (ijtimoiy adolat, inson sha'ni va qadr-qimmati, tinchlik va sh.k.) kiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklar hamda o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra olamshumul xususiyat kasb etuvchi qadriyatlar: tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, xalqaro iqtisodiy tartib muammolari ham kiradi. Umuminsoniy qadriyatlar – jamiyat va madaniyatning rivojlanishi mahsuli.

Shaxsiy, guruhiy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan ijtimoiy nuqtai-nazardan uzviy bog'liq. Falsafa uchun quyidagi savollar muhim ahamiyat kasb etadi: shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning o'zaro nisbati qanday, qaysi qadriyatlar ustunroq - ijtimoiy qadriyatlarmi yoki shaxsiy qadriyatlarmi, shaxsiy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlar ta'sirida shakllanadimi yoki, aksincha, ijtimoiy qadriyatlar individlarning ehtiyoj va manfaatlari muvofiqlashtirilishi natijasida vujudga keladimi?

Falsafa tarixida bu savollarga aniq va uzil-kesil javob berilmagan. Masalan, relyativistik aksiologiya qadriyatlar va ularga mos keluvchi baholarni insonning individual borlig'i bilan belgilanuvchi manfaat yoki vaziyatdan keltirib chiqaradi. Relyativizmga qarama-qarshi o'laroq, naturalistik yo'nalish qadriyatlarni sub'yekt tafakkuriga va uning nisbiy mulohazalariga bog'liq emas, baholovchiga nisbatan birlamchi deb tasavvur qiladi. Freyd va ekzistensialistlar umumiy qadriyatlarning ta'sirini tan oladilar, lekin ijtimoiy qadriyatlar tazyiqi individual qadriyatlar bilan to'qnashuvga sabab bo'ladi, ularni chetga surib qo'yadi, deb hisoblab, bu ta'sirga salbiy baho beradi. Freyd fikriga ko'ra, ijtimoiy nazorat nevrozlarning turli shakllarini vujudga keltirib, shaxsning moslashuvchanligi yo'qolishiga olib keladi. Freyd individning botiniy mayllari jamlangan ruhiyati bilan uning ongidan jamiyat talablariga zid bo'lgan g'oyalarni siqib chiqaruvchi madaniyat o'rtasida konflikt mavjudligini ko'radi. Tabiiy asoslar va madaniyat qadriyatlarining to'qnashuvi inson baxti kamayishiga, individning o'z tabiiy mayllarini cheklashga qodir emasligi bilan bog'liq bo'lgan jamiyat oldida aybdorlik

hissining kuchayishiga olib keladi.

Ekzistensializm ijtimoiy talablar individual motivusiyaga qarshi turishini qayd etadi. Ijtimoiy qadriyatlarning tazyiqi shaxs jamiyatdan uzoqlashishi va o'z individualligini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Hukmron qadriyatlar ko'r-ko'rona qabul qilinishi natijasida shakllanuvchi konformistik ong individual o'zlikning chegarasi kengayishiga monelik qiladi. Ekzistensializm fanni, rasmiy huquq va axloqni ham tanqid ostiga oladi.

Individual va ijtimoiy qadriyatlar o'zaro nisbatining yuqorida keltirilgan talqiniga qo'shilish mushkul. Ijtimoiy qadriyatlar individning tafakkuri uchun oldindan belgilangan. u tug'ilgunga qadar shakllanadi, mavjud bo'ladi va uning o'limidan keyin mavjudlik bo'lishda davom etadi. Shu ma'noda, ular individ uchun muayyan obyektiv borliq sifatida mavjud bo'ladi va idrok etiladi. Ammo ijtimoiy qadriyatlar barkamolroq ham, mutlaq ham emas. Ular jamiyat hayotining muayyan sharoitlari ta'sirida vujudga keladi, bu sharoitlarning subyektiv ifodasi hisoblanadi. Shu sababli ijtimoiy qadriyatlarning individual qadriyatlarga ta'siri ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Ammo shaxs o'zining yaqin va uzoq maqsad hamda vazifalarini erkin belgilovchi, o'z ehtiyojlarini va uzoq maqsad hamda vazifalarini erkin belgilovchi, o'z ehtiyojlarini anglovchi va hayotni o'z tajribasiga muvofiq baholovchi ongli, faol ish ko'ruvchi subyekt hisoblanadi.

Ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar shaxs strukturasida qanday o'rin egallaydi, ularning o'zaro nisbati qanday, degan savolga javob ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu savolga javob shuning uchun ham muhimki, qadriyatlar shaxs o'zagini belgilovchi, uning yaxlitligi va muayyanligini ta'minlovchi asos hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, ijtimoiy qadriyatlar shaxsning kamol topishida birlamchi ahamiyatga ega. ular shaxsga ijtimoiy sharoitlarga moslashish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, qoniqarli shaxsiy maqomga ega bo'lish imkonini beradi. Shaxs o'zining ijtimoiylashuvi jarayonida asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Psixologiya ijtimoiy qadriyatlarning individ ruhiy hayotining barqaror ichki elementlariga aylanish mexanizmlari qanday, degan savolga ham javob beradi.

Bunday mexanizm *interiorizatsiya, ya'ni tashqi dunyoning ayrim jihatlarini insonning shaxsiy ruhiy hayotiga kiritilishidir.* Buning natijasida

tashqi dunyoning ichki omillari inson tafakkuri va xulq-atvoriga, uning ruhiyati ichki strukturalarining shakllanishiga ijtimoiy faoliyatning tashqi strukturalarini o'zlashtirish orqali ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida tarixiy interiorizatsiya g'oyasi ham ilgari suriladi: muayyan tarixiy davrda odamlar ommaviy xulq-atvorining shakli hisoblangan mexanizmlar keyinchalik ongning ichki mexanizmlariga aylanadi. Bunga rasm-rusumlar, teatr, cherkov, o'yin qabilidagi jamoaviy harakatlar, hozirgi sharoitda esa maktab, televidenie, ommaviy axborot vositalari misol bo'lishi mumkin.

Ammo individual qadriyatlarning shakllanishida faoliyatning rang-barang shakllari mehnat, bilish, muloqot, o'yingina ishtirok etmaydi. Bunday vosita sifatida ijtimoiy tuzilmalar amal qiladi. Bozor va kundalik turmush, reklama va moda, siyosat va huquq, ta'lim va tarbiya, ommaviy axborot vositalari va san'at, hukmron madaniy me'yor va ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan rasmiy darajada andoza sifatida e'tirof etilgan ayrim shaxslarning obro'si, ijtimoiy-psixologik stereotiplar, andozalar, axloq va tabu – bularning barchasi jamiyat ma'naviy hayotining shaxsning qadriyatlarga munosabatini shakllantiruvchi omillar.

Shaxsning shakllanishi o'ziga xos qadriyatlar majmuiga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar, birlik va birlashmalar doirasida yuz beradi. Ko'rsatilgan guruhlarga shaxsning mansubligi shunda namoyon bo'ladiki, shaxs ularning ideal qadriyatlarini qabul qiladi. Ammo shaxs, odatda, bir emas, balki bir nechta ijtimoiy guruhlar (millatlar va sinflar, oila va o'quv yurti, do'stlar davrasi va ishlab chiqarish jamoasi va sh.k.)ga qo'shiladi. Turli guruhlarda har xil, hatto, qarama-qarshi qadriyatlar ustuvor bo'lishi mumkin. Bu guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar shaxs tafakkurida qadriyatlarning to'qnashuvi yuz berishiga olib kelishi mumkin. Ayni holda shaxs ustuvor qadriyatlarni mustaqil izlashiga turtki beradi. Shunday qilib, shaxsning individuallashgan, o'ziga xos va betakror xususiyatlari vujudga kelishi, uning alohida hayot tajribasi muqarrar tarzda ijtimoiy qadriyatlarga zid bo'lmagan, balki ularni to'ldiradigan alohida individuallashgan qadriyatlarning shakllanishi bilan bog'liq.

Qadriyatlar shaxs xulq-atvorini tartibga solish vositalari sifatida muayyan hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilishi yoki idrok etilmasligidan qat'i nazar, shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi.

Qadriyatlarga munosabat insonning hayot tajribasi va shaxsiy kechinmalarining butun majmui bilan mustahkamlanib, tartibga solinadi. Ular insonga muhimni nomuhimdan ajratish imkonini beradi, motivlarning barqarorligi hamda shaxs xulq-atvori va tafakkurining vorisiyligini belgilaydi. Shunga qaramay, botiniy mayllar, xohish-istak va intilishlar ham, ayniqsa, ular shaxsning ongli qadriyatlarga munosabati bilan to'qnashganda, o'z ta'sirini ko'rsatadiki, bu ongli ravishda e'lon qilingan va amalda e'tirof etilgan qadriyatlar o'rtasida ziddiyatlarga olib keladi. Ko'rsatilgan ziddiyatlar inson dolzarb qadriyatlarni afzal ko'rib, haqiqiy qadriyatlar haqida o'ylab ko'rmagani bilan izohlanishi mumkin. Ustuvor qadriyatlarni tanlash jarayonida o'ziga munosabat va haqiqiy shaxsiy maqom o'rtasidagi ziddiyat, shuningdek, o'z individuallashgan qadriyatlari bilan nufuzli ijtimoiy guruhlar tomonidan e'tirof etilgan qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni anglash ham o'z ta'sirini ko'rsatadi

Jamiyat va inson hayotidagi qadriyatlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. *Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi. (avtomobil, oltin yzuk, yangi telefon va hjshqalar)*

2. *Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir*(kasb, oliy ma'lumotli diplom, yu).

3. *Oliy qadriyatlar, o'z ahamiyatiga ko'ra, eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabat va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi.* Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ular individni uning o'zidan yuksak bo'lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog'liq bo'lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar, odatda, umuminsoniy xususiyat kasb etadi. (insonnig hayoti, sog'lik, tinchlik,)

Hayot eng oliy qadriyatdir, hayotsiz inson bo'lmaydi va qadriyatlar

ham bo'lishi mumkin emas. Individ uchun hayot boshqa biron-bir narsaga bog'liq bo'lmagan holda eng yuksak qadriyat, ne'mat sifatida amal qiladi. O'z navbatida, hayotning qimmati boshqa barcha qadriyatlar uchun o'ziga xos zamin va cho'qqi hisoblanadi. Hayotning qimmati qanday tushunilishiga qarab odamlar o'rtasidagi munosabatlar va jamiyatning insonga bo'lgan munosabati ham shakllanadi.

Birinchi holda hayotning qimmatiga individual nuqtai nazardan yondashilsa, ikkinchi holda – ijtimoiy nuqtai nazardan yondashiladi, ya'ni bu yerda hayotning ahamiyati individning o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun belgilanadi.

Insonning o'zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor: 1) inson uchun boshqa odam, umuman, insonning qimmati nimada? 2) uning o'z hayotining qimmati nima bilan o'lchanadi? Tafsilotlarga berilmay shuni aytish mumkinki, bu savollarga javob aniq va uzil-kesil bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligigagina emas, balki uning o'zi qandayligiga ham bog'liq bo'ladi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish joizki, inson hayoti va insonning qimmati to'g'risidagi masalaning qo'yilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, O'rta asrlarda feodal o'z krepostnoyini o'ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan, odam o'ldirish jazolanmaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas, inson – alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi.

Inson sog'lig'i - tabiiy, mutlaq va boqiy qadriyat. Insonning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasi uning sog'lig'i qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Sog'liqqa bo'lgan ehtiyoj yalpi xususiyat kasb etadi, u ayrim individlarga ham, butun jamiyatga ham xos. Shu sababli individual (shaxsiy) sog'liq va jamiyat sog'lig'i yoki aholi salomatligi farqlanadi.

Sog'liqning holati inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, muayyan inson hayotining to'laqonliligi va faolligi uning sog'lig'i darajasiga, «sifat» xususiyatlariga bevosita bog'liq. O'z navbatida, aholi salomatligi mehnat resurslarining sifatiga, ijtimoiy mehnatning unumdorlik darajasiga va shu tariqa jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tinchlik oliy qadriyat bo'lib, dunyoda tinchlikni saqlash inson hayotini asrash omili bo'lib xizmat qilmoqda, afsuski insoniyat tarixida doimiy urushlarning bo'lishi jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlarning bir qismi oliy qadriyatlar qatoriga kiradi. Bular: adolat, erkinlik, odamlarning huquq va burchlari, do'stlik va mehribonlik haqidagi tasavvurlar; qarindoshlik aloqalari; faoliyat qadriyatlari (mehnat, ijod, bunyodkorlik, haqiqatni anglab yetish); o'z-o'zini asrash qadriyatlari (hayot, sog'liq); o'z shaxsiyatini namoyon etish, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish qadriyatlari; shaxsiy fazilatlarni tanlashni tavsiflovchi qadriyatlar (halollik, dovyuraklik, sadoqat, adolat, yaxshilik) va h.k.

Qadriyatlarni turli asoslarga ko'ra tasniflash dialektik xususiyat kasb etadi, ya'ni u qotib qolgan va harakatsiz emas. Birinchidan, sharoitlar o'zgarishi bilan qadriyatlar bir muhimlik darajasidan boshqa muhimlik darajasiga o'tishi mumkin. Ikkinchidan, jamiyat rivojlanishi bilan yangi qadriyatlar vujudga kelishi mumkin va aksincha, avvalgi qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotadi yoki u yo'q bo'ladi. Uchinchidan, qadriyatlar bir-biri bilan muayyan tur doirasidagina emas, balki turlar o'rtasida, guruhlar va guruhlar o'rtasida ham yaqin aloqa qiladi, o'zaro ta'sirga kirishadi. Nihoyat, qadriyatlarning har bir turida ko'p sonli tur xillarini farqlash lozim. Masalan, ma'naviy qadriyatlar guruhida axloqiy qadriyatlar, estetik qadriyatlar, bilishga doir (gnoseologik) qadriyatlarni aniq farqlash mumkin.

Erkinlik qadriyat sifatida

Erkinlik inson uchun ulkan ahamiyatga ega. Bu kategoriyaning falsafiy talqini quyidagi ta'rifda o'zining aniq ifodasini topgan: *erkinlik – insonning ob'yektiv zaruriyatni bilishga tayangan holda o'z manfaat va maqsadlariga muvofiq ish ko'rish qobiliyati.*

Erkinlik doim va hamma joyda eng buyuk qadriyat hisoblanadi. Boshqa hollarda bo'lganidek, erkinlik uni inson anglagan taqdirdagina qadriyatga aylanadi. Erkinlikning qimmati anglab yetilmagan, inson o'zini boshqa odamlar bilan teng jonzot sifatida idrok etmagan joyda o'ziga qadriyat sifatida yondashish ham, insonning qadr-qimmati ham

mavjud bo'lmaydi. O'zining erksizligini tushunish va erkinlikning qimmatini anglab yetish tub ijtimoiy o'zgarishlar davrida bo'rtib namoyon bo'ladi. Erkinlik — barcha odamlarning sivilizatsiya yutuqlaridan teng darajada foydalanish va o'z mehnati mevalari hamda o'z taqdirini tasarruf etish huquqi. Erkinlik yo'l tanlash imkoniyatidir. Ongli ravishda amalga oshiriladigan har qanday yo'l tanlash kabi, erkinlik ham shaxs uchun muqobil imkoniyatlardan birini afzal ko'rish va boshqasidan voz kechish bilan bog'liq. Yo'l tanlash shaxsning keyingi faoliyatini cheklovchi omilga aylanmasligi uchun u muhim qoidaga amal qilishi lozim: har safar yo'l tanlashni amalga oshirayotganda keyingi yo'l tanlashlar istiqboli toraymasligiga, balki insonga o'zining yangi kasbiy, axloqiy va intellektual imkoniyatlarini aniqlash imkonini berib, kengayib borishiga erishishga harakat qilish kerak.

Shunday qilib, biz ko'p sonli rang-barang qadriyatlar mavjudligini aniqladik, ularni tasniflashni amalga oshirdik. Endi barcha real qadriyatlar inson ongining omiliga aylanadimi, degan savolga javob topish lozim. Yo'q, hamma qadriyatlar ham amalda inson ongining omiliga aylanavermaydi. Ba'zan bu insonning o'ziga bog'liq bo'lgan obyektiv sabablarga ko'ra yuz beradi. Individ tomonidan anglab yetiladigan va uning e'tiqodlari qatoridan o'rin oladigan qadriyatlar uning harakatlari tarzini belgilovchi me'yorlikka aylanadi. Boshqacha aytganda, anglab yetilgan qadriyatlar shaxsning qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga aylanadi.

Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari (Valeologiya)

Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, insonning murakkabligini ta'minlashga biologiya, genetika, tibbiyot kabi tabiiy fanlar bilan bir qatorda falsafa, sosiologiya, psixologiya, iqtisod kabi ijtimoiy gumanitar fanlarda ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, sog'lik inson hayoti va faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, salomatlik g'oyasining o'zi so'nggi yillarda inson sog'lig'ining sifati yomonlashib borayotgani munosabati bilan alohida dolzarb ahamiyat kasb etdi. Salomatlik metodologiyasi hozircha mavjud emasligi tufayli mutaxassislar mazkur muammoni yechishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, zero

salomatlik haqidagi fanning o'zi ham yaqin vaqtgacha mavjud emas edi.

1980-yilda valeologiyani (lotincha valeo «salomatlik», «sog'lom bo'lmoq» so'zidan) salomatlik haqidagi fanga Rossiyalik olim I.I.Brexman asos solgan. Valeologiya – sog'lom turmush tarzi, inson salomatligi qonuniyatlari, uni saqlash vositalari va usullari haqidagi fandir. Shaxsning individual salomatligini ta'minlash va bu orqali jamiyatning sog'lom madaniyatini tarbiyalash valeologiyaning *bosh maqsadidir.*

Valeologiyaning ob'yekti – unlarda sog'lom insonning sog'lik zaxiralarini takomillashtirish, uning kasalligini dastlabki bosqichida aniqlashdan iborat.

Valeologiyaning predmeti kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktika muolajalari bo'lib, undasog'lom turmush tarziga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Valeologiyaning metodlari inson salomatligi zahiralarini ko'paytirish, unda sog'lom turmush tarziga rioya qilish madaniyatini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tibbiyot inson sog'ligining sifatini kafolati bo'lsa, uning miqdori me'yori valeologiya fanida o'rgatiladi.

Inson sog'lom turmush tarzining qonuniyatlarini belgilovchi asosiy tushunchalar quyidagilardir:

Hayot — materiya mavjudligining eng oliy shakli, moddalar almashinuvi, ko'payish, o'sish, o'z tarkibi va funksiyalarini faol boshqarish, ta'sirchanlik, muhitga moslashuvchanlik qobiliyatlari va hokazolar bilan ajralib turadi.

Adaptatsiya (moslashish, moslashuvchanlik reaksiyalari) - tashqi organizmda yangi biologik xususiyatlarning rivojlanish jarayoni. Tashqi muhit yoki biologik sistemaning parametrlari o'zgarganda, bu xususiyatlar mazkur sistemaning hayot faoliyatini ta'minlaydi.

Muddatli adaptatsiya muhit sharoitlarining uzluksiz o'zgarishiga javoban uzluksiz tarzda yuz beruvchi adaptiv o'zgarishlar bilan tavsiflanadi.

Kumulyativ adaptatsiya takrorlanuvchi davomli tashqi yoki ichki ta'sirlarga javoban yuz beruvchi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bunda ta'sirlarga javoban yuz beruvchi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bunda organizm o'zida mavjud bo'lgan funksional zaxiralar darajasida yanada tezroq, aniqroq va muvofiqroq reaksiyalar bilan javob berish qobiliyatiga

ega bo'ladi.

Evolyutsion adaptatsiyaning mohiyati shu bilan belgilanadiki, agar muhitning o'zgargan sharoitlari ancha uzoq vaqt (taxminan kamida o'n avlod umriga teng bo'lgan muddat mobaynida) saqlanib qolsa, bu gen strukturasida adaptiv o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi va natijada bunday sharoitlar keyingi avlodlar uchun an'anaviy sharoitlariga tabiiy sharoitlarga aylanadi.

Moslashish chegarasi va barqarorlik darajasi yosh o'tishiga qarab pasayishidan tashqari bu yana bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki holat bilan ham belgilanadi.

Genotip organizmning irsiy asosi, avlodlardan o'tib olgan genlar to'plamidir.

Fenotip organizmning individual rivojlanishi jarayonida shakllangan barcha belgilari va xususiyatlari to'plami.

Sog'lom turmush tarzini tashkil etishda genotip omiliga hozirgi vaqtgacha lozim darajada e'tibor berilmagan. Ayni shu sababli salomatlikni shakllantirish yuzasidan amaliy tavsiyalar aksariyat hollarda umumiy xususiyat kasb etadi va individual genotipik xususiyatlarni hisobga olmaydi. Individual genotipik xususiyatlar deganda gavda tuzilishining tipini, qonning quyuqlashish xususiyatini, oliy nerv faoliyatining tipini, oshqozon shirasining ajralish xususiyatlarini, vegetativ nerv faoliyatini boshqarishning yetakchi tipini va hokazolarni tushunish lozim. O'z maqsad va vazifalariga ko'ra valeologiya alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, chunki o'z fuqarolari haqida g'amxo'rlik qilish davlatning eng muhim funksiyasi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat inson salomatligining uzviy xususiyatlari – jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish qonuniyatlarini belgilaydi.

Yosh valeologiyasi inson salomatligi shakllanishining yoshga oid xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida uning tashqi va ichki muhit omillari bilan o'zaro munosabatlarini, hayot faoliyati sharoitlariga moslashish jarayonini o'rganadi.

Differensial valeologiya inson salomatligining individual-tipologik xususiyatlarini individga genetik va fenotipik nuqtai nazarlardan baho berish asosida o'rganish bilan shug'ullanadi; sog'liqning miqdori va

sifatini o'zgartirish individual dasturlarini yaratish metodologiyasini ishlab chiqadi.

Professional valeologiya shaxsning individual tipologik xususiyatlariga baho berishning ilmiy asoslangan metodlari asosida tashkil etilgan professional testlash va kasbga yo'naltirish muammosi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'rganadi.

Maxsus valeologiya inson hayoti uchun xavfli bo'lgan alohida, ekstremal omillarning sog'liqqa ta'sirini va ushbu omillarning xavfsizlik mezonlarini o'rganadi, bunday omillarning ta'siri jarayonida va natijasida sog'liqni asrash va tiklash usullari va vositalarini aniqlaydi.

Oila valeologiyasi sihat-salomatlikni shakllantirishda oilaning va har bir oila a'zosining o'rni va ahamiyatini o'rganadi. har bir avlodning va butun oilaning salomatligini ta'minlash yo'llari va vositalari yuzasidan tavsiyalar beradi.

Ekologik valeologiya tabiiy omillarning va tabiatdagi antropogen o'zgarishlar oqibatlarining inson salomatligiga ta'sirini o'rganadi. tashqi muhitning yuzaga kelayotgan sharoitlarida sog'liqni asrash maqsadida insonning zaruriy xulq-atvorini aniqlaydi.

Ijtimoiy valeologiya sotsiumdagi insonning sog'lig'ini o'rganish maqsadini ko'zlaydi. Bundan tashqari u insonning salomatligi muammosini uning kishilar va jamiyat bilan rang-barang ijtimoiy munosabatlariga bog'lab o'rganadi.

Oilaning qadriyatga doir jihatlar

Oiliaviy qadriyatlar bu oilaning strukturasiga, funksiyalariga, roliga, e'tiqodlarga, munosabatlarga va ideallariga tashqqli bo'lgan an'anaviy yoki madaniy qadriyatlardir.

Ijtimoiy fanlarda va O'zbekistonda "an'anaviy oila" atamasi mavjud bo'lib, u yadroviy – ya'ni ota-ona va ularning farzandlaridan iborat bo'lgan oilalarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu an'anaviy oiladagi qadriyatlarga ko'ra, ota oilani moliyaviy jihatdan ta'minotini o'z bo'yniga oladi. ona esa uy yumushlari bilan shug'ullanadi va oiladagi farzandlar mazkur ota va onaning biologik avlodlari hisoblanadi. Mazkur modeldan chetlashuvchi oilalar esa noan'anaviy oilalar hisoblanadi. Biroq, ko'pchilik madaniyatlarda ko'pchilik davrlarda kengaytirilgan oilalar ham

mavjud bo'lgan bo'lib, unga ko'ra ota-ona va ularning qarindosh-urug'lari ham birgalikda istiqomat qilishgan. Hozirda bu shakldagi oilalar mamlakatimizda va dunyoning boshqa mamlakatlarida yadroviy oilalar ko'rinishlari bilan deyarli almashinib ulgurgan.

Oilaviy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

"An'anaviy ravishda oilada saqlangan va avloddan-avlodga o'tkazilgan mardlik, sadoqat, ishonch kabi axloqiy va ma'naviy tamoyillar."

"Oilaning mustahkamlanishiga va jamiyatning jipslashuviga sabab bo'luvchi an'anaviy va konservativ tipdagi qadriyatlar."

"Oilaning ichida shakllangan va amal qilishga chaqirilgan, yuqori axloqiy talablar va tartib kabi qadriyatlar."

Oilaviy qadriyatlar bu oilaning strukturasi, funksiyalari, roli, e'tiqodlari, munosabatlari va ideallariga taalluqli bo'lgan an'anaviy yoki madaniy qadriyatlardir.

Oila nima? Uning belgilari qanday? Oila jamiyatda qanday rol o'ynaydi? kabi savollarga qadimgi davrlardan boshlab barcha davr faylasuf va mutafakkirlari javob izlashgan. Oilaga muayyan fan nuqtai-nazaridan berilgan har qanday ta'rif noto'liq hisoblanadi. Eng oddiydan eng murakkabgacha (kengaytirilgan) bo'lgan turli xil ta'riflar oilani uning ijtimoiy-psixologik yaxlitligidagi mohiyatini ochib berish imkonini beruvchi konkret mezonlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Misol uchun, oilani "yaqin qarindoshlar bilan birgalikda yashovchi guruh", deb ta'riflash mumkin.[1]

Tojik tili izohli lug'atida Oila arabcha "ayolmand, niyozmand" ma'nolarini anglatuvchi "oil" so'zidan olinganligi ta'kidlangan. Besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham bu so'z arab tilidan olinganligi asoslangan va uning beshta ma'nosi ochib berilgan: "bir xotin, ularning bola - chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon". ikkinchisi ko'chma ma'noda "Bir maqsad va maslak bilan birlashgan ko'p kishilar, xalqlar, mamlakatlar". Uchinchi ma'nosi: "O'simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilishi jihatidan ham o'zaro yaqin bir nea urug'ni o'z ichiga olgan guruh: Dukkakliflar oilasi, O'rdaktumshuqlilar oilasi", to'rtinchi ma'nosi

[1] Ozerov G.H. Osnovy psixologii maloi gruppy. Leningrad, 2002. - S.69.

"Qardosh tillar guruhi: Oltoy tillari oilasi, sam-xom tillar oilasi", beshinchi ma'nosi jonli so'zlashuv tilida "Rafiqa, xotin. Oilam maktabda o'qituvchi"[1], M.Fasmer "Rus tilining etimologik lug'ati"da "Semya" so'zi ukraincha xotin ma'nosini anglatuvchi "Samsa" so'zidan kelib chiqqanligini, aslida "urug'ochi-simes" ma'nosini anglatishi, nihoyat er – xotin qo'shiluvi asosidagi birlashuvini anglatishini asoslagan. Arabchada

umum-oilaviy faoliyatga asoslangan faoliyati bo'lib, u qalliqlik-ota-onalik-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, va u shu bilan aholi sonining oshishi va oilaviy avlodlar davomiyligini, shuningdek, farzandlarning ijtimoiylashuvi va oila a'zolarining mavjudligini ta'minlash vazifalarini ham bajaradi".[1]

Shunday qilib, oila – bu murakkab ijtimoiy, kompleks, ko'p funksiyali hodisa, insonlar hayot tarsi shakli bo'lib, u mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy normalarga asoslanadi. Mazkur muayyan strukturaga ega tizim bir qator rang-barang funksiyalarni bajaradi va kundalik hayotda insonlarning bir birlari bilan o'zaro aloqalarining barqaror tizimidir. U jamiyat va davlat bilan chambarchas bog'liq va ular bilan birgalikda rivojlanadi. Mohiyatan oila er va xotin, ota-onalar va bolalar orasidagi nikoh va qon-qarindoshlikka asoslangan munosabatlar tizimini o'zida namoyon qiladi, va bu tarixan shakllangan tashkiliy birlik hisoblanadi.

Fitratning "Oila" asarida oila qurish tartiblari belgilangan, ular
1). Boylik,
2). Nasab
3). Husn
4).E'tiqod[2]dir. Bu qoidalar oilaning barqarorligini ta'minlaydi, zero boylik mezoni bo'yicha tengsizlik qudalarning va kelin kuyovning bir biriga bepisandligi, nasl nasabdagi tengsizlik yangi avlodga ta'siri, xusndagi tengsizlik kelin kuyovning beo'xshovligi bilan biridan uyalishi va e'tiqoddagi farqlar ularni bir xil uy ro'zg'or yuritishiga aks ta'sir etadi. E'tiqoddagi farqlar esa, farzandlarning tili, dini turmush tarzida beqarorlikga sabab bo'ladi.

Oilaning asosiy belgilari:

oilaning barcha a'zolarini qamrab oluvchi nikoh yoki qarindoshlik rishtalari;

yagona joyda birgalikda istiqomat qilish;

umumiy shakllantiriluvchi budjet.

Huquqiy tomon, huquqiy shakl bu yerda hal qiluvchi mezon sifatida

[1] Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – С. 28.

[2] Фитрат А. Оила. –Тошкент: Маънавият, 2016. – Б. 46.

kelmaydi. Boshqa belgilar ham unchalik yaqqol emas, misol uchun oila bo'lish uchun qancha vaqt birgalikda yashash kerak, bir haftami yoki bir necha yil; oilaning har bir a'zosi o'z daromadining qancha qismini umumiy oila budjetiga qo'shishi kerak kabi masalalarda noaniqliklar mavjud. Oila-nikoh munosabatlarini tadqiq etishda ilmiy jamoatchilik uchun katta manfaat mavjuddir, chunki oila jamiyatning eng fundamental beshta institutidan biri bo'lib, oila jamiyatga barqarorlik beradi va har bir avlod davrida jamiyatga zaruriy kadrlar yetishtirib berish jarayonining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi.

Oilalar jamiyatda sodir bo'luvchi barcha ijobiy va salbiy o'zgarishlarga tezlik bilan javob beradi, va jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning oila uchun vayronkor yoki bunyodkor jihatlarini baholash orqali ularning insoniy va g'ayriinsoniy jihatlarini anglashga imkon beradi. Jamiyatning bir qismi sifatida oila shakllangan, o'zgargan va u bilan birgalikda rivojlangan, shunday ekan istalgan paytda oila jamiyat rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Oila jamiyatda muayyan funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar muayyan faoliyat ko'rinishlari bo'lib, ular ham oilaning va alohida shaxsning, ham umuman jamiyatning ham muayyan ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular ijtimoiy (jamiyatga nisbatan) va individual (alohida insonga nisbatan) turlarga bo'linadi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari:

1. Reproduktiv funksiya avlodlarni yaratishda o'z aksini topadi va insoniyat irqini davom ettirish zaruriyatiga asoslanadi;

2. Ijtimoiylashtiruvchi funksiya individning birlamchi ijtimoiylashuv jarayoni aynan oilada amalga oshiriladi, uning shaxs bo'lib shakllanishi uchun asos yaratiladi, uni hayotning asosiy qoidalari va normalari asosida tarbiyalanishi jarayoni sodir bo'ladi; oilaviy ijtimoiylashuvning asosiy vositasi farzandlar tomonidan oilaning balog'atga yetgan a'zolarining xulq-atvorlariga taqlid qilib, ularni ko'chirib olishi hodisasi hisoblanadi;

3. Xo'jalik-iqtisodiy funksiya oilaning mehnatga layoqatli a'zolari oilaning mehnatga layoqatsiz va voyaga yetmagan a'zolari uchun ham hayot uchun zarur resurslarni to'plash vazifasini bajaradi (iqtisodiy funksiya); oilaning xo'jalik-kundalik funksiyasi oilaning ba'zi bir a'zolari tomonidan boshqa a'zolari uchun xo'jalik xizmatlarining ko'rsatilishida

namoyon bo'ladi; xo'jalikning birgalikda yuritilishi har ikkala qalliqning ham hayotdan qoniqishini ta'minlaydi;

4. Ijtimoiy nazorat funksiyasining mohiyatini turli hayot jabhalarida oila a'zolarining xulq-atvorlarini axloqiy jihatdan nazorat qilishrun tashkil qiladi, shuningdek unda qalliqlar orasidagi, ota-ona va farzandlar orasidagi, katta va kichik avlodlar orasidagi munosabatlarning nazorat qilinishi ham nazarda tutiladi; unda shuningdek oila a'zolari tomonidan ijtimoiy normalarning buzilishi hollarida axloqiy choralarning qo'llanilishining shakllanishi va ta'minlanishi ham aks etadi;

5. Hissiy-psixologik funksiyaning mohiyati shundan iboratki, oila individlarga hissiy ehtiyojlarini qondirish, intim birgalikda yashash ehtiyojini qondirish imkonini beradi, unga xavfsizlik hissini tuyishga yordam beradi, hissiy muvozanatni yuzaga keltiradi, shu bilan u shaxsning parchalanishi va umidsizlikka tushishiga yo'l qo'ymaydi;

6. Madaniy me'ros funksiyasi orqali oila jamiyatning madaniy uzviyligini ta'minlaydi va bunga u madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazish orqali erishadi;

7. Hordiq chiqarish funksiyasining maqsadi oila a'zolari uchun vaqtni oqilona va unumli o'tkazish ishlarini tashkillalshtirish, ularga o'zlarining qobiliyatlari va talantlarini kashf etish va rivojlantirishga imkon berish, hordiqni birgalikda tashkil etish ehtiyojini qondirishga imkon berish, o'zaro manfaatlarni birgalikda amalga oshirishga imkon berishdir;

8. Ma'naviy muloqot funksiyasi oila a'zolarining barkamolligi, ularning ma'naviy olamlarining boyishi, ularning bir birlari orasida do'stona munosabatlar va axloqiy burch hissini tuyishga imkon beradi;

9. Gedonistik funksiyani ko'pincha sog'lom jisniy aloqa funksiyasi sifatida insonda mavjud umumbiologik jinsiy ehtiyojning mavjudligi bilan bog'liq. Uning qondirilishi xuddi insonning ozuқaga va turar joyga nisbatan ehtiyoji kabi muhim ahamiyatga egadir; bugungi kunda demokratik davlatlar jamoatchiligi tomonidan tan olingan dalillardan biri bu jinsiy ehtiyojlarni qondirish imkonining mavjud emasligi salbiy oqibatlarga olib kelishi to'g'risidagi tezis bo'lib, unga ko'ra bu holda shaxs og'ir ruhiy kechinmalarni boshidan kechiradi, bu jiddiy ruhiy buzilishlarga olib keladi; normal jinsiy hayot, muntazam jisniy

munosabatlar sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi;

10. Ijtimoiy maqom funksiyasining asosiy mohiyati oila a'zolariga oilada muayyan maqom berilishi va ularning nisbatan qoniqarli va obro'li maqomlarga ega bo'lishga nisbatan ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlik tushunchalarining axloqiy va qadriyatli jihatlari

Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlik tushunchalari inson hissiyotlarining eng chuqur joylaridan o'rin olgan bo'lib, insonning ularning og'ushiga tushib qolishi uni juda qudratli kuchlar hukmi ostida qoldiradi. Hozirda bu tushunchalar asosan inson ruhiyatining bir qismlari, elementlari sifatida ko'riladi, va ularni nazorat qilish mumkin, deb hisoblaniladi. Lekin har doim ham shunday bo'lmagan. Masalan, barchamizga ma'lum qadimgi yunon yoki rim xudolari, jumladan, sevgi xudosi Eros (Rimda Venera), nafrat xudosi Erida (Rimda Diskordiya) kabi xudolar insonlardan mustaqil, va ularning ustidan to'laqonli hukm o'tkazuvchi birliklar sifatida tushunilgan. Kanadalik psixolog Jordan B. Piterson o'zining 1999-yilda nashr qilingan "Ma'no xaritalari: E'tiqod arxitekturasi" kitobida yozishicha, mazkur iloh va ilohalar endilikda o'z kuchini to'la yo'qotganicha yo'q, balki shunchaki endilikda insonlar ularning har bir insonning ichki olamida mavjudligini his qilishdi. Lekin bu insonlarning ular ustidan nazorat o'rnatdi, yoki mazkur hissiyotlar hukmidan ozod bo'ldi degani emas. Hozirgi tilga olingan hissiyotlar transpersonal, ya'ni shaxslararo ahamiyatga ega bo'lib, ularning mavjudligi yakka individning mavjudligi bilan cheklanmaydi va ular yakka individning ular hukmidan ozod bo'lishi bilan yo'qolib ketmaydi. Shuning uchun ham Piterson qadimgilarning ularni xudolar deb atashi hech qanday hayratlanarli holat emas, deydi. Chunki ular doimo insonlarning ustidan o'z hukmlarini o'tkazishgan va bu fikrni hozirga ham qo'llasak bo'ladi.[1]

Muhabbat shunday ijodiy kuchki uning ta'sirida insonning qalbi yaxshilik va bunyodkorlikga intilad. Muhabbat ikki qalbning birikuvida

[1] Peterson, Jordan B. Maps of Meaning: The Architecture of Belief. - New York: Routledge: Taylor & Francis Group, 1999. - P. 113.

insoniyatning davomiyligini ta'minlashga intilish, birgalikda hayot kechirish istagidir. Muhabbatsiz hayot do'zax, qalbning xotirjamligi muhabbat tuyg'usi bilan bog'liq, bu muhabbat erkakning ayolga ayolning erkakga nisbatan shakllangan eng ulug'vor tuyg'udir. *Hattoki, nafrat ham muhabbatga tashnalik oqibatidir.* Mehr vatan, farzand, ota ona, opa singil, qavm qarindosh, do'stlarga munosabatning ifodasidir, muhabbat va mehrning mutanosibligi qalb hotirjamligi va hayotdan rozi bo'lib yashashning bosh omilidir.

Baxt bu dunyoga kelmoq va unda yashamoq, muhabbat va nafratni, boylik va kambag'llikni, xurmat va hasadni, sadoqat va xiyonatni his qilmoq va bu jarayonda o'zligimizni asramoq, kerakli bo'lib yashamoqdiq, baxtsizlik eng qadrdon insonlarning xurmatini yo'qotish va jamiyat va odamlarga kerfksiz ekanlikni his qilmoqdiq.

Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri

Ajrimlar ayniqsa farzandlarda ruhiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular hayotdan qoniqishlari kamayadi, baxtsizlik darajasi oshadi, va mehrga tashnalik oshadi.[1]

Shvesiyaning Stokgolm Universiteti va Karolinska Institutida Centre for Health Equity Studies (CHESS) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shundan dalolat beradiki, ajrimdan keyin ota yoki ona bilan birga istiqomat qilayotgan farzand hatn ota ham ona bag'rida istiqomat qilayotgan farzandga nisbatan ko'proq kasalliklar, jumladan, bosh og'rig'i, qorin og'rig'i, bosim hissi va g'amginlik kabilarga ko'proq chalinadi.

XXI asrda O'zbekistonda ajrim holatlari XX asrdagi holatga nisbatan kupayish holatlari kuzatilmoqda. Bu birinchidan, yosh aellarning oilaviy hayotga yetarli darajada ruxiy tayyor emasligi, ikkinchidan ularning iqtisodiy mustaqilligi, uchinchidan uchinchi shaxslarning aralashuvi, to'rtinchidan ishsizlik ta'sirida oilaning moddiy ta'minlamaganligining oqibati deb baholanmoqda. Shu bois, hozirgi kunda oila ajrimlarini oldini olish maqsadida, yosh oilalarni uy joy, ish

[1] P. R., Amato; Sobolewski, J. M. (2001). "The effects of divorce and marital discord on adult children's psychological well-being" (PDF). American Sociological Review. 66 (6): 900–921. doi:10.2307/3088878. JSTOR 3088878.

bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Shaxsning qadriyatlarga bo'lgan munosabati

XX asrning 20-yillarida sotsiolog U.Tomas va F.Znaneskiylar tomonidan qadriyatlarga munosabatni shaxsning uning xulq-atvorini tartibga soluvchi ijtimoiy mo'ljali sifatida tasniflaganlar.

Qadriyatlarga munosabat – shaxsning hayot tajribasi, uning barcha kechinmalari majmui bilan mustahkamlangan va shaxs uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan narsalarni ikkinchi darajali, ahamiyatsiz narsalardan ajratuvchi muhim elementlari.

Vujudga kelgan, keng tarqalgan qadriyatlarga munosabatlar majmui ongning shaxsning barqarorligini, muayyan turdagi xulq-atvor va faoliyatning vorisiyligini ta'minlovchi, individning ehtiyoj va manfaatlariga yo'l ko'rsatuvchi o'ziga xos o'zagini tashkil etadi. Ayni shu sababli qadriyatlarga munosabat shaxs motivasiyasini tartibga soluvchi, belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Rivojlangan qadriyatlarga munosabat – shaxsning yetuklik belgisi, uning ijtimoiylik darajasi ko'rsatkichi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, ijod shaxsning muhim qadriyatlarga munosabatlari hisoblanadi.

Qadriyatlarga munosabatlarning barqaror va ziddiyatlardan xoli majmui shaxsning muayyan tamoyil va ideallarga sodiqlik, bu ideallar va qadriyatlarga erishish yo'lida g'ov-to'siqlardan oshib o'tishga qodirlik, hayot pozisiyasining faolligi, maqsadga erishish yo'lida tirishqoqlik kabi fazilatlarini belgilaydi. Qadriyatlarga munosabatlarda ziddiyatlilik xulq-atvorda noizchillikni vujudga keltiradi. *Qadriyatlarga munosabatlarning norasoligi – infantilizm (bolalik yoshi xossalari), shaxsning ichki strukturasidan tashqi stimullarning ustunligi belgisi.*

Baholash aksiologiyaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Baholash – buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab yetish vositasi. Baholash sub'yektning o'z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo'ljal olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo'lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg'ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar,

istaklar, intilishlar, afzalliklar faoliyat ko'rinishida ro'yobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta'sir ko'rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab yetish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o'rinli bo'ladi. Baholash va qadriyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar, lekin ularning o'rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo'sh, bu farq nimalarda ko'rinadi?

Birinchidan, qadriyat biz bahs berayotgan narsa ya'ni baholash predmeti bo'lsa, baholash — bahs berish jarayoni, ya'ni aqliy faoliyat bo'lib, uning natijasi o'laroq berilgan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmet yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o'laroq insoniy qadriyatlar bo'lishi mumkin emas. Berilgan baho ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Biz muayyan predmet yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb topishimiz, muayyan hatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb baholashimiz, ko'rilgan filmni mantiqsiz deb qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'yektiv hisoblanadi. Baholash esa sub'yektivdir. U ob'yektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'yektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liq. Shu sababli ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Bu o'rinda haqiqiy va soxta hahollar to'g'risidagi masala yuzaga kelishi mumkin.

Baholash ilmiy bilimlarga, an'ana va odatlarda mujassamlashgan ijtimoiy tajribaga, hatto, turli xurofiy aqida va bid'atlarga tayanishi ham mumkin. Kezi kelganda shuni qayd etib o'tish lozimki, baholashning fanga oddiy mansubligi uning muqarrar tarzda haqqoniyligidan dalolat bermaydi, xuddi shuningdek, oddiy ong darajasida baholash o'z-o'zidan uning soxtaligini anglatmaydi.

Berilgan bahoning haqqoniyligi sub'yekt qadriyatining ob'yektiv ahamiyatini qay darajada aniq anglab yetgani bilan belgilanishini tushunish muhim. Haqiqat to'g'risidagi masalada bo'lganidek, bu yerda

ham amaliyot bosh mezon hisoblandi.

Qadriyatlarni baholashning strukturasi

Baholash strukturasi ikki tomonga ega. Baholashning birinchi tomoni narsalar, xossalar, jarayon va hokazolarning ayrim ob'yektiv xususiyatlarini qayd etish bo'lsa, ikkinchi tomoni sub'yektning ob'yektga bo'lgan munosabati: ma'qullash yoki qoralash, xayrixohlik yoki yomon ko'rish va hokazo. Birinchi tomonning baholashi bilimga yaqinroq bo'lsa, ikkinchi tomonning baholashi me'yorga yaqinroq.

Baholashning quyidagi funksiyalari farqlanadi:

Dunyoqarashga doir funksiyaga muvofiq baholash sub'yekt o'zligining shakllanishi, amal qilishi va kamol topishining zaruriy sharti hisoblanadi, chunki har doim uning uchun atrof borliqning ahamiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Ginoseologik funksiya borliqning in'ikosi, ob'yektlarning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish omili sanalgan baholash va bilishning o'zaro xos jihati hisoblanadi.

Baholashning faollashtiruvchi funksiyasi bilishning bilimlardan foydalanishga qaratilganini aks ettiradi, amaliy faoliyatga faol intilish va munosabatni shakllantiradi.

Yo'riqnoma funksiya, sub'yekt muayyan ob'yektlarni, ularning xossalari, munosabatlarini tanlashni ofzal ko'rishini nazarda tutadi. Baholash hodisalarni taqqoslash va ularning jamiyatda mavjud me'yorlar, ideallar bilan o'zaro nisbatini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, qadriyatning mohiyati va uning baholash bilan o'zaro aloqasini o'rganish qadriyatlarning tasnifiga o'tish imkonini beradi. Baholash yo'li bilan individ ayrim qadriyatlarni dolzarblashtiradi, ba'zi qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiyasini o'rnatadi. Baholash strukturasiga baholash predmeti, sub'yekt va asosi kiradi.

Baholashning ob'yektiv mazmuni uning predmeti bilan belgilanadi. Shu sababli baholash bilish bilan bevosita bog'liq, zero predmetning ahamiyati haqida xulosa chiqarishdan oldin uning ob'yektiv xossalari haqida bilimga ega bo'lish lozim. Haqiqiy, ishonchli bilimning o'zi baholash uchun asos bo'lishi mumkin.

Haqiqatning amaliy jihatdan foydaliligi uni ijobiy tavsiflash imkonini

beradi. Ammo haqiqatga berilgan salbiy baholar ham yaxshi ma'lum: behuda, shafqatsiz, befoyda va sh.k. Bu tasodifiy hol emas: ilmiy bilish o'z natijalarini mavhumlashtiradi, aksariyat olimlar fan va axloqning aloqasini rad etadi. Ayrim universal aloqani xolisona tavsiflashga qarab mo'ljal oluvchi ilmiy bilimdan farqli o'laroq, baholash bu aloqaning mazmunini tushunish, uning ahamiyatini hatakkur va emotsiyalar darajasida anglab yetish va boshdan kechirishdir. Baholashga doir mulohazalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bilim borliq hodisalarini erkin baholashga monelik qilmaydi. Bilishga doir mulohazalar intersub'yektiv hamda nuqtai nazarlarga bog'liq bo'lmasa, baholashga doir mulohazalar subyektiv bo'lib, har xil asoslarga ega. Biz estetik, siyosiy, axloqiy, dunyoqarashga doir, madaniyatga oid qadriyatlarda erkin baholashlarga ko'p duch kelamiz. Ma'lumki, natijalar, metod va vositalarni baholash - bilish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi. Bu xususiyat gipotezalar, konsepsiyalar, kashfiyotlarning amaldagi qimmati va ularga ilmiy hamjamiyat, zamondoshlar bergan baholarning nomuvofiqligini tushuntiradi. Yanglish tasavvurlar, gipotezalarning ilmiy ahamiyatini baholash ham muhim muammodir. Bilimning haqiqiyligi uning obyektiv borliqqa bo'lgan munosabati bilan belgilansa, uning bilim sifatidagi qimmati fanning rivojlanish jarayonida aniqlanadi. uning bilish jarayoniga ta'sirining ahamiyati bilan belgilanadi. Masalan, o'tmishning ko'pgina soxta konsepsiyalari (astrologiya, alximiya va sh.k.) hozirgi zamon fanining shakllanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu soxta tasavvurlarning evristik imkoniyatlari ularning bilim sifatidagi mazmunidan boyroq bo'lib chiqqan.

Shuni qayd etish lozimki, baholashga doir mulohazalar ham haqiqiylik yoki soxtalik, adolat yoki adolatsizlik kategoriyalarida baholash predmeti bo'lishi mumkin. Baholashga doir mulohazalarning «haqiqiylik – soxtalik» tushunchalarida tavsiflanuvchi turkumlari mavjud. «Adolat – adolatsizlik» kategoriyalarida tavsiflanuvchi baholashga doir mulohazalar katta turkumni tashkil etadi. Ular siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik munosabatlar, xatti-harakatlar, qilmishlar sohasiga taalluqli bo'lgan bahofashlardir. Masalan, sud qarori, tergov xulosasi va shu kabilarda ifodalangan mulohazalarning xususiyati qanday? Ular «haqiqiylik – soxtalik» yoki «adolat - adolatsizlik» kategoriyalarida

baholanadimi? Bu mulohazalar baholashga doirmi yoki bilish sohasiga taalluqli va haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozimmi? Sud muayyan qilmishni inqilobiy muqaddas muvofiqlik nuqtai nazaridan tavsiflasa, bu yerda, odatda, haqiqat emas, balki baholash mavjud bo'ladi. Ba'zan haqiqat va baholash o'rtasidagi ziddiyat o'zining cho'qqisiga etadi. Garchi huquq o'z tabiatiga ko'ra me'yoriy, binobarin, qadriyat sifatida mazmunga ega bo'lsa-da, har qanday qilmishni huquqiy tavsiflash haqiqiylik mezonini qanoatlantirishi lozim. Huquqiy tavsiflashdan baholash elementini butunlay ajratish mumkin bo'lmasa-da, u mazkur tavsiflashda ikkinchi darajali o'rin egallaydi, haqiqatning hosilasi hisoblanadi. Ayni holda haqiqat baholashning birdan-bir asosi bo'lishi lozim.

Baholashga doir tavsifiy mulohazalar ham mavjud. Ular haqiqat sifatida ahamiyatga ega bo'lgan tavsiflashni ham, qadriyat sifatida sifatida ahamiyatga ega bo'lgan tavsiflashni ham, qadriyat sifatida mazmun kasb etuvchi baholashni ham o'z ichiga oladi. Sudning ko'pgina qarorlarini baholashga doir tavsifiy mulohazalar sifatida tavsiflash mumkin. Shunday qilib, baholash bilish omilini, bilimning haqiqiyligi talabini o'z ichiga oladi, lekin birgina unga bog'liq emas. O'z navbatida, bilim baholashning asosi ham, predmeti ham bo'lishi mumkin.

Bolaning shakllanishiga baholash sub'yekti: individ, ijtimoiy guruh, jamiyat, insoniyat ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ehtiyojlarning boyligi, inson ma'naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi hoyligi, inson ma'naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi boyligi, inson ma'naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi baholash asoslarini tanlash subyektivdir. Ma'lum hollarda subyekt baholash asoslarini tanlash subyektivdir. Ma'lum hollarda subyekt shaxsiy manfaatni, o'tkinchi egoistik mayllarni baholashning birdan-bir asosi sifatida tanlaydi. Bu tasodifiy hol emas. Individ ijtimoiy va shaxsiy asosi sifatida tanlaydi. Bu tasodifiy hol emas. Individ ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining ko'p sonliligi va ierarxiyaviyligi uning borliq voqealarini baholashga nisbatan yondashuvlarining serqirraligini nafaqat tushuntiradi, balki buni nazarda ham tutadi. Ayni vaqtda psixologiya va sotsiologiyada mazmun va ahamiyat jihatidan har xil bo'lgan hodisalarga Ayni bir sub'yekt tomonidan berilgan baholarda barqarorlik, o'zgarmaslik, takrorlanuvchanlik qayd etiladi. Shaxs ijtimoiy-madaniy va shaxsiy qadriyatlarning ancha batartib tizimiga amal qilgan holda o'zini yaxlitlik sifatida namoyon etadi. Ehtiyojlardan kelib chiquvchi mazkur tizim insoni o'zini qurshagan borliq: tabiat dunyosi, ma'naviy madaniyat va o'z-o'zini baholashning teran asosi sifatida amal qiladi. Shunga qaramay, shaxsning

yo‘l tanlashini belgilovchi qadriyat va mo‘ljallari insonning yashash sharoit va ehtiyojlari kabi o‘zgaruvchan. Natijada baholashlarda o‘zboshimchalik, subyektivizmga yo‘l qo‘yilishi xavfi yuzaga keladi.

Baholashga doir mulohazalarda inson madaniyati, uning to‘g‘ri tushunish va his qilish qobiliyati namoyon bo‘ladi. O‘zining moddiy ifodasini topgan qadriyatlar barqaror va nisbatan o‘zgarmas, shaxs ehtiyoj va manfaatlari esa o‘zgaruvchan bo‘lib, bundan qadriyatlarni muntazam ravishda qayta baholash zaruriyati kelib chiqadi. Mazkur zaruriyat madaniyat qadriyatlariga nisbiy yondashuv bo‘lib, ularning ayrimlarini dolzarblashtirish va boshqalariga e’tiborsizlik bilan bog‘liq.

Maqsadlarni qo‘yish ba’zan kishibilmas tarzda an’analar, me’yor va qoidalar bilan tartibga solinadi. Ular qadriyatlarni tizimga solish va ierarxiyalashtirishni, qadriyatlar «piramidasi»ni yaratishni belgilaydi. Bunda piramida cho‘qqisidan dolzarb, lekin o‘tkinchi va hatto soxta qadriyatlar ham o‘rin olishi mumkin. Masalan, sotsiologlar yoshlarning hayot mo‘ljallarini o‘rganish jarayonida ular ko‘pincha o‘zlari aniq tasavvur qilmaydigan kasbni tanlashlari, o‘zlari hech qachon bo‘lmagan joyga ketishga harakat qilishlari, yaxshi ma’lum bo‘lmagan narsalarni tanlashlarini aniqlaganlar. Iste’mol mollari va xizmatlarning taqchilligi shu paytda taqchil bo‘lgan narsaga kuchli qiziqish uyg‘otadi.

Individ o‘z ehtiyojlarini qondirishdan ham ko‘ra ko‘proq mazkur ehtiyojlarni qondirishga qodir ekanligini atrofdagilar tan olishiga erishishga harakat qiladi. Ehtiyoj o‘rnini jamiyatda obro‘-e’tibor topishga intilish egallaydi, qadriyatlarga erkin subyektivistik baho berish moda, mishmishlar, xurofiy qarash va shu kabilarning natijasi bo‘lishi mumkin. Mayllarimizning predmeti sanalgan bu dolzarb qadriyatlar, agar ularning asosi yo‘qolsa, barbod bo‘ladi. Baholashdagi subyektivizm zamirida shaxs, jamiyat, tabiat va hokazolar uchun og‘ir oqibatlar yuz berish xavfi yashirinib yotadi. Inson o‘tkinchi shubhali qadriyatlar hukmiga bo‘ysunib, fundamental ijtimoiy qadriyatlar va shaxsiy hayot qadriyatlari barbod bo‘lgan holatga tushib qolishi mumkin (ekologik halokat, diktatura o‘rnatilishi, shaxs huquq va erkinliklarining yo‘qotilishi, sog‘liqni yo‘qotish, oiladan ajralish, do‘stlar, o‘zi yoqtirgan ishni yo‘qotish va h.k.).

Baholashning asosi

Ob’yektiv asosning mavjudligi baholashda sub’yektivizm yo‘lida muayyan g‘ov-to‘siq hisoblanadi. Baholash asosi – sub’yektga hodisani uning mazkur davr yoki kelajakdagi ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan tavsiflash, borliq narsa va hodisalarini saralash, tanlashni amalga oshirish va o‘z faoliyatining strategiyasini belgilash imkonini beruvchi mezon. Baholashga doir mulohazalarda baholash asosi aniq aks ettirilishi ham, implisit tarzda, ya’ni aniq bo‘lmagan ko‘rinishda ifodalanishi ham mumkin. *Ammo asos – baholashning muqarrar elementi.*

Baholash asosi sifatida shaxs yoki ijtimoiy guruhning bevosita ehtiyojlari, manfaatlari, mo‘ljallari amal qilishi mumkin. Ammo baholash zamirida andozalar, qoidalar, standartlar, ijtimoiy imperativlar yoki taqiqlar, me’yorlar ko‘rinishida ifodalangan maqsadlar yoxud loyihalar yotishi ham mumkin. Me’yoriy tartibga solish sohasi inson faoliyati sohasi bilan deyarli mos keladi. U huquqiy va axloqiy me’yorlardan tashqari qoidalar, komandalar, buyruqlar, standartlar, texnik me’yorlar, xizmat tartibi va shu kabilarni ham o‘z ichiga oladi.

Me’yorlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o‘zida qadriyat sifatida ham, baholash asosi sifatida ham amal qiladi. Bu ikki yoqlamalik baholashga doir mulohazalar ikki yoqlamaligining sabablaridan biri hisoblanadi. Xulq-atvorni baholashda, maqsaddan qat’i nazar, qoidalar va me’yorlarga formal muvofiqlik birinchi o‘ringa chiqqan holda, me’yor mustaqil qadriyat sifatida ko‘pincha odatga aylanadi. Shaklan me’yor va qoidalarga muvofiq bo‘lgan yuzaki faoliyat ba’zan jamoatchilikdan ijobiy baho olishi, ish manfaatlarida sermazmun faoliyat esa salbiy baholanishi mumkin.

Har qanday baholash o‘z predmetini ham, baholash subyektining ehtiyojini ham tavsiflaydi. Sub’yekt muayyan hodisani baholar ekan, o‘zining unga bo‘lgan munosabatini ham, o‘z ehtiyojini ham ifoda etadi. Bundan sotsiologlar tomonidan kuzatiluvchi baholarning variativligi kelib chiqadi. Baholar haqiqiy bo‘lishi, ya’ni predmetning obyektiv qimmatini aniq aks ettirishi va haqqoniy bo‘lishi, ya’ni baholash subyektining shaxsiy fikrini aks ettirishi mumkin.

Baholar haqqoniy bo‘lishi, lekin haqiqiy bo‘lmasligi; haqiqiy bo‘lishi, lekin haqqoniy bo‘lmasligi; haqqoniy ham, haqiqiy ham bo‘lmasligi mumkin. Masalan, manzaraning go‘zalligi haqidagi mulohaza

haqiqiy bo'lishi, lekin haqqoniy bo'lmasligi mumkin, chunki individ o'z mulohazalari bilan suhbatdoshiga o'zini nozik didli shaxs qilib ko'rsatmoqchi bo'lishi, manzaraning go'zalligi esa amalda uni qiziqtirmasligi mumkin. Har bir baholashda faoliyatning turli tomonlari asos bo'lishi mumkin:

me'yoriy (muayyan me'yorga muvofiq) baholash;

ijtimoiy-madaniy (muayyan jamiyatning madaniy o'ziga xosligi bilan mushtarak) baholash;

professional (mazkur kasb andoza va qoidalariga muvofiq) baholash;

operasional baholash (muayyan maqsadga erishish imkonini beruvchi operasiyalarning maqsadga muvofiq majmui va ketma-ketligi).

Har bir muayyan holda yuqorida zikr etilgan asoslardan biri yoki ularning muayyan uyg'unligidan foydalanilishi mumkin bo'lib, bu ayni bir hodisaga berilgan bahoning mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi.

Masalan, huquq bilan tartibga solinuvchi qilmish huquqiy me'yor nuqtai nazaridan baholanuvchi yuridik fakt hisoblanadi. Ayni shu qilmish operasion (operasiya qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilgani) yoki axloqiy (qilmish subyekti qaysi axloqiy prinsiplarga amal qilgani) nuqtai nazaridan baholanishi mumkin.

Baholash asosi sanalgan me'yorlar uning predmeti bo'lishi ham mumkin. Ular faoliyatning hayot sinovidan o'tgan usullarini mustahkamlash vositasi sifatida vujudga keladi. Ayni vaqtda ijtimoiy me'yorlar allaqachon eskirgan va shaxs o'z-o'zini qadriyat sifatida erkin anglab yetishiga monelik qiluvchi taqiq va qoidalarning manbalari bo'lishi mumkin. Ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy amaliyotdan oqsashi ular birdan-bir maqsadga aylanishiga zamin yaratadi.

Bunda insonning maqsadga muvofiq faoliyati o'rnini me'yorga ko'r-ko'rona amal qilish egallaydi, ayrim qadriyatlardan namoyishkorona ramziy foydalanish vujudga keladi. Individning ijtimoiy jihatdan nufuzli va me'yoriy jihatdan maqbul guruhdagi o'rnini aks ettiruvchi timsol o'rinning o'zidan muhimroq tus oladi. Masalan, avtomobildan transport vositasi sifatida emas, balki uning egasi (uning jamiyatdagi haqiqiy o'rni qanday ekanligidan qat'i nazar) jamiyatning «oliy» sinfiga mansubligidan dalolat beruvchi timsol sifatida foydalanish mumkin.

Shunga qaramay, aynan me'yorlar har bir baholashda umuminsoniy va muayyan tarixiy, ob'yektiv va sub'yektiv, umumiy va xususiy

omillarning mushtarakligini ta'minlaydi. Individ yoki ijtimoiy guruhning obyektiv holatini aks ettirgan, kishilarning amaliy faoliyati asosida vujudga kelgan holda, me'yorlar tabiat va jamiyat hodisalarini baholashda o'zboshimchalikning mavjud emasligini ta'minlashga qodir. Me'yor – inson faoliyatini yo'lga soluvchi va boshqaruvchi, uning jamiyat yoki odamlar ayrim guruhlarining manfaat va qadriyatlariga muvofiqligini nazorat qiluvchi umum e'tirof etilgan qoida.

Me'yor jamiyatda joizlik haqida mavjud tasavvurlardan kelib chiqib, muayyan harakatlarni buyuruvchi yoki taqiqlovchi talab sifatida amal qiladi. Binobarin, me'yor joizlik haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatda vujudga kelgan me'yorlar nisbatan barqarorlik kasb etadi, o'z navbatida, baholash faoliyati jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi.

Sub'yekt ob'yektning amaldagi ahamiyati haqidagi tasavvuridangina emas, balki o'z hayotida amal qiluvchi me'yorlardan ham kelib chiqib baholashni amalga oshiradi. Jamiyatning rivojlanish jarayonida hodisalar ijtimoiy ahamiyatining o'zgarishi va tegishli ravishda baholarning o'zgarishi eski me'yorlar tanqid ostiga olinishi va yangi me'yorlarning shakllanishiga olib keladi.

Jamiyat devalvatsiyasi (qadrlanish va qadrsizlanish)

Ijtimoiy devalvatsiya atamasi kanadalik sotsiolog Erving Goffman tomonidan 1963-yilda amaliyotga kiritilgan bo'lib, u insonlardagi qadrsizlangan stereotiplarni o'zi bilan olib keluvchi xususiyatni "stigma" deb ataydi.[1] Insonning qadrsizlanishi eng avvalo uning mehnati, oila, vatanga sadoqatining qadrsizlanishida namoyon bo'ladi. Inson mehnatining qadrsizlanishi natijasida unda "stigma", ya'ni o'kinch kayfiyati shakllanadi va pirovard natijada u muayyan tushkunlikga o'tadi. Bu kayfiyat oldinlari asosan mikro-darajada, ya'ni individual darajada amal qiladi, deb hisoblangan, lekin bugungi kunga kelib uning makro-darajada amal qilishi ham isbotlanmoqda. Bugungi kunda mazkur hodisaga nisbatan butun aholi guruhlarining reaksiya bildirishlari, uning butun boshli aholi guruhlariga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati aniqlanmoqda. Goffman mazkur qadrsizlanish va uning natijasida kelib chiquvchi stigmaning bir necha kategoriyalarni e'tiborimizga havola qiladi. Misol uchun, "urug'-qabila stigmalari" (irq, millat, diniy e'tiqod),

[1] Goffman, Erving. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. New York: Simon & Schuster, 1963.

"jismoniy stigmalar" (kasllik, ko'rlik, moxovlik), va inson shaxsiyatidagi noqisliklar (giyohvandlik, ruhiy kasallik, ichkilikbozlik) kabilarni keltirish mumkin.

O'zbekistonda inson mehnatining qadrsizlanishini oldini olish bo'yicha tizimli faoliyat olib borilmoqda, bu ayniqsa 2017 yildan keyin bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda, xususan, aholining turli qatlamlari vakillarining mehnatiga yarasha turli darajadagi orden va medallar bilan taqdirlanishi, yoshlar va nuroniylarga alohida e'tiborn ko'rsatilishi, ko'p bolali oila a'zolari, nogironlarning ijtimoiy himoyasi shular jumlasidandir.

Xulosa. Demokratiya erkin jamiyat qo'lida samarali qurol bo'lib qolishini belgilaydigan omillar ro'yxati u doim muayyan ijtimoiy kontekstda amalga oshirilishini va hokimiyatni saylovda g'alaba qozongan ko'pchilikka beradigan umumiy saylov huquqidangina iborat emasligini ko'rsatadi.

Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida o'z holicha emas, balki vujudga kelgan qadriyatlarga munosabatlar tizimi zaminida muhim o'rin egallaydi.

Qadriyatlarning rang-barangligini uch asos: ijtimoiy hayot sohalariga, sub'yektlarga, qadriyatlarning jamiyat hayotidagi roliga ko'ra tasniflash mumkin.

Hayot, sog'liq, erkinlik oliy qadriyat hisoblanadi.

Tajribaviy amaliy matnlar

Jamiyat, demokratsiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy hayot, siyosiy erkinlik, qadriyat tushunchasi, qadriyatning funksional ahamiyati, qadriyatning shaxsga doir mazmuni, baholash, moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, ideal, interiorizasiya.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qadriyat nima?

2. Ijtimoiy munosabatlar va institutlar tizimida qadriyatlar qanday o'rin egallaydi?

3. Baholash nima, qadriyatlar va baholash tushunchalari bir-biri bilan qanday nisbatlashadi?

4. Shaxs qadriyatlari konfliktlashuvining sababi nimada?

5. Bunday konfliktni boshidan kechirganmisiz?

6. Qadriyatlarning turlari, ularning ierarxiyasi va o'zaro aloqadorligi.


7. Shaxsiy guruhiy va umuminsoniy qadriyatlar mutanosibligini asoslang.


8. Inson hayoti mazmuni va tarix mazmuni.

9. Haqiqat va qadriyatlar uyg'unligini asoslang.

10. Inson faoliyati normalari, ideallari, qadriyatlari.

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar





Bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari.

1. XX asrning boshida kim qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun aksiologiya atamasini muomalaga kiritgan?

A) P.Lapi

B) Germon Kogen

V) Rudolf Lotsiy

G) Genrix Rikkert

2. Kim ilk bor "qadriyat" tushunchasiga falsafiy ta'rif bergan ?

A) Rudolf Lotsiy va Germon Kogen

B) Genrix Rikkert

V) Rudolf Lotsiy va Vilgelm Vendelband

G) Vilgelm Vendelband

3. Aksiologiya qanday fan?

A) Falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi

B) An'analarni o'rganuvchi fan

V) Urf - odatlarni o'rganuvchi fan

G) Marosimlarni o'rganuvchi fan

4. Aksiologiya falsafiy tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida vujudga kelgandan so'ng qanday yondashuvlar paydo bo'lgan?

A) Naturalistik psixologizm, personalistik ontologizm, aksiologik transsendentalizm, madaniy-tarixiy relyativizm, qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi

B) Qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi, madaniy-tarixiy relyativizm

V) Naturalistik psixologizm

G) To'g'ri javob yo'q

5. Naturalistik psixologizm bu - ...

A) Qadriyatlar manbai insonning biologik va pisoxologik ehtiyojlari mujassamlashgan obyektiv omillar qaraladi.

B) Qadriyatlarni obyektiv borliq sifatida emas balki, inson ehtiyojlarini va mayillariga bog'liq bo'lmagan ideal borliq sifatida tushuniladi.

V) Mohiyat e'tibori bilan real madaniy - tarixiy kontekstni mavhumlashtirish.

G) Ijtimoiy subyekt uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan me'yor.

6. Aksiologik transsendentalizm deganda...

A) Qadriyatlar borlig'ining ideal shakli yo barkamollik.

B) Jamiyatda ma'naviy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari.

C) Inson ehtiyoj va mayllariga bog'liq bo'lmagan ideal borliq.

D) Insoniyatning sivilizatsiyaga nisbatan optimistik ruhi.

7. Qadriyatlar ierarxiyasi nima?

A) Qadriyatlar umumiy nazariyasi muammolari va uning eng muhim kategoriyalari.

B) Odamlarning fundamental munosabat va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlar.

C) Shaxsning hayot tajribasi, uning barcha kechinmalari majmui bilan mustahkamlangan va shaxs uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan narsalar.

D) Barcha odamlarning sivilizatsiya yutuqlaridan teng darajada foydalanish.

8. Moddiy qadriyatlar bu...

A) Qadriyat ahamiyatiga molik bo'lgan tabiiy ob'yekt va predmetlar, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlari.

B) Tinchlik, insoniyat hayoti: adolat, erkinlik, odamlarning huquq va burchlari.

C) Inson ehtiyoj va mayllariga bog'liq bo'lmagan ideal borliq.

Barcha javoblar to'g'ri.

9. Aksiologiyaning asosiy kategoriyalari bu...

A) Baholash – buyumning inson faoliyati.

B) Moddiy va ma'naviy qadryatlar.

C) Jamiyat ehtiyojlari.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

10. Ideal nima?

A) Barkamollikning oliy me'yori haqidagi tasavvur, insonning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, barkamollashtirish va uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojining ma'naviy ifodasi.

B) Subyektiv darajada maqbul hodisa sifatida anglashning har qanday variant.

C) Odamlarning fundamental munosabat va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlar.

D) Qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi, madaniy-tarixiy relyativizm.

Adabiyotlar:

1. Qosimov B. Milliy tiklanish. T.: Ma'naviyat, 2002. - 400 b.
2. Barishkov V.P. Аксиология личностного бытия. Саратов: Луч, 2001. -306 s.
3. Каган М. Философская теория ценностей. СП(б). 1997. -266 с.
4. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. Toshkent: Istiqlol, 2009.
5. Forobiy Fozil shahar aholisi. Toshkent: Sharq. 1999.
6. А.де Токвиль. Избранные произведения. – М.: 2003.
7. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: 1991.
8. Shemuhamedova N.A. Falsafa. Toshkent: IdrisAbdurauf. 2021

7-MAVZU. SIVILIZATSIYA VA MADANIYAT

Sivilisatsiya tushunchasining mohiyati va unga oid qarashlar tasnifi

Sivilizatsiya (lot. civilis – fuqarolik, davlatga doir) mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanishi munosabati bilan tarixning muayyan bosqichlariga qiyosiy baho berish mezoni bo'lib xizmat qiladi. Sivilizatsiya – barcha madaniyatlar yaxlitligining tavsifi, ularning umuminsoniy birligi sifatida namoyon bo'ladi(«jahon sivilizatsiyasi», «ma'rifatli hayot tarzi» va sh.k.); Sivilizatsiya odamlar mavjudligi va ijtimoiyligining xususiyati hamda yo'nalishini belgilaydi. Ijtimoiy normalarning muhimligi ularni uzatishning tegishli usullari (kommunikatsiya vositalari)ni va ularni mustahkamlovchi institutlarni shakllantirishni taqozo etgan. Har bir sivilizatsiya ijtimoiy normalarda o'ziga xos ifodasini topgan ijtimoiy tajribani aniqlash, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish alohida tizimini yaratgan. Jazolar tizimi, shuningdek jamoa, ommaviy ong shakli sifatida din va uning nomidan ish ko'ruvchi ijtimoiy institutlar ijtimoiy normalarni saqlash va ijro etish kafili hisoblangan. Din va cherkov ta'sirida sivilizatsiya qiyofa kasb etgan. Huquqiy normalarning tarmoqlangan tizimini o'z ichiga olgan davlatdan iborat oliy hokimiyat sivilizatsiyaning uni saqlashni kafolatlaydigan oliy birlashtiruvchi asos sifatida amal qilgan. Turli sivilizatsiyalar davlat hokimiyatining turli: teokratik, tabaqaviy, huquqiy, siyosiy tizimlarini yaratgan.

O'zbekiston o'z milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, Sharq va G'arbning umumbashariy qadriyatlarini muvofiqlashtiradi. Ayni holda jamiyatning rivojlanishi «ma'rifatlilik», «sivilizatsiya rivojlanishining quyi bosqichi», «sivilizatsiyaning umumiy darajasi», «sivilizatsiyaning oraliq bosqichlari» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Ammo sivilizatsiyaning mazkur talqini to'liq emas, chunki uning rivojlanish darajasi yoki bosqichini aniqlash imkonini beradigan mezon yo'q.

Ibn Xaldun (1332-1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari surdi. Jumladan, madaniyat va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar

jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

Amerika olimi Luis Morgan (1818-1889) *ta'limotiga ko'ra sivilizatsiya – insoniyat rivojlanishida ibtidoiy vaxshiylikdan chiqish, sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqichdir.* L.yuis Morgan sivilizatsiya haqidagi fikrini asoslash uchun insoniyat tarixining sxemasini taklif qilgan, unga ko'ra jamiyat rivojlanishining uch bosqichi mavjud: yovvoyilik, vaxshiylik va sivilizatsiya. Morgan fikricha, har bir sivilizatsiya pastki, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi. Bu tasnif madaniyatning rivojlanishidagi texnologik siljishlarni tarixiy dalillar bilan asoslaydi: masalan kulolchilikning paydo bo'lishi insonning yovvoyi tabiatdan vahshiylikning quyi bosqichiga o'tish va temirni eritishi uning yuqori bosqichiga o'tish chegarasini belgilaydi. Morgan ta'riflagan rivojlanish bosqichlari umumbashariy ahamiyatga ega, chunki u har bir xalqning tarixiga xos jarayonni asoslagan. Uning fikricha, texnologik taraqqiyot bosqichlari boshqa madaniy institutlarning rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Xususan, sivilizatsiyaning vahshiylik davri shakllanishiga va bu monogam oila jinslar o'rtasidagi munosabatlarni imkoni sifatida amal qilgan. Shu bois, L. Morganning evolyutsion konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida marksizmning tarixi falsafasi shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Morgan fikricha, sivilizatsiyaning dastlabki vaqt me'yori oraligidagi ("vaxshiylik va vaxshiylikdan keyingi davr")da o'z ifodasini topgan. Marksizm bir vaqtning o'zida oxirgi vaqt me'yori sifatida baholangan: unga sivilizatsiya kommunizm boshlanishidan oldin insoniyat tarixiy yulining tarkibiy qismi deb baho beradi. Boshqacha aytganda, sivilizatsiya, marksistik ma'noda, qo'l tutish bilan boshlangan bir qator antogonistik shakllanish jarayonlar ketma-ketligidir. (Mazkur talqinda «sivilizatsiya» atamasi «jamiyat» tushunchasi bilan qisman mos keladi va jamiyat hayotini tashkil etishning ijtimoiy shaklini tabiiy vujudga kelgan urug'doshlik shakllariga qarama-qarshi qo'yishga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotlarda «sivilizatsiya» atamasi o'zining varvarlikka qarama-qarshi sifatidagi dastlabki ma'nosini saqlab qolmoqda).

Zimmel ta'limotiga ko'ra sivilizatsiya – «moddiy madaniyat» atamasining sinonimi sifatida: qulay sharoit, turar joy, ro'zg'or texnikasi, transport va aloqa, xizmatlar ko'rsatish va shu kabilarni qamrab oluvchi

utilitar texnologik taraqqiyotni ifodalaydi;

N.Danilevskiy "jamiyatning madaniy-tarixiy tiplari" nazariyasida sivilizatsiyani tasniflagan. Uning fikricha, har bir madaniy sivilizatsiya shaxs rivojlanishi, yoshlik (siyosiy institutlarning shakllanishi), yetuklik va tanazzul davrida namoyon bo'ladi. Buni hozirgi yoshlarning yoshga doir rivojlanish bosqichlari bilan qiyoslash mumkin, lekin N.Danilevskiyning yosh inqirozi haqidagi qarashlari hozirgi davrga mos emas. N.Danilevskiy barcha xalqlarni "tarixiy" va "tarixiy bo'lmagan"ga ajratgan. "Tarixiy bo'lmagan xalqlar" – etnografik, jamiyat rivojidagi so'nggi tarmoqlaridir. Ular o'z taqdirlarini hal qila olmaydilar, davlatchilik shakllarini rivojlantira olmaydilar deb hisoblaydi. Shuning uchun bu xalqlar o'zlarining madaniy, tarixiy tiplarini rivojlantira olmaydilar. Noyob madaniy-tarixiy tiplarni rivojlantirishning huquqiy asosi "tarixiy" xalqlarga tegishlidir. Demak, N.Danilevskiy ishongan xalqlar "madaniy-tarixiy tip" (ya'ni sivilizatsiya)ni shakllantirmaganlar yoki ular eskirgan madaniyatlarni vayron qilganlar yoki boshqa sivilizatsiyalar uchun "etnografik asos" bo'lganlar. N.Y.Danilevskiy ta'limotida 13 ta "o'ziga xos sivilizatsiya" farqlanadi: Misr, Xitoy, Assiro-Bobil, Xaldeylar (qadimgi somiylar), Hind, Eron, Yahudiy, Yunon, Rim, Yangi somiylar (Arab), Romano-German. Uning fikriga ko'ra *"madaniy-tarixiy tiplar" to'rtta fundamental omil: din, madaniyat, siyosat va ijtimoiy-iqtisodiyotga tayanadi.*

N.Danilevskiy barcha madaniy-tarixiy tiplarni bir-biri bilan taqqoslagan. Masalan, *Yevropa tipida - diniy, yunon tipida - madaniy, roman-nemis tipida ijtimoiy - iqtisodiy ma'nolarni anglatadi.* Va faqat slavyan tipi, madaniy o'ziga xosligi, avtokratiyaga mosligini va dehqonlar hamjamiyati bilan to'liq to'rt asosiy madaniy-tarixiy tipga aylanadi, deb hisoblaydi. Darhaqiqat madaniy-tarixiy tipga farqlanish yoki birlashish uchun tilning yaqinligi va ularning umumiy taqdirini bilish kerak. N.Danilevskiy slavyan xalqlari o'zlarining madaniy-tarixiy tiplarini yaratishiga ishongan va bunda Rossiyaning madaniy rivojiga alohida e'tibor qaratgan. Shu nuqtai-nazarda N.Danilevskiyning madaniy-tarixiy tiplari nazariyasi slavyanofil mafkurasining metodologik asosidir. N.Y.Danilevskiy nuqtai- nazaridan *har bir madaniy-tarixiy tip, rivojlanishning to'rtta bosqichidan o'tadi: birinchi davr "ongsiz"*

darajada insonning iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari shakllangan davridir. Ikkinchi davr – davlatning shakllanishi, asosiy ijtimoiy munosabatlarning shakllanish davridir. Uchinchi davr – sivilizatsiyaning yuksalish davri, to'rtinchisi – pasayishi davridir. Agar 1-2 davr uzoq evolyutsion rivojlanish jarayonini qamrab olsa, 3-4 davr qisqa sakrashlar oqibatida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini namoyon etadi. N.Danilevskiyning madaniy-tarixiy tiplar nazariyasidagi taraqqiyot g'oyasi jamiyatning evolyutsion va inqilobiy nazariyalari bilan bir qatorda progressiv rivojlanish imkoniyatlarini inkor etuvchi nazariyalar ham mavjud. Unga ko'ra jamiyatning madaniy-tarixiy tiplari nazariyasi falsafa, sotsiologiya, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarda keng tarqalgan va keng ta'sir etib foydalanilgan konsepsiya madaniy-tarixiy turlar nazariyasidir.

Nemis faylasufi O.Shpengler (1880-1936) sivilizatsiyani madaniyatning halokati bilan yakunlanuvchi jamiyat evolyutsiyasi deb baholagan. Danilevskiyning madaniy-tarixiy tiplar nazariyasini davom ettirib O.Shpengler Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-Rim, Vizantiya-Arab, Maya madaniyati, shuningdek uyg'ongan rus-Sibir madaniyatini farqlagan va ularning har biri, tarixiy vorisiylikga tayanishini asoslagan. Hayot qat'iy biologik ritmga bo'ysunadi: *tug'ilish va bolalik, yoshlik va voyaga etishish, qarilik va "botish (so'nish yoki o'lim)" bosqichlarida o'z ifodasini topgan.*

O. *Shpengler madaniy-tarixiy tiplarni madaniyat va sivilizatsiya bilan qiyoslagan va uni tasniflagan.* Madaniy-tarixiy tip rivojlanishining birinchi bosqichi, u madaniyat deb nomlagan. O.Shpengler fikricha "Madaniyat u yoki boshqa madaniy - tarixiy turga ko'tariladigan qadamdir". U ijtimoiy hayotning barcha sohalarida - ijtimoiy-siyosiy-diniy va etnik, badiiy va ilmiy sohalardagi "organik" evolyutsiya bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqichdagi – sivilizatsiya "evolyutsiyaning mexanik turi"dir. Bu Shpengler fikricha, muqarrar ravishda Yevropaning "tanazzuliga" olib keladi. Demak, olim jamiyat tarixidagi sakkizta sivilizatsiyalarni (madaniy-tarixiy turlar) aniqlab, ularni to'liq yopiq madaniy uzluksizlik uchun har qanday imkoniyatlardan mahrum deb hisoblagan.

Ingliz sotsiologi va tarixchisi A.Toynbi ta'limotiga ko'ra, sivilizatsiya – tarixiy jarayon birligi sifatida xarakterlanadigan har qanday ijtimoiy

madaniy dunyo. Uning fikricha, sivilizatsiya insoniyat umuman yoki biron bir o'ziga xos, milliy-davlatning shakllanishi jarayonidir. A.Toynbi fikriga ko'ra, sivilizatsiya - bu tarixning ba'zi ongli birliklari, elementlari bir-biriga mos keladigan va bir-biriga ta'sir qiladigan yaxlit tizimdir. A.Toynbi O'zining *"Tarixni anglash" asarida dastlab 21 ta sivilizatsiyani sanagani va asar oxirida 37 ta sivilizatsiya bor deb hisoblagani. Ularning aksariyati o'lik sivilizatsiyalardir. Hozirgi davrda A.Toynbining tasnifida 1) g'arb; 2) pravoslav; 3) induist; 4) Xitoy; 5) uzoq Sharq: (Koreya va Yaponiya); 6) Eron; 7) Arab sivilizatsiyalari farqlanadi.*

Sivilizatsiya tushunchasini geografik jihatdan farqlanuvchi birliklarni ifodalash uchun ishlatish esa umuman o'rinli emas, deb izohlovchi olimlar ham yo'q emas. Masalan, Osiyo yoki Yevropada rivojlanish turli darajada. Albatta, xalqning ma'lum bir geografik makonda yashashi ijtimoiy-madaniy umumiylikni shakllantiradi. Biroq, bu ularning dini, tili, madaniyati, turmush tarzidagi birlik, yaxlitlik deb baholash uchun asos bo'la olmaydi. A.Toynbining sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishiga oid qarashlarida irqiy va yashash muhiti e'tiborga olinmagan. Uning fikriga ko'ra, bu vaziyatda xalqlarning ijtimoiy rivojlanish mezonlariga moslashishda muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, kelajak insonning dunyoviy va diniy birligining ta'minlanishiga bog'liq. A.Toynbi Xudo tomonidan aniq belgilangan (garchi A.Toynbi bunday iborani rad etsa ham), u tarixiy taqdirni aniq belgilash zarur deb hisoblagan. Biroq, Toynbining konsepsiyasi providentializm ya'ni - ijtimoiy rivojlanishni oldindan belgilashni ham nazarda tutadi.

Faylasuf olim P.A.Sorokin sivilizatsiyaga ijtimoiy-madaniy supersistemalar deb baho bergan. P.A.Sorokin uch turdagi super-sistemalarni farqlaydi: 1) o'zgarmas haqiqat va haqiqat bo'lgan spiritizm; 2) barcha narsaning manbai va o'lchovi sifatida tan olingan sezgirlik; 3) sezgi, aql va hissiyot sinteziga asoslangan idealizm. Ushbu supersistemalarni jismoniy voqelik darajasida tushunish mumkin emas, ular aql bilan idrok etiladi va ideal darajada mavjud. P.A.Sorokin ijtimoiy-madaniy jarayonlarda vaqt bilan chegaralangan chiziqli harakatni hisoblash, ba'zi bir ijtimoiy-madaniy supersistemalarni boshqalar bilan qiyoslanganda takrorlanadigan ritmlarni belgilash mumkin, deb hisoblagan. Uning fikricha, haqiqatni idrok qilishning

hukmron dunyosi va uning asosiy tamoyillari asta-sekin o'z imkoniyatlarini tugatmoqda va ikki muqobil dunyoqarashdan biri bilan almashtiriladi. Shu bois, ijtimoiy - madaniy supersistemalarning turlari ham almashtiriladi. P.Sorokinning fikricha, o'zgarishning asosiy sabablari super tizimlar ichida namoyon bo'ladi. P.A.Sorokin o'zgarishlarning muhim manbalaridan biri sifatida ushbu supersistemalarni birlashtirishning to'liq bo'lmagan holatini takomillashtirish zarurligini ta'kidlagan.

Samuel Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va jahon tartibini qayta tashkil etish" asarida sovuq urush davridan keyin sivilizatsiyalar qarama-qarshiligi insoniyatning kelajagini belgilaydi deb ta'kidlangan. Xantington Buddizm, Induizm, Islom va Xristianlik - dunyo dinlari ta'sirida Xitoy, Hind, Musulmon va G'arb sivilizatsiyasi paydo bo'lishini asoslagan. Zamonaviy G'arbiy xristian sivilizatsiyasi, iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lib, boshqa sivilizatsiyalarga nisbatan tajovuzkor ruhda deb qabul qilinadi. Biroq, Xantingtonning ta'kidlashicha, G'arbning kuchi asta-sekin pasayib bormoqda, natijada sivilizatsiya kuchlari muvozanatidagi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Buni qo'llab-quvvatlagan holda, Xantington quyidagi statistik ma'lumotlarni ilgari surgan:

XX asrning 75-yilida, G'arbning dunyo miqyosidagi siyosiy boshqaruvdagi ulushi 50 foizga, dunyo aholisiga nisbatan 80 foizga, dunyo ishlab chiqarishida - 35 foizga va qurolli kuchlar sonida - 60 foizga pasaygan. G'arbiy xristian sivilizatsiyasining pasaygan kuchi ta'sirida boshqa sivilizatsiyalar va birinchi navbatda islomiy sivilizatsiya kuchaymoqda.

Xantington fikricha, G'arbiy Evropa va AQShda musulmon immigratsiyasi keng tarqalmoqda. Rossiyada va Shimoliy Kavkazda islom terrorizmi avj olgan. Serbiyada musulmonlarning "Buyuk Albaniya" davlatini yaratish xavfi kuchaymoqda. Pokiston bilan Hindiston orasidagi xududiy kurash 100 yillardan buyon davom etmoqda. Bu insoniyatning kelajagiga tahdid solmoqda.

Xantington fikricha, insoniyatning kelajagi noaniq, bu esa sivilizatsiyalarning ziddiyatligi oqibatidir. Biroq, insoniyatning sivilizatsiyaga nisbatan optimistik ruhi uni saqlash va asrash imkonini namoyon qiladi. Uning doirasida sivilizatsiya umuman insoniyatning

progressiv rivojlanishi uchun ideal sifatida qabul qilinadi. Bu mahalliy sivilizatsiyalarning o'zaro ta'sirining ma'lum bir bosqichida dunyo tarixining bir hodisasi vujudga keladi va yagona sivilizatsiya paydo bo'ladi. Dunyo tarixining haqiqati, ularning fikricha, insoniyatning ma'naviy birligidan kelib chiqadi.

Mashhur nemis faylasufi va psixologi Karl Yaspers (1883-1969) "Tarixning mazmuni va uning maqsadi" asarida jamiyat tarixini to'rtta bosqichga bo'lgan: tarixdan oldingi, antik davrning buyuk tarixiy madaniyati (mahalliy voqealar), eksenel tarix (dunyo tarixining boshlanishi) va "texnik" sivilizatsiya (birlashgan dunyo tarixiga o'tish). Uning fikricha, dunyo tarixining birligi holati uzoq vaqt davomida texnologik ustunligi tufayli dunyo ustidan hukmronlik qilgan Yevropa tomonidan yaratilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan tarixga bosqichli yondashuvda sivilizatsiya rivojining bosqichlari tasniflangan. Ulardan keskin farq qiladigan texnogen sivilizatsiyaning shart-sharoitlarining ijtimoiy iqtisodiy Qadimgi Yevropa madaniyatida paydo bulgan.

Hozirgi davr G'arb falsafasida "madaniyat" va "sivilizatsiya"ning mutanosibligini tushunish sivilizatsiya jamiyatning umumiy ijtimoiy qonuniyatlarini u yoki bu mamlakat doirasida amal qilishini ishlab chiqarish kuchlari (texnologiya), inson faoliyati, madaniyati bilan belgilanadigan o'ziga xos tizimda namoyon bo'ladi. *Har qanday sivilizatsiya takrorlanmas madaniyati, qadriyatlari, dunyoqarashi, axloq-odob normalari hamda hayotiy tamoyillariga ega, bularning barchasi sivilizatsiyani yaxlit birligini ta'minlaydi. Bu sifat xususiyatlaridan mahrum bo'lish sivilizatsiyani halokatga olib keladi"*[1].

Ba'zi mutaxassislar fikricha sivilizatsiya madaniyatning, ba'zan faqat moddiy madaniyatning sinonimidir. Sivilizatsiya tushunchasi diniy mansubligiga ko'ra farqlanuvchi kishilar birligiga nisbatan ishlatilganda ham ilmiy qimmatga ega emas. Birinchidan, o'tmishda ham, hozirda na islom va na xristian dini xalqlarning mustahkam bir butunligi, yaxlitligini tashkil etmagan. Ikkinchidan, dunyo dinlari turli oqimlar borki, diniy yaxlitlikni namoyon etadi. Uchinchidan, diniy mansublik muayyan iz

[1] Ochildiev A. S. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: Muxarrir, 2010. – B.67.

qoldirsa-da, lekin hech qachon xalqlar hayotini to'laligicha belgilab bermaydi. Sivilizatsiya jamiyat tarixining o'ziga xos sifat bosqichi sifatida u yoki bu mamlakat doirasida amal qilsagina, ishlab chiqarish kuchlari, inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning xususiyatini ifodalaydi. Bularning barchasi sivilizatsiyani yaxlit birlik sifatida mavjud bulishi uchun imkoniyat yaratadi.

Sivilizatsiyalarning tiplari

Jamiyatning sivilizatsion asoslari sivilizatsiyalar tipologiyasida namoyon bo'ladi. Sivilizatsiyalarning yevropacha va noyevropacha tiplarini farqlash mumkin. Bu farqlar shu darajada kattaki, yevropacha sivilizatsiya qadriyatlari uzoq vaqt oliy qadriyatlar sifatida tavsiflangan. Xo'sh, yevropacha va noyevropacha sivilizatsiyalar o'rtasidagi farq nimada?

Noevropacha sivilizatsiyalar ancha katta guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos, ayni vaqtda, umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular yevropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar, hatto, ming yilliklar osha saqlashga qodir.

Noyevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun reseptura vazifasini bajaradi. *Noevropacha sivilizatsiyalar evolyutsiyasi sikliliigi va o'ziga xos institut va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi.* Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi.

Yevropacha sivilizatsiya ijtimoiy-madaniy rivojlanishning alohida tipi bo'lib, u Yevropada taxminan XV-XVII asrlarda shakllangan. Uning

an'anasidir. Uyg'onish davrida bu ikki an'ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o'ziga xosligini va uning texnika va texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatni shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikasiya vositalari paydo bo'lishi texnogen sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalik alohida o'ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o'zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi subyektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

Sivilizatsiyaning «yevropacha» va «noyevropacha» tiplari tushunchalari umumiy, muhim, jins bildiruvchi belgilarni qamrab oladi. Mazkur tiplar doirasida mavjud turga oid farqlar pirovard natijada jahon tarixida yevropacha sivilizatsiyaning betakrorligini e'tirof etish bilan bog'liq. Ayrim mutaxassislar fikriga ko'ra, u an'anaviy jamiyat madaniyatining mutasiyasi natijasida vujudga kelgan va insoniyat tarixida uning o'xshashi mavjud emas. Shunga qaramay, sivilizatsiyalar tipologiyasi yevropacha va noyevropacha rivojlanish xususiyatlari bilan cheklanmaydi, chunki insoniyat tarixida ozmi-ko'pmi o'xshash bo'lgan ko'p sonli sivilizatsiyalar mavjud.

Shakliga ko'ra Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, xristian va musulmon sivilizatsiyalari, xududiy va jahon sivilizatsiyalari farqlanadi.

Madaniy-tarixiy birlik belgisiga ko'ra G'arbiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarini, shuningdek, yevropacha sivilizatsiyaga mansub bo'lgan, lekin o'z madaniyatining xususiyatiga ko'ra farq qiladigan AQSh va Kanadani farqlash mumkin.

Vujudga kelish va halok bo'lish davriga ko'ra, hozirgi zamon sivilizatsiyalari va o'lik sivilizatsiyalar (masalan, meksika, xaldeylar yoki qadimgi somiylar sivilizatsiyasi) farqlanadi.

Sivilizatsiyalar tipologiyasida madaniy-diniy birlik belgisi, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. A.Toynbi, S.Xantington va boshqa olimlar

taklif qilgan sivilizatsiyalar tasnifida diniy omil muhim rol o'ynaydi. *A.Toynbi tasnifiga ko'ra, hozirgi vaqtda G'arb-xristian, pravoslav-xristian, islom, hind, Uzoq Sharq sivilizatsiyalari mavjud.*

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, *quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar: ilk sivilizatsiya tarixiy, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa):*

qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;

industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;

hozirgi postindustrial yoki informasion sivilizatsiya.

Ijtimoiy-siyosiy hayot xususiyatiga ko'ra, an'anaviy, liberal va oraliq sivilizatsiyalar farqlanadi.

Liberal sivilizatsiya yoki G'arb sivilizatsiyasi madaniy va siyosiy plyuralizm hamda jamiyatning asosiy qadriyati – huquq tizimining vujudga kelishi bilan bog'liq. Uning ildizlari xususiy mulk va erkin bozor hukm surgan davrda vujudga kelgan antik sivilizatsiyaga borib taqaladi. O'z navbatida, bozor va xususiy mulk individ uchun kafolatlarni, mulkdor imtiyozlarini, mulkdorlar guruhining ma'muriyatdan ustunligini, shaxs erkinligi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tamoyillarini o'z ichiga olgan huquqiy tamoyil va institutlar tizimi vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

An'anaviy sivilizatsiyalar ijtimoiy hayotning varvarlikka chek qo'yish bilan bog'liq dastlabki shaklidan iborat. Bular barcha a'zolari bevosita emotsional muloqot jarayonida bo'lgan nisbatan kichkina lokal hamjamiyatlardir. Ular jamoa qadriyatlarining ustunligi, qabila oqsoqollariga nisbatan hurmat, o'tmishga qarab mo'ljal olishga asoslangan. An'anaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos jihatlari – past malakali, lekin ancha keng byurokratiyaga tayanuvchi jabr-zulmga asoslangan hokimiyat, tabaqalarning huquqsizligi, jamoaviy tuzilma, huquqning norasoligi, individning kamsitilishi kabilardir.

Oraliq sivilizatsiya yoki o'tish davri sivilizatsiyasi ulkan inshootlar (to'g'onlar, kanallar va sh.k.) barpo etish, yangi hududlarni bosib olish yoki o'z hududini tashqi dushmandan himoya qilish (masalan, Buyuk Xitoy devori) zaruriyati tufayli vujudga keladi. Natijada, an'ana va qadriyatlariga ko'ra, har xil lokal hamjamiyatlarning mexanik birlashuvi yuz beradi. Mazkur birlashuv rasmiy xususiyat kasb etadi, idrok etish

ancha qiyin bo'lgan normativ-huquqiy qoidalarga muvofiq va jamiyatni tashkil etishning lokal hamjamiyatlar ko'nikkan hayot tarziga zid bo'lgan shakllarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda jamiyatni birlashtirish vazifasi davlat tomonidan, asosan, kuch ishlatish yo'li bilan hal qilinadi. Ayni shu sababli normalar tizimi birlashtiruvchi mexanizm sifatidagi davlat ehtiyojlarini aks ettiradi. Bundan o'tish davri sivilizatsiyalariga xos bo'lgan huquqiy nigilizm kelib chiqadi. Davlat qadriyatlari va lokal hamjamiyatlarning qadriyatlari bir-biriga zid bo'lgani bois ularning o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Qattiq davlat intizomi, ko'p sonli soliqlar to'lash, amaldorlarning o'zboshimchaligi, rekrut majburiyati, urushlarda ishtirok etish zaruriyati kabi davlatning bu talablari aholining aksariyat qismida norozilik uyg'otadi.

Zamonaviy sivilizatsiyalar kosmogen, texnogen, antropogen sivilizatsiyalarda o'z ifodasini topadi.

Kosmogen sivilizatsiya - bu O'rta asr Yevropasiga taalluqli bo'lgan, qadimgi Vavilon, qadimgi Rim, qadimgi Gretsiya, qadimgi Xitoy, qadimgi Hindiston va boshqalardir. Kosmogen sivilizatsiyaning asosiy prinsipi bu - an'anaviylikka asoslanib, yangiliklar ustunligini ta'minlovchi tamoyildir.

Texnogen sivilizatsiya - ijtimoiy taraqqiyotning uziga xos tipini anglatadi. U XV-XVII asrlarda G'arb madaniyati ichida Yevropada vujudga kelgan[1], degan nazariyalar ham mavjud.

Antropogen sivilizatsiya - bu jamiyatning shunday taraqqiyot modeliki, uning asosini an'anaviy qadriyatlarni qayta baholash tashkil etadi. Har bir rivojlanayotgan jamiyatning ijtimoiy-madaniy holatini qayta ko'rib chiqishda kechayotgan texnogen sivilizatsiya o'z o'rnini antropogen sivilizatsiyaga bo'shatib beradi. Texnogen sivilizatsiya kompyuterlardan va bug' dvigatelidan ancha oldin boshlangan. Dastlab Polis madaniyatida, u insoniyatga ikkita katta ixtiro - demokratiya va nazariy fanni bergan, uning birinchi modeli Evklid geometriyasida o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy aloqalarni tartibga solish va dunyoni bilish

[1] Гизо Ф. История цивилизации в Европе. – М.: Территория будущего, 2007; Морган Л. Первобытное общество: Исследования прогресса человечества из дикого состояния к варварству и из варварства к цивилизации. – СП(б): Тоффлер Э. Шок будущего. – М.: АСТ, 2003; Тоффлер Э. Третья волна. – М.: Эксмо, 1999.

sohasida ushbu ikkita kashfiyot kelajak uchun muhim shartlar, sivilizatsiya taraqqiyotining mutlaqo yangi turi bo'ldi.

O'rta asrlarda insonning xudoga o'xshashligi haqidagi g'oya ilohiy ijod sifatida olamni anglashga yo'naltirilgan bo'lib, uning vazifasi insonning tafakkuriga ta'sir qilishni nazarda tutadi. "Uyg'onish davrida qadimiy an'analarning ko'pgina yutuqlari tiklanadi, ammo inson tafakkurining ilohiy tabiati g'oyasi saqlanib qoladi va shu davrdan boshlab texnogen sivilizatsiyaning XVII asrda rivojlanishining madaniy matrisasiga asos solinadi".

Hozirgi kunda postindustrial rivojlanish konsepsiyalari mavjud. Zamonaviy jamiyat o'z taraqqiyotida juda qiyin davrni boshidan kechirmoqda. Ushbu jarayonlar postindustriyani rivojlantirish konsepsiyalari bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda, asosan, G'arb va butun insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish istiqbollari sanoat, post-sanoat, axborot sivilizatsiyasi tushunchalarida chuqur rivojlangan. Dastlab, ular ijtimoiy-falsafiy fikrning texnokratik yo'nalishi doirasida paydo bo'lgan. Bugungi kunda esa zamonaviy global sivilizatsiya o'zgarishlarini tahlil qilish uchun eng nufuzli ma'naviy qadriyat maqomiga ega bo'lmoqdalar. Ushbu tushunchalar yangi sivilizatsiya yo'lidagi relslarining kelajak sivilizatsiyasiga o'tishini ta'minlaydi.

Postindustrial jamiyatning konsepsiyalari (adabiyotda post-industrializm mafkurasi tushunchalari, postindustrializm tushunchasining umumlashtirilgan tushunchasi ishlatiladi) ijtimoiy-gumanitar va shu bilan birga futurologik tushunchalar bo'lib, ular texnologik va texnologik taraqqiyotni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili va jamiyatning global bosqichlarini yorituvchi mezon sifatida ta'kidlaydi.

"Texnogen sivilizatsiya" nazariyasida sivilizatsiyaning mohiyatini sintezlashga urinish yuqori bo'lgan. Ushbu nazariya postindustrializm va axborot- kommunikatsion o'zaro bog'liqlik, insoniyatning xavf-xatar bilan bog'lik rivojlanish nazariyalari bilan uyg'unlashadi. Bundan tashqari,

«texnogen sivilizatsiya» nazariyasi ushbu tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. Darhaqiqat, so'nggi o'n yilliklarda jahon hamjamiyati, ayniqsa G'arb davlatlarida tobora ko'proq texnogen jamiyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu konseptual jarayon zamonaviy

jamiyatning sivilizatsiya rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lik.

Akademik V.S.Stepin texnogen jamiyatni an'anaviy sivilizatsiya deb ataladigan sivilizatsiyaning alohida turi deb baho beradi: Texnogen sivilizatsiya insoniyat tarixining juda kech mahsuloti. Uzoq vaqt davomida bu voqea an'anaviy jamiyatlarning o'zaro aloqasi sifatida davom etdi. Faqatgina XV-XVII asrlarda Yevropa mintaqasida texnogen jamiyatlarning paydo bo'lishi, keyinchalik dunyoning boshqa qismlariga tarqalishi va an'anaviy jamiyatlarning ta'sirida o'zgarishi bilan bog'lik bo'lgan o'ziga xos rivojlanish turi shakllandi. An'anaviy va texnogen sivilizatsiyalar o'rtasidagi tafovut tubdan o'zgardi. "Antropogen sivilizatsiyani o'rganish ikki yo'nalishda amalga oshdi. Birinchi yo'nalish texnologiyaning tabiati va antropologik izohi bilan bog'liq bo'lgan "Texnogen jamiyat" tushunchasini bizning zamonamizning ijtimoiy amaliyoti nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurati bilan bog'liq. Ikkinchi yo'nalish sivilizatsiyaning alohida turi sifatida "texnogen jamiyat" tushunchasini ishlab chiqish va uni sivilizatsiyaning boshqa turlari va tiplaridan farqini ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'lib, bu muqarrar sivilizatsiyalar tipologiyalarini tahlil qilishga olib keladi.

Birinchi yo'nalishda texnogen jamiyatni shakllantirishda texnologiyaning yetakchi roli namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, agar bir vaqtlar ilmiy va texnikaviy rivojlanish ko'pincha ijtimoiy o'zgarishlarning boshqa turlaridan farqli deb hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda fan va texnik yangiliklar bilan belgilanadigan jamiyat dinamikasini kompleks aniqlash zaruratida o'z ifodasini topadi . Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tizimi bu ijtimoiy o'zgarishning dalilidir. Ilmiy va texnologik yangiliklar tomonidan ishlab chiqarilgan ijtimoiy o'zgarishlar, bir tomondan, oldingisidan ancha ahamiyatli, jahon hamjamiyatining mavjudligi va integratsiyalashuv standartlariga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi, ikkinchi tomondan, ular ijtimoiy dinamika jarayonlarini kuchaytiradi, jamiyat sub'yektlarini xayotiy strategiyalarini tanlash va amalga oshirishga undaydi.

XVIII asr o'rtalarida «sivilizatsiya» tushunchasidan inson «tabiiy» holatining ziddi sifatida foydalanilgan, sivilizatsiya taraqqiyotining mezoni sifatida esa ijtimoiy farovonlik g'oyasi turli ko'rinishlarda ilgari

surilgan. I.Kant sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida farq mavjudligini qayd etgan. Shpengler sivilizatsiyani madaniyatning rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tavsiflab, bu farqni mutloqlashtirgan. Uning (keyinchalik P.Sorokin, A.Toynbi va boshqa mutafakkirlarning) konsepsiyasida sivilizatsiya madaniyatning zavol topish bosqichi sifatida, madaniyatda mujassamlashgan tabiiy-hayotiy asosni siqib chiqaradigan texnik-mexanik elementlar saltanati sifatida tavsiflanadi.

Karl Yaspersning falsafiy merosida texnologiya ijtimoiy o'zgarish omili va uning tarixiy rivojlanishdagi o'rni asoslangan. Ammo XX asrda vaziyat tubdan o'zgardi: endi insoniyat tomonidan zabt etilayotgan tabiat unga xavf solmoqda, chunki texnologiya ruhida insoniyat tomonidan qayta tiklangan mutlaqo yangi muhit paydo bo'ldi.

XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan etnografik tadqiqotlar sivilizatsiyaning mazmunini tushunishga muhim hissa qo'shdi. Ular turli xalqlar ma'naviy dunyosi, hayoti, odatlari, iqtisodiyoti va madaniyatining ulkan boyligi va rang-barangligini yoritib berdi. XIX asrning mashhur etnograflaridan biri Ch.Teylor madaniyat va sivilizatsiya odamlar tarix jarayonida o'zlashtiradigan bilimlar, e'tiqodlar, ma'naviy-axloqiy konsepsiyalar, yuridik qoidalar, odatlar va amaliy ko'nikmalar majmuini ifodalaydi deb hisoblab, bu tushunchalar ayniydir degan xulosaga keldi.

Markaziy Osiyoda sivilizatsiya axloq shaklida yuzaga kelgan. U o'zida yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashda yaxshilik va muhabbat g'alabasi bilan bog'liq ma'naviy axloqiy me'yorlarni mujassamlashtirgan. Inson mohiyatida aks etuvchi bu me'yorlar Sharq sivilizatsiyasining asosini tashkil qilgan.

Ijtimoiy munosabatlar, odamlar faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi normalar universal tizimining ta'sirini o'rganish sivilizatsiyalarning rang-barangligini tushuntirish imkonini beradi. Ular, birinchidan, hukmron diniy dunyoqarashga doir mo'ljallarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayondagi o'rni bilan; ikkinchidan, ularning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan; uchinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar sur'ati, shuningdek, ularning manbalari, mexanizmlari xususiyati va uyg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Sivilizatsiyaning har bir tipi siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va o'z huquqiy qoidalarining xususiyati bilan tavsiflanadi.

Sivilizatsiyalar axborotni kodlashtirish, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish usullari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, jamiyatning muhim xususiyatlari ijtimoiy hayotni tashkil etishning keng ko'lamli shakli sanalgan sivilizatsiyaga asoslanadi. Sivilizatsiyalar vaqt va makonda o'ta barqaror bo'ladi, individlar va ijtimoiy guruhlarning aloqalarini tartibga soladigan, jamiyatning moddiy asoslarini ham, ma'naviy asoslarini ham belgilaydigan umumiy normalarga asoslanadi. Ular madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning umumiy shakllarini yaratib, jamiyat hayotining tizim tashkil etadigan muhim asosi sifatida amal qiladi. *Sivilizatsiya – avlodlar vorisiyligini ta'minlovchi tarixiy tajriba manbai.*

Sivilizatsiya ijtimoiy hayotning barcha omillarini: madaniyat va madaniyatsizlikni, yutuqlar va kamchiliklarni o'zida birlashtiradi. Ma'lumki, jamiyat rivojlanishiga qarab uning normalari eskirib boradi. Ular mazkur sosiumning o'zgargan yashash sharoitlari bilan to'qnashib, uning mavjudligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid soladi. Ammo muhimi shundaki, normalar o'z holicha jamiyatning saqlanishini kafolatlamaydi, ular mazkur normalarga amal qilishga, ulardan o'z faoliyatida foydalanishga, ularni o'ziga xos tarzda talqin qilishga qodir bo'lgan odamlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli madaniyat sivilizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Madaniyat tushunchasining mohiyati va elementlari

Madaniyat – shaxs va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi o'ta serqirra hodisa. Madaniyat nima, degan savolga javob topish u qay tarzda vujudga kelgan va turli, ayrim jihatlarga ko'ra, bir-biriga zid madaniyatlarning mavjudlik sababi nimada, degan savollarga javobni ham nazarda tutadi.

«Madaniyat» atamasi arabcha «madina» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shahar» degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa O'rta asrlarda ham «madaniyat» tushunchasi shahardagi turmush tarzi va sivilizatsiya ne'matlari bilan bog'langan.

Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko'rinishida shakllangan. Shu

bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma'naviy madaniyat, go'zallikka intilish, san'atni qadrlash kabilar ustuvorlik qiladi. Uyg'onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalari: vujudga kelayotgan fan, axloq, san'at, falsafa, din bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui sifatida, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda, «madaniyat» tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan.

Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jabhasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihatidir. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qo'yish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga bo'ysundirishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, samarali, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini tinimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi sifatidagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

Nemis faylasufi I.*Kant ko'nikma madaniyati va intizom madaniyatini farqlaydi. Ko'nikma maqsadlarga erishish qobiliyatini, intizom esa oqilona maqsadlar qo'yish va inson irodasini oqilona yo'l tanlash imkoniyatidan mahrum qiladigan mayllar tutqunidan xalos etishni nazarda tutadi.* I.Kant «madaniyat» tushunchasini fan va san'at doirasi bilan cheklaydi. Fanda aql-idrokning qonunchilik kuchi, san'atda – tasavvurning mahsuldor kuchi jamlanadi. Ular ob'yektiv bilim va sub'yektiv sezgi kabi bir-biriga zid. Shunga qaramay, I.Kant fan va san'at munosabatlariga bir-birini to'ldiruvchi munosabatlar sifatida qaraydi.

XIX asrda madaniyatga avvalo u yoki bu tipdagi jamiyat hayoti va uning o'z-o'zini tashkil etishidagi roliga ko'ra farqlanadigan qadriyatlar va g'oyalar tizimi sifatida yondashuv shakllangan. Gegel madaniyatga mutlaq g'oya o'z-o'zini anglab yetishining boshlang'ich va yakunlovchi

(falsafa) bo'g'ini sifatida qaraydi. Gegelning bu nazariyasi XIX-XX asrlarning madaniyatiga doir bir qator konsepsiyalarida tanqid qilindi. Jumladan, *«lokal sivilizatsiyalar» konsepsiyasida Shpengler xalqlar madaniyatiga o'z rivojlanish jarayonida vujudga kelish, ravnaq topish, tanazzulga uchrash va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadigan berk, betakror organizmlar sifatida qaraydi. Shpengler tarixiy jarayonning o'ziga xos uzluksizligi dalilidan madaniyatlarning ko'p sonliligi g'oyasini keltirib chiqaradi.*

XX asrda madaniyat etnografiya va ijtimoiy antropologiya doirasida o'rganildi. XX asrning ikkinchi yarmida madaniyatning kommunikativ xossalari haqidagi tasavvurlar rivojlandi, uning germenevtik talqini keng tarqaldi. Bu esa madaniyatning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish uchun asos sifatida tilga qiziqish kuchayishiga sabab bo'ldi.

"Madaniyat" tushunchasining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ularni yaratish, ajdodlar tajribasini o'zlashtirib, undan yangi qadriyatlar yaratish uchun foydalanishga qodir bo'lgan insonni shakllantirish usullari tizimidan iborat. Madaniyat yaxlit bo'lib, ancha murakkab tuzilishga ega. *Madaniyatning elementlari turli asoslarga ko'ra farqlanadi. Madaniyatning elementlari:*

- *madaniy universaliyalar, ya'ni barqaror elementlar;*
- *muayyan tarixiy sharoitda vujudga keladigan va yo'q bo'lib ketadigan o'tkinchi elementlarni o'z ichiga oladi.*

Madaniy universaliyalar ijtimoiy hayotning barcha umuminsoniy shakllari: ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat va o'yin, dam olish va muloqot, jamoat tartibi va boshqaruv, ta'lim va tarbiya, ma'naviy hayot (huquqiy va axloqiy ong, san'at, din va h.k.)ni qamrab olari kiradi. Ular tabiiy muhitni o'zgartirish va yangi narsani bunyod etish shaklida namoyon bo'ladi.

Elementar madaniyat universaliyalari o'z tanasini parvarish qilish, bolalarni tarbiyalash, ovqat tayyorlash, turar joyni yig'ishtirish, vafot etganlarni dafn etish va hokazolardir. Hayot faoliyatining mazkur shakllari barcha ma'rifatli jamiyatlarning hayot tarziga ularning butun tarixi mobaynida betakror tarzda xos.

Tarixan o'tkinchi elementlar jamiyat evolyutsiyasi jarayonida vujudga keladigan va yo'q bo'lib ketadigan muayyan tipdagi

madaniyatlarga xos. Madaniyat tipi o'z ijtimoiy-psixologik zamini, aholi mentaliteti, uni vujudga keltirgan sivilizatsiya bilan uzviy bog'liq. Madaniyat tipiga xos bo'lgan hayot tarzi, qadriyatlarga munosabat an'analarning vorisiyligi bilan quvvatlanadi. Madaniyatda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar zaruriyat taqozosi bilan yoki tasodifan paydo bo'ladigan yangi xossalarning o'zlashtirilishi bilan belgilanadi. Muayyan tipdagi madaniyat rang-barang hodisalar keng doirasining ichki birligi uni boshqa madaniyat tiplaridan farqlash imkonini beradigan ramzlar apparatida (til va mantiqiy amallarda, ruhiy stereotiplar va badiiy stilistikada, rasm-rusumlar va muomala odobida) namoyon bo'ladi. Antik davr, O'rta asrlar, Uyg'onish davri va hokazolar madaniyati jamiyat, shu jumladan, ayrim xalqlar tarixining turli bosqichlariga mos keladigan madaniyatning muayyan-tarixiy tiplaridir. O'z navbatida, madaniyatning muayyan-tarixiy tipi kichik madaniyatlarni, ya'ni madaniyatning etnik, mintaqaviy yoki diniy o'ziga xoslik bilan belgilangan qismlarini o'z ichiga oladi.

Madaniyatning ichki tuzilishi

Har qanday madaniyatning ichki tuzilishi uning amal qilish xususiyatlari bilan belgilanadi. Madaniyatning borlig'i insoniyat tajribasini o'zida mujssamiashtirgan alohida madaniy predmetlilikni yaratuvchi sub'yektning o'ziga xos faoliyati bilan ta'minlanadi. Shundan kelib chiqib, madaniyatning tuzilishini farqlash mumkin:

- *madaniyat sub'yekti;*
- *inson faoliyati;*
- *madaniy predmetlilik;*
- *madaniyatning asosiy funksiyasi – ajdodlar ma'naviy tajribasini saqlash, avloddan-avlodga o'tkazish va o'zlashtirishni amalga oshirish bilan bog'liq odamlar o'rtasidagi aloqalar.*

Madaniyat sub'yekti – individ (shaxs), ijtimoiy guruh yoki jamiyatdir. Madaniyat inson imkoniyatlarini, uning qobiliyatlari, bilim va ko'nikmalarini ro'yobga chiqarish sifatida shakllanadi va amal qiladi. U insonning ijtimoiy fazilatlari, aqli, irodasi, intilishlari, boshqa kishilar va o'z-o'ziga, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatining yaxlit tavsifini aks ettiradi. *Madaniyat – insonning ruhlantirilgan faoliyati, insonning*

bilish qobiliyati, bilimi, estetik didi, irodasi, barkamollik va go'zallik idealiga muvofiq bo'lgan ijod qilish qobiliyatining rivojlanish darajasini tavsiflaydi. Ammo madaniyatli odamning bosh negizi axloqiylik hisoblanadi.

Madaniyat sub'yekti ayrim individ yoki ijtimoiy guruh bo'lgani bois jamoa va individual madaniyatning turli-tuman shakllari farqlanadi. Guruhiy madaniyat deganda, milliy madaniyat, manzilgoh (kichik, katta shahar yoki megapolis, qishloq, shaharcha) madaniyati; sinf, kasbiy guruh va hokazolar madaniyati tushuniladi. Jamoa madaniyati muayyan omillar ta'sirida o'zgaradi, uning yangi shakllari vujudga keladi. Masalan, hozirgi zamon jamiyatida ommaviy madaniyat va elitar madaniyat alohida o'rin egallaydi.

Elitar madaniyat shaxsiy asosni izlash va qaror topdirish sifatida amal qiladi. U jiddiy, murakkab, o'ziga xos bo'lib, novatorlik xususiyatini kasb etadi. Uning mahsuloti jamiyatning novatorlarcha izlanishlarni tushunish va baholashga qodir bo'lgan intellektual elitasi uchun mo'ljallangan. Ommaviy madaniyat vujudga kelishiga ommaviy axborot vositalari – gazetalar, jurnallar, radio, kinematografiya, televidenie, magnitli va videomagnitli yozish vositalarining rivojlanishi zamin hozirladi.

Individual madaniyat – insonning ijtimoiyligi mezoni. Inson qanday bo'lsa, uning madaniyati ham shunday bo'ladi. U madaniyat darajasi, uning mavjudligi yoki mavjud emasligi tushunchalari bilan tavsiflanadi. Individual madaniyat u yoki bu darajada tizimli xususiyat kasb etishi, shuningdek, ko'p sonli tasodifiy tarqoq omillar ta'sirida shakllanishi mumkin. Inson – nafaqat madaniyat mahsuli, balki uning bunyodkori hamdir. U jamiyatning oliy qadriyatlarini o'zlashtirgani va ro'yobga chiqargani, ularni o'z ichki ma'naviy boyligiga aylantirgani uchungina madaniyatli hisoblanadi. Inson haqida uning madaniyat haqidagi fikrlariga qarab emas, balki u mazkur tasavvurlarni qanday amalga oshirishiga qarab xulosa chiqarish mumkin. Madaniyat inson faoliyatida amalga oshirilgan, gavdalantirilgan individual va ijtimoiy ong, ideallar va didlar, axloqiy va siyosiy mo'ljallar. Shu sababli madaniyatning muhim elementi madaniy faoliyat hisoblanadi.

Madaniyat – inson dunyosi, faqat unga xos faoliyat usuli bo'lib, uni

amalga oshirish jarayonida odamzot o'zi yaratayotgan narsalarga ruh baxsh etadi, tabiatni, o'zi yashaydigan muhitni insoniylashtiradi. Madaniy faoliyat ongli va qadriyatlarga qaratilgandir. Unda me'yorlarga rioya qilish va ularda nisbatan mustaqillik, maqsadga muvofiqlik va noutilitarlik o'zining uyg'un ifodasini topadi. Madaniy faoliyat umuminsoniy ideal va qadriyatlarni etnik yoki mintaqaviy shaklda aks ettiradi. Madaniyat sohasida inson faoliyati uning ehtiyojlari bilan belgilanadi, lekin faqat ularga bog'liq bo'lmaydi. Unda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan elementlar ham, ortiqcha unsurlar ham mavjud. "Ortiqchalik" tushunchasi madaniyat hodisalarida ularning ma'naviy mazmunini amalda gavdalantirish uchun talab etiladigan vositalarning zarur darajasidan ortiqroq elementlar mavjudligini anglatadi. Madaniyatda utilitar maqsadga muvofiqlik mezoni bilan o'lchash mumkin bo'lmagan muhim qadriyatlar yaratiladi. Garchi madaniyat biologik, fizik, ijtimoiy, texnik-iqtisodiy va boshqa shunga o'xshash omillarga ta'sirchan bo'lsa-da, ular madaniyatda o'zining variativ, ko'p ma'noli ifodasini topadi. Bu madaniyatda erkinlik hamda butunlay yangi predmetlilikni yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Madaniyatning o'ziga xosligi shu bilan izohlanadiki, u teran shaxsiy mazmun kasb etadigan sub'yektiv taassurotlar uyg'otadi. U insonning oddiy madaniy universaliyalarga muvofiq qondiriladigan tabiiy ehtiyojlari darajasida ham namoyon bo'ladi. Madaniyat inson ehtiyojlarini ruhlantiradi, ularga estetik tus beradi, aksariyat hollarda tabiiy ehtiyojning o'zidan ancha uzoq bo'lgan ramz-alomatlar bilan qurshab oladi. *Madaniyat – ehtiyojlarni qondirishning o'ziga xos insoniy usuli. Madaniyat me'yorlaridan chetga chiqish madaniyatsizlik belgisi hisoblanadi.*

Madaniyat produktiv va reproduktiv, ijodiy, an'anaviy va novatorlik faoliyati bilan birlikdagina samarali rivojlanadi. Har qanday madaniy hodisaning ahamiyati, uning mazmuni ob'yektiv, sub'yektga oldindan belgilangan, chunki yangi avlod madaniyat hodisalariga tayyor holda duch keladi. Shu ma'noda, madaniy faoliyat reproduktiv xususiyat kasb etadi. Madaniy faoliyat ijodkorlik, yangini yaratuvchanlik sohasi hisoblanadi. Madaniyat jabhasida novatorlik izlanishlari turli shakllarda amalga oshiriladi.

Madaniy faoliyat ehtiyojlar bilangina cheklanmaydi, chunki u motivlar, iddeallar, qadriyatlar, ya'ni ma'naviy mo'ljallar bilan tartibga solinadi. Ular insonni o'z harakatlarida nafaqat ehtiyojlarni, balki o'zi o'zgartirayotgan predmetning xususiyatlarini ham hisobga olishga da'vat etadi. *Hayvon tabiatni faqat iste'mol qiladi, inson har qanday predmetda nafaqat o'z maqsadini, balki uning alohida xossalarini ham ko'radi.* Tabiatga iste'molchilik nuqtai nazaridan yondashish insonning yovvoyilashuvi, varvarlashuvi belgisidir.

Madaniyatni faoliyat usuli, texnologiyasi sifatida tavsiflash ijtimoiy hayot turli hodisalarining madaniy tomoni: mehnat, kundalik hayot, fikrlash, ishlab chiqarish madaniyatini, siyosiy, huquqiy madaniyatni, ijtimoiy munosabatlar va hokazolar madaniyatini farqlash imkonini beradi. U inson borlig'i va ijtimoiylikning har qanday ko'rinishi usulidir.

Madaniy predmetlilik inson faoliyati va madaniyatning zaruriy elementi. U madaniyatni qadriyatlar yaratish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Madaniyat faoliyatda inson ongi vositasida ro'yobga chiqariladi va ijtimoiy tajriba, faoliyat usullari va dasturlarini avlodlarga qoldirish uchun imkoniyat yaratadigan madaniy predmetlilikni o'z ichiga oladi.

Madaniy predmetlilik jamiyatdagi bilimlar, ko'nikmalar, me'yor va qadriyatlarni gavdalantiruvchi barcha narsalarni qamrab oladi. U moddiy madaniyat elementlari - moddiy ishlab chiqarish vositalari, mahsullari va infratuzilmasini, ro'zg'or buyumlari va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Madaniy predmetlilik til va nutqda, axloqiy xulq-atvor va san'at asarlarida, huquqiy va siyosiy xulq-atvorda, ilmiy asarlar va diniy rasm-rusumlarda mujassamlashgan ma'naviy madaniyatni ham qamrab oladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlik quyidagilarda o'z ifodasini topadi: birinchidan, ijtimoiy g'oya va tasavvurlar o'zining moddiy ifodasini topadi (til, ramzlar, san'at asarlari va shu kabilar ko'rinishida). Ikkinchidan, moddiy madaniyatning har qanday predmetida muayyan mazmun (reja, niyat, kayfiyat, bilimlar va sh.k.) aks etadi. Umuman olganda, insonning mehnat faoliyati va o'zga faoliyatda mujassamlashgan ma'naviy dunyosi madaniyatning mazmuni hisoblanadi. Shu sababli madaniy predmetlilik ramziy tabiatga ega: narsalar, san'at asarlari, imo-ishora va hokazolarda mazkur predmetlarni

yaratgan inson mazmuni «shifrlangan» bo'ladi. Madaniyat predmetlarni idrok etar ekanmiz, biz ularning mazmunini «o'qiymiz» va ularni yaratgan kishilar haqida axborot olamiz.

Madaniyat bilimlar, qadriyat va ma'nolar manbai sanalgan o'z tiliga ega. Madaniy kommunikasiya vositalari nafaqat shaxslararo muloqot tilini, balki fan, siyosat, targ'ibot, boshqaruv, din tillarini ham o'z ichiga oladi. Ular qatoriga madaniy kommunikasiya noverbal vositalari – imo-ishora, mimika, ust-bosh, zargarlik buyumlari, soch turmagi, tatuirovka va shu kabilar ham kiradi. *Madaniy predmetlilik ongli faoliyat mahsuli bo'lib, madaniyatning har bir elementida muayyan mazmun aks etadi, umuman, madaniyatda kishilar ko'plab avlodlarining orzu-umidlari, bilim va ishtiboklari, quvonch va qayg'ulari o'z ifodasini topadi.* Madaniyatning jamiyat uchun ahamiyati ayni shu omillar bilan belgilanadi. Madaniy qadriyatlarning boy berilishi avlodlar o'rtasidagi aloqa uzilishiga sabab bo'ladi, jamiyatni ortga uloqtirib yuboradi, uning mavjudligini xavf ostida qoldiradi.

Madaniyat funksiyalari

Ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. *Madaniyatning bilish funksiyasi insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funksiyani bajaradi.* Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi.

Madaniyatning normativ funksiyasi u muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalga joriy etish, shuningdek, o'z me'yor va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etishdiradi. Ijtimoiy-madaniy jarayonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljallarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamlaydigan me'yorlarning ustunligini ta'minlaydi, o'ziga tahdid solishi mumkin bo'lgan me'yorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning insonni tarbiyalash funksiyasi individning

madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanishida namoyon bo'ladi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarni yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari va ijtimoiy o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Madaniyatning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish funksiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash va saqlash va yangi qadriyatlar tizimini yaratishda o'z ifodasini topadi. Madaniyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmatlar ko'rsatadi, bu yerda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi hamda tayyorlaydi, inson xulq-atvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu jamiyatning u yoki bu qadriyat va talablarini aks ettiruvchi ba'zi harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bilvosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Madaniyat va sivilizatsiya dialektikasi

Madaniyat insonning jamiyatdagi o'rnidan, uning diniy mansubligi yoki siyosiy qarashlaridan dalolat beruvchi ramzlarning keng tizimini yaratadi. Ba'zan mazkur guruhlar yoki qadriyatlarga bevosita mansublik ramziy xususiyat kasb etadi: individ diniy rasm-rusumlarda ma'naviy taskin topish vositasini izlamaydi, lekin o'zining dindorligini namoyish etadi; u muayyan siyosiy maqsadlarga erishishga harakat qilmaydi, lekin o'z niyatlarini e'lon qiladi va h.k. Shunga qaramay rasm-rusumlarni ado etish amaliyoti ham, jamiyat talablarini to'g'ridan-to'g'ri bajarish ham etnosning, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining yaxlitligini ta'minlaydi.

Madaniyat vayronkor jarayonlarga qarshilik ko'rsatadi, chunki u qadriyatlarni saralash mexanizmlariga ega. Natijada sivilizatsiyaning tor tarixiy ahamiyat kasb etuvchi hodisalari yo'qlikka chekinadi, tarix uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy hodisalar esa umuminsoniy madaniyat xazinasidan o'rin oladi. Bunyodkor hodisalarni ham, vayronkor hodisalarni ham o'z ichiga oluvchi sivilizatsiyadan farqli o'laroq, madaniyat o'zining insoniyligi, ijobiyligi bilan tavsiflanadi. U inson faoliyati ijodiy asosining manbai hisoblanadi. Inson yaratgan har

qanday predmet madaniyat hodisasi hisoblanavermaydi, shuningdek, har qanday inson ham madaniyatli bo'lavermaydi.

Madaniyatsizlik yoki madaniyat darajasining pastligi aholi bir qismining o'z madaniyatidan qiralib qolganini anglatadi. Savodsizlik, axloqsizlik, madaniy me'yorlarga muvofiq bo'lgan xulq-atvor, muloqot, mehnat ko'nikmalari mavjud emasligi, tabiatga nooqilona munosabat va madaniyatsizlikning shunga o'xshash boshqa ko'rinishlari oqilona bo'lmagan madaniy siyosat uning mavjud emasligi natijasidir. Ayni vaqtda madaniyatsizlik ongli siyosat natijasi bo'lishi ham mumkin.

Madaniyat inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy kichik tizimlarini birlashtiradi. Ammo madaniy jarayon chegarasi sivilizatsiya, uning me'yorlari bilan belgilanadi. Madaniyat sivilizatsiyada chuqur ildiz otgan bo'lib, u bilan bir jon va bir tan hisoblanadi. Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro aloqasi shu darajada kuchliki, aksariyat olimlar bu tushunchalarni ayniy deb hisoblaydilar. Bu bejiz emas: jamiyatning normal holatida ularni deyarli farqlab bo'lmaydi. Sivilizatsiya va madaniyat birdir: o'z madaniyatisiz sivilizatsiya bo'lmaganidek, sivilizatsiyasiz madaniyat ham bo'lmaydi. Madaniyat ham, sivilizatsiya ham normativ tabiatga ega. Ularning o'rtasidagi farq shundaki, sivilizatsiya madaniy jarayonga shart-sharoit yaratadi, uni tartibga soladi. O'z navbatida, madaniyat yangilik ijodkori sifatida sivilizatsiyaning rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Ammo madaniyat sivilizatsiya bilan ayniy emas. U sivilizatsiya belgilagan ijtimoiy me'yorlarni amalda mujassamlashtirishni nazarda tutuvchi erkin faoliyatdir. Madaniyat jamiyat qadriyatlari, moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir.

Sivilizatsiya elementlaridan biri sifatida madaniyat unga muvofiq bo'ladi, lekin mustaqil rivojlanishga qodir element sifatida u sivilizatsiya bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Mazkur ziddiyatning mavjudligi madaniyat va sivilizatsiyaning rivojlanish manbaidir. Ularning o'rtasida ayniylik nazariy jihatdan faqat sivilizatsiya madaniyatga o'z hukmini to'la o'tkazishi sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Bu hayot faoliyatining texnik-mexanik, ma'naviyatsiz shakllari hukm surishini, shaxsning ijodiy tashabbusi bo'g'ilishini anglatgan bo'lur edi. Inson hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini qattiq tartibga solish jamiyatni turg'unlik

saltanatiga aylantiradi. U o'zgarayotgan sharoitlarga moslashish qobiliyatini yo'qotadi. Shu sababli madaniyatning o'limi muqarrar tarzda butun sosiumni halokatga eltadi. Bu o'z halokatidan keyin bir vaqtlar gullab-yashnagan madaniyat xarobalarini qoldirgan sivilizatsiyalar tarixida ko'p karra kuzatilgan.

Ammo madaniyat va sivilizatsiya o'rtasida tub tafovut mavjudligi ham sivilizatsiyaning halokatiga sabab bo'ladi. Shu sababli sivilizatsiya madaniyatni ijtimoiy nazorat qilish mexanizmlariga ega bo'ladi. Sivilizatsiya madaniyatning rivojlanishini belgilash va rag'batlantirish yo'li bilan uni cheklaydi, o'z manfaatlariga bo'ysundiradi. Sivilizatsiyaning yashovchanligi va faolligi sivilizatsiya mexanizmlarining madaniy shakllar rang-barangligini o'z ideal va andozalariga bo'ysundirish qobiliyati bilan belgilanadi. Zero, madaniyat vositalari bilan sivilizatsiyaning rivojlanishi, uning yangi sharoitlarga moslashishi muammolari hal qilinadi. Ayni vaqtda sivilizatsiyaning mavjudligi madaniyat vujudga kelgan andozalar, me'yor va qoidalarga rioya qilishga o'zini majburlovchi cheklashlar konservatizmiga chek qo'yishga qay darajada qodirligi bilan belgilanadi. Madaniyat o'z tabiatiga ko'ra, qolip va andozalarga toqatsiz bo'lgan ijod sohasidir. Agar u qat'iy normativ cheklashlarga barham bera olmasa, sivilizatsiya, aytaylik, ekologik halokatdan yoki aholi sonining o'sishi va uni ommaviy halokat, ochlik va kasalliklardan himoya qilish qobiliyati o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi natijasida halok bo'lishi mumkin. Shu sababli madaniyat va sivilizatsiya o'rtasidagi ziddiyatlar ularning rivojlanish manbai hisoblanadi, ularning ayniyligi esa turg'unlik va halokatni anglatadi.

Sivilizatsiya madaniy jarayonga umumiy shart-sharoit yaratadi, u ulkan mintaqa va qit'alarni qamrab oladigan olamshumul hodisadir. Madaniyat sivilizatsiya yaratgan zaminda vujudga keladi, individual, betakror, etnik xususiyat kasb etadi. Har bir sotsium individual asosining ifodasi sifatida madaniyat bir sivilizatsiyaga mansub xalqlar o'rtasidagi farqlarni belgilaydi. U mazkur xalqqa xos bo'lgan, uning etnik-ijtimoiy individualligini tashkil etadigan omillar: til, tarixiy taqdir, din, boshqa xalqlar bilan aloqa va hokazolarni xulq-atvor qoidalari, odatlar, ma'naviy hayotda aks ettiradi. Ayni bir sivilizatsiya ko'p sonli madaniyatlarni

yaratadi. Masalan. Yevropa sivilizatsiyasi fransuz. nemis. ingliz va hokazo madaniyatlarni o'z ichiga oladi.

Me'yorlar. qoidalar. taqiqlar va amr-farmoyishlar majmui sifatida sivilizatsiya odamlar faoliyatini o'ziga bo'ysundiradi. uni tartibga soladi. Madaniyat mazkur normalarga muvofiq amalga oshiriladigan erkin ma'naviy va moddiy faoliyat. Ammo normativ jihatdan maqbul bo'lgan har qanday harakat madaniyat bo'lavermaydi. Masalan, tosh qurol teng darajada madaniyat predmeti deb nomlanishi, ayni vaqtda yashash qolish vositasi ham bo'lishi mumkin. Erkin yunon dehqoni yerga ishlov berishi madaniy faoliyat bo'lishi mumkin. ayni shu ish qul tomonidan nazoratchining qamchisi ostida bajarilishini esa. garchi qul erkin odam bilan ayni dehqonchilik amalini bajarayotgan bo'lsa-da. madaniy deb nomlash mumkin emas. XX asr sivilizatsiyasi o'zidan keyin inson tomonidan muhandislik hisob-kitoblariga ko'ra, qurilish me'yor va qoidalariga muvofiq yaratilgan chiriyotgan sun'iy dengizlarni qoldirdi. U Orol dengizini quritdi, lekin Kaspiy dengizida suvni toshirib yubordi. natijada madaniyat obyektlarini suv bosmoqda.

Madaniy kommunikasiya

Madaniy kommunikatsiya fardiyat mutjallarini avlodlar-avlodlar qoldirish, idrok etish va anglab yetishni o'zida namoyon etadi. Madaniyatning har qanday predmeti matnni eslatadi. Bu matn belgilarning tasodifiy va mantiqsiz to'plamiga emas. balki fikrga aylanishi uchun uni kimdir o'qishi talab etiladi. Bilim. tajriba va fikr almashish madaniy kommunikatsiyaning zaruriy shartidir. Madaniy predmetlarni yaratishda inson o'z ma'naviy kuchlari va qobiliyatini moddiylashtiradi va predmetga aylantiradi(insonning o'z ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan predmetlar). Madaniy boylikni o'zlashtirishda esa inson madaniy predmetlilikni «moddiylikdan chiqaradi», uning ma'naviy mazmunini aniqlaydi va uni o'z mulkiga aylantiradi. Shu sababli madaniyatning borlig'i madaniy hodisalarni yaratuvchilar va ularni idrok etuvchilarning muloqotini talab qiladi.

Madaniy kommunikatsiya o'zaro aloqa qilish. madaniy predmetlilikni tushunish, unga baho berish shakli hisoblanadi va madaniy jarayon markazidan o'rin oladi.

Madaniy jarayonda "kommunikatsiya"(muloqot) tushunchasi madaniy boyliklarni yaratuvchi va undan foydalanuvchining muloqoti, avlodlar muloqoti, xalqlarning o'zaro aloqa qilish va til topish shakli sifatidagi madaniyatlar muloqotidir.

Madaniy tafovutlar – jahon xalqlari betakror tarixining qonuniy natijasi, tarixiy jarayonning rang-barangligi manbai. Savdo-sotiq va yaxshi qo'shnichilikning rivojlanishi. ulardi migratsiyasiga qarab madaniyatlarning o'zaro aloqasi muqarrar tarzda kengayadi. U turli madaniyatlarning o'zaro aloqasi nuqarrar tarzda kengayadi. U turli madaniyatlar bir-birini boyitishi va rivojlanishi manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda madaniyatlarning o'zaro aloqasi shakli, uning yo'nalishi qanday, degan savolga javob topish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy sivilizatsiya doirasida mavjud bo'lgan madaniyatlarning o'zaro aloqasi. ayniqsa. samarali va shikastsiz hisoblanadi. Turli sivilizatsiyalarga mansub madaniyatlarning o'zaro aloqasi esa doim ham ijobiy xususiyat kasb etavermaydi. Masalan. yevropacha va noyevropacha madaniyatlar. Sharq va G'arb sivilizatsiyasi madaniyatlarining o'zaro aloqasi turli ssenariylarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin: G'arb sivilizatsiyasi Sharq sivilizatsiyalarini o'z ichiga olishi. G'arb sivilizatsiyasi Sharq sivilizatsiyalarini o'z ichiga olishi. ikkala sivilizatsiyaning birgalikda mavjudligi sivilizatsiyalariga kirishi. ikkala sivilizatsiyaning birgalikda mavjudligi (Yaponiya). Yevropa mamlukatlarida fan va texnika misli ko'rilmagan sur'atlarda rivojlanishi. Yer kurrasi aholisi uchun normal yashash sharoitlarini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj an'anaviy sivilizatsiyalarni modernizatsiya qilish muammosini kun tartibiga qo'ydi. Ammo modernizatsiya qilishga urinishlar aksariyat mamlakatlar uchun samarasiz bogadi. An'anaviy islom madaniyatlarini modernizasiya qilish oqibatlari, ayniqsa, shikastli bo'ldi.

Bu madaniyatlar muloqoti amalda mumkin emas yoki an'anaviy sivilizatsiyalarni modernizatsiya qilish faqat aholining qadriyatlarga munosabati salbiy tomonga o'zgarishi va dunyoqarashning yalpi inqirozigа sabab bo'ladi degan ma'noni anglatmaydi. Yevropacha sivilizatsiya jahon madaniy jarayoni uchun andoza bo'lishi kerak. o'zga madaniyatlarning yevropacha andozaga mos bo'lmagan jihatlari soxta yoki tasodifiydir. degan tasavvurdan voz kechish lozim. Ammo turli madaniyatlarning o'ziga xosligini mutlaqlashtirish ham yaramaydi. Har bir madaniyat o'z madaniy o'zagini saqlagan holda. sirtdan ta'sirlar

natijasida muttasil o'zgaradi, ularni har xil ko'rinishda moslashtiradi. Inson huquqlarini himoya qilish, odamlarni zarur moddiy ne'matlar bilan ta'minlovchi ilg'or texnologiyalarning keng miqyosda amalga joriy etilishi, tibbiy xizmat ko'rsatishning tarqalishi, ta'lim va madaniyat institutlarining rivojlanishi, faol madaniy aloqalar – bularning barchasi turli madaniyatlarning yaqinlashuvi va yevropacha sivilizatsiya ijobiy ta'sirining dalilidir.

Madaniyat o'z tarkibiy elementlarining yaxlitligi bilan ajralib turadi. Bu yaxlitlik uning tizimliligi, qadriyatlar ierarxiyasi, darajalari va subordinasiyasi mavjudligi bilan ta'minlanadi. An'ana madaniyatning muhim birlashtiruvchi mexanizmi hisoblanadi. "Madaniyat" tushunchasining o'zi «xotira» kabi an'ananing mavjudligini nazarda tutadiki, uni yo'qotish jamiyat halokati bilan barobardir. "An'ana" tushunchasi madaniyatning madaniy o'zak, endogenlik, o'ziga xoslik, madaniy meros, madaniy dinamika kabi omillarini o'z ichiga oladi.

Madaniyat o'zagi – madaniyatning nisbatan barqarorligi va yashovchanligini kafolatlovchi tamoyillar tizimi. U asrlar mobaynida shakllanadi va jamiyat borlig'ining o'zgaruvchi sharoitlariga moslashish mexanizmlarini ta'minlaydi.

Endogenlik madaniyatning mohiyati, uning tizimli birligi ichki tamoyillarning mushtarakligi bilan belgilanganini anglatadi.

O'ziga xoslik – madaniy rivojlanishning nisbatan mustaqilligi va erkinligi bilan belgilanadigan betakrorlik.

Madaniy meros – ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar majmui. Madaniyat masalalari bo'yicha Mexikoda o'tkazilgan jahon konferensiyasida (1983-yil) an'ana tarixning harakatlantiruvchi tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Madaniyatlararo kommunikasiya

Har bir xalq o'z urf-odatlari, an'analari, madaniyati, siyosiy va davlat tuzumiga ega. Madaniyat taraqqiyoti jihatidan kommunikatsiyaning milliy uslublarini o'zaro bir-biriga kirishishiga aloqador muzokaralar va jarayonlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatlararo kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari an'analar va milliy xarakterga xos bo'lgan jihatlarda namoyon bo'ladi. Amaliy muloqotning milliy xususiyatlarini bilmaslik hamkorlarda muzokara chog'ida ham u yoki bu loyihani birgalikda amalga oshirishda ham yoqimsiz, istaksiz holatni yuzaga keltiradi. Masalan, biznes iqtisodiy-axloqiy asosda yuritiladi. Tijoratda umumiy qabul qilingan qoidalar buzilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Insoflilik tadbirkorning tashrif qog'ozi bo'la oladi. Tadbirkorlikda samarali ish ko'rishning asosiy ko'rsatkichi – amaldagi natijalar: daromad olish, o'z kasbidan qoniqish, jamiyatda, hamkorlar orasida ijobiy mavqega erishish, shirkat yoki korxonaning mustahkamligi uchun mablag' jamg'armasini yaratish hisoblanadi. Shved ishbilarmonlari biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun bir necha xorijiy tillarni, birinchi navbatda – ingliz va nemis tillarini egallashga harakat qiladilar.

Hozirgi davrda xorij davlatlariga chiqishni rejalashtirgan har qanday ziyoli o'zi borayotgan mamlakatning milliy urf-odatlari va an'analarini o'rganishi maqsadga muvofiq. O'zga millat vakillarining madaniyatini bilishingizni muhokama qilinayotgan masalalar davomida bildirilsa suhbatdoshning sizga nisbatan hurmati oshadi.

Madaniyatlararo muloqotning yozilmagan qoidalari bor. amerikaliklar xizmat xonalarining eshiklari ochiq bo'lishi tabiiy hol bo'lsa, nemislar uchun bu tartibsizlikdir. amerikaliklar va yaponlar hamma narsa kaftdagiday yaqqol ko'rinib turgan keng xonalarda ishlashni ma'qul ko'rsa, nemislar eshikni yopib, ixcham xonalarda ishlashni ma'qul ko'rishadi. Amerikalik yoki italyanlar ishbilarmonning baland ovozda gapirishini inglizlar tarbiyasizlik deb hisoblaydi.

Shvetsiyada hamkor bo'lgan odam to o'zini tanishtirmaguncha, ismini aytib chaqirmaydilar. Italiya, Angolada tashrif qog'ozidan kam foydalaniladi. Kolumbiyada esa tashrif qog'ozi shveysarga ham berilishi mumkin. Isroilda ishbilarmonlar o'zlarining muhokama qiladigan muammolarini maxsus kechki ovqat tashkil dasturxon atrofida o'tirganlarida muhokama qiladilar, vengerlar esa har qanday rasmiy muzokaralarni faqat ofisda o'tkazadilar. Muzokaralarda venger ishtirokchisi deyarli o'zini asilzodalardek tutadi va mayda-chuyda ishlarda savdolashishni o'ziga ep ko'rmaydi. Finlar aksariyat amaliy

masalalarni restoran yoki sauna hammomida hal qiladilar. Norvegiyada hurmatli mehmon qabul chog'i bekaning o'ng tomonida o'tiradi. Xitoyda esa aziz mehmon taomga birinchi bo'lib qo'l uzatadi va birinchi bo'lib stoldan turadi. Amaliy doiralar vakillari faqatgina etiket qoidalarini yaxshi bilib qolmasdan, balki o'z faoliyatlarida so'zsiz rioya qilishlari kerak bo'ladi.

O'zbek madaniyati va etnomadaniyat

O'zbek madaniyati qadimgi ildizlarga ega bo'lib, u Turon zaminda shakllangan va tarixiy taraqqiyot jarayonidagi madaniyatlararo dialog ta'sirida takomillashgan. Hozirgi davrda o'zbek madaniyati 13 ta viloyatlarda yashayotgan aholining etnik birligini o'zida ifodalaydi. O'zbek madaniyatidagi umumiylik va hududiy farqlar kelin salom, beshik to'yi, sunnat to'yi kabi milliy urf odatlarda o'z ifodasini topadi, hozirgi kunda bu etnomadaniyat deb nomlanadi.

Etnomadaniyat ijtimoiy madaniy birliklarning milliy til, urf odatlari, an'analarida vorisiylikning saqlanishiga oid madaniy faoliyatning shaklidir. Bu etniklikda o'z ifodasini topadi "Etniklik – bu o'zlarining umumiy kelib chiqishini tan oladigan, bir tilda so'zlashadigan, umumiy urf-odatlar, turmush tarziga ega bo'lgan, urf-odatlarni saqlaydigan va boshqa guruhlarnikidan ajratib turadigan, tarixiy shakllangan barqaror odamlar guruhidir"[1]. Etnomadaniy guruhlar nisbatan barqaror madaniy xususiyatlarni (shu jumladan tilni) birlashtirgan, shuningdek, boshqa shunga o'xshash guruhlardan farqlarini anglaydigan, tarixan shakllangan odamlar guruhidir, shuningdek etnik xususiyatlarning ijtimoiy birikmasidir. Etnolog olim L..N.Gumilyovning "etnos biologik ijtimoiy tarbiya"dir degan fikrida esa, biologik omilning ustuvorligi tan olingan bir yoqlama yondashuv kuzatiladi. Unga ko'ra, "etnik guruhlar odamlar jamoasi xatti-harakatlarining dastlabki stereotipi sifatida shakllanadi. Ular boshqa o'xshash guruhlarga turlicha ta'sir ko'rsatadigan bir xil energiya tizimi yoki tuzilmadir. Etnosning xulq-atvor stereotipi – bu hayotiy urf-odatlar, fikrlar, san'at buyumlarini idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari, keksalarga munosabatni belgilaydigan muhim

[1] Широкогоров С.М. Этнос. Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений. – Шанхай, 1923. – С.134.

xususiyatidir[1].

Etnomadaniyat zamonaviy global dunyoning ko'plab mamlakatlarida alohida e'tirof etilmoqda va qayta tiklanmoqda. Zero, u turli xalqlarning urf-odatlari va madaniyati haqida ma'lumot beradi, buning yordamida har bir kishi turli etnik guruhlarning urf-odatlari va madaniyati bilan tanishishi mumkin. Bu esa, etnomadaniyatning o'ziga xos xususiyatini ifoda etib, xalqlar va etnik birliklarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy-falsafiy bilimlarni o'rganish imkoniyatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Ishonchim komilki, dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz, do'stlik aloqalari va ko'pqirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga, yurtimizda yangi sivilizatsion yuksalish uchun ham xizmat qiladi"[2] degan fikri etnomadaniy an'analar mamlakatda madaniy aloqalarning kengayishi va rivojlanishiga yo'l ochishiga ishoradir.

Demak, etnomadaniyat negizini millatning moddiy va ma'naviy merosi, urf-odatlari, an'ana va qadriyatlari tashkil etadi. Masalan, an'analar ijtimoiy-madaniy merosning bir qismi bo'lib, avloddan-avlodga o'tib muayyan jamiyat va ijtimoiy guruhlarda ularni yanada go'zal va mazmunli qilish, shu bilan birga davomiylikni ta'minlash maqsadida uzoq vaqt saqlanib kelinmoqda. Yangi va azaliy qadriyatlar jamiyat va uning bo'linmalarining uyg'un rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida – mehnatda, ijtimoiy siyosatda, oilaviy hayotda va boshqalarda qo'llab-quvvatlanadi.

Etnos globallashuv jarayonlarida jamiyatni diversifikasiyalashga va zamonaviy hayot muammolaridan birini belgilaydigan ichki demarkatsiyaga (ajralish) yordam beradi, masalan, turkiy xalqlar yaxlit bir butunlikni ifodalasa-da, ularning tili, urf-odat va turmush tarzida farqlar ham kuzatiladi va bu farqlar etnik birliklarning muhim belgisi sifatida amal qiladi. Bu o'zaro ta'sir – etno ijtimoiylashuvni shakllantiradi, har bir mintaqa va har bir mamlakatda o'zining xossalarini saqlagan holda rivojlanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning deyarli har bir mintaqasida milliy

[1] Тумилев Л.Н. Этногенез и этносфера // Природа. – Москва. 1970. № 1. – С. 11.
[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. –440 b.

madaniyat bilan tanishish va xalqimizning urf-odatlarini o'rganish, targ'ib qilishga imkon beradigan loyihalar paydo bo'lmoqda va jahon amaliyoti shuni isbotlanmoqdaki, ushbu turdagi etnomadaniy an'analar insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PQ-2980-son "2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bu hududning mavjud turistik salohiyatini oshirish bilan bir qatorda etnomadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Buxoro shahri va Buxoro viloyatining yangi zamonaviy qiyofasini yaratish, shahar va transport infratuzilmasini modernizasiya qilish, zamonaviy mehmonxonalar sonini oshirish borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Etnomadaniyat ob'yektlari – xalq, millat o'tmishiga taaloqli, uning boshqa etnoslardan farqlab turuvchi tarixiy-madaniy obidalari, etnografik ahamiyatga ega yodgorliklari, artefaktlari, turmush tarzi tushuniladi. Xalqning, millatning tub xususiyatlarini, hayot tarzi va mentalitetini ifoda etsa, anglatsa, bular turizm ob'yekti bo'la oladi. Tarixiy-madaniy ob'yektlarni asrash har bir fuqaroning burchi, davlat ularni ta'mirlash, mutaxassislar bilan ta'minlash va ilg'or ish usullari orqali targ'ib etish kabi muhim vazifalarni bajaradi. 2001-yili qabul qilingan "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq har bir tarixiy-madaniy ob'yekt davlat hisobida turishi, davlat organlari, avvalo Madaniyat vazirligi, arxitektura qurilish tashkilotlari, mahalliy hokimiyat idoralari ularni avaylab asrashga mas'ul ekani uqtirilgan. Umummilliy ahamiyatga ega madaniy merosga oid boyliklar, artefaktlar chet ellarga maxsus ruxsatsiz olib chiqib ketilmaydi, chet el fuqarolariga sotilmaydi.

O'zbekistondagi eng muhim tarixiy-madaniy meros ob'yektlarini asrash BMT, YUNESKO, Jahon madaniy merosini muhofaza qilish ro'yxati kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani e'tiborlidir. Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlaridagi

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "2017–2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2980-son Qarori // www.lex.uz

tarixiy obidalar YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Lazgi", "Navro'z", "Katta ashula", "Askiya", "Palov madaniyati va an'analari", Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgan. Mazkur yodgorliklar va nomoddiy tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash maqsadida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq qilish markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilgan. Havoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida "Sarmishsoy", "Shahrisabz", "Termiz" va "Qo'qon" davlat muzey qo'riqxonalari tashkil etilgan. O'zbekiston xalqlarining etnomadaniy merosini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar, ekspedisiyalar tashkil etilgan.

O'zbekistonda etnomadniyatning tarixiy ildizlari t.f.d. professor O.Rahmonov, t.f.d., professor O.Nishonova, t.f.d., professor I.Jabborov, U.Qoraboev, t.f.d. professor O.Nishonova, t.f.d., professor I.Jabborov, etnoarxeologiya O'zFA akademigi A.Asqarov, O'zFA akademigi E.Rtveladze kabilar ijodida ochib berilgan.

Yevropa muloqot madaniyati

Yevropa etnomadaniyati ham sharq etnomadaniyati kabi qadimgi davrlarda shakllangan va sivilizatsiyalar almashinuvida takomillashib borgan.

Ingliz ishbilarmonlari mulk, an'analar, xushfe'llik, qonunga itoat qilishni qadrlashlari bilan ajralib turadilar. ular Yevropa tadbirkorligida eng malakali hisoblanadilar. Bu mamlakat tadbirkorlari ixtisoslashgan o'quv yurtlarida o'qib, biznes yuritish uchun professional va psixologik tayyorgarlik ko'radilar. Mazkur o'quv yurtlarida amaliy mazmunlar taktikasi va strategiyasi juda chuqur o'qitiladi. Inglizlar suhbatda inglash qobiliyatini, amaliy munosabatlarda tartib va o'ta aniqlikni qadrluydilar. Tartib – ingliz ishbilarmoniga xos muloqot uslubining qat'iy qoidasi hisoblanadi. Qadimgi ingliz an'anasiga ko'ra bahs-muhokamalarda og'ir-vazminlik – suhbatdoshiga nisbatan hurmat belgisi sanaladi. Rasmiyatchilik – inglizcha hayot tarzini tashkil etadi. Inglizlar odatiga

ko'ra, biror kishining ismini faqat maxsus ruxsat olgachgina aytib, keyin murojaat qilish mumkin. Inglizlar qo'l qisish odatini hatto amaliy protokolga ham kiritganlar. Inglizlar bilan tanishganda, mijoz ustun turishi muhim ahamiyatga ega, chunki mijoz bilan muloqotda unga alohida iltifot ko'rsatilishi muzokara natijalarida samara berishi mumkin. Inglizcha muzokaralar yuritish uslubining o'ziga xos xususiyati n kam vaqt ajratishlari bilan ta'riflanadi. Inglizlar muzokara olib borayotganlarida ko'pdan-ko'p ma'lumot va statistika materiallarini to'playdilar, qaror qabul qilishda xatar darajasini kamaytirish uchun har bir pozisiyani hisoblab, har bir detalni qayd qilib chiqadilar.

Ingliz biznesmenlari bilan ishlash uchun umumiy holatda u yoki bu tovarning tuzilishi, narxlarning taxminiy o'zgarib borishi va ularning harakat tendensiyalarini oldindan o'rganib chiqish, qiziqtirgan shirkat va uning xodimlari haqida ma'lumot olish kerak bo'ladi. Ingliz tadbirkorlari juda kuzatuvchan, yaxshigina psixolog bo'ladi. Shu tufayli bo'lsa kerak, soxtalik, yuzakilikni, professional jihatdan bo'sh va zaif tayyorgarlikni yashirish hollarini hazm qilolmaydi. U boshqa biznesmenlar bilan o'z bilimlari va tajribalarini o'rtoqlashadi, ko'pincha o'z kasbi sirlarini oshkor etadi, u yoki bu bozorning ikir-chikirlarigacha ustalik bilan kira oladi. Inglizlar qanchalik xushmuomala, xayrixoh, hamisha yordamga tayyor bo'lmasinlar, baribir har tomonlama, qoidalarga, ayniqsa qonunga amal qilishlari bilan ajaralib turadilar. Angliyada liboslar sipoligi bilan farq qiladi. Ayollar xizmat payti kostyum va ko'ylak, erkaklar esa kostyum kiyim, bo'yinbog' bog'laydilar. Ish kuni tugagach, ish haqida gapirish nafaqat qabul qilinmagan, balki bu odobsizlik alomati ham hisoblanadi. Inglizlar dasturxon ustida nazokat bilan o'zini tutish qoidalari, xususan, axloq-odob olamini yaxshilab o'rganganlar. Shuning uchun ham ular bu qoidalarga juda jiddiy yondashadilar. Yuqorida aytilganiday, inglizlar o'zlariga tanishtirilmagan odamga murojaat qilmaydilar. Tushlik ziyofatiga taklif qilinganlar albatta smokingda, rasmiy kechaga esa — frakda kelishlari shart. Inglizlar o'tkir ichkiliklardan jin va viskini ma'qul ko'radilar. Ularda qadah so'zi aytish va urishtirish odat tusiga kirmagan. Ular ichish oldidan "chiez", deydilar, xolos. Dasturxon atrofida o'tirib suhbatlashganda qirol oilasi, siyosat, din, shaxsiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, Shimoliy Irlandiyaga taalluqli

mavzulardan qochish kerak bo'ladi. Angliyada shotlandlar va irlandlarni "inglizlar", deb emas, "britaniyaliklar", deydilar.

Angliyada choy ichish marosimi ommalashgan va aynan choy ichish jarayonida ko'p masalalar yechimini topadi. Choy choshgohdan so'ng keltiriladi. Odatda qora choy ichiladi, unga 1-2 chaqmoq qand solib, qaymoq bilan emas, sut bilan birga ichiladi. Choy ichish tanishuv munosabati bilan bir qadahdan sherri ichimligini ichish bilan tugallanadi. Ingliz ishbilarmoni bo'lg'usi sherigini nonushtaga taklif etishi mumkin. Bu taklifni rad etib bo'lmaydi, lekin hurmat alomati sifatida mezbon qaysi vaqtni ma'qul ko'rganligi haqida qiziqib qo'yish maslahat beriladi. Uyga taklif etish - mehmonga bo'lgan alohida ixlos belgisi hisoblanadi. Ingliz xonadonida mehmon bo'lsangiz, u yerda bir-biriga tashrif qog'ozi berilmasligini unutmang. Qachonlardir muzokara olib borgan kishilar bilan do'stona munosabatlarni uzib yubormaslik, buni qo'llab turish maslahat beriladi. Bunday eski tanishlarni tug'ilgan kunlari, mashhur sanalar, bayramlar bilan qutlab turish lozim. Eski an'anaviy marosimlar muhim va ibratli. Inglizlarda: 13 – mash'um raqam; shu bois, 12 A – raqami 13 ni anglatadi. 14-iyun – Angliyaning milliy bayrami.

Inglizlarga taqvimlar, firma ruchkalari, yozuv daftarchalari, zajigalkalar. Rojdestvo bayramiga spirtli ichimliklar sovg'a qilish mumkin. Angliyada qimmatbaho buyumlarni hadya qilish odat emas.

Fransiya– boy tarix va madaniyat, amaliy qoidalar (protokol) va etiket vatani hisoblanadi. Fransuzlar juda odobli, nazokatli bo'lib, hamisha etiketga amal qilishga intiladilar. Fransuzlar Evropaning eng o'ziga xos xalqlaridan biri hisoblanadi. O'rta asrlarda fransuz tili diplomatik yozishmalar va xalqaro muloqot tili bo'lib xizmat qilgan. Bu jihat milliy tabiat xususiyatlarida, amaliy muloqotning fransuzcha uslubi o'ziga xosliklarida aks etadi. Fransuzlar xatarli moliyaviy operasiyalaridan o'zlarini olib qochishga tirishadilar. Aksariyat fransuzlar ashaddiy millatchi bo'ladilar. Aksar fransuz biznesmenlari skeptik, hamma narsaga shubha bilan qaraydigan, ustomon, quv, topqir va ehtiyotkor bo'ladilar. Ular amaliy uchrashuvlar, muzokaralarda ingliz yoki nemis tilidan foydalanilsa, buni ko'ngillariga og'ir oladilar. Biroq aksariyat fransiyalik biznesmenlar jo'shqin, ishonuvchan, oliyhimmat bo'ladilar. Ular, qisqasi, "yalt" etib ko'zga tashlanishni yaxshi ko'radilar

va buning uddasidan chiqadilar ham. Ular bemalol erkin suhbat quradilar va bu hol favqulodda tez o'tadi. Uchrashuvlarda fransuzlar qo'l qisishga odatlangan. Ularda qo'l qisishlar har xil bo'ladi: do'stona, issiq tarf bilan, iltifotli, sovuqqon, e'tiborsiz va h.k. Fransuz taomlari – fransuz xalqining milliy an'anasiga xos asosiy jihatlardan hisoblanadi, desak yanglishmaymiz. Aynan fransuz taomlari milliy faxrga aylangan, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Fransuzlarda idishdagi taom oxirigacha iste'mol qilinishi shart, taomning qoldirilishi mezbonga nisbatan hurmatsizlik belgisi hisoblanadi. Dasturxon ustida taomga tuz sepish mezbonlarga nisbatan hurmatsizlik sifatida baholanadi. Dasturxonga hech qanday ziravor qo'yilmaydi. Odatda fransuzlar ochiqko'ngil, sergap, hissiyotga to'la, jo'shqin, rejali va tejamkor bo'ladilar.

Ular qanchalik kirishimli, dilkash bo'lmasinlar, yolg'iz, mustaqil ishlashni ma'qul ko'radilar. Boshqalarni muhokama qilishni xush ko'radilaru, tanqidni ko'tarolmaydilar. Fransiya ishbilarmonlari o'zlarini juda erkin tutadilar va suhbatdoshlari bilan bajonidil ochilib gaplashadilar.Fransuzlar chiqishimli, nazokatli, sermulozamat bo'lib, hamisha vatani hisoblanmish etiketga amal qilishga tirishadilar. Tarixan shakllangan ziyolilik, ozodlik va mustaqillikka intilish, falsafa, nafis san'at turlari, notiqlikka mehr qo'yish kabi madaniy an'analar zamonaviy ishbilarmon kishilar xulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Ular aqliy salohiyatni, biror narsani tushuntirish qobiliyatini, shartnoma va bitim shartlarini aniq ifoda etmoqlikni juda qadrlaydilar. Fransiyada amaliy uchrashuv chog'i tashrif qog'ozi topshiriladi. Tashrif qog'ozida biznesmen qaysi oliy o'quv yurtini tamomlaganligini ko'rsatish tavsiya qilinadi. Fransuzlar uchun o'qimishli bo'lish, oliy ma'lumot olish o'ta muhim hisoblanadi. Agar uchrashuvda Fransiya tomonidan bir necha kishi qatnashayotgan bo'lsa, unda tashrif qog'ozi eng baland mavqega ega shaxsga topshiriladi. Mehmonlar libosi oliy sifatli, tabiiy materialdan tikilgan bo'lishi zarur. Libosga hech qanday sintetika aralashmasligi darkor. Fransiyada ko'pgina muhim qarorlar nafaqat xizmat kabinetida, balki ovqatlanib o'tirgan stol ustida ham qabul qilinaveradi. Amaliy qabullar kokteyl, nonushta, tushlik yoki kechki ovqat shaklida bo'lishi mumkin. Ish haqida faqat qahva tortilgandan keyingina gaplashish qabul qilingan. Fransuzlar hammadan ko'ra o'zlari manfaatdor bo'lgan

masalani yo'lyo'lakay hal qilishni yoqtirmaydilar. Bu masalaga asta-sekinlik bilan, byetaraf bo'lgan mavzularda uzoq gaplashuvlardan keyingina xuddi shunchaki eslab o'tganday so'z ochiladi. Suhbat chog'i din, siyosat, oilaviy ahvol masalalari, xizmat doirasidagi daromad va sarf-xarajatlarga aloqador muammolar tilga olinmaydi. Ularning kelishuvlari konkret, lo'nda, aniq bo'ladi. Fransuz biznesmenlari o'z pozitsiyalarini mohirona himoya qiladilaru, ammo savdo bobida rag'batlari bo'lmaydi. Ularning ko'pincha "ehtiyot uchun" olib qo'ygan pozisiyalari bo'lmaydi, biroq muzokaralar payti o'zgarishlar kiritilishini yoqtirmaydilar

Ular amaliy muzokaralarga puxta tayyorlanadilar; kelib tushishi mumkin bo'lgan takliflarni har tomonlama va jumladan, uning oqibatlarini ham ipidan-ignasigacha o'rganib chiqadilar. Odatda amaliy muzokaralar soat 11:00 da boshlanadi. Oradan bir yarim soatlar o'tgach, muzokara qatnashchilariga operativ bilan nonushta taklif etiladi. Fransuzlar san'atni, ayniqsa fransuz san'atini bilishlarini yuksak qadrlaydilar. Birinchi uchrashuvda ishdagi sherigingizga suvenirlar (badiiy albomlar va h.k.) topshirish qabul qilinmagan. Fransuzlarda kechki ovqatga taklif etilishi – mehmon uchun sharaf hisoblanadi. Kechki ovqatga belgilangan vaqtdan o'n besh daqiqa kechikib borish kerak bo'ladi. Ziyofatga sovg'a o'rnida gul (qayg'u-motamni anglatuvchi oq gullar va xrizantemalardan tashqari), bir shisha shampan vinosi (Shampan viloyatida ishlab chiqarilgan) yoki qimmatbaho markali vino olib borgan ma'qul. Fransuzlar kamdan-kam hollarda o'tkir ichkiliklar ichadilar. Fransuz restoraniga kirganda bosh kiyim va palto yechiladi. Restoranda ovqatlanib bo'lgach, choychaqa ham qo'shilgan hisobni olasiz. Agar choychaqa qo'shilmagan bo'lsa, hisobga 10 foiz pul qo'shib berasiz. Restoranlarda hisob tarelkadagi salfetka ostiga qo'yiladi. Siz pulni ham xuddi shunday ana shu salfetka tagiga qo'yasiz.

Germniya muloqot madaniyati xuddi fransuzlar kabi ehtiyotkor va tejamkor, yanada ishonchliroq va aniq bo'ladilar. Ammo hazil, yumor va samimiyat bobida ular fransuzlardan ortda qoladilar. Nemis xalqi tabiatiga erkin fikrlash tarzi va ulkan insoniy mardlik xos. Ular tabiatan skeptik bo'ladilar, har bir narsaga shubha bilan qaraydilar, o'zlarining jiddiyliklari, kamgapliklari va og'ir-vazminliklari bilan ajralib turadilar, pedantlikda hech kim ularga etolmaydi. Nemislar ishda professionalizmni

yuksak baholaydilar. Odatda ishbilarmon kishilar kirishimli bo'ladilar, xursandchilik, vaqtichog'lik qilishni yaxshi ko'radilar. Ularga shoshapisha ish qilish yoqmaydi. Nemis biznesmenlari hamma uchrashuvlarni oldindan belgilaydilar. Muzokaralar kunduzi soat 10:00 gacha va kechki 16:00 dan keyin o'tkazilmaydi. Haqiqiy muzokaralar boshlangunga qadar umumiy masalalar haqida bir oz gaplashiladi. Nemis biznesmeni vaqtni behuda o'tkazishni istamaydi. Biznes haqida gapirildimi, darhol ishga o'tiladi. Muzokarar hammaga, jumladan, har kun sensiraydigan odamiga ham "Siz", deb murojaat qilinadi. Germaniyada qarorni korxonaning eng yuqoridagi rahbariyati qabul qiladi. Nemislar tez-tez huquqshunosga murojaat qilib turadilar. Rahbarlik uslubi - avtoritar va ierarxik tarzdadir. Rahbar bo'lguncha uzoq yo'lni bosib o'tish kerak bo'ladi. Rahbarlik lavozimlarida keksa odamlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ishdagi hamkorlarni uyga taklif qilish odatlari yo'q. Mabodo nemis xonadoniga mehmonga taklif qilinib qolguday bo'lsangiz, atirguldan boshqa guldasta ko'tarib borishingiz kerak. Chunki atirgul sovg'a qilib borsangiz, bu uy bekasiga ko'nglingiz borligini anglatadi. Mezbon bo'lgan uy sohibiga vino sovg'a qilishdan oldin uning bu boradagi didini bilish kerak bo'ladi. Shu sababli vino sovg'a qilmagan ma'qul. Gullarni biror xonadonga birinchi marta mehmon bo'lib borganda yoki biror yubiley munosabati bilan taqdim qilinadi. Nemislar bilan tanishganda amal va unvon muhim sanaladi. Germaniyada unvonlarga katta ahamiyat beriladi. Erli ayol erining unvoniga ega bo'la oladi. Muzokaralar boshlanishi oldidan delegasiyaning har bir a'zosini unvoni aniqlab olinadi. Germaniyada kim bilan gaplashayotgan bo'lsa, unvonini aytish odat tusini olgan. Nemislar muzokaralarga nihoyatda puxta tayyorgarlik ko'radilar. Odatda ular qachonki masalaga yechim topish imkoniyatiga ishonganlaridan keyingina muzokaralarga kirishadilar.

Garchand bizning tadbirkorlarimiz Germaniyaga sovg'a-salom bilan borsalar-da, amaliy muloqotda hadya qilish odat emas. Ishdagi hamkorlar yoniga borgan vaqtda ularga kichkina suvenir berish mumkin. Aksariyat Rojdestvo bayrami yoki biror-bir yubiley munosabati bilan sovg'a qilinadi. Sovg'alar amaliy munosabatlar o'rnatishda, shuningdek, shaxsiy tabiatdagi sovg'alar ham qilinmaydi. Nemislar sipo kiyinadilar. Erkaklarning albatta to'q rangli kostyum kiyishi talab etilmaydi. Ish

doirasidagi ayollar garderobidan shim olib tashlangan. An'anaviy qora kostyum hamon ilgarigiday amaliy uchrashuvlarga 128 juda mos keladi. Lekin hozir yanada erkinroq libos kiyilayotganligi kuzatilayotganligini ham aytib qo'yish joiz.

Ispaniya muloqot madaniyati tabiatan jiddiy, ochiqko'ngil, insoniy va juda hazilkash, yumor hissi hamda komandada ishlash qobiliyatiga egadirlar. Ispaniyaning o'n yettita viloyati o'z xususiyatlarini xalqlari tabiatiga muhrini bosgan, ya'ni ta'sirini o'tkazgan, desak yanglishmagan bo'lamiz. Mamlakatning turli muzofotlari vakillari madaniyati va turmush tarzida, xulq-atvorida ancha farq borligini shu hol bilan izohlasa bo'ladi. Ispanlar ish va kishilarga hissiyot bilan munosabatda bo'ladilar. Dastlab ushbu mamlakatga yetib kelganlik haqida hamkorlarga xabar qilinadi. Uchrashuv tush – siesta (tushlik) paytiga belgilanmaydi. Yirik ispan shirkatlari bilan tijorat aloqalari an'anaviy ravishda ierarxik tamoyilga ko'ra tuziladi. Tegishli qaror qabul qiladigan mas'ul rahbarlarga chiqish shart. Shuningdek, yuqori lavozimdagi mansabdorlar, kompaniyalarni boshqaradigan episkoplar ishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular aksar hollarda qaror qabul qilish chog'i juda katta huquqqa ega bo'ladilar. Muzokaralarda teng maqomdagi hamkorlar ham ishtirok etadilar. Muzokaralar ob-havo, sport, shaharning diqqatga sazovor joylari va h.k.lar haqida gap-so'zlar boshlanib, so'ng maqsadga o'tiladi. Uchrashuv vaqti qat'iy belgilanmaydi, chunki ispanlar ko'p gap gapiradi. Tashrif qog'ozi ispan va ingliz tillarida yozilgan bo'lishi shart. Ispanlarda ishdagi sheriklarni uylariga taklif etish odati yo'q. Lekin mabodo shunday taklif bo'lib qolsa, bu katta sharaf hisoblanadi. Mehmonga ko'pincha gul, bir quti konfet, shampan vinosi va h.k.larni sovg'a qilib olib borish mumkin.

Gullarni sovg'a sifatida olib borish Rossiyadagi singari ommaviylashmagan. Ispanlar 13 raqamini omadsiz raqam deb bilishlarini, 13-sana seshanbaga to'g'ri kelib qolsa, omadsiz kunni anglatishini unutmaslik darkor. Ispaniyada 12-oktyabr – milliy bayram sifatida nishonlanadi. Ovqatlanish asboblaridan to'g'ri foydalanish kerak. Mehmonlar tarelkada chala ovqat yeb, tagida qoldirmaydilar. Taklif etilgan kechki ovqat dasturxonida ichimliklar rang-barang bo'ladi va bu yerda muhim talab ularni me'yorida iste'mol qilish hisoblanadi. Stol ustida taomlar va ichimliklar sifati haqida bemalol yaxshi gaplarni

aytaverish mumkin. Ispanlar – har qanday mavzuda yaxshi suhbatdosh bo'la oladilar. Dasturxon atrofida san'at, adabiyot, sayohat uchun diqqatga sazovor joylar, sport mavzulari suhbat uchun ajoyib mavzu bo'la oladi. Korrida, din, Franko rejimi va h.k.lar haqida gapirish nojoiz hisoblanadi.

Shimoliy Amerika amaliy madaniyati

AQSh milliy madaniyati hali yosh bo'lsa-da, biroq amerikalik milliy tabiatiga xos insoniy munosabatlarda o'ziga xoslikka, amaliy 129 faoliyatda kuchli shaxs bo'lishga, yakka shaxsning o'zi qaror qilishga intilishi kabi xislatlarni aytib o'tish mumkin. Amerika biznesmenlari ishchan, chaqqon, o'ta faolliklari bilan ajralib turadilar. Ularda eng qadrli, qimmatli narsa – bu individual ozodlik, ya'ni yakka inson ozodligi, shaxs daxlsizligi hisoblanadi. Amerikaliklar mehnatsevarlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik, fikr sog'lomligi, o'zini-o'zi o'stirish va pragmatizmni qadrlaydilar. Amerikaliklar amaliy suhbatlar chog'i muhokama qilinishi kerak bo'lgan muammoga diqqatlarini to'playdilar. Yana nafaqat bu muammo yechimiga bo'lgan umumiy yondashuvlarni aniqlab, ularni muhokama qilibgina qolmasdan, balki kelishuvlarni amalga oshirishga aloqador detallargacha tahlil qilib chiqishga intiladilar. Amerikaliklar pragmatizmi ana shunda ko'rinadi. Amerikaliklar istagan mamlakat biznesini yaxshi bilamiz, deb o'ylaydilar. Ular ko'pincha amaliy muloqot texnologiyasida egosentrizmni namoyon etadilar va hamkorimiz bizning qoidalarimizga amal qilishi kerak, deb hisoblaydilar. Amerikalik biznesmenlarni faqat real va konkret loyihalar qiziqtiradi, xolos. Ularlar bo'lg'usi muzokaralarning hamma savollaridan yaxshigina xabardor bo'ladilar va buning uchun vakolatni qo'lga kiritadilar. Ularning tabiatiga xos bo'lgan mustaqillik osonlik bilan qaror qabul qilishga imkon beradi. Muzokaralar yuritishning amerikacha uslubi ishda yetarlicha professionalizm bilan izohlanadi. Ular muzokaralar uzoqqa cho'zilib ketishiga toqat qilolmaydilar.

Amerikalik biznesmen muzokaralarda uch: tahlil qil, majburiyatlarni taqsimla, ijroni tekshir, degan qoidalarga rioya qiladilar. Amerikalik biznesmenlar ishda faolliklari, foyda-daromad olish uchun kurashda juda qobiliyatli ekanliklari, o'z ustunligini tasdiqlashga urinishlari, favqulodda

o'ziga ishonch tuyg'usining mustahkkamligi, ahdida qat'iy tura olishlari, quvliklari, ya'ni tegirmondan butun chiqishlari, tavakkalchilikka o'chliklari bilan ajralib turadilar. Ular yakka bo'lib yoki kichik guruhlarga bo'linib, muzokaralarni olib boradilar. Amerikaliklar shartnoma tuzilayotganda o'ta tirishqoqlik va agressivlik ko'rsatadilar. Ularning fikricha, bo'lg'usi hamkorlariga nisbatan juda kuchli pozisiyaga egadirlar. Amerika amaliy ish olamida muvaffaqiyat qozonish uchun muayyan qoidalarga amal qilish hamda Amerika biznesining bari ikir-chikirigacha o'rganish kerak bo'ladi. Amerikaliklar amaliy muloqot tajribasiga demokratizm va progmatizm unsurini olib kirdilar. Amaliy hamkor sifatida amerikaliklardan o'z so'zini qadrlash, sherigining ishonchini oqlash, himoyaning huquqiy turlariga tayanish, juda puxtalik bilan hujjatlar tuzish, professionalizmni hurmat qilish, o'ta omilkorlik, majburiyatlarni aniq muddatida bajarish, birinchi navbatda prinsipial masalalarni hal qilish, ishning mayda-chuyda tomonlarini, kamko'stini bitirishni pastroq vazifadagi ijrochilar va huquqshunoslarga qoldirish kabi xislatlarni o'rgansa arziydi

Kanada muloqot madaniyati agrar sanoati bilan bog'liq. Kanada mamlakatida inglizlar, fransuzlar yashaydi. Ular kanadalik inglizlar va kanadalik fransuzlar deb yuritiladi. Mamlakatning tub aholisi hindular va eskimoslardan iborat. Davlat tili – ingliz va fransuz tillari. Xalq xristian dinining protestant va katolik mazhabiga e'tiqod qiladi. Kanada mamlakati 10 ta viloyat va 3 ta hududdan iborat federatsiyani tashkil etadi. Asosan Yevropa biznes muhiti Kanadada ham hukm suradi. Mamlakat sharqida (aksariyat aholisi fransuz tilida so'zlashadigan Kvebekda) ayniqsa o'z qadr-qimmatini anglab yetishga asoslangan fransuz madaniyati namoyon bo'lgan. Janubda (Ontario va unga tutash tumanlarda) amerikacha madaniyat namunasi ko'zga tashlanadi. G'arbda (Britaniya Kolumbiyasi) amaliy faoliyatdan tashqari boshqa qadriyatlarni e'tirof etuvchi juda baynalminal va oshkora madaniyat shakli o'z ifodasini topgan. Uchrashuvlar belgilangan vaqtda boshlanadi. Mabodo kanadaliklarning rahbarlik uslubini kuzatsangiz, bunda ma'lum ikkilanishni sezasiz: goh boshliq ishni boshqarsin, deb hamma diqqat unga qaratiladi, goh demokratiya yo'l bilan guruh bo'lib, qaror qabul qilinishiga izn beriladi. Bu davlatda ayollar yuqori lavozimlarni egallab

turibdilar. So'nggi vaqtlarda ayollarning jamiyatda tutgan o'rni ancha ko'tarildi. Kanadaliklar, chet elliklar ularning siyosatlari va dolzarb voqealarni bilishlarini qadrlaydilar, biroq mamlakatda yashovchi ingliz va fransuz tilida so'zlashuvchilar o'rtasidagi ziddiyat haqida ularning gapirishlarini yoqtirmaydilar. U yoki bu tomonga o'z simpatiyangizni bildirishingiz maslahat berilmaydi. 1-iyul — Kanada davlati o'z mustaqilligini e'lon qilgan kun, mamlakatda bayram qilinadi. Suhbat uchun sport yaxshi mavzu hisoblanadi. Kanadada sportning asosiy turlari xokkey va beysbol ommaviylashgan. Asosan tanishtiruv tadbirlari restoranlarda o'tadi. Lench atrofida uchrashuvlar o'tkazish odat tusiga kirgan. Kechki tanishtiruv tadbirlari uyda o'tkaziladi. Tushlik vaqti chekilmaydi. Ovqat ketidan ko'pincha vino va pivo ichiladi. Kanadada qadimiy ingliz-evropa ziyofat etiketiga amal qilinadi. Biror joyga tashrif buyurganda gul ko'tarib borish odat tusiga kirgan. Gullar aksar hollarda yo tashrifdan so'ng, ushbu kechaga taklif etganlari uchun, yoki mehmondo'stlik uchun minnatdorchilik ramzi sifatida jo'natiladi. Bekaga atab bir dasta gul hadya qilish shart.

Odatda ziyofat uchun emas, mehmonnavozlik uchun tashakkur aytiladi. Kanadalik odam bilan istagan mavzuda gaplashish mumkin. Lekin bir narsani unutmang: tag'in AQShni Kanada bilan qiyoslay ko'rmang. Notanish odamlar bilan gaplashganda suhbat o'z-o'zidan jonlanadi va oddiy tus oladi. Ora yaqinlashib, darhol "sen"lashga o'tiladi. Yaxshi do'stlar yaxshi biznes qiladilar. Ishbilarmonlar hayotida kanadalik hamkoringizga "sen", deb murojaat etish orani yaqinlashtiradi, bir-biringizga hurmat-e'tibor ortadi, munosabatlarga do'stona ruh bag'ishlaydi. Bejirim kiyilgan libos muvaffaqiyat qozonayotgan biznesmen imijining bir qismi hisoblanadi. Ish payti qora kostyum, boshqa vaqtlar esa bashang libos kiyiladi.

Sharq mamlakatlari amaliy madaniyati.

*Yaponiya muloqot madaniyati.*Yapon xalqi hayoti rang-barang marosimlarga limmo-lim va bu tadbirlar qat'iy protokolga amal qilgan holda o'tadi. Yaponlar tanishuv chog'i bir-birlariga tashrif qog'ozlari beradilar. Tashrif qog'ozini topshirayotgan kishining jamiyatda tutgan nufuzi, egallab turgan lavozimi juda muhim hisoblanadi. Tashrif

qog'ozlari, qoidaga ko'ra, matni yuqoriga qaratilgan holda ikki qo'llab uzatiladi. Agar yapon biznesmenining mavqei pastroq bo'lsa, unda tashrif qog'ozi bir qo'l, o'ng qo'l bilan qabul qilinadi. Aks holda yapon biznesmen xijolatda qoladi. Yaponiyada o'zidan mavqei past sherik bilan muloqot qilgan yapon biznesmeni boshqa tadbirkorlar ko'zi oldida o'z obro'ini to'kadi, degan qarash bor. Go'yo hamkorning yuqori lavozimni egallab turishi go'yo ular tanlagan shirkat amaliy ish olamida uncha e'tiborga ega emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham yaponlar ijtimoiy ahvolga tegishli bo'lgan hamma narsaga juda ehtiyot bo'lib yondashadilar. Oldin tanishtiriladigan Yaponiya tomoni vakillarining darajalari aniqlanib, so'ng shunga qarab, shunday maqomdagi kishilar tanlanadi. Yaponlar juda xushfe'l bo'ladilar. Shunday bo'lsa-da, bu xushfe'llik do'stlikni anglatmaydi. Yaponiyada tanishtiruv tadbirlarida faqat erkaklar ishtirok etadilar. Ko'ngilochar tadbirlarda ham ayollar qatnashmaydi. Yaponiyada qo'l qisishish odati yo'q. Ular bir-birlariga chuqur ta'zim qiladilar. Odatda 15, 45, 75 va 90 marta ta'zim qilinadi. Yaponlarning odatiga ko'ra, agar biror odam hamrohida yaxshi taassurot qoldiraman desa 45 marta ta'zim qiladi. Eng boobro' odam bilan 90 marta ta'zim qilib salomlashiladi.

Bu mamlakatda subordinasiyaga asoslangan rahbarlik qilishning avtoritar uslubi keng tarqalgan. Biroq ko'pgina qarorlar ko'pchilik bilan kengashib bamaslahat qabul qilinadi. Dunyoda eng uzun ish vaqti Yaponiyada joriy qilingan. Aksariyat xodimlar o'z boshliqlari ishdan ketmagunlaricha, xizmat joylaridan jilmaydilar. O'z kasbiga sodiq yapon xodim ta'tili shunday ham qisqa bo'lsa-da, ba'zan ishni deb undan voz kechadi ham. Yaponiyada ish kuni tugagandan keyin ham ish haqida gapirish mumkin. Yaponlar hamkorlikda ishlash aloqalarini xat yoki telefon qo'ng'iroqlari orqali emas, vositachilar yordamida yo'lga qo'yishni ma'qul ko'radilar. Ular birgalikda ishlaydigan sheriklari bilan shaxsiy munosbat o'rnatishga tirishadilar, shuning uchun ham dastlabki aloqani mashhur yapon shirkatida ishlaydigan shaxs tavsiyanomasiga binoan amalga oshirishni ma'qul ko'radilar. Finlyandiyada sauna hammomi muzokaralar uchun xizmat qilganiday, Yaponiyada ham golf maydonchasidan ayni shu maqsadda foydalaniladi. Yaponlar sizning gapingizni diqqat bilan eshitadilar, boshlarini irg'aydilar. Bu ularning

roziligini emas, faqat nima demoqchi ekanligingizni 132 tushunganligini anglatadi. Yaponlar bilan muzokaralar olib borilayotganda go'yoki ularga ushbu bahslar natijasi emas, ana shu gaplashuvlar muhimroqday tasavvur qoladi. Bu tasavvur, albatta, sizni aldaydi. Bu faqat shunchaki notanish odamlar bilan emas, boshqa madaniyat vakillari bilan ishlash uchun hamkorlik muhitini yaratishdan boshqa narsa emas. Shu tufayli ham muammolar yechimini topish, kelishish oson bo'lgan arzimas masalalardan boshlanadi. Haqiqiy amaliy uchrashuvlar esa norasmiy vaziyatda o'tadi.

Gul o'stirish, ularni dasta qilib, bezash Yaponiyada alohida san'at turiga aylangan. Shu tariqa gullarni alohida bir-biriga uyg'un holda jo'r etib dastalash dunyoga mashhur ikebana san'atini dunyoga keltirdi. Shuning uchun biror xonadonga mehmonga borganda bekaga gul ko'tarib borishning hojati yo'q. Chunki uy bekasining o'zi mehmonlar sharafiga ikebana tuzib qo'ygan bo'ladi.

Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) muloqot madaniyati. Koreyslar – muomala qilish qiyin hamkorlar hisoblanadi. Ular bilan telefon qo'ng'irog'i yoki xatlar yordamida aloqa o'rnatish mumkin emas. Albatta vositachi orqali shaxsiy uchrashuv uyushtirilishi shart. Bu vositachi koreys biznesmeni qiziqtirgan shirkatni, uning qaysi yo'nalishda ishlashini, ushbu korxona rahbari va boshqa xodimlar maqomini tanishtirishga qodir bo'lishi kerak. Agar uchrashuv haqidagi iltimosga mujmal javob olingan bo'lsa, u holda vositachi ofisga kelishi kerak bo'ladi. Chunki u bu noaniqlikni uchrashuvga tayyorlik deb qabul qiladi. Koreyada shaxsiy munosabatda bo'lmasdan, shaxsan muloqot qilmasdan hech bir muammo hal bo'lmaydi. Bu mamlakatda Konfusiyning axloq haqidagi aqidalariga ko'ra ish ko'riladi. Konfusiy ta'limotiga ko'ra shaxslar aro munosabatlarda boshqa bir kishining tuyg'ulari, uning huquqlarini hurmat qilishni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Koreyslarga murojaat qilganda biror kishining ismi sharifini aytishdan oldin hamisha "mister" yoki "missis" so'zlari qo'shib aytiladi. Koreyslar xushmuomala, kirishimli, ochiq bo'ladilar. Shu tufayli, ular o'zlariga nisbatan ham shunday muomalani kutadilar. Ular mehmonnavozlikni joyiga qo'yadilar va mehmonlari sharafiga favqulodda iliq, behad dabdabali qabullar uyushtiradilar. Ular chet ellik ishbilarmonlar bilan yaqindan tanishgilari

keladi.

Koreya Respublikasining milliy bayrami – 15-avgust. Koreyada biror xonadon yoki restoranga borilganda ostonada poyafzalni yechib kirish kerak. Bu yerda tashrif qog'oziga katta ahamiyat beriladi. Tashrif qog'ozi o'ng qo'l bilan topshiriladi va o'ng qo'lda qabul qilinadi. Koreyslar har bir odamda tashrif qog'ozi bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar. Koreyslarning tashrif qog'ozlarida odatda avval familiya, so'ng ism yoziladi. Shuning uchun darhol suhbatdoshingizdan uning familiyasini bilib qo'yishingiz kerak. Koreys biznesmenlari hamisha mantiqiy izchillik va o'zaro munosabatlarda aniqlik bo'lishiga intiladi.Ular soddalikka moyil bo'ladilar va mavhum fikr-mulohazalarni yoqtirmaydilar. Koreys biznesmenlari o'zlarining takliflarini aniq ifoda etadilar, muammolarni hal qilish yo'llarini konkret ko'rsatadilar. Biror-bir masalada ular 133 hamkoriga ochiq gapirmaydilar va o'zlarining haq ekanliklarini isbotlamaydilar ham. Lekin koreys tomoni ijobiy qaror qabul qiladigan bo'lsa, zudlikda harakatga tushadi. Hamkorlarning javobgarlikni bo'yinlariga olib, qaror qabul qilishga huquqlari yo'qligi ularning hafsalalarini pir qilishi mumkin. Bordi-yu, koreys biznesmeniga sotib olgan tovari yoqsa va shaxsan ko'ngliga o'tirgan biznesmen ana shu tovarni unga sotgan odam bo'lsa, yanayam ma'qul tushadi. Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan tovarlar sifati deyarli jahonda eng yaxshilaridan sanaladi, narxi esa 20-30 foiz past yuradi. Mamlakat biznesining katta qismi oilaviy konglomeratda to'plangan. Koreyada chet elliklarga norasmiy munosabatda bo'lish odati yo'q. Koreyslarda "yo'q" so'zi qo'llanilmaydi.

Shartnomaga imzo chekayotganda qizil siyohli ruchkadan foydalanilmaydi. Janubiy Koreyada yuqori lavozimli mansabdorlar orasida qarindosh-urug' yoki do'st, tanish-bilishlar bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Bu mamlakatda lavozimlar va darajalarning qat'iy tizimi mavjud. Koreyslar mansabi yuqori va yoshi katta odamlar oldida chekmaydilar. Koreyada etiket masalalariga juda e'tibor beriladi. Koreyslarda chet elliklar bilan norasmiy muloqotda bo'lish odati yo'q. Koreyslar mehmonlar koreys madaniyati, tarixini bilgan odamlarni qadrlaydilar. Chet ellik odamning koreys madaniyatini bilishi va unga moslashishi juda qiyin. Protokolga muvofiq ishbilarmon odam libosi –

sipo kostyum (qoramtir bo'lsa yanayam yaxshi) oq ko'ylak, bo'yinbog' hisoblanadi. Ishbilarmon ayol xizmatda shim kiymaydi. Koreyaning milliy ramzi – Koreya yo'lbarsi tasviri sanaladi.

Xitoy muloqot madaniyati. Xitoylik hamkorlaringiz bilan muzokaralarni belgilashingizdan 3-4 hafta oldin bari jihatlarni ipidan-ignasigacha o'rganishlari uchun o'z takliflaringizni jo'natishingiz kerak bo'ladi. Chunki qarorlar ko'pchilik ovoz bilan bahamjihat qabul qilinadi. Tijoratga oid muzokaralarni olib borishning xitoycha uslubi ayrim bosqichlarga bo'linishi bilan farqlanadi. Bu uslub pozisiyalarni dastavval aniqlab olish, ularni muhokama qilish va yakuniy bosqichlarni bir-biridan aniq farqlash bilan izohlanadi. Amaliy tanishuv chog'i tashrif qog'ozlari almashiladi. Tashrif qog'ozining orqa tomonida xitoy tilida shirkat rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Xitoyda salomlashish vaqti qo'l qisishish odat tusiga kirgan. Bunday payt avval yanayam yuqori lavozimli shaxs qo'li qisiladi.

Muzokaralarning boshlang'ich bosqichida hamkorlarning tashqi qiyofasi va ularning muomala tarziga juda e'tibor beriladi. Shu asosda delegasiya har bir a'zosining mavqeini aniqlashga urinib ko'riladi. Ishda yanada yuksakroq mavqedagi odamlarga qarab mo'ljal olinadi. Xitoy ishbilarmonlari oxiri qarama-qarshi tomonga ta'sir ko'rsatish uchun o'zlariga xayrixoh bildirgan odamlarni ajratib oladilar. Aksariyat Xitoy tomoni tijoratda yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassisdirlar. Xitoy biznesi tajribali kadrlarga 134 egaligini aytib o'tish joiz. Ular bo'lg'usi ish haqida juda keng ma'lumotga ega bo'ladilar va muzokaralar chog'i o'zlari uchun foydali bo'lgan, ilgari tuzilgan shartnomalarga tayanadilar. Biznesda ayollarning huquqlari erkaklarniki bilan teng. Xitoyda biror xonadonga mehmonga boriladigan bo'lsa, uy bekasiga gul olib borish odati yo'q. Xitoylik hamkor tomonidan yakuniy qaror muzokaralar stoli atrofida emas, kamida 25 xil taom tortilgan uy dasturxoni yoki restoranda qabul qilinadi. Mehmon ana shu taomlardan oz-ozdan totib ko'rishi zarur. Taomlardan namoyishkorona bosh tortib bo'lmaydi. Mehmon dasturxondan birinchi bo'lib turadi.

Sovg'a-salomlar yakka shaxsga emas, balki butun tashkilot uchun qilinadi. 1-oktyabr – Xitoy inqilobi kuni. Rahbariyat erishilgan kelishuvlarni ma'qullashi shart. Xitoy tomoni ana shu kelishuvlarning

bajarilishiga katta ahamiyat beradi. Xitoyliklar qabul qilingan qarorlarni uzoq, chuqur o'ylab, mulohaza qilib ko'radilar. Qaror qabul qilingach, so'z, u xuddi qog'ozga bitilgan shartnoma singari kuchga kiradi.

Arab mamlakatlarida muloqot madaniyati

Arablar – xushmuomala odamlar. Deyarli barcha arab biznesmenlari inglizcha va fransuzcha gapira oladilar. Ularning tashrif qog'ozlari matni ingliz va arab tillarida yozilgan. 135 Arab mamlakatlarida chet ellik kishi biror ayolga savol yoki iltimos bilan murojaat qilishi mumkin emas. Bu odobsizlik hisoblanadi. Hamma amaliy aloqalar faqat erkaklar o'rtasida o'tkaziladi. Deyarli aksariyat arab ayollari amaliy ish doirasida hech qanday o'rinni egallamagan. Iroqda ayollar davlat muassasalarida rahbarlik lavozimlarida ishlab turibdilar. Eron, Pokiston, Suriya, Saudiya Arabiston, Ummon sultonligi, Sudanda ayollar biznesda hech qanday rol o'ynamaydilar. Birlashgan Arab Amirliklarida ayol kishi biznesda nazariy jihatdangina ishtirok etadi, amalda esa ayol kishi – juda kam ko'rinadi. Misrda ayollar biznes doirasida asta-sekin paydo bo'lmoqda, yana ular erkaklarga nisbatan tayyorgarliklari ko'proqligi ko'rinib turadi. Lekin bu erda hozircha ayol kishi biznesda kotiba sifatida ishlamoqda. Iroqda ayollarga qo'l uzatilmaydi va ko'zlariga qaralmaydi. Biznesda ayollar biror o'ringa ega emaslar. Arab biznesmeni an'anaga sodiq qolib, birinchi tanishuvda iltifotli bo'ladi. Keyingi uchrashuv, suhbat avvalgisidek samimiy o'tmasligi mumkin. Arablar uzil-kesil "ha" yoki "yo'q", demaydilar, balki "Alloh buyursa", "Alloh biladi" taxlit so'zlar bilan javob qaytaradi. Ularning xulqatvorlarida islom dini ta'siri kuchli bo'lib, bu jihat o'z-o'zidan muzokaralar jarayoniga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Misrda rahbarlik qilish usuli – patriarxal. Garchand muzokaralarda ko'p odam qatnashsa-da, bir kishi hamma masalani hal qiladi. Arab mamlakatlarida shakar solmasdan, ko'pgina kardamon (hil) bilan quyuq qahva ichadilar. Bir finjon qahva ichgach, mezbonga minnatdorchilik bildiriladi, mehmonga yana qahva quyiladi. Bu hol mehmon to bir qahva idishidagi qahvani ichib tugatmagunicha davom etadi. Bunday bo'lmasligi uchun mehmon o'z finjonini to'ntarib qo'yishi yoki uni uyoqdan-buyoqqa chayqashi kerak. Dasturxondan egulik faqat o'ng qo'lda olinadi, chap qo'l manfur hisoblanadi. Agar mehmon egulikni chap

qo'lida olguday bo'lsa, taom dasturxonidan yig'ishtirib olinadi. Qahva tortilishidan oldin muzday ichimliklar taklif qilinsa, bilingki, uchrashuv poyoniga etib qoldi. O'ng qo'l bilan tashrif qog'ozi beriladi, olinadi, pul yoki sovg'a uzatiladi. Yuqorida aytilganiday, mantiq chap qo'lni ishlatsangiz, suhbatdoshingizni xafa qilib qo'yishingiz mumkin. Etika va etiket qoidalariga muvofiq musulmonlar barcha amaliy munosabatlarni bir kunda besh marta namoz o'qish uchun to'xtatib turadilar. Milliy bayramlar, hayitlar sanalarida amaliy muzokaralar yoki amaliy qabullar tayinlanmaydi.

Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va vazirgi davrdagi shakllari

Uchinchi ming yillik davlatlararo, shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi, bir tomondan, jamiyat ma'naviy madaniyatining yuksalishi va ikkinchi tomondan uning tanazzulga yuz tutishi bilan boshlandi. Dunyo olimlari va davlat rahbarlari inson kamoloti omillari haqida fikr yuritar ekan, albatta ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirini oshishi odatga aylandi. Masalan, XX asr oxirida YUNESKO komissiyasining majlisida "Ommaviy madaniyat va ommaviy kommunikatsiya ikki asr oralig'idagi hodisa. Iqtisodiy nuqtai nazardan ularning shakllanishi yirik sanoat rivojlanishi oqibatida madaniyat sohasidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ldi. Natijada yirik sanoat ishlab chiqarishi paydo bo'ldi va axborot hamda madaniyat almashinuvi suratlari kuchaydi"[1] deb alohida ta'kidlangan. AQShning sobiq davlat kotibi Z.Bzejinskiyning "Agar Rim dunyoga huquqni, Angliya parlament faoliyatini, Frantsiya madaniyat va respublikacha millatchilikni bergan bo'lsa, Amerika ilmiy texnikaviy taraqqiyotni va ommaviy madaniyatni berdi"[2] degan fikrida ommaviy madaniyatning o'chog'i Amerika ekanligiga ishorani ko'rish mumkin.

Aslida ham vaziyat shundaymi? Biz keyingi yillarda qayta va qayta qoralayotgan "Ommaviy madaniyat"ning o'zi nima? Bu savollarga javob berish uchun insoniyat tarixiga murojaat etamiz.

[1] Материалы заседания комиссии по изучению проблем массовой коммуникации. Запрещенный доклад // Европа 1980. - С.25

[2] Brzezinski Z. Between two ages: America's role in the technetronic era. N.Y., 1978. P. 90

Ommaviy madaniyat-o'zining soddaligi va murakkabligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi ekran madaniyati, kompyuter texnologiyalari rivojlangan davrda ommaviy madaniyatning asl mohiyatini ijtimoiy tahlil qilish, bilish va tegishli xulosa chiqarish maqsadga muvofiq. Zero, ommaviy madaniyatning shakllanishi uchun insoniyat tarixining dastlabki davrlaridan boshlangan. Odamlarning qabilalardagi birgalikdagi o'yinlari, turli tomoshalar pul-tovar munosabatlarigacha shakllangan va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning vositasi sifatida amal qilgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda diniy urf-odatlar yoki sport o'yinlari bilan bog'liq turli ommaviy marosimlar tashkil etilgan. Xususan, Afina shahri Xudosi sharafiga olov bilan yugurish, ot choptirish, musiqa va sport musobaqalari uyushtirilgan. Bu marosimlarda davlatning qudrati namoyish etilgan. Yunonlar bu bayramlarda aholining turli qatlamlari ishtirokini ta'minlagan. Qadimgi Rimda esa, bu tadbirlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. Respublika davrida yiliga yettita xalq bayramlari o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik bu bayramlar soni 175 taga etgan, ulardan 10 tasi bo'lsa, keyinchalik bu bayramlar soni 175 taga etgan, ulardan 10 tasi gladiatorlar o'yini, 101tasi teatr sahnasidagi spektakllar, 64 tasi sirk o'yinlarida o'z ifodasini topgan[1].

Amfiteatrda Rimdagi eng mashhur gladiatorlar o'yinlari o'tkazilgan. Unda dastlab uchta, so'ng 22 ta, 25, 60 ta juftliklarning o'zaro kurashi jarayonida bir-birini o'ldirishidan huzurlangan ommaning jazava bilan "o'ldir", "ur", - deb baqirishi ommaviy ongsizlik darajasidagi ommaviy madaniyatning birinchi ko'rinishi bo'lib, bunda odamzod axloq normalaridan chekinib, gladiatorlarning o'lim oldi tulvasasidan huzurlangan. Tomoshani yanada qiziqarliroq o'tkazish uchun rimliklar sahnani mavzuga oid dekorasiyalar bilan bezagan va eramizdan oldingi 202-yildayoq harakatlanuvchi sahna dekorasiyalari paydo bo'lgan. Masalan, sahna bir lahzada katta kemaga aylanishi yoki u yo'qolgandan keyin er ostidan sherlar chiqib kelishi, yoki suvga to'lib unda tinsohlar paydo bo'lishi odatiy holga aylangan. Shu bilan qadimgi yunonlar ommaviy tomoshalarga asos solgan. Bunda ishtirokchi va tomoshabinlar orasidagi masofa kichik bo'lgan, rimliklar esa buyumlarni ommaviy emasga aylantirgan.

O'rta asrlarda qadimgi davr ommaviy madaniyati tahdidiyligi

[1] Сергеева Л.Н. Массовая культура. - Минск: Изд-во, 2003. - С.10

darveshlik, quvnoqlik va ommaviy bazmlar bilan almashadi. O'rta asrlardagi bazmlarda jonglerlar, musiqachilar va qo'shiqchilar, akrobatlar va raqqosalarning o'yinlari bilan boshlangan va tarixiy qo'shiqlar bilan yakunlangan. Shuningdek O'rta asrlarda risarlarning janglari uyushtirilgan, gladiatorlar jangidan farqli o'laroq bu janglarda aslzodalar ishtirok etgan. Shaharlarning rivojlanishi bilan bu o'yinlar yanada qizg'inroq tashkil etilgan. Bu davrdagi o'yinlar bir tomondan diniy ruhda bo'lsa, ikkinchi tomondan belgilangan qoidalar chizig'idan chiqishga harakat qilingan. Masalan, Shekspirning Qirol Lir asaridagi voqealarda masxarobozning doimiy ishtiroki va bazmlar bu davrdagi ommaviy madaniyatning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Uyg'onish davridagi ommaviy madaniyat go'zallikka e'tibori bilan ahamiyatlidir. Me'morlar, haykaltaroshlar, rassomlarning asarlariga buyuk ijod mahsuli sifatida yondashuv shakllangan. Reallik va illyuziya o'rtasidagi chegara asta-sekinlik bilan yo'qola boshlagan, barcha asarlar huzurlanish kayfiyatini uyg'otish uchun yaratilgan, masalan ayol va erkaklarning yalang'och tanasining san'at asarlaridagi ifodasi).

1789-yildagi buyuk fransuz inqilobi ijtimoiy hayotga ta'sir etmay qolmadi, bu odamlar dunyoqarashida yangi tipdagi ommaviy madaniyatning shakllanishiga olib kelgan. Inqilob syujetlarni erkin tanlash huquqini bergan. XVIII asrning badiiy hayotida san'at sohasida bozor munosabatlarining shakllanishiga turtki bo'lgan ijtimoiy institut – Akademiya paydo bo'lgan. Akademiyada doimiy ko'rgazmalar tashkil etilgan, rassomlar ilgari faqat buyurtma asosida asarlar yaratgan bo'lsalar, endilikda ommaga yoqishi mumkin bo'lgan asarlarni yaratishi lozim bo'lgan. Akademiya faoliyati haqiqiy san'at asarlari va soxta asarlar orasidagi farqni aniqlash vazifasini bajargan.

XIX asr boshlarida mehnat sharoitlari, axborotni etkazish usullari turmush tarzi o'zgargan. Yevropadagi industrial inqilob natijasida qo'l mehnati o'rnini mashina, ustaxonalar o'rnini fabrikalar egallagan, urbanizasiya jarayoni faol rivojlangan. Jadal sur'atlarda qishloq aholisi shaharlarga ko'chib o'tishi boshlangan. Dunyoni idrok etish va unda o'z o'zini his qilish o'zgargan. San'at asarlariga ehtiyoj ustivorlik qila boshlagan. XIX asr oxirlarida noyob qo'l mehnati mahsullari o'rnini ommaviy mahsulot egallagan. Va pirovard natijada XIX asr oxiri va

XX asr boshlarida modern uslubining barcha sohalardagi hukmronligi boshlangan. Xususan, texnika sohasida D.Uattning par mashinasi (1784), D.Fultonning paroxodi (1807), R.Steffensonning parovozi (1814), axborotni yetkazish vositasi sifatida Ch.Uinston va S.Morzening telegrafi (1840), radioning (1850) yaratilishi ommaviy madaniyatning keng qamrovli tarqalishiga zamin yaratgan.

XX asr insoniyat taraqqiyotida yangi davr va yangi munosabatlarni boshlab berdi. Birinchi va Ikkinchi Jahon urushi yangi texnika vositalarini yaratish va ulardan ommaviy foydalanishni taqozo etdi. Aynan shu asrda Yevropada Gabriel Shanelning (Koko Shanel) ayollar yurishlarida qulaylik yaratish uchun mutlaqo yangi andozadagi kiyimlarni yaratishi va Sharqda paranji tashlash g'oyasi bilan boshlangan ommaviy jarayon ularning ta'lim olish, mehnat qilish uchun o'z huquqlarini himoya qilishida davom etdi. 1918-yilda Azarbayjonda ayollarning saylash huquqi qonun bilan belgilanishi, asrlar davomida ayollar haq huquqlarining kamsitilishiga qarshi yo'nalgan birinchi qadam bo'ldi.

XX asrning 60-yillarida ijtimoiy hayotdagi bir xil sokin hayot normalari asta-sekinlik bilan barcha sohalarda o'zgara boshladi. Xususan, Angliyaning Liverpul shahrida Bitlz, AQShda Elviz Pristli, 70-yillarda O'zbekistonda Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Farrux Zokirov va boshqalar san'at sohasiga yangi ruh olib kirdilar. Birinchi vokal instrumental ansambllari tashkil etildi. 1982-yilda lazer disklarining yaratilishi ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirdi. Dunyo bo'yicha video va musiqa kassetalari, turli ochiq jurnallar, plakatlar, albomlar tarqala boshladi. Hozirgi davrgacha lazer disklaridan foydalanuvchilarining soni 200 milliarddan oshdi. XX asrning 60-70-yillaridan dunyoda kiyinish madaniyati o'zgardi, odamlarning milliy liboslar o'rniga zamonaviy bichimdagi kiyimlarga ixlosi ortdi. 70-yillarda xippilar, 80-90-yillarda panklar, rokkerlar, 2000-yillarda emmolar noan'anaviy liboslar bilan o'z g'oyalarini targ'ib qila boshladilar.

1991-yilda internetning (O'zbekistonda 1997-yildan foydalanilishi boshlangan) 2001-yilda aypetning yaratilishi dunyoning cheksiz uzoq masofasini soniyalar darajasida yaqinlashtirdi. Hozirgi kunda Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va undan foydalanuvchilar ommaviy madaniyatning ochiq targ'ibotchisiga aylandilar. Demak, ommaviy madaniyat XIX

asrning oxiri yoki XX asrda paydo bo'lgan degan fikr muayyan ma'noda yangilishish hisoblanadi.

Ommaviy madaniyat tushunchasi mohiyati va hozirgi davrdagi shakllari

Ommaviy madaniyat tushunchasi XX asrning 30-yillarida paydo bo'lgan va 1944-yilda D. Makdonaldning "Ommaviy madaniyat nazariyasi" nomli asarida birinchi marta ilmiy izohlangan. Yuz yil davomida ommaviy madaniyat hodisasiga ijtimoiy-siyosiy, psixologik, estetik, nazariy va mafkuraviy nuqtai-nazardan baho berishga harakat qilingan. Ba'zilar omma foydalanishni mo'ljallagan badiiy madaniyatni ommaviy san'at, tijorat madaniyati, ong industriyasi, bozor madaniyati bilan bog'lagan. Kanadalik sotsiolog olim Mak-Lyuen fikricha "Ommaviy madaniyatni industrial odamning folklori", fransuz olimlari A.Moren va A.Byurjelon fikricha ommaviy madaniyat insoniyat tarixidagi total estetik madaniyatdir.

Ommaviy madaniyat deganda odatda ommaviy ishlab chiqarishga mo'ljallangan san'at asarlari ko'zda tutilgan. Abadiyot ensiklopediyasida "Ommaviy madaniyat bu ko'p martalik ishlab chiqarish va ko'pchilikning nafaqat ehtiyojini qondirishga, balki bu jarayonni tashkil qilishni qamrab oladi".[1] Ommaviy madaniyatga baho berilganda uning xronologik, son parametrlari va kommunikasion yetkazish usuli ko'zda tutilgan. Fransuz sotsiologi Jorj Fridman fikricha "ommaviy madaniyat ehtiyojlarning qondirilishiga yo'nalgan barcha yaxshi narsalardir"[2]. Ommaviy madaniyatni unga xos belgilar orqali aniqroq tasavvur qilish mumkin. Ommaviy madaniyat marginal madaniyat; asosida ko'rgazmalilik yotgan madaniyat; dilxushi; universal til xos bo'lgan madaniyat tipi; karnaval madaniyati; reallik doirasidan chiqish illyuziyasini beruvchi madaniyat; ommaviy ishlab chiqarish; individul muloqot illyuziyasi; suniy madaniyat va x.k sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy madaniyat bu nafaqat film va musiqa, adabiyot va tasviriy san'at va ommaviy axborot, balki turmush tarzidir. Ayniqsa XX asrda u keng rivoj topdi. Undan voz kechish yoki qochib qutulish mumkin emas.

[1] Литературный энциклопедический словарь. –М. 1987. – С 213
[2] Friedman J. Enseignement et culture de mass. –Paris. 1962. –P.3/

Kompyuter asrida ommaviy madaniyat o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Turmush tarzi sifatidagi ommaviy madaniyat ijtimoiy makonni to'liq qamrab oladi: bu bizning suhbatlashish madaniyatimiz, shaxslararo munosabatlar tipi, eshitayotgan qo'shiqlarimiz mazmuni, dam olish madaniyatimiz va boshqa barcha hayotimiz bilan bog'liq jarayon. Ommaviy madaniyat an'anaviy turmush tarzini to'liq o'zgartiradi.

Ommaviy madaniyat ta'sirida an'analar va ularga munosabat o'zgaradi. An'ana buzilishi mumkin bo'lmagan qonun yoki hayot me'yorlari bo'lib u obyektlar orasida muayyan masofani shakllantirgan. Masalan, insoniyatning tabiatga, erga, oilaga munosabatlari o'zgarib borgan. An'analarning buzilishi, munosabatlar me'yorining buzilishiga tabiiylikning kamayishi va sun'iylikning ortishiga olib keladi. Masalan, ilgari qo'shnilarning munosabatlarida tabiiylik ustivor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda u soxta mulozamat bilan almashmoqda.

Tabiiylikning kamayishiga texnika taraqqiyoti ta'sir etadi. An'analar yangi noan'naviy munosabatlarning uyumida yo'qolib ketadi.

Ommaviy madaniyat ko'pchilikning kamchilikka ergashishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy madaniyat va omma uchun madaniyat tushunchalaridagi farqlarni tushunish muhim ahamiyatga ega. Bu tushunchalardagi umumiylik tushunarlilik bilan izohlanadi. Omma uchun madaniyat sovet davridagi xalq uchun san'at g'oyasi bilan hamohang. Ommaviy madaniyat esa tovar pul munosabatlarining tarkibiy qismidir. U imidjni shakllantiradi. Omma uchun madaniyat ijtimoiy psixologik targ'ibotning tarkibiy qismi. U ommaviy ijtimoiy muhit talablariga javob sifatida amal qiladi. (masalan sovet davridagi fabrikalardagi ayollarning uniformasi). Har ikki holatda ham umumiy jamoa e'tiborini jalb qilish maqsadi yotadi.

Aksilmadaniyat XX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Aksilmadaniyat tushunchasi XX asrning 60-yillarida amerikalik sotsiolog T.Rozzaku tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Aksilmadaniyat ommaviy jarayon bo'lsada, u tom ma'noda ommaviy madaniyat bo'la olmaydi. Aksilmadaniyat xippi va panklar faoliyati bilan bog'liq rok musiqada o'z ifodasini topadi. Aksilmadaniyat asosini mavjud an'anaviy voqelikka qarshilik tashkil etadi. Aksil madaniyatning vatani

Kaliforniyadir. Aksilmadaniyat "Men boshqalarga, ularga qarshi" asosiy g'oyasini va axloqiy pozisiyani himoya qiladi. Aksilmadaniyat shok holatini ustivor biladi, u qancha ko'p mavjud axloq normalari chegarasini buzsa, shuncha huzurlanadi. XX asrning 70-yillarida rok-estradada o'z ifodasini topgan aksilmadaniyat bilan panklar va metalistlar harakati boshlandi. Bu harakat vakillarining qarshiligi musiqada emas, balki xulq atvorda namoyon bo'lgan. Turli ranglarga buyalgan sochlari, har xil taqinchoqlar bilan aksilmadaniyat vakillari odamlarga hujum qilishi, ularni qo'rqitishi va bu bilan o'zini qanoatlantirishi mumkin bo'lgan. XX asrning oxirida yoshlarning rok madaniyatida namoyon bo'lgan aksil madaniyati o'z kuchini yo'qotdi.

Submadaniyat tushunchasi turli xalqlarning turmush tarzi, an'analarini o'rganishga mo'ljal olgan. XVIII-XIX asrda shakllangan mintaqaviy, lokal madaniyatlar submadaniyat deb nom olgan. Submadaniyat aksilmadaniyat kabi agressiv xarakterga ega emas, biroq unda o'zining yaxlitligini saqlashga moyillik kuchli. Submadaniyat doimo umumiylikka tayanadi, mavjud qoidalar tizimidan chiqa olmaydi, submadaniyat vakillarini umumiy kiyim, yosh birlashtirishi mumkin. Submadaniyatda uni boshqa madaniyatlardan farqlovchi jihatlar aniq ko'zga tashlanadi. Submadaniyat o'zini bir-biridan va ommaviy madaniyatdan o'zini himoya qilishi mumkin. Ularda o'ziga xos ustivor maqsadlar, urf odatlar amal qiladi. (Masalan lo'lilar turmush tarzi submadaniyatga misol bo'la oladi).

Hozirgi sivilizatsiya davrida submadaniyatlarning dialogi faollashdi, chunki asrlar oralig'ida odamlarning o'zligini saqlashga moyilligi oshdi. Ommaviy madaniyat submadaniyat elementlari bilan birlashdi. Bunday vaziyatda populyar (mashhur) madaniyat faollashadi.

Populyar (mashhur) madaniyat – omma tomonidan qabul qilinishi muayyan davrda keng tarqalishi mumkin bo'lgan madaniyat. Bu madaniyat ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. Biroq geografik belgilariga ko'ra ommaviy madaniyat populyar madaniyatga nisbatan keng tushuncha. San'at nuqtai nazaridan ommaviy madaniyat tijorat maqsadlarini ko'zda tutadi. XX asrning 70-yillarida "Mahallada duv duv gap", "Yor-Yor", "Uchrashuv" kabi filmlar ommaviy auditoriya uchun ommaviy kino hisoblangan. Biroq u

ommaviy madaniyat bo'la olmaydi. XX asrning 90-yillarida S.Spilbergning "Yurskiy davri parki" filmi haqiqiy ommaviy madaniyatning namunasidir. Chunki, filmning sur'atga olinish jarayonining reklamasi, film qahramonlari sur'atlari tushirilgan maykalar, kepkalar, krujkalar znachoklarning sotilishi tom ma'noda tijorat maqsadlariga yo'nalgan.

Ommaviy madaniyat faol, u chegara bilmaydi, populyar madaniyat esa chegaralangan. Masalan, XX asrning 80-yillarida Yulduz Usmonovaning estradasi populyar madaniyat hisoblansa, 90 –yillarda sof ommaviy madaniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu Yulduz Usmonovaning ilgarigidan yaxshi qo'shiq aytganini ifodalamaydi. Uning ijodi ommaviy axborot vositalarida doimiy yoritila boshladi, turmushga chiqgani, ajralgani, va yana turmushga chiqishi, qizining turmushga chiqishi va ajralishi ommalashib ketdi va bunda axborot kommukasiya vositalaridan unumli foydalanildi. Populyar madaniyat siyosiylashmaydi.

Aksilmadaniyat, submadaniyat va populyar madaniyat tushunchalari o'rtasida farqlar bor. Biroq ularning hammasi turli vaziyatlarda ommaviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'la oladi.

Ekran madaniyati - ommaviy madaniyatining tarkibiy qismi, uning asosiy targ'ibotchisi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida "ekran" tushunchasi paydo bo'ldi. XX asr davomida u yangi mazmun bilan boyib bordi. Ming yillar davomida bilim yetakchisi va targ'ibotchisi kitob bo'lsa, XX asrda kitob sahifalaridagi bilim ekranga ko'chdi. Ekran madaniyatining dastlabki bosqichi kino bilan bog'liq. Kino odamlarga voqealarni harakat bilan ifodalash istagini qanoatlantirish maqsadida paydo bo'ldi. Hozirgi kundagi ekran madaniyati internet tarmog'i, axborot kommunikasiya vositalarida to'liq namoyon bo'lmoqda. Imo, skayp LZUUM va boshqalar shular jumlasidandir.

Ommaviy madaniyat va ommaviy madaniyatsizlik tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Ommaviy madaniyatsizlik eng xavfli kuchga ega. U jamiyatning bir guruh a'zolari emas, balki ko'p sonli odamlar guruhini qamrab oladi, u aql bilan emas balki ommaning umumiy ta'sir kuchi bilan boshqariladi. (Masalan, 2017-yil 8-sentyabrda Toshkentda Ginnes kitobi uchun tayyorlangan palov pishirish jarayoni, yoki Bunyodkor stadionidagi futbol o'yini jarayonida to'p ortidan quvish ommaviy

madaniyatsizlikning yorqin misoli bo'la oladi).

Xulosa. Madaniyat inson faoliyati bilan uzviy bog'liq. Uning taraqqiyoti madaniy-tarixiy ijodda individ va ijtimoiy guruhlar ishtiroki bilan belgilanadi. Sivilizatsiya o'z-o'zini quvvatlovchi o'zgarmas jamiyat, ijtimoiy statika manbai. Madaniyat – ijtimoiy dinamika manbai, u tarix talabiga javob berish va ijtimoiy o'zgarishlarga zamin yaratishga qodir shaxslarni shakllantiradi, ayni vaqtda, o'zi ham mazkur shaxslar tomonidan shakllantiriladi.

Tajribaviy amaliy matnlar

Jamiyat, ijtimoiy falsafa, madaniy-tarixiy tiplar, ijtimoiy-madaniy tizimlar, mehnat, iqtisodiy kichik tizim, ijtimoiy ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish, mulk, ma'naviy kichik tizim, axborot va kommunikasiya, individual va ijtimoiy ong, mafkura, ijtimoiy kichik tizim, etnik birliklar, institutlar, hududiy guruhlar, ijtimoiy makon, siyosat, sivilizatsiya, madaniyat, madaniy universaliyalar.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xantingtonnig sivilizatsiyalar to'qnashuvi kitobi bo'yicha esse tayyorlang

2. Yevropa sivilizatsiyasi chindan ham sivilizatsiyaning oliy shakli hisoblanadimi, u butun insoniyat rivojlanishiga yo'l ko'rsatishga qodirmi?

3. Madaniyat nima? Uning sivilizatsiya bilan aloqasiga tavsif bering.

4. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixini asoslang?

5. Shenglerning Evropaning halokati asari bo'yicha esse tayyorlang

6. Madaniyatning funksiyalarini sanang va amal qilish mexanizmlarin asoslang

7. Madanyi kommunikasiyalarni tasniflang

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



Bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari

1. Madaniy tarixiy tiplar nazariyasi qachon vujudga keldi?

A) XIX asr da

B) XVII asr da

C) XVIII asr da

D) XX asr da

2. "Madaniy tarixiy tiplar" tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

A) N.Y.Dostoevskiy

B) P.A.Sorokin

C) Gegel

D) T.Kun

3. Qaysi olim jamiyatni gorizontal vertikal yo'nalishlar va fluktuasiya tarzida murakkab xarakterda bo'lgan ijtimoiy madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtai nazaridan tavsiflagan?

A) P.A.Sorokin

B) O.Shpengler

C) A.Toynbi

D) Danilevskiy

4. "Materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas", ushbu so'zlarning muallifini toping?

A) I.Kant

B) Diltey

C) K.Marks

D) Xaydegger

5. Insoniyatning paydo bo'lishida asosan qaysi omillar rol o'ynagan ?

A) Mehnat va burro nutq

B) Iqtisod

C) Ehtiyoj

D) Din

6. Ekran madaniyati..

A) Ommaviy madaniyatining tarkibiy qismi, uning asosiy targ'ibotchisi.

B) Ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar

C) Omma tomonidan qabul qilinishi muayyan davrda keng tarqalishi mumkin bo'lgan madaniyat

D) Shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi.

7. Popular madaniyat nima?

A) Omma tomonidan qabul qilinishi muayyan davrda keng tarqalishi mumkin bo'lgan madaniyat

B) Omma tomonidan qabul qilinishi muayyan davrda keng tarqalishi mumkin bo'lgan madaniyat

C) Ommaviy madaniyatining tarkibiy qismi, uning asosiy targ'ibotchisi.

D) Ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar

8) Endogenlik nima ?

A) Madaniyatning mohiyati, uning tizimli birligi ichki tamoyillarning mushtarakligi bilan belgilanganini anglatadi.

B) Ajdodlar tomonidan yaratilgan va har bir jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayoniga kiritilgan qadriyatlar majmui.

C) Omma tomonidan qabul qilinishi muayyan davrda keng tarqalishi mumkin bo'lgan madaniyat

D) Barcha javoblar noto'g'ri.

9) Madaniyat o'zagi nima ?

A) Madaniyatning nisbatan barqarorligi va yashovchanligini kafolatlovchi tamoyillar tizimi.

B) Etnomadaniyat negizini millatning moddiy va ma'naviy merosi.

C) Ommaviy madaniyatining tarkibiy qismi, uning asosiy targ'ibotchisi.

D) Barcha javoblar noto'g'ri.

10.Madaniy komunikatsiya bu ...

A) Madaniyatning nisbatan barqarorligi va yashovchanligini kafolatlovchi tamoyillar tizimi.

B) Madaniyat boyliklaridan foydalanish ularni o'zlashtirishni, ya'ni shaxs va jamiyatning ma'naviy hamda amaliy Mulki

C) Mazmun va mohiyatini anglab yetish borasidagi ilk urinishlar.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

Adabiyotlar

1. Бердяев Н.А. Смысл истории. -М.: 1990.
2. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. -М.: 1993.
3. Гумилев Л.Н. История людей и история природы. -М.: 1993.
4. Каган М.С. Философия культуры. СПб., 1996.
5. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. -М.: 1992.
6. Тойнби А. Постижение истории. -М.: 1991.
7. Ясперс К. Смысл и назначение истории. -М.: 1991.
8. Прокофьева Г.П. Становление категории "Цивилизация" как универсалной единицы анализа исторического процесса: диссертация кандидата философских наук : 09.00.11. -Хабаровск. 2001.
9. Ochildiev A. S. Madaniyat falsafasi. T.: Muxarrir. 2010.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T: Sharq. 1998.
11. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
12. Саенкова Л.П. Массовая культура. - Минск: БГУ. 2003. Год.
13. Nurmatova M.A. Axloqiy va estetik madaniyat. T.: 2005
14. Nishonova O. Etnomadaniyat. T.: 2023

8-MAVZU. TARIX FALSAFASI

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar

Har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini jamiyat rivojlanish jarayoniga bog'lab, ya'ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan muqarrar tarzda butun insoniyat tarixiga tegishli bo'lgan savollar kelib chiqadi: tarixiy rivojlanishning biron-bir maqsadi mavjudmi: jahon tarixi qaysi yo'nalishda harakatlanadi: tarix biron-bir muayyan mazmunga egami? Bu savollarning barchasiga falsafaning «tarix falsafasi» degan nom olgan bo'limi javob beradi. Hozirgi darsliklarda tarix falsafasining predmetini, uning tuzilishi va funksiyalarini yoritishga lozim darajada e'tibor berilmaganini hisobga olib, mazkur bo'limni ayni shu muammolarning tahlilidan boshlaymiz.

Bilimning integral shakli sifatida falsafa jamiyat, tarix va inson haqidagi muayyan ilmiy tasavvurlarni sintez qiladi. U gumanitar fanlar – psixologiya, san'atshunoslik, semiotika, san'atga murojaat etadi. Tarix falsafasining asosiy vazifalaridan biri – o'zgaruvchan va murakkab ijtimoiy dunyoda hayot mazmuniga doir mo'ljallarni topish, insoniyat mavjudligining har bir muayyan davrida uning oldida turgan ustuvor vazifalarni belgilash. Har bir inson va kishilik hamjamiyati hayotining burilish davrlarida uning oldida hayot mazmuni nimada degan savol ko'ndalang bo'ladi.

Qadimgi faylasuflarning asarlarida tarixning mazmun va mohiyatini anglab yetish borasidagi ilk urinishlarga duch kelish mumkin. Ularning talqinida tarix oldinma-ketin yuz beradigan voqealar majmui sifatida namoyon bo'lgan. Tarix tavsifi ancha to'liq bo'lgan, ba'zan bo'yab ko'rsatilgan, lekin ularning hikoyatlari tarix haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini bermagan, bu narrativ tarix bo'lib unda tarixchining talqini, interpretasiyasi bo'rtib namoyon bo'ladi. Keyinchalik qadimgi faylasuflar tarixni uzluksiz takrorlanib turadigan jarayonlar, «abadiy ortga qaytish» (F.Nitsshe) sifatida tasavvur qilganlar.

Diniy an'ana tarixning butunlay boshqacha talqinini taklif qildi. O'rta asrlarda ilohiy taqdir asosiy tarixiy kuch sifatida e'tirof etildi. Tarixiy voqealarning ichki mantiqi alohida mazmun kasb etdi: Xudo nafaqat tarixiy jarayonni boshqaradi, balki adashgan insoniyatga gunohlardan forig' bo'lish, jannatdagi boqiy hayotga erishish yo'lini

ko'rsatadi. Avreliy Avgustin o'zining ilohiy shahar haqidagi asarida boqiylik va muvaqqatlik, ilohiylik va dunyoviylikning birligi to'g'risida so'z yuritadi. Uning fikricha, Iso Masih insoniyatga boqiylik sari yo'l ko'rsatgan. Tarixning mazmuni — boqiylikka eltuvchi yo'ldan borishdan, inson hayotining mazmuni esa — Xudoga xizmat qilish, gunohlardan forig' bo'lishda.

Ibn Xaldun tarixning mazmunini inson borlig'ining mazmuni kabi, tarix rivojiga muvofiq ravishda o'zgarib borishini qayd etadi. Ammo, *tarix rivojidan kelayotgan murakkablikni qayd etadi.* Ammo, tarix rivojiga qaramay, tarixning mazmuni haqida "cheklilik", "ijod" shunga qaramay, tarixning mazmuni haqida "cheklilik", "ijod" tushunchalariga tayanib so'z yuritish mumkin, deb hisoblaydi. Tarixning harakatida Ibn Xaldun ob'yektivlashuvning inson ustidan hukmini kamaytiradigan, uning erkinligi va ijodining tantanasini qaror toptiradigan jarayonlarni aniqlashga harakat qiladi.

Tarixda mazmunning mavjudligi haqidagi tasavvur, shuningdek, O'rta asrlar falsafasi ilk bor to'planib bergan insoniyatning taraqqiyoti g'oyasi ancha yashovchan bo'lib chiqdi: u turli yo'nalish va oqimlarga mansub faylasuflar tomonidan muayyan falsafiy ta'limotlar nuqtai nazaridan u yoki bu tarzda talqin qilingan. Masalan, Ma'rifat davrida barcha tarixiy voqealarga oqilonalik mezoniga muvofiq baho berilgan. Mazkur konsepsiya eng mukammal ko'rinishda D.Didro tashabbusi bilan yaratilgan «Ensiklopediyaning faol ishtirokchilaridan biri, fransuz ma'rifatchisi Nikolay Kondorse asarida o'z aksini topgan. U o'zining «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasiga chizig'i» deb nomlangan risolasida kishilik jamiyatining barcha jabhalariga tafakkurning kirishi g'oyasini mazkur jamiyat rivojlanishining uzoq istiqbolli sifatida asoslashga harakat qiladi.

Tafakkurning tantanasi g'oyasi insoniyat tarixining mazmuni sifatida Gegel tomonidan ham asoslangan. U tarixga mutlaq ruh, dunyoviy Aql taraqqiyoti sifatida yondashgan. Gegel fikriga ko'ra, mazkur taraqqiyot o'zining alohida vazifasini ado etishi lozim bo'lgan ayrim xalqlar milli orqali amalga oshadi. Uning fikricha, tarixiy jarayon «aqlga muvofiq», ya'ni tasodiflar yoki ayrim shaxslarning o'zboshimchaligidan qat'iy nazar, o'ziga yo'l ochadigan ob'yektiv qonuniyatlar bilan belgilanadi. Gegel "Tarixning mazmuni mutlaq ruh o'zini o'zi anglab yetishidadir", deb qayd etadi.

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi keyingi izlanishlar amalda muayyan ijtimoi tajribasini ajratishga tarixning mazmuni haqidagi tasavvurlarning ko'rinishlari hisoblanadi. Idealning mazmuni har xil, hatto qarama-qarshi bo'lishi mumkin: texnokratik illyuziyalar, ommaviy iste'mol jamiyati ideali, axborot jamiyati ideali, xususiy mulk va ekspluatatsiyasiz umumiy tenglik jamiyati va h.k. Tarixning mazmunini aniqlash yo'lidagi izlanish rang-barang ekanligiga qaramay, uning har bir talqini aholi muayyan qismining orzu-umidlariga mos. "Tarixning mazmuni" tushunchasining eng teran talqinlarini XX asr faylasuflari K.Yaspers taklif qilgan. U jahon tarixining mazmunini davrlarning umuminsoniy aloqalarga asoslanadigan mazmun jihatidan bog'lanishida ko'radi. Mazkur bog'lanishning mavjudligini tarixning mazmunini aks ettiradigan dunyoviy vaqt o'qi kafolatlaydi. U Sharq va G'arb madaniyatlarining umumiy asosi hisoblanadi. K.Yaspers jahon tarixida tillarning vujudga kelishi, mehnat qurollari ixtiro qilinishi, olovdan foydalanishga kirishilishi kabi to'rt bosqichni farqlaydi. Vaqt o'qining boshlanishi Misr, Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Markaziy Osiyo, Eron buyuk madaniyatlari deyarli bir vaqtda vujudga kelgan miloddan avvalgi 800 va 200 yillar oralig'idagi davrga mos keladi. Yevropada fan-texniku davrining boshlanishi mazkur madaniyatlarning davomi (ma'lum ma'noda esa olamning ziddi) bo'lgan. To'rtinchi bosqichda insoniyatning birligi vujudga keladi. Bu davrda jamiyat insonga munosib bo'lgan asos va tamoyillarga muvofiq rivojlanadi. Totalitarizmdan butunlay voz kechishga asoslangan huquqiy davlat mazkur birlikning kafili hisoblanadi.

Tarixning mazmuni — umuminsoniy madaniyat va vaqt o'qining avvalida shakllangan an'analarni saqlash va rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda jamiyatning globallashuvi munosabati bilan tarixning mazmunida sivilizatsiyalar va xalqlar aloqasini, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni qaror toptiradigan, ajdodlarimiz ma'naviy merosini saqlash va ko'paytirishni, kerakli avlodlarning erkinligi va ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan qadriyatlar tizimiga qarab mo'ljal oluvchi g'oyalar yana muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XIX asrda falsafadan sotsiologiya ajralib chiqa boshladi. Mazkur fan jamiyatni tushunishga nisbatan falsafiy yondashuvlarni tan oladi, ayni

vaqtda, o'z predmeti va tadqiqot metodlariga ega.

O.Kont (1798-1857) ijtimoiy tadqiqotlarning ob'yektivligiga erishish lozim, degan g'oyani himoya qilgan. U sotsiologiya faninig asoschisi, uning fikricha sotsiologiya ikki qismdan iborat: birinchi qism ijtimoiy statikani, ya'ni ijtimoiy tizimlarning mavjudlik shartlari va ularning amal qilish qonunlarini, ikkinchi qism esa ijtimoiy dinamikani, ya'ni jamiyatning rivojlanish va o'zgarish qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy statika – odam organizmining tuzilishiga o'xshab ketadigan jamiyat «anatomiyasi»dir. O.Kont jamiyatda oila, din, davlat kabi muhim institutlarni farqlaydi. U jamiyat rivojlanishining uch bosqichini farqlagan va bu bosqichlar insoniyat aqliy rivojlanishining teologik bosqich (u qadimgi davr va ilk O'rta asrlarni qamrab oladi, XIII asrda tugaydi), metafizik bosqich (XIV-XVIII asrlar) va pozitiv bosqichiga (XIX asrda boshlanadi) mos keladi:

Marksizmning asoschilari K.Marks (1818-1883) va F.Engels (1820-1895) jamiyatni o'z-o'zidan rivojlanadigan, iqtisodiy rivojlanishning bir bosqichidagi barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan o'ta murakkab tizim sifatida tavsiflaydi. Jamiyatning ziddiyatli birlikni tashkil etadigan barcha tarkibiy qismlari moddiy ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Mazkur munosabatlar majmui bazisni, ya'ni jamiyatning iqtisodiy negizini tashkil etadi. Shu asosda jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar amal qiladigan muayyan-tarixiy tipi shakllanadi. Jamiyatning umumiy iqtisodiy asosda shakllanadigan va «alohida, o'ziga xos xususiyat»ga ega bo'lgan tipini K. Marks ijtimoiy-iqtisodiy formasiya, deb belgilaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalarning o'zgarishiga K.Marks pirovard natijada ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining dialektikasi bilan belgilanadigan qonuniy-tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaraydi.

G.Spenser (1820-1903) jamiyatga individlar birlashmasi sifatida yondashadi. Mazkur individlarning rivojlanishidagi farqlar jamiyat evolyutsiyasining dastlabki shartlari hisoblanadi. Jumladan, ibtidoiy qabilalar rivojlanishda oqsaganini G.Spenser ularning qobiliyatlari rivojlanish darajasining pastligi bilan tushuntiradi. Eng moslashuvchan jamiyatlarning yashash uchun kurashini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni deb hisoblaydi. U iqlim, tabiiy sharoitning ijtimoiy jarayonlarga

ta'sirini o'rgangan. G.Spenser yaratgan ta'limotni keyinchalik sotsiologiyadagi geografik oqimlarning vakillari rivojlantirishdi.

E.Dyurkgeym (1858-1917) jamiyatni tushunishni qadriyatlar tizimi bilan bog'lagan, faqat shu yo'l bilan tarixni uning o'ziga xos xususiyatiga muvofiq tarzda o'rganish mumkin, deb hisoblagan. E.Dyurkgeym ham qadriyatlarni jamiyat tuzilishini belgilovchi muhim omil deb bilgan. Jamiyat tuzilmasini o'rganishga nisbatan u strukturaviy funksionalizm nuqtai nazaridan yondashgan. Jamiyat borliqning alohida sohasi bo'lib, u o'z qonunlariga muvofiq rivojlanadi. Noijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan omillar jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir emas. Jamiyat tuzilmasiga E.Dyurkgeym o'zaro ta'sirga kirishadigan va bir-birini vujudga keltiradigan ijtimoiy dalillar majmui sifatida qaraydi. Ijtimoiy dalillar sababini ongdan emas, balki bundan oldingi ijtimoiy dalillardan qidirish lozim. Ijtimoiy tuzilma dalillarning ikki guruhidan tarkib topadi: birinchidan, u moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, ikkinchidan, ijtimoiy jamoalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy jamoalarni tahlil qilar ekan, E.Dyurkgeym oila, kasbiy guruh kabi jamoalarni, shuningdek mehnat taqsimotiga muvofiq vujudga keladigan, ijtimoiy birlik (axloq, din)ni ifoda etadigan ijtimoiy institutlarni farqlaydi. Ijtimoiy jarayonda sababiyat ijtimoiy muhitning yuqorida zikr etilgan elementlarining muayyan hodisani vujudga keltiradigan o'zaro ta'siridir.

E.Dyurkgeym fikricha ijtimoiy evolyutsiya mehnat taqsimoti bilan bog'liq. U rivojlangan mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va kooperasiyani yuksak darajada uyushgan jamiyatning belgisi deb hisoblaydi. Mazkur jamiyat mehnat taqsimoti mavjud bo'lmagan arxaik, jamiyatlardan ayni shu belgiga ko'ra farq qiladi. Mehnat taqsimoti individlar o'rtasidagi farqlarni belgilaydi, shaxs shakllanishining omili hisoblanadi. U odamlarni o'zaro aloqadorlik tizimi bilan birlashtirib, ijtimoiy aloqalarga uyg'un tus beradi.

E.Dyurkgeym shaxs va jamiyatning uzviy aloqasini qayd etadi. Uning fikricha, jamiyatning tubanlashuvi muqarrar tarzda shaxsning tubanlashuviga sabab bo'ladi. Ne'mat va xizmatlarni ayirboshlashning buzilishi natijasida yuzaga keladigan tengsizlik, shuningdek, shaxs o'z kasbiy roliga moslashmagani jamiyatda sinfiy kurashni keltirib chiqaradi. Mehnat taqsimotini muvofiqlashtirishning maqbul vositalarini topish,

imkoniyatlar tengligini ta'minlaydigan qoidalarning aniq majmuini belgilash talab etiladi. E.Dyurkgeym bu jarayonda sotsiologiya fan sifatida ayniqsa muhim rol o'ynaydi deb hisoblagan.

Maks Veber (1864-1920) o'z sotsiologik qarashlarida Rikkertning borliq va ongning o'zaro aloqasi zamirida subyektning qadriyatga bo'lgan muayyan munosabati yotadi, degan g'oyasiga tayangan. Shunga muvofiq M.Veber tahlil qilinayotgan materialning iqtisodiy, diniy va axloqiy qadriyatlar bilan o'zaro nisbatini aniqlash lozim, deb hisoblagan. O'zining «Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi» asarida M.Veber dastlab Niderlandiya, Angliya va AQShda vujudga kelgan sanoat kapitalizmining qaror topishiga protestantcha axloq qadriyatlarining ta'sirini tahlil qiladi. U hozirgi zamon xo'jalik hayotida hukm surayotgan kapitalizmning o'ziga xos xususiyatiga mos keladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar – tadbirkorlar va ishchilar shakllanishi natijasida vujudga kelganini qayd etadi. M.Veber tarixiy materializmning g'oyalar iqtisodiy munosabatlar ustqurmasi sifatida yuzaga kelgan, degan «sodda» tasavvurlariga to'g'ridan-to'g'ri e'tiroz bildiradi, aksincha, kapitalizm «ruhi» uning vujudga kelish omili bo'lgan, deb hisoblaydi.

U kapitalizm modelini kapitalistik naf ko'rishga oqilona intilishdan keltirib chiqarishga harakat qiladi. M.Veber rasionalizm tamoyillari G'arb madaniyatining barcha hodisalarida: fanda, san'atda, monumental qurilmalar yaratish konstruktiv tamoyillarida hukm surishini qayd etadi. Oqilona ishlab chiqilgan konstitutsiya, huquq, oqilona yaratilgan qoidalarga qarab mo'ljal oladigan mutaxassis-amaldorlardan iborat siyosiy institut sifatidagi davlat faqat G'arbda mavjud. Ammo rasionalizm qadriyatlarini amalga oshirishning eng oqilona ifodasi tadbirkorlik sohasida mujassamlashgan: ishlab chiqarishning kommersializasiyalashuvi, buxgalteriya hisoboti, chayqovchilikni oqilonalashtiruvchi qimmatli qog'ozlar va birjalar, mehnatni oqilona tashkil etish va h.klardir.

O'zining boshqa qator asarlari, chunonchi: «Tushunuvchi sotsiologiyaning ba'zi kategoriyalari haqida», «Jahon dinlarining xo'jalik axloqi», «Xo'jalik va jamiyat», «Xo'jalik tarixi»da M. Veber "ijtimoiy harakat va uning motivasiyasi" tushunchasini ta'riflab berdi. Borliqni tushuntirish uchun u «ideal tiplar» metodologiyasini yaratdi va undan

foydalandi. M.Veber fikriga ko'ra, ijtimoiy organizm hujayrasi hisoblanadigan ijtimoiy harakat ikki omil: subyektiv motivasiya va boshqalarga qarab mo'ljal olishni o'z ichiga oladi. U ijtimoiy harakatning oqilona maqsadli ijtimoiy harakat, oqilona qadriyatli ijtimoiy harakat, affektli ijtimoiy harakat va an'anaviy ijtimoiy harakat kabi tiplarini farqlaydi.

O'zining ijtimoiy harakat konsepsiyasini M.Veber hokimiyatni tushunishga nisbatan ham tatbiq etadi. O'zgalarning umidlariga qarab mo'ljal olish ijtimoiy harakatning muqarrar belgisi bo'lgani bois, hokimiyat siyosiy munosabatlarda ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro umidlarini nazarda tutadi. Shu holdagina hokimiyat qonuniylik kasb etadi: boshqarayotganlar o'z buyruqlariga bo'ysunishlariga umid qiladilar; boshqarilayotganlar esa oqilona buyruqlarni kutadilar. M.Veber qonuniy davlatlarning: ish vakolatlari qonuniy belgilanishining majburiyligiga bo'lgan ishonchga ko'ra hukmronlik; muayyan xulq-atvorga ko'nikish bilan belgilangan hukmronlik; xarizmatik hukmronlik kabi uch tipini farqlaydi. Boshqaruvning oqilona-byurokratik tipi vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan hokimiyatning namunaviy-oqilona tipini Veber hokimiyat ideali deb hisoblagan.

XX asrda M.Veber ilgari surgan tarixiy jarayonning teng huquqli omillari ta'siri haqidagi g'oyasi asoslab berildi. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bir qancha nazariyalari texnika, sanoat, axborot tizimlari, kommunikasiya, globallashuv kabi omillarni birinchi o'ringa qo'yadi.

Islom Karimov (1938-2016) tarix falsafasini tarixiy xotira bilan uyg'un holda ko'radi. Uning fikricha, "Inson uchun tarixidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir"[1]. Fikrining davomida u tarixiy xotirasi bor inson irodali inson, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, deb ta'kidlaydi. Buning uchun har bir millat o'zining tarixiy ildizlariga nazar solishi, u yoki bu mafko'ra ta'sirida xash-po'shlangan tarixiy xotirani o'z holicha qayta tiklashga harakat qilishi lozim. "O'z tarixini bilmaydigan,

[1] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998. – B.10

kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"[1]. Shundagina millat, xalq o'z-o'zini anglaydi. Tarixchilar millatga uning haqqoniy tarixini ko'rsatib, isbotlab berishlari kerak. Zotan tarix xalq ma'naviyatining asosidir.

Narzullo Jo'raev (1952) fikricha, vaqt o'tgan sari insoniyat tafakkuri kengayib, ijtimoiy fanlar taraqqiy topib borishi natijasida tarix falsafasi atrofidagi mulohazalar kengayadi. Uning predmeti va obyektiga aniqlik kiritiladi. Shu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib, N.Jo'raev hozirgi zamon tarix falsafasining quyidagi vazifalarini belgilaydi:

insoniyat tarixi rivojlanish qonuniyatlarini, ularning manbalari va mohiyatini o'rganish;

insoniyat tarixini, jumladan, milliy tarixni ham hozirgacha ta'sirini o'tkazib kelayotgan kommunistik mafkura asosidagi ilmiy metodologiyada mavjud bo'lgan tamoyillardan voz kechib, milliy istiqlol g'oyasi asosida o'rganish va davrlashtirish muammosini hal etish;

sivilizatsiya va madaniyatlar yuzaga kelishining yaxlit tizimini ishlab chiqish, ular inqirozi sabablarini chuqur tahlil etish;

tarixiy jarayonning umumiy shaklini tahlil etish, ularni o'tmish, bugun, kelajak tizimida mantiqan o'rganish hamda insoniyat istiqboli haqida tasavvurlarga aniqlik kiritish;

tarixiy taraqqiyot omillarini diniy va dunyoviy qonunlar nuqtai nazaridan o'rganish, nazariy jihatdan baquvvat ilmiy va amaliy asoslangan xulosalarni ishlab chiqish;

qadriyatlar tizimini hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan tadqiq etish va baholash[2]. Ana shu vazifalarni hal etishda tarix falsafasi va tarix fanining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bir qarashda tarix falsafasi va tarix fani bir-biridan ayri yo'nalishdek ko'rinadi. Zotan, real jarayonga, real voqelikka, insoniyat tarixida qaysidir hodisaga tarixchi tarix ko'zi bilan qarasa, faylasuf faylasuf ko'zi bilan qaraydi. Aslida har ikki qarashlar zamirida inson taqdiri, tafakkur tarzi va manfaatlar ustuvorligi yotadiki, bu inson fenomeni va hayot falsafasining mantig'idir.

[1] Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 4
[2] Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, – B.186. 2001

Tarix falsafasining predmeti, tuzilishi va funksiyalari

«Tarix falsafasi» nima va uning predmeti nimadan iborat?, degan savolga javob beramiz «Falsafiy qomusiy lug'at»ida «Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayonni va tarixiy bilishni talqin qilish bilan bog'liq bo'lgan bo'limi»[1].

Tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi. *Tarix falsafasining predmeti tarixiy jarayon va tarixiy bilishni talqin qilish, ularning mazmunini yoritib berishdan iborat.* Ammo bu tarix falsafasini tavsiflashga nisbatan birdan-bir yondashuv emas, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida tarix falsafasining predmeti va muammolari sezilarli darajada o'zgargan, hozirgi vaqtda tarix falsafasining turli yo'nalishlari tomonidan har xil talqin qilinadi.

Masalan, antik davr tarixchilari va faylasuflari Gerodot, Platon, Fukidid, Aristotel, Plutarxning tadqiqotlari o'tgan va hozirgi zamon kishilarining qilmishlari, tabiat va insonning o'zaro aloqasi haqida ma'lumotlar yig'ishdan, ya'ni tarixiy dalillarni ularni nazariy jihatdan anglab yetmasdan va yagona falsafiy-tarixiy tizimga solmasdan tavsiflash va o'rganishdan iborat bo'lgan.

O'rta asrlarda Avgustin va boshqalar tarix falsafasining predmeti sifatida, avvalo, Xudo va insonning o'zaro aloqasi muammosi, harakatlantiruvchi kuchi ilohiy vahiy sanalgan tarixiy jarayonning mazmunini aniqlash, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifasini o'rganish amal qilgan.

Sharqda tarix falsafasining (A.Beruniy, Ibn Xaldun, A.B.Narxashiy, R.Hamadoniy) predmeti sifatida jahon tarixi, umumiy tarixiy taraqqiyot qoidalari, yo'nalish va omillarini belgilovchi kishilik jamiyatining o'ziga xos davriylik nazariyasi alohida o'rin tutadi. "Odamlar kabi davlat ham o'zining hayotiy davriga ega"[2]. Beruniy tarixni o'rganish tahlil qilish, so'ngra xulosalar chiqarish zaruriyatini tavsiya qilar ekan, uni davrlarga bo'lish, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ana shu usul orqali ijtimoiy hayotga, kishilik jamiyatiga tegishli baho berish mumkin, deb hisoblaydi.

Uyg'onish davrida va Yangi davrda (Nikkolo Makiavelli, Jambattista

[1] Философский энциклопедический словарь. – М.: Современный литератор, 1989. – С.700.
[2] Hotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: Ma'naviyat, 2003. – B.263

Viko, Frensis Bekon, Tomas Gobbs va b.) tarixning maqsadi, yo'nalishini, shuningdek, tarixiy jarayonda insonning, sinflarning rolini aniqlash (Ogyusten Terri, Fransua Gizo, Ogyust Mine) tarix falsafasining predmetiga aylangan. Yangi davrda «tarix falsafasi» atamasi ham paydo bo'lgan, uni ilk bor 1765-yilda tarixchi tarixiy voqealarni shunchaki tavsiflabgina qolmasdan, balki tarixiy jarayonni falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan fransuz ma'rifatchisi Volter ishlatgan. Keyinchalik tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlari va dialektikasini aniqlash yo'lida izlanishlar olib borish Georg Gegel hamda dialektik materializm asoschilari Karl Marks va Fridrix Engels uchun tarix falsafasining asosiy predmetiga aylangan.

XIX asr oxiri XX asr boshida tarix falsafasining ko'pgina yangi yo'nalishlari vujudga kelgan. Ularning har biri o'z tadqiqot predmetiga ega bo'lgan. Masalan, tarixning aylanma harakati nazariyasi namoyandalari (Nikolay Danilevskiy, E.Osvald Shpengler, Arnold Toynbi), o'z o'tmishdoshlari kabi, o'z oldiga tarixiy jarayon qonuniyatlarini aniqlash vazifasini qo'ygan. Xristian tarix falsafasining ko'p sonli yo'nalishlari: neotomizm (Jak Mariten, Eten Anri Jilson va b.), neoavgustizm (Moris Blondel, Gabriel Marsel, Jan Lakrua), teyyardizm (Per Teyyar de Sharden) va qisman ekzistensializm (Karl Yaspers) namoyandalari tarixning mazmuni muammosini bosh muammo deb hisoblaganlar. Tarixiy bilish gnoseologik nazariyasi va tanqidi namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroche) esa tarixshunoslik (istoriografiya) doirasi bilangina cheklanib qolmaganlar, balki tarixiy ongni ham tahlil qilganlar. Neokantchilik tarix falsafasi (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) va «analitik» tarix falsafasi (Ernest Nagel, Karl Gempel va b.) ham o'zining alohida predmetiga ega. XX asr tarix falsafasi aksariyat hozirgi yo'nalishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning predmeti sifatida jahon tarixi, hozirgi sivilizatsiyaning global muammolari amal qiladi.

Demak, turli falsafiy-tarixiy maktablarda tadqiqot predmeti muammosiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayni hol shu bilan bog'liqki, tarixiy voqelikning mohiyati turli tadqiqotchilar tomonidan har xil tushunilishi o'z-o'zidan tarixiy jarayonning, ya'ni «tarix falsafasi»ning ko'p sonli falsafiy talqinlarini vujudga keltiradi.

Ammo mazkur yondashuvlarni umumlashtirish tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayon mazmuni, uning qonuniyatlari va asosiy yo'nalishlarini tushuntirish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, uni bilish metodlarini asoslovchi bo'limi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Tarix falsafasi predmetining umumiy tavsifi uning tuzilishi va funksiyalarini o'rganishga o'tish imkonini beradi.

Tarix falsafasining tuzilishi tarix falsafasi u yoki bu yo'nalishi namoyandalarining metodologik mo'ljallari bilan uzviy bog'liq. Ayni vaqtda, ahamiyatsiz tafovutlarni e'tibordan soqit etsak, aksariyat yo'nalishlar doirasida o'rganiladigan asosiy muammolarni qayd etishimiz mumkin. *Tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlarini aytib o'tib, ularga qisqacha to'xtalamiz.*

Tarix falsafasi ontologiyasi – tarix falsafasining tarixiy borliq muammolari, tarixning mazmuni va yo'nalishi, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy determinizm, yagona tarixiy makonning vujudga kelishi, jahon tarixining yagonaligi asoslarini, insonning koinotdagi o'rnini aniqlash, tarixiy vaqt masalasi va hokazolarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy qismi. Mazkur bo'limda jamiyatning rivojlanish mantig'ini, uning turli tomonlari o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'lanishlarni o'rganish ham muhim o'rin egallaydi.

Tarix falsafasi gnoseologiyasi asosiy e'tiborni tarixiy bilish muammolariga, aniqroq aytganda, tarixiy fakt va voqealarni o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish, tarixiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, tarixiy bilishda haqiqatning tagiga etishga qaratadi.

Tarix falsafasi tarixi tarix falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi, uning predmeti shakllanishi muammolarini, tarix falsafasining turli yo'nalishlar va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan ichki differensiasiyalanish jarayonini o'rganadi. Tarix falsafasi mazkur bo'limning muhim muammolari qatoriga tarixiy jarayonni davriylashtirish, boshqa ijtimoiy fanlar orasida tarix falsafasining o'rnini aniqlash masalalari ham kiradi.

Tarix falsafasi antropologiyasi insonning tarixiy jarayondagi o'rnini, unda tarix sub'yektlarining rolini aniqlaydi va «Tarixni kim harakatga keltiradi?», degan savolga javob beradi. Odatda, tarix falsafasining turli

yo'nalishlari tarixiy jarayon sub'yektlari qatoriga xalq, millat, omma, olomon, ijtimoiy sinf va atoqli shaxslarni kiritib, qo'yilgan savolga har xil javob beradi.

Tarix falsafasining funksiyalari umuman falsafaning funksiyalari bilan asosan bir xil, deb taxmin qilish mumkin. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik kerakki, tarix falsafasi o'z alohida ob'yekti, predmeti, metodlari, tadqiqot maqsadlari va vazifalariga ega, bu uning muayyan xususiyatlari mavjudligidan dalolat beradi. Quyida ularni ko'rib chiqamiz.

Tarix falsafasining dunyoqarashga doir funksiyasi insonda tarixga, ya'ni jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi, tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligiga, uning mazmuni va yo'nalishiga, insonning undagi o'rni hamda roliga va hokazolarga nisbatan umumiy munosabatni shakllantiradi.

Tarix falsafasining nazariy funksiyasi tarixiy jarayonni teran anglab yetish va u haqda nazariya, ya'ni tarixiy jarayonning mavjudligi, mazmuni, rivojlanish yo'nalishi haqidagi qarashlar tizimi darajasida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tarix falsafasining mazkur funksiyasi tarixiy o'tmishni nazariy darajada rekonstruksiya qilishni amalga oshirish, tarixiy dalil va voqealarning haqqoniylik darajasini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Tarix falsafasining metodologik funksiyasi uning qoidalarini tarixiy o'tmishning u yoki bu ijtimoiy fanlar doirasida o'rganiluvchi ayrim hodisalari va voqealarini o'rganish jarayonida amalga tatbiq etish imkoniyatidan iborat. Bu holda tarix falsafasining qoida va xulosalari tarix, sotsiologiya, iqtisod, siyosatshunoslik, huquq falsafasi, psixologiya va boshqa fanlar sohasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarda qudratli metodologik vosita rolini o'ynaydi.

Tarix falsafasining prognostik funksiyasi tarixiy jarayon qonuniyatlarini bilish jamiyatning ayrim kichik tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini, tarix voqealari, kishilar faoliyatining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini bashorat qilishga yordam beradi. Bunday bashorat negizida muayyan ijtimoiy hodisa, umuman, jamiyatning rivojlanishini prognoz qilish mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, tarix falsafasining ko'rib chiqilgan funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga o'tadi. Ularning har

biri qolganlarini nazarda tutadi, ularni o'z tarkibiga u yoki bu tarzda kiritadi.

Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari

Tarix falsafasi atamasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa-da, dastlabki falsafiy-tarixiy g'oyalar qadim zamonlardayoq vujudga kelgan. Shu sababli tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari mohiyatini yaxshiroq anglab yetish uchun tarixiy o'zlikni anglashning tadrijiy rivojlanish jarayoniga nazar tashlash lozim. Tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligi, uni davriylashtirish va uning shakllarini tizimga solish haqidagi tasavvurlar, shuningdek insoniyat tarixiy rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar va uning yo'nalishi haqidagi masala har doim yuqorida zikr etilgan jarayonning muhim tarkibiy qismlari hisoblangan.

Tarixiy harakat yo'llarini, tarixiy jarayon tendensiyalari va yo'nalishini anglab yetish muammosi antik davr mutafakkirlari, avvalo, Gerodot, Fukidid, Aristotel, Teofrast, Pliniy Katta va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otgan. Bu tarixchi va faylasuflarning asarlarida insoniyatning o'tmishi va kelajagi haqida muayyan tasavvurlar, odamlarning hatti-harakatlari haqida, tarixiy voqealarning yo'nalishi va mazmuni to'g'risida mulohazalar mavjud bo'lgan. Keyinchalik bularning barchasi «tarix falsafasi» deb nomlangan, lekin ular hali qarashlarning mukammal tizimini tashkil etmagan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuf va tarixchilarning aksariyati diniy-mifologik dunyoqarashga amal qilgan. Bu dunyoqarashga ko'ra, jamiyatda, xuddi tabiatdagi kabi, aylanma harakat mavjud, odamlarning xatti-harakatlari taqdir yoki xudolar irodasiga bo'ysunadi. Buyuk shaxslar – jamoa oqsoqollari, siyosiy arboblar, qahramonlarga xos bo'lgan, o'z tabiatiga ko'ra o'zgarmas sanalgan ehtiros va iroda inson xulq-atvorini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'rta asrlarda Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy va boshqalar Injil va yunon-rim falsafiy-tarixiy tafakkurini sintez qilib, tarixning yangi, teologik konsepsiyasini yaratdi, tarixiy voqealarning mazmuni, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifalari haqida yangicha tasavvurlarni ilgari surdi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, xristian mualliflari, tarix orqali

ilohiy niyatni, tushunib yetishga harakat qilib, aylanma harakat g'oyasini rad etdilar, tarixiy jarayonni o'tmishdan kelajak (bo'lg'usi panohga erishish, masihning kelishi) sari chiziqli harakat sifatida tasavvur qildilar.

Markaziy Osiyo mutafakkiri A.R.Beruniy podsholiklar tarixi orqali o'tmishni davrlarga bo'lishni taklif qiladi. Tarix, uning fikricha, fikr va tafakkur manbai. U doimo turli fanlarning o'zaro ta'sirining uzviyligi va uyg'unligi natijasida takomillashadi. Shu bois, tarix har qanday olim uchun tadqiqotning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Beruniy tarixiy tadqiqotlarni boshqa turdosh fanlarni o'rganish bilan uyg'un holda olib borish muayyan natijaga olib kelishini ta'kidlaydi. Zero, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asossiz ekanligin isbotlash tarixiy tadqiqot uchun mas'uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manba yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki o'z manfaatlari, maqsadlari doirasida dalil to'playdilar. Shu holat nuqtai nazaridan Beruniy "xabar xabarchilar tufayli rost va yolg'on tusini oladi"[1], deb e'tirof etgan. Tarixiy haqiqatni tiklash, tarixiy tafakkur va tarixiy ma'lumotlarni yig'ish Sharq tarix falsafasida aniq me'yorlar vositasida amalga oshirilgan. Feodalizmning inqirozi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, hurfikrlilikning kuchayishi ijtimoiy ong tarixga nisbatan teologik yondashuvdan xalos bo'lishiga xo'maklashdi, bu esa fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Uyg'onish davri (XIV-XVI asrlar) mutafakkirlari, xristian tarixchilaridan farqli o'laroq, tarixiy jarayonni dunyoviy sharoitlardan, insonning tabiatidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qildilar. Masalan, Nikkolo Makiavelli (1469-1527) o'z asarlarida moddiy manfaat, xususiy mulkni asrash va ko'paytirishga intilish jamiyatning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch ekanligini isbotlab, sikli rivojlanish g'oyasini asoslashga harakat qildi. Uning ayrim asarlarida ijtimoiy hodisalarning qonuniyatlariga doir farazlar ham mavjud, lekin u mazkur qonuniyatlarni ta'riflashning uddasidan chiqmagan.

XVII-XVIII asrlar Yevropa uchun burjua industrial sivilizatsiyasi vujudga kelishi va ijtimoiy rivojlanish jarayonining jadallashuviga olib kelgan sanoat ijtimoiy-siyosiy inqiloblar davriga aylandi. Yangi davr mutafakkirlari qarashlarining shakllanishida tabiiy fanlar ulkan rol

[1] Beruniy A. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.: Fan, 1968. B. 50.

o'ynadi. Bu davrda ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga tabiatshunoslik shu darajada kuchli ta'sir ko'rsatganki, tarix aksariyat hollarda tabiiy ilmiy nuqtai nazardan tushuntirilgan.

Ayni shu davrda yuqorida sanab o'tilgan sabablar ta'sirida tarix falsafasining bir nechta naturalistik (lot. naturalis – tabiiy, natural) konsepsiyalari vujudga kelgan. Mazkur konsepsiyalarning namoyandalari tabiatga butun borliqni, shu jumladan, tarixiy jarayonni tushuntirishning universal tamoyili sifatida yondashgan. Bunda "naturalizm" tushunchasi turlicha talqin qilingani bois, quyidagi yo'nalishlar ajralib chiqqan: ijtimoiy hodisalar tabiiy muhit ta'sirida tushuntirilgan geografik naturalizm (Sharl Lui Monteske, Iogann Gerder va b.); tarixiy jarayonlarni demografik determinizm yordamida tushuntirgan demografik naturalizm (Tomas Maltus); jamiyatdagi o'zgarishlarni inson tafakkuri bilan bog'lovchi idealistik naturalizm (Klod Gelvesiy, Jan Jak Russo).

Tarixiy o'zlikni anglashning rivojlanishiga o'z tadqiqotlarida tarixni inson aqlli tabiatining evolyutsiyasi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan alohida borliq sifatida falsafiy jihatdan anglab yetishga urg'u bergan Volter (1694-1778) asarlari, shuningdek, tarixiy jarayon g'oyasini birinchilardan bo'lib asoslab bergan Mari Jan Kondorse (1743-1794) tadqiqotlari ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

G.V.F.Gegel (1770-1831) ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xosligini ob'yektiv idealizm nuqtai-nazaridan anglab yetish yo'lida yangi qadam tashladi. U tarixga har bir davr betakror tarzda rang-barang bo'lgan holda, ayni vaqtda, insoniyat rivojlanishining qonuniy bosqichi sanalgan yagona qonuniy jarayon sifatida yondashdi. Bu rivojlanish tabiiy qonuniyatlar sohasi bilan taqqoslaganda boshqacha xususiyat kasb etadi. Bu yerda tarixiy qonunlar kishilarning ongli faoliyati vositasida amalga tatbiq etiladi, shu bilan birga, tarixda muayyan obyektiv mantiq ham amalga oshiriladi va tarixiy jarayon dunyoviy aql, mutlaq g'oyaning cheksiz tarzda o'z-o'zidan rivojlanishi, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida tarixiy bilim sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Turli matnlarning tarixiy va lingvistik tahlili metodlarining takomillashishi, arxeologiyaning rivojlanishi, o'tmish guvohliklariga yanada tanqidiyroq yondashish natijasida tarixiy

bilim fan maqomini qo'lga kiritdi. Shu bilan bir vaqtda tarixiy va tabiiy ilmiy bilimlar butunlay har xil obyektlarga mansub bo'libgina qolmasdan, o'zlari ham bir-biridan butunlay farq qilishi yanada teranroq anglab yetildi.

Tarix falsafasining gnoseologik konsepsiyasi (tanqidiy tarix falsafasi), ontologik konsepsiya, aksiologik konsepsiya, tarixning texnokratik konsepsiyalari alohida o'rin egallaydi.

Tarix falsafasining gnoseologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshladi. Uning namoyandalari (Vilgelm Dilteу, Benedetto Kroche, Georg Zimmel, Robin Kollingvud, Raymon Aron va b.) tarix falsafasining asosiy predmeti tarixiy o'tmishni o'rganishning mantiqiy-nazariy va metodologik muammolari, uni nazariy jihatdan rekonstruksiya qilish hamda tarixiy dalillarning haqiqiyligini aniqlash, deb hisoblaganlar.

Tarix falsafasi mazkur konsepsiyasining asoschisi nemis madaniyat faylasufi Vilgelm Diltey (1833-1911) bo'lib, uning nazariyasida inson borlig'i usuli, madaniy-tarixiy voqelik sifatidagi "hayot" tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli Diltey nuqtai nazari ko'pincha «hayot falsafasi»ning dastlabki variant sifatida tan olingan. Olim fikriga ko'ra, inson o'z tarixiga ega emas, lekin uning o'zi tarix, aynan shunda uning mohiyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, V.Diltey uchun hayot va tarix ayniydir. *V.Diltey tarix falsafasiga ijtimoiy va tabiiy fanlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan.* V.Diltey inson tabiatni tushuntiradi, ijtimoiy hayotni esa faqat tushunadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, mazkur tushunish har xil, chunki har bir inson tarixiy voqealarga o'z nisbiy mushohadalari nuqtai nazaridan yondashadi. Bundan xulosa shuki, ilmiy haqiqatning tagiga etish, tarixiy jarayonni ilmiy nuqtai nazardan xolisona bilish amalda mumkin emas.

Xo'sh, bu holda tarix falsafasi nimani o'rganishi lozim? V.Dilteyning izdoshi – *Kollingvud fikriga ko'ra, tarix falsafasi tarixchining fikr-mulohazalari va shu bilan bir vaqtda mazkur fikr-mulohazalarning ob'yektini o'rganadi.* Shu sababli tarixiy jarayonni o'z holicha o'rganish tarix falsafasi vazifalari qatoridan chiqarib tashlanadi: tarixiy jarayon faylasufga unda hodisalarning tarixiy bilim mohiyatini belgilovchi xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgani uchungina tegishlidir.

Tarix falsafasining gnoseologik konsepsiyasi ba'zan tanqidiy tarix falsafasi deb ham ataladi. Bu hol shu bilan bog'liqki, mazkur yo'nalish vakillari tarixni tanqidiy o'rganishgina insoniyat tarixi modelini yaratish, tarixiy dalillarning haqqoniylik darajasiga baho berish va tarixiy voqelik manzarasini nazariy jihatdan gavdalantirish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Mazkur yondashuv kurtaklarini tarixiy bilishning metodologik muammolari, insoniyat tarixining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullangan neokantchilik Baden maktabidan izlash lozim. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan bu maktabning asoschisi sifatida fransuz faylasufi Raymon Aron (1905-1983) e'tirof etiladi. Uning asarlaridan biri «Tanqidiy tarix falsafasi» deb ataladi.

Tarix falsafasining ontologik konsepsiyasi namoyandalari (R.Mel, R.Ramon, E.Kallo va b.) tarix falsafasining predmeti deganda, ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar majmuini tushunganlar. Mazkur tadqiqotlar shunday umumfalsafiy ontologik muammolar bilan bog'liqki, ularni yechishda jamiyat tarixining qolgan ijtimoiy hodisalardan farqini hisobga olish lozim. Ularning fikricha, tarix falsafasining diqqat markazida, avvalo, ontologik muammolar: insoniyat tarixining mazmuni va vujudga kelishi, tarixiy jarayonning mohiyati kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari, tarixiy jarayonda insonning o'rni va roli muammolari turishi lozim. Masalan, ijtimoiy rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar to'g'risidagi masalani o'rganish jarayonida inson ongi, erkinligining tarixiy jarayondagi roli to'g'risidagi masala yuzaga keladi. Ammo, insondan boshqa rivojlangan ongga ega bo'lgan mavjudotlar fanga ma'lum emasligi tufayli, jamiyatning rivojlanishida ongning roli to'g'risidagi masalalar jamiyat, tarixiy jarayonlar haqidagi masala hisoblanadi.

Tarix falsafasining aksiologik konsepsiyasida tarixning qimmati muammosiga tarixiy bilimning ayrim hodisalarini qimmatga ega yoki ega emas deb e'lon qiluvchi mulohazalar uchun oqilona asoslarni aniqlashga alohida e'tibor beradi.

Mazkur konsepsiyaning rivojlanishiga nemis faylasuflari – neokantchilik Baden maktabi namoyandalari Vilgelm Vindelband (1848-1915) va Genrix Rikkert (1863-1936) salmoqli hissa qo'shishgan. Bu

tadqiqotchilar falsafani qadriyatlar haqidagi umumiy fan sifatida tavsiflaganlar. G.Rikkert qadriyatlar «sub'yekt va ob'yektning narigi tomonida joylashgan butunlay mustaqil saltanat»ni tashkil qiladi, deb hisoblagan. V.Vindelband va G.Rikkert nazariy va amaliy aqlning kantcha tafovutidan kelib chiqib, qadriyatlar haqida mulohaza yuritish va joizlikni bilishga asoslangan normativ ta'limot sifatidagi tarix falsafasini nazariy mulohaza yuritish va «borliq» haqidagi empirik ma'lumotlarga tayanuvchi tajribaga asoslangan fanlarga qarshi qo'ygan. Ular qonuniyatni tarixiy bilishning asosiy tamoyili sifatida rad etib, uni «qadriyatlarga mansub deb topish» tamoyili bilan almashtirgan. *V.Vindelband va G.Rikkert fikriga ko'ra, qadriyatlar tarixdan ustun xususiyat kasb etadi va jamuljam holda odamlarga bog'liq bo'lmagan ideal transsendental (narigi) dunyoni tashkil qiladi.* Bu dunyodan tegishli g'oyalar, avvalo, transsendental joizlik g'oyasi kelib chiqadi. U mazkur qadriyatlarning vaqt va makon bilan cheklanmagan shak-shubhasiz, mutlaq ahamiyatiga ishora qiladi. Odamlar ularni anglab yetishlariga qarab qadriyatlarga tegishli munosabat va talablarni yaratadilar va ularga hayotda, xulq-atvorda, kundalik va tarixiy faoliyatda amal qiladilar.

V.Vindelband va G.Rikkertlar ijtimoiy borliq va ma'naviy hayotning o'zaro aloqasini o'rganib, jamiyat tarixida ma'naviy hayot borliqqa nisbatan yetakchi rol o'ynaydi, degan xulosaga kelgan, shu bois ular K.Marks taklif qilgan, jamiyatning rivojlanishida iqtisodiy omil (ya'ni borliq)ning hal qiluvchi ahamiyati asoslangan tarixni materialistik tushunishga tanqidiy ko'z bilan qarashgan. G. Rikkert fikriga ko'ra, mazkur yondashuv noilmiydir, chunki u prolyetariat g'alabasini «mutlaq qadriyat» deb e'lon qiluvchi marksizm siyosiy dasturi bilan belgilanadi.

Bu mulohazalardan kelib chiqqanda, tarix falsafasi qadriyatlarning tabiati va mohiyatini, shuningdek ularning odamlar hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va tajassumini yoritib beruvchi qadriyatlar haqidagi fan sifatida amal qiladi.

Tarix falsafasining texnokratik konsepsiyalari ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyotida texnika hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblovchi, sanoatlashishgina jamiyat hayoti va shaxsni oqilona tartibga solish hamda kamol toptirishga qodir, degan fikrni asoslanadi. Mazkur konsepsiyalar qatoriga postindustrial jamiyat yoki axborot

jamiyati konsepsiyasi (Daniel Bell, Olvin Toffler), texnotron jamiyat konsepsiyasini (Zbignev Bjezinskiy), yangi industrial jamiyat konsepsiyasini (Jon Gelbreyt)ni kiritish mumkin.

Mazkur texnologik determinizm jamiyat rivojlanishining asosiy omillari qatoriga, avvalo, ishlab chiqarish kuchlari, texnika, fan va informatikaning rivojlanish darajasini kiritadi. Masalan, postindustrializm konsepsiyasi hozirgi zamon jamiyatida iqtisodiyotning birlamchi sohasi qishloq xo'jaligi, ikkilamchi soha sanoat emas, balki axborot hal qiluvchi rol o'ynaydigan uchlamchi soha (xizmatlar sohasi) yetakchilik qilishidan kelib chiqadi. Postindustrial jamiyatda sodir bo'layotgan mikroelektron inqilob mehnatni emas, balki axborotni jamiyatning rivojlanishi zamirida yotuvchi fundamental ijtimoiy omilga aylantirishi qayd etiladi.

Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi

Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi tarix falsafasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyati kishilik jamiyati o'zgaradimi, agar o'zgarsa, bu o'zgarish qaysi yo'nalishda yuz beradi, mazkur o'zgarishlarni qanday davriylashtirish mumkin, degan savollarga javob topishdan iborat.

Antik faylasuflar chiziqli tarix falsafasining uch muhim: progressiv, regressiv va sikli yo'nalishlarni farqlaganlar. Shuni qayd etish muhimki, bu yo'nalishlarning barchasi hozirgi vaqtda ham o'z izdoshlariga ega. Shu bilan bir qatorda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixiy rivojlanishning nochiziqli konsepsiyasi ham asoslangan. Bu yo'nalishlarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Progressiv yo'nalish asoschilari Protagor va Demokrit jamiyatning rivojlanishi asosan yovvoyilikdan «oltin asr» sari yuksalib boruvchi yo'nalishda kechgan deb hisoblagan.

Regressiv yo'nalish vakillari Gesiod, Seneka jamiyatning rivojlanishi «oltin asr»dan jamiyatning tanazzuli, axloqning buzilishi va hokazolar bilan tavsiflanuvchi «temir asr» sari rivojlanadi, degan fikrni ilgari surgan.

Siklli yo'nalish vakillari Platon, Aristotel, Polibiy jamiyat yuksalib boruvchi yo'nalishda, lekin tutash doira bo'ylab harakatlanadi va har doim ortga, dastlabki bosqichga qaytadi, deb hisoblagan.

O'rta asrlar faylasuflari, tarix muayyan yo'nalishda rivojlanuvchi jarayon ekanligini rad etmagan holda, uning yo'nalishini Xudo belgilaydi, deb hisoblaganlar.

Italyan faylasufi Jambattista Viko (1668-1744) o'z asarlarida tarixning yo'nalishi, tarixiy jarayonda yagonalik va rang-baranglikning o'zaro nisbati muammolarini asoslagan tadqiqotchilardan biridir. *O'zining «Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari» deb nomlangan risolasida u jahon tarixining barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan tarixiy aylanma harakat sifatidagi dunyoviy konsepsiyasini ilgari surgan.* J.Viko fikriga ko'ra, barcha xalqlar o'z rivojlanishida bir xil bosqichlardan o'tadi ibtidoiy varvarlik («xudolar asri»)dan feodalizm («qahramonlar asri») orqali demokratik respublika yoki konstitutsiyaviy monarxiya («sivilizatsiya asri») sari harakatlanadi. Har bir sikl mazkur jamiyatning umumiy inqirozi va parchalanishi bilan tugaydi. Sikl yakunlangach, rivojlanish jarayoni yangilanadi va ayni shu bosqichlardan, lekin yuqoriroq darajada o'tadi. Shunday qilib, *J.Vikoning g'oyalari madaniyat va sivilizatsiyalarning rivojlanishida sikllilik nazariyalariga asos bo'lgan.*

Hozirgi zamon tarix falsafasida tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan formasion va sivilizasion yondashuvlar mavjud.

Tarixga formasion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar oldinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar haqidagi ta'limotni Karl Marks o'zining «Kapital», «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» kabi asarlarida ilgari surgan. K.Marks nazariyasining mohiyatini uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy formasiya – sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo'lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o'rtasida o'rnatiladigan moddiy (iqtisodiy), ma'naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqa hamda munosabatlardir. Moddiy va ma'naviy munosabatlarning o'zaro aloqasida moddiy munosabatlar yetakchi rol o'ynaydi. Ularning o'zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim

faoliyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formasiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo'lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o'rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma'naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko'pgina tomonlari takrorlanish va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bosqichi – kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formasiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko'p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham mumkinligi (ya'ni, har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan. Shunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi tarixiy davrni, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va o'zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan.

Bu qoidalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy formasiya – jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan xulosaga kelish mumkin.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formasiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. Marks formasiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formasiyadan boshqa formasiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

XIX asrda ishlab chiqilgan formasion yondashuv o'zini oqlamadi. Bunda tarixiy rivojlanish jarayonini tushuntirishga nisbatan K.Marksning yondashuvi emas, balki uni dogmaga aylantirish va mutlaqlashtirish shakllandi. Ayrim tadqiqotchilar formasion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarini qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlargina belgilaydi, deb aytish o'rinli bo'lmaydi. Ikkinchidan, bir formasiyadan boshqa formasiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik

tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llarini tanlashga o'rin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq bo'ylab formasion rivojlanishning tor doirasiga sig'maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o'ziga xosligi va betakrorligi yo'qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

Shunday qilib, hozirgi davr sharoitida tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formasiyadan iborat bo'lgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi bo'rtib namoyon bo'ladi. Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. Shu sababli ushbu talqinni tarixni tushunishga nisbatan o'zgacha, nochiziq yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir.

XIX-XX asrlarda tarixga sivilizasion yondashuv vujudga kelgan. U ko'p sonli madaniyat va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Mazkur yondashuv asoschilaridan biri tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822-1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» - diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi, vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Jahon tarixining mazmunini N.Danilevskiy o'zining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining o'z-o'zini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat, deb bilgan. N.Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini ta'riflagan: 1) bir tilda yoki o'xshash tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir madaniy-tarixiy tipni tashkil etadi; 2) madaniy-tarixiy tip vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muayyan siyosiy mustaqillik talab etiladi; 3) sivilizatsiyaning muvaffaqiyatlari madaniy-tarixiy tipning turli elementlariga bog'liq bo'ladi; 4) sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni uzoq davom etadi.

ularning ravnaq topish davri esa qisqa; 5) sivilizatsiyalar alohida va berk sharoitda rivojlanadi, lekin bu ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

N.Danilevskiyning qarashlarini nemis mutafakkiri Osvald Shpengler (1880-1936) rivojlantirgan. U ham ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli evroposentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. O.Shpengler falsafasida madaniyat asosiy kategoriya hisoblanadi. Faylasuf madaniyat deganda o'ziga o'xshash boshqa «organizmlar»dan ajralib turadigan alohida «organizm»ni tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo'q va bo'lishi mumkin emas, degan xulosa kelib chiqqan. Shu sababli O.Shpengler jahon tarixining yaxlitligi va yagonaligini, unda «o'zgarmas va umumiy» jihatlar mavjudligini rad etgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. O.Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi, tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. O.Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab yetishdan iborat, deb hisoblaydi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining yana bir tarafdori ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889-1975)dir. U N.Danilevskiy va O.Shpenglerning tarixning sikllilig haqidagi fikr-mulohazalarini rivojlantirib, uni ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan (dastlab u 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa ularni 13 tagacha qisqartirgan). A.Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

A.Toynbi bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash deb hisoblab, shunga asoslangan holda yaqin kelajakda dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi ijtimoiy rivojlanish takroriyligining ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining

mazmuni diniy evolyutsiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Shunday qilib, sivilizasion yondashuv nuqtai nazaridan tarixiy jarayon hujumkor xususiyati «yuqori - quyi» ko'rsatkichlari bilan emas, balki har bir sivilizatsiya o'z rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilash jarayonida insoniyat filogenetik yo'lining barcha asosiy bosqichlaridan o'tishi, o'z tarixi va betakror individualligiga ega bo'lgan noyob ijtimoiy tuzilma sifatida qaralishi bilan belgilanadigan izchil nochiziq jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Formasion va sivilizasion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: 1) formasion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi, asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa statik deb e'tirof etadi; 2) formasion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizasion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

Tarix falsafasi rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalaridan foydalanishga, ularning kamchiliklarini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv monadaga doir yondashuv, degan nom olgan. Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sosiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi. Bunda monadaga doir yondashuvning formasion elementi tarixiy rivojlanishning ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizasion element esa ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tibor qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizasion yondashuvning individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinib, ro'yobga chiqariladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni

egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi asosiy muammo hisoblanadi. Bu konsepsiyalarning mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Taniqli nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969) yaratgan nazariyaga muvofiq, tarixning mazmuni tarixning chegarasidan tashqarida yotadi. Tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini bir-biridan ajratmaydi, balki jipslashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qilolmaydi.

K.Yaspers jahon tarixining «vaqt o'qi» amal qilgan davrda vujudga kelgan falsafiy e'tiqodgina insoniyat uchun umumiy e'tiqodga aylanishi mumkin, deb hisoblagan. Faylasuf qadimgi yunon faylasuflari, yahudiy xalqining payg'ambarlari, Eronda zardushtiylik dinining, Xitoyda – konfusiychilik va daochilikning, Hindistonda – buddizm va jaynizmning asoschilari bir vaqtda ijod qilgan miloddan avvalgi 800 va 200 yillar oralig'idagi davrni tarixning universal mazmunini namoyon etgan «vaqt o'qi» davri deb hisoblashni taklif qilgan. Mazkur davrda majusiylik o'rnini egallagan jahon dinlari paydo bo'lgan, mifologik dunyoqarash o'rnida falsafiy tafakkur vujudga kelgan; jahonda deyarli bir vaqtda o'zaro mushtarak bo'lgan bir nechta qudratli ma'naviy markazlar paydo bo'lgan. «Vaqt o'qi» davri insonga o'zini inson sifatida his qilishga yordam bergan, uning ma'naviyatini uyg'otgan, uni madaniyat va axloq asoslari bilan oshno etgan, uning oldiga insonning mavjudligi va hayotning mazmuni haqidagi masalalarni qo'ygan. K.Yaspers fikriga ko'ra, inson o'z-o'zini anglab yetishi, inson ma'naviyatining uyg'onishi shu vaqtgacha o'zaro bog'lanmagan lokal madaniyatlarga bo'lingan insoniyat umumiy tarixining ibtidosiga aylangan. Shundan beri insoniyat umumiy taqdir va yagona e'tiqod bilan bog'langan. Aks holda uning tarixi halokat bilan tugashi mumkin. Yaspers ta'limotiga ko'ra, odamlarni umumiy ma'naviy asoslarda birlashtirish, ular o'zaro til topishini ta'minlashda kommunikasiya ulkan rol o'ynaydi, shu bois uning tarix falsafasi ba'zan kommunikativ tarix falsafasi deb ham ataladi.

Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi muammosi bilan amerikalik faylasuf Frensis Fukuyama ham shug'ullangan. U o'zining «tarixning intihosi» nazariyasini taklif qilgan. «Tarixning intihosi»ni u

shunda ko'rganki, insoniyat oxir-oqibatda jamiyat va davlatning optimal shaklini, albatta, topadi. *F.Fukuyama liberal g'oya va qarashlarni umuminsoniy ideal sifatida e'tirof etgan, ularning negizida insonning barcha ehtiyojlari qondirilishi va jamiyatdagi asosiy ziddiyatlar hal qilinishi lozim, deb hisoblagan. Uning fikricha, liberalizm jamiyatni tashkil etishning oqilona shakli sifatida o'z muqobiliga ega emas, shu sababli insoniyat oldida bu mafko'rani boshqa mamlakatlarga yoyish, shu tariqa umuminsoniy davlat – siyosiy jahhada liberal demokratiyani yaratishdan boshqa yo'l yo'q. Insoniyat tarixining mazmunini F.Fukuyama ana shunda ko'rgan.*

Tarixning mazmuniga nisbatan pessimistik yondashuv vakillari Artur Shopengauer, Yakov Burgxardt fikriga ko'ra, tarix har qanday mazmundan xoli, odamlar uchun jumboqdir.

Tarixning mazmuniga nisbatan irrasional yondashuv vakillari Fridrix Nisshe, Eduard Gartman fikriga ko'ra tarixiy voqealarni oqilona tushuntirish mumkin emas.

Tarix mazmuniga nisbatan tarixiy taraqqiyot nuqtai nazardan yondashuvga ko'ra rivojlanish jarayoni quyidan yuksakka, noraso holatdan barkamol holatga o'tish bilan tavsiflanadi. Taraqqiyot haqida jamiyatga tatbiqan (bu holda ijtimoiy taraqqiyot nazarda tutiladi) va uning ayrim elementlariga, jamiyatning tuzilishi yoki boshqa parametrlariga tatbiqan (bu holda fan-texnika taraqqiyotini, ma'naviy sohadagi, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi taraqqiyot nazarda tutiladi) so'z yuritish mumkin.

Taraqqiyot o'z mohiyatiga ko'ra, ziddiyatlidir, chunki uning teskari tomoni regress, ya'ni oliydan tubanga, barkamol holatdan noraso holatga o'tishdir. Insoniyat biror narsaga erishar ekan, muqarrar tarzda nimanidir yo'qotadi, shu sababli insoniyatning taraqqiyot yoki regress yo'lidagi harakati haqida faqat umumiy ma'noda so'z yuritish mumkin.

Jamiyat tarixi taraqqiyot yo'lidan harakatlangan, ammo ijtimoiy taraqqiyot g'oyasiga hamma olimlar ham ishonavermaydi, ayrimlar hatto taraqqiyotning rivojlanishga shikastli ta'siri haqida so'z yuritadi. Masalan, Aurelio Pechchei taraqqiyot xavfli jarayon ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, anarxik jarayonni sirtdan turib tartibga solish mumkin emas, u Yer yuzida hayotning rivojlanishi uchun

shikastli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga e'tibor bermay, jamiyat ehtiyojlari bilan biron-bir real aloqasiz yangi qadamlar tashlashda davom etadi. Bu fikrga Elvin Toffler (1928-yilda tug'ilgan) ham qo'shiladi. U taraqqiyot jamiyat va davlat institutlarini vayron qiluvchi, qadriyatlarni o'zgartiruvchi va hayot ildizlarimizga putur yetkazuvchi o'zgarishlar oqimini olib kelishi haqida ogohlantiradi.

Tarixiy taraqqiyot mezonlari

Tarixiy taraqqiyot mezonlarini aniqlash ijtimoiy taraqqiyot nazariyasining bahsli masalasi hisoblanadi.

XVII asr mutafakkirlari inson aqlini taraqqiyot mezoni deb hisoblaganlar.

XIX asrda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi taraqqiyot mezonlari sifatida e'tirof etilgan. XX asr oxiri –XXI asrda taraqqiyotning mezonlari sifatida ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, gumanistik va boshqa mezonlar qayd etiladi. Bu mezonlar yordamida u yoki bu ijtimoiy tizimlar, siyosiy rejimlar, ijtimoiy harakatlarning progressivlik darajasini aniqlash mumkin.

Ammo yuqorida zikr etilgan mezonlarning barchasi ijtimoiy hayotning ayrim tomonlarinigina tavsiflaydi, butun jamiyat taraqqiyoti haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Jamiyatning insonparvarlashuvi darajasini, shaxsning undagi o'rnini, uning ma'naviy va ijtimoiy erkinlik darajasini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishining sifatini jamiyat rivojlanishining umumiy yoki umumfalsafiy mezoni deb hisoblash mumkin. Bu mezon mazkur jamiyatda inson kamol topish uchun imkoniyatlarga qay darajada ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur mezon nuqtai nazaridan har bir jamiyatning progressivlik darajasi u shaxs huquq va erkinliklari doirasini qay darajada kengaytirgani, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ehtiyojlarini rivojlantirishi va ularni qondirishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratgani bilan belgilanadi.

Xulosa. Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayon mazmuni, uning qonuniyat va asosiy yo'nalishlarini tushuntirish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, uni bilish metodlarini asoslovchi bo'limi. Quyidagilar tarix

falsafasining tarkibiy qismlari hisoblanadi: tarix falsafasi ontologiyasi, tarix falsafasi gnoseologiyasi, tarix falsafasi tarixi, tarix falsafasi antropologiyasi. Tarix falsafasining dunyoqarashga doir, nazariy, metodologik va prognostik funksiyalari farqlanadi.

Formasion va sivilizasion yondashuvlar tarixiy jarayon yo'nalishini, ayniqsa, to'liq va teran aks ettiradi. Ayrim tadqiqotchilar ko'rsatilgan yondashuvlarga muvofiq monadaga doir yondashuvni taxmin qiladilar.


Tajribaviy amaliy matnlar.


Tarix falsafasi, formasion va sivilizasion yondashuv, tarixiy taraqqiyot konsepsiyasi, taraqqiyot mezonlari, postindustrial jamiyat, texnologik yo'nalish, aksiologik yo'nalish, ontoligik yo'nalish, progress, regress, sivilizatsiya.


Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. I.A.Karimovning tarix falsafasi haqidagi qarashlarini tahlil qiling.
2. Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi muammosi kimning ijodiga mansub?
3. Tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalarini ayting.
4. Tarix falsafasi va falsafa tarixi: o'zaro uyg'unlik va farqlarni aniqlang.
5. Tarix falsafasining funksiyalarini bilasizmi?
6. Tarixga oid formasion va sivilizasion yondashuvlarni ayting.
7. A.Beruniy ijodida tarix falsafasi muammosi
8. Ibn Xaldun tarixning mazmuni haqida
9. E.Toffler sivilizatsiyalar tarixi haqida
10. Tarix falsafasi aksiologik yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar







Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari.

1. Qaysi faylasuf tarixga mutlaq ruh, amaliy aql taraqqiyoti sifatida yondashadi?

A) Gegel
B) Kant
V) Didro
G) Kandorse

2. Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihatini aniqlang.

A) Jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlardan iborat. bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi.
B) Jahon tarixini tan olmaydi.
V) Davlatlararo aloqa vositasi sifatida namoyon bo'ladi.
G) Millat tarqqiyotini tarixga bog'laydi

3. Tarix falsafasining dunyoqarashga doir funksiyasini aniqlang.

A) Insonda tarixga, ya'ni jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi, tarixiy jarayonning yagonaligi, rang-barangligiga, uning mazmuni va yo'nalishiga, insonning undagi o'rni hamda roliga va hokazolarga nisbatan umumiy munosabatni shakllantiradi.
B) Tarixga individual munosabatni shakllantiradi.
V) tarixga xususiy-ilmiy munosabatni shakllantiradi.
G) Tarixiy taraqqiyotni tan olmaydi.

4. Tarix falsafasining nazariy funksiyasi shundan iboratki, ...

A) Tarixiy jarayonni teran anglab yetish va u haqda nazariya, ya'ni tarixiy jarayonning mavjudligi, mazmuni, rivojlanish yo'nalishi haqidagi qarashlar tizimi darajasida xulosa chiqarish imkonini beradi.
B) Xaosdagi tartibsiz bilim beradi.
V) Tarixiy jarayonlar mazmuni haqida bilim beradi.
G) Shaxsning tarixga individual munosabatini shakllantiradi.

5. Ontologik konsepsiya namoyandalari tarix falsafasining predmeti deganda ...

A) Ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar majmuini tushunganlar
B) Ijtimoiy jarayonlarning tarixiy taraqqiyotga ta'sirini tan olmaganlar
V) Mintaqaviy va milliy nizolar ta'sirini tan olganlar
G) Tarixda oammaning roliga e'tibor qaratganlar

6. Avreliy Avgustin o'zining qaysi asarida haqiylik va muvaqqatlik, ilohiylik va dunyoviylikning birligi to'g'risida so'z yuritadi?

A) «Ilohiy shahar haqida»

B) «Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari»

V) «Evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar»

G) Barcha javoblar to'g'ri.

7. Tarixning harakatida qaysi alloma obyektivlashuvning inson ustidan hukmini kamaytiradigan, uning erkinligi va ijodining tantanasini qaror toptiradigan jarayonlarni aniqlashga harakat qiladi?

A) Ibn Xaldun

B) Nikolay Kondorse

V) K.Yaspers

G) Avreliy Avgustin

8. D.Didro tashabbusi bilan yaratilgan «Ensiklopediya»ning faol ishtirokchilaridan biri, fransuz ma'rifatchisi kimning asarida o'z aksini topgan?

A) Nikolay Kondorse

B) Ibn Xaldun

V) K.Yaspers

G) Avreliy Avgustin

9. Qaysi olim «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasiga chizig'i» deb nomlangan risolasida kishilik jamiyatining barcha jabhalariga tafakkurning kirishi g'oyasini mazkur jamiyat rivojlanishining uzoq istiqboli sifatida asoslashga harakat qiladi?

A) Nikolay Kondorse

B) Ibn Xaldun

V) K.Yaspers

G) Avreliy Avgustin

10. Ushbu fikr muallifini toping: "Taraqqiyot o'zining ulohida vazifasini ado etishi lozim bo'lgan ayrim xalqlar ruhi orqali amalga oshadi".

A) Nikolay Kondorse

B) Ibn Xaldun

V) K.Yaspers

G) Avreliy Avgustin

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: O'zbekiston,1998.

2. Beruniy A. Tanlangan asarlar. I-jild. -T.: Fan. 1968.

3. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. -T.: Ma'naviyat. 2008.

4. Hotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan.-T.: Ma'naviyat. 2003.

5. Философский энциклопедический словарь. - М.: Современный литератор. 1989.

6. Бернеев Н. Смысл истории. –М.: 1990.

7. Вольтер Философия и методология истории//Историки и историческая наука. судьба. творчество.В 2-томах. -М:1998.

8. Фукуяма Ф. Конец истории // Вопросы философии. 1990 №3.

9. Шпенглер. Закат Европы. Очерки морфологии истории. –М.: В 2-х томах. 1998.

10. Ломоносов Ю.Л. "Конец истории" как социофилософская проблема: диссертация ... кандидата философских наук : 09.00.11. – М.: 2002.

11. Shermuhamedova N.A Tarix falsafasi//Falsafa- Toshkent, IdrisAhdumuf. 2021

9-MAVZU. FAOLIYAT FALSAFASI

Faoliyat tushunchasining mazmuni

Praksiologiya (yunon. praktikos – faol) "Faoliyat" tushunchasi inson borlig'ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqa va munosabatlarini, inson ma'naviy dunyosi va moddiy amaliyot sohasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va jamiyat borlig'ining alohida usuli hisoblanadi.

Ijtimoiy yo'nalganligiga qarab faoliyatning turli fanlarda o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa shaxsning ijtimoiylashuvi, ya'ni jamiyat to'plagan tajriba, qadriyat va me'yorlarni o'zlashtirish usuli sifatidagi faoliyat mazmunini yoritadi.

Sotsiologiyada faoliyat (ijtimoiy harakat) ijtimoiy organizmning subyektiv motivasiya va boshqalarga qarab mo'ljal olish bilan tavsiflanadigan hamda shaxs va jamiyatning aloqasini ta'minlaydigan hujayrasi sifatida qaraladi.

Ontologiyada faoliyat inson borlig'i usuli bo'lib, unda odamzotning mohiyatini belgilovchi kuchlar to'la aks etadi.

Bilish nazariyasida asosiy e'tibor bilishning negizi va bilimlar haqiqiyligining muhim mezoni bo'lgan amaliyot sifatida tushuniladigan faoliyatga qaratiladi.

Axloq va huquq falsafasida xohish-iroda erkinligi muammolari hamda inson faoliyatini tartibga solish usullari o'rganiladi.

Inson faoliyatining madaniyat bilan aloqasi mazkur faoliyatning o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi muhim falsafiy muammolardan biridir. To'g'ri, inson yaratgan barcha narsalar ham madaniyatga mansub bo'lavermaydi, lekin ijodiy faoliyatsiz madaniyat mavjud bo'lishi mumkin emas. Yondashuvlarning bunday rang-barangligi tasodifiy hol emas, chunki inson faoliyati uning yashash omili hisoblanadi, odamzotning tabiat va jamiyatga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari doirasini to'la qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, siyosat va boshqaruv, muloqot va bilish, badiiy ijod va falsafiy mulohaza yuritish, tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash – bularning barchasi faoliyatni insonning dunyo va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining

universal shakli, shaxs hamda jamiyatning rang-barang ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida tavsiflaydi.

Falsafada faoliyat insonga xos bo'lgan, tashqi dunyoni oqilona o'zgartirishga qaratilgan faollikning alohida shakli sifatida tavsiflanadi.

Ijtimoiy falsafada faoliyat ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi.

Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o'zaro o'tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o'zgartirish va o'zi ham o'zgarishini anglatadi. Forobiy fikricha, "Inson faoliyatsiz turaolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko'rsata olmaydi. Chunki o'z tabiatiga ko'ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko'radi va unga intiladi, bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Odamni hayvondan ajratadigan narsa alohida iroda bo'lib, u ixtiyor deb nomlanadi". Ixtiyor – komillikka intilish va unga erishish sari harakat demakdir. Inson maqsadni ham, unga erishish vositalari, yo'lni ham bilib oladi. Natijada u o'z maqsadiga etish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko'p narsani orzu qilib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo'lmaydi. Shu bois haqiqiy baxtga u dunyoda erishiladi, oxiratda mutlaq baxtga erishishga qaratilgan har qanday harakat – fazilat, deb hisoblaydi.

XX asrning atoqli mutafakkiri E.Kassirer insonning eng muhim xususiyati, uning o'ziga xos belgisi metafizik yoki jismoniy tabiati emas, balki uning faoliyatidir, deb qayd etgan. Insoniyat sohasini aynan mehnat, faoliyat turlari tizimi belgilaydi. *E.Kassirer til, mif, din, san'at, fan, tarixni inson faoliyati tizimining turli sektorlari sifatida qayd etadi.* Insonni tushunish bu faoliyat turlaridan har birining teran qatlamlari haqida tasavvur hosil qilish, ayni vaqtda, uni yaxlit bir butun organizm sifatida tushunish demakdir.

Faoliyatni sotsiologik jihatdan tavsiflash "qilmish", "xatti-harakat", "xulq-atvor" tushunchalari yordamida amalga oshiriladi. Bu tasodifiy bir hol emas.

Jamiyat odamlar birgalikda amalga oshiradigan faoliyat shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli inson faoliyati doim ijtimoiy xususiyat kasb etadi, garchi o'z shaxsiy ehtiyojlari va egoistik tushuniladigan manfaatlar yo'lida amalga oshirilsa-da, boshqalarga qaratilgan bo'ladi. *Qilmish* –

shaxs faolligi namoyon bo'lishining shakli bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyatga molik natijalar uchun javobgarligini nazarda tutadi. Ayni holda mazkur natijalar shaxsning muayyan maqsad yoki mo'ljallari bilan belgilangan yoki belgilanmagani ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Xatti-harakat – shaxsning ma'naviy o'zlikni anglashi natijasi sanalgan ongli harakati (yoki harakatsizligi) bo'lib, unda mazkur shaxsning o'z-o'zi, boshqa odamlarga, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati aks etadi. Shaxsning axloqiy mo'ljallari ro'yobga chiqadigan qilmishlar tizimi uning xulq-atvorini tavsiflaydi.

Xulq-atvor faoliyatning tashqi ko'rsatkichi hisoblanadi, shu sababli uning ichki mexanizmlari xulq-atvorda bilvosita namoyon bo'ladi, inson o'z faoliyatida amal qiladigan motivlarni doim ham namoyon etavermaydi.

Psixologiyada faoliyatga mufassalroq tavsif berilgan bo'lib, u insonning dunyo bilan munosabatlari dinamik tizimi sifatida talqin qilinadi. Bunda subyektda ruhiy obraz yuzaga keladi, u obyektda mujassamlashadi. Sodda qilib aytganda, faoliyat insonning har qanday obyekt (dunyo)ga shunday munosabatini aks ettiradiki, uning zamirida nafaqat obyekt (dunyo) haqidagi bilim, balki uni o'zgartirish natijasida inson nimaga erishishi mumkinligi haqidagi tasavvur ham yotadi. Psixologiyada bilim va maqsadning inson ehtiyojlari bilan belgilangan o'ziga xos chatishuvi faoliyat jarayonida obyektda gavdalanadigan obraz sifatida qaraladi. Shunday qilib, faoliyat subyektning borliqqa bo'lgan munosabatlarini ro'yobga chiqarish usuli hisoblanadi. Ammo faoliyatning o'zi insonning tashqi dunyoga bevosita munosabati bilan emas, balki uni anglab yetishi, ya'ni ruhiy motivlar, maqsadlar, vositalar (mehnat qurollari) bilan tavsiflanadi.

Faoliyatning tuzilishi va atributlari

Faoliyatning umumiy tuzilishi ehtiyojlar bilan belgilanadi. Insonning ehtiyojlari uning faollik manbai hisoblanadi. Hayot ehtiyojlari (insonning jonli mavjudot sifatidagi ehtiyojlari), ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, shuningdek shaxsning jamiyatga moslashuv ehtiyojlari) va ma'naviy (ma'rifiy, diniy, axloqiy, estetik va sh.k.) ehtiyojlar farqlanadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi inson faoliyati turlarining rang-barangligini belgilaydi. Faoliyat turlarini tasniflash

zamirida yotuvchi eng muhim omil u qaratilgan va faoliyat motivini tashkil etadigan predmetlar farqidir. Faoliyat motivsiz bo'lmaydi, «motivlashtirilmagan» faoliyat sub'yektiv pinhona motivga ega bo'ladi.

Harakatlar va amallar faoliyat tuzilishining tarkibiy qismidir. Harakat alohida maqsadga, ya'ni erishilishi lozim bo'lgan natija haqidagi tasavvurga bo'ysunadigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Maqsad inson ongida ehtiyoj va motiv bilan faoliyat ob'yektiv holatlarining nisbatlashuvi jarayonida yuzaga keladi. O'z navbatida, holatlar maqsadga erishish yo'llarini belgilaydi. Bular faoliyat shartlari bilan belgilanadigan amallar hisoblanadi. Shunday qilib, faoliyat - motiv bilan, harakat – maqsadlar bilan, amallar – shartlar bilan belgilanadi.

Faoliyat atributlari faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida sub'yektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Faoliyatning subyektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyoj va mo'ljallari, motiv va maqsadlari, emotsiya va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyati va hokazolar bilan belgilanadi.

Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo'li bilan o'zgartiriladigan tabiat hamda jamiyat kuchlariga qaratilganini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin.

Faoliyatni moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish

Moddiylik faoliyat jarayoni va natijasining materialga bog'liqligini belgilaydi. Faoliyat natijasi inson oqilona o'zgartirgan materialda o'z aksini topadi, moddiylashadi (predmetga aylanadi). Faoliyat natijasi inson kuchlari va qobiliyatlarining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.G.Fixte fikricha, "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgudagi aksiga o'xshaydi"[1]

Moddiylashuv nima ekanligi haqida amalda tasavvur hosil qilish

[1] Фихте И.Г. Назначение человека. – СПб., 2006. – С.81.

uchun chevar, g'isht teruvchi, ma'ruzachilarning ishini kuzatadigan bo'lsak, inson qanday ishlashi, uning faoliyati natijasida nima vujudga kelganiga qarab, insonning o'zi haqida xulosa chiqarish, uning aql-zakovat darajasi, irodasi, kasbiy mahorati, estetik didi, mehnatga munosabati, axloqiy mo'ljal va hokazolarni aniqlash mumkinligini ko'ramiz. Shu ma'noda, faoliyat doim individ va insoniyatning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi demakdir. Individning ijtimoiyligi aynan faoliyatda namoyon bo'ladi. Faoliyat orqali u ijtimoiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi.

Inson faoliyati mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi. Uning hayvonlar faolligidan asosiy farqlaridan biri qurollilik hisoblanadi. «quruq qo'l ham, o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan aql ham katta kuchga ega emas, - degan edi F.Bekon. – Ish qo'lga ham, aqlga ham kerak bo'lgan qurollar va vositalar yordamida bajariladi»[1].

Mehnat qurollari inson va u o'zgartiruvchi narsalar dunyosi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Mehnat qurollarida insonning tajribasi mujassamlashadi. Odamlar yaratgan mehnat qurollari va iste'mol predmetlarida ularning ma'naviy kuchlari (aql-zakovati va ko'nikmalari, bilim va qobiliyatlari, maqsad va mayllari va sh.k.) o'zining moddiy ifodasini topadi. Bundan tashqari, mehnat qurollari faoliyat texnologiyasi haqida axborot beradi va shu tariqa insonni boshqa odamlar bilan bog'laydi. Boshqa odamlar yaratgan narsalardan foydalanish uchun inson ularning mohiyatini, vazifasini aniqlashi, boshqacha aytganda, ularning ma'naviy mazmunini anglab yetishi lozim. Bu jarayon falsafada moddiylikdan chiqarish, ya'ni inson mehnati bilan yaratilgan mahsulotning ma'naviy mazmunini fikrlash yo'li bilan uning moddiy qobig'idan ajratish deb ataladi. Pirovardida inson faoliyati uning ma'naviy va jismoniy kuchlari va qobiliyatlarining moddiylashuvi hamda mehnat mahsullarida mujassamlashgan ularning yaratuvchilari ma'naviy dunyosining birligidan tashkil topadi.

Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik.

Inson faoliyati oqilona, ongli va maqsadga muvofiq bo'ladi. E.Kassirer «Oqilonalik – inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos

[1] Бэкон Ф. Новый Органон. Афоризмы об истолковании природы и царства человека // Соч.: в 2 т. – М.: 1978. Т. 2. – С. 12.

bo'lgan jihat»[1], deb qayd etadi. *Oqilonalik insonning o'z faoliyati maqsadlarini aqlga muvofiq tarzda belgilash va ularni erkin, ongli boshqarish qobiliyatini anglatadi.* I.G.Fixte inson tabiat kabi zaruriyat taqozosiga ko'ra emas, balki ongli niyat bilan ish ko'rishini ta'kidlaydi. Ayni shu sababli tabiat va jamiyatni o'zgartirish insoniyatning ma'naviy burchidir[2].

Onglilik va maqsadga muvofiqlik – inson faoliyatini hayvonlar faolligidan farqlash imkonini beruvchi muhim xossalardir. Ammo ular «sof ko'rinish»da mavjud bo'lmaydi. Shu sababli onglilik va maqsadga muvofiqlikka zid bo'lgan xossalarni inson faoliyatining talqini doirasidan chiqarish o'rinli bo'lmaydi. Xususan, insonning barcha faoliyati ham ongli bo'ladimi, degan savol ustida mulohaza yuritib ko'raylik. Amalda faoliyat ayrim ko'nikmalar shakllanishini nazarda tutadi (kasbiy mahorat esa aksariyat ko'nikmalarni avtomatizm darajasiga ko'taradi); faoliyatda anglanmaydigan mayllar, mo'ljallar, tajriba, o'tmishda (aksariyat hollarda – bolalikda) olingan taassurotlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Faoliyat «onglilik – ongsizlik» qarama-qarshiligining birligidir, deb aytish uchun asoslar mavjud. Ziddiyatli vaziyatlar – mutlaqo ongsiz va ongga butunlay bo'ysungan faoliyatni hayotda juda kam uchraydigan muayyan abstraksiya sifatidagina tasavvur qilish mumkin. Shuningdek, ongga to'la bo'ysunadigan harakat ko'pincha samarasiz bo'ladi.

Onglilik faoliyatning maqsadga muvofiqligini belgilaydi, chunki maqsadni qo'yish o'z ehtiyojlari hamda mavjud vaziyatni bu ehtiyojlarni qondirish sharti sifatida anglashni nazarda tutadi. Maqsadga muvofiq faoliyat oldindan mo'ljallangan muayyan natijaga qarab mo'ljal oladi. Entoni Giddens o'zining «Jamiyat tuzilishi» asarida inson faoliyati mo'ljallanmagan natijasining ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. Ammo faoliyat maqsadsiz bo'lishi, ya'ni jarayonning o'ziga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilishi ham mumkin. Albatta, ongsiz faoliyat mantiqsizdir, chunki hech qanday maqsadni ko'zlamaydi, lekin uning natijasi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Masalan, suzishni bilmagan, lekin suvda oyoq-qo'llari bilan tinimsiz harakat qilayotgan odam cho'kmaydi. Ammo har qanday maqsadsiz faoliyat ham ongsiz

[1] Кассирер Э. Опыт о человеке: введение в философию человеческой культуры // Проблема человека в западной философии. – М.: 1988. – С.28.

[2] Фихте И.Г. Избр. соч. Т. 1. – М.: 1916. – С.402.

bo'lavermaydi (masalan, o'yin).

Inson faoliyati unumli, aksariyat hollarda amaliydir, lekin unumsiz ham, noamaliy ham bo'lishi mumkin. Masalan, rasm-rusumlarni bajarish unumsiz hisoblanadi (ammo ba'zan muayyan vazifalarni hal qilishga qaratilgan rasm-rusumlar amaliy xususiyat kasb etishi ham mumkin).

Moddiy faoliyatni soddalashtirib predmetlar bilan ish ko'rish sifatida, ma'naviy faoliyatni esa predmetlarning obrazlari bilan ish ko'rish sifatida tasavvur qilish mumkin. Mavhum mulohaza yuritish orqali moddiy va ma'naviy faoliyatni «sof ko'rinish»da, muayyan qarama-qarshilik sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo ma'naviyatdan xoli bo'lgan moddiy faoliyat behudadir. Ma'naviy faoliyat «sof ko'rinishda» mavjudmi? Obyektiv idealizm tizimida muayyan mutlaq va o'z-o'zidan rivojlanuvchi g'oya uning moddiy manbasidan tashqarida mavjud bo'lishi tan olinadi. Ammo insonning real hayotidagi ma'naviy faoliyati moddiy faoliyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, amalda moddiy va ma'naviy faoliyat unsurlari turli darajada aks etgan faoliyat rang-barang shakllarining kontinuumi (lot. continuum – uzluksiz to'plam)gina mavjud.

Moddiy va ma'naviy faoliyatning birligi faoliyat jarayoni ham, uning natijasi ham moddiy-ashyoviy substrat va ma'naviy mazmunning muayyan sintezidan iborat ekanligini anglatadiki, bu uning natijalarini obyektiv tarzda, inson xohish-irodasidan qat'iy nazar, ramzlar, ya'ni insonning ma'naviy dunyosi haqidagi axborot manbalari tizimiga aylantiradi. O'z xususiyatiga ko'ra, faoliyat muayyan ideal yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, chunki u moddiy ko'rinishda predmetni yaratadi, ramziy ko'rinishda esa ma'naviy mazmun – shaxsning bilimlari, qobiliyatlari, axloqiy mo'ljallarini, uning mahorati va o'z kasbiga munosabatini, shuningdek, o'z-o'ziga va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini vujudga keltiradi. Shu sababli tabiiy obyekt insonning o'zgartiruvchi faoliyati natijasida o'zlashtirgan xossalar ramziy tarzda amal qiladi. Shu ma'noda, inson nafaqat moddiy, balki ramziy olamda ham yashaydi.

Muloqot faoliyat sifatida mehnat qurollaridan foydalanish usullari, ularning vazifasi haqida axborot berish vositasi sanalgan o'ziga xos «til»ga qarab mo'ljal olish inson faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Insonni bu mehnat qurollari bilan ishlashga tayyorlash, chunonchi:

tegishli ko'nikmalarni shakllantirish, eng muhimi – faoliyat tajribasi va usullarini o'rgatish ham zarur. Bu ish yo namoyish etish, o'rnak ko'rsatish yoki faoliyatda ishtirokchilik orqali bevosita, yo til yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muloqot insoniy munosabatlar, umuman, jamiyat hayotining muhim tomoni hisoblanadi. Bu odamlar o'z hayotida yo'l-yo'lakay shug'ullanadigan alohida faoliyat turi, inson hayotining ovloq burchagi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni yuz beradigan markazidir.

Inson faoliyatining sanab o'tilgan xossalari uning madaniyat bilan belgilanishini ko'rsatadi. E.Kassirer bu xususda shunday deydi: «Inson madaniyatini, hech shubhasiz, har xil maqsadlarni ko'zlab, turli yo'llardan rivojlanadigan faoliyatning har xil turlari tashkil etadi. Falsafiy sintez yordamida biz inson faoliyati oqibatlarining birligini emas, balki harakatlar birligini, faoliyat mahsullari birligini emas, balki ijodiy jarayon birligini aniq-ravshan ko'rishimiz mumkin»[1].

Inson faoliyati madaniyat mexanizmlari tomonidan dasturlashtiriladigan va amalga oshiriladigan tabiatan ijtimoiy faollik sifatida tavsiflanishi bejiz emas. Faoliyatning nobiologik tarzda yaratilgan mexanizmlari serqirra va murakkab tizimini o'z ichiga olgan madaniyat unga o'ziga xos insoniy tus beradi.

Insonning shakllanishi va kamol topishida faoliyatning roli katta. Talaba inson faoliyatini o'rganishga murojaat etar ekan, mazkur muammoning shaxsiy hayotdagi ahamiyatini tasavvur qilishi lozim: zero insonning aqlli mavjudot sifatida va individning shaxs sifatida shakllanishi, inson o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi faqat faoliyat doirasida yuz berishi mumkin. Inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilish o'z mehnati va bo'sh vaqtini tashkil etishni ham, o'z bolalarini tarbiyalash jarayonini ham, boshqa odamlar bilan o'zaro muloqotni ham, rasm-rusumlarni ado etishni ham, madaniyatga munosabatni ham sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi.

Interiorizasiya nazariyasi

Ong va faoliyatning aloqasi g'oyasining eng mukammal tavsifiga nemis klassik idealizmi namoyandalarining asarlarida duch kelish

[1] Кассирер Э. Опыт о человеке. Введение в философию человеческой культуры. Ч. II. Человек и культура. – Лондон: 1945. – С.155.

mumkin. Nafaqat Fixte, balki Shelling va Gegel ham ma'naviy hodisalar sababini amaliyotda, odamlar faoliyatida izlagan. Xususan, Shelling amaliyotga, inson faoliyatiga odamzotning o'zini o'zi tabiatda gavdalantirishi, ya'ni ob'yektivlashtirishi sifatida yondashgan. U inson faoliyati natijasida ikki dunyo: tabiat dunyosi va inson dunyosi, ya'ni o'zgartirilgan insoniylashtirilgan tabiat dunyosi mavjud ekanligini qayd etadi. Dunyoga nisbatan harakatda Shelling ong negizini ko'radi. Insonning insonga ta'sirini u ongning ikkinchi manbai deb hisobladi: aqlli mavjudotlarning tinimsiz o'zaro ta'siri ongning zaruriy omili hisoblanadi. XX asrda psixologlar aynan faoliyat shaxsning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish, uning qobiliyatlari, irodasi va ongini shakllantirish mexanizmi hisoblanishini tajriba o'tkazish yo'li bilan ko'p sonli etnografik va tarixiy materialga asoslangan holda ko'rsatib berdilar. Individual va umuminsoniy rivojlanish jarayonida faoliyatning mustaqil sohasi sanalgan faollik ko'rinishlari murakkabroq madaniy tuzilmalarga qo'shilib, asta-sekin ong shakllariga aylangan. Sirtda birlamchi xususiyatga ega bo'lgan faoliyat sal' ichki (interiorizasiyalashgan) xususiyat kasb etishi mumkin.

"Interiorizasiya" tushunchasi faoliyatning tabiatan sirtqi jarayonlarini ongda yuz beradigan jarayonlarga o'tishini ifodalash uchun xizmat qiladi. E.From bu tushunchaga shunday tavsif beradi: «Inson yomonlik qilar ekan, uning o'zi ham yanada nuqsonlashadi»[1]. Ajdodlarimiz ruhiyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan qadimgi madaniy institutlar (rasm-rusumlar, cherkov, o'yin) hozirgi inson ruhiyatida o'z-o'zidan amal qilishini nazarda tutadigan tarixiy interiorizasiya g'oyasi sirtdagi harakatning shaxs ichki mulkiga aylanish mexanizmini tushuntiradigan "interiorizasiya" tushunchasini to'ldiradi.

Interiorizasiya mexanizmi

Faoliyat insonning dunyo va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining universal, umumiy usulidir. Ammo inson qay tarzda ish ko'rmasin, qaysi vazifalarni hal qilmasin, uning barcha elementlari: faoliyat predmeti, vositalari va jarayoni doim ramziy tabiatga ega bo'ladi. Til, ya'ni so'z eng universal ramz hisoblanadi. XIX asr oxirida tilga ijodning birinchi

[1] Фромм Э. Душевное здоровье. Перспективы здорового общества // Психология и психоанализ. М.: 1989. – С. 56.

mahsuli deb tavsif berilgan. Verbal (og'zaki) til va noverbal til (imo-ishoralar, kiyim-kechak va zeb-gardonlar, san'at va etiket tili) mavjud. Tilning bu ikki turini ham biz bolalikdan o'zlashtiramiz, inson o'zgartirgan tabiat dunyosida, ijtimoiy munosabatlar dunyosida, madaniyat dunyosida til yordamida mo'ljal olamiz.

Tilda uch element: ovoz, ma'no va obraz farqlanadi. Ma'noning moddiy ifodalovchilari sanalgan ovoz yoki grafik tasvir so'zga xos. O'zga ramzlar butunlay boshqacha moddiy ifodalovchilarga ega bo'lishi mumkin (mehnat amali, imo-ishora, rasm-rusum, rassom asarining elementlari va sh.k.). Shunga qaramay, har qanday ramzlarning qolgan barcha elementlari umumiy: moddiy ifodalovchi, ma'no va obraz shular jumlasidan. Faoliyatning hissiy idrok etiladigan har qanday elementi moddiy ifodalovchi bo'lishi mumkin. Masalan, so'zda bu ovoz yoki grafik tasvir. Lekin bunday ifodalovchi vazifasini imo-ishora, mehnat amali yoki boshqa har qanday shunga o'xshash signal ham bajarishi mumkin.

Ma'noda insoniyatning o'tmishdagi tajribasi umjussamlashadi. Har qanday ramz ma'nosi insoniyat uchun umumiy xususiyat kasb etadi, ayrim turdagi narsalar, aloqalar, munosabat yoki harakatlarning shartli, konvensional mustahkamlangan ifodasi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida madaniy ramzlarning ma'nolarini anglab yetar ekan, o'zini qurshagan dunyoni boshqacha idrok eta boshlaydi, chunki unda har qanday hodisani uning so'zdagi ifodasi bilan bog'lashga ehtiyoj va qobiliyat yuzaga keladi. Ma'nolar inson ongida dunyoni aks ettiradi.

Obraz – narsa yoki hodisaning o'ziga xos ma'nosi bo'lib, u har qanday ramzning haqiqiy ma'nosidan ancha farq qilishi mumkin. Masalan, «tuz» so'zi hamma uchun bir ma'noni anglatadi – u barcha odamlar ovqatga qo'shib, iste'mol qiladigan moddani ifodalaydi. Ammo kimyogar, yozuvchi yoki oshpaz uchun «tuz» so'zi butunlay boshqacha ma'no kasb etishi mumkin. Oshpaz tuzda xushxo'r bo'lishi uchun ovqatga solinadigan qo'shilmasni ko'radi, kimyogar tuz deganda ionli tuzilish xos bo'lgan kimyoviy birikmalar turkumini tushunadi va h.k. Xullas, har qanday so'z ko'plab ma'nolarga ega bo'ladi. Obraz – haqiqiy ma'no va ayrim ma'noning shaxs manfaati va ehtiyojlari, uning tuyg'u va mayllari mujassamlashgan o'ziga xos sintezi.

Inson faoliyati o'z tabiatiga ko'ra madaniydir, til ramzlari esa

madaniyatning muhim boyligi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida tashqi madaniy ramzni o'zlashtirar ekan, nafaqat rang-barang mehnat qurollaridan foydalanishni, balki ularning boshqalar va o'zi uchun ahamiyatini anglashni ham o'rganadi. Madaniyat ramzlari psixologik vositalar hisoblanadi: inson mehnat qurollaridan ularning asl mazmuniga muvofiq foydalanish orqali tabiat dunyosini o'zgartirishi mumkin. Ammo mehnat qurollari inson uchun muayyan ahamiyat kasb etadigan ramzlar ham sanalgani bois, odamzot ularning yordamida o'z ruhiy funksiyalari – zehni, irodasi, tafakkurini ham boshqaradi. Ayni shu sababli insonning tabiiy iste'dodi faoliyatda namoyon bo'ladi, uning qobiliyatlari shakllanadi, ehtiyojlari qondiriladi.

Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi

Shaxsning shakllanish jarayonida faoliyat qay darajada muhim rol o'ynamasin, uni mutlaqlashtirish yaramaydi. Psixolog S.L.Rubinshteyn insonning kamol topishida faoliyat rolining mutlaqlashtirilishiga qarshi e'tiroz bildirar ekan, shunday deb qayd etgan edi: «Inson qobiliyatlarining rivojlanish jarayoni u yaratadigan narsalarning rivojlanish jarayoni emas, balki insonning kamol topish jarayonidir, chunki qobiliyatlar insonda narsalardan yaralmaydi»[1] Inson tashqi ta'sirlarni tanlash va ularni o'zining betakror, hech kimnikiga o'xshamaydigan individualligining ichki mantiqiga muvofiq qabul qilishda erkindir. Interiorizatsiya nazariyasi ijod omiliga putur etkazadi, inson hayot faoliyatida qadriyatlarning rolini (ayniqsa, san'at, din va axloq sohasida) inkor etadi, insonning ichki dunyosini soddalashtiradi. Shu sababli bola tarbiyasi bilan shug'ullanganda uning individualligini hisobga olish, bunda uning ichki ruhlantiruvchi motivlariga tayanish, uni faoliyatga majburlamaslik, balki jalb qilish, uning imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlash, ularga tayanish lozim.

Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi shaxsning shakllanishiga faoliyatning ta'sirini rad etmaydi, balki uning imkoniyatlari chegarasini ko'rsatadi. Zero, shaxsning shakllanishida faoliyatning rolini tushunish uchun insonning muayyan faoliyat turlariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan ichki xususiyatlarini hisobga olish muhim. Ichki

[1] Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. М.: 1973. С.227.

xususiyatlar deganda, avvalo, shaxsning qobiliyatlari va irodasi zamirida yotuvchi tabiiy iste'dod nishonalari, oliy asab faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari (mijoz), umumiy ta'sirchanlik (ya'ni, sezish va idrok etish individual qobiliyati), miya yarim pallasi asimmetriyasi va hokazolar nazarda tutiladi. Shaxsning ichki xususiyatlari nafaqat irsiy (genetik) va tug'ma (embrional rivojlanish jarayoni bilan belgilangan) xossalar, balki shaxs hayoti, tarbiyasi, bilimi, hayot tajribasining o'ziga xos holatlari ta'sirida shakllangan individual belgilar tushunchasini ham qamrab oladi.

Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati

Faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati uni tartibga solish, individ, jamoa, umuman, jamiyat faoliyatini boshqarish muammosini kun tartibiga qo'yadi. Inson faoliyatini boshqaruvchi mexanizmlarni shartli ravishda ikki turkum: ichki va tashqiga ajratish mumkin. Faoliyatni tartibga solishning ichki mexanizmlarini biz uning asosiy atributlarini o'rganish jarayonida ko'rib chiqdik. Bu maqsadni belgilash, motivasiya, shaxsning fe'l-atvorini tavsiflovchi xususiyatlar – uning mijozi, xarakteri, irodasi, xullas, maqsadlar va ularga erishish vositalarini tanlashni, shuningdek, faoliyat uslubini belgilaydigan shaxsning barcha xususiyatlari.

Xulq-atvorni tartibga solishning ichki mexanizmlari qatoriga ideallar va didni ham kiradi. Ideal – barkamollik va etuklikning xayoliy obrazi, odamzotning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, kamolotga etkazish, uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga solish funksiyasini bajaradi, u inson amalga oshirishga o'z hayotini baxshida etishga tayyor bo'lgan strategik maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

Did - shaxsning borliq hodisalariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan estetik komillikning o'ziga xos me'yori. Insonning didiga qarab, uning tajribasi, san'atga oshnoligi, badiiy ijod durdonalarining murakkab va rang-barang dunyosida mo'ljal olish imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalari haqida xulosa chiqarish mumkin. Didning hukmi go'zal va xunuk, fojiaviy va kulgili, yuksak va tuban kabi kategoriyalar bilan ish ko'radi. Didning o'ziga xosligi shundaki, u tuyg'ularga tayanadi va mantiqiy asoslashni talab qilmaydi. Qadimgi mutafakkirlar didning tavsifida uning asosiy qarama-qarshiliklariga duch kelganlar: did

individual, insonning shaxsiy ichki tuyg'usi bilan bog'liq, ayni vaqtda, umumiy; did o'ta shaxsiy va subyektiv hisoblanadi, lekin u umumiylikka da'vo qiladi. Didda sezish va tushunishning qarama-qarshiligiga ham duch kelish mumkin. Did, xulq-atvor tarzida, turmush va bo'sh vaqtni tashkil etishda, san'at asarlariga bo'lgan munosabatda, kiyinish uslubida namoyon bo'ladi.

Faoliyatni tartibga solishning umumiy mexanizmlari qatoriga insonning dunyo va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari tizimini to'la qamrab oladigan, madaniyat algoritmi bo'lib xizmat qiladigan rang-barang ijtimoiy qadriyat va me'yorlari kiradi. Xulq-atvor, odat va an'analarning ijtimoiy-madaniy me'yorlari, qoidalarining mavjudligi hamda rivojlanishi inson faoliyatini tartibga solish omili hisoblanadi. Me'yorlar muayyan sharoitda odamlar o'zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi, inson faoliyatida bevosita ishtirok etib, ijtimoiy va tabiiy sharoitlarga shaxsning moslashuvini ta'minlaydi, ijtimoiy jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi mexanizm hisoblanadi. Mazmuni, ijtimoiy mustahkamlash usullari va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra me'yorlar har xil bo'ladi.

Xulosa. Faoliyat maqsadlari, vosita va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bu qoidalar ijtimoiy amaliyotda yaratilgan narsalar dunyosini va insonlararo munosabatlar dunyosini o'zgartirish usullarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bular standartlar - muayyan ishni bajarishda qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan sifat, shakl va o'lchamning qat'iy belgilangan namunasi; qoidalar - tegishli holatlarda qanday ish ko'rish lozimligini belgilovchi ko'rsatmalar; etalonlar - faoliyatda mo'ljal sifatida foydalanish lozim bo'lgan qat'iy belgilangan, standartlashtirilgan qadriyatlar. Inson faoliyatini tartibga solishni ta'minlovchi ijtimoiy me'yorlar tizimida huquq normalari va axloq me'yorlari alohida o'rin egallaydi.

Tajribaviy amaliy matnlar


Faoliyat, faoliyatning turlari, faoliyat mezonlari, mehnat, interiorizatsiya, axloq, huquq


Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Faoliyat nima?

2. Inson faoliyatining tuzilishi va uning asosiy atributlariga tavsif bering.
3. Moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish nima?
4. Mehnat va begonalashuvning aloqasi tushuntirib bering? Begonalashuvga qachon chek qo'yiladi?
5. Shaxs va jamiyat hayotida o'yin fenomenining saqlanishi nima bilan izohlanadi?
6. Ijod nima? Mehnatning qaysi turlari ijodiy, qaysilari noijodiy deb hisoblanadi?
7. Inson faoliyatini tartibga solish mexanizmlari haqida gapirib bering.
8. Huquq va axloqning o'xshashligi va farqiga tavsif bering.
9. XX asr falsafasida ijod muammosi.
10. Mehnat va o'yin ijod jarayonining tarkibiy qismlari sifatida.
11. Inson faoliyatini tartibga solish muammosi.
12. Faoliyatning tuzilishi va atributlari.
13. Faoliyat insonni tarbiyalash va kamolotga yetkazish shakli sifatida: imkoniyatlar va cheklashlar.

Qo'shimcha tushuntiruvchi matnlar








Inson faoliyati o'rganilganda-o'rganilgan. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, faoliyat turlarini tasniflash uchun asos bo'lib uning inson tomonidan o'zgartirilayotgan obyekti xizmat qiladi. Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida sub'yektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Sub'yektlilik


Faoliyatning sub'yektlilagi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va motivlari, motivlari va maqsadlari, emotsiyalari va instinktini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi.

Moddiylik

Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va unung qo'li bilan o'zgartirilayotgan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratilgan-ligini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tashkillashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan bogʻliq harakatlar ham o'zgarishi faoliyatning predmeti bo'lishi mumkin.



Ongʻlilik faoliyatning maqsadga muvofiqligini belgilaydi, chunki maqsadni qo'yish o'z ongʻqilmini hamda inson va tabiat bu ehtiyojlarni qondirish shartlari sifatida anglashini nazarda tutadi. Maqsadga muvofiq faoliyat oldindan rejalashtirilgan muayyan natijaga qarab yo'naltiriladi.





Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1.Inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan falsafiy ta'limot qanday nomlanadi?

A) Praksiologiya
B) Aksiologiya
V) Fenomenologiya
G) Tonatologiya

2. Insonni faoliyatga undovchi sabablarni toping?

A) Ehtiyojlar
B) Maqsadlar
V) Orzular
G) Xayollar

3. Faoliyatning eng muhim atributlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Moddiylik va subyektlilik
B) Moddiylik va ma'naviylik
V) Subyektlilik va doimiylik
G) Cheklilik va muayyanlik

4.Quyidagi fikr muallifini toping: "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgudagi aksiga o'xshaydi".

A) I.Fixte
B) G.Leybnis
V) B.Spinoza
G) I.Kant

5.Inson faoliyatini boshqa tirik mavjudotlar faoliyatidan farqlovchi xususiyatlar nima?

A) Onglilik va maqsadga muvofiqlik
B) Rasionallik va irrasionallik
V) Maqsadga muvofiqlik va hissiylik
G) Iroda va tasavvur qilish imkonining mavjud

6. Odamni hayvondan ajratadigan narsa- alohida iroda bo'lib, u ixtiyor deb nomlanadi" fikr muallifini toping.

A) Forobiy
B) S.L.Rubinshteyn
V) N.A.Berdyaev
G) I.G.Fixte

7. Ixtiyor nima?

A) Komillikka intilish va unga erishish sari harakat
B) A va G javoblar to'g'ri
V) To'g'ri javob yo'q
G) Aqliy va jismoniy sog'lom inson bo'lib etishishga harakat

8. XX asrning qaysi atoqli mutafakkiri insonning eng muhim xususiyati, uning o'ziga xos belgisi metafizik yoki jismoniy tabiati emas, balki uning, deb qayd etgan edi?

A) E.Kassirer
B) S.L.Rubinshteyn

V) N.A.Berdyaev

G) I.G.Fixte

9. Kassirer til, mif, din, san'at, fan, tarixni nima sifatida qayd etadi?

A) Inson faoliyati tizimining turli sektorlari.

B) Inson hayotining kechinmalari.

V) Insonning dunyodagi o'rnini belgilovchi omillari.

G) Barcha jvoblar to'g'ri.

10. Faoliyatni sotsiologik jihatdan tavsiflash nima yordamida amalga oshadi?

A) Barcha javoblar to'g'ri

B) Qilmish.

V) Xatti-harakat

G) Xulq-atvor

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr al Forobiy Fozil odamlar shahri. –T.:1993.
2. Jalolov A. Человеческий фактор, философия , идеология. –T.: 1991.
3. Батищев Г.С. Философская концепция человека и креативности в наследии
4. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. – М.: 1995.
5. Бердяев Н.А. Смысл творчества. –М.: 1989.
6. Бердяев Н.А. Я и мир объектов // Философия свободного духа. - М.: 1994.
7. Бердяев Н.А. Самопознание. –М.: 1990.
8. Фихте И.Г. Избр. соч. Т. 1. – М.: 1916.
9. Фромм Э. Духовная сущность человека. Способность к добру и злу // Человек и его ценности. – М.: 1988.
10. Рубинштейн С.Л. Проблемы общей психологии. – М.: 1973.

10-MAVZU. MEHNAT, O'YIN va IJOD FAOLIYAT SIFATIDA

Mehnat va o'yin faoliyat turi sifatida

Mehnat insonning mehnat qurollari yordamida tashqi dunyoga ta'sir ko'rsatish va oldindan mo'ljallangan natijaga erishishdan iborat maqsadga muvofiq faoliyatidir. Mehnat tushunchasiga nisbatan bunday yondashilgan taqdirda, olim, aktyor, pedagog, haykaltarosh, faylasuf faoliyati mehnat hisoblanmaydi. Bugungi kunda unumsiz deb nomlash mumkin bo'lgan mehnat turlari mavjud emasligi aniq-ravshandir. Zero mehnat yaxlit jarayon bo'lib, insondan moddiy va ma'naviy kuch-g'ayrat sarflashni taqozo etadi. Inson va jamiyatning rivojlanishi jarayonida yuz bergan mehnat taqsimoti mazkur yaxlit jarayon parchalanishiga, jismoniy va aqliy mehnatning ajralishiga olib keldi. Ammo mazkur ajralish jismoniy mehnat insonning faqat jismoniy kuch sarflashi, uning muskullari harakati bilan bog'liq ekanligini anglatmaydi. Jismoniy mehnat inson ma'naviy, ruhiy va asabiy kuch sarflashini ham nazarda tutadi. Ammo jismoniy va asabiy kuch-g'ayrat ulushi jismoniy mehnatda ko'proq bo'ladi. Aqliy mehnat esa, hech shubhasiz, insonning ma'naviy kuchlari, uning intellektual imkoniyatlaridan ko'proq foydalanishni nazarda tutadi. Ammo jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham o'xshash jihatlarga ega. Birinchidan, jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham muayyan qurollardan foydalanishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, mehnat oldindan mo'ljallangan natijaga erishishni nazarda tutadi. Uchinchidan, mehnat tabiat va jamiyat kuchlaridan foydalanmasdan yashay olmaydigan insonning muayyan ehtiyojlari bilan belgilanadi (chunki inson bioijtimoiy mavjudotdir). To'rtinchidan, jismoniy va aqliy mehnatning eng sodda omillari – mehnat predmetlari, mehnat qurollari va inson mehnatining o'zi umumiydir. Ammo mehnatning asosiy o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tashqi dunyoning insonga qarshi turuvchi kuchlarini moddiy va ma'naviy jihatdan o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Mehnat insondan sidqidildan ishlash, zahmat chekishni talab qiladi, tegishli ko'nikmalarni shakllantirish va irodani toblashni nazarda tutadi. O'z ma'naviy kuchlarini inson mehnat jarayonini o'zlashtirish, tashqi kuchlar qarshiligini engishga sarflaydi. Shu sababli mehnat faoliyati insonga tashqi dunyoni ham, o'z-o'zini ham anglash imkonini beruvchi real tajriba sifatida amal qiladi.

Mehnat muayyan mahsulotda o'zining tadrijiy ifodasini topadi. Mehnat mahsuli ikki tomonlama xususiyat kasb etadi: u inson mehnat jarayonida o'zlashtirgan tashqi dunyo predmet va munosabatlarini, insonning mahsulotda o'z moddiy ifodasini topgan jismoniy va ma'naviy kuchlarini qamrab oladi. Mehnat mahsulining mazkur xususiyati inson borlig'ining o'ziga xos holati sanalgan begonalashuv sabablarini tushuntiradi.

Mehnatda begonalashuv shunday bir holatki, unda inson o'z faoliyati, uning natijalari va o'z-o'ziga begona bo'lib qoladi. Mehnat muqarrar tarzda begonalashuv bilan bog'liq, chunki insonning ijtimoiy borlig'i shunday sharoitlar va vaziyatlarni yuzaga keltiradiki, unda inson o'z mehnati mahsullarini boshqa odamlarga topshirishi va shu tariqa o'z faoliyati, uning natijalari va o'z-o'ziga begona bo'lib qolishi lozim (yoki bunga majbur) bo'ladi (Ma'lumki, inson faoliyatida o'zining muhim kuchlarini moddiylashtiradi.).

Begonalashuv mehnat taqsimoti va faoliyat almashinuvi, shuningdek ijtimoiy ne'matlarni taqsimlash zaruriyati bilan belgilanadi. Garchi begonalashuv tarixan muayyan shakllarga ega bo'lsa-da, uning mohiyati bir – ayrim odamlarning boshqa odamlar kuchi, vositalari va faoliyat natijalarini o'zlashtirishdir. Shu sababli mehnatning shaxs hayotidagi roliga munosabat ham shak-shubhasiz ijobiy bo'lishi mumkin emas. Mehnat xususiyatiga baho berishda mehnatga rag'bat ayniqsa muhim o'rin tutadi. Inson mehnati zamirida zaruriyat taqozosi, majburlov yoki ichki da'vat, ayni shu mehnat turi bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj yotishi mumkin. Inson mehnatni lazzat sifatida ham, la'nat sifatida ham idrok etishi bejiz emas. Qo'li-qo'liga tegmay mehnat qilish, tirikchilikni deb o'ziga ma'qul bo'lmagan kasb-kor bilan shug'ullanish, ijtimoiy tengsizlik va kasb kasalliklari ta'sirida insonning deformasiyalanishi va shaxssizlanishiga sabab bo'ladi, uning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va o'zini o'zi kamol toptirishiga monelik qiladi. Shunga qaramay, mehnat inson hayotining boqiy va tabiiy omilidir, chunki u faoliyatning odamzot o'z ehtiyojlarini qondirish uchun narsalar yaratadigan birdan-bir shakli hisoblanadi. Shu sababli insonning butun faoliyati ko'pincha maqsadga muvofiqlik, moddiylik, unumdorlik, samaradorlik, amaliylik, tabiat va jamiyat kuchlarini o'zlashtirishga

qaratilganlik bilan tavsiflanadigan mehnatga tenglashtirilishi bejiz emas. Ammo inson faoliyatini faqat mehnat bilan bog'lash ham to'g'ri bo'lmaydi. Mehnat – muayyan natijaga erishishga qaratilgan faoliyat, ammo u majburlovdan xoli bo'lishi va insonga natijadan qat'iy nazar, mehnat jarayonining o'zi bilan quvonch baxsh etishi ham mumkin. Bunday mehnatda begonalashuvga chek qo'yiladi. Ammo faoliyat ham faqatgina mehnat bo'lib qolmaydi va ayni vaqtda o'yin sifatida ham amal qiladi. Favqulodda hollardagina mehnat va o'yin faoliyatning alohida va mustaqil shakllari hisoblanadi, amalda ular faoliyatning ikki o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi, faoliyat mahsullarida va insonning o'zida aks etuvchi tomonlarini tashkil etadi. Ammo mehnat va o'yin dialektikasini tushunish uchun avval o'yin nima ekanligini aniqlab olish lozim.

O'yin shunday bir faoliyat shakliki, unda inson o'zining odatdagi funksiyalari yoki predmetlar va mehnat qurollaridan amaliy foydalanish chegarasidan chetga chiqadi. O'yin odatda «jiddiy» faoliyat va amaliy maqsadlarga qarshi qo'yiladi. U moddiy foyda yoki zaruriyat omilidan qat'iy nazar, muayyan joy, vaqt va ma'no doirasida yuz beradigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Odatda o'yinning ijobiy emotsional ahamiyati qayd etiladi. U insonning barcha – jismoniy va ruhiy kuchlari yuksalishi, ko'tarinkilik kayfiyati hukm surishi bilan tavsiflanadi, chunki u o'yin xususiyatiga ega bo'lmagan harakatlar natijasida yuzaga kelgan zo'riqish holatini bartaraf etib, insonga haqiqiy quvonch baxsh etadi.

Har qanday o'yin yagona – makonda shakllanib, o'yin jarayoni qoidalar bilan boshqarilib, ishtirokchining o'z-o'zidan qanoatlanish bilan yakunlanadi. *O'yinning 4 ta tipi farqlanadi: 1) o'yin-hujum (kurash)raqiblar o'ynaydilar va maqsad g'olib bo'lishdir, bu asosan stadionda amalga oshadi; 2) o'yin-ermak (oshiq o'yini, birja o'yinlari, totalizator)da barcha turdagi ko'ngilochar o'yinlar bo'lib, unda g'alaba tasodiflarda namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda bu kabi o'yinlar insonning ruhiy sinish davrida ko'proq uchraydi. O'yin odamlarni o'z-o'zini xursand qilishi, yaxshi hayot haqidagi orzular bilan uyg'unlashadi, kazenolarda amalga oshadi; 3) o'yin mimikriya (imitasiya, taqlidchilik). Bu tipdagi o'yin sahnada, tomosha jarayonida avjga chiqadi, uning o'ziga xos xususiyati reallikni imkon qadar ko'rsatishdir, u asosan*

sahnada bo'ladi; 4) xavfli o'yin. Bunda ishtirokchi ajal bilan o'ynashadi, o'z xayotini xavfga qo'yib juda katta pul yutishni, yoki mashhur bo'lishni maqsad qiladi. Barcha o'yin tiplari ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladi.

O'yin jarayonida o'yinchilar bevosita idrok etuvchi va boshdan kechiruvchi o'yin obrazi yaratiladi. U jonlilik, ramziy tabiatga egalik va emotsional «yuqumlilik» bilan tavsiflanadi. O'yin obrazining jonliligi borliqning modellashtirilishi va unda o'yinchilar muayyan rol o'ynashi bilan izohlanadi. Ramziylik o'yin harakatlarining ramziy tabiatida, qoidalarning shartliligida, shuningdek ma'nolar bir predmetdan boshqa predmetga o'tkazilishida namoyon bo'ladi. Masalan, bola qo'liga tayoqchani olib, u bilan xuddi qoshiq kabi manipulyasiya qiladi. O'yin obrazining emotsional «yuqumliligi» uning qanday rivojlanishini oldindan aytib bo'lmasligi, shuningdek o'yinchi o'zini o'zi o'ynayotgan rolga bog'lashi bilan belgilanadi. Shaxsning ehtiyojlari, mayllari, maqsadlari va mo'ljallarini aks ettiruvchi va ularni qondirishning xayoliy usuli bo'lib xizmat qiluvchi o'yin obrazining qadriyat sifatidagi tabiati ishtirokchilarga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'yinning ma'nosi – inson o'z hayot faolligini o'ziga quvonch baxsh etadigan tarzda erkin namoyon etishidir. Inson va uning ijodiy imkoniyatlari shakllanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadigan o'yin mutlaqo noamaliydir. U iste'mol mahsulotlari, moddiy ne'matlar yaratilishiga olib kelmaydi, moddiy naf ko'rish bilan bog'liq amaliy samaraga erishish yo'lida amalga oshirilmaydi. O'yin stimuli uning o'zida mavjud. O'yin faoliyatining asosiy xususiyati shunda. O'yinning insonga ta'sirini kuzatar ekanmiz, biz uning o'yinchi uchun obyektiv va shaxsiy ma'nosini farqlashimiz lozim. Subyektiv nuqtai nazardan o'yin ishtirokchisi uchun uning ma'nosi o'yindan olinadigan tajribaning ahamiyatida, o'yin baxsh etadigan quvonch va lazzatda namoyon bo'ladi. Obyektiv ma'noda o'yin bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va kiritishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

Har bir go'dak o'yin nimaligini va u nimaga uni o'ynashini biladi. Balog'atga yetganlar yesa o'yin sifatida qandaydir jiddiy bo'lmagan, uni kundalik ro'zg'or tashvishlaridan xalos etuvchi, unga qaysidir ma'noda baxt ato etuvchi faoliyatni tushunadi.

Ammo o'yinning ham o'z qonun-qoidalari, tartiblari, o'z makon va zamoni, o'z mazmuni mavjud. Qanday qilib o'yin olamini inson mavjudligining boshqa olamlari bilan taqqoslash mumkin, o'yinning tasvirlash qudrati nimada namoyon bo'ladi, o'yin mohiyatan nimani anglatadi, u o'ynovchilar uchun nimani anglatadi, va nihoyat, bugungi kundagi turli o'yin turlarining qanday rivojlanish tendentsiyalari mavjud? Endi mazkur, ko'p jihatdar jumboqli savollarga javob berishga harakat qilib ko'ramiz.

O'yin tabiati va mexanizmlari (mushohada va tasdiqlar). O'yinning madaniyat omili sifatida tahlil qilishning mumtoz vakillaridan biri I.Xeyzinga fikricha, o'yin – bu aqldan tashqari bo'lgan faoliyat turidir. O'yinda biz Shunday tirik mavjudot funktsiyasini bajaramizki, bu funktsiya na biologik, na mantiqiy va na axloqiy jihatdan belgilana olmaydi. Nega o'yin og'ushidagi go'dak quvonchdan qichqiradi? Nega o'yinchi o'yin bilan chalg'ib, olamdagi barcha narsani unutadi?

Bu savollarning har biriga u yoki bu ma'noda javob berish mumkin, ammo nima ularni birlashtiradi? Agar o'yiinchilar ham bosim, xushvaqtlik, baxt yoki kulgililik hislarini tuyganlarida ham, bu tuyg'ular aynan o'yin tomonidan yaratilmagan. Shunchaki o'yin faoliyati ketidan ergashib keluvchi hissiy impulslar-ku. Shunday ekan, o'yin tabiatini tushunish uchun biz o'ynovchi odam chegaralaridan tashqariga chiqishimiz va o'yin hosil qilish kuchni madaniyatdan – insonlarga qadriyatli-normativ tartib, fan va ta'lim olib keluvchi ular orasidagi o'ziga xos munosabatlar mahsulidan izlashimiz lozim. Ammo madaniyat ham muntazam yangilanib turuvchi, va o'yin olamini ham harakatga keltiruvchi kuchga egami? Bu yerda bizga bu olamga taaluqli bo'lgan konkret, yaxlit, tirik mavjudot zarur. Shunday ekan, bu masalada haqiqat tomon intilar ekanmiz, inson va madaniyatni yagona hodisaga – insonning muayyan, o'z madaniyatiga ega bo'lgan jamiyatdagi mavjudligi hodisasiga birlashtirishimiz lozim. Faqatgina o'yinga inson mavjudligining muntazam va barqaror hodisalaridan biri sifatida qarash bilangina biz o'yin tabiati masalasini yechishga yaqinlashishimiz mumkin. Bu yerda bir kamchilik yuzaga keladi – biz insonlar olamini, faqatgina Shu olamni nazarda tutamiz, biologik tavsiflar esa (agar hayvonlarning ham o'ynashini hisobga oladigan bo'lsak, biologik

tavsiflashga ehtiyoj tug'iladi, albatta) hozirda biz tomonimizdan ko'rilayotgan hodisani tushuntirishda talabga javob bermaydi. Shu sababli ham o'yinning insonlar olamida yuzaga kelishining biologik asoslarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Y.Xeyzinga madaniyatni to'laligicha o'yin hodisasidan kelib chiqqan deb hisoblaydi va o'yin hodisasini hattoki hayvonlar olamida ham o'z o'rniga ega ekanligini ilgari suradi. Uning fikricha, o'yin hattoki insonning o'zidan ham qadimiyroqdir. Bir qarashda, ayniqsa agar biz o'yin hodisasiga uzaki xususiyatlarga qarab baho beradigan bo'lsak, bu to'g'ridek tuyuladi: u zaruriyat natijasida yuzaga kelmaydi (erkin harakat), u o'ynovchini kundalik turmush chegaralaridan tashqarida olib chiqadi ("kundalik turmushdan tanaffus"), u utilitar jihatlardan holi, u o'yin bo'lmagan olamdan ajralgan (u o'zining xronotopiga – ya'ni makon va vaqt kategoriyalariga ega), o'yin qatnashchilari o'z olamlarini va undagi qoidalarni yaratishadi (masalan, hayvonlar o'yin va haqiqiy tahdidni juda yaxshi farqlashadi).

Biroq, bu xususiyatlar o'yinning tarkibiy qismlari bo'lmay, Shunchaki uning natijasida kelib chiquvchi xususiyatlardir, va ularni istalgan insoniy olamda: mehnat va bilimlar olamida, sevgi va kurash olamlarida ham uchratish mumkin. Agar o'yin olami haqida shunchaki uning tashqi belgilariga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, insonlarning butun hayoti o'yindan iborat, degan fikrga kelish mumkin (bejizga istalgan sohada – isyosatda, huquqda, shaxslararo axloqiy va iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda – unga tegishli o'yin qoidalarini izlash an'anasi vujudga kelmagan). Bu bizning o'yinga nisbatan epifenomen sifatida, ya'ni o'z hayotiy qudratiga ega bo'lmagan, ko'plab tashqi omillar mahsuli sifatida yondashishga o'rganganligimizdan dalolat beradi.

Muammoning chuqur tahlili bizni o'yinning tabiatiga nisbatan quyidagi xulosaga kelishimizga sabab bo'ladi. *O'yin shunday madaniy-amaliy faoliyat turiki, uning mohiyati faqatgina o'ynovchining mushohada yuritishi va ichki kechinmalari bilangina anglab yetilishi mumkin.* O'ynovchi butkul yangi olamga, to'la shakllangan va o'z qonun-qoidalarga ega bo'lgan olamga tushib qoladi, va uning oldida mazkur qoidalar doirasida o'zining ekzistentsial anglash va tasdiqlash vazifasi turadi. Butkul yangi borliqning bu chegarasiga o'ynovchi ko'pincha

ekstaz holatida qadam bosadi, va aynan mazkur jo'shqin energiyali, hissiy holat o'yinchining o'zi mavjud bo'lgan borlig'ining chegaralarini yorib o'tish va kengaytirish uchun unga kuch-quvvat taqdim etadi.

O'yinning dastlabki va asosiy ma'nosi ham insonning yangi olamlar yaratish imkoniga ega to'liq borliqqa intilishi va bu to'lalik hissini tuyishidir. Erkin amaliy holat va ayniqsa o'yinchining hayot va mamot, yoki o'z ekzistentsial o'zligini anglash yoqasida turgan paytda kuchayuvchi, o'tkir hissiyotlarni boshdan kechirishi – bu ba'zi bir tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, hayotga tayyorlanish emas, balki hayotning o'zidir, faqat bu hayot ko'zgu ortida, hayolot tomonidan yaratilgan aralash timsollar olamida mavjud bo'lib, insonlarning bu hayotda yashashlariga har bir insondagi tabiiy, mukammal, va o'zlarining nazdida baxtli hayot tomon intilishlari sabab bo'ladi. Insonni o'ziga tortuvchi bu manbalar g'oyalar olamida, masalan Ishonch, Umid, Sevgi, yoki Ezgulik, Haqiqat, Go'zallik triadalarida o'z aksini topgan.

Insonlarning xilma xillashuvi (bu tarixiy tendentsiya hisoblanadi) va uning individualligining rivojlanishi bilan o'yinlar ham miqdor, ham sifat jihatidan o'sib va rivojlanib boradi. Masalan, hozirda, ko'z o'ngimizda o'z kelib chiqishiga ko'ra televidenie rivojlanishiga borib taqaluvchi va uning muayyan tashqi jihatlarini o'zlashtirgan virtual o'yinlar olami shiddat bilan rivojlanib kelmoqda.

S.A.Smirnov fikricha, o'yinning sub'yekti inson emas, balki o'yinning o'zidir, va bunga misol sifatida u o'yinning insonni o'ziga tortuvchi mexanizmlarini va uning inson orqali mavjudlinigi saqlab qolishini va shu orqali o'yinning o'ynovchidan ustunligini asoslashga harakat qiladi. Bu fikr qandaydir mistik ma'no bilan yo'g'rilgandek ko'rinadi, bir qarashda. Ammo, biz o'yinning vujudga kelishi va rivojlanishining inson tabiati bilan bog'liqligini va inson tabiati insonning insonlar olamida o'z o'rniga ega bo'lish uchun kurashini aks ettirishini hisobga oladigan bo'lsak, barchasi ratsional darajada ayonlashadi. Bu vaziyatda inson fantaziyasi o'yin olamining konstruktori vazifasini bajaradi. Ammo, alohida olingan individ, tug'ilishi va ijtimoiylashuvi bilan ko'plab o'yinlar tur va shakllariga va ularning o'zgarmasligiga guvoh bo'ladi va uning o'yinlar olamiga kiritilishi ham qandaydir o'yin sifatida ko'riladi. Aynan shu ma'noda, o'yin – o'ynovchilar ustidan

hukmrondir. O'yin, xuddi o'yinchi o'yinni yaratgani va uni yuritgani kab, o'yinchini ham yaratadi, va shaklga keltiradi. Y.Xeyzinga barcha madaniyat shakllarining kelib chiqishini o'yin hodisasi bilan bog'laydi, o'yin hodisasini esa ritual bilan bog'laydi. Bugunga kelib bu fikrga yetarli darajada qarshi dalillar to'plangan va o'yin, agar biz uni inson tabiatidan kelib chiqib tushunadigan bo'lsak, shunday narsaki, uni insonlarning odamlar va tabiat olamida mavjudligining fundamental asoslarini hisobga olmasdan tushunish mumkin emas. Qolaversa, o'yin insonlarning hayotida muntazam ravishda vujudga keluvchi hodisa hisoblanadi, va insondagi aynan shu xususiyat o'z navbatida san'atni, rituallarni, diniy va dunyoviy kultlarni, sport va boshqalarni yuzaga keltiradi. Insonlardagi o'yin yaratish kuchi ulardagi o'zlarining cheklangan mavjudliklari doirasida yangi olamlar qidirishi hisobiga o'z-o'zilarini anglashga, ta'riflashga va tasdiqlashga intilishlarida aks etadi.

O'yinlarning tasnifi

O'yinlarning tasifi haqida so'z ketganda, bu umumiy hodisani tizimga solishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, ya'ni, bitta katta o'yinni bir nechta kichik qismlarga ajratishdan iborat deduktiv metodni qo'llash zaruriyati tug'iladi. Bu yondashuv doirasida o'yinlar klassifikatsiyayasining quyidagi ko'rinishlarini keltirish mumkin.

R.Kayuya o'yinlarning to'rt shaklini tasniflagan. Uning fikricha, o'yinlar yagona kontinuum-jarayon bo'ylab joylashgan bo'lib, bu jarayon maksimal Ludus (o'yinni qoidalar orqali boshqarish) dan boshlanib, Paidia bilan yakunlanadi (o'yinda mavjud bo'lgan, o'ynovchiga o'zini anglash va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi maksimal darajadagi stixiya).

Agon-o'yin (kurash-bellashuv). Raqobatchilar o'yini, o'yin maqsadi – g'alaba. Bu o'yin – avvalambor sportdir.

Alea-o'yin (qur'a, tavakkal toshi). Bu yerga barcha o'ziga o'rgatib oluvchi o'yinlar va tasodifga asoslangan o'yinlar kiradi. Bu kabi o'yinlarda tavakkal asosiy ahamiyatga ega (masalan, birja o'yinlari, lotoreya, qarta, garov o'yinlari, ruletka, totalizator va hokazo). Qayd etib o'tish lozimki, inqiroz davrlarida bu kabi o'yinlarga intilish yanada kuchayadi. Kambag'allar uchun giyohvand hisoblanuvchi mazkur turdagi

o'yinlar ularning farovon hayot haqidagi orzularini oziqlantiradi va hattoki taqdirni ham chalg'itish imkonini beradi.

Mimicry-o'yin (taqlid, imitatsiya). Bu kabi o'yinlar sahna san'atlari, teatr, tomosha kabi faoliyat turlari uchun xosdir. O'ynovchi – aktyor, uning o'yin tamoyili – hayotiylik, reallikka taqliddir.

Ilinx-o'yin, charxpalak o'yinlari. O'yinchi ajalning o'zi bilan topishmachoq o'ynaydi, "rus ruletkasi"ga qadar boruvchi xatarli faoliyat. O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

Bu to'rt turdagi o'yinlarning barchasi o'z maydonlariga egadir: ularning birinchisi uchun maydon sifatida stadion, sportzal kabilar, ikkinchisi uchun – o'yin stoli, ruletka, uchinchisi uchun – sahna, to'rtinchisi uchun maydon sifatida o'yinchining hayoti xizmat qiladi.

Yana bir qarashga ko'ra quyidagi jihatlari farqlanadi: play [pley] (o'ynash, o'ynashish), game [geym] (o'yin turi), performance [performans] (o'yinchining motivatsiyasi, uning o'yinga nisbatan munosabati). O'yin klassifikatsiya (strukturatsiya) sining bu metodi o'yin turlarini ajratish va ularni tarkibiy qismlarini aniqlashtirishga yordam beradi.

S. A.Smirnov tasnifida boshqa tadqiqotchilarga nisbatan chuqurroq yondashadi, chunki, uning yondashuvida sxemaga insonlarning o'yinga mos hayot tarzlari ham kiritiladi va bu o'yinni tushunishni bir qadar antropologiklashtiradi. U o'yinning uch turini qo'rsatuvchi quyidagi sxemani keltiradi.

Mimezis o'yin tabiati:	*Agon-o'yin tabiati:*	*Ekstazis o'yin tabiati:*
Taqlid	Kurash	Mavjudlik mohiyatiga erishish
Olamni ikki qutbga bo'lish	Raqobatchilik ruhi	O'z olamini yaratish
Madaniyatdagi Apolloncha ibtido	G'alabaga erishish maqsadidagi raqobatchilik	Madaniyatdagi Dionisiycha ibtido

Mimezis-o'yin (teatr, til o'yinlari, matn o'yinlariga mos keladi) insonning tasavvuri va aqli bilan o'ynashishga asoslangan, bu "Ko'zgu

ortidagi olamdir" va bu kabi olamni yaratishdan maqsad o'ynovchining shaxsiyatini rivojlantirish hisoblanadi. Uning kvazi-ko'rinishlari: estetlik, salon o'yinlari va bogemik xulq-atvor. Bu o'yinda fantaziya qattiq shaklga kirib, "moddiylashsa", u agon-o'yin ko'rinishiga o'tadi, va bu o'yinning maqsadi bir o'yinchining ikkinchisi ustidan irreal olamdagi g'alabasi hisoblanadi, bu turli qoidalar bilan o'ralgan, shartli olamdagi o'yinchoqlar bilan o'ynash kabidir (ritsarlik turnirlari, sport musobaqalari, zakovat konkurslari). Bu yerda erkinlik birinchi o'yin turidagiga nisbatan kamroq, chunki bu yerda improvizatsiyaga, rolning individual talqiniga o'rin mavjud emas. Agonistikada inson hayotiy kuch va g'ayrat yaratadi va "hayotdan charchash" sarhadlaridan tashqariga chiqadi. Agar o'yin qoidalari buzilsa, nihoyada o'yinchini ham, o'yinni ham yakson qiluvchi kvazi-shakllar yuzaga keladi.

Ekstazis-o'yinlar kurashni oxirigacha olib boradi, o'yinchi jar yoqasigacha, naq Xudo bilan bellashuvgacha boradi (Gamlet, Don-Kixot). Bu o'yin turi Pushkin asarlari qahramonlari shaxsiyatlariga joylangan: "Mis chavandoz" dagi Yevgeniy, "Qarg'a honimlar" dagi Salyeri va German obrazlari bunga misoldir. Pushkin bizga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr shundan iborat bo'lganki, abstrakt tamoyil, bayroq va fetishga aylanuvchi g'oya nihoyada biz uchun butga (idolga), tiriklikni yakson qiluvchi asosga aylanadi. Idol o'zini ro'yobga chiqarish uchun kuch qidiradi va uni fanatikada topadi. Bu yerda biz Dostoevskiy asarlari personajlarining, inson tabiatini yaratgan va uni ushlab turgan ustunlarni vayron qiluvchi va tarixning o'zini inkor etuvchi qahramonlarining qilmishlarini tushunishga yaqin kelamiz. Buning kvazi shakllariga ruletka, qarta va qur'a tashlash kabilar kiradi.

O'yin muammosiga to'xtalganda, biz "Insonlar hayotida o'yin" asarining muallifi, taniqli amerikalik psixo-terapevt E.Bernning qarashlarini e'tiborsiz qoldira olmaymiz. U insonlarning ham tashqi munosabatlarida, ham ichki olamida o'z aksini topuvchi turli hayot stsenariylarini mavjudligini aniqlaydi. Agar yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonlararo munosabatlar o'yin sifatida ko'rilmasligiga ishonchimiz komil bo'lsa, Bern tomonidan ilgari surilgan ichki in'ikoslarning o'zaro munosabatlari kontseptsiyasi bizni qiziqtirishi tabiiy. U insonning ichki olamini "go'dak", "ota-ona" va "balog'atga yetgan" personajlariga ko'ra

tuzilmalashtiradi. Bu personajlar orasidagi o'zaro aloqa mazkur in'ikoslarning mohiyatini o'zida aks ettiradi: "go'dakka" fantaziyalar, ijodiy va improvizatsion ibtido xos, "ota-onaga" – ularning o'z ota-onalaridan o'tgan va "go'dakning" hayotini izga solishga xizmat qiluvchi normativlik, an'anaviylik, tarbiyaviy ibtido xos, "balog'atga yetganga" esa hayotga nisbatan pragmatik munosabat, fikr va amallardagi oqilonalik xosdir. Bu pozitsiyalardan birining inson ichki dunyosida ustunligi indivinning real qilmishlarida shunga mos xatti-harakatlarning aks etishiga olib keladi.

Sport o'ziga xos shiddatli o'yin. Agon-o'yinlar har bir o'ynovchini kuch-qudratda, chapdastlikda irodada musobaqalashish orqali g'alabaga intilishidan iborat bo'ladi. Bu – sportdir. Bu hukmronlikka intilish hodisasining o'yin shaklidagi ifodasi hisoblanadi va unda kurash zo'ravonliksiz vositalar yordamida olib boriladi va ustunlik o'rnatilgan qoidalar bo'yicha musobaqaga kirishish orqali qo'lga kiritiladi. An'analarga ko'ra Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlari paytida urushlar to'xtatilgan – bu shundan dalolat beradiki, insonlar qadim-qadimlardan o'z mavjudliklarining asosiy ko'rinishlarini "sof" ko'rinishda amaliyotga joriy qilishga urinishgan, va axloqiy talablar insonlar birgalikdagi mavjudligining u yoki bu ko'rinishini "insoniylashtirishni" talab qilgan.

Ginnes rekordlari kitobida Olimpiya o'yinlari o'tkaziluvchi 78 sport turlari sanab o'tilgan. Birgina yengil atletikaning o'zi bo'yicha 72 ta musobaqa shakllari mavjud, agar erkaklar va ayollar uchun musobaqalarni, va yopiq maydonlarda o'tkaziluvchi musobaqalar turlarini hisobga oladigan bo'lsak, ko'z o'ngimizda yildan-yilga o'z chegaralarini kengaytirib borayotgan sport olamining mahobatli manzarasiga guvoh bo'lamiz. Sportning barcha yangi turlarining xilma-xilligi Shundan dalolat beradiki, agon-o'yinlarining o'sish tendentsiyasi insonlarning asrlar davomida rang-baranglashib borishi bilan mos tushadi, shuningdek, bu o'z ichki imkoniyatlarini zo'ravonliklarsiz ro'yobga chiqarishga intilayotgan insonlar sonining ham o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

O'yinlar olami hukmronlikka intilish hodisasini, bir insonning ikkinchisidan ustun bo'lishiga intilish hodisasini yumshatadi va uning aks etilishi jarayonini madaniyat doirasiga kiritadi. Chempion g'alabasining

bo'ladi. O'yin jarayonida shaxsning o'z roliga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shu sababli o'yin amaldagi tajriba o'rnini to'ldirish, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtirish shakli hisoblanadi.

O'yin ishtirokchilarida qarama-qarshi mo'ljallar mavjudligi: birinchidan, o'yinda modellashtirilayotgan hayot vaziyatlari realligining tan olinishi, ikkinchidan, o'yinning o'zi reallik deb e'tirof etilishi uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. O'yinning bu ikki jihati shunda namoyon bo'ladiki, o'yinchi o'z zimmasiga olgan rol bilan qisman tenglashtiriladi, qaysi shaxs rolini o'ynayotgan bo'lsa, o'zini shu shaxs sifatida anglaydi va ayni vaqtda o'zi undan nima bilan farq qilishini tushunib etadi. O'yin uyg'otadigan murakkab tuyg'ular shu bilan izohlanadiki, o'yinchi o'z yutuq va kamchiliklarini teran his etadi, ayni vaqtda o'z roliga chetdan nazar tashlab, boshdan kechirayotgan tuyg'ularning nojiddiyligini ko'radi.

O'yinning obrazi va ma'nosi

O'yin jarayonida o'yinchilar bevosita idrok etuvchi va boshdan kechiruvchi o'yin obrazi yaratiladi. U jonlilik, ramziy tabiatga egalik va emotsional «yuqumlilik» bilan tavsiflanadi. O'yin obrazining jonliligi borliqning modellashtirilishi va unda o'yinchilar muayyan rol o'ynashi bilan izohlanadi. Ramziylik o'yin harakatlarining ramziy tabiatida, qoidalarning shartliligida, shuningdek ma'nolar bir predmetdan boshqa predmetga o'tkazilishida namoyon bo'ladi. Masalan, bola qo'liga tayoqchani olib, u bilan xuddi qoshiq kabi manipulyasiya qiladi. O'yin obrazining emotsional «yuqumliligi» uning qanday rivojlanishini oldindan aytib bo'lmasligi, shuningdek, o'yinchi o'zini o'zi o'ynayotgan rolga bog'lashi bilan belgilanadi. Shaxsning ehtiyojlari, mayllari, maqsad va mo'ljallarini aks ettiruvchi, ularni qondirishning xayoliy usuli bo'lib xizmat qiluvchi o'yin obrazining qadriyat sifatidagi tabiati ishtirokchilarga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Inson va uning ijodiy imkoniyatlari kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadigan o'yin mutlaqo noamaliydir. U iste'mol mahsulotlari, moddiy ne'matlar yaratilishiga olib kelmaydi, moddiy naf ko'rish bilan bog'liq amaliy samaraga erishish yo'lida amalga oshirilmaydi. O'yin stimuli uning o'zida mavjud. O'yinning ma'nosi – inson o'z hayot

faolligini o'ziga quvonch baxsh etadigan tarzda erkin namoyon etishidir. O'yin faoliyatining asosiy xususiyati shunda.

O'yinning insonga ta'sirini kuzatar ekanmiz, biz uning o'yinchi uchun ob'yektiv va shaxsiy ma'nosini farqlashimiz lozim. Sub'yektiv nuqtai nazardan o'yin ishtirokchisi uchun uning ma'nosi o'yindan olinadigan tajribaning ahamiyatida, o'yin baxsh etadigan quvonch va lazzatda namoyon bo'ladi. Ob'yektiv ma'noda, o'yin bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va kiritishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. O'yin real dunyo haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradigan ta'lim vositasi sifatida qaraladi. U insonni borliq bilan to'qnashuvga tayyorlaydi, kuchlarni sinovdan o'tkazadi, mehnat ko'nikmalarini shakllantiradi, dunyoqarashni kengaytiradi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, shaxsning axloqiy mo'ljallariga ta'sir ko'rsatadi, qondirilmagan mayllar o'rnini to'ldirish shakli hisoblanadi, inson hordiq chiqarishi uchun imkoniyat yaratadi, uning emotsional holatini uyg'unlashtiradi. Ammo o'yinning asosiy afzalligi shundaki, u insonni kundalik hayot andozalaridan uzoqlashtiradi, uning fantaziyasini faollashtiradi, mehnat va muloqotga, o'z turmushini tashkillashtirish va farzand tarbiyasiga nisbatan ijodiy munosabatni rag'batlantiradi. Eng muhimi, o'yin insonning ijodiy salohiyatini shakllantiradi, uni san'atni idrok etishga tayyorlaydi, uning xulq-atvoriga yengillik va mohirlik baxsh etadi. O'yinning jozibadorligini faqat ijod oliy shakllarining jozibadorligi bilan tenglashtirish mumkin.

Ijodning mohiyati

Aksariyat odamlar ongida "ijod" tushunchasi faoliyatning hech qanday rejalari va andozalariga bog'lab bo'lmaydigan sof shaxsiy jarayon bilan bog'lanadi. Ko'pincha u alohida odamlar, daholar anglash mumkin bo'lmagan tarzda ega bo'ladigan qandaydir ilohiy in'om sifatida qaraladi. Ijodda hamma narsa sirli va nomuayyan bo'lib u kundalik hayotga xuddi to'fon yanglig' kirib keladi, eskicha qarashlar, qotib qolgan andozalarni ag'dar-to'ntar qiladi. Ijodning mohiyati nimada, degan azaliy falsafiy savolga psixolog va pedagoglar, sotsiologlar va tarixchilar, faylasuf va san'atshunoslar javob berishga harakat qilganlar, ammo ular ijod ustidagi sirli pardaning bir chekkasinigina ochishga muvaffaq bo'lganlar. Shunga

qaramay, ijodni ijodiy mehnat mahsullari natijalariga muvofiq ancha aniq tushuntirish mumkin; unga faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida prosessual tavsif berish mumkin; ijodning tabiati haqidagi savolga javobni ijodkorlarning ruhiy dunyosi, qobiliyatlari, dunyoqarashi va axloqiy mo'ljallaridan ham izlash lozim.

Mutlaqo yangi ijtimoiy natijaga erishish ijodning muhim xususiyati bo'lib, u davomli tarixiy ahamiyat kasb etadi. Zero, ijod hamisha o'sish, qo'shilish, yangilik yaratishdir. Garchi insonning ijodiy faoliyati tabiat materialiga muhtoj bo'lsa-da, u to'laligicha tabiatda allaqachon mavjud bo'lgan narsa bilan belgilanishi mumkin emas. Ijod mahsulida material bilan belgilanmagan yangilik mavjud. Ijodga xos bo'lgan betakrorlik, nostandartlikni faqat asosiy materialning tor chegarasidan chetga chiquvchi ijodkorning o'ziga xosligi miqyosi bilan tenglashtirish mumkin. Ijod mahsulining yangiligi tufayli uni oldindan rejalashtirish mumkin emas. Ibn Arabiy ijodni ulkan muvaffaqiyatsizlik sifatida tavsiflaydi, chunki hatto mukammal mahsullarda ham u ijodiy g'oyaga kamdan-kam holda mos keladi. Bu ijodning o'ta shaxsiy intim jihatidir. Ijodkor shaxs imkoniyatlarining boyligini, odatda, ijod natijasining torligi bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Ijod – mehnat va o'yin sifatida

Ijodning o'ziga xos xususiyati uni o'yin bilan yaqinlashtiradi. Zero, o'yinga intilish shaxsning tashqi emas, balki ichki beg'araz motivlari, uning o'yin faoliyatidan lazzatlanish bilan bog'liq intim mayllari bilan belgilanadi. Bizning nazarimizda, ijodiy faoliyat va o'yin mexanizmlari umumiy. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, o'yin «jiddiy» faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Har qanday faoliyat qarama-qarshi ehtiyojlar: amaliy natijaga erishishga bo'lgan ehtiyoj yoki faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj mahsuli bo'lishi mumkin. Ijod faoliyatning shunday bir turiki, u mazkur omillarning ikkalasi bilan ham muayyan darajada belgilanishi mumkin.

Masalan, talabalarda o'qishdan maqsad har xil bo'lishi mumkin. Ayrimlar mayyan kasb egallashni xohlaydi, ayni shu kasbga tegishli fanlarga qaratadi. Kimdir «diplom uchun» o'qiydi, «imtihonni topshirish» uchun darslikni o'zini katta qiyinchiliklar bilan qo'lga oladi. Yana bir

toifa talabalar bilish jarayonining o'zidan lazzat oladi. Ayni shu talabalarga, fanda ijodkor shaxslarning real zahirasi sifatida qaralishi mumkin.

Lekin olimning bilish faoliyati ham yo oldindan belgilangan maqsadlar bilan chegaralangan, fanga nisbatan tashqi amaliy vazifaga bo'ysundirilgan, yo ichki omil – bilish faoliyati bilan shug'ullanish ehtiyojining mahsuli bo'lishi mumkin. Bu holda bilish insonga faoliyatning o'zi bilan lazzat baxsh etadigan ijodiy kuchlarning beg'araz o'yini sifatida idrok etiladi. Boshqa olimlar e'tiborga loyiq emas deb qaragan muammoli vaziyatni mustaqil aniqlash aksariyat hollarda bilish faolligiga turtki beruvchi omil hisoblanadi. Sirtdan berilgan turtki bilan bog'liq bo'lmagan ayni shu faoliyat intellektual faollikning muhim belgisidir.

Har qanday faoliyatga shunday tavsif berish mumkin. Masalan, insonning ishlab chiqarish faoliyati, xususan, jismoniy mehnat ijtimoiy muhim vazifalarni hal qilishga, odamlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'ysundirilgan. Mehnat faoliyatida shaxs o'z intilishlari va kuchlari o'yinini o'z mehnatining sirtdagi maqsadi, predmeti va mahsuliga bo'ysundirishi lozim. Ammo bunyodkorlik mehnati mehnatga bo'lgan ehtiyojni sirtda namoyon etish zaruriyatidan xoli bo'lishi ham mumkin. Bunday mehnat insonning kayfiyatini ko'taradi, unga quvonch baxsh etadi. Ob'yektiv muhim va ayni vaqtda shaxs tomonidan kiritilgan yangilik yaratuvchi ijodiy mehnatda faoliyatning o'ziga xos, obyektiv va shaxsiy ahamiyati to'la mos kelishi mumkin. Bu holda shaxsning ijodiy kuchlari o'yin orqali o'ziga keng yo'l topadi. Albatta, o'yinni o'z ichiga olgan mehnat asl mohiyatini yo'qotmaydi. Lekin ijodiy mehnatga xos bo'lgan o'yin omili shaxs o'zlashtirgan ajdodlar tajribasi bilan uning o'z tajribasi o'rtasida, faoliyatning qat'iy qoidalari bilan ularning ayni lahzada qo'llanilishi o'rtasida, bevosita erishiladigan amaliy maqsad bilan dastlabki qo'yilgan maqsaddan behad ortiq bo'lgan shaxsiy motivasiya o'rtasi erkin bog'lanishlarni yuzaga keltirib, fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Ijod va o'yin umumiy psixologik mexanizmga ega bo'lsa-da, lekin ularning ijtimoiy tabiati har xil. Ijodning o'yindan muhim farqi shundaki, u ijtimoiy ahamiyatga molik yangilik yaratishni nazarda tutadi, bu esa

insondan fidokorona mehnat qilishni taqozo etadi. Sirtdan biron-bir tazyiq insonni ijodiy mehnat qilishga majburlay olmaydi. Faqat o'yin jihati, amaliy natijadan qat'iy nazar faoliyatning o'zidan lazzat olish omili sifatida, shaxs o'z qobiliyatlarini to'la ro'yobga chiqarishiga zamin yaratadi. Maqsadga muvofiq va o'ziga to'q, amalda foydali va noamaliy mehnat va o'yinning inson faoliyatida namoyon bo'lish darajasi individualdir. Ijodiy faoliyatning har bir natijasi umuminsoniy madaniyatga qo'shiladigan hissa sifatida betakror.

Ijodiy faoliyat obyektiv va shaxsiy ahamiyatining mos kelishigina mazkur faoliyat natijalarining umuminsoniy va davomli ahamiyatini belgilaydi. Haqiqiy ijod shaxs ijtimoiyligining, u ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga qaratilganining oliy tajassumi hisoblanadi. Ijodkor ijodida o'z shaxsidan, o'zidan uzoqlashadi. Ijod shaxsiy xususiyat kasb etadi. U hamisha o'zini qurbon qilishni nazarda tutadi. Ijod o'z imkoniyatlari doirasidan, o'zining tor shaxsiy borlig'i chegarasidan chetga chiqishdir. Ijodkor panoh topish haqida o'ylamaydi, uni faqat oliy insoniy qadriyatlar o'ziga tortadi.

Ijod – nafaqat madaniyat predmetlarini yaratish, balki har qanday inson hayotini tashkillashtirish. Hamonki, ijodni tushuntirishda qiyinchiliklar yuzaga kelar, uni oqilona qayd etilgan qoidalarning muayyan to'plami sifatida tavsiflash mumkin emas ekan, inson ijodda yangilikni yaratish omili sanalgan o'z individualligiga tayanishi lozim. Shu bois o'zlikni saqlash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish har bir insonning vazifasi va burchidir. Ijod insonni o'z-o'zini bilishga da'vat etadi. Bu jarayon muqarrar tarzda o'zini o'zi kamolotga yetkazish, o'zini ijodkor sifatida namoyon etish bilan yakunlanadi. Lekin ayni vaqtda inson o'zligini saqlab, so'zning eng yuksak ma'nosidagi umuminsoniy qadriyatlarga o'zining daxldorligini namoyish etishi lozim.

Ijodiy va noijodiy faoliyat

Ijodiy deb hisoblash mumkin bo'lgan faoliyat turlarini aniqlash imkonini beruvchi mezonlar haqidagi masala murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Odatda, ijod deganda, san'at, fan, falsafa bilan shug'ullanish tushuniladi. «San'at, din, falsafa yoki fanda insonning asl mohiyati namoyon bo'ladi»[1]. Bundan ijod bilan alohida iste'dodli

[1] Фейербах Л. Избранные философские произведения. Т. 1. М., 1955. С. 232.

odamlargina shug'ullanishga qodir degan xulosa kelib chiqadi. Lekin bu fikrga qo'shilish mushkul. Psixologlar ham, faylasuflar ham ijodga nisbatan bunday yondashuvga qo'shilmaganlar. N.A.Berdyaev qullik, inson erkinligi haqida mulohaza yuritar ekan, ijod elitar, aristokratik xususiyatga ega ekanligini qayd etgan va buni madaniy ijod barcha jabhalarda komillikka, oliy sifatga erishishga intilishi bilan tushuntirgan. Uning fikricha, bu holni bilishda ham, san'atda ham, inson tuyg'ulari madaniyatida ham kuzatish mumkin. Haqiqat, go'zallik, muhabbat miqdorga bog'liq bo'lmaydi, zero ular sifatdir. O'z navbatida, tanlanishning aristokratik tamoyili elitani, ma'naviy aristokratiyani vujudga keltiradi. Ammo N.A.Berdyaev madaniy elita o'z qobig'iga o'ralib qolishi mumkin emasligini qayd etadi. Zero, har qanday guruhiy aristokratizm tanazzulga yuz tutishi muqarrar. Madaniy qadriyatlar ijodi insoniyatning sifatsiz ommasiga darhol tatbiq etilishi mumkin bo'lmaganidek, madaniyatning demokratiyalashuv jarayoni ham yuz bermasligi mumkin emas. Haqiqiy ma'naviy aristokratizm o'zining imtiyozliligini anglash bilan emas, balki ommaga xizmat qilish burchini anglash bilan bog'liq. Din mutafakkirlari ijodda demokratik asosga boshqacha baho berganlar. Ular ijodda insonning ilohiy-insoniy tabiati namoyon bo'ladi, chunki odamlarni o'ziga o'xshatib yaratgan Yaratguvchi – Xudo ularga o'z ijodiy dahosini ham hadya etgan, shu sababli ijod har qanday faoliyat turida mavjud bo'lishi mumkin, deb hisoblaganlar.

Darhaqiqat, ijod san'at, fan, falsafa, umuman, ma'naviy faoliyat doirasi bilan chegaralanmaydi. U faoliyatning ishlab chiqarish, siyosat, boshqaruv yoki oila-ro'zg'or kabi shakllarida ham mavjud bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya berish, muloqot qilish, bog' bunyod etish yoki xonaki o'stirish va shu kabilar ham ijod bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda, faoliyatning san'at yoki fan kabi bir qarashda o'ta ijodiy turlarida eskilik sarqitlari va qotib qolgan andozalar mavjud bo'lishi ham mumkin.

Ijodkor shaxs faoliyati

Ijodning ichki asoslari qatoriga, odatda, shaxsning qobiliyati va faoliyat motivlari kiritadi. Bu asoslar yagona: ijodiy qobiliyatlar muvaffaqiyat negizi hisoblanadi, lekin ular motivasiya orqali ro'yobga chiqadi. Ijod qilish qobiliyati ko'plab fazilatlar bilan tavsiflanadi. Ijodkor

shaxs o'z aql-zakovatining teranligi, mustaqil fikrlashi, tafakkurining o'ziga xosligi, bashorat qilish qobiliyati, zehnining o'tkirligi, tasavvuri va intuisiyasining kuchliligi, mehnatda tirishqoq va intiluvchanligi, o'ziga nisbatan tanqidiy munosabat va murosasizlik, yuksak axloqiy fazilatlar bilan ajralib turadi. Ijodiy qobiliyatlar insonga vaziyat trivial, «muammosiz» bo'lib tuyulgan joyda muammoni ko'rish imkonini beradi, bundan yangi motivatsiya paydo bo'ladi va u, dastlabki tarzda qo'yilgan vazifadan qat'iy nazar, ichki da'vatkor motivga, faoliyatda ehtiyojga aylanadi. Ijodkor o'zining ayni shu – kutilmagan va salmoqli natijaga erishish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Ijodkor shaxsning, ayniqsa, keng tarqalgan tavsifi «qobiliyatli», «iste'dodli», «daho» tushunchalarida beriladi. Mazkur belgilar zamirida qobiliyatning shunday tabiiy nishonalari yotadiki, ularning rivojlanish darajasi (bunga esa faqat qizg'in faoliyat bilan erishiladi) ijodiy natijaning ahamiyatini belgilaydi. Qobiliyat muayyan turdagi vazifalarni boshqalarga qaraganda yaxshiroq yechish imkoniyatini beradi. Iste'dod yangi, o'ziga xos natijaga erishishni nazarda tutadi, daholik esa shaxs va uning ijodiy yutuqlari madaniyatining rivojlanishiga davomli, olamshumul va ijobiy ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

Emotsional faollik, ijod jarayonida ijobiy emotsional holatlar bo'rtib ko'rinishi ijodning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ko'tarinki ruh, kayfiyat vazifalarning yechimlarini tirishqoqlik bilan izlashga rag'batlantiradi, pirovard natijada yuz beradigan insayt (fikrning ravshanlashish) lahzalarini belgilaydi. Bunda izlanayotgan natija ijodkor tafakkurida xuddi chaqin chaqqandek bir lahzada paydo bo'ladi, mushkul masalalarni yechish imkonini beruvchi mutlaqo yangi g'oya yuzaga keladi. Psixologiyada insayt muhim munosabatlar va umuman vaziyatni tuyqusdan va o'tmishda olingan tajribaga bog'liq bo'lmagan holda tushunish orqali muammoni ongli tarzda yechish sifatida tavsiflanadi. Emotsional ta'sirlanish ijodkor tafakkuriga kuchli turtki beradi, uning sintez, tahlil qilish, umumlashtirish qobiliyatlarini faollashtiradi.

Psixologlar ijodiy faoliyatning o'ziga xosligini motivasiyaning o'zgarishi, yangi niyatning paydo bo'lishida ko'radilar. Bu omillarga ular ijodning o'ta muhim xususiyati sifatida qaraydilar. Zero, ijod shaxsning yuzaga kelgan stereotiplarni buzish, standart vaziyatdan chiqishning o'z

yo'lini ko'rish qobiliyatini nazarda tutadiki, bu dastlabki qo'yilgan vazifa va uni yechish vositalari chegarasidan chetga chiqishni belgilaydi. Shaxsning intellektual salohiyati, uning mustaqillik, faollik, izchillik kabi irodani tavsiflovchi fazilatlari ijodning zaruriy subyektiv omillaridir. Ammo bu salohiyatni faqat kuchli motivasiyagina harakatga keltirishi mumkin. Bu tashqi zaruriyatdan xoli ichki mayl, faoliyatga birdan-bir maqsad sifatida ehtiyoj bo'lishi lozim. Hamonki, faoliyat insonning tabiiy holati ekan, unga, amalda foydali natijadan qat'iy nazar, birdan-bir maqsad sifatida ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Bunday ehtiyoj shaxs uchun o'z-o'zidan muhim bo'lgan har qanday amaliy, odatdagi faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa. Ijod insonni o'ziga to'la jalb qiladi, uning bor kuchini sug'urib oladi, ularni inson hayotining mazmuniga aylangan ishga bag'ishlashga da'vat etadi. Inson o'z imkoniyatlari darajasidan ortiq bo'lgan dunyo qarshisida doimo ochiq. Bu esa dunyo bilan o'zaro aloqa qilishning yangi usullarini kashf etish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi.

Tajribaviy amaliy matnlar

O'yin, mehnat, ijod, imitasiya, mehnatda begonalashuv, o'yin shakllari, agon o'yin, alea o'yin, mimicry o'yin, ilinx o'yin, taqlid, ijod, mehnat, voqelik simulyatsiyasi.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'yin va mehnatning o'zaro aloqasini tushuntiring
2. Mehnatda begonalashuvga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni asoslang
3. Imitasiya vaziyatini shakllantiring va unga amal qiling
4. Ijodiy va noijodiy faoliyat turlarini tasniflang
5. Emotsional faloyiat haqida

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar.



Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari.

1.O'yinning ma'nosi nima?

A) Inson o'z hayot faolligini o'ziga quvonch baxsh etadigan tarzda erkin namoyon etishidir.

B) Ijod shaxsning yuzaga kelgan stereotiplarni buzish.

C) San'at, fan, falsafa bilan shug'ullanish.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

2. Mehnat va o'yin faoliyat turi sifatida bu ...

A) Mehnat insonning mehnat qurollari yordamida tashqi dunyoga ta'sir ko'rsatish va oldindan mo'ljallangan natijaga erishishdan iborat maqsadga muvofiq faoliyati.

B) Ko'tarinki ruh, kayfiyat vazifalarning yechimlarini tirishqoqlik bilan izlashga rag'batlantiradi, pirovard natijada yuz beradigan insayt.

C) San'at, fan, falsafa bilan shug'ullanish tushuniladi.

D) Insonning ishlab chiqarish faoliyati, xususan, jismoniy mehnat ijtimoiy muhim vazifalarni hal qilishga, odamlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish.

3. O'yin obrozi nima?

A) O'yin jarayonida o'yinchilar bevosita idrok etuvchi va boshdan kechiruvchi o'yin obrazi yaratiladi. U jonlilik, ramziy tabiatga egalik va emotsional «yuqumlilik» bilan tavsiflanadi.

B) San'at, fan, falsafa bilan shug'ullanish.

C) Ko'tarinki ruh, kayfiyat vazifalarning yechimlarini tirishqoqlik bilan izlashga rag'batlantiradi, pirovard natijada yuz beradigan insayt.

D) Inson o'z hayot faolligini o'ziga quvonch baxsh etadigan tarzda erkin namoyon etishidir.

4. Imitasiya mohiyati nimada ?

A) O'yin mohiyatini aks ettiruvchi asosiy tushuncha bo'lib, u borliqning nisbatan haqqoniy modelini yaratishni nazarda tutadi.

B) Bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va kiritishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

C) Ko'tarinki ruh, kayfiyat vazifalarning yechimlarini tirishqoqlik bilan izlashga rag'batlantiradi, pirovard natijada yuz beradigan insayt.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

5. O'yinlar klassifikatsiyasi nima ?

A) Umumiy hodisani tizimga solishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, ya'ni, bitta katta o'yinni bir nechta kichik qismlarga ajratishdan iborat deduktiv metodni qo'llash zaruriyati.

B) O'yin mohiyatini aks ettiruvchi asosiy tushuncha bo'lib, u borliqning nisbatan haqqoniy modelini yaratishni nazarda tutadi.

C) Bitta katta o'yinni bir nechta kichik qismlarga ajratishdan iborat deduktiv metodni qo'llash zaruriyati.

D) Amaliy natijaga erishishga bo'lgan ehtiyoj yoki faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyoj mahsuli.

6. Agon-o'yin bu ...

A) Raqobatchilar o'yini, o'yin maqsadi – g'alaba. Bu o'yin – avvalambor sportdir.

B) O'ynovchi – aktyor, uning o'yin tamoyili – hayotiylik, reallikka taqliddir.

C) O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

D) Birja o'yinlari, lotoreya, qarta, garov o'yinlari, ruletka, totalizator...

7.Alea qanday o'yin turi hisoblanadi ?

A) Qur'a, tavakkal toshi, barchani o'ziga o'rgatib oluvchi o'yinlar,

va tasodifga asoslangan o'yinlar kiradi.

B) O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

C) Raqobatchilar o'yini, o'yin maqsadi – g'alaba. Bu o'yin – avvalambor sportdir.

D) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Ilnix qanday o'yin turi.

A) Charxpalak o'yinlari,o'yinchi ajalning o'zi bilan topishmachoq o'ynaydi, "rus ruletkasi"ga qadar boruvchi xatarli faoliyat. O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

B) Raqobatchilar o'yini, o'yin maqsadi – g'alaba. Bu o'yin – avvalambor sportdir.

C) Qur'a, tavakkal toshi, barchani o'ziga o'rgatib oluvchi o'yinlar, va tasodifga asoslangan o'yinlar kiradi.

D) O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

9. Mimezis o'yini nima?

A) Teatr, til o'yinlari, matn o'yinlariga mos keladi, insonning tasavvuri va aqli bilan o'ynashishga asoslangan, bu "Ko'zga ortidagi olamdir", va bu kabi olamni yaratishdan maqsad o'ynovchining shaxsiyatini rivojlantirish hisoblanadi.

B) Charxpalak o'yinlari,o'yinchi ajalning o'zi bilan topishmachoq o'ynaydi, "rus ruletkasi"ga qadar boruvchi xatarli faoliyat. O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

C) O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

D) Qur'a, tavakkal toshi, barchani o'ziga o'rgatib oluvchi o'yinlar, va tasodifga asoslangan o'yinlar kiradi.

10. Ekstazis o'yinlar qanday o'yinlar hisoblanadi ?

A) Ekstazis-o'yinlar kurashni oxirigacha olib boradi, o'yinchi jar yoqasigacha, naq Xudo bilan bellashuvgacha boradi.

B) Qur'a, tavakkal toshi, barchani o'ziga o'rgatib oluvchi o'yinlar, va tasodifga asoslangan o'yinlar kiradi.

C) Charxpalak o'yinlari,o'yinchi ajalning o'zi bilan topishmachoq

o'ynaydi, "rus ruletkasi"ga qadar boruvchi xatarli faoliyat. O'yinga o'yinchi hayoti tikiladi – u tasodif, stixiya irodasiga topshiriladi.

D) Birja o'yinlari, lotoreya, qarta, garov o'yinlari, ruletka, totalizator

11. Mexnatda begonalashuv bu ...

A) Shunday bir holatki, unda inson o'z faoliyati, uning natijalari va o'z-o'ziga begona bo'lib qoladi.

B) Bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va kiritishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

C) Insonlarga qadriyatli-normativ tartib, fan va ta'lim olib keluvchi ular orasidagi o'ziga xos munosabatlar mahsuli.

D) To'g'ri javob yo'q.

Adabiyotlar:

1. Фейербах Л. Избранные произведения. Т. 1. – М.: 1955.

2. Shermuhammedova.N.A Faoliyat Falsafasi\\Falsafa. Toshkent: Idris abdurauf, 2021.

3. Жалолов А. Человеческий фактор, философия, идеология политика –Т.: 1991.

4. Батищев Г.С. Философская концепция чекловека и креативности в наследии. –М.: 1996

5. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –T.: Universitet, 2005.

6. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish falsafasi. –T.: Noshir, 2011.

fransuz va rus inqiloblarini, shuningdek, de Goll, Franko, Lenin, Stalin, Gitler, Mussolini kabi shaxslar tug'ilishini ham bashorat qilgan.

O'z davrining mashhur folbini Aleksandra Filippovna Kirxgof buyuk shoir Aleksandr Pushkinga uning hayotidagi muhim voqealarni: tez orada ko'p pul olish, ikki surgun, uylanish, mashhurlik, 38 yoshda hayotni tark etish ehtimolini bashorat qilgan. Afsuski, bu bashorat to'la ro'yobga chiqqan.

Ukrainalik atoqli faylasuf va shoir Grigoriy Skovoroda ham bashorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. U o'z qishlog'i – Ivanovkaga oxirgi marta kelganda kasal bo'lmagan. Hammaga o'zining o'limi yaqinligini aytgan, o'zi o'ziga qabr qazigan, o'z «xonaqosi»ga kelib, kiyimini almashtirgan, boshiga o'z asarlarini qo'ygan va vafot etgan.

Boshqa ko'plab g'ayrioddiy dalillarni keltirish mumkin. Ularning barchasi intuitiv bashoratni e'tibordan soqit etish yaramasligidan dalolat beradi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo tan olgan va e'tirof etgan bashoratchilar Vanga xonim, Juna Davitashvili, er-xotin Pavel va Tamara Globalar bo'lib, ular 1989-yildayoq 1991-yilda SSSR parchalanishini, o'sha davrda hukumatni boshqarayotgan V.Gorbachyovning taxtdan ag'darilishi va Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari tashkil etilib, jamiyat hayotida yangi davr boshlanishini bashorat qilganlar.

Ilmiy bashorat fan doirasida ilmiy metodologiyaga tayangan holda amalga oshiriladi va o'rganilayotgan jarayonning qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. U kelajakni ancha samarali bashorat qilish va oldindan ko'ra bilish imkonini beradi. Ilmiy bashoratning ayrim elementlari qadimgi dunyodayoq mavjud bo'lgan. Masalan, faylasuf Fales miloddan avvalgi 585-yilda quyosh tutilishini bashorat qilgani ma'lum. Ammo bashorat haqidagi dastlabki bilimlar XV-XVII asrlardagina tabiiy va ijtimoiy fanlarning rivojlanishi bilan bir vaqtda ilmiy tizimga solina boshlagan. Bu jarayon XX asrning 60-yillarida ancha yaxlit ilmiy nazariyalarning yaratilishi bilan yakunlangan.

Inson faoliyati sohalari va bilish ob'yektiga qarab ilmiy bashoratning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa turlari farqlangan.

Ijtimoiy bashoratning xususiyatini qayd etish uchun «prognoz qilish»

tushunchasi muomalaga kiritilgan. Prognoz qilish bashoratning alohida shakli bo'lib, u ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda yuqori darajada ilmiy asoslanganlik va ob'yektivlik bilan ajralib turadi. Ilmiy bashoratning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, prognoz qilish –o'z metodologiyasi va texnikasiga ega bo'lgan maxsus tadqiqot.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy prognoz qilish ilmiy bashoratning turi sifatida «futurologiya» (lot. futurum – kelajak, yunon. logos – ta'limot) nomi bilan vujudga kelgan. Bu atamani ilk bor G'arbiy Berlin Erkin universiteti huzuridagi Otto Zur nomidagi institut professori O.Flextgaym ishlatgan. Shuni qayd etish lozimki, «futurologiya» atamasi umumiy e'tirof etilgani yo'q. Misol uchun, bashorat muammolari bo'yicha fransuz mutaxassislarining aksariyati futurologiya insonning kelajakni ishonch bilan bashorat qilish qobiliyati haqida xomxayol qilish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Futurologiya o'rniga «fyutyuribli» atamasi taklif qilingan bo'lib, u «ehtimol tutilgan kelajak» degan ma'noni anglatadi. Bunda kelajakning shartliligi, ko'p variantliligiga urg'u beradi.

O'zbekistonda ijtimoiy bashorat bilan bog'liq tadqiqotlar «prognostika» degan nom olgan. Bu yosh fan prognoz qilish qonunlari, tamoyil va metodlarini o'rganadi, mantiq muammolarini va turli tipdagi prognostik tadqiqotlarning tasniflarini ishlab chiqadi. U endigina shakllanish davrini boshdan kechirmoqda, lekin hozirning o'zidayoq kelajakning ilmiy muqobillarini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. Prognozlashtirish masalasi bo'yicha K.Tulenova tadqiqot olib bormoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy prognoz qilish muammolari bilan maxsus xalqaro tashkilotlar shug'ullanadi. Ularning orasida quyidagilar bor: Gudzon instituti, REND va Kelajak uchun resurslar korporasiyalari, Chikago va Kaliforniya universitetlari (AQSh) Keyingi 30 yilda Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiyadagi futurologiya institutlari va h.k. Yirik xalqaro uyushmalar: Jahon futurologlar jamiyati, Kelajak dunyosi, Fyutyuribllar xalqaro tashkiloti tuzilgan. Bu futurologik tashkilotlar orasida Rim klubi alohida o'rin egallaydi. Mazkur xalqaro nohukumat tashkiloti 1968-yil aprelda italiyalik jamoat arbobi, «Olivetti» kompaniyasining vise-prezidenti, FIAT kompaniyasi ma'muriy kengashining a'zosi Aurelio Pechchei tashabbusi bilan ta'sis etilgan. Klub Jenevadagi maxsus reestrda shtat va byudjetga ega bo'lmagan, a'zolari

soni cheklangan tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan. Bugungi kunda Rim klubiga jahonning 47 mamlakatida yashab ijod qiluvchi, ilmiy-texnika inqilobi davrida insoniyat rivojlanishining istiqbollarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yuzdan ortiq fan va madaniyat arboblari a'zo. Klub faoliyatining asosiy shakli – hozirgi davrning olamshumul muammolarini o'rganishni tashkil etish.

Ijtimoiy prognoz qilishning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Ijtimoiy prognoz qilish quyidagi ilmiy-nazariy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. *Prognoz qilish jarayoni ob'yektiv va sub'yektiv asoslarga ega. Prognoz qilishning ob'yektiv asosi o'tmish, hozirgi zamon va kelajakning qonuniy aloqasi bilan belgilanadi.* Kelajak hozirgi zamonda bo'lg'usi oqibatni vujudga keltiruvchi sabab ko'rinishida; muayyan sharoitlarda muqarrar tarzda voqelikka aylanuvchi imkoniyat ko'rinishida; hozirgi davrning kelajakda yangi sifat paydo bo'lishiga olib kelishi muqarrar bo'lgan hodisalaridagi muayyan miqdoriy va tarkibiy o'zgarishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kelajak hozirgi zamonda hodisalarning ular mavjudligining muayyan sharoitlaridagi muhim aloqalarini ochib beruvchi qonunlar ko'rinishida zohirdir. Bularning barchasi bilish jarayonida ma'lumdan noma'lumga, o'tmish va hozirgi zamondan kelajakka o'tish imkonini beradi. Agar biron-bir hodisa (jarayon)ning rivojlanish qonuni ma'lum bo'lsa, bu hodisa (jarayon)ni o'rganish orqali biz uning hozirgi holatini qayd etibgina qolmasdan, balki yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning yo'nalishi va xususiyati haqida xulosalar chiqarishimiz ham mumkin. Shunday qilib, kelajakni prognoz qilish uchun real voqelikni bilishdan, aniqroq aytganda, tizimning hozirgi holatida zohir bo'lgan imkoniyatlar, tendensiyalar, qonuniyatlarni anglab yetishdan boshqa yo'l yo'q.

Bashorat qilishning sub'yektiv asosi inson tafakkurining o'tmishdan hozirgi zamon orqali kelajakka eltuvchi qonuniy tendensiyalarini aniqlash va qayd etish asosida kelajakni oldindan aytish imkoniyatida zohirdir. Kelajakni oldindan aytish bo'lg'usi voqealar haqida xulosalar chiqarish qobiliyati ko'rinishini kasb etgan.

Prognoz qilishning ob'yektiv va sub'yektiv asoslarini aniqlash uni ba'zan bashorat bilan bog'lanadigan soxta bashoratgo'yliklardan farqlash

imkonini beradi. Odatda, sohta bashoratgo'yliklar ob'yektiv jarayonlarni o'rganishga emas, balki sub'yektivistik o'zboshimchalikka, ya'ni ko'ngliga kelgan fikrni ilgari surishga asoslanadi.

2. *Ijtimoiy prognoz qilish mavjud nazariyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ulardan kelib chiqadi.* Ma'lumki, har qanday nazariya uch funksiya: sintez qilish, tushuntirish va prognoz qilishni bajaradi. Ya'ni nazariya muayyan sohada mavjud holatni tushuntiradi va uning rivojlanish tendensiyasini bashorat qiladi. Binobarin, ilmiy prognoz qilish nazariyadan boshlanadi.

Ilmiy bashoratning mantiqiy tuzilishi:

- bashorat muammosini aniqlash;

- gipotezani ilgari surish;

- prognoz qilish (bashoratning umumiy muammosi doirasida ayrim vazifalarni yechish uchun prognozlarni ilgari surish);

- ilgari surilgan prognozlar asosida prognostik faoliyat rejasini tuzish;

- prognozlarning haqqoniyligi, ishonchliligini asoslash va ularni imkoniyat darajasida amaliyot sinovidan o'tkazish yo'li bilan tasdiqlash.

Bilish jarayonida olingan yangi xulosalar odamlarning mazkur xulosalarga muvofiq amalga oshirilgan muayyan harakatlari mo'ljallangan natijalarni bergan holdagina ishonchli deb e'tirof etiladi. Bashorat qilingan, yangi bilimlarga muvofiq ta'riflangan natijaning olingan yangi bilimlarni hisobga olib erishilgan amaliy natija bilan mos kelishi odamlar tomonidan aks ettirilgan obyektlar rivojlanishining muayyan qonun va xossalari haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun asos bo'ladi.

3. *Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi.* Kelajak haqidagi bilimlar hozirgi davrdan uzoqlashishiga qarab, o'zining muayyanlik va aniqlik xossalarini yo'qotib, umumiyva nomuayyan tus olib borgani bois, bevosita, ko'zga ko'rinadigan va uzoq kelajak haqida so'z yuritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bevosita kelajakning vaqtdagi chegarasi 30 yildan oshmaydi. Ilmiy kashfiyot yaratilganidan u amalda gavdalantirilgunga qadar taxminan 20 yil vaqt o'tadi. Shunga asoslanib, iqtisodiyotning joriy yuz yillikning 40-yillaridagi texnologik darajasi haqida ishonch bilan hukm

chiqarish mumkin. Joriy yuz yillikning kattagina qismini qamrab oluvchi ko'zga ko'rinadigan kelajakka kelsak, bizning u haqdagi bilimlarimiz, ta'bir joiz bo'lsa, haqiqatnamo xususiyat kasb etadi va ularga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Jahon aholisi sonining jadal sur'atlarda o'sishi XXI asrning ikkinchi yarmida to'xtashini, 2100 yilga borib u taxminan 10-12,5 mlrd. kishiga yetishini kutish mumkin. Keyingi yuz yillik chegarasi ortida yotgan uzoq kelajak xususida real imkoniyatlarga ega bo'lmagan turli gipotetik farazlarga muvofiq hukm chiqarish mumkin. Ammo bu farazlar tarixiy muddat va ularning hayotda gavdalanish shakllari nuqtai nazaridan muayyan taxminiy baholar bo'lishi ham mumkin emas.

4. *Prognoz qilish – maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni.* Bu metodlar prognoz tuzish maqsadida empirik axborotni tanlash va tahlil qilish usul va amallari yig'indisidan iborat. Prognoz qilishning ilmiy vositalari to'plami kelajakni bilishning 200 dan ortiq metodlari, maxsus metodika va mantiqiy vositalarini o'z ichiga oladi. Ammo ularni besh asosiy guruhga birlashtirish mumkin (qolganlari ularning variantlari hisoblanadi):

Prognozlashtirishning metodlari

1. Ekstrapolyasiya.
2. Tarixiy analogiya metodlari.
3. Modellashtirish metodlari.
4. Ekspertiza usulida baholash metodlari.
5. Kelajak ssenariylari metodlari.

Ko'rsatilgan kelajakni bashorat qilish metodlarining har biri o'z afzalliki va kamchiliklariga ega.

Ekstrapolyasiya metodlari - qonuniyatlari o'tmish va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishdi. Masalan, biron-bir tizimga o'tmishda muayyan o'zgarmas tezlik yoki tezlanish bilan rivojlanish xos bo'lgan bo'lsa, bizda bu tezlik yoki tezlanish kelajakda ham muayyan vaqt oralig'ida o'zgarishsiz qoladi deb hisoblash uchun asoslar bor. Shunday qilib, o'sish (pasayish) egri chiziqlarini grafik yoki analitik usulda davom ettirish va prognoz obyekti bo'lg'usi holatining miqdor ko'rsatkichlarini hisoblab chiqarish mumkin. Shunga

qaramay, agar o'rganilayotgan tendensiya boshqa tendensiyalar bilan o'zaro ta'sirga kirishish natijasida o'zgarsa, bu o'zaro ta'sirni lozim darajada o'rganish imkoniyati mavjud bo'lmasa, ekstrapolyasiya metodi uncha samarali bo'lmasligi mumkin.

Tarixiy analogiya metodlari – taqqoslash yo'li bilan bilish. Taqqoslanayotgan ijtimoiy hodisalar o'rtasida farq ham, o'xshashlik ham mavjud bo'lishi kerak. Taqqoslash uchun asos bo'luvchi omillar taqqoslanishi lozim bo'lgan hodisalarga qaraganda tanishroq bo'lishi lozim. Tarixiy analogiyaning ijtimoiy bashoratga moslashuvchanlik darajasi cheklangan. Bu tabiiy bir holdir, zero kelajakka boshqa tarixiy sharoitlar yo'ldosh. Tarixiy analogiya ko'proq tarixiy faktni faol tanqidiy tahlil qilishga ko'maklashadi.

Modellashtirish metodi bilish obyektlarining o'zini emas, balki ularning modellarini o'rganishga asoslanadi. Tadqiqot obyektini modellashtirish – uni prognostik xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqarish uchun qulay bo'lgan sodda, sxematik ko'rinishda gavdalantirish. Tadqiqot natijalari modeldan obyektga ko'chiriladi. Prognoz qilishning modelli metodlari shakllarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Modellashtirishning moddiy, fizik, belgili (matematik), imitasion, kompyuterda modellashtirish kabi turlarini farqlash mumkin.

Ekspertiza usulida baholash metodlar - ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi yetakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish, so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat. Ekspertlarning umumiy xulosasi muammoning mumkin bo'lgan eng maqbul yechimi sifatida qabul qilinadi. Bu metodlar guruhiga, odatda, quyidagilar kiritiladi: konsensus (kelajakka doir muayyan masala bo'yicha ekspertlar umumiy to'xtamga kelishi); «aqliy hujum» (muammolarni yechish vositasi va prognoz qilish usuli, ayniqsa kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir nechta vaziyatni ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ilgan holda). Metodning mohiyati shundan iboratki, muammoga doir har qanday, hatto «g'alati» g'oyalar ilgari suriladi; bu g'oyalar rivojlantiriladi, o'z g'oyalarini taklif qilish mumkin, lekin ularni tanqid qilishga ruxsat etilmaydi; «Delfi» metodi (qadimgi Yunonistonning mashhur orakuli ismi bilan atalgan). U ekspertlar o'rtasida so'rov o'tkazishga asoslangan. Bunda oldinma-ketin

so'rov jarayonida har bir ekspert boshqa ekspertlarning fikrlari bilan tanishtiriladi: bir nechta sikllar natijasi o'laroq ustuvor fikr aniqlanadi. Ekspertiza usulida baholashning yana bir o'ziga xos metodi - sotsiologik so'rov mavjud bo'lib, u so'nggi yillarda bizda ham, chet elda ham roboni keng qo'llanilmoqda.

Kelajak ssenariylari metodi - kuzatilayotgan tendensiyaning ehtimol tutilgan kelajagi haqidagi muayyan tasavvurni asoslovchi dastlabki farazlarning tartibga solingan yig'indisi. Ssenariylar: a) muayyan nazariy vaziyatni bosqichma-bosqich qay yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini; b) voqealarning muayyan rivojiga yo'l qo'ymaslik, ularni yengillashtirish yoki chetlab o'tish uchun ishtirokchi uchun har bir bosqichda qanday variantlar mavjudligini aniqlaydi.

Shunday qilib, ssenariy murakkab tizimlarni o'rganishga nisbatan tizimli va tarixiy yondashuvlarni birlashtiruvchi ko'p variantli prognoz; aksariyat hollarda u tavsifiy xususiyat kasb etadi. Kompleks prognozlarni tuzishda keng qo'llaniladi.

Shuni qayd etish lozimki, ko'rib chiqilgan metodlarning birortasi ham alohida prognozning yuksak darajada ishonchliligini ta'minlay olmaydi. Shu sababli amalda odatda murakkab, kompleks metodlardan foydalaniladi. Mazkur yondashuv ayrim metodlarning kamchiliklarini bartaraf etish, prognozlarning ko'proq darajada aniqligi va ishonchliligini kafolatlash imkonini beradi.

Ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish imkoniyatlarini prognoz qilish natijasi prognoz hisoblanadi. U kelajak muayyan muammolarining rivojlanishi va ularni yechishning mumkin bo'lgan va bir-birini istisno etuvchi variantlarini, stixiyali va ongli jarayonlarni, vaqt va ko'lam parametrlarini aniqlash imkonini beradi. Kelajakning ijtimoiy prognozlar taklif qilayotgan tavsifining mazmuniga qarab, ular insonni yo unga faol intilishga, yo uning yuz berishiga qarshi harakat qilishga, yo uni passiv kutishga da'vat etadi. Shu sababli har qanday ijtimoiy prognoz ilmiy-bilishga doir mazmunni ham, muayyan mafkuraviy vazifani ham o'zida birlashtiradi. Bunda bilishga doir funksiya ustunlik qilishi ham, mafkuraviy funksiya ustunlik qilishi ham mumkin. Turli prognozlarning mazmuni va vazifasidan kelib chiqib, ularning to'rt asosiy tipini farqlash mumkin.

Qidiruv prognozi - ijtimoiy ob'yektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz. U rivojlanish qaysi yo'nalishda yuz beradi, kelajakning muayyan davrida prognoz ob'yektining holati qanday bo'lishi mumkin, degan savollarga javob beradi.

Normativ prognoz - boshqaruvni optimallashtirish yo'llarining aqlona tizimini ishlab chiqish tahlili. Bu prognoz obrazli qilib teskari prognoz deb ataladi, chunki unda o'rganish teskari yo'nalishda – kelajakdan hozirgi davrga qarab amalga oshiriladi. Normativ prognoz qo'yilgan maqsadlarga erishish yoki qo'yilgan vazifalarni yechish uchun nima qilish mumkin yoki kerak, degan savolga javob beradi. Normativ prognozning predmeti sifatida ijtimoiy jarayonlar xususiyatini butunlay o'zgartirishga qodir bo'lgan g'oyalar, gipotezalar, faraz, axloqiy me'yor, ijtimoiy ideal, maqsad va mo'ljal amal qiladi.

Analitik prognoz. U kelajakni o'rganishning turli metod va vositalarining bilishga doir qimmatini turli maqsadlarda aniqlash uchun tuziladi.

Prognoz-ogohlantirish. Bir prognoz kishilarni ehtimol tutilgan kelajakning masalan, yuz berishi kutilayotgan ekologik halokatlarning oldini olishga majbur qilish maqsadida ularning ongi va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun ishlab chiqiladi.

Shuni qayd etish lozimki, prognozlarning asosiy tiplari o'rtasidagi farq shartlidir: ayni bir konkret ijtimoiy prognozda bir necha turdagi belgilar mavjud bo'lishi mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy hayotni tartibga solishning ijtimoiy qonun, zaruriyat, ehtiyoj, manfaat, muammo, maqsad, vazifa, ideal, norma, kishilar faoliyatining tamoyili vositalaridan ongli ravishda foydalanish zamirida prognoz qilish yotadi. U bilishni amaliyot bilan bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi, fanning nazariyani kundalik hayot bilan, bilishning amaliy voqelik bilan uzviy bog'lovchi funksiyasi hisoblanadi. Ilmiy bosiqatish, xususan, uning muhim funksiyalaridan biri - rejalashtirish prognoz qilishga asoslanadi. Prognoz qilish yuz berishi muqarrar bo'lgan yoki ehtimol tutilgan maqbul ijtimoiy hodisalar haqidagi bilimlarni ham, nomaqbul ijtimoiy hodisalar haqidagi bilimlarni ham shakllantiradi.

Bizning davrimizda kelajakni prognoz qilish ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda kelajak avlodlar taqdiri prognoz qilishga ko'p jihatdan bog'liq.

Ijtimoiy tadqiqotlarning hozirgi darajasi kelajak haqida aniq bilim olish va ijtimoiy bashoratni «utopiyalar» sohasidan fan sohasiga o'tkazish imkonini beradi.

Kelajakni prognoz qilish insoniyat istiqbollarini fanlararo kompleks o'rganish bo'lib, u faqat gumanitar, tabiiy-ilmiy va ilmiy-texnikaviy bilimni birlashtirish jarayonida samarali bo'lishi mumkin.


Tajribaviy amaliy matnlar.


Prognozlashtirish, ekstropolyasiya metodlari, tarixiy analogiya, kelajakni prognoz qilish, utopiya, analitik prognoz, prognoz ogohlantirish, normativ prognoz, qidiruv prognozi, kelajak ssenariylari, bashoratning subyektiv asosi.


Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar


1. Bashorat qilishda ekstropolyasiya metodining ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Prognozlashtirishda qanday metodlardan foydalanish mumkin?
3. Kundalik bashoratning ahamiyati nimada?
4. Kelajakni bashorat qilishning ilmiy asoslari mavzusida esse tayyorlash
5. Futurologiya – kelajak haqidagi fan mavzusida esse tayyorlash
6. Globallashuv va bashorat qilishning aloqasini asoslang


Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar











Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Kelajakni bashorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilarni Bobillik va Assuriyaliklar qanday atashgan?

A) Koxinlar
B) Xoldeylar
V) Afsungarlar
G) Bashoratchilar

2. Bashoratning necha turi farqlanadi?

A) 3 ta
B) 2 ta
V) 4 ta
G) 5 ta

3. Bashorat haqidagi bilimlar qaysi asrlarda tizimga solina boshlandi?

A) XV - XVII asrlarda
B) XVI – XVII asrlarda
V) XIV – XV asrlarda
G) XV – XVI asrlarda

4. Quyosh tutilishini bashorat qila olgan faylasuf kim?

A) Fales
B) Anaksimandr
V) Anaksimen
G) Geraklit

5. Lotinchada kelajak ma'nosini anglatuvchi tushuncha?

A) Futurologiya
B) Prognostika
V) Prognoz
G) To'g'ri javob yo'q

6. Bashorat – bu ...?

A) Kelajak haqidagi bilim
B) Amalda mavjud bo'lgan bilim
V) Hozirgi zamonda potensial mavjud bo'lmagan hodisalar
G) Barcha javoblar to'g'ri.

7. Bashoratning turlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) 1)Kundalik bashorat; 2) intuitiv bashorat; 3) ilmiy bashorat.
B) 1)Kundalik bashorat; 2) xayotiy bashorat; 3) ilmiy bashorat.
V) 1)Kundalik bashorat; 2) intuitiv bashorat; 3) ijodiy bashorat.
G) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Intuisiya – bu ...?

A) Ilmiy tajriba va mantiqiy mushohadasiz haqiqatning tagiga bevosita etish.
B) Dunyoni anglash
V) Hozirgi zamonda potensial mavjud bo'lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.
G) To'g'ri javob yo'q.

9. Mishel Nostradamus misli ko'rilmagan bashoratgo'ylik qobiliyatiga ega bo'lgan. U O'zining qaysi mashhur asari ko'rsatilgan javobni toping?

A) «Senturiyalari»
B) Barcha asarlarida.
V) «Futurologiya»
G) «Olivetti»

10. Qaysi o'z davrining mashhur folbini Kirxgof buyuk shoir Aleksandr Pushkinga uning hayotidagi muhim voqealarni: tez orada ko'p pul olish, ikki surgun, uylanish, mashhurlik, 38 yoshda hayotni tark etish ehtimolini bashorat qilgan. Afsuski, bu bashorat to'la ro'yobga chiqqan?

A) Aleksandra Filippovna
B) Aleksandra Filippovna
V) Mishel Nostradamus
G) Juna Davitashvili

11.Ukrainalik atoqli faylasuf ham bashorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. U o'z qishlog'i – Ivanovkaga oxirgi marta kelganda kasal bo'lmagan. Hammaga o'zining o'limi yaqinligini aytgan, o'zi o'ziga qabr qazigan, o'z «xonaqosi»ga qaytib kelgan, ich kiyimini almashtirgan, boshiga o'z asarlarini qo'ygan va vafot etgan faylasuf nomini ayting.

A) Grigoriy Skovoroda
B) Aleksandra Filippovna
V) Mishel Nostradamus
G) Aleksandr Pushkinga

12. Qaysi faylasuf 585-yilda quyosh tutilishini bashorat bashorat qilgan?

A) Fales
B) Geraklit
V) Anaksimandr
G) Pifagor

13. Futurologiya bu ...?

A) Kelajak haqidagi ta'limot
B) Borliq haqidagi ta'limot
V) Bilish haqidagi ta'limot
G) Qadriyatlar haqidagi ta'limot

14. Mamlakatimizda ijtimoiy bashorat bilan bog'liq tadqiqotlar nima deb ataladi?

A) Pragnostika
B) Futurologiya
V) Fyutyuribli
G) To'g'ri javob yo'q.

15. O'tmish va hozirgi davrda tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanildi. Ushbu ta'rif prognozlashtirish metodlarining qaysi turiga xos?

A) Ekstrapolyasiya metodlari
B) Ekspertiza usulida baholash metodlari
V) Kelajak ssenariylari metodlari
G) Tarixiy analogiya metodlari

Adabiyotlar:

1. Туленова К.Ж. Предвидение и реальность –Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1998.
2. Волкогонова О.Д. Приоткрывая завесу времени: о социальном предвидение будущего. –М.: 1999.
3. Спиркин А. Философия. –М.: 2008.
4. Тараненко А.Н. Философия. –М.: 2008.
5. Данилян О.Г. Тараненко В. Социальное прогнозирование и глобалные проблемы современности. -Харков. 1992.
6. Карпенко А.С. Фатализм и случайность будущего. –М.: 1990.
7. Харенберг Б. Хроника человечества. – М.: Слово, 2000.
8. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: 1991.
9. П.Т. де Шарден. Феномен человека. – М.: 1987.
10. Белл Д. Социалные рамки информационного общества / Новая технократическая волна на Западе. – М., 1986.
11. Печчеи А. Человеческие качества. – М.: 1980.

12 - MAVZU. GLOBALLASHUV METAMORFOZALARI

Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchasining mohiyati

Globallashuv (lot. globus – Yer kurrasi) *jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir.*

Globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik aloqadorlik, global kommunikasiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo'lishiga olib keldi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun obyektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan.

«Globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Globalistika bilishning shunday bir jabhasiki, bu erda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning yechimlarini taklif qiladi.

1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida global muammolar tushunchasi ilmiy va siyosiy muomala (leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi Yer kurrasi bilan bog'liq. Ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga dahldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash mumkin. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim obyektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning yechilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo "global" deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Barqaror taraqqiyot olamdagi cheksizlik va cheklilik, uzluksizlik va uzluklilikning dialektikasini aks ettiradi va ularning mohiyatini bilishning metodologik yondashuvini belgilaydi. Metodologiya jamiyat va tabiatning rivojlanishiga oid turli yondashuvlarni qamrab oladi va muayyan ijtimoiy faoliyat usuli sifatida namoyon bo'ladi. Barqarorlik va beqarorlik dialektikasiga oid metodologik yondashuvlar fikrlash uslubidagi muammolarni yechish va muayyan natijalarga erishishga yo'naltirilgan harakatdir. Barqarorlik va beqarorlikga oid metodologik yondashuvlarda ijtimoiy ob'yektni tahlil etish uchun jamiyatdagi xilma-xil jarayonlar ajratib olinadi, ularning xususiyatlari, rivojlanish yo'nalishlari va mohiyati aniqlanadi, shuningdek insonning unga ta'sir qilish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan barcha metodologik yondashuvlarning o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor, chunki ularning har biri tafakkur metodologiyasini shakllantiradi va ularning natijalari amaliyotda tasdiqlanadi.

Beqarorlik dunyodagi tartibsizliklarni kategoriyalarda ifodalash usulidir, demak ijtimoiy-madaniy jarayonlar dunyoning mifologik, diniy, ilmiy, ekzistensional manzarasi sifatida doim inson dunyoqarashiga ta'sir etadi va barqaror ongning tartibsizligini shakllantiradi.

Biroq, barqaror va beqaror dunyoni tahlil qilishda germenevtik metodning ahamiyati, ijtimoiy-madaniy mavzularning o'ziga xos tarixiy

shakllarini kategoriyalar orqali o'rganish imkonini beradi. Kategoriyalarning ijtimoiy ahamiyati tafakkur uslubi orqali germenevtik doira tamoyillari, ya'ni butun va qism dialektikasi orqali dunyoni anglashning o'ziga xos tamoyillariga o'zgartirish imkon beradi, bu dunyoni bilish va undagi beqarorliklarning sababini aniqlashning ijtimoiy madaniy mo'ljali bo'ladi. Bizning fikrimizcha, bunday vaziyatda beqarorlikning doimiyligi bir tomondan barqarorlikka o'tishning ijtimoiy omili, ikkinchi tomondan uni doimiy inkor qilish vositasi sifatida amal qiladi. Bu esa, barqarorlik va beqarorlikni idrok etishda dialektikaning universal usuli sifatida amal qiladi.

Barqarorlik va beqarorlikning o'zaro aloqasi beqarorlikga o'tish lahzasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va barqaror rivojlanishdagi turg'unlik davri kuzatiladi. Madaniyatlarning aralashuviga, bir madaniyat tizimida yangi madaniy aloqalarning shakllanishiga ta'siri barqarorlikdagi turg'unlikning beqarorlikga o'tish lahzasi hisoblanadi va pirovard natijada yangi barqarorlik holatiga o'tiladi, biroq ba'zi hollarda eskining o'zi saqlanib qolish ehtimoli ham borligini tan olishimiz lozim. Agar tizimning barqaror modeli yaratilsa va rivojlanish jarayoni modellashtirilsa, u holda oldindan prognozlashtirilgan jarayonlar mavjud jarayonlarga mos kelmasligi holati ham kuzatiladi, bu barqarorlik va beqarorlikni yangi bosqichga olib chiqadi va uning mohiyatini o'zgartiradi va takomillashtiradi.

Masalan, Amerikaning Mustaqillik Deklarasiyasi davlat-siyosiy barqaror rivojlanishi yo'liga o'tganligi haqidagi birinchi rasmiy hujjat bo'lib, unda yangi davlat rivojlanishining qonuniy asosi bo'lgan konstitutsiya shak shubxasiz amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar tizimi sifatida tan olingan, va 220 yil davomida unga 26 ta o'zgartirish kiritilgan, shu bois, u hozir kungacha fuqarolik jamiyatining nazariy asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu hujjat jamiyatning taraqqiyotining ijtimoiy-madaniy darajasiga mos keladigan siyosiy-falsafiy g'oyalar ilgari surilgan va zamonaviy davr demokratik taraqqiyotning muhim kategoriyalari belgilangan. Biroq, Amerikaning barqaror rivojlanishi ta'minlovchi hujjatning ba'zi moddalari ishlamasligi natijasida jamiyatdagi rivojlanish turg'unlikka aylanishi mumkin.

XX asrning 20-30 yillarida Amerikada avj olgan jinoyatchilik,

gangsterlar hujumlari, Italiya mafiyasining faoliyati bilan asoslashimiz mumkin, aynan shu vaziyat AQShning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini takozo etgan. Shuningdek XX asrda, Xitoy va Yapon ijtimoiy-madaniy tizimlarida o'zgarish sodir bo'ldi, sovet ittifoqi parchalandi, zero ularning rivojlanish tamoyillari barqaror taraqqiyot jarayonlariga mos kelmadi. Shu bois ular, umuman tarixiy rivojlanishdan to'xtadi.

Platonning «Davlat to'g'risida»[1], Gegelning «Ruh fenomenologiyasi»[2] asarlarida barqaror rivojlanishga erishish g'oyalari ilgari surilgan, lekin ularda amaliy tajriba etishmaganligi uchun bu ideal jamiyatga erisha olmagan. Turg'unlikning epistemologik ildizlari insonning tafakkurida doimiy qo'rqish, vaziyatga moslasha olmaslik, falokatni oldindan prognozlashtirish bilan bog'liq.

Tafakkurdagi beqarorlikni tartibga solishda jamoa tafakkuriga tayanish lozim. Madaniyatlar dialogi barqarorlikni yaratish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol sifatida O'zbekiston televizion dasturlarida reklama materiallarining namoyishi shular jumlasidandir. Bu barqaror madaniyat qadriyatlarining beqarorlik bilan almashinuviga ta'sir etgan, biroq, bu madaniyatning beqarorligi to'liq yo'q qilinishini anglatmaydi, balki eski madaniy aloqalar va urf-odatlarning bo'linishi, ularning xavfli harakatlar orqali madaniy qadriyatlarning yangi dunyolari barqarorlik va beqarorlik dialektikasida namoyon bo'ladi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi

Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari XV asr oxirlarida boshlangan, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu yagona geografik, iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geosentrik yondashuvlar geliosentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fanning falsafadan ajralishi, bilimlar dinamikasi va texnikaning rivojlanishiga, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. Texnologik taraqqiyot insonning tabiatni o'zgartiruvchi

[1] Платон О государстве. - М.: Наука, 1998.
[2] Гегель В.Ф. Философия права. - М.: Наука, 1997.

imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Yer kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantasiyalar va manzilgohlar barpo etish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bularning barchasi migrasiyaga sabab bo'ldi: xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. Shuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

Shunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Yevropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi»[1]. Shu tariqa yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy Yevropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan Yer kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

[1] Харенберг Б. Хроника человечества. – М.: Сэлво, 2000. – С. 387.

Globallashuvning fundamental asoslari

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi.

Fundamental globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi. Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo'lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo yangicha tusdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikasiya vositalarini, shuningdek ma'naviy soha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, s'ezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o'sha davrda aloqa va ommaviy kommunikasiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

Shunday qilib, amalda butun dunyo kuchli davlatlar va yirik monopoliyalar o'rtasida keskin kurash va ta'sir doiralarini bo'lib olish maydoniga aylandi va bu pirovardda Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu urushda jahonning ko'p sonli xalqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki shu davrgacha dunyo miqyosida yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bog'liqlik sayyoraning birorta ham yirik davlatiga urushdan yoki hech bo'lmasa uning ta'siri va oqibatlaridan butunlay chetlashish imkonini bermas edi. Bu mazkur davrdan e'tiboran tarix faqat Yevropa tarixi yoki, alohida Xitoy, Rossiya, Amerika, G'arb, Sharq tarixi bo'libgina qolmasdan, insoniyat tarixiga, ya'ni tom ma'nodagi jahon tarixiga ham aylanganidan dalolat beradi.

1918-yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon

bo'ldi. *Globallashuvning asosiy belgilari:*

a) biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;

b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;

v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;

g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlarlarda namoyon bo'ldi. Ammo echilmagan ziddiyatlar va umumiy bog'liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Yer aholisining to'rtdan uch qismi ishtirok etdi. Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtai-nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir global urushning turli bosqichlaridir. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. *Mohiyat e tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni yechish – XX asr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi.* Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviasiya, dengiz, temir yo'l, avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, xuddi avvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator oqibatlarga olib keldi. Xususan, urush mutlaqo yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari harbiy sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni xarobazorga aylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi.

Fan-texnika taraqqiyotining ayni shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davrida avj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning noziklig'i va makonda tutashligini amalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT 1945-yilda tashkil qilingan va 1946-yil 10-yanvarda birinchi majlisi o'tkazilgan), hech shubhasiz, ajralib turadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri U.Cherchill Yevropa qo'shma Shtatlarini tuzishga chaqirgan 1946-yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va nasistlarning asosiy tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir va ayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945-yil 8-avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

Global muammolar globallashuvning oqibati

Globallashuv jarayonlari odamlarga yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internasionallashuvi oqibatida yangi (global) muammolar paydo bo'ladi. Ular ijtimoiy rivojlanish, shuningdek «jamiyat-tabiat» tizimida uzoq vaqt mobaynida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlarining mahsuli hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hech qachon bo'lmagan.

Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat.

Ikkinchi tomondan, insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan Yer deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab yetish jarayoni so'nggi o'n yilliklarda yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir yanglishish, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix injiqligi yoki tabiiy anomaliyalar mahsuli ham emas. Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng miqyosdagi inqirozini yuzaga keltirgan hozirgi sivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi.

Mazkur inqiroz odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va tabiat bilan o'zaro aloqalarining butun majmuini qamrab olgan va butun jahon hamjamiyatiga, rivojlanayotgan mamlakatlarga va rivojlangan mamlakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Insonning atrof muhitga salbiy ta'siri aynan rivojlangan mamlakatlarda, asosan bu erda jadal sur'atlarda va stixiyali tarzda rivojlangan iqtisodiyot bilan bog'liq sabablarga ko'ra oldinroq va bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Shu ma'noda, 2008-yilda boshlanib, butun dunyoni larzaga solgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi nafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlari, balki rivojlanayotgan, ayniqsa bozor munosabatlari qaror topayotgan davlatlarda ham o'z salbiy oqibatini o'tkazmasdan qolmadi. Ayni paytda global moliyaviy inqiroz jahon moliya bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va uni tubdan isloh qilishning zarurligini ko'rsatib berdi. Ushbu moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qanday davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari ko'p jihatdan bir qator omillarga, xususan, mamlakat moliya valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekanligi, milliy kredit institutlarining qay darajada

kapitallashuvi va likvidligi, oltin valyuta zahirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, shuningdek, iqtisodiyotning barqarorlik, diversifikasiya va raqobatbardoshlik darajasi bilan bog'liq. Bu esa O'zbekiston moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining barqaror va ishonchliligi, ularning himoya mexanizmlarini kuchaytirish uchun, xalqaro moliya inqirozining mamlakat bank tizimiga ta'siri darajasini e'tiborga olgan holda, Markaziy bankning pul-kredit siyosati dastaklari, likvidligini tartibga solish instrumentlarini yanada takomillashtirish, bank xizmatlaridagi innovasiyalarni hisobga olgan holda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni yanada takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi kunda bu vazifa bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi

Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi avvalo, atrof muhitning tanazzuliga olib keldi va tez orada insonning o'zi ham tanazzulga yuz tutganini namoyon etdi. Zero, inson xulq-atvori, tasavvurlari va fikrlash tarzi uning atrofida yuz bera boshlagan o'zgarishlarga muvofiq o'z vaqtida o'zgarishga qodir bo'lmay qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal sur'atlarda rivojlanishiga esa insonning o'zi va uning fan va texnika sohasidagi yangi va yangi yutuqlar bilan ko'p karra kuchaytirilgan izchil o'zgartiruvchi faoliyati sabab bo'ldi. So'nggi o'n yilliklarning o'zida fan-texnika yutuqlari o'sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida avvalgi yuz yilliklarga qaraganda ko'proq o'zgarishlar ro'y berdi. Bunda o'zgarishlar jarayoni o'sib boruvchi tezlikda rivojlandi va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda yanada chuqurroq va jiddiyroq tus oldi. Masalan, verbal (og'zaki) muloqotdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan uch million yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan besh ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televidenie kabi audiovizual vositalar yaratilgunga qadar taxminan besh yuz yilga teng yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, odatdagi audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o'tish uchun ellik yildan kamroq vaqt talab etildi. Misli ko'rilmagan sur'atlarda 10-15 yil ichida odamlar Internet va uyali aloqa yordamida muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega bo'ldi. Yangi ixtirolar yaratilganidan ular amalga joriy etilgunga qadar o'tadigan vaqt ham yanada qisqardi; ular endi

aksariyat hollarda yillar bilan emas, balki oylar va hatto kunlar bilan o'lchanadi. XXI asrning eng so'nggi kashfiyotlaridan biri bo'lmish nanotexnologiyalarning (mitti texnologiyalar) yaratilishi insonning barcha sohadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Shunday qilib, atigi ikki-uch yuz yil muqaddam turli millatlar asosan alohida-alohida yashagan, ularning o'zaro aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, endilikda Yerda nafaqat «oq dog'lar», ya'ni inson oyog'i etmagan joylar qolmadi, balki tabiiy holatiga inson bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmagan sof hududlar, suv va fazo bo'shliqlari ham deyarli mavjud emas. Bularning barchasi endi bizning sayyoramizni «umumiy uy», «Koinotdagi orolcha», «qattiq to'lqinlanayotgan okeandagi qayiq», «dunyoviy qishloq» deb, barcha odamlar uchun umumiy tus olgan muammolarni esa - olamshumul, umuminsoniy, global deb nomlash uchun asos bo'lmoqda.

Global tendensiyalarni anglashning ahamiyati

Jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarning ba'zi bir tendensiyalari olimlar va faylasuflar diqqat markazidan bu o'zgarishlar barchaga ravshan bo'lishidan oldinroq o'rin oldi. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli sivilizatsiyalarning oldinma-ketin almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) komp'yuter inqilobidan ancha oldin «XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosaga keldi. Shu tariqa tub o'zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendensiyalarida ham aks etgani ta'kidlandi.

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi K.Yaspers (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildirdi. U 1948-yilda e'lon qilgan «Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asarida, shunday deb yozadi: «Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan yangi sharoitimiz Yerda odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to'la ochiq bo'lgan yagona yaxlitlikka aylandi»[1]. Bu, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, tarixiy o'lchovlarga ko'ra jadal sur'atlarda emas, balki misli ko'rilmagan shitob bilan yuz berdi. Bunda dunyoning yagonaligi tarixiy

[1] Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: 1991. – С. 141.

taraqqiyotni belgilovchi muhim omilga aylandi. Ikkinchi jahon urushi jahon hamjamiyatining parokandaligiga uzil-kesil chek qo'ydi. Urush tugagani zahoti K.Yaspers «Shu davrdan e'tiboran yaxlit bir butunning yagona tarixi sifatidagi jahon tarixi boshlanadi, - deb qayd etdi. Endi butun dunyo asosiy muammo va vazifaga aylandi. Shu tariqa tarixning butunlay o'zgarishi yuz beradi. Dunyo mamlakatlari va xalqlari tutashdi. Yer kurrasi yaxlit va yagona tus oldi. Yangi xavflar va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Barcha muhim muammolar dunyo miqyosidagi muammolarga, vaziyat – butun insoniyat vaziyatiga aylandi»[1].

XX asrda fan va texnika sohasidagi natijalar ta'sirida ilk texnokratik ijtimoiy nazariyalar paydo bo'ldi. Shu nazariyalardan birining muallifi amerikalik iqtisodchi va sotsiolog *T.Veblen fikricha jamiyatning rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi va texnika taraqqiyoti muhim rol o'ynaydi*. Uning fikricha, hozirgi zamon davlati muhandislar va texniklar tomonidan boshqarilishi lozim, chunki ishlab chiqarishni jamiyat manfaatlarida rivojlantirish (bu g'oya T.Veblen texnokratik nazariyasining mag'zini tashkil etadi) faqat ularning qo'lidan keladi va siyosiy hokimiyat ularga ayni shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun kerak.

Shu davrda yangi tendensiyalarga nisbatan boshqacha munosabatni ilgari suruvchi yondashuvlar ham paydo bo'ldi. Xususan, tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati muammolarini anglab yetishda V.I.Vernadskiyning roli va u noosferani yaxlit umumbashariy hodisa sifatida tushunishi mhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga o'xshash fikrlarni taniqli fransuz faylasufi, teolog P.Teyyar de Sharden ham ilgari suradi. Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslashga harakat qilar ekan, u insonning tabiat bilan munosabatlarini uyg'unlashtirish konsepsiyasini rivojlantirdi va butun insoniyatning birlashishi yo'lida egoistik niyatlardan voz kechishga chaqirdi[2].

Shunday qilib, olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq nafaqat yangi davr – umumbashariy hodisalar davri boshlanayotganini, balki bu yangi sharoitlarda odamlar tabiiy va ijtimoiy stixiyaga faqat bahamjihat qarshilik ko'rsata olishi mumkinligini ham anglab yetdilar. Ammo bu

[1] Там же. – С. 142.
[2] П.Т. де Шарден. Феномен человека. – М.: 1987. – С.194.

o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetiga aylandi. Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendensiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «texnologik pessimizm» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. «Ekopessimizm», asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holdir.

Ko'pgina taniqli olimlar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz ssientizmda[1], insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning yangi to'lqini yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo'lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham shubha ostiga olindi. O'z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta'sirida yuz berdi. 1968-yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarining bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972-yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'z boshisida shunday deb qayd etgan: «Endilikda ona -Yerimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning

[1] Ssientizm (ingl. *science* – fan) – fanning jamiyat hayotidagi rolini mutlaqlashtiruvchi konsepsiya

qandayligi va qayerdaligini hali aniqlash lozim»[1]. Mazkur ma'ruza mualliflari shunday aniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom etishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendensiyalarining kompyuter modelini tuzib, mazkur tendensiyalar saqlangan holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi. Ma'ruza jahonning ko'plab tillariga o'girildi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi, ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish g'oyasi tarafdorlari va muxoliflari o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. So'ngra navbatdagi ma'ruzalar majmui (bugungi kunda ular yigirmatadan oshib ketdi) paydo bo'ldi. Bu ma'ruzalar umuminsoniy muammolarning ko'pgina jihatlarini yoritib berdi va ularga nafaqat olimlar va faylasuflar, balki siyosatchilar, jamoat arboblari, umuman jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi.

Globallashuvning asosiy jihatlari

Globallashuvning asosiy jihatlari dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishida namoyon bo'ladi. 1970-yillardan globallashuv o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuvning asosiy jihati jahon bozorini sezilarli darajada o'zgarishi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishida namoyon bo'ldi.

[1] Печчеи А. Человеческие качества. – М.: 1980. – С.123, 124.

Globallashuvning asosiy jihatlari:

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, ya'ni iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi kiradi.

Iqtisodiyotning internasionallashuvi va pulning unifikasiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi globallashuvning muhim jihati va uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo'lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga ob'yektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globallashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator obyektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

1985-yilda birinchi mobil telefonining yaratilishi (mobil telefondagi birinchi qo'ng'iroq AQShdan Germaniyaga bo'lgan), 1991-yilda Internetning yaratilishi bilan dunyo informasion jihatdan uzil-kesil tutashdi. Komp'yuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan yangi axborot maydonini vujudga keltirdi. 2001-yilda Aypet tizimining paydo bo'lishi dunyoda katta virtual makonni shakllantirdi. Bu turli ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishiga va muloqotning yangi usullarini shakllanishiga ta'sir etdi.

Globallashuvning muhim jihati siyosatda namoyon bo'ldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik

xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sosialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi.

So'nggi yillarda milliy davlatlar faoliyati bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning yangi, «noan'anaviy» sub'yektlarining faolligi va ta'siri ham ancha o'sdi. Bu sub'yektlar o'z soni, moliyaviy imkoniyatlari va siyosiy ta'siriga ko'ra ayrim davlatlar bilan bemalol bellasha oladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur sub'yektlari orasida eng muhimlari hukumatlararo tashkilotlar, transmilliy korporasiyalar, xalqaro nohukumat tashkilotlar hisoblanadi. «Yashillar», «muqobillar», antiglobalistlar kabi ijtimoiy harakatlar ham keng rivojlandi.

Globallashuvning yana bir muhim jihati madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. *Mutlaqo yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi.* Jahon hamjamiyati yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globalligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Global muammolarning mezonlari

Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, *global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.*

Ikkinchidan, *ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.*

Uchinchidan, *bu muammolar dunyo rivojlanishining obyektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.*

To'rtinchidan, *global muammolarning yechilmagani kelajakda butun*

insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususiy, mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin zimdan va uzoq shakllanadi, yechilishiga qarab esa (nazariy jihatdan) quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendensiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga nafaqat ularning quyiroq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana shundadir.

Global muammolarning yana bir muhim mezoni – ularning barchasi bir-biriga shu darajada bog'liqki, ulardan birini yechish hech bo'lmasa unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

Global muammolarning darajalari

Global muammolar butun dunyoga tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan sohasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariyalar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolardir. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyosiga ko'ra ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Evropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968-yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar butun Yer kurrasini, uning nafaqat odamlar yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Demak, global muammolar butun sayyora muammolari bo'lib, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq etishda odatda butun sayyorani ikki mintaqa – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xomashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni ko'payadi va har safar

tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Bunda shuni qayd etish lozimki, har qanday muammo sayyoraning istalgan mintaqasiga nisbatan muhim sanalgan, ya'ni ularning har birida namoyon bo'lgan holdagina global deb hisoblanishi mumkin. Aks holda bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) to'g'risida so'z yuritiladi.

Global makonda texnika va texnologiya

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida nafaqat bilimga, balki shu bilimdan foydalanish uchun texnika va texnologiyalarga ehtiyoj ortmoqda. *Texnika (yunoncha-techne-san'at, mahorat) inson tomonidan atrof muhitni o'zgartirish maqsadida yaratilgan har qanday mehnat quroli, artefaktlar texnikadir.* Texnik artefaktlar ikkita: mehnat predmetining energetik, yoki informativ holatini o'zgartirish; ishlab chiqarish faoliyati majmuasi, vositalarining turlarini ko'paytirish vazifasini bajaradi. Shu bois, texnika inson ishlab chiqarish faoliyati sohasini o'zgartiradi. Texnika inson va tabiat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Texnologiya – artefaktlar, ishlab chiqarish operasiyalari va jarayonlari, resurs manbalari, axborotning ijtimoiy oqibatlari rivojlanishining murakkab tizimi. Zamonaviy texnologiyalar alohida texnologiyalarning majmui sifatida amal qiladi. Zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning ilmiyligi, qulayligi, kamxarjligidir.

Axborot texnologiyasi – bu axborotni tanlash, jamg'arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo'naltirilgan hisoblash texnikasi, elektr aloqa, informatika imkoniyatlarining uyg'unligidir.

Ishlab chiqarish jarayoni zamirida yotuvchi har qanday texnologiyani ta'riflashda ishlov berish predmeti, usul va metodlarini, ishlab chiqarish qurollarini, ishlab chiqarish usullarining tavsifini ajratish mumkin. Texnologiya jarayon sifatida tartibga solingan va tashkil etilgan bo'ladi. Ammo an'anaviy texnologiyalar moddiy-energetik omillarga tayansa, axborot texnologiyasi axborotga asoslanadi. Axborot texnologiyasining negizini moddiy emas, balki ideal omillar tashkil etadi.

Axborot texnologiyasi axborotning aylanishi va unga ishlov berish jarayonlari majmui, shuningdek bu jarayonlarni tavsiflashdir. Axborot, ma'lumotlarga ishlov berish va aylanish ob'yektlari hisoblanadi. Axborotga ishlov berish jarayonlarining texnologik yo'nalishlari va ssenariylarini tavsiflashning tarkibiy qismlarini yaratish mumkin. Shu bois, axborot texnologiyasi tushunchasi ikki xil – nazariy va amaliy nuqtai nazardan talqin qilinadi. "Nazariy nuqtai nazardan axborot texnologiyasi ilmiy-texnik fan bo'lib, uning doirasida axborot aylanishi va unga ishlov berish avtomatlashtirilgan jarayonlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish muammolari tadqiq qilinadi. Amaliy nuqtai nazardan axborot texnologiyasi axborot aylanishi va unga ishlov berish avtomatlashtirilgan jarayonlari majmui, muayyan sohaga bog'liq bo'lgan va zamonaviy texnik-iqtisodiy vositalarda amalga oshirilgan mana shu jarayonlarning tavsifidir[1].

Hozirgi zamon axborot texnologiyasi o'tmishning telegraf, telefon, radio, televidenie singari texnik yutuqlaridan foydalanadi. Ilmiy-texnik tajribadan kelib chiqib axborotni mashina o'qiydigan tashuvchilarda jamg'arish vositalari yaratildi. Bunday vositalar vaqt va makonda biron-bir cheklashlarsiz axborotni Yer kurrasining istalgan nuqtasiga yetkazishni ta'minlaydi. Nihoyat, belgilangan algoritmlar bo'yicha komp'yuterlar yordamida axborotga avtomatlashtirilgan ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Axborotlashgan jamiyati konsepsiyasi

Axborotlashgan jamiyati konsepsiyasi industrial va postindustrial jamiyat konsepsiyasi o'rnini egallagan bo'lib, informatika va axborot texnologiyasi jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartirish, yaxlit axborot sanoatini vujudga keltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. (mualliflari – E.Masuda, D.Martin, G.Molitor va b.) Axborotlashgan jamiyatda ishchilar mashinaga tobe bo'lmaydi. Ular ishga erkin, oqilona yondashadi, muayyan mahorat va bilimga ega bo'ladi. Mehnatni avtomatlashtirish davrida informatika insonni turg'un, katta mehnat sarfini talab etuvchi, og'ir jismoniy va aqliy mehnatdan xalos etadi, uning tafakkurini kuchaytiradi. Informatika mehnatning juda ko'p turlari samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi, insonni

[1] Мазфорс Л. Миф машины. Техника и развитие человечества. – М.: Логос, 2001. – С.58

yangi hodisalar doirasiga, yangi bilim sohalariga olib kiradi. Inson mehnati tobora intellektual mazmun kasb etib boradi. Mehnatning intellektuallashuvi axborotlashgan jamiyatdagi mehnatning o'ziga xos jihatlaridan biridir. Mehnatning intellektuallashuvi uning «ilmiylashishi»da o'z aksini topadi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan bilimlar tarkibida ilmiy bilimlar salmog'i oshib boradi. *Mehnat jarayonida ilmiy bilimlardan foydalanilishi, mehnatning intellektuallashuvi, ishchining bevosita texnologik jarayondan erkinligi darajasining ortishi shaxs o'z ijodiy qobiliyatini namoyon etishiga imkoniyat yaratadi va uning mehnatiga ijodiy mazmun baxsh etadi, mehnat sharoiti yaxshilanadi.* Ishlab chiqarishni axborotlashtirish va avtomatlashtirishning rivojlanishiga qarab, ishchining ijodi ham takomillashib boradi. Qayta tuzish qiyin bo'lgan dasturlar yordamida boshqariladigan robotlar faoliyat ko'rsatgan davrda inson o'z ish joyidan erkin bo'lmagan va uning ijodiy yondashuvi cheklangan edi. Adaptiv boshqaruvli robotlar ish tizimlarini tez tuzatish imkonini berdi va ishchilar o'z ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun bo'sh vaqtga ega bo'ldi. Intellektual funksiyalarni boshqaruvchi robotlarning yaratilishi xodimlarning yangi texnologiyalar va texnika vositalarini takomillashtirish va kashf etish bo'yicha ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi, ishlab chiqarish jarayonini oqilonalashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Nanotexnologiyalar

XXI asrda insoniyat axborot texnologiyalarining takomillashgan shakli nanotexnologiyalarni yaratdi. Nano o'lchov birliklarning old qo'shimchasi bo'lib, milliarddan birni belgilaydi. Masalan, bir nanometr metrning milliarddan biridir. Nano yunoncha "nanos" so'zidan olingan bo'lib, mitti degan ma'noni bildiradi. *Nanotexnologiya-mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir.* Atomlar va ular orasidagi masofalar ham nanometr ulushlarida o'lchanadi. Nanotexnologiya tushunchasini birinchi bo'lib, 1974-yilda yapon olimi Norio Taniguchi yangi ob'yektlar va materiallar tuzish jarayonini izohlashda ishlatgan. Bu sohadagi dastlabki texnik

vositalar Shvetsariyaning IBM laboratoriyasida ixtiro qilingan. 1982-yilda skanerlovchi zondni ixtiro qilgan Gerd Bining va Genri Rorerlar 1986-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Nanonaychalarning qalinligi soch tolasidan o'n ming marta kichik, ammo mustahkamligi po'latdan o'n marta katta. Kelajakda bir metr uzunlikdagi nanonaychalar sintez qilinishiga erishilsa, sanoat va texnikada katta o'zgarish ro'y berishi mumkin. Chunki, yuzlab kilogramm yukni ko'taradigan soch tolasidek ingichka material juda ko'p sohalarda foyda berishi ko'zda tutilmoqda. Ekspertlar fikricha, uchinchi ming yillik nanofan va nanotexnologiyalar asri bo'ladi. Yaqin 40-50 yil ichida nanomahsulot va nanotexnologiyaga bo'lgan biznes iqtisod eng rivojlangan tarmoqqa aylanadi. nanobiotexnologiyalar vositasida tibbiy xizmat rivojlanadi va inson sog'lig'ini saqlashda yangi imkoniyat paydo bo'ladi. Jumladan, bugungi kunda yaratilgan jarrohlik nanotexnologiyalari og'ir operasiyalar va ularning salbiy oqibatlarining oldini olmoqda. Xususan, lazer qaychilari odam organizmining yalliqlangan joyidagi yarani hech qanday qiyinchiliksiz olib tashlamoqda.(Burun, jigar va boshqa organlardagi o'simta). 2020-yillarda nanotexnologiyalar yordamidagi operasiyalar yanada takomillashishi, inson tomir va to'qimalarida harakatlanib, kasallangan hujayrani topib, o'ldiradigan nanojarrohlarni yaratish ko'zda kutilmoqda. Bunda organizmga 20 mingta nanorobortlar in'eksiya orqali yuboriladi, nanorobortlarning hajmi bitta bakteriya hajmiga teng, bu nanorobortlar organizmning qaysi qismi yalliqlanganligi aniqlab shu parchani yo davolaydi yoki kesib tashlaydi.

Olimlar, 2020-yilda insonni avtomobil halokatidan saqlaydigan, kayfiyatini ko'taradigan, organizmning qaysi qismi nosog'lom ekanligidan xabar beruvchi nanokiyimlar yaratilib, ular oddiy magazinlarda sotilishi bashorat qilinmoqda. Barcha aloqa tarmoqlarini birlashtiruvchi globallashgan yangi aloqa tizimini o'rnatish imkoni tug'iladi. Biroq XX asrning boshida suv osti kemalari, kir yuvish mashinalari, mobil telefonlari, rangli televizorlar, komp'yuterlar, soatiga ikki ming km tezlikda uchadigan avialaynerlar, suv osti tunnellarining yaratilishiga insoniyat ishonmagan va ular yaratilgandan so'ng foydalana boshlagan. Shu bois, nanotexnologiyalarning imkoniyatlariga ham

hozircha shubha bilan qarash mumkin, lekin hozir, dushman to'pponchasidan otilgan o'qni boshqa tomonga yo'naltiruvchi birinchi harbiylar kiyimlari esa yaratildi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, 1975-yilda Toshkent Davlat Texnika universitetini tamomlagan Anvar Zohidov 2001-yilda Texas universiteti huzurida nanotexnologiya institutiga asos solishda ishtirok qildi. Hozirgi kunda u shu institutning direktor o'rinbosari va "Nanoscience" jurnalining muharriri lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. A.Zohidov ilk bor yorug'lik ta'sirida qo'zg'atilgan zaryadlarning o'zaro biriktirilgan fyulleren polimer tuzilmasidan o'tishini va undagi fotokimyoviy jarayonlarni kashf qilgan. U fyulleren bilan o'tkazgich polimerlar va ishqoriy metallar kompleks birikmalari asosida o'ta o'tkazgich fyulleridlarni va organik ferromagnit materiallarni birinchi marta sintez qilgan olim. 2003-yilda A.Zohidov nanotexnologiyalar sohasida erishgan yutuqlari uchun yilning Osiyo-Amerika muhandisi unvoni bilan mukofotlangan.

Biometrik identifikasiya qilish texnologiyasi

Biometrik identifikasiya qurilmasi odamning xarakterli xususiyatlarini raqamli tasvirlash uchun xizmat qiladi. Biometrik identifikasiya belgilarni ajratish muolajasi odamning biometrik parametrlarini o'lchash natijasida muayyan shaxsning o'ziga xos bo'lgan biometrik imzosini shakllantiradi. Shaxsning identifikasiya qilishni amalga oshirish uchun tizim ma'lumotlar bazasidagi namunalar chiqarib olinadi va identifikasiya qilinayotgan shaxsning biometrik imzosi bilan taqqoslanadi. Berilgan imzo bilan biror namunaning orasidagi masofa yaqin bo'lsa, ular bir odamga tegishli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda biometrik texnologiyalar odam shaxsini identifikasiya qilishning eng yuqori darajadagi kafolatini ta'minlaydi. O'zFA Matematika va informasion texnologiyalari institutida olib borilayotgan ilmiy ishlardan biri - turli biometrik texnologiyalarni birlashtirishga asoslangan ko'p pogonali biometrik tizimning algoritmik va dasturiy ta'minotini ishlab chiqishdan iborat.

Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili

Intellekt (lotincha intelligence- aql, insonning fikrlash qobiliyati) insonning tafakkuri mahsuli, sun'iy intellekt (artificial intelligence) inson faoliyati sohasiga tegishli vazifalarning avtomatik qurilmalarda bajarilishi nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan *sun'iy intellektning ikki xil ta'rifi mavjud: sun'iy intellekt – insoninng aqliy faoliyatiga tenglashtirishgan amaliy jarayon va sun'iy intellekt komp'yuter yordamida inson tafakkurini imitasiyasi bilan shug'ullanuvchi informatikaning bir bo'limi.* Bunga tabiiy tilda dialogni davom ettiruvchi informatik tizimlar (tabiiy til interfeyslari), turli vaziyatlarda foydalanuvchiga maslahat beruvchilar (masalan, avtomobillardagi navigatorlar), amaliy vazifalarni dasturlashtirishsiz bajaradigan amaliy dasturlarning intelletual paketlari va h.k. kiradi. Tabiiy til tushunchalari EHM bilan ular yaratilgan davrdan boshlab muloqot qilishning eng qulay usuli hisoblanadi. Bu foydalanuvchiga buyruq tilini o'rganish yoki komp'yuterda boshqa vazifalarni yechish bo'yicha qulaylik yaratadi. Shu bois, bunday interfeyslarni yaratish amaliyoti XX- asrdayoq boshlangan.

Sun'iy intellekt ekspert tizimlari dastlab tibbiyotda qo'llanilgan. Yosh mutaxassislarga yordam berish maqsadida tibbiyot sohasi vakillarining bilimlarini birlashtirib, barcha ma'lumotlarning yagona elektron bazasi yaratilgan. Tibbiyot sohasining tanlanishi negizida eng avvalo bu sohada inson umri va salomatligiga etkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldini olish maqsadi turgan. Keyinchalik, tibbiyot sohasidan bu texnologiya boshqa sohalarga xususan, ishlab chiqarish sohalarida, qishloq xo'jaligiga jalb qilingan. Ekspert tizimidan foydalanish eng avalo tizimni o'rganishni taqozo etadi, ya'ni dastlab texnologik bilimni egallash va keyin bu bilimlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ekspert tizimlari faqat tizim bo'yicha maslahat beradi. Amaliy dasturlar intellektual paketlari ekspert tizimlarga bilimlar bazasini yaratishni, keyin esa shu bilimlardan foydalanib bilimlar integrasiyasiga erishishni ko'zda tutadi.

1960-yillarda aksariyat mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri mustamlaka qaramligidan xalos bo'lish jarayoni yangi, lekin o'zgacha tusdagi qaramlik o'rnatilishiga olib keldi. Urushdan keyingi davrda jahon savdosining o'sishi va davlatlararo aloqalarning kuchayishi yuz berdi. Ayni vaqtda G'arb davlatlari iqtisodiyotida monopoliyalashuv jarayoni

kuchaydi va transmilliy korporasiyalar paydo bo'la boshladi. Ular arzonroq ishchi kuchi topish va atrof muhitni muhofaza qilishga qo'shimcha xarajatlardan qutulish maqsadida mehnat sarfi katta bo'lgan va ekologik jihatdan iflos ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qila boshladilar. Bu hol, bir tomondan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda atrof muhitni himoya qilish uchun ommaviy harakatning faollashuvi va ekologik qonunchilikning yanada keskinlashuvi bilan, boshqa tomondan esa, rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining qashshoqligi tufayli, qat'iy ekologik me'yorlar va bu bilan bog'liq cheklov choralari joriy etishni o'ziga doim ham yep ko'ra olmasligi bilan izohlanar edi.

So'nggi o'n yilliklarda vaziyat yana rivojlanayotgan mamlakatlar zarariga o'zgara boshladi. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha jabhalariga va iqtisodiyotga komp'yuterlar va mikroelektronika jadal sur'atlarda joriy etila boshladi. Shuningdek, texnologik novatsiyalar va yangi (yuksak) texnologiyalar roli ham sezilarli darajada oshdi, bu esa ishlab chiqarishga ma'lumotli, malakali ishchi kuchini jalb qilishni taqozo etdi. Shu sababli iqtisodiy o'zaro aloqalar va jahon savdosi asosan iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasidagi almashinuv hisobiga amalga oshirila boshladi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa, agar ular ko'p miqdorda xom ashyo resurslariga ega bo'lmasa, jahon bozoridan siqib chiqarildi.

Xulosalar. Mintaqaviy darajada aniqlangan barcha muammolar ham global bo'lavermaydi. Global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy ko'rinishga ega bo'lmasligi yoki bu yerda uncha sezilmasligi mumkin. Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati qoniqarli bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir deyarli sezilmasligi mumkin. Shunga qaramay bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir. Demak, global va mintaqaviy muammolarni nafaqat ilmiy balki, amaliy jihatdan ham farqlash lozim.

chunki barcha global muammolar o'z miqyosida o'zgarmaydigan yagona tizim – butun sayyoraga tegishlidir. Shu sababli mazkur tizim uchun ularning soni ma'lum tarixiy bosqichda muayyan hisoblanadi. Ayni vaqtda boshqa darajadagi muammolar sonining aniq hisobini yuritish mumkin emas, zero mintaqalarning va turli hududlarning chegaralari tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab shartli olinadi.


Tajribaviy amaliy matnlar

Globallashuv, globalistika, global jarayonlar, fundamental globallashuv, serqirra globallashuv, global muammolar, ijtimoiy rivojlanish, global tendensiyalar, texnokratik nazariya, axborot inqilobi, inqiroz ildizlari, umuminsoniy qadriyatlar.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Global muammolar qachon va nima uchun paydo bo'ldi?
2.«Globallashuv», «global muammolar», «globalistika» tushunchalarining o'zaro nisbatiga tavsif bering.
3. Texnooptimizmning mohiyati nimadan iborat?
4.Texnopessimistik falsafiy konsepsiyalar qaysi g'oyalarga asoslanadi?
5. Globallikning mezonlarini ayting, ularning yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
6. Globallashuv muammolarini yechishda falsafa qaysi funksiyalarni bajaradi?
7. Global muammolar tasnifi nima uchun kerak?
8. «Yangi insonparvarlik» tushunchasi nimani anglatadi?
9. «Barqaror rivojlanish konsepsiyasi»ning mazmuni nimada?
10. Falsafa va hozirgi dunyoning globallashuvi (esse tayyorlang)
11. Axborot inqilobining mohiyati (esse tayyorlang)
12.Sivilizasion rivojlanish muammolari va uning istiqbollari(esse tayyorlang)
13.Inson huquqlari va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari(krossvord tayyorlang)
10.Insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llari(krossvord tayyorlang)

Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar



Bilim va ko‘nikmalarni baholash materiallari

1. Globalistika mustaqil ilmiy yo‘nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yillardan shakllana boshladi?

A. 1960-yillarning oxirlaridan
B. 1950-yillarning oxirlaridan
V. 1970-yillarning oxirlaridan
G. 1980-yillarning oxirlaridan

2.Globallashuvning vujudga kelishiga asos bo‘lgan yirik sabablarni toping?

A. Hayotning barcha sohasidagi integrasiyalashuv
B. Fan va texnika kashfiyotlari
V. Falsafada yangi ta’limotlarning vujudga kelishi
G. Odam sonining keskin o‘sishi

3. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat bugungi kunda global muammolarni bartaraf qiluvchi qaysi asosiy hamkorlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi?

A. BMT
B. YUNESKO
V. EHHT
G. MDH

4. Hozirgi zamonda jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlarning paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?

A. Serqirra globallashuv
B. Ekologik globallashuv
V. Siyosiy globallashuv
G. Madaniy globallashuv

5. “Tarix kurtaklari va uning maqsadi” asari muallifi kim?

A. K.Yaspers
B. Y.Xabermas
V. M.Xaydegger
G. G.X.Gadamer

6. 2018-yilda qaysi davlat bilan 27 milliard dollar miqdorida shartnoma imzolandi ?

A. Rossiya
B. Eron
V. Turkiya
G. Xitoy

7. Qachon aksariyat mamlakatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustamlaka qaramligidan xalos bo‘lish jarayoni yangi, lekin o‘zgacha tusdagi qaramlik o‘rnatilishiga olib keldi ?

A. 1960-yillarda

B. 1970-yillarda
V. 1980-yillarda
G. 1990-yillarda

8. 2003-yilda kim nanotexnologiyalar sohasida erishgan yutuqlari uchun yilning Osiyo-Amerika muhandisi unvoni bilan mukofotlangan ?

A. A.Zohidov
B. B.To'raev
V. R.Karimov
G. V.Usmonov

9. Olimlar, qachon insonni avtomobil halokatidan saqlaydigan, kayfiyatini ko'taradigan, organizmining qaysi qismi nosog'lom ekanligidan xabar beruvchi nanokiyimlar yaratilib, ular oddiy magazinlarda sotilishi bashorat qilinmoqda?

A. 2020
B. 2021
V. 2022
G. 2034

10. Nanotexnologiya atamasini birinchi bo'lib, 1974-yilda yapon olimi ..... yangi obyektlar va materiallar tuzish jarayonini izohlash uchun ishlatgan ?

A. A.Zohidov
B. B.To'raev
V. N.Taniguchi
G. V.Usmonov

Adabiyotlar:

1. Shermuhamedova N. Falsafa. –Toshkent: Idrisabdurayf. 2021. 457 б.
2. Otamurodov S. Globallashuv va millatni asrash mas'uliyati. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. 384-b.
3. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni. –Toshkent: //Tafakkur 2006.№4
4. Платон О государстве. –М.: Наука, 1996

5. Гегел В.Ф. Философия права. –М.: Наука. 1997
6. Харенберг Б. Хроника человечества. – М.: Слово. 2000. – С.387.
7. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: 1991. –С. 141.
8. П.Т. де Шарден. Феномен человека. – М.: 1987. – С.194
9. Белл Д. Социалные рамки информасионного общества / Новая технократическая волна на Западе. – М.: 1986. – С.342
10. Печчеи А. Человеческие качества. – М.: 1980. – С.123, 124.
11. Бобожонова Н. Ёшарган хавфли тўлқин. –Тошкент: Ношир, 2008. –Б.23.
12. Мамфорд Л. Миф машины. Техника и развитие человечества. – М.: Логос. 2001. –С.58
13. Моисеев Н.Н. Быт или не быт... человечеству? – М.: 1999
14. Чумаков А.Н. Глобализация. – М.: Проспект, 2017

13 - MAVZU. GLOBAL MUAMMOLARNING TASNIFI

Asosiy global muammolar tizimi

Hozirgi zamonda global muammolar keskinlik darajasi va yechimining ahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar bo'lib, ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni shu sababli ular *interijtimoiy global muammolar deb ataladi.* Bu yerda jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta'minlash; yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi:

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xomashyo resurslari ekologik muammolar, jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish *va shu kabilar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Uchinchi guruh «inson – jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar bo'lib, ular demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi, ma'naviyat va shu kabilarda namoyon bo'ladi.*

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har qanday tasnif masala yechimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab tizimni qayta tuzishning global muammolar o'zaro aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim. Endi butun insoniyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan eng muhim muammolarga qisqacha tasniflaymiz.

Hozirgi davrning global muammolari o'z holatini zamonda tinimsiz o'zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa, ularning yechilishiga qarab, yo'qolishi mumkin. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti A.Pechchei bu holatga e'tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko'ndalang bo'lgan aksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yanglig' butun sayyorani o'z iskanjasiga olmoqda yechilmagan

muammolar soni o'sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmashuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o'z changalida tobora qattiqroq siqmoqda», [1] deb yozgan edi. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga olib, muammolarning qaysi biri darhol yechishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishini ham farqlash muhimdir.

Demografik muammo

Demografik muammo aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari nazoratsiz o'sishi, ko'payishiga sabab bo'layotgan muammolar tizimidir. Ayrim mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, sayyorada mavjud energetika, xom ashyo, oziq-ovqat va boshqa resurslar Yerda faqat 1 milliardga yaqin kishi («oltin milliard») munosib hayot kechirishini ta'minlashi mumkin. Vaholanki, oxirgi ming yillik mobaynida sayyoramiz aholisi 15 baravar ko'paydi va bugungi kunda 8 milliard kishidan oshib ketdi. Bunda nafaqat miqyos, balki aholining o'sish sur'atlari ham aqlni lol qoldiradi. Xususan, birinchi ikki baravar ko'payish 700 yil ichida, ikkinchisi – 150 yil ichida, uchinchisi – 100 yil ichida va oxirgisi 40 yildan kamroq vaqt ichida yuz berdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asrning birinchi o'n yilligida Yer yuzida jami 1 milliard, 1956-yil Yerda 2, 856 milliard, 1985-yilda 5 milliard aholi yashagan bo'lsa, XXI asrning 2024-yilida Yer yuzida yashovchi aholining umumiy soni 8 milliarddan oshib ketdi. Futurologlarning fikricha 2050-yilda yerda 8,6 millarddan ortiq aholining yashashi bashorat qilinmoqda. Shu bilan birga 2100 yilda borib aholining o'sish sur'atlari 7 milliardga tushishi mumkin O'zbekistonda 1991-yilda 19,5 million aholi yashagan bo'lsa, 2022 yil 1-yanvar holatida ularning soni 35 million 271 mingdan oshdi[1], hozirgi davrda 37 millionga etdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, XX asrda Yer kurrasi aholisining «demografik portlash» deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va

[1] Печчеи А. Человеческие качества. – М.: 1980. – С 7
[1] Stat.uz

insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi. Bu avvalo rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lib, ularga jahon aholisi o'sishining o'ndan to'qqiz qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu yerdagi vaziyat rivojlangan mamlakatlarga XX asr boshidayoq xos bo'lgan o'lim darajasining yuqoriligi va butun insoniyatga XVIII asrga xos bo'lgan tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda mehnat unumdorligi darajasi va aholi jon boshiga olinadigan daromad miqdoriga, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik darajasi va qishloq xo'jaligining samaradorligiga, aholining savodxonlik darajasi va umumiy madaniy saviyasiga ko'ra bu mamlakatlar xalqlarining aksariyati hali XIX asrda yashamoqda.

Demografik muammolar juda murakkab va o'ta turg'un bo'lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ularni yechish kechga surilgani sari, yanada murakkabroq va chigalroq tus oladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug'ilish darajasini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Jumladan O'zbekistonda 1993-yilda "Oilani rejalashtirish" davlat dasturi qabul qilindi. Bu dasturda har bir oilada farzand tug'ilishini rejalashtirishning ona va bola sog'ligini asrashga yo'naltirilgan sa'y harakatlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda, mamlakatda demografik portlashning oldini olish vazifasini bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu borada barcha viloyatlarda, qishloq va ovullarda reproduktiv salomatlik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining o'rtacha yoshi erkaklar orasida 73, ayollar orasida 75 yoshga teng.

Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda ham keskinlashgan, lekin bu yerda uning aks ko'rinishiga duch kelish mumkin. Umr uzunligining va keksa odamlar sonining o'sishi jarayonida hatto aholining oddiy ko'payishini ham ta'minlamaydigan tug'ilish darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Ayni holda depopulyatsiya, ya'ni aholi sonining kamayishi to'g'risida so'z yuritiladiki, (Rossiya aholisi o'rtacha 54 yoshni tashkil qiladi,) bu ham milliy manfaatlar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, pensiya ta'minoti va shu kabilarga tegishli qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Rossiyadagi so'nggi 20 yillikdagi demografik jarayonlar

bunga yorqin misol bo'ladi. Biroq, keyingi 10 yilda bu masalada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan aholi soni ortishi va o'rtacha umrguzaronlik 4 yilga oshdi.

Urbanizatsiya global muammo

Demografik muammo urbanizatsiya bilan bog'liq. Urbanizatsiya (lotinchadan urbanus- shaharga oid, shaharlik)-shaharlarning jamiyat taraqqiyotidagi rolining ortib borishi, shahar aholisi sonining qishloq aholisi soniga nisbatan o'sishidir. Urbanizatsiyaning sabablari-shaharlarda sanoatning o'sishi, madaniy va siyosiy hayotning rivojlanishi, qishloq joylaridagi ishsizlik kabilardir. Urbanizatsiya qishloq aholisining shaharga, kichik shahar aholisining katta shaharlarga ko'chib o'tishi bilan xarakterlanadi. Shahardan qishloqqa ko'chib o'tishdir.

*Urbanizatsiya j*arayoni quyidagi omillarga ko'ra rivojlanadi: qishloq joylarining shaharlashuvi; keng shahar chekkasi zonalarining shakllanishi; qishloq joylaridan shaharlarga aholining migrasiyasi; tabiiy landshaftlarning sun'iy landshaftlar bilan almashinuvi, katta uy qurilishlari hisobiga tabiatning o'zgarishi, tabiatning urbanizasiyasi deb nomlanadi. *Urbanizatsiya davlat tashkil bo'lishining muhim belgisidir.*

Qishloq aholisining shaharlarga ko'chishi munosabati bilan ishchi kuchiga ehtiyoj ko'payadi, bu esa ishsizlikka olib keladi. Ayni paytda industrial jamiyatdagi tug'ilishning kamayishi qishloq aholisining hisobiga tenglashadi. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining yarmi ya'ni— 3,9 mlrd odam shaharlarda yashaydi va bu ko'rsatkich oshmoqda *Lotin Amerikasi, Janubiy sharqiy Osiyo va Afrika mamlakatlarida demografik portlash natijasida yolg'on urbanizasiya shakllanadi. Bu shahar aholisining qishloq aholisi hisobiga cheksiz ko'payishi, lekin turmush darajasining shahar sharoitlariga mos kelmasligi, ish o'rinlarining kamligi bilan belgilanadi.* So'nggi 50 yilda kambag'allarning soni 35 miliondan 900 millionga etdi. Keyingi 30 yilda bu ko'rsatkich ikki barobar oshishi prognoz qilinmoqda. Prognozlarga ko'ra 2035-yilga kelib shaharlardagi dunyo aholisining yarmi kambag'allashadi.

Kambag'allik turli kasalliklarga olib keladi, aholinig turmush sharoitlari og'irlashadi. Shaharlashish oqibatida ekologik muammolar

keskinlashadi, xususan shaharlarda havo ifloslanishi keskinlashadi. Masalan, Xitoyda havoning ifloslanishi ikki barobar ko'paygan. Avtotransportning ko'payishi ham turli avtohalokatlarning ko'payishiga olib keladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra har yili avto halokatlar oqibatida 500 ming kishi halok bo'lmoqda, 15 million kishi turli darajada jarohatlanmoqda. Jabrlanuvchilar asosan piyodalar va velosiped haydovchilari bo'lib tirik qolganlar nogiron bo'lmoqda.

Ta'lim muammosi

Demografik portlash va urbanizasiya sabablari ta'lim muammosi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda jahonda savodsizlar soni foiz hisobida kamaygan bo'lsa, mutlaq hisobda o'sishda davom etmoqda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy aqidalar bilan oqlaydigan arxaik oilaviy an'analarga bo'ysunadi. Pirovardda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishda davom etmoqda. Hozirgi vaqtda: savodxonlik mutlaq raqamlarda o'sayotgan bir paytda, savodsizlar, ya'ni o'qish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarishni bilmaydigan odamlar soni ham o'sib bormoqda (Hindiston aholisining 70%, Pokiston aholisining 60%, Afrika mamlakatlari aholisining 80% savodsiz).

Shu bilan bir qatorda aksariyat *odamlarning ma'lumot darajasi yangi texnologiyalar va kompyuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'laqonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq funksional savoasizlik ham o'sib bormoqda.*

Bu muammoning boshqa bir jihati shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan, bu ijtimoiy keskinlikning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shuningdek hozirgi davrda ta'lim sifatini yaxshilash, uning mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limning ijtimoiylashuvi o'quv jarayonida gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirishi lozim. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tub islohotlarning amalga oshirilishi aynan shu maqsadlarni o'zida ifodalaydi. *Zero, insonning nafaqat bilim olishi, balki kasbiy malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy savodsizlikni bartaraf qilishning muhim omili hisoblanadi.*

Bugungi kunda dunyoda, xususan O'zbekistonda ta'lim tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilishi jarayoni boshlandi. Oliy ta'limning sifati maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'liqligi aniqlandi. Masalan dunyoning rivojlangan mamalakatlarida Daniyada 95 foiz, Germaniyada 92 foiz 3-6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olgan bo'lsalar, 2016-yil holatiga O'zbekistonda 27 foiz bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olishi aniqlandi. Shu bois, 2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Prezidentining maktabgacha ta'lim muasasalarining rivojlanishini yanada takomillashtirish chora tadbirlari bo'yicha qaror e'lon qilindi. 2017-yilda maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Har bir viloyatda 20 tadan xususiy maktabgacha ta'lim muasasalarini tashkil etish jarayoni amaliyotga joriy etila boshladi. Ushbu sa'y harakatlarning natijasi sifatida 2022-yilda O'zbekistonda 52,5 % bola maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etildi, 2024 yilda bu ko'rsatkich 75 foizga etdi.

Agar sovet tuzumi davrida O'zbekistonda 20 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib borgan bo'lsa, 25 yil davomida ularning soni 82 taga etdi. Biroq, birgina 2017-2018-yillarda 23 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. 2024-yil holatiga O'zbekistonda 215 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib bormoqda. Agar uzoq yillar davomida oliy malakali kadrlar tayyorlash jarayoni aholining 10-15 % tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 30% ga etdi. Xalqaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi, xorijlik professor-o'qituvchilarning O'zbekiston ta'lim muasasalarida mahorat darslarini tashkil etish amaliyoti, professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobilligi tashkil etildi. Xususiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish jarayoni boshlandi. 2019-yildan oliy ta'lim tizimiga qabul kvotasi liberallashdi, aholining barcha qatlamlarining oliy ta'limga ega bo'lish huquqiga cheklov olib tashlandi va tabaqalashtirilgan shartnoma to'lov belgilandi. Birinchi darajali ko'zi ojiz yoshlarga, harbiy xizmatni o'tayotgan davrda

shaxid bo'lgan xarbiy xizmatchilarning farzandlldariga, kam ta'minlangan oilalar qizlariga bakalavriat ta'lim yo'nalishida va barcha qizlarga magistratura mutaxassisligida davlat byudjeti hisobidan o'qish joriy etildi. Demak, dunyo va O'zbekistonda ta'lim bilan bog'liq muammoni bartaraf etish hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

2018-yilda voyaga yetmagan bolalar mehnatiga chek qo'yilishi munosabati bilan O'zbekiston uchinchi davlatlar toifasidan chiqarilganligi eng katta yutuqdir (paxta terimi bilan bog'liq muammo). 2018-yilda aholi oylik maoshining 30% dan 100 % gacha ko'tarilishi, pensiya, stipendiyalar miqdorining ko'tarilishi, kam ta'minlangan oilalarga imtiyozli uylarning ajratilishi, 2017-2021-yillarda 15 mingta arzon va qulay uylarni qurib aholiga foydalanish uchun topshirish jarayonining bosqichma bosqich amalga oshirilayotganligi xalqning boy va baxtli qilish istagining amaliyotga joriy etilishining ifodasidir.2024 yilda 94 mingta uyning qurib aholiga topshirilishi bu jarayonning davomiyligidan dalolat beradi

Sog'liqni saqlash muammosi

Aholi sonining o'sishi va uning yashash sharoiti, atrof muhitning ifloslanishi sog'liqni saqlash bilan uzviy bog'liq. Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergan o'zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi. Bu yerda yuqumli kasalliklar bartaraf etilgan bo'lib, ular odamlar o'limining asosiy sabablari hisoblanmaydi. Lekin yurak-qon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar sezilarli darajada ko'paydi, «sivilizatsiya kasalliklari» deb nomlangan butunlay yangi kasalliklar: rak, OITS, karonobirus va boshqalar paydo bo'ldi. Bunday kasalliklar, xususan yurak-qon tomir kasalliklari o'sishining asosiy sabablari kam harakatchan turmush tarzi, semirish, chekish, ruhiy zo'riqish, stress holatlari ekanligi aniqlangan. Bu hodisalar insonga tabiatning qudratli kuchlarini jilovlash va o'zini jismoniy mehnatdan asosan xalos etish, mazkur ishni mashinalar, texnika

vositalariga yuklab, o'ziga asosan aqliy mehnat, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini qoldirish imkonini bergan XX asr sivilizatsiyasining rivojlanish mahsulidir. XXI asrning eng yirik fojiasi Covid-19 dir, u mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin: bu yerda kasalliklardan azob chekayotganlar soni rivojlangan mamlakatlardagidan ko'proq, kasallikning oldini olish yoki davolanish imkoniyati esa sezilarli darajada kamroqdir. Tibbiyot sifatining pastligi, qashshoqlik va antisanitariya tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o'limi, bezgak, sil, traxoma, qoqshol bilan kasallanish darajasi, epidemik yuqumli kasalliklarning paydo bo'lish ehtimoli rivojlangan mamlakatlardagi holat bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada yuqoridir.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yurak qon-tomir kasalliklari kun sayin ortib bormoqda. Bunday kasalliklar aksariyat hollarda o'lim bilan tugaganligi sababli jamiyat uchun katta tahdid sanaladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotiga ko'ra, 2005-yilda yurak qon-tomir kasalliklaridan 17,5 million inson vafot etgan. Ushbu ko'rsatgich barcha o'lim holatlarining 30 foizini tashkil qiladi. Shu jumladan, 7,6 million kishi yurak ishemik kasalligidan 5,7 million kishi insult oqibatida hayotdan ko'z yumgan[1]. Hozirgi vaqtda o'rnatilgan xalqaro aloqalar natijasida davlatlar o'rtasidagi ulkan yuk oqimlari, odamlarning faol migrasiyasi va kengaygan iqtisodiy munosabatlar olamshumul xususiyat kasb etdi va ko'pgina yuqumli kasalliklarning tarqalish tezligini oshirdi. Notipik zotiljam, qush grippi, cho'chqa grippi kabi ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, yangi kasalliklarning paydo bo'lishi sabablarini ham ayni shu yerdan izlash lozim.

Ayni paytda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, XX-XXI asrda yangi kasalliklar soni ko'payib borsada, kasalliklarga qarshi kurash vositalari ham takomillashib bormoqda. Jumladan, XXI asr fanining eng katta yutug'i sifatida 2008-yilda nemis olimi Xareld sur Xauzen (1936) ayollarda bachadon saratoni kasalligini "papiloma" virusi keltirib chiqarishini aniqlagan va unga qarshi emlash vositasini yaratgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Dunyo bo'yicha umumiy saraton

[1] Bobojonova N. Yashirgan savfli to'lqin. –Toshkent: Noshir, 2008. –B.23.

kasalligining 5%ini bachadon raki tashkil qilar. va har yili ikki yuz mingga yaqin ayollar shu kasallikdan bevaqt olamdan ko'z yumar edi. Ushbu kasallikka qarshi vaksinatsiyaning ommalashuvi yuzlab ayollarning sog'ligi garoviga aylanmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham 2009-yildan 12-14 yoshdagi qizlarda bachadon saratoni kasalligiga qarshi emlash ishlari keng amalga oshirilmoqda. Xareld sur Xauzenning kashfiyoti asr boshining eng buyuk kashfiyotlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligi bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan, unga ko'ra barcha viloyatlarda skrining markazlari tashkil qilindi, ona va bola salomatligining profilaktikasi, "tez yordam" markazlarining faoliyati yo'lga qo'yildi, aholini notipik gripp kasalligiga qarshi emlash ishlari rejali amalga oshirilmoqda. "Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning 98 foizidan ortig'i oldini olish mumkin bo'lgan infeksiyalarga qarshi emlanmoqda. Buning natijasida difteriya, qizamiq kasalliklariga chalinish holatleri keskin kamayganini aytish darkor. 2010-yilda yuqumli kasalliklar bilan og'rish holatlari, jumladan, meningikok infeksiyasi 28 foiz, epidemik parotit 27 foiz, virusli gepatit 13 foizga kamaygan" bo'lsa, 2018-yil holatida virusli gippotit A 4,5%, o'tkir ichak kasalliklari 4,8%, o'tkir respiroktiv shamollash kasalliklari 7,55 ga kamaydi. Darhaqiqat, 1997-yilda 1-sonli yuqumli kasalliklar ilmiy tadqiqot institutida yangi laboratoriyaning tashkil qilinishi O'zbekistonda (gippotit) odam organizmida sariq kasalligining nafaqat A va V virusi, balki S, D, E viruslarini aniqlash imkonini yaratdi. Sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, o'ta og'ir yuqumli kasalliklarga barham berish hamda ularni kamaytirish borasida qat'iy choralar ko'rildi. O'zbekistonda, onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamaydi, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Zamonaviy diagnostika texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanishning yo'lga qo'yilishi, surunkali sariq kasalligining oqibati bo'lmish jigar serrozining kamayishiga va aholining umumiy umrguzaronligini oshishiga olib keldi. Transplantologiya bo'yicha qonunning e'lon qilinishi natijasida 2018-yilda birinchi marta jigar

transplantalogiyasi amaliyotga joriy etildi. So'nggi 10 yil ichida O'zbekistonda yagona kardiologiya xizmati tarmog'ini yaratish, zamonaviy diagnostika va davolash usullaridan foydalanish imkoniyatining kengayganligi hisobiga infarkd miokard diagnozi bilan o'lim holati 10% ga kamaydi.

Hozirgi kunda yurak xastaligi bilan tug'ilgan chaqaloqlarga ham kardioxirurgik yordam ko'rsatilib, ularning yashash imkoniyati oshdi, (ilgari faqat uch yoshdan keyin ularga jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan). Bugun shifokor olimlar Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Italiya, Fransiya, Hindiston kabi mamlakatlar shifokorlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqdalar. Respublika bo'yicha kardiomarkazlarning tashkil etilishi, koronografiya davolash usulidan keng miqyosda foydalanish natijasida yiliga minglab odamlar shifo topmoqda. Dunyoning juda kam mamlakatlarida xosbislar tashkil qilingan. Uzoq yillar davomida O'zbekistonda xosbis (4 darajadagi rak diagnozi qo'yilgan bemorlarning og'riqsiz o'lish uchun sharoit) yo'q edi. Biroq, 2017-2021-yillarda O'zbekistonni yanada iqtisodiy ijtimoiy rivojlantirish Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib dastlab yurtimizda uchta "xosbis" (to'rtinchi darajadagi saraton kasalligi diagnozidagi odamlarning og'riqsiz o'lish uchun sharoit) tashkil etildi. Hozirgi kunda har bir viloyatdagi onkologiya kasalxonalarida xosbislar tashkil etildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 7 ta farmzona tashkil etildi. Mahalliy dori darmonlarni ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga ularning narxlari arzonlashdi.

Biroq, dunyo, xususan O'zbekiston aholisining o'z salomatligiga nisbatan ijtimoiy faolligi va hushyorligi nihoyatda past, ya'ni bepul tashkil qilingan dispanserizasiya amaliyotidan yetarli foydalanilmaydi. Inson sog'ligi barcha davlatlarda eng muhim muammolardan biri bo'lgan.

Yaponiya dunyoda aholisi uzoq umr ko'radigan mamlakatlar orasida birinchi o'rinni egallaydi, xususan ayollarning o'rtacha yoshi 93, erkaklarning o'rtacha yoshi 83 ni tashkil qiladi. Zambiya aholisi eng kam o'rtacha umr ko'ruvchi mamlakat bo'lib, unda ayollar o'rtacha yosh 50 yil, erkaklar 40 yil yashashi mumkin. Sog'lomlashtirish va reabilitatsiya ishlarining tashkil etilishi dunyo aholisining umrguzaronligining oshishiga olib keldi.

Oziq ovqat muammosi

Ommaviy kasalliklar va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosi bilan bog'liqdir. Xususan, surunkali to'yib ovqat yemaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo'layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili ochlikdan bir necha o'n millionlab odamlar, kattalardan ko'ra ko'proq bolalar halok bo'lmoqda. *Masalan Hindistonda har ikki boladan bittasi ochlikdan halok bo'lmoqda, har beshta boladan bittasi to'yib ovqatlanmaganligi uchun turli kasalliklarga chalinmoqda.*

Oziq-ovqat taqchilligiga duch kelgan mamlakatlar uni import qilishga majbur, lekin bu, odatda, ocharchilikka qarshi kurashda kam samara beradi va bundan tashqari, mazkur mamlakatlarni eksportchilarga qaram qilib qo'yadi. Shu tariqa g'alla ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tazyiq o'tkazishning samarali vositasiga va mohiyat e'tibori bilan, avvalo eng qashshoq mamlakatlarga qarshi «oziq-ovqat quroli»ga aylanadi.

1960-yillarda oziq-ovqat muammosini yechish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun «yashil inqilob»ni amalga oshirish bilan bog'langan edi. Bu tadbirning mohiyati bug'doy va sholining o'ta unumli yangi navlaridan foydalanib, qishloq xo'jalik mahsuldorligini keskin oshirishdan iborat edi. Buning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini zamonaviy texnologiyalar yordamida modernizasiya qilish mo'ljallandi. «Yashil inqilob» aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda qabul qilindi, lekin amalda ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib keldi. Qishloqni qayta tashkil etish uchun tegishli ijtimoiy shart-sharoitlar va buning uchun zarur mablag'lar mavjud bo'lgan davlatlarda u ijobiy samara berdi. Ammo bunday mamlakatlar uncha ko'p emas, masalan Hindiston, Pokiston shular jumlasidan. Xususan, Hindistonda har ikki boladan bittasi ochlikdan, har beshta boladan bittasi to'yib ovqat yemaganligi uchun turli kasalliklarga chalinib o'lmoqda.

Texnika va o'g'itlar xarid qilish uchun mablag'lar mavjud bo'lmagan, aholining ma'lumot darajasi juda past bo'lgan, turg'un an'analar va xurofiy aqidalar xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini amalga joriy etishga to'sqinlik qilgan o'ta qoloq mamlakatlarda esa «yashil inqilob» samara bermadi. Shuningdek, u odatdagi mayda

xo'jaliklarni vayron qila boshladi, qishloq aholisining shaharga migrasiyasini kuchaytirdi. «Yashil inqilob» eski qishloq xo'jaligi o'rnida yangi, zamonaviy qishloq xo'jaligini barpo eta olmadi, ya'ni eski uyni buzib, uning o'rnida yangi imorat qura olmadi, bu esa oziq-ovqat muammosini yanada keskinlashtirdi.

O'zbekistonda bu muammoning yechimini topishga oqilona yondashildi. Paxta yakkahokimligiga chek qo'yilib, g'alla, sholi, chorma mollarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi, qishloq infratuzilmasini takomillashtirish, qishloqqa sanoatni olib kirish, g'alla mahsulotlarini ishlab chiqish texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda barcha viloyatlar kesimida aholini oziq ovqat bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan.

Atrof muhitni ifloslantirish - ekologik tizimni asta-sekin yo'q qilish va insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug'dirish demakdir. Ma'lumki, O'zbekiston Konstitutsiyasining 49-moddasiga, shuningdek, «Tabiatni muxofaza kilish tugrisida»gi Qonunning 5-moddasiga muvofik Yer, Yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi xamda boshka tabiiy zahiralar umummilliy boylik bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida bo'ladi. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish soxasidagi munosabatlar «Tabiatni muxofaza kilish tugrisida»gi qonun, shuningdek, Yer, suv, o'rmon, Yer osti boyliklari, atmosfera, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun tabiiy muhitni saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muammolari har bir kishining tabiatga oqilona munosabati va uni asrab avaylashdagi amaliy sa'yi-harakati bilan belgilanadi. Chunki bugungi kunda quyidagi muammolarni hal etish zarurati ustuvor ahamiyat kasb etmokda. Birinchidan, 1950-yildan 2024-yilgacha Yerning aholisi 2,5 milliarddan 8 milliardga etganligi turli darajadagi ijtimoiy-siyosiy va asosan iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Ikkinchidan, Xalkaro oziq-ovqat instituti hisob-kitoblariga ko'ra, 1995 va 2024-yillar oralig'ida dunyo aholisining o'sishi yiliga 73 million kishini tashkil qildi oqibatda dunyo aholisi soni 8 milliardni tashkil etdi. Aholi sonining ko'payishi kambag'al mamlakatlarda ko'prok kuzatiladi, biroq ularning kundalik ish haqini kuniga 2 dollardan kam bo'lgan

mablag'ni tashkil qilgan turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Osiyoda 2020-yilda insoniyatning yarmidan ko'pi yashamoqda. Afrika aholisining dunyo miqyosidagi ulushi 2000-yilda 12% tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatgich 15% ga ko'tariladi. Sayyoramiz aholisining jadal o'sishi ommaviy qashshoqlik muammosini yanada kuchayishiga sabab bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 2020-yilga kelib 135 million bola ochlikdan aziyat chekishi alohida ta'kidlab o'tilmoqda. Ekologik inqiroz - jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanat, tabiiy muhitning tanazzulga uchrashi va davlat tuzilmalarining muammoni hal qilish va qulay muhitni tiklash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rmasligidir. Atrof-muhit inqirozining dastlabki shartlaridan biri atrof-muhitning ifloslanishidir.

Ekologik inqiroz

Ekologik inqiroz atrof muhit o'zgarishining darajasi inson tanasining adaptiv salohiyatidan oshib ketganda, odamlarning o'limiga olib keladigan hodisalar yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, ob'yektiv ravishda insonning biologik ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan ekologik ehtiyojlari mavjud. Shuning uchun atrof-muhit o'zgarish sur'atini inson va aholi populyasiyasining adaptiv qobiliyatlari bilan o'zaro bog'lash muhim. Hozirgi davrda atrof-muhit inqirozining o'sib borayotgan tufayli tabiiy resurslarning yetishmasligi va insoniyat yashash joylarining ekologik muammolar sabab yaroqsiz holga kelayotganligi ayni shu tipdagi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu boisdan ham texnogen jamiyatda atrof-muhit masalalari zamonaviy inson va jamiyatning o'z-o'zini oqilona anglash darajasini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi muammosi

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi muammosi ba'zi mamlakatlarda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish ko'rsatkichlarining yuqoriligi yoki pastligi bilan belgilanadi

BMT 193 davlat ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ularda iqtisodiy o'sish sur'atlari turlicha. Yevropa va ba'zi Uzoq Sharq mamlakatlarida iqtisodiy o'sish darajasi yuqori bo'lsa, Afrika mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari nihoyatda past. Masalan, Gaiti dunyoning eng kambag'al

mamlakati hisoblanadi. Shuningdek Sudan, Somali kabi mamlakatlarda ochlik hukm surmoqda.

Aholining turmush darajasini mamlakatning iqtisodiy siyosiy vaziyati va aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilish darajasi bilan bog'liq. *Turmush darajasi hayot sifati hayot darajasi kabilar bilan bog'liq, bu esa aholining ish bilan ta'minlanganligi, ta'limi, sog'ligi, ma'ishiy hayoti kabilarni kamrab oladi.* Turmush darajasi insonning unga yaratilgan sharoitlardan foydalanish sifat darajasi va aholining o'z daromatlarini to'g'ri taqsimlash imkoniyati bilan bog'liq.Turmush darajasi inson ongining rivoji uning tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. XX asrning 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida aholining bo'sh vaqtlarida kooperativ va individual mehnat faoliyati uchun sharoit yaratildi. Bu odamlar turmush darajasidagi farqlarga, ba'zi hollarda bir guruh aholining cheksiz boyib ketishiga olib keldi. Turli qarindosh urug'lar vositasida daromadli joylarga mutlaqo nomunosib odamlarning ishga joylashishi amaliyoti rivojlandi.

Bu amaldorlarga pora berish hisobiga turli yuqori lavozimlarni sotib olish imkoniyatini berdi. Bu esa, jamiyatning nafaqat axloqiy buzilishi, balki turli darajadagi jinoiy ishlarning keng ko'lamda rivojlanishiga xususan korrupsiya, poraxo'rlik, o'z xizmat lavozimini su'istemol qilish kabilarning ko'payishiga olib keldi. 90-yillarda jinoyatlar soni ko'paydi, mashina o'g'irligi, reket, xonadonlardagi o'g'irliklar va odam o'ldirish amaliyoti kuchaydi. Bu jamiyatning ma'naviy axloqiy ruhiga salbiy ta'sir etdi. Jinoyatning iqtisodiy omillari umumiy iqtisodiy inqiroz sifatida baholandi, bu eng avvalo aholining iqtisodiy ehtiyojlari va imkoniyatlarining nomutanosibligi, umumiy ishsizlik va inflyasiya, aholining boylar va kambag'allarga ajralishi milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti bilan integrasiyaga kirishmaganligida o'z ifodasini topdi. Shu bois, rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish hozirgi davrning global muammolari orasida alohida o'rin egallaydi, chunki bu yerda vujudga kelgan xalqaro munosabatlar tizimi beqarorlashuvining kuchli omillari yashirinib yotadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida yalpi mahsulot ishlab chiqarish o'sgani holda, boylar va kambag'allar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi ulkan

tafovut yanada oshdi. Bu muammo ba'zan «boy Shimol» va «qashshoq Janub» o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida ham tavsiflanadi.

Energetika va xomashyo resurslari muammosi

Energetika va xomashyo resurslari bilan ta'minlash muammosi xalqaro maydonda ko'p sonli ziddiyatlar, shu jumladan harbiy mojarolar manbaiga aylandi. Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o'ynaydi.

Mazkur resurslar tiklanadigan, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan tiklash mumkin bo'lgan resurslarga (gidroenergiya, yog'och, quyosh energiyasi va sh.k.) va miqdori mavjud tabiiy zahiralar bilan chegaralangan tiklanmaydigan resurslarga (neft, ko'mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo'linadi. Hozirgi iste'mol sur'atlari saqlangan taqdirda tiklanmaydigan resurslarning aksariyati insoniyatga bir necha o'n yillardan bir necha yuz yillargacha bo'lgan muddat bilan o'lchanadigan yaqin kelajakda foydalanishgagina etishi hisoblab chiqildi. Shuningdek mavjud zaxiralarning anchagina qismi murakkab sharoitda joylashgan konlarda jamlangan yoki nisbatan qashshoq rudalardan iborat.

Yaqindagina odamlar aksariyat foydali qazilmalarni ochiq usulda yoki 600 m dan oshmaydigan chuqurlikda qazib olgan bo'lsalar, bugungi kunda vaziyat sezilarli darajada o'zgardi. Qulay joylardagi foydali qazilmalar tugab bormoqda va endilikda 8-10 km chuqurlikda yoki okean tubida joylashgan konlarni ishga solish vazifasi paydo bo'lmoqda. Bu esa, nafaqat ko'p miqdorda kapital qo'yilmalarni, balki ularni qazib chiqarish va qayta ishlash uchun yangi texnika va texnologiyalar yaratishni ham taqozo etadi. Shu sababli chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda insoniyat ixtiyorida mavjud resurslardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda O'zbekistonda energiya resurslaridan foydalanish amaliyoti davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2018-yilda O'zbekiston va Rossiya hamkorligida Markaziy Osiyoda birinchi tinchlik maqsadlarida foydalanilishi rejalashtirilgan ikki blokdan iborat atom elektrostansiyasining qurilishi boshlandi va u 2028-yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilmoqda. 2020 yilda Xiytoydan 30 ta mikroelektrostansiyalar olib kelindi va ular Farg'ona vodiysi xududlariga o'rnatildi.

Urush va tinchlik muammosi

Jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va Yerda mustahkam tinchlikni ta'minlash butun dunyoda mavjud barcha global muammolar orasida eng muhimidir. Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo'lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga «o'lish yo qolish?» degan mudhish savolni qo'yib, alohida, fojeaviy mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Bu hol ilgari mavjud bo'lmagan imkoniyat – Yerdagi hayotni yo'q qilish imkoniyatini yaratgan yadro quroli paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Yadro quroli 1945-yil avgustda (Xirosima va Nagasaki) ilk bor qo'llanilgan paytdan e'tiboran mutlaqo yangi davr – inson hayotining barcha jabhalari: siyosat, iqtisod, tafakkurda, jahon maydonidagi kuchlar nisbatida tub o'zgarishlar yasagan yadro davri boshlandi. Ammo muhimi shundaki, mazkur davrdan e'tiboran nafaqat ayrim inson, balki butun insoniyat o'lishi mumkin bo'lib qoldi. Teyyar de Sharden yangi vaziyatga baho berar ekan, shunday deydi: «Bir individ o'lsa, uning o'rnini doim boshqa bir individ egallaydi. Individning o'limi hayotning davom etishiga to'siq bo'la olmaydi. Ammo butun insoniyat o'lsa-chi?..»[1]. 1940-yillarning oxirida ta'riflangan bu masala vaqt o'tishi bilan ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. Atom bombasi paydo bo'lishi bilan «qiyomat-qoyim» xom-xayol bo'lmay qoldi. O'sha davrda yangi ixtironing butun xavfini ko'pchilik hali tushunmagan, ayrim faylasuflar va olimlar yadro urushi tahdid solayotgan sharoitda odamlar o'zining o'zgargan holatini anglab yetishlari va insoniyat halok bo'lishining oldini olish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari lozimligi haqida ogohlantirgan edi.

Albatta, o'zini o'zi qirib tashlash imkoniyati odamlarda darhol paydo bo'lgani yo'q. Yadro qurolini yaratish va uni butun tiriklikni qirib tashlash uchun yetarli miqdorda jamg'arish uchun vaqt, juda katta moddiy, moliyaviy va boshqa xarajatlar, shuningdek jahonning turli mamlakatlaridagi olimlar, muhandislar va ishchilar ko'p millionli armiyasining kuch-g'ayrati talab etildi. Ammo birinchi yadro portlashlaridan so'ng yuzaga kelgan vaziyatning jiddiyligini jahon hamjamiyatining keng davralari anglab yetishi uchun ham qariyb 30 yil vaqt o'tishi kerak bo'ldi.

[1] П. Тейяр де Шарден. Феномен человека. – М., 1987. – С. 216.

AQSh va Sovet Ittifoqida bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ish olib borgan olimlar ikki jamoasi tadqiqotlarining aqlni lol qoldiruvchi natijasi bo'lgan «yadro qishi» konsepsiyasi paydo bo'lgan 1980-yillarning boshiga kelibgina insoniyat yadro quroli yaratilishi, shuningdek global muammolar paydo bo'lishi bilan u o'zining avvalgi «umrboqiyligi»ni yo'qotganini uzil-kesil anglab yetdi. *Kompyuterda yaratilgan modellarda ancha aniq hisoblab chiqilgan mazkur konsepsiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, jahonda Yerdagi hayotni butunlay yo'q qilish uchun yetarli miqdorda yadro zaryadlari to'plangan.* Ular portlatilgan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri shikastlantiruvchi ta'sirdan tashqari havoga son-sanoqsiz miqdorda chang, tutun va kul ko'tariladi va ularning qalin pardasi sayyoramizni quyosh nurlaridan butunlay to'sib qo'yadi. Bu atmosfera va Yer yuzasining temperaturasi keskin pasayishiga sabab bo'ladi va uni muz bosishiga olib keladi. «Yadro qishi» konsepsiyasi odamlarni ular yangi xavf darajasini anglab yetishga va sivilizatsiyani qutqarish uchun harbiy kuch ishlatishdan voz kechib, choh yoqasidan uzoqlashishga qodirmi, degan savolga javob berishda muqobildan uzil-kesil mahrum qildi.

Muhokama qilinayotgan muammoning boshqa bir o'ziga xos xususiyati shundaki u mohiyati va hozirgi holati ekologiya muammosi bilan uzviy bog'liq. Biz fan-texnika taraqqiyoti darajasi ekologik tanglikni bartaraf etish borasidagi imkoniyatlarni belgilashini qayd etgan edik, ammo qurol-yarog'larning vayronkor imkoniyatlari, ularning shakllari, qo'llash metodlari va usullarining rang-barangligi ham ayni shu darajaga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, inson o'z hayotini tabiat bilan uyg'unlikda yo'lga qo'yish imkoniyatlarini qo'lga kiritish bilan bir qatorda butun tiriklikni yo'q qilish qobiliyatini ham ko'p karra oshirdi. Jamiyatning harbiylashuvi, qurollanish poygasi va harbiy mojarolarning salbiy oqibatlari atrof muhitning buzilish jarayonlarini yanada jadallashtirmoqda. Yadro quroli bilan bir qatorda urush olib borishning «geografik» vositalari ham oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlardan iborat alohida xavf tug'diradi. Bu oqibatlar inson sun'iy yo'l bilan tabiiy ofatlar, vayrongarchiliklar va shu kabilarga erishish maqsadida tabiiy jarayonlarga izchil ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Urush harakatlari olib borishning bunday usullari, masalan muayyan

hudud ustidagi ozon qatlamini ataylab vayron qilish va shu kabilar yadro qurolining qo'llanilishi bilan teng oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda harbiy qarama-qarshilik ma'lum darajada susayganiga qaramay, aksariyat mamlakatlarda mudofaa va atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlarida ulkan nomutanosiblik hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Bu tafovut mudofaa foydasiga ba'zan ellik baravar va undan ko'proq darajaga etadi. Bu hol «uchinchi dunyo» mamlakatlarida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bu erga, bir tomondan, qurol-aslaha, boshqa tomondan esa – murakkab ekologik vaziyatni yanada og'irlashtiruvchi eskirgan asbob-uskuna va noekologik texnologiyalar tobora ko'proq yetkazib berilmoqda. Natijada ifloslanish va tabiatning zavol topish sur'atlari bu yerda rivojlangan mamlakatlardagidan ancha yuqoridir.

Qurollanish poygasi nafaqat ulkan moddiy resurslarni, balki mehnat resurslari, intellektual resurslarni ham behuda sarflamoqda. Butun dunyoda olimlarning to'rtdan bir qismi, odatda, eng malakali kadrlar urushga tayyorgarlik ko'rish borasidagi ishlarga jalb qilingan bo'lib, ularning bilim va ko'nikmalari vayronkorlik vositalarini yaratishga yo'naltirilgan. Ammo olimlar insoniyat duch kelgan xavf darajasini birinchi bo'lib (ularning eng ilg'or vakillari) anglab yetdilar.

Qurollanish poygasi avj ola boshlagan 1955-yilda taniqli ingliz faylasufi B.Rassel tinchlik va qurolsizlanish uchun kurash tashabbusi bilan chiqdi. U A.Eynshteyn bilan hamkorlikda F.Jolio-Kyuri, M.Born, S.Pauell, L.Infeld va boshqa yirik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan mashhur Manifestni e'lon qildi. Bu Manifestda insoniyat unga tahdid solayotgan xavf haqida ogohlantirildi, shuningdek yadro asrida sivilizatsiyani asrab qolish uchun «yangicha fikrlashni o'rganish» lozimligi uqtirildi.

B.Rassel nafaqat xavf-xatarlar haqida ogohlantirdi, balki ularni yechish yo'llari sifatida barcha urushlarga chek qo'yishi lozim bo'lgan jahon hukumatini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, BMT* bunday hukumat negizi bo'lishi mumkin. U shuningdek davlatlar o'rtasidagi nizoli masalalarni tinch yo'l bilan yechish uchun jahon konferensiyasi chaqirishni talab qildi. Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik uchun kurash boshlagan jahon ilmiy hamjamiyati bu borada o'z

* Birlashgan Millatlar tashkiloti

kuch-g'ayratini birlashtirish lozimligini anglab yetdi va 1957-yilda Pagoush (Kanada)da o'z tarafdorlarining birinchi konferensiyasini o'tkazdi. *Pagoush harakati* deb nomlangan bu tashkilot tinchlik uchun kurash olib boruvchi nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. Endilikda unga hozirgi globallashuv muammolari va nomutanosibliklarini bartaraf etish yo'lida kurash olib borayotgan boshqa ko'p sonli tashkilotlar va harakatlar (Grinpis, Rim klubi, antiglobalistlarning harakatlari va boshqalar) qo'shildi. Tinchlik va qurolsizlantirish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikdagi kurash g'oyasini 2017-yilda Sh.Mirziyoyev BMTning 72 sessiyasida taklif qildi.

Globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab yetish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o'ta og'ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-kesil yechimlarga ega bo'lmagan ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog'lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Darhaqiqat, asrlar mobaynida saqlanib qolayotgan dunyo haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish, qotib qolgan fikrlash andozalarini bartaraf etish va odamlar ongida insoniylikning yangicha tamoyillarini shakllantirishning o'zi umuminsoniy muammolar yechimi emasligi ham ravshan. Bu mazkur muammolarni bartaraf etish yo'lidagi zarur, lekin faqat birinchi qadam va u muttasil o'zgaruvchi vaziyatga mos bo'lgan va hozirgi davr ruhini aniq aks ettiradigan dunyoqarashning shakllanishi bilan bog'liq. Bunday yangilangan dunyoqarash zamirida faqat so'nggi yuz yillikka xos bo'lgan jamiyat hayoti internasionallashuvining keskin o'sishi bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmuni va shakl-shamoyillarini aks ettiruvchi yangicha insoniylik yotishi lozim. Mazkur *yangicha insoniylik global ongni shakllantirishga qaratilishi va uch asosiy negiz: globallik tuyg'usi, zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik va insonning asosiy huquqlarini tan olishdan kelib chiqadigan adolatparvarlikni o'z ichiga olishi darkor.*

Terrorizm muammosi

Terrorizm insoniyat tinchligiga tahdid soluvchi eng xavfli global muammo.

Terrorizm (lat. terror — qo'rqo'v, dahshat) — doimiy terror harakatlari qo'llaniladigan siyosat. Terror so'zining sinonimlari zo'ravonlik, qo'rqitishdir. Terrorizm zo'ravonlik siyosati zo'ravonlik mafko'rasi va ijtimoiy onggga ta'sir qilish vositasi, davlat hokimiyati va mahalla boshqaruv organlari va xalqaro tashkilotlarning qarorlar qabul qilishiga kuch ishlatish orqali ta'sir, aholini qo'rqitish va boshqa noqonuniy harakatlar amaliyotida o'z ifodasini topadi. Eng qadimgi davrdagi terrorchilik harakatlaridan biri eramizdan oldingi 340 yilda Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp Ilning o'ldirilishidir. AQShda tinch aholiga qarshi yo'naltirilgan qasddan uyushtirilgan zo'ravonlik sifatida XX asrning 60 yillarida terrorizmning alohida shakli xalqaro terrorizm paydo bo'ldi.

Sub'yektlar maqomiga ko'ra uyushmagan yoki individual terrorizm va uyushgan jamoa shaklidagi terrorizm farqlanadi. Individual xarakterdagi terrorizmda bir yoki ikki kishi ishtirok etadi, uning orqasida hech qanday jinoiy guruhlar turmaydi. (Masalan, Norvegiyaning Oslo shahridagi terroristik harakat, 1981-yilda AQSh Prezidenti Ronald Reganga suiqasd va boshqalar). Jamoa shaklidagi uyushgan terrorizm muayyan tashkilot tomonidan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Masalan, eserlar, Al-Kaida, IshID va b.). Uyushgan terrorizm hozirgi davrda eng keng tarqalgan terrorizm shakli hisoblanadi.

Maqsadiga ko'ra milliy va diniy terrorizm farqlanadi. Milliy terrorizmda separatizm va milliy ozodlik harakatlari ko'zda tutiladi.

Diniy terrorizmda — turli din vakillarining o'zaro kelishmovchiligi (musulmonlar va induslar, musulmonlar va jugutlar) va bir din vakillarining (katolik va protestantlar, sunnitlar va shiitlar)o'zaro diniy maqsadlaridagi ziddiyat tufayli amalga oshiriladi va unda amaldagi hokimiyatni ag'darish va o'z diniy hokimiyatini o'rnatish g'oyasi ustivordir.

Mafkuraviy ijtimoiy terrorizm— mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy tizimni qisman o'zgartirish jamiyatning e'tiborni muayyan muammoga qaratishda namoyon bo'ladi (Masalan anarxizm, fashizm, eserchilar).

Davlat terrorizmi-odatda fuqarolarga nisbatan ishlatiladigan davlat darajasidagi zo'ravonlik bo'lib, davlat terrorizmida polisiya va boshqa huquq tartibotni saqlash organlari vakillari tomonidan aholining sud va tergovsiz noqonuniy hibsga olinishi, qasddan o'ldirilishi, qiynoq, o'g'irlash va boshqalar kiradi. Davlat terrorizmi, shuningdek davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan terroristik hujumlardir. (Stalinizm davridagi qatag'on). Davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadigan terrorizm ham faqrlanadi. Bunda terroristik harakatlarda ishtirok etmasdan uni amalga oshiradigan terroristik guruhlarni moliyalashtirish nazarda tutiladi.

Xalqaro terrorizm – turli millat vakillaridan tashkil topgan bir nechta terroristik guruhlarning birikuvi natijasida dunyo darajasida amalga oshiriladigan terroristik harakatlar (IShID)

Mintaqaviy terrorizm – bitta mintaqa doirasida amalga oshiriladigan harakatlar. Masalan, Rossiyaning turli hududlaridagi terroristik harakatlar; *Hududiy terrorizm* – bitta davlatning muayyan hududida amalga oshirilgan terroristik harakatlar. Masalan 1999-yil Toshkentdagi, 2005-yil Andijondagi voqealar.

Terrorizmga qarshi kurashning progressiv va konservativ usuli bor. Konservativ usul terrorchilarning talablarini qisman qondirish va garovga olinganlarni ozod qilish uchun vaqtdan yutishni ko'zda tutadi. Hech qanday murosasiz terrorchilik guruhini tubdan yo'qotish terrorizmga qarshi kurashning *progressiv usuli*dir.

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Ularning asosiy maqsadi turli terroristik harakatlar bilan jamiyatda beqarorlikni shakllantirish millatlararo nizolar asosida ommaviy tartibsizlikni yuzaga keltirishdan iborat.

Fanatizm o'z aqidasining shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishlaridan biri.

Diniy fundamentalizm – muqaddas kitoblar ma'nosini mantiqiy dalillar asosida o'rganishni emas, balki so'zma-so'z qiroat qilinadigan fikrning harfiy bayonini tan oladi. Bu muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

Fundamentalizm iborasi ilk bor Birinchi Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910-yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Injilning mutlaq mukammalligiga ishonchni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qiladilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqaldi va 1919-yilda Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari uyushmasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab esa, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo'nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g'oyasi – «sof islom» tamoyillariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo'lini joriy etishdir. Markaziy Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar ko'proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafko'raviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji bo'ldi. *O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotishga urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.* Hozirgi davrda vahobiylik, al-ixvon al-muslimun, Hizb

at-tahrir kabi islom fundamentalizmi oqimlari faoliyat olib bormoqda.

"Kamikadze" yapon tilidagi "kami" – "xudo", "kadze" – "shamol" so'zlarining umumlashmasi hisoblanib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "ilohiy shamol" ma'nosini anglatadi. XX asrning 1944-yil 24-oktyabrda Kiyosi Ogavo boshchiligidagi birinchi yapon uchuvchilaridan kamedkadze otryadlari tashkil etilgan. 1944-yil 21-oktyabrda AQSh harbiy kemalariga hujum boshlangan. Jami 3ming 193 ta yapon harbiy uchuvchilari o'z ixtiyori bilan shamoldek AQSh samoletlarini portlatgan.

Dastlab vatanparvarlik ruhi singan ushbu tushuncha asta-sekinlik bilan butun dunyoga keng tarqalgan va hozirgi kunda ixtiyoriy o'lim ma'nosi bilan almashgan. Bugungi kunda diniy-ekstremistik guruhlar o'z maqsadlariga erishish uchun ayol kamekadzelaridan foydalanmoqdalar.

Odamlarning diniy ekstremizm, fundamentalizm va g'arbona missionerlik guruhlariga qo'shilib ketishi bu faqat johiliyat, ilmsizlik, e'tiqodsizlik oqibatidir. Shu bois, yoshlarning bo'sh vaqtlarini nazoratga olish, ularni milliy qadriyatlarga vafo va sadoqat ruhida tarbiyalash, buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ma'naviy meroslarini o'rgatib borishga alohida e'tibor talab qilinadi.

Hozirgi paytda Internet tarmog'ida 170 mingdan ortiq barcha radikal islom tashkilotlarining saytlari bor. Masalan, Tolibon harakati, islom najot fronti, Islom guruhi (Al-Jamoa al-islomiya), Islom ozodlik partiyasi (hizbut-tahrir al-islomiya), Muhojirlar (Al Muhojirun), Yahudiylar va xochparastlarga qarshi kurash xalqaro islom fronti ana shular jumlasidandir. Sanab o'tilgan saytlarning ko'pchiligi Internetda o'ziga xos tarmoqni tashkil qiladi. U, o'z yo'nalishi jihatidan, virtual jihoddir. Saytlarning ko'pchiligi jihod g'oyalarini, g'arbga qarshi hamda islom mamlakatlaridagi islomdan chekinganlikda ayblanayotgan hukmron tuzumlarga qarshi kurash g'oyalarini tarqatmoqda.

Islom ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatdir. U biz uchun ham imon, ham diyonat qonunlarining majmuasidir. Darhaqiqat, davlatimiz diniy qadriyatlarimizni tiklab, 1991-yilda va 1998-yilda vijdon erkinligi haqidagi qonunlar qabul qilindi. 1999-yil 7-aprelda "Toshkent Islom universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yilda xalqaro islom akademiyasining tashkil etish to'g'risida O'zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilinishi aholiga islom dinining ma'rifiy ilmiy asoslarini o'rgatish, shuningdek, islom dinining asl mohiyatini aholi

turli qatlamlari ongiga yetkazuvchi yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yo'nalgandir.

Sportning globallashuvi muammosi

Sportning globallashuvi sport o'yinlarini tashkil etish orqali siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Dastlabki olimpiya o'yinlari eramizdan oldingi 776 yilda Xudolar Xudosi Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan. 1896-yilda birinchi zamonaviy olimpiya o'yinlari tashkil etilgan. 1936-yilda Germaniyada o'tkazilgan sport olimpiyadasiga siyosiy tus berilgan, unda birinchi marta olimpiada mash'alasi Gretsiyadan olib kelingan va birinchi marta 48ta davlatdan xalqaro sharhlovchilar ishtirok etgan.

Zamonaviy sport o'yinlari mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarini namoyon qilish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash va siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutadi. Lekin keyingi yillarda, sport siyosiy o'yin vositasi sifatida ham amal qilmoqda. Masalan, sportchilarga turli ayblovlar qo'yilishi, olimpiys o'yinlarida ishtirok etmasligi uchun ularga sanksiyalar qo'yilishi va ularinng ishtirokini taqiqlash, mamlakatning o'z bayrog'i ostida ishtirokini taqiqlash shular jumlasidandir.

Jinoyatning globallashuvi

Jinoyatning globallashuvini tavsiflash uchun kriminologlar ilmiy muomalaga "transmilliy jinoyat" atamasini kiritganlar. Transmilliy jinoyat deganda, odatda, bir davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan jinoyat tushuniladi. *Transmilliy jinoyatlar tarkibida: xalqaro jinoyatlar, xalqaro xarakterdagi jinoyatlar va chet elliklar bilan bog'liq jinoyatlar kiradi.* Jinoyatning transmilliylashuvi ayniqsa uning noqonuniy migrasiya va odam savdosi terrorizm, qurol savdosi, giyohvand moddalar savdosi, korruptsiya, pul yuvish va boshqa shakllarida yaqqol seziladi.

Insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyat globallashuvining xalqaro miqyosi, butun insoniyat uchun ortib borayotgan xavfni anglatadi. Bularga tajovuz, genosid, aparteid, mustamlakachilik hukmronligini zo'rlik bilan o'rnatish yoki saqlab qolish, yadro qurolidan foydalanish, irqchilik, terrorizm va boshqalar kiradi. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar normal davlatlararo munosabatlarga, turli mamlakatlar

davlatlari, tashkilotlari va fuqarolarining tinch hamkorligiga zarar yetkazadi. Bularga kontrabanda, noqonuniy tarqatish va giyohvand moddalar savdosi, noqonuniy migrasiya, yordamga muhtoj kemalarga dengizda yordam ko'rsatmaslik, qaroqchilik, suv osti kabeliga zarar yetkazish, pornografiya tarqatish, kemalar to'qnashuvi, odam savdosi, samolyotni olib qo'yish va bortdagi jinoyatlar, hujjat va valyutalarni qalbakilashtirish, h.k. kiradi.

Bugungi kunda jinoyat ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining muhim qismi sifatida rivojlanmoqda. Noqonuniy qurol savdosi, giyohvand moddalar savdosi va moliyaviy firibgarlik tufayli jinoyatchilik tobora transmilliy va universal bo'lib bormoqda. Huquqni muhofaza qilish organlarining imkoniyatlari, mamlakatlar chegaralarida tugaydi, jinoyatchilar esa o'z aloqalarini milliy chegaralardan tashqariga olib chiqadilar. Kolumbiyada noqonuniy iqtisodiyot tarkibida giyohvand moddalar savdosi ustunlik qiladi. Ko'pgina mamlakatlarda noqonuniy faoliyat faqat giyohvand moddalar savdosi bilan cheklanib qolmay, balki qimor o'yinlari, odam savdosi va fohishabozlik, giyohvand moddalar savdosi, qurol savdosi va neft kontrabandasini o'z ichiga oladi. Kolumbiyaning noqonuniy iqtisodiyoti giyohvand moddalar bilan bog'liq bo'lsa-da, Tailand jinsiy industriya uchun xalqaro markaz sifatida tanilgan. Iqtisodiy o'sish tufayli fohishalik pasaygan Yaponiyadan farqli o'laroq, Tailand iqtisodiyotining rivojlanishi Tailand va xorijiy sayyohlar tomonidan jinsiy xizmatlarga talabning ortishi bilan belgilanadi.

Dunyoning beshta davlatida – Eron, Nigeriya, Pokiston, Saudiya Arabistoni va AQShda hatto voyaga yetmaganlar ham o'lim jazosiga hukm qilinishi mumkin, ammo faqat AQShda ruhiy kasal odam o'lim jazosiga hukm qilinishi mumkin.

Uyushgan jinoyatchilikning baynalmilallashuvi butun dunyo bo'ylab jinoiy tijorat tashkilotlari tarmog'i orqali olib o'tiladigan va qayta ishlanadigan giyohvandlik vositalari, qurol-yarog'lar, o'g'irlangan avtomobillar va boshqa noqonuniy tovarlar va xizmatlar bozorlarining kengayishida namoyon bo'ladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ekspertlari va mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, noqonuniy savdo hajmi yuzlab milliard dollarni tashkil etadi va ko'plab davlatlar byudjetidan oshib ketadi.

Adabiyotda "transmilliy" atamasi turli mamlakatlar va mintaqalarda

axborot, moddiy boyliklar, ob'yektlar, odamlar va boshqa ob'yektlarni davlat chegaralari orqali samarali olib o'tish uchun keng ishlab chiqarish korxonalari va vakolatxonalar tarmog'iga ega bo'lgan tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Zamonaviy jinoiy tashkilotlar tobora ko'proq turli davlatlarning milliy chegaralarini kesib o'tish zarurati bilan bog'liq operasiyalar bilan shug'ullanmoqda. Transmilliy bitimning predmeti bo'lgan deyarli har qanday moddiy ob'yekt tovar yoki xizmat sifatida qaralishi va daromad keltirishi mumkin. Jinoiy tashkilotlar ko'pincha taqiqlangan tovarlar yoki xizmatlarni etkazib beruvchilar sifatida ishlaydi va bu o'ziga xoslik ularning transmilliy ierarxiyasini belgilaydi. Shunday qilib, katta dividendlar keltiradigan giyohvandlik biznesi ko'plab mamlakatlar va qit'alar vakillari ishtirok etadigan murakkab transmilliy birlashmalarni yaratishni talab qiladi. Dori-darmon sanoati bir qator majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) narkotik xomashyo ishlab chiqarish - Janubi-Sharqiy Osiyoda, ishlab chiqaruvchilar Afg'oniston, Pokiston, Tailand va boshqalar. Markaziy Amerikada - Kolumbiya, Meksika va boshqalar;

b) xomashyoni sotib olish - xomashyoni giyohvand moddalar kartellari vakillari, ko'pincha kelib chiqqan mamlakat fuqarolari sotib oladi;

v) xomashyoni giyohvandlikka (ko'knori - morfin va geroinga) qayta ishlash, qayta ishlash ko'pincha uchinchi davlatlar hududida, maxsus jihozlangan laboratoriyalarda amalga oshiriladi;

d) giyohvandlik vositasining iste'molchi mamlakatiga tranziti - giyohvand moddalar kartellari vakillari tomonidan kontrabandaning barcha mumkin bo'lgan yo'llari orqali amalga oshiriladi;

e) ulgurji – dori vositalari partiyasini dori vositalarining ulgurji sotuvchilariga topshirish;

f) chakana savdo - giyohvandlar o'rtasida mahsulot sotish va foyda olish.

Uyushgan jinoyatchilik transmilliy xususiyatga ega. Masalan, Qo'shma Shtatlardagi taqiq davrida spirtli ichimliklar eksporti boshqa mamlakatlardan (Kanada, Meksika va boshqalar) amalga oshirilgan. Biroq, xalqaro hamkorlik doirasi hali ham cheklangan. 1960-yillarning o'rtalariga qadar bunday biznes unchalik foyda keltirmagan va shuning uchun keyin rivojlanmagan. Biroq, zamonaviy texnologiyalar nafaqat

qonuniy biznesga, balki uyushgan jinoiy faoliyatga ham kuchli turtki berdi. U tezda dunyoning barcha mintaqalarida biznes aloqalarini o'rnatdi, ayniqsa moliya institutlari va bank institutlariga e'tibor qaratdi. Xalqaro operasiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi moslashuvchan dunyo tizimi yaratildi, zamonaviy elektron hisob-kitob va tranzaksiya tizimi esa millionlab mablag'larni firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi, fohishalik va boshqa noqonuniy faoliyatdan olingan harom pullarni jazosiz qoldirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi.

Oxirgi 30 yilda dunyoda jinoyatchilik 4 baravar oshgan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillarning oxiridan beri dunyoda jinoyatchilik yiliga o'rtacha 5% ga oshgan, aholi soni esa yiliga 1% ni tashkil qilmoqda. 2003-yil oxiriga kelib, sayyoramizda kamida 450 million jinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning haqiqiy soni 3-4 baravar ko'p bo'lishi mumkin. Bu soatiga 200 ming jinoyat sodir etilishidan dalolat beradi.

Jinoiy tashkilotlar huquqni muhofaza qilish tizimi samarali faoliyat yuritadigan yuqori xavfli hududlarni tark etib, buning uchun dunyoning yanada gullab-yashnagan hududlariga, asosan, huquqni muhofaza qilish sohasida jahon standartlariga erishmagan rivojlanayotgan mamlakatlar va Sharqiy Yevropa davlatlariga oqib boradilar. Agar dunyoning ikkita xaritasini solishtirsak, ularning birida inson huquqlari tizimi zaif davlatlarni, ikkinchisida esa uyushgan jinoyatchilikning tarqalish zonalarini ko'rsatadigan bo'lsak, ular asosan bir-biriga to'g'ri keladi.

Jinoiy tashkilotlar xavfli hududlarda to'planib, kapital, tovarlar va xizmatlar oqimini talab ortib borayotgan hududlarga o'tkazishni nazorat qiladi. Transmilliy operatsiyalar jinoiy tashkilotlarga huquqni muhofaza qilish organlari qo'li etmaydigan xavfsiz joydan eng daromadli bozorlarga kirish va ularni nazorat qilish imkonini beradi. Jinoyatdan olingan daromadlar jahon moliya tizimining elektron kanallarida tarqatiladi va maxsus banklar yoki liberal moliyaviy intizomga ega davlatlar yordamida yuviladi.

Bunday tashkilotlar transmilliy korporasiyalarga o'xshaydi. Ular kabi jinoiy korporasiyalar va trastlar hajmi, moliyaviy quvvati, ichki tashkil etish samaradorligi, faoliyatining ierarxiyasi va tarmoqlanish darajasi, eng muhimi, mavjud bo'lgan vaqt davomida rentabellik va barqarorlik

darajasi bilan farqlanadi. Ba'zi jinoiy tashkilotlar jahon iqtisodiyotiga global darajada kiritilgan va ko'p bosqichli ierarxik tuzilishga ega. Boshqalar oddiyroq tashkilotga va kichikroq aylanmaga ega, ammo atrof-muhitga moslashish, omon qolish qobiliyati va professional moslashuvchanlik darajasi yuqori. Ularning umumiy belgisi boshqa shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan parazitlik, lisenziyasiz yoki taqiqlangan mahsulotlarni sotish, noqonuniy xatti-harakatlarda qatnashish va ularni amalga oshirish, qonuniy ravishda ishlab chiqarilgan tovarlarni kontrabanda qilish, turli xil narsalarni o'g'irlash va yashirishdir.

Transmilliy jinoiy faoliyat doirasi juda ijobiy jarayon - jahon hamjamiyatining globallashuvining muqarrar natijasidir. U kuchayib bormoqda, uning ikkinchi tomoni – xalqaro jinoyatchilik ham kuchaymoqda. Odamlar boshqa mamlakatlarga tez-tez sayohat qilishni boshladilar, shu bois jinoyatchilar ham xalqaro turizm xizmatlaridan faol foydalanmoqdalar. Axborot jamiyatining kengayishi fuqarolar uchun, shu bilan birga jinoyatchilar uchun ham behisob imkoniyatlar ochib bermoqda. Internet ham qonunga bo'ysunuvchi, ham qonunga bo'ysunuvchi fuqarolar uchun birdek foydalanishi mumkin bo'lib, muloqot va axborot almashish uchun ochiq platforma hisoblanadi. Geosiyosat va geokriminallik, elektron tijorat va axborot jinoyati bir xil hodisaning ikki tomoni bo'lib, ular misli ko'rilmagan miqyosga etgan.

Uchta davlatda (Kongo, BAA, Saudiya Arabistoni) jinoyatchilarning boshlari hali ham kesiladi. Bir davlat, Amerika Qo'shma Shtatlari, elektr stul va halokatli gazdan foydalanadi. Sudanda o'limga hukm qilinganlar xochga mixlanishi mumkin.

Iste'molchilar dunyoning istalgan mamlakatidan tovar va xizmatlar haqidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan jahon bozori vujudga keldi, ishbilarmon doiralar esa mahsulot va texnologiyalarning global miqyosda marketingini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Rossiyalik ekspertlarning fikriga ko'ra, butun bank infratuzilmasi, farmatsevtika sanoati va xom neftni tashish va qayta ishlash bilan bog'liq biznesning 40% dan 60% gacha transmilliy jinoiy guruhlar qo'lida. Iqtisodiyotning globallashuvi hozirda kuchli jinoiy tashkilotlar gullab-yashnagan, katta talabga ega bo'lgan taqiqlangan tovarlar va xizmatlarni yetkazib beradigan jahon megapolislarida

yaratilmoqda. Ulardan jinoiy tashkilotlar yuk tashish bazalari, tranzit markazlari va tovarlarni qayta ishlash markazlari sifatida foydalaniladi.

Xalqaro moliya tizimlarining paydo bo'lishi, bu juda katta miqdordagi pul mablag'larining xalqaro o'tkazmalari va transmilliy iqtisodiy operasiyalarning o'sishiga yordam beradi, shu bilan birga, pul oqimlarini nazorat qilish va kelib chiqishini aniqlash mexanizmlarini murakkablashtiradi. Migratsiya oqimining kuchayishi, fuqarolarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chib o'tishi jahon hamjamiyatining demokratlashganidan dalolat beradi, biroq ayni paytda bu kanallardan uyushgan jinoyatchilar boshqa mamlakatlarga noqonuniy kirib borish uchun foydalanmoqda. Shunday qilib, barcha rivojlangan mamlakatlarda o'sib chiqqan qo'ziqorinlar singari, ularning soni ko'payib borayotgan etnik diasporalar orqali jinoiy elementlar kirib keladi, ular bir necha yillik assimilyatsiyadan so'ng, ayniqsa, kelib chiqqan mamlakat va emigratsiya mamlakati o'rtasida noqonuniy biznesni faol rivojlantiradi.

O'zbekistonda "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz" mahalla g'oyasi negizida hududlardagi jinoyatlarga qarshi tizimli kurash olib borilmoqda. Biroq ba'zi hududlarda jinoyatchilik kamaysa-da, ba'zilarida ko'rsatkichlar kamaymayotganligi bu sohada qilinadigan ishlarning biserligidan dalolat beradi.

Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlarning birlashuvi

Odamlar dunyoqarashi nafaqat ularning dunyo haqidagi bilimlarida, balki ular bu bilimni qanday talqin qilishi, qanday xulosalar chiqarishi va qanday ish ko'rishida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli global muammolarni butun dunyo bahamjihat hal qilishi lozimligi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, insoniyat nazariyada muayyan yutuqlarga va ba'zi bir amaliy natijalarga erishgan holda, dunyo rivojlanishining salbiy jarayonlarini to'xtatishga hali muvaffaq bo'lmaganini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Xalqaro kuchlarning muayyan darajada birlashuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega shunday bo'lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-barang va ziddiyatlarga to'la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bular bugungi kunda

ijtimoiy tafakkur, shu jumladan falsafa yechishga harakat qilayotgan bosh masalalardir. Tarixiy tajriba turli xalqlarning yaqinlashuvi ularning manfaatlari mos kelgan joyda ayniqsa yaxshiroq yuz berishini ko'rsatadi. O'zaro manfaatdorlik turli qiyinchiliklarni tez bartaraf etish, savdo-sotiqni faol rivojlantirish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'maklashadi. Odatda bu yo'lda yengishga to'g'ri keladigan eng katta qiyinchiliklar eskicha qarashlar, qotib qolgan fikrlash uslubi, an'analar bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'zgarish xususiyatiga ega, lekin bu juda uzoq, katta qiyinchiliklar bilan tashqi yoki ichki omillar ta'sirida yuz beradi. Masalan, *tashqi omillar qatoriga ekologik tanglikning kuchayishi, «demografik portlash» oqibatlari, urush xavfi va nafaqat odamlarning turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirgan, balki ularning ongiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan boshqa global muammolar kiradi. Ichki omillar inson manfaati, uning subyektiv, shaxsiy asosi bilan bog'liq.* U yoki bu muammolarning keskinlik darajasi, hatto buning uchun zarur shart-sharoit va yetarli asoslar paydo bo'lgan hollarda ham, nima uchun pasaymayapti, degan savolga javob topishda yuqorida zikr etilgan omillar, ayniqsa manfaat omili albatta hisobga olinishi lozim.

Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi

Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo'nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o'z muayyan manfaatiga ega bo'ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va shu kabi masalalarda doim o'z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o'xshamasligiga sabab bo'ladi. Ba'zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, ekologiya nuqtai nazaridan bu qo'shni hududlarda yashovchi xalqlarning qarama-qarshi manfaatlari to'qnashgan hollarda ko'p kuzatiladi.

Ammo hozir, jamiyat hayotining internasionallashuvi va iqtisodiy aloqalarning o'sib borayotgan integrasiyalashuvi sharoitida, sayyoramizning turli burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi,

ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat obyektiv manfaatlarini o'zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko'payib bormoqda. Ma'rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab yetayotgan kelishilgan harakatlarga bo'lgan bu obyektiv ehtiyoj hozirning o'zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda. O'zbekiston o'z taraqqiyotining yuksalish bosqichida dunyoning barcha yetakchi davlatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy hamkorlik bo'yicha shartnomalar imzoladi. Birgina 2017-yilda 60 milliard dollar, shundan 23 milliard dollar Xitoy davlati investisiyalari O'zbekistonga ajratildi. 2018-yilda Rossiya bilan 27 milliard dollar miqdorida shartnoma imzolandi, bu umumiy va xususiy manfaatlar yo'lidagi sa'y harakatlarning debochasidir.

Ayrim mamlakatlarda ham, butun dunyoda ham barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish texnokratik jamiyat tuzilishi va mohiyatidan kelib chiqadigan katta qiyinchiliklar bilan bog'liq. U kompyuter inqilobi ta'sirida o'zgarganiga qaramay, texnogen sivilizatsiyaning asosiy shakl-shamoyillarini saqlab qolmoqda va shu sababli hozirda mavjud ko'rinishda nafaqat bunday jamiyat tanqidchilarini, balki texnika taraqqiyoti tarafdorlari (texnokratik optimistlar) sobiq izdoshlarining bir qismini ham qanoatlantirmayapti. Ularning aksariyati fikriga ko'ra, hozirgi G'arb sivilizatsiyasi insoniyat uchun shikastli bo'lgan ko'pgina ziddiyatlarni yuzaga keltirdi, chunki uning zamirida tabiat va uning resurslariga nisbatan iste'molchilik yondashuvi yotadi. Tegishli qadriyatlar tizimidan mustahkam o'rin olgan bunday tasavvurlar tarixan sanoat inqilobi, keyinroq - fan-texnika inqilobi davrida shakllangan bo'lib, o'z ildizlari bilan inson, xuddi Yerdagi Xudo kabi, dunyoni bunyod etadi, uni tabiat imkoniyatlari va o'z imkoniyatlari bilan hisoblashmasdan o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradi, degan dunyoqarashga borib taqaladi. Pirovardda nafaqat ekologik va demografik tangliklar, balki ma'naviy inqiroz ham yuzaga keladi, bunda avvalgi dunyoqarash mo'ljallari obyektiv sharoit tazyiqi ostida o'zgarayotgan amaliyot bilan to'qnashadi.

Ayni shu sababli qadriyatlar muammosi, ijtimoiy rivojlanishning yangi ustuvorliklarini va boshqa dunyoqarash mo'ljallarini izlash

jamiyatni ma'naviy yangilashning bosh vazifalariga aylanadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarning olimlari boshqa qadriyatlarga muvofiq bunyod etilgan o'zga sivilizatsiyaga o'tish amalga oshirilgan taqdirdagina insoniyat ekologik va boshqa global muammolarni bartaraf eta olishi mumkinligini deyarli yakdillik bilan qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, mazkur qadriyatlar tabiat va uning ehtiyojlarini tabiatdan ustun qo'yuvchi antroposentrizmga emas, balki hayot fenomenining betakrorligiga va biosferani muvozanat holatida saqlash lozimligiga e'tiborni qaratuvchi biosferosentrizmga asoslanishi lozim. Inson esa, aqlli mavjudot va mazkur murakkab tizimning tarkibiy qismi sifatida, bu bilan nafaqat hisoblashishi, balki tegishli tarzda ish ko'rishi ham lozim. Uning dunyoga munosabatini o'zgartirish, insonparvarlik va koevolyutsiya, ya'ni tabiat va jamiyatning mushtarak rivojlanishi tamoyillariga tayanib, yangi qadriyatlar tizimini va ijtimoiy rivojlanish mo'ljallarini yaratishdan boshqa yo'li yo'q.

Dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro aloqa va asosli hamkorlik yo'liga yanada ishonch bilan kirishi, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati esa tabiat bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun dunyoda yuz berayotgan hozirgi jarayonlar haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek odamlarning yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarga o'z javobgarligini yanada teranroq tushunishiga erishish lozim. Bu yana shuning uchun ham muhimki, zamonaviy elektron qurilmalar va hisoblash texnikasi insonning o'z faoliyati natijalarini ham, ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni ham chamalash va bashorat qilish qobiliyatini ko'p karra oshiradi. Shu sababli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda olimning roli ortishi bilan bir qatorda uning inson uchun ham, atrof muhit uchun ham muayyan ekologik, tibbiy va boshqa oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik loyihalar bo'yicha qarorlar va tavsiyalar uchun javobgarligini misilsiz darajada oshirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda genetika sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlar o'ziga tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Bu yerda jonli organizmlarni, shu jumladan insonni ham klonlash imkonini beruvchi gen injeneriyasi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bu ko'p sonli axloqiy va psixologik masalalarni yuzaga keltiradi, chunki inson shaxs sifatida genlar ta'sirida faqat ellik foizga shakllanadi, qolgan jihatdan u ijtimoiy

muhit va muayyan yashash sharoitlari bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

Shu munosabat bilan eng yangi falsafiy adabiyotlarda insonparvarlik masalalari yana birinchi o'ringa chiqmoqda. Fan-texnika taraqqiyotini nafaqat ayrim insonning, balki butun insoniyatning axloqiy fazilatlariga bevosita bo'ysundiruvchi inson faoliyatini butunlay o'zgartirish lozimligini ifodalovchi «ilmiy insonparvarlik» atamasi faol ishlab chiqilmoqda. «Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Global muammolarni yechishda falsafaning roli

Og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur qildi. Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar qodir emas. Zero o'z tadqiqoti obyekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni yechishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi. Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab yetishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas.

Shunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy yechimi to'g'risida, boshqa tomondan esa – falsafa fanlarning keng doirasi o'zaro aloqa qilishini rag'batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o'rin tutishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsa-da, u (falsafa) global muammolarni yechishda muhim rol o'ynaydi. Zero, umumiy nazariyalar ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabul qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish uncha o'rinli bo'lmaydi. Zero, uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllantirish va shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatishdan iborat. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o'rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli yechimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta'minlashdan iborat.

Global muammolarni falsafiy anglab yetishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yo'nalishini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. Shu tariqa falsafa o'zining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu ma'noda falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologik funksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. Shunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni

halokatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi obyektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendensiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etish darajasini falsafiy nuqtai nazardan anglab yetish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orqali ma'naviy - madaniy funksiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamasdan yechish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljal olish imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini tushunish va anglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

Xulosalar. Insoniyat o'zini o'zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o'z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashuv jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni engib, o'z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o'ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning

xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo'q. *Bunday birlashuvga esa, faqat umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.*

Tajribaviy amaliy matnlar

Ommaviy madaniyat, Global muammolar, Mintaqaviy muammolar, Xususiy muammolar, globalistika.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Falsafada yangi mavzu yuzaga kelishiga nima sabab bo'ladi?
2. Global muammolar qachon va nima uchun paydo bo'ldi?
3. Globallashuv, global muammolar, globalistika tushunchalarining o'zaro nisbatiga tavsif bering.
4. Texnooptimizmning mohiyati nimadan iborat?
5. Texnopessimistik falsafiy konsepsiyalar qaysi g'oyalarga asoslanadi?
6. Globallikning mezonlarini ayting. Ularning yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
7. Globallashuv muammolarini yechishda falsafa qaysi funksiyalarni bajaradi?

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar



GLOBOL HODISA

Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi

Globallashuvning asosiy belgilari

Bu o'zgarishlarning butun magnuti, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus — yer kurrasi) deb nomlandi. Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir.

Biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi

Ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi

Televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi ning real «geologik kuch»ga aylanishi

«Globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari

«Rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tanglikla bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi

Ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi

Muammolarning turli darajalari

- Xususiy muammolar
- Milliy muammolar
- Mintaqaviy muammolar
- Mahalliy muammolar
- Global muammolar


Globallik mezonlari

Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.

Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.

Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining obyektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.

To'rtinchidan, global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.



Bilim va ko'nikmalarni baholash matnlari.

1. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yillardan shakllana boshladi?

A) 1960-yillarning oxirlaridan
B) 1950-yillarning oxirlaridan
V) 1970-yillarning oxirlaridan
G) 1980-yillarning oxirlaridan

2.Globallashuvning vujudga kelishiga asos bo'lgan sabablarni toping?

A) Hayotning barcha sohasidagi integrasiyalashuv
B) Fan va texnika kashfiyotlari
V) Falsafada yangi ta'limotlarning vujudga kelishi
G) Aholi sonining keskin o'sishi

3.Ikkinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat bugungi kunda global muammolarni bartaraf qiluvchi qaysi asosiy tashkilot vujudga kelishiga sabab bo'ldi?

A) BMT
B) YUNESKO
V) EHHT
G) MDH

4.Hozirgi zamonda jahon fuqarosi hisoblovchi odamlarning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?

A) Serqirra globallashuv
B) Ekologik globallashuv
V) Siyosiy globallashuv
G) Madaniy globallashuv

5. "Tarix kurtaklari va uning maqsadi" asari muallifi kim?

A) K.Yaspers
B) Y.Xabermas
V) M.Xaydegger
G) G.X.Gadamer

6. Globallashuv so'zining ma'nosi?

A) Yer kurrasi
B) Maydon
V) Zamin
G) Yer o'lchovi

7. Nechanchi asrlarda yuz bergan Buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Yevropa siyosati keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi»?

A) XV-XVI asrlarda
B) XVI-XVII asrlarda
V) XVII-XVII asrlarda
G) XVII-XIX asrlarda

8. Qanday nomlanuvchi globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi?

A. Fundamental
B. Informasion
V. Ilmiy
G. Mafko'raviy

9.Qaysi voqea xalqaro maydonda kuchlarning yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaat va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi?

A.1-Jahon urushining boshlanishi

B. 1-Jahon urushining tugashi

V. BMTning tashkil topishi

G. 2-Jahon urushining boshlanishi

10. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Bu jarayonlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;

B. Ommaviy madaniyat, avvalo, kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi.

V. Televizorning ixtiro etilishi. Vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisi va globallashuv ramziga aylanishi:

G. Barcha javoblar to'g'ri.

11.Qachon globallashuv o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi va serqirra tus oldi?

A.1950-yillarda

B.1960-yillarda

V.1970-yillarda

G.1980-yillarda

12.Globallashuvning yangi bosqichiga ko'tarilgan davrda qanday voqealar ro'y berdi?

A. Axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi.

B. Mif, din, ekologiya paydo bo'ldi.

V. Global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

G. Barcha javoblar to'g'ri.

13. Qaysi voqeadan so'ng dunyo informasion jihatdan uzil-kesil tutashdi?

A.1991-yil Internet paydo bo'lgach.

B. Iqtisodiyotning internasionallashuvi natijasida.

V. Televizorning ixtiro etilishi natijasida.

G. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida.

14. Qaysi voqea chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan yangi axborot maydonini vujudga keltirdi?

A. Kompyuter inqilobi.

B. Internetning rivoji.

V. Iqtisodiyotning internasionallashuvi.

G. A va B javoblar to'g'ri.

15. Globallashuvning serqirraligi..... .

A.Fan-texnika rivojiga

B. Axborot-texnologiya inqilobiga

V. Siyosatning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi

G.To'g'ri javob yo'q

Adabiyotlar:

1. Otamurodov S. Globallashuv va millat. –T.: Yangi asr avlodi, 2008.
2. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni. – T.: //Tafakkur 2006.
3. Qahharova Sh.B. Global ma'naviyat-globallashuvning g'oyaviy asosi.- T.: Tafakkur, 2009.
4. Бжезинский З. Глобальное господство или глобальное лидерство. -М.: Международные отношения, 2005.
5. Вайцзеккер Э., Ловинс Э., Ловинс Л. Фактор четыре. Новый доклад Римскому клубу. -М.: 2000.
6. Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словар / Гл. ред. И.И.Мазур, А.Н.Чумаков. -М.: СПб.: 2006.
7. Грани глобализация: Трудные вопросы современного развития. - М.: 2003.
8. Глобалные проблемы и общечеловеческие ценности. -М.: 1990.
9. Моисеев Н.Н. Быт или не быт... человечеству? -М.: 1999.

10. Мунтян М.А., Урсул А.Д. Глобализация и устойчивое развитие. - М.: 2003.
11. Один мир для всех. Контуры глобального сознания / Под ред. Л.В.Семеновой и др. -М.: 1990.
12. Панарин А.С. Искушение глобализмом. -М.: 2002.
13. Пантин В.И. Циклы и волны глобальной истории. Глобализация в историческом измерении. -М.: 2003.

14-MAVZU. GLOBAL KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI

Korrupsiya tarixi: ijtimoiy-madaniy hayotda amal qilish mexanizmlari

Korrupsiya sivilizatsiyaning rivojlanishi davomida davlat boshqaruvi faoliyatini tashkil etishda salbiy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lgan. Har bir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizim korrupsiyaning o'ziga xos ko'rinishlarining shakllanishiga va shu bilan davlat hokimiyatining normal faoliyat ko'rsatishi, huquqiy ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir etgan. Shu bois, korrupsiya hali hech bir demokratik davlatlarda ham, murakkab o'tish jarayonlarini boshdan kechirayotgan davlatlarda ham to'liq bartaraf etilmagan. Bugungi dunyoda korrupsiya har qanday jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy muammo va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Bu ijtimoiy hodisa turli ko'rinishga ega bo'lib – poraxo'rlik, hokimiyatni suiiste'mol, demokratik va ijtimoiy institutlar va qadriyatlarni obro'sizlantirish, axloqiy, ma'naviy va huquqiy me'yorlarni buzish, qonun ustuvorligi va har qanday davlatning milliy xavfsizligiga putur etkazishda namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda korrupsiya dunyoning ko'plab mamlakatlari jamiyati va iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi transmilliy hodisaga aylandi. Binobarin, unga qarshi kurashish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish har bir zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining vazifasidir.

Korrupsiya, birinchi navbatda, poraxo'rlik, amaldorlarning, siyosatchilarning o'zboshimchaligidir. "Katta qonun lug'ati"ga ko'ra, korrupsiya (lotincha corruptio - parchalanish, poraxo'rlik) siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli hodisa bo'lib, hokimiyat vakillarining vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslardan ataylab foydalanishda ifodalanadi, davlat xizmatida bo'lgan, o'z mansab mavqeini har qanday shaklda qonunga xilof ravishda mulkiy va nomulkiy manfaatlar va imtiyozlar olganligi, shuningdek, ushbu shaxslardan pora olishda ifodalanganligidir.

Haqiqatan ham davlat faoliyatining elementlaridan biriga va uning fuqarolar bilan munosabatlarining ajralmas qismiga aylangan korrupsiya nafaqat boshqaruv tizimi va davlat institutlari faoliyatida

nomutanosibliklarni keltirib chiqardi, balki jamiyatda jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Fuqarolar ongida hukumatga bo'lgan ishonch va adolatga ishonch yo'qolib bormoqda. Turli darajadagi korrupsioner davlat amaldorlari va jinoiy tuzilmalarning birlashishi kuzatilmoqda, ularning iqtisodiy va siyosiy qarorlar qabul qilinishiga ta'sir o'tkazish va hatto davlat hokimiyati tutqichlariga o'tish istagi kuchaymoqda.

Korrupsiya murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u insoniyat sivilizatsiyasi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Har qanday jamiyatda korrupsiya amal qiladi, jamiyat taraqqiy etgani sari korrupsiya ham rivojlanadi, uning ildizlari esa ibtidoiy odamlar davriga, qabila oqsoqollari yoki kohinlar marhamatini qozonish maqsadida ularga hadyalar qilish odatiga borib taqaladi. Xususan, qimmatbaho hadya uni tortiq etgan odam boshqalarning orasida alohida ajralib turishiga sabab bo'lgan va uning iltimosi bajo keltirilishi uchun imkoniyat yaratgan. Shu sababli, ibtidoiy jamoalarda kohin yoki qabila oqsoqoliga haq berish tabiiy bir hol hisoblangan, bu esa, shaxslararo munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida avloddan avlodga o'tib kelgan. Qadim zamonlarda qorilarning pulga sotilishi jiddiy tashvish uyg'otgan, chunki, bu mulkning g'ayriqonuniy qayta taqsimlanishiga va nizoni huquqiy doiradan tashqarida hal etish istagiga turtki bergan. Korrupsiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar qadimgi Bobil arxivlarida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra Lagash podshohi Urukagina amaldorlar va sudyalarning suiiste'mollarini to'xtatish maqsadida davlat boshqaruvini isloh qilgan. Qadimgi Misrda amaldorlarning ulkan byurokratik apparati rivojlanib, erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy zodagonlarga nisbatan qonunsizlik va o'zboshimchalik yaratishga imkon bergan. To'rt ming yil muqaddam, Misr fir'avnlari tomonidan poraxo'rlik (pora evaziga og'dirish) uchun jazo belgilangan.

Qadimgi Yunonistonda dastlab suvning shikastlanishi yoki ovqatdan zaharlanishni bildirish uchun ishlatilgan "soggitrege" atamasi ijtimoiy ma'noga ega - axloqni buzish, tartibni buzishdir. Qadimgi lotin iborasi keng tarqalgan: "Do ut facies" — "Men buni qilish uchun beraman". Taxminan bir vaqtning o'zida korrupsiya tushunchasi kimgadir pora berish ma'nosida ishlatilgan. Demak, masalan, qadimgi Rim qonunlari XII jadvallarida yuqorida tilga olingan atama "sudda ko'rsatuvni pulga

o'zgartirish" va "sudyaning poraxo'rligi" ma'nolarida qo'llanilgan.

Korrupsiyaning siyosiy jihati ham qadimgi tarix bilan bog'liq. Ma'lumki, senatorlik elitasi va magistratura a'zolari ko'pincha o'zlarining shaxsiy xudbinlik va siyosiy masalalarini poraxo'rlik yo'li bilan hal qilish uchun harakat qilib, Rim jamiyatining barcha qatlamlarini (otliqlar, pleblar) pora bilan buzganlar. Oxir-oqibat, hatto rimlik boylar tomonidan xalqqa tekin non tarqatish, o'yinlar, ziyofatlar uyushtirish ham xuddi shu maqsadga xizmat qilgan, buning evaziga xalqdan kerakli natijani olish va saylovchilar orasida mashhurlikka erishishganlar. Shunday qilib, siyosiy korrupsiya hukmron siyosiy elitaning o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun davlat resurslaridan noqonuniy foydalanishi natijasida paydo bo'lgan deb ta'kidlash mumkin.

O'rta asrlarda "buzilish" tushunchasi faqat diniy ma'noga ega bo'ldi - vasvasa, shaytonning vasvasasi sifatida talqin etilgan. Katoliklik ilohiyotidagi buzilish gunohkorlikning ko'rinishiga aylangan, chunki Havoriy Yuhannoning so'zlariga ko'ra, "gunoh qonunsizlikdir".

Korrupsiyaning zamonaviy konsepsiyasi markazlashgan davlatlar va amaldagi huquqiy tizimlarning shakllanishi boshlanishi bilan Yangi davrda shakllangan.

Korrupsiyani tushunishga muhim turtki Nikolo Makiavelli asarlari tomonidan berilgan. U korrupsiyani iste'mol kabi kasallik bilan solishtirgan. Avvaliga tanib olish qiyin, ammo davolash osonroq. Agar u ishlayotgan bo'lsa, uni tanib olish oson, ammo davolash qiyin. *Davlat ishlarida korrupsiya.* Agar yangi paydo bo'lgan kasallik o'z vaqtida aniqlansa, bu faqat dono hukmdorlarga berilgan bo'lsa, unda undan qutulish qiyin emas, agar hamma buni ko'rishi uchun e'tiborsiz bo'lsa, unda hech qanday dori yordam bermaydi. Makiavelli "xizmatkorlar tomonidan boshqariladigan"[1] monarxiyalarda korrupsiya kamroq xavfli deb hisoblagan, chunki barcha "xizmatchilar" qirolning marhamatidan qarzdor va ularga pora berish qiyinroq.

Korrupsiyani tushunishga e'tibor uning kriminologik va jinoiy-huquqiy jihatlariga ko'chirilgan. Masalan, Tomas Gobbs o'zining "Leviafan" asarida: "O'z boyligi bilan maqtanadigan odamlar davlat adolatini buzish orqali jazodan qutulish yoki pul yoki boshqa mukofotlar

[1] Макиавелли Н. Государь. М.: 2020. 720 с.

uchun kechirim olish umidida jasorat bilan jinoyat qiladilar"[1]. U shunday shaxslarni "ko'p qudratli qarindoshlari yoki o'zlari uchun yuqori obro'-e'tibor qozongan mashhur odamlarga ega bo'lganlar", deb atagan, ular qonunlarni amalga oshiradigan hukumatga bosim o'tkazishga umid qilib, qonunlarni buzishga jur'at etganlar. Korrupsiya, T.Gobbsning fikricha, "har doim va har qanday vasvasalar ostida, barcha qonunlarni mensimaslikdan kelib chiqadigan ildizdir"[2].

G'arbiy Yevropada Yangi davr davrida jamiyatning davlat amaldorlarining shaxsiy daromadlariga munosabati tubdan o'zgarganligini ta'kidlash joiz. Ijtimoiy shartnoma mafkurasi subyektlar qonunlarni oqilona ishlab chiqish va ularning qat'iy bajarilishini qat'iy nazorat qilish evaziga davlatga soliq to'lashini e'lon qildi.

Shaxsiy munosabatlar sof rasmiy munosabatlarga o'ta boshlagan va shuning uchun mansabdor shaxsning maoshidan tashqari shaxsiy daromad olishi jamoat axloqi va qonun normalarini qo'pol ravishda buzish sifatida talqin etilgan.

XVII asrning o'rta asr tartib tizimidan tubdan farq qiladigan XVIII-asrning ma'muriy apparati, arizachilardan qurbonlik qilishning shafqatsiz amaliyotini saqlab qolgan. Davlat mulki deb ataladigan tashkilotlarning ko'plab xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida nafaqat zamonaviy huquqiy til bilan aytganda, iqtisodiy va moliyaviy qonunbuzarliklarga (masalan, mablag'lardan maqsadsiz foydalanish), balki jinoiy javobgarlikka tortiladigan xatti-harakatlar: o'zlashtirish, isrofgarchilik, korrupsiyaga ham yo'l qo'yganlar.

XVIII asrgacha hukumat amaldorlari "oziq-ovqat", muammolari bilan shug'ullanganlarning qurbonliklari evaziga yashagan. "Oziqlantirish" mansabdor shaxslarni, gubernatorlarni mahalliy aholi hisobidan ta'minlash tizimi sifatida rivojlangan. Bunday gubernator ba'zan o'z vazifalarini bajargani uchun umuman maosh olmagan, lekin soliq yig'ib, podshoh tomonidan o'ziga ishonib topshirilgan hududda sud ishlarini yuritib, qonuniy ravishda bir xil pora olgan, uning bir qismi cho'ntagida qolgan.

XIX-XX asrlarda rivojlangan mamlakatlarda korrupsiya yangi

[1] Гоббс Т. Левиафан. М. 2020. С. 65.
[2] Гоббс Т. Левиафан. М. 2020. С. 67.

bosqichga o'tgan. Bir tomondan, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa kuchayishi va shunga mos ravishda mansabdor shaxslarning vakolatlari boshlangan. Boshqa tomondan, yirik xususiy biznes paydo bo'ldi, u raqobat kurashida "davlatni sotib olish"ga murojaat qila boshladi - endi alohida mayda davlat xizmatchilarining epizodik poraxo'rligiga emas, balki siyosatchilar va yuqori lavozimli shaxslarning faoliyatini bevosita bo'ysundirishga, mansabdor shaxslar i manfaatlarini himoya qilish uchun kapital yig'ishga harakat qilinadi.

G'arbiy Yevropada Ikkinchi jahon urushidan keyin siyosiy partiyalarning ahamiyati ortib borishi bilan yirik firmalar va transmilliy korporasiyalar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shaxsan siyosatchilarga emas, balki partiya fondiga pul to'lagan holda partiya korrupsiyasi rivojlangan.

Korrupsiya - poraxo'rlik bilan tavsiflangan ijtimoiy hodisa - davlat va boshqa xodimlarning o'zboshimchaliklari, ularning ushbu subyektlarning rasmiy maqomidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlar uchun moddiy va nomoddiy ne'matlar va afzalliklarni qabul qilishlari bilan bog'liq hokimiyat, imkoniyatlar, aloqalarni qamrab oladi.

SSSRdagi korrupsiya 1917-yilda davlat tuzilmasi va boshqaruv shaklining buzilishiga nisbatan ikkiyuzlamachilik munosabati shakllantirdi, bu poraxo'rlik va tovlamachilikning ildiz otishiga katta hissa qo'shdi.

Korrupsiya hodisalari bilan bog'liq jinoiy vaziyatning ma'lum bir o'ziga xosligi Sovet davrida o'zini namoyon qiladi. O'sha paytda (1917-1991) amalda bo'lgan tegishli qonunchilik bazasi nafaqat butun og'ir iqtisodiy taqsimlash apparati uchun, balki sovet mafkurasi uchun ham ishladi. Xalq Komissarlari Kengashining 1918-yil 8-maydagi "Poraxo'rlik to'g'risida"gi farmoni poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutgan birinchi huquqiy hujjat bo'lgan (kamida besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish, shu bilan birga majburiy mehnat belgilangan). Mazkur normativ hujjatga ko'ra, pora olishda aybdor bo'lgan shaxslar bilan bir qatorda, pora berishda aybdor bo'lganlar, shuningdek, pora berishga aloqador bo'lgan ig'vogarlar, sheriklar va barcha xodimlar ham jazolanadi. Bundan tashqari, sinfiy yondashuv ham unutilmagan: agar pora beruvchi mulkdorlar sinfiga mansub bo'lsa va o'z imtiyozlarini

saqlab qolishga intilgan bo'lsa, u eng og'ir va yoqimsiz majburiy mehnatga hukm qilingan va barcha mol-mulki musodara qilingan. 1921-yilda Xalq Komissarlari Kengashining "Poraxo'rlik bilan kurashish to'g'risida"gi qarori bilan pora beruvchilarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan: "Pora bergan shaxs pora olishni o'z vaqtida e'lon qilsa yoki uni oshkor qilishga yordam bersa, jazolanmaydi. poraxo'rlik ishi bo'yicha". Yuqoridagi farmonlarning qabul qilinishi bilan poraxo'rlik holatlari inqilobiy tribunallarning yurisdiksiyasiga o'tkazildi, ular 1922-yilgi Jinoyat kodeksiga ko'ra, ushbu noqonuniy xatti-harakatni sodir etganlik uchun jazo sifatida eng yuqori chora – qatl etishni tayinlash huquqi belgilangan. Pora uchun jazolarning og'irligi doimiy ravishda o'sib borgan, ammo poraxo'rlik ko'lami ham kengaygan. Gap shundaki, inqilobdan keyingi birinchi yillarda pul muomalasi deyarli yo'q edi va boshqaruv organlarining vazifalari shunchalik noaniq ediki, ko'pincha kimga pora berilishi kerakligi noma'lum edi. RKP(b) ning birinchi qurultoylaridan birida "Kommunist pora berishi mumkinmi?" degan savol juda jiddiy muhokama qilingan. Markaziy Qo'mita bu borada hech qanday izoh bermadi. Bunga javoban uning o'sha paytdagi raisi A. Solts shunday dedi: "Birorta o'rtoq xijolat bo'lsa - bu holatda pora berish mumkinmi yoki yo'qmi, u tashkilotga borib, bu holatda nima qilish kerakligini va umuman olganda, so'rashi kerak. , pora berib, pora olgan shaxs tegishli jazosini olishini tartibga soling. Chunki non olib kelish kerak bo'lsa, olib kelganiga ishonch hosil qilish kerak. Bu maqsadga muvofiqlik masalasidir".

Umuman olganda, SSSRning korrupsiyaga qarshi kurash tarixi uning qulashi bilan yakunlandi, muvaffaqiyatga erishmadi. Sovet mafko'rasi va "huquqiy ong" ko'p hollarda korrupsiyaning sabablarini sodda va samarasiz tushuntirdi. Davlat apparatidagi korrupsiyaga qarshi faqat uning vakillari kurashdilar, ular korrupsiya sabablariga ta'sir o'tkaza olmadilar, chunki ularni ko'pincha ularning o'zlari yaratdilar. Va nihoyat, korrupsiya ko'pincha rejalashtirilgan iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etishning yagona mumkin bo'lgan vositasi sifatida harakat qildi. Qayta qurish davrida va hatto undan keyin ham korrupsiyaning kuchayishi davlat mashinasining zaiflashishi va quyidagi jarayonlar bilan bog'liq: markazlashtirilgan davlat nazoratining pasayishi, mafko'raviy g'oyalarning qulashi, iqtisodiy turg'unlik, keyin esa iqtisodiy rivojlanish

darajasining pasayishi, SSSRning parchalanishi ta'sir etgan va u davrdan qolgan meros sifatida shu darajada rivojlandiki, u mohiyatan O'zbekistonning asosiy muammolaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda korrupsiya har qanday davlat uchun eng zararli hodisalardan biri sifatida siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy tiklanish yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib, aslida mamlakat milliy xavfsizligiga haqiqiy tahdidga aylanib bormoqda. Korrupsiya tarmog'i hayotning barcha muhim sohalarini qamrab oladi. Ayniqsa, davlat mulkini xususiylashtirish, moliyalashtirish, kreditlash, bank operasiyalari, lisenziyalash va kvotalash, tashqi iqtisodiy faoliyat, mablag'larni taqsimlash, yer islohotini amalga oshirish va hokazolar korrupsiya bilan keng tarqalgan.

O'zbekistonda poraxo'rlik bilan bir qatorda, "tovlamachilik", ya'ni davlat xizmatidagi shaxslarning "sharaf", "xotira" va "va'dalar" olishda namoyon bo'lgan buzuq hatti-harakatlari rivojlangan. Shu bilan birga, "sharaflar", ya'ni "muammoni hal qilgan mansabdor shaxsga oldindan sovg'alar berilishi" - mutlaqo qonuniy narsa deb hisoblangan.

Shu bilan birga, korrupsiya faoliyati qonun chiqaruvchi organlarga saylovlar, ushbu organlar faoliyati, davlat va munitsipal hokimiyat organlarida kadrlar almashinuvini amalga oshirish, davlat qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish kabi siyosiy jarayonlarga ham kirib boradi. Mamlakatda bunday keng tarqalgan korrupsiya hatto nodavlat xalqaro tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish va butun dunyo bo'ylab korrupsiya darajasini o'rganish uchun Transparancy International xalqaro kompaniyasining O'zbekistonning dunyodagi eng yuqori korrupsiya indeksiga ega mamlakatlardan biri sifatida tasniflashiga asos bo'ldi. (2013-yilda O'zbekiston 180 ta mamlakat ichida korrupsiya rivojlangan birinchi 10 ta davlat orasida edi)

Korrupsiya nima? Har qanday murakkab ijtimoiy hodisa singari, korrupsiya tushunchasining ham umume'tirof etilgan yagona ta'rifi mavjud emas. Korrupsiya (lotincha corrumpere – buzmoq so'zidan olingan bo'lib) – mansabdor shaxs o'z hokimiyat vakolatlari va o'ziga berilgan huquqlardan belgilangan qonunlar va qoidalarga zid ravishda shaxsiy naf ko'rish maqsadida foydalanishidir. Jozef Senturiyaning korrupsiya tushunchasiga bergan eng qisqa ta'rifi "Korrupsiya shaxsiy naf ko'rish maqsadida ommaviy hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol

qilishi"dir. Dastavval korrupsiya ko'p jihatdan axloqiy muammo bo'lgan. Jan-Klod Vake o'zining "Korrupsiya. 1600-1770-yillarda Florensiyada axloq va hokimiyat" kitobida ko'rib chiqilayotgan davrda korrupsiya haqida bahs davlat haqida emas, balki inson tabiati haqidagi bahs hisoblanganini ta'kidlaydi. Sotsiologlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar va oddiy fuqarolar bu tushunchani har xil talqin qiladilar. Masalan, sotsiologlar fikriga ko'ra, korrupsiya – bu "hokimiyat vakillari o'zlarining qonunga xilof shaxsiy manfaatlari yo'lida kutilayotgan xulq-atvor standartlaridan voz kechishidir" deb hisoblasa, iqtisodchilar esa, korrupsiya – bu "biron-bir jiddiy shaxsiy naf ko'rish maqsadida bajariladigan g'ayriqonuniy, qoida tariqasida, qoralanadigan harakatdir" deb ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida sanab chiqilgan jinoyatlarning aksariyati mazkur ta'rif bilan mos keladi. Huquqshunoslar korrupsiya tushunchasiga yanada aniq ta'rif berishga harakat qiladilar: "Korrupsiya – bu ommaviy boshqaruv apparatini o'z komiga tortgan, hokimiyatning buzilishida, davlat va munisipal xizmat xodimlari, davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli boshqa shaxslar o'z xizmat mavqei, maqomi va egallagan lavozimining obro'sidan ta'magirlik maqsadida, shaxsiy boylik orttirish uchun yoki guruh manfaatlarida qasddan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy illatdir".

Fanda korrupsiya tushunchasining ko'p sonli nazariy ta'riflari taklif qilingan: korrupsiya – bu ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, odatda davlat amaldorlari, mansabdor shaxslar, shuningdek umuman jamoat va siyosiy arboblarning pora evaziga og'diriluvchanligi va sotiluvchanligi sifatida tushuniladi; bu shaxsiy maqsadlarda naf ko'rish uchun hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol qilishdir.

Korrupsiya – bu ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, odatda davlat amaldorlari, mansabdor shaxslar, shuningdek umuman jamoat va siyosiy arboblarning pora evaziga og'diriluvchanligi va sotiluvchanligi sifatida tushuniladi, bu esa shaxsiy maqsadlarda naf ko'rish uchun hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol qilishdir.

1979-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida korrupsiya tushunchasining mazmuniga mansabdor shaxs haq, sovg'alar olishigina emas, balki uning bunday sovg'alarni olish bilan bog'liq amalga oshiriladigan xizmatga doir xatti-harakatlari

ham kiritilgan. Agar korrupsiya tushunchasining mazkur ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, korrupsiya jinoyatlari ro'yxati kengayadi, pora berish va olishdan tashqari unga xizmat bo'yicha suiiste'mollarni, mansab vakolatlari doirasidan chetga chiqishni kiritish lozim. Mazkur ta'rif korrupsiya tarkibiga mansabdor shaxs olingan yoki va'da qilingan sovg'alar bilan bog'liq holda sodir etgan xizmatga doir qonuniy xatti-harakatlarni ham o'z ichiga oladi.

J.Koleman tijorat sohasidagi poraxo'rlikni va siyosiy korrupsiyani farqlaydi. Ammo, korrupsion faoliyat turlarining to'liq ro'yxatini keltirish mumkin emas. Ma'lumki, turli mamlakatlarda "boquvda bo'lish" rasmiy tarzda mavjud bo'lgan va keyinchalik riboxo'rlik, poraxo'rlikka aylangan. "Boquvda bo'lish" V.Kleveren iqtisodiy nuqtai nazardan "Korrupsion faoliyatga biznes sifatida bergan bahoning ilk ko'rinishlaridan biri hisoblangan: korrupsioner o'z lavozimiga biznes sifatida qaraydi va daromadni mumkin qadar ko'paytirishga harakat qiladi.

Korrupsiyani bunday tushunish korrupsion huquqbuzarliklar qatoriga o'zi egallagan lavozim munosabati bilan pora olish natijasidagina emas, balki o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda talon-toroj qilish, tadbirkorlik faoliyatida qonunga xilof ravishda ishtirok etish, xizmat mavqeidan foydalanib kontrabanda bilan shug'ullanish va o'z xizmat vakolatlarini boshqacha tarzda suiiste'mol qilish natijasida ham naf ko'rishni kiritish imkonini beradi.

Xo'sh, madomiki qadimgi ildizlarga ega bo'lgan korrupsiya uchinchi ming yillikda yanada rivojlanayotgan va siyosiy mentalitetning tarkibiy qismi sifatida amal qilayotgan ekan uning qanday sabablari bor? Hozirgi davrda korrupsiya sabablarining ko'p sonliligini qayd etish odat tusini olgan. Ulardan eng ko'p e'tirof qilingan iqtisodiy, institusional va ijtimoiy-madaniy omillar farqlanadi.

Korrupsiyaning sabablari (iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy madaniy)

Korrupsiyaning iqtisodiy sabablari – eng avvalo, davlat xizmati xodimlari oladigan oylik maosh darajasining pastligi, shuningdek ularga firmalar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadigan katta vakolatlar berilganida namoyon bo'ladi. Amaldorlarga

taqchil resurslarni tasarruf etish uchun keng vakolatlar berilgan joyda korrupsiya chuqur ildiz otadi. Bu rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi, ammo u rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi. Shu bois, iqtisodiy muammo asosiy sabab bo'la oladimi? Ba'zi iqtisodiy rivojlangan mamlakat rahbarlarining, masalan, Janubiy Koreya davlati Prezidenti, Braziliya Prezidenti, Pokistonning bosh vaziri, Rossiya Federatsiyasi sobiq mudofaa vaziri, ba'zi gubernatorlarning, korrupsiya bo'yicha lavozimidan chetlashtirilganligi iqtisodiy sabab asosiy emasligini asoslaydi.

Korrupsiyaning institutsional sabablari sifatida davlat idoralari ishida yopiqlik darajasining kuchliligi, o'ta beso'naqay hisobotlar tizimi, qonun ijodkorligi tizimining ochiq va oshkora emasligi, davlatning kadrlar bilan ishlash siyosatidagi kamchiliklar e'tirof etiladi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari jamiyatdagi umumiy ma'naviy tubanlashuv jarayonlari, fuqarolarning davlat boshqaruvi qonunlaridan xabardorlik va ularga munosabati darajasining pastligi, hokimiyat tepasidagilarning o'zboshimchaligiga nisbatan jamoatchilikning befarqligi va kuchli nazoratning yo'qligi, ikki xil talqin qilish mumkin bo'lgan qonunlarning mavjudligi, aholining qonunlarni bilmasligi yoki tushunmasligi, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning beqarorligi, byurokratiyaning kasbiy nokompetentligi (kadrlar korrupsiyasi, sohadan mutlaqo xabarsiz odamlarning rahbar lavozimlariga tayinlanishi), ijro etuvchi hokimiyat tizimida yagonalikning mavjud emasligi, byurokratik elitaning xalqdan ajralganligi, iqtisodiy beqarorlik, inflyasiya, aholining etnik jihatdan har xilligi, mamlakatda shakllangan madaniyat va mentalitet ta'siri kiritiladi. Korrupsiyaning bu sababining ildizlari shu qadar chuqurki, hatto biz qaysidir tashkilotga biror muammo bilan murojaat etganimizda albatta qo'limizda sovg'a salom bilan borishning tashvishini qilamiz, aks holda istalgan natijaga erishish murakkablashadi (Masalan, shifokor ko'rigi, maktabdagi o'qituvchi bilan farzandimiz muammosi bilan murojaat etish, bolani yaxshi sinfga qo'yish, yaxshi maktabda o'qitish kabilar).

Ko'rsatib o'tilgan omillar mavjud bo'lgan mamlakatlarda (bular, eng avvalo, rivojlanayotgan va postsosialistik mamlakatlar) korrupsiya ayniqsa kuchlidir. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa, aksincha, mazkur

omillar ta'siri uncha kuchli emas va shu sababli bu yerda korrupsiya hollari kam kuzatiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat sektoridagi ish haqi darajasini xususiy sektordagi bilan taqqoslaganda ko'paytirish korrupsiyaning darhol kamayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan, bu byurokratiyaning malaka darajasi asta-sekin oshishi uchun imkoniyat yaratadi va uzoq muddatli istiqbolda ijobiy samara beradi.

Korrupsiya darajasi ayniqsa past bo'lgan mamlakatlarda amaldorlar maoshi ishlab chiqarish sektoridagidan 3–7 baravar ko'p. Bozorlarni davlat tomonidan tartibga solishning roli va davlatning monopoliyachi sifatidagi o'rni va ahamiyati eng bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Erkin bozor tarafdorlari ta'kidlashicha, davlat rolining kamayishi va raqobatning kuchayishi korrupsiyaning pasayishiga olib keladi, zero buning natijasida zaruriy hokimiyat vakolatlari hajmi kamayadi va tartibga solish yo'li bilan bozorda ustun mavqega ega bo'lish imkoniyatlari, binobarin, renta qidirish uchun imkoniyatlar ham qisqaradi. Darhaqiqat, korrupsiya darajasi past bo'lgan mamlakatlarning barchasiga nisbatan erkin iqtisodiyot xos. Amaldorlarning yakkahokimligi bilan tavsiflanadigan va narxlarni bozor narxlaridan past darajada saqlaydigan rejali iqtisodiyot taqchil tovarlar va xizmatlarni olish vositasi sifatidagi poraxo'rlik uchun ehtiyojlarni yaratadi. Mazkur dalilga yana bir qator e'tirozlar ham mavjud.

Birinchidan, xususiy sektor muammolarning qoniqarli yechimini taklif qilishga doim ham qodir emas va bunday vaziyatlarda aksariyat aholi davlatning aralashuvini o'rinli deb hisoblaydi. Bu esa, o'z navbatida, insofsiz nazorat va davlat rentasini yig'ish uchun zamin yaratadi. Shunday qilib, hatto ochiq iqtisodiyot sharoitida ham korrupsiyadan butunlay qutulish mumkin bo'lmaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiy liberallashtirish jarayoni hukumat tomonidan amalga oshiriladi va shu sababli o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiyotga faol aralashish hisoblanadi. Shu sababli, amalda liberallashtirish jarayonining dastlabki bosqichi ba'zan qarama-qarshi samara – korrupsiyaning yanada kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchidan, tadqiqotlar liberal-demokratik siyosiy tizimda korrupsiya darajasi mamlakat rahbariyati neoliberal yoki sosial-demokratik mafkuraga amal qilishiga bog'liq bo'lmasligini namoyish

etadi. Bundan tashqari, korrupsiya darajasi past bo'lgan mamlakatlarda soliqlar va davlat xarajatlari nisbatan ko'p (Kanada, Niderlandiya, Skandinaviya mamlakatlari, Finlandiya). Demak, korrupsiyaning ushbu sabablari, jamiyatda shakllangan ijtimoiy siyosiy tizim va siyosiy mentalitetning yo'nalishi, davlat boshqaruvidagi qat'iy qabul qilingan qarorlarning ko'lami va mazmuni, ularning ijrosini taminlashga yo'naltirilgan sa'y harakatlar bilan bog'liq.

Korrupsiyaning shakllari. Korrupsiyaning davlat boshqaruvi sohasidagi; - parlamentdagi; - jamoa tashkilotlari, korxonalardagi; - iqtisodiy;- g'oyaviy;- siyosiy;- kadrlar; -fan va ta'lim tizimidagi korrupsiya kabi shakllari favoritizm, nepotizm (urug'-aymoqchilik), proteksionizm, lobbizm, jamoat resurslari va jamg'armalarini qonunga xilof ravishda taqsimlash va qayta taqsimlash, jamoat resurslarini shaxsiy maqsadlarda qonunga xilof ravishda o'zlashtirish, noqonuniy xususiylashtirish, siyosiy tuzilmalar (partiyalar va sh.k.)ni qonunga xilof ravishda qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish, ta'magirlik, imtiyozli kreditlar, buyurtmalar berish, jamoat resurslari – tovarlar, xizmatlar, daromad manbalari, imtiyozlarga ega bo'lish uchun shaxsiy aloqalardan foydalanish, o'z qarindoshlari, do'stlari, tanishlariga turli xizmatlar ko'rsatish va h.klarda namoyon bo'ladi.

Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya zamirida davlat xizmati xodimining davlat resurslarini davlat va jamoat manfaatlarida emas, balki o'z shaxsiy ta'magirlik niyatlariga mos ravishda qarorlar qabul qilishida namoyon bo'ladi. Davlat xizmati xodimlarining ierarxiyaviy lavozimiga qarab yuqori pog'ona va quyi pog'ona korrupsiyasini farqlash mumkin. Yuqori darajadagi korrupsiyada yuqori va o'rta darajadagi amaldorlar va siyosatchilarning qonunlarga xilof ravishda mulkchilik shakllarini o'zgartirishda, davlat buyurtmalarini qabul qilishda o'z ifodasini topadi. Quyi darajadagi korrupsiya o'rta va quyi darajadagi amaldorlar bilan fuqarolar o'rtasidagi doimiy, kundalik o'zaro aloqa bilan bog'liq (jarimalar, ro'yxatga olish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsion bitimdan manfaatdor tomonlarning ikkalasi ham bir davlat tashkilotiga mansub bo'ladi. Masalan, amaldor o'z boshlig'iga u pora beruvchining korrupsion harakatini "yopdi-yopdi" qilgani uchun pora berishi ham korrupsiya hisoblanadi. U, qoida tariqasida, yuqori pog'ona va quyi

pog'ona korrupsiya o'rtasida o'ziga xos "ko'prik" vazifasini bajaradi. Bu juda xavfli, chunki korrupsiya tarqoq harakatlar bosqichidan chuqur ildiz otgan uyushgan shakllar bosqichiga o'tayotganidan dalolat beradi.

Parlamentdagi korrupsiya saylov paytida saylovchilarning ovozlarini sotib olishi bilan bog'liq siyosiy korrupsiyada namoyon bo'ladi. Saylovchi Konstitutsiyaga muvofiq "hokimiyat vakolatlari" deb nomlangan resursga ega bo'ladi, ya'ni deputatlarni xalq saylaydi. Bu vakolatlarni u o'zi saylayotgan shaxslarga qaror qabul qilishning alohida turi – ovoz berish orqali o'tkazadi. Saylovchi o'z vakolatlarini o'zining manfaatlarida kim hammadan yaxshi ifoda etishi mumkin deb hisoblasa, o'shanga topshirish zarurligidan kelib chiqib qaror qabul qilishi lozim va bu umume'tirof etilgan normadir. Ovozlar sotib olingan holda saylovchi va nomzod o'zaro bitishuvga kirishadi va buning natijasida saylovchi yuqorida zikr etilgan normani buzib, pul yoki boshqa ko'chmas mulklarni oladi, nomzod esa, saylov qonunchiligini buzib, hokimiyat resursini qo'lga kiritishga umid qiladi. *Masalan, ba'zi mamlakatlarda saylov jarayoni boshlanishi bilan, har qanday deputatni saylanish yoki saylanmasligini "tepadagilar" hal qiladi degan fikr mutlaqlashgan. Tepadagilar kimlar? Ular nomzodlarni qaysi mezonlar asosida tanlaydi, aslida bu xalq saylovi emasmi?, agar asosiy saylovchi xalq bo'ladigan bo'lsa, nega kim saylanishi oldindan tepadagilar tomonidan belgilanadi? Shuningdek, ba'zi hollarda saylov kompaniyasida asosiy nomzod sifatida xokimlarning qo'yilishi va pirovard natijada ularning saylanishi ham bu sohada hali muammolar borligidan dalolat beradi.* Zero, hokim bilan raqobatdosh bo'layotgan shaxs avvaldan siyosiy o'yin ishtirokchisi ekanligini anglaydi, shu bois, ba'zi hollarda o'yinni oxirigacha etkazadi, ba'zi hollarda esa, nomzodini saylovgacha qaytarib oladi, chunki o'zining saylov jarayonining oxirigacha etmasidanoq mag'lubligini biladi.

Iqtisodiy korrupsiya ham o'zi uchun, ham boshqa har qanday shaxslar uchun, fuqaro, yuridik shaxs, jamoat yoki davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zid ravishda pora evaziga og'dirish (pora olish, va'da qilish, taklif qilish, berish yoki ta'magirlik yo'li bilan talab qilish), shaxs o'z mansab mavqeidan manfaat (mol-mulk, xizmatlar, imtiyozlar yoki shu jumladan mulkiy xususiyatga ega afzalliklar) olish uchun boshqa har qanday tarzda qonunga xilof ravishda foydalanishdir.

Iqtisodiy korrupsiyaning mazkur ta'rifi mazmunidan kelib chiqqanda, quyidagilar bu sohada, ayniqsa, keng tarqalgan korrupsion jinoyatlardir: tijoratda pora evaziga og'dirib olish; pora olish, pora berish yoki tijoratda pora evaziga og'dirib olishni provokasiya qilish; ma'lumotlar berishga yoki ma'lumotlar berishdan bo'yin tovlashga yoxud matnlarni noto'g'ri tarjima qilishga pora evaziga og'dirish yoki majburlash; tijorat yoki bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni pora evaziga olish va oshkor etish; zamirida pora evaziga og'dirish yoki pora berish yotuvchi boshqa jinoyatlar kiradi.

Iqtisodiy korrupsiyaning o'ziga xos xususiyati o'z mansab mavqeini suiiste'mol qilishlarning aksariyati moliyaviy oqimlarni nazorat qilish va qayta taqsimlash sohasidagi vakolatlardan foydalanish bilan bog'liq. Iqtisodiy korrupsiya keng ma'noda "korrupsion xizmatlar" deb ham ataydilar. Shu tariqa, hokimiyat resursi boshqa davlat resurslarini o'zlashtirish maqsadida "sotiladi", shuningdek hokimiyat resursidan ko'rsatilgan maqsadda foydalanish yuz beradiki, bu iqtisodiy va siyosiy korrupsiyaning yaqin o'zaro aloqasini belgilaydi.

Iqtisodiy korrupsiyaning eng muhim omillari qatoriga quyidagi hodisalarni kiritish imkonini beradi: daromad darajasi mezoniga ko'ra aholi o'rtasida tabaqalanishning kuchliligi; xufyona iqtisodiyot ulushining kattaligi; jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni "oshkoralashtirish" amaliyoti iqtisodiy muomalada keng qo'llanilishi; tijorat tashkilotlari uchun soliqlar darajasining haddan tashqari kattaligi. Shunday qilib, iqtisodiy va siyosiy korrupsiya ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy hodisaning ayniqsa keng tarqalgan turlari hisoblanadi. Ammo korrupsiya, murakkab, tizimli ijtimoiy hodisa sifatida, bu ikki tur bilan cheklanmaydi va ayni hol tasniflash uchun qo'shimcha mezonlarni kiritishni nazarda tutadi. Bunday mezonlar sifatida subyektlar maqomi, faoliyat ko'rsatish darajasi, ijtimoiy xavflilik darajasi va hokazolar amal qiladi.

Siyosiy va iqtisodiy korrupsiya siyosiy madaniyat bilan emas, balki iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. U eski va yangi normalar o'rtasidagi tafovutni aks ettiradi va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni yengillashtiradi. Korrupsiyaning muayyan turlari ijtimoiy o'zgarishlarni kafolatlaydigan siyosiy koalisiyalar tuzish jarayonida muhim aloqalar o'rnatilishiga

imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy hayot, davlat va nodavlat jamoa tashkilotlaridagi korrupsiya jamoat tashkiloti xodimining tashkilot manfaatlarini buzib qonunga xilof ravishda boylik orttirishga harakatida namoyon bo'ladigan umumiy ma'naviy tanazzulning ifodasidir. Chunki keyingi yillarda, ayniqsa bolani yaxshi bog'chaga, maktabga joylashtirish, yaxshi ishga joylashish va hatto kasalxonaga yotish yoki dispanserizasiya, yangi mashina sotib olish, imtiyozli uy olish, qo'yinggi ijtimoiy hayotda qanday masala bo'lishidan qat'iy nazar pora berish shunchalar kundalik hayotning tarkibiy qismiga aylanganki, hatto ba'zi hollarda murojaat etayotgan tashkilot xodimining yoniga quruq qo'l bilan borish noqulaylik vaziyatini shakllantiradi.

Korrupsiyaning barcha turlari bevosita siyosiy, g'oyaviy va kadrlar korrupsiyasini shakllantiradi.

Siyosiy korrupsiya aniq qonunga xiloflikning mavjud emasligi; ayrim shaxslar yoki guruhlar (partiyalar, boshqa barqaror hamjamiyatlar) hokimiyatni egallash, saqlab qolish, mustahkamlash va taqsimlashga qarab mo'ljal olishi; ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun ham davlat, ham jamoat resurslaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda siyosiy korrupsiya siyosiy tusga ega qilmishlarda namoyon bo'ladi va ularning bir qismi jinoyat-huquqiy tartibda jazoga loyiq, boshqa bir qismi esa – loyiq emas degan fikr ham mavjud.

Korrupsiyani o'rganish bilan shug'ullanadigan mutaxassislarning aksariyati unga saylov paytida saylovchilarning ovozlarini sotib olishni ham kiritadilar. Bunga AQShda 2016-yilda o'tkazilgan Prezident saylovida Donald Tramp va Xillari Klinton orasidagi siyosiy o'yin misol bo'la oladi. Ayni vaqtda, siyosiy korrupsiyaning saylovoldi kurashi doirasidan chetga chiqadigan ko'rinishlari ham yo'q emas. Bu yerda mansabdor shaxsning mavjudligini istisno etganda, korrupsiyaning barcha o'ziga xos belgilari bor. Davlatni boshqarish amaliyoti sifatidagi siyosat va korrupsiya har doim bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari, korrupsiya ba'zan chuqur siyosiy o'zgarishlarga turtki beruvchi omilga aylanadi. Buni Gruziya, Ukraina va Qirg'izistondagi "rangli inqiloblar" misolida kuzatish mumkin. Korrupsiya hodisasi har qanday davlat tuzumida obyektiv (ko'p yoki oz darajada) mavjud bo'ladi. Shu sababli, siyosiy korrupsiyaga yanada keng hodisa sifatida yondashish

maqsadga muvofiqdir.

Siyosiy korrupsiyaning byurokratik va siyosiy, majburiy va kelishilgan, markazlashtirilgan va markazlashtirishdan chiqarilgan korrupsiya kabi turlari farqlanadi. Bizning fikrimizcha, *siyosiy korrupsiya deganda, hukmron yoki muxolif elitalar, partiyalar, guruhlar va ayrim shaxslarning hokimiyat uchun, ya'ni uni egallab olish yoki ushlab turish maqsadida, shuningdek siyosiy raqiblarga qarshi siyosiy kurashning korrupsion (yoki korrupsiya bilan bog'liq) shakllarini tushunish lozim.* Uning ayrim turlariga inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, davlat tuzumi va davlat hokimiyati asoslariga qarshi korrupsion qilmishlar xosdir.

Har qanday siyosiy korrupsiya g'oyaviy korrupsiyaning mahsuli sifatida amal qiladi. G'oyaviy korrupsiya muayyan maqsadlarda davlatlararo va shaxslararo nizolarni, davlat boshqaruvi darajasida hokimiyat qarorlarini qabul qilishni monopoliyalashtirishni ko'zda tutadi. Har qanday davlat boshqaruvi boshqaruv vositalarini o'z strategik va taktik maqsadlariga mos ravishda tanlashi lozim. G'oyaviy korrupsiyada boshqaruv maqsadlarining o'zi buzib ko'rsatiladi. Ma'lumki, davlat o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun turli vositalardan foydalanishi mumkin (asosiy davlat va insoniy qadriyatlarga mutlaqo zid bo'lgan vositalar bundan mustasno). Ammo, davlat boshqaruvi maqsadlari yaxlit va yagona bo'lishi lozim. Davlat hokimiyati boshqaruv maqsadlarini buzib ko'rsatgan, shaxsiy maqsadni qadriyat darajasiga ko'targan va unga erishish uchun harakat qila boshlaganda g'oyaviy korrupsiya paydo bo'ladi. Natijada islohotlar muayyan umumdavlat maqsadlariga erishish uchun emas, balki "xo'jako'rsinga" amalga oshirila boshlaydi. Masalan, 2012-yilda Jahon moliya banki raisi Dominik Stros Kan 2017-yilda Fransiyada o'tkaziladigan Prezident saylovida ishtirok etishi mumkin bo'lgan munosib nomzod edi. Uning Prezident saylovida ishtirok etishi va ko'p ovoz olishi prognozlashtirilgach, uning faoliyati atrofida turli mish-mishlar tarqatildi va 2017-yildagi Prezident saylovida umuman ishtirok etmasligiga erishildi. 2016-yilda Fransiyaning Prezidenti lavozimiga saylovlar kompaniyasida ishtirok etgan 12 ta nomzodlardan biri Fransua Fiyon munosib nomzod bo'lganligi uchun uning turmush o'rtog'ining noqonuniy maosh olayotganligi va boshqa

shunga o'xshash sabablar bilan oila faoliyati atrofida siyosiy o'yinlar tashkil etildi va oqibatda Fransua Fiyon Fransiya Prezidenti lavozimiga saylovining birinchi bosqichidayoq mag'lubiyatga uchradi.

G'oyaviy korrupsiyaning eng xavfli ko'rinishlari: davlat qarorlari, strategiyalari, harakatlarining maqsadlari va vositalarini tanlashda amaldorlar o'zboshimchaligining qonuniylashtirilishi; davlat qarorlari sifatining pastligi, deklarativligi, davlat siyosatidagi populizm; davlat qarorlarini ishlab chiqishga yagona mafkuraviy va boshqa mo'ljallarga ega shaxslarning jalb qilinishi; davlat boshqaruvi qarorlarini ishlab chiqishda chet el byudjet va nobyudjet grantlari hisobiga moliyalashtiriladigan tashkilotlar va organlarning ishtirok etishi (XX asrning oxirida amerikalik Jorj Sorosning dunyo bo'yicha investisiyalari, shuningdek, turli davlatlarda eng iqtidorli, eng peshqadam yoshlar uchun turk liseylarining tashkil etilishi (FETO tashkiloti) g'oyaviy korrupsiyani amalga oshirishga qaratilganligi bugun hech kimga sir emas); *5) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari mualliflarining ma'lum emasligi ularning sifatsizligiga, tor manfaatlarni pardalangan ko'rinishda ilgari surish imkoniyati kabilardir.* Keyingi besh yilda Rossiya va AQSh munosabatlaridagi ba'zi unsurlar, xususan, Rossiyaning fuqarolariga turli darajadagi sanksiyalarning qo'yilishi, go'yoki Rossiyaning AQSh Prezidentligiga bo'lib o'tgan saylovni buzishdagi ishtiroki, Ukrainaning Evropa ittifoqiga a'zo bo'lish bo'yicha olib borgan siyosati, Ukrainaning Rossiya bilan munosabatlaridagi muammolar g'oyaviy korrupsiyaning yorqin misolidir.

G'oyaviy korrupsiyaning nihoyatda kuchli ta'siri kadrlar korrupsiyasida o'z ifodasini topadi. Kadrlar korrupsiyasi mamlakatda ijtimoiy adolatsizlikka, ma'naviy muhitning buzilishiga sabab bo'ladigan, siyosiy mentalitetga salbiy ta'sir ko'rsatadigan korrupsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Korrupsiyaning bu turi ikki subyekt – lavozimga tayinlash huquqiga yoki saylov natijalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs va mazkur lavozimni egallashdan manfaatdor shaxsning o'zaro aloqasiga asoslanadi.

Boshqaruvga umuman layoqati bo'lmagan odamning favoritizm ta'sirida rahbar lavozimiga tayinlanishi kadrlar korrupsiyasi g'oyaviy korrupsiyaning oqibati sifatida amal qiladi (rasmiy kadr masalasi

norasmiy vaziyatlarda hal bo'ladi). Bularning barchasi korrupsiyaning mazkur turini davlat milliy xavfsizligiga eng jiddiy tahdidlar darajasiga ko'taradi. Bu esa, o'z navbatida, kadrlar korrupsiyasini shakllantiradi.

Kadrlar korrupsiyasiga davlat lavozimlariga kollegial tarzda saylash, tayinlash yoki ulardan ozod qilish vakolatlariga ega davlat hokimiyati organi tarkibiga kiruvchi mansabdor shaxslarning guruhlarini ham kiritish o'rinli bo'ladi. Bunda davlat hokimiyati organining o'zi yuridik shaxs sifatida, hatto uning tarkibiga kiruvchi mansabdor shaxslarning barchasi pora evaziga og'dirilgan bo'lsa ham, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas (butun jahonda qabul qilingan amaliyot). Ayni vaqtda, ba'zi mamlakatlarda parlamentdagi ko'pchilikning pora evaziga og'dirilgani borasidagi dalilning aniqlanishi qonunchilik hokimiyati organi tarqatib yuborilishiga va yangi saylov tayinlanishiga sabab bo'lishi lozim. Muayyan sharoitlarda kadrlar korrupsiyasiga saylovchilarni, shuningdek, turli toifadagi mansabdor shaxslarni saylash bo'yicha ovoz berish natijalarini aniqlashga vakolatli mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish ham kiradi. Kadrlar korrupsiyasida davlat xizmati xodimi bo'lmagan turli vositachilar, xususan tegishli vakolatlarga ega bo'lmagan yordamchilar, referentlar, kotiblar ishtirok etishi ham mumkin. Kadrlar korrupsiyasining asosiy salbiy oqibatlari amaldorlarning nokompetentligi, ishning samarali emasligi, davlat hokimiyati obro'sining pasayishidir.

Kadrlar korrupsiyasining sabablari va uning o'sishiga imkon beruvchi omillar quyidagilardir: davlat xizmati xodimlari maoshining chalkashligi (kichik oklad, lavozimga qarab okladga karralik ustamalar, lavozim unvonlari uchun ustamalar); boshlang'ich va yuqori lavozimlar maoshi miqdorining nomutanosibligi (10-15 karra farqning mavjudligi); davlat mansabdor shaxslari, davlat xizmati xodimlari ish haqini o'zgartirishning tartibsizligi; davlat mansabdor shaxslari, davlat xizmati xodimlari lavozimiga ilgari korrupsion jinoyatlar sodir etganlik uchun sudlangan, korrupsion huquqbuzarliklar uchun ma'muriy jazoga tortilgan shaxslarni saylash va tayinlashning asossizligi; shaxsning mansab vakolatlari doirasi aniq belgilanmagani, uning harakatlari qonuniyligi darajasini baholashni qiyinlashtirishi va boshqa shaxslarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini kengaytirishga yo'l ochishi; davlat xizmati

obro'sining pastligi, kadrlar tanlashda e'tiborsizlik, vakant lavozimga mos keladigan kadrlarni tanlash mezonlarining yo'qligi; davlat xizmatidagi lavozimlarni egallash, ochilgan vakansiyalar haqida axborotning yetarli darajada ochiq emasligi bilan bog'liq muammolar va h.k. Kadrlar korrupsiyasining bu ko'rinishlari, ayniqsa, ijro etuvchi hokimiyat organlariga xosdir. Ayni vaqtda, qonunchilik (vakillik) hokimiyati faoliyatida ham bir qator jiddiy muammolar mavjud. Ular orasida quyidagilar bor: saylov tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazoratining samarali emasligi, saylovda jinoiy uyushmalarning vakillari ishtirok etishi, mintaqaviy va mahalliy vakillik organlarida mandatni sotib olish va boshq.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, sud tizimi korrupsiya uchun, ayniqsa, jalb qiluvchan sohalardan biri hisoblanadi. Bu yerda deyarli har qanday lavozim korrupsion jalb qiluvchanlik bilan tavsiflanadi, uning funksional mazmuniga faqat korrupsiya ko'rinishlarining shakllari va ko'lamigina jiddiy bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda, alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasining sudyalari bilan uchrashuvda kelgusida bu sohadagi korrupsiyaga uzil-kesil barham berish, sudyalar faoliyatida adolat mezoniga rioya qilish asosiy vazifa qilib belgilandi. 2017-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Kozim Komilovning O'zbekiston xalqiga murojaati ham bu tizimda adolat bosh mezon bo'lishi, oqlov va qoralovda obyektivlik ta'minlanishi ta'kidlandi. Ya'ni, sud jazolovchi emas, balki, adolatli hukm chiqarish organiga aylanishi lozim.

Lobbizm Amerika Qo'shma Shtatlari siyosiy tizimining ajralmas elementi hisoblanadi. O'z vaqtida lobbizm ko'rinishidagi korrupsiyaga barham berishning iloji yo'qligi anglab yetilgach, uni qonunda belgilangan doiraga solishga qaror qilingan va bu g'oya tegishli qonun yordamida amalga oshirilgan. Bu dunyodagi, xususan, yurtimiz ijtimoiy

hayotida "Obro' effekti" ham deb ataladi. Buni aniq misol bilan tahlil qilamiz. Ba'zida nihoyatda iqtidorli, faol, bilimli, tashabbuskor insonning mehnati sariq chaqacha ham qadrlanmaydi, ayni paytda qilgan ishining aniq ko'rsatkichi bo'lmagan odamning turli lavozimlarga tavsiya etilishi, uning aytgan gaplari, qilgan ishlarida samara bo'lmasada doimiy birinchi qatorda bo'lishi odat tusiga aylangan. Tashabbuskor xodimni mehnatiga yarasha rag'batlantirish o'rniga o'ylab topilgan "qisqartirish"lar orqali xodim yo'qotiladi, ayni paytda, birovning mehnatiga egalik qilgan layoqatsiz kadrni saqlab qolish uchun yangi lavozim tashkil etiladi, oqibatda tashabbuskor xodim o'z mehnatining qurboniga aylanadi. Ya'ni o'zbekchasiga aytganda birov "ko'tar" deyishi bilan ko'tarish, alqashlar, maqtashlar boshlanadi, aslida u maqtalayotgan odam nima ish qildi, qani maqtashga arzigulik xizmatlarini ko'raylik degan fikr hech kimning xayoliga ham kelmaydi.

Ta'lim va fanda korrupsiya XX asrda keng rivojlanganligi jamiyatning yuqori darajadagi ma'naviy inqirozga yuz tutganligi bilan baholanadi. *Fandagi korrupsiya uning turli tarmoqlariga mutlaqo nokompitent mutaxassislarning jalb qilinishi, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarini himoya qilish jarayonlarida proteksionizm va favoritizmning amal qilayotganligi bilan bog'liq*. Bu, bir tomondan fandan mutlaqo yiroq odamlarning kirib kelishi, ikkinchi tomondan, ilmiy salohiyatning sayozlashuviga olib kelishi mumkin. Shu bois O'zbekiston respublikasi Prezidentining ilm fan rivojlantirish bo'yicha qarori bu sohadagi bo'shliqlarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

Ta'limdagi korrupsiya abituriyentlarning o'qishga qabul qilinish jarayoni bilan boshlangan, ularning o'qishni tugatib diplom olish jarayonigacha qamrab olingan. Shuni afsus bilan aytish lozimki, ta'lim sohasidagi korrupsiya har qanday mamlakat intellektual salohiyatining inqirozi, fandagi korrupsiya esa, bu insoniyatning inqirozi va buning oldini olish har birimizning fuqarolik burchimiz. Shu bois, 2017-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil may oyida "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi tegishli qarorlarida davrning ruhi va talabi o'z ifodasini

topdi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalariga abiturientlarni o'qishga qabul etishda shaffoflikni ta'minlash bo'yicha barcha chora tadbirlar ko'rilmoqda. Fikrimizcha, bundan keyin O'zbekistonda va dunyoda ta'lim va fan sohasidagi korrupsiyaga chek qo'yiladi. Chunki bugun insoniyat taqdiri har qachongidan ham ko'proq ta'limning sifatiga va fandagi ixtiro va kashfiyotlarning mazmuniga bog'liqdir.

Oq, kulrang va qora korrupsiya shakllari farqlanadi. Oq korrupsiya jamoatchilik tomonidan qoralanmaydigan amaliyotlarni aks ettiradi. Ular kundalik hayotdan mustahkam o'rin olgan va muammo sifatida qaralmaydi. Masalan, biz o'zimizning hurmatimiz, e'tiborimizni bildirish uchun o'qituvchi yoki shifokorga o'z ixtiyorimiz bilan kichik tuhfalar olib boramiz va u bu tuhfani iymanib bo'lsa-da oladi, aslida, u xizmati uchun maosh oladi va bu tuhfani olishi mumkin emas, biroq, bunda ta'magirlik mutlaqo namoyon bo'lmaganligi uchun qoralanmaydi. (Shu bois, ba'zi mamlakatlarda mansabdor shaxslarga beriladigan sovg'aga ajratiladigan mablag' miqdori belgilangan).

Kulrang korrupsiya jamoatchilik o'rtasida aniq bir munosabat hali shakllanmagan korrupsion harakatlarni qamrab oladi (masalan, o'qituvchilarning repetitorligi ijtimoiy hayotning yozilmagan qonuniga aylangan kulrang korrupsiyadir). Aynan kulrang korrupsiya atrofida janjallar yuzaga keladi.

Qora korrupsiya jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qoralanadi va uning oldini olish hamda bartaraf qilish bo'yicha hukumat qarorlari qabul qilinadi, chunki bu umumiy tanazzulning ifodasidir. AQShda "kikbeking" korrupsiyaning ancha keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari bitimni bir narxda tuzish haqida og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa yanada baland narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga beriladi, ya'ni yashirin pora berish sodir etiladi. Har bir muayyan holda korrupsiyaning ayrim ko'rinishlari mavjudligi shaxs korrupsiya jinoyati yoki huquqbuzarligi sodir etganining shak-shubhasiz dalili hisoblanmaydi. Ular faqat muayyan holatlarda va korrupsiyaning tashqi belgilari mavjud bo'lgan taqdirda jinoyat yoki huquqbuzarlikka aylanadi.

Umuman olganda, korrupsiyaning yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rinishlari mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish bilan u yoki bu tarzda bog'liq. Shu tufayli ham, ular "qattiq" yoki ochiq-oydin korrupsiyaga kiradi. Ayni vaqtda, siyosiy amaliyotda korrupsiyaning ochiq-oydin ko'rinib turmaydigan yoki "yumshoq" ko'rinishlari ham ancha keng tarqalgan. Ular jumlasiga favoritizm, lobbizm, urug'-aymoqchilik, mahalliychilik va hokazolar kiradi. Korrupsiya faoliyati turlarining to'la-to'kis ro'yxatini tuzish mumkin bo'lmasa kerak. "Yumshoq" korrupsiyaning ayniqsa keng tarqalgan turi favoritizmdir. Bu davlat faoliyatining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamoat resurslari davlat lavozimiga alohida iddaolarga ega bo'lganlar o'rtasida samarasiz va adolatsiz taqsimlanishiga imkoniyat yaratadi. Favoritizmning o'zida hokimiyat tizimini urug'-aymoqchilik asosida tashkil etishdan iborat nepotizm va oshna-og'aynigarchilikka tayanadigan hokimiyat tizimi – kronizm farqlanadi.

Yumshoq korrupsiyaning boshqa bir ko'rinishi urug'-aymoqchilik va mahalliychilikdir. Mazkur hodisa zamirida u yoki bu shaxs jamiyatning o'z alohida korporativ maqsadlariga ega bo'lgan guruhiga mansubligini anglash yotadi va hokimiyat vakolatlariga ega shaxslar alohida klan, korporasiyaga birlashadi. O'zbekistonda mustaqillikka erishgan dastlabki kundan urug' aymoqchilik, tanish bilishchilikka qarshi kurashib kelinganayotgan bo'lsada, ba'zi hollarda u haligacha namoyon bo'lmoqda.

Korrupsiya turlarining keltirilgan tasnifi to'la-to'kis deb hisoblanishi mumkin emas va asosan bu yo'nalishdagi keyingi izlanishlar uchun o'ziga xos asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, muttasil o'zgarayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, psixologik va ma'naviy-mafkuraviy vaziyatlarda hozirgi jamiyatning hayot faoliyatida korrupsiyaning yangi shakllari va ko'rinishlari paydo bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlarning yo'nalishlari

Korrupsiyaga oid jinoyatlarning majmuini ikki guruhga bo'lish mumkin: ommaviy va ommaviy bo'lmagan harakatlar. Ehtiyotsizlikdan tashqari barcha korrupsiya jinoyatlari qasddan sodir etiladi. Ko'pgina hollarda jinoiy javobgarlik, qoida tariqasida, muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlarning boshlanishi bilan emas, balki harakatlarning o'zi bilan

bog'liq. Shuning uchun ko'rib chiqilayotgan harakatlarga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organ jabrlanuvchiga etkazilgan zararni aniqlashi shart emas.

O'zbekistonda korrupsion jinoyatchilikning bir qator yo'nalishlari mavjud. U quyidagilar bilan tavsiflanadi: korruptsion jinoyatlar sonining mutlaq va nisbiy (aholiga nisbatan) o'sishi; jinoyatlarning umumiy hajmida ushbu jinoyatlar ulushining barqaror o'sishi; doimiy ortib borayotgan kechikish; ushbu jinoyatlarni sodir etishning guruhli xususiyati.

O'zbekistonda korrupsiya jinoyatlarining xususiyatlari:

korrupsiyaning o'ziga xos mexanizmining mavjudligi;

korrupsiyaga oid noqonuniy xatti-harakatlar subyektlarining o'ziga xosligi;

mamlakatda keng tarqalgan va sezilarli miqyosda noqonuniy xatti-harakatlar va ularning korrupsioner uchun farqi;

davlat xizmati, mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi xizmat, tijorat va boshqa tashkilotlardagi xizmat vakolatiga bevosita zarar etkazish;

aybdor tomonidan o'z mansab mavqeidan xizmat manfaatlariga zid ravishda foydalanish;

yollanma yoki boshqa shaxsiy manfaat va noqonuniy harakat qilish niyatining mavjudligi;

ularning ortib borayotgan jamoat xavfi;

uyushgan jinoyatchilik bilan yaqin aloqadaligi.

Mamlakatimizda korrupsiyaning eng keng tarqalgan ko'rinishlari quyidagilardir:

soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar miqdorini qonunga xilof ravishda kamaytirganlik;

soliqlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni asossiz ravishda kechiktirish;

tijorat tuzilmalari manfaatlarini lobbi qilish;

proteksionizm, korrupsion harakatlar, xususiy sektorda poraxo'rlik;

asossiz ravishda jinoyat ishini qo'zg'atish, uni boshlashdan asossiz rad etish, adolatsiz hukmlar chiqarish;

jinoyat qonuni doirasida, lekin nisbatan yengilroq sanksiya yoki

jinoiy jazoning yengilroq turini qo'llagan holda jazo tayinlash va sud tomonidan fuqarolik ishi bo'yicha adolatsiz qaror chiqarish va undan oldin.

O'zbekistonda korrupsiyani aniqlovchi omillar sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik, huquqiy va boshqalar amal qiladi.

Asosiy iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

iqtisodiy beqarorlik;

inflyasiya;

soliq va yig'imlardan bo'yin tovlashni rag'batlantiradigan fiskal xizmatlarning zaifligi;

iqtisodiyotning xususiy sektori sohasidagi davlat siyosatining beqarorligi;

O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga zarar etkazadigan yuridik va jismoniy shaxslarning noqonuniy iqtisodiy faoliyati.

Asosiy siyosiy omillar:

davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni ustidan byurokratiyaning amalda monopol nazorati, bunda aylantirilgan mulk qiymatining bir qismini o'zlashtirish nisbatan oson;

turli korrupsion xatti-harakatlar bilan (qimmatbaho sovg'alarni o'zlashtirish, yaqinlarini nazorat qilinadigan tashkilotlarga yuqori haq to'lanadigan ishlarga joylashtirish va h.k.) jamoatchilik oldida o'zini-o'zi xavf ostiga qo'ygan davlat xizmatchilarining vakolatlaridan tezda mahrum etilishini ta'minlaydigan samarali siyosiy mexanizmning mavjud emasligi;

davlatning yuqori mansabdor shaxslari korrupsiya holati ustidan parlament nazoratining yetarli darajada samarali emasligi.

Asosiy huquqiy omillar:

huquqni shaxs, jamiyat va davlat hayotini tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida obro'sizlantirish;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt oldini olish chora-tadbirlari sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan korrupsion xulq-atvorning har xil turlari bo'yicha umumiy ma'muriy-huquqiy taqiqlarning yo'qligi;

davlat xizmatchilariga soliq solishni tartibga soluvchi qonun hujjatlaridagi ko'plab bo'shliqlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning nazoratsiz

o'zboshimchaliklari uchun obyektiv asos yaratadigan ko'plab huquq tarmoqlari va qonunchilik institutlari normalaridagi noaniqlikning asossiz yuqori darajasi.

Asosiy tashkiliy va kadrlar tayinlash bo'yicha omillarga quyidagilar kiradi:

Rejalashtirishdagi kamchiliklar, shartnoma intizomini buzish;

"Xizmat faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar (vazifalarni taqsimlash, vakolatlarni topshirish, ortiqcha ish yuki va boshqalar);

Tarbiyaviy ishdagi kamchiliklar:

Nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi kamchiliklar;

Mansabdor shaxslarning daromadlari va xarajatlari ustidan nazoratning yo'qligi;

Asosiy axloqiy, ruhiy va psixologik omillarga quyidagilar kiradi:

Jamiyatda korrupsiyaga haddan tashqari toqat qilish;

Davlat xizmatida poraxo'rlikning ko'p asrlik an'analari;

Aholining huquqiy passivligi va korrupsiyaga qarshi qonunlarni bilmasligi;

Fuqarolarning ko'pchiligining xodimlarning qonuniy va noqonuniy huquqlarini amalga oshirish uchun davlat xodimiga pora berishga psixologik tayyorligi

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish shakllari

Korrpusiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishda quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

umumiy profilaktika - korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'lgan yoki sodir etilishiga yordam beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, shuningdek ushbu omillarni bartaraf etish choralarini ko'rishga qaratilgan faoliyat;

individual profilaktika - korrupsiyadan jabrlanganlarga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish;

huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularni o'rganish va huquqqa xilof harakatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish;

davlatning fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro tashkilotlar va

shaxslar bilan hamkorligini o'rnatish; bunday hamkorlik, masalan, fuqarolik jamiyatining nodavlat elementlarini davlat tomonidan tashkiliy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi, ular xususiy xavfsizlik agentliklari, inson huquqlari tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar va boshqalardan iborat.

Korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asosi - O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash sub'yektlari tizimi bir-biri bilan umumiy maqsadlar, shuningdek, axborot, muvofiqlashtirish va huquqiy aloqalar bilan bog'langan quyidagi ijtimoiy guruhlardan iborat.

Birinchi guruh ixtisoslashgan korxonalardan iborat, jumladan:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi O'zbekiston Prezidenti: o'zi rahbarlik qiladigan ijroiya organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlarini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishini ta'minlaydi, shuningdek o'z vakolatlari doirasida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qiladi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ijroiya organlari o'rtasida vazifalarni taqsimlovchi O'zbekiston respublikasi hukumati:

davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi ta'sis sub'yektlarining davlat hokimiyati organlari va o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashni amalga oshiradigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar, ular o'z vakolatlari doirasida ichki ishlar organlari, bojxona organlari va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradilar va unga qarshi kurashish sohasidagi boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, o'z vakolatlari doirasida davlat byudjeti va davlat byudjetidan tashqari jamg'armalar

byudjetlarining belgilangan ko'rsatkichlaridan chetga chiqishlarni aniqlash va tahlil qilish yoki qonun hujjatlarining qonuniyligi va o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish orqali korrupsiyaga qarshi kurashni ta'minlaydi, davlat byudjeti mablag'lari va davlat byudjetidan tashqari jamg'armalarning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga, vakolatli banklariga va O'zbekiston respublikasining boshqa moliya-kredit muassasalariga o'tkazilishi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organlar korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini samarali amalga oshirishni ta'minlash, turli mintaqaviy davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Prezidentining qarori bilan tuzilishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat organlari - korrupsiyaning turli ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun tuzilgan bunday ixtisoslashtirilgan organlar tarkibiga organlar - davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi sub'yektlarining davlat hokimiyati organlari vakillari va boshqa shaxslar kirishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar kelib tushganda ularni ushbu ma'lumotlarni tekshirish vakolatiga ega bo'lgan tegishli davlat organlariga beradilar va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirish natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, huquqbuzarlik va korrupsiya jinoyatlarining oldini olishni amalga oshirish doirasidagi ixtisoslashtirilgan sub'yektlar guruhiga barcha darajadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar kiradi; ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ish bilan ta'minlash organlari shular jumlasidandir.

Ikkinchi guruhga ixtisoslashmagan korxonalar kiradi, shu jumladan:

turli mulkchilik shakllariga ega bo'lgan tijorat va notijorat tashkilotlari, korxona va muassasalar, jamoat, idoralararo va mahalliy komissiyalar, birlashmalar va fondlar;

turli darajadagi vertikal va gorizontal tuzilmalarga ega bo'lgan nizom va nizomlar asosida faoliyat yurituvchi siyosiy partiyalar va ommaviy

jamoat tashkilotlari;

OAV;

uyushmalar va yoshlar birlashmalari;

kasaba uyushmalari;

xususiy xavfsizlik agentliklari;

xayriya tashkilotlari va diniy konfessiyalar;

ixtiyoriy asosda tuzilgan jamoat tashkilotlari va tuzilmalari (xalq otryadlari, jamoat tartibini saqlash punktlari).

Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi mutaxassislari korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olishning muhim yo'nalishlari qatoriga ushbu noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishni alohida ta'kidlashadi, chunki o'ziga xos ijtimoiy dard hisoblangan jinoyatni davolashdan ko'ra oldini olish osonroqdir. Shubhasiz, jinoyatlarning fosh etilishi va jazoning muqarrarligini ta'minlash ham korrupsiyaning oldini olishning ancha jiddiy va samarali vositasidir, lekin asosiysi jinoyat sodir etilmaganidadir.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olishning asosiy yo'nalishlari

Korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurashishda uning oldini olish, ya'ni uning kelib chiqish sabablari va sharoitlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, shaxslarning jinoiy harakatlarining oldini olish va ularga chek qo'yish muhim ahamiyatga ega.

I Korrupsiyani kriminologik adabiyotda jinoyatni sog'liqni saqlash va tibbiyot tomonidan krrashadigan jismoniy va ruhiy kasalliklarga o'xshash "kasallik"ga o'xshatish mumkin. Shunga ko'ra, kriminologik profilaktikani o'ziga xos ijtimoiy sanitariya va gigiena (kasallikning o'ziga emas, balki ularning kelib chiqishiga ta'sir qiladi) yoki terapevtik xarakterdagi eng og'riqsiz proseduralar va usullar sifatida ko'rib chiqish mumkin.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi bevosita korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini tartibga soluvchi alohida moddada nazarda tutilgan. Biroq, ushbu qonun ustuvorligini tahlil qilganda, afsuski, ushbu chora-tadbirlarning mazmunida ma'lum bir

o'ziga xoslik yo'qligi va ma'muriy va xizmat huquqining ko'plab mavjud huquqiy normalarining takrorlanishini aytish mumkin. Masalan, "Korrupsiyaga qarshi krrashish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, profilaktika choralaridan biri "jamiyatda korrupsion xulq-atvorga nisbatan murosasizlikni shakllantirish" bo'lsa-da, kriminalistika nuqtai nazaridan bunday emas, chora-tadbirlari va faoliyati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining maqsadlaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, boshqa profilaktika chorasi "davlat boshqaruvi lavozimlarini, davlat yoki kommunal xizmat lavozimlarini egallash uchun ariza topshirgan fuqarolarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda malaka talablarini taqdim etish, shuningdek belgilangan tartibda ma'lumotlarni tekshirish" kabi choralar belgilangan.

Korrupsiya jinoyatlarining oldini olish murakkab tizim bo'lib, uning umumiy ijtimoiy profilaktikasi va maxsus kriminologik darajalarda amalga oshiriladi:

Korrupsiya jinoyatlarining umumiy ijtimoiy profilaktikasi deganda aholining moddiy turmush darajasini, madaniyatini, fuqarolar ongini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafko'raviy, tashkiliy chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarning maxsus kriminologik profilaktikasi korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablarini yoki korrupsiyaning o'ziga xos jinoiy ko'rinishlarini bartaraf etishga bevosita qaratilgan chora-tadbirlar majmui bilan tavsiflanadi.

Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha eng muhim umumiy ijtimoiy chora-tadbirlar qatorida quyidagilarni belgilash mumkin:

Mamlakatda real inflyasiya darajasini pasaytirish;

Ish haqi darajasining bosqichma-bosqich o'sishi;

Keksalik va nogironlik bo'yicha pensiyalar darajasini ijtimoiy zarur darajaga ko'tarish, turli toifadagi pensionerlarning munosib yashashiga imkon yaratish;

Uy-joy masalalarini hal qilishda yangi yondashuvlarni izlash va sinovdan o'tkazish;

Ishsizlikni qisqartirish va aholi bandligi muammolarini hal etish;

Aholining daromadlari bo'yicha qutblanish darajasini pasaytirish;

Aholining yashash minimumini resurslar bilan ta'minlash;

Aholi turmush darajasini oshirish, shuningdek, qonun bilan himoyalangan bo'lsa-da, lekin ko'pincha davlat tomonidan buzilayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini samarali kundalik himoya qilish;

Soliq qonunchiligini takomillashtirish;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini aniq huquqiy tartibga solishni, bunday faoliyatning qonuniyligi va oshkoraligini, bu boradagi davlat va jamoatchilik nazoratini ta'minlash;

Aholining ma'naviy, huquqiy va madaniy darajasini oshirish;

Fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyaga qarshi kurashishga jalb etish, shu bilan birga huquqiy va fuqarolik ongini tarbiyalashga, korrupsiyaga qarshi xulq-atvor ko'nikmalarini egallashga e'tibor qaratish;

Ommaviy ijtimoiy korrupsiyaga qarshi kompaniyani amalga oshirish tashviqot;

Davlat xizmatchilari faoliyatida shaxs, aholi manfaatlarini o'z g'arazli manfaatlaridan ko'ra himoya qilish muammolarining yechimini topish hal qilishning ustuvorligini belgilash;

Jamiyat va davlat apparatida xususiy mulkka hurmat va ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishdir.

Korrupsiyaning umumiy profilaktikasi bo'yicha ko'rsatilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, unga qarshi kurashishda alohida kriminalistik profilaktikaning quyidagi choralari muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy choralar: uning daromadlari va mol-mulki, maktabdan tashqari faoliyati, investisiyalar, mol-mulklari, olgan katta sovg'alari yoki imtiyozlari to'g'risidagi, shu munosabat bilan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'liq ma'lumotlar bilan qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashning ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan subyektlari tizimini qonun hujjatlarida belgilab olish;

korrupsiyaga oid jinoyatlar bo'yicha mavjud sud amaliyotini umumlashtirish;

davlat xizmatchilarini, shuningdek fuqarolarni korrupsiyaga qarshi kurashishda faolroq ishtirok etishga jalb etishga, jamiyatda korrupsion xulq-atvorga salbiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan qonunchilik,

ma'muriy va boshqa chora-tadbirlarni qabul qilish;

korrupsiyaga qarshi standartlarni joriy etish, ya'ni tegishli faoliyat sohasi uchun taqiqlar, cheklashlar va ruxsat berishlarning yagona tizimini yaratish, ushbu sohada korrupsiyaning oldini olishni ta'minlashdir.

O'zbekistonda davlat xizmatchilari, shuningdek, davlat lavozimlarini egallab turgan shaxslar uchun belgilangan huquq va cheklovlar, taqiqlar va majburiyatlarni birlashtirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarda ishtirok etgan yuridik shaxslarga, shuningdek, korrupsiya xarakteridagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan davlat xizmatchilariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llagan holda ma'muriy javobgarlikni belgilash; ushbu toifadagi ishlarni ma'muriy tergov qilishni O'zbekiston proko'raturasi vakolatlariga kiritish;

Tashkil etish tezkor-qidiruv faoliyatining vazifasi sifatida musodara qilinadigan mol-mulkni aniqlash imkoniyati;

Tezkor-qidiruv ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish

Ish beruvchining (rahbarning) vakili yoki bunday vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxsning iltimosiga binoan sodir bo'lgan voqealar shaxslar tomonidan taqdim etilganlarning haqiqiyligini tekshirish;

"Lobbichilik to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish; "Noqonuniy bitimlar natijasida olingan mol-mulk va daromadlarni musodara qilish to'g'risida"; "Yirik xarajatlarning deklarasiyalangan daromadlarga muvofiqligi ustidan davlat nazorati to'g'risida" va boshqalarni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Tashkiliy chora-tadbirlar:

Davlat organlari tizimini takomillashtirish va ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yaratish;

Davlat boshqaruvini aholi soniga qarab belgilash va saqlash mexanizmini yaratish;

Davlat va kommunal xizmatda qonuniylik holati to'g'risida jamoatchilik fikrini majburiy davriy monitoring qilish tizimini yaratish;

Davlat mulki va resurslaridan foydalanishni tartibga solish huquqiy me'yorlarini belgilash;

O'zbekiston respublikasi davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslarining korrupsiya sabablarini bartaraf etish choralarini ko'rmaganliklari uchun

javobgarligini oshirish;

Mansabdor shaxslar va korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurashish bo'yicha uzoq muddatli maqsadli dasturlarni mintaqaviy darajada ishlab chiqish va amalga oshirish;

Davlat va boshqa toifadagi xodimlarning daromadlari va xarajatlari, ularning faoliyat turlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining davlat organlari bilan o'zaro hamkorligining maqbul tizimini, davlat xizmatchilari faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish imkoniyatini istisno qilish kabilardir.

Kadrlar bo'yicha choralar: davlat va kommunal xizmatni o'tash tartibini takomillashtirish;

Davlat lavozimlariga tayinlangan shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirishda kadrlar xizmatlari, nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi huquqiy hujjat qabul qilish;

Davlat apparati ishini va masalalarni hal etish tartiblarini takomillashtirish;

Mansabdor shaxslarning rasmiy faoliyatini aniq huquqiy tartibga solish;

Davlat apparatida kadrlarni tanlash va joylashtirishni takomillashtirish, shaxslarni davlat xizmatidan bo'shatish, mansabdor shaxslarning vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq axloqiy me'yorlarni buzish;

Davlat organlarining kadrlar xizmatlari tarkibida (harbiy xizmat va boshqa maxsus xizmat turlarini nazarda tutuvchi federal ijroiya organlari bundan mustasno) korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish bo'linmalarini yaratishdir, bunda:

a) manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha komissiyalar faoliyatini ta'minlash;

v) manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralarini ko'rish, shu jumladan davlat xizmatchisi davlat xizmatidan ketganidan keyin;

d) davlat xizmatchilarining o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan korrupsiya yoki boshqa huquqbuzarliklar to'g'risida xabar berish majburiyatining bajarilishini

ta'minlash, shuningdek bunday ma'lumotlar va daromadlar, mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish va davlat tomonidan taqdim etilgan mulkiy majburiyatlarni belgilash lozim.

Davlat xizmatchilari:

Korrupsiyaning namoyon bo'lishi holatlari bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlik;

Davlat va kommunal xizmatga bir vaqtning o'zida malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda davlat va kommunal xizmatchilar sonini qisqartirish;

Korrupsiyaga qarshi kurash dasturlarini amalga oshirish uchun ixtisoslashtirilgan ijro etuvchi organni yaratish lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar:

Xodimlar qadrlaydigan va ishini yo'qotishdan qo'rqib pora olishdan saqlaydigan ish o'rinlarini yaratish;

Davlat va shahar tashkilotlari, muassasalar va korxonalar xodimlarining ish haqi darajasini sezilarli darajada oshirish;

Ularni rasmiy, ijtimoiy uy-joy bilan ta'minlash;

Davlat xodimlarining ijtimoiy ta'minotini oshirish (ijtimoiy paket va nafaqat majburiy (yillik to'lanadigan ta'til, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari (kasallik ta'tillari), pensiya va boshqa jamg'armalarga ajratmalar, majburiy tibbiy sug'urta), raqobatbardosh (imtiyozli yoki bepul ovqatlanish, sport tadbirlari uchun to'lov, korporativ avtomobil, imtiyozli vaucherlar bilan ta'minlash, shuningdek, kompensasiya (mobil aloqa uchun to'lov, benzin uchun kompensasiya va shaxsiy avtomobildan foydalanishda amortizasiya, o'quv xarajatlarini to'liq qaytarish uchun qisman to'lov va boshqalar);

Tovar va moliya bozorlarida adolatli raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, tabiiy monopoliyalar infratuzilmasiga kirishda kamsituvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, kartel bitimlarini tashkil etish uchun javobgarlikni oshirish;

Davlat ehtiyojlari uchun xaridlarni amalga oshirishni tartibga soluvchi normalarni, ularni o'zboshimchalik bilan talqin qilish, kamsitish va asossiz imtiyozlar berish imkoniyatini istisno qilish uchun takomillashtirish;

Davlat yoki kommunal ehtiyojlar uchun tovarlarni etkazib berish, xizmatlar ko'rsatishga buyurtmalar berishda halollik, ochiqlik, halol raqobat va xolislikni ta'minlash;

Davlat mulkini begonalashtirishda qabul qilingan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi ustidan nazoratni, xarid qilish tartib-taomillarining shaffofligini, auksion va birja savdolari mexanizmidan ustun foydalanishni ta'minlash;

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasi subyektlarining davlat hokimiyati organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat vazifalarini bajarishini nazorat qilish mexanizmini batafsil bayon etish;

Mazkur funksiyalarning har biri bo'yicha ma'muriy reglamentlarni va ularning bajarilishi sifatini baholash tizimini joriy etish;

Soliq tizimini soddalashtirishdan iborat.

Moliyaviy chora-tadbirlar:

Buxgalteriya hisobi, audit va nazorat tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tijorat va bank sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlardan, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlardan kengroq va to'siqsiz foydalanishini ta'minlash;

Uy-joylarni sotish va sotib olish, garovga qo'yish, uni qurish va foydalanishga kredit berish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini subsidiyalash bilan bog'liq bo'lgan suiiste'mollar uchun ishonchli huquqiy to'siqlarni o'rnatish;

Iste'mol bozorini sifatsiz tovarlar kirib kelishidan himoya qilish;

Asossiz taqiq va cheklovlarni, ayniqsa, iqtisodiy faoliyat sohasida bartaraf etish;

Davlat va kommunal mulkdan, davlat resurslardan foydalanish (shu jumladan davlat va munitsipal yordam ko'rsatish) tartibini, shuningdek, bunday mulkdan foydalanish huquqini o'tkazish va uni begonalashtirish tartibini takomillashtirish.

Huquqiy ta'lim, o'qitish va tarbiyalash chora-tadbirlari:

Jamiyat va davlat boshqaruvida xususiy mulkka hurmat va ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish;

Ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimidan, fuqarolik jamiyatining barcha institutlaridan faol foydalanish;

Mamlakat fuqarolarining korrupsiya xavfi va bu bilan jamoatchilik bag'rikenglik darajasi va uning namoyon bo'lishining pasayishi;

Korrupsion xulq-atvor, jinoyat sodir etishga yordam beruvchi omillar va holatlar yuzasidan gazeta nashrlarini, jurnalistik tekshiruvlarni boshlash;

Korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etgan shaxslar ustidan o'tkazilayotgan sud jarayonlarini nashrlar sahifalarida keng yoritishni ta'minlash;

Huquqshunoslik yo'nalishidagi ta'lim dasturlari sifatini oshirish, shu jumladan, talabalarning amaliy tayyorgarligini oshirish;

Yuridik fanlar bo'yicha dasturlarni amalga oshiruvchi oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni qonunga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

Davlat oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi kasb-hunar ta'limi muassasalarida boshqaruv faoliyatining huquqiy va axloqiy jihatlarini o'rganishni ta'minlaydigan o'quv fanlarini o'qitishda korrupsiyaga qarshi komponentni kuchaytirish;

Yuridik kadrlar tayyorlaydigan oliy va o'rta kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalari ish sifati ustidan davlat nazoratini kuchaytirish;

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan faoliyatda turli jamoat, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlarning keng ishtirokini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

Mansabdor shaxslarning jinoiy tajovuzlaridan himoya qilish masalalari bo'yicha aholiga maslahatlar berish;

Korrupsiyaning turli ko'rinishlari va ularni hal qilish algoritmlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha maxsus adabiyotlarni nashr etish;

Fuqarolarni korrupsiyaga oid jinoyatlarga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatlar, ushbu sohadagi amaldagi qonunchilik, jinoiy va huquqiy taqiqlarni buzishning salbiy oqibatlari va boshqalar haqida xabardor

qilish.

Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha boshqa bir xil darajada muhim maxsus-kriminalistik chora-tadbirlar:

Mansabdorlik va korrupsiya jinoyatlarini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning davlat boshqaruvi tizimiga kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ma'lumotlar bankini yaratish;

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining huquqbuzarlik va korrupsiya jinoyatlarini sodir etish holatlarining oldini olish va ularga chek qo'yish bo'yicha faoliyat darajasini oshirish;

Barcha huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro hamkorligini takomillashtirish;

Ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo'yish bo'yicha ishlarda organlar ustidan ma'muriy nazoratni o'rnatish va amalga oshirish

Mansabdor shaxslarning og'ir korrupsiya jinoyatlarini sodir etganlik uchun sudlash va bu jarayonni ochiq ko'rsatish;

Umumiy sudlar va hakamlik sudlari qarorlarini Internet tarmog'idagi tegishli saytlarga joylashtirish va boshqalar.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonun doirasida amalga oshiriladigan ushbu faoliyat aholining turli qatlamlari ongida ijtimoy mas'uliyat va shaxsiy javobgarlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari

XX asrning oxirida korrupsiya yangi qiyofa va yangi munosabatlar tizimida yanada rivojlandi. Shu bois, 1997-yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida insoniyat xavfsizligiga tahdidlardan biri sifatida korrupsiyaga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida BTM homiyligida "Axloq kodeksi" (1996-yil), "Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklarasiya" (1997-yil), "Mintaqalararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi" (2000-yil) kabi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ratifikasiya qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha turli xalqaro shartnomalarda korrupsiyaning boshqa ta'riflari mavjud.

BMTning 2003-yilgi Konvensiyasi korrupsiyani milliy va xorijiy

davlat amaldorlari yoki xalqaro jamoat tashkilotlari mansabdor shaxslariga pora berish sifatida izohlaydi; davlat mansabdor shaxsi tomonidan mulkni o'g'irlash, o'zlashtirish yoki boshqacha tarzda suiiste'mol qilish; mansab mavqeini yoki ta'sirini shaxsiy manfaat uchun suiiste'mol qilish; mansabdor shaxsning noqonuniy boyishi; xususiy sektorda pora olish yoki o'zlashtirish; jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va nihoyat, odil sudlovga to'sqinlik qilishdan iborat.

2008-yil iyul oyida O'zbekiston BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi"ga qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 29-oktyabrdagi "Huquqiy norma va mexanizmlarni takomillashtirish va "Korrupsiyaga qarshi qurash to'g'risida"gi qonun loyihasini tayyorlash chora tadbirlari dasturi haqida"gi Farmoyishi e'lon qilingan. Korrupsiya dunyo miqyosida keng kamrovda rivojlanayotganligini hisobga olib, unga qarshi kurash vositalaridan biri sifatida ushbu muammoni ta'lim tizimida tizimli o'qitish bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosari va O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "2015-yilda korrupsiyaga qarshi kurash tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar kompleks rejasi"da belgilangan topshiriqlar (№12-19-7, 21.05.2015) hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yil 27-maydagi 186-sonli buyrug'iga asosan, ta'lim tizimida korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida ma'ruzalar o'qish tashkil etildi. Biroq, dunyo bo'yicha korrupsiya indeksini tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi Transparancy International xalqaro kompaniyasining 2021-yilgacha bo'lgan ma'lumotiga ko'ra, umumiy hisobda dunyo bo'yicha korrupsiya indeksi 43%ni tashkil qilgan. Yangi Zelandiyada, Daniya, Norvegiya, Finlandiya, Shvetsiya va korrupsiya holati 10-15% foizni tashkil etsa, Somali, Janubiy Sudan, Shimoliy Koreya, Suriya va Yaman davlatlarida (85-90%) eng baland korrupsiya indekslari aniqlangan. (O'zbekiston 2017-yilda 22 ball bilan 157 o'rinda (2021-yilda 28 ball bilan 140 o'ringa ko'tarilgan) Darhaqiqat, korrupsiya jinoyatchiligini bugungi kunda jahon ma'rifatli davlatlarining aksariyatida

mavjud bo'lgan jinoyatchilikning an'anaviy va ancha keng tarqalgan turi deb nomlash mumkin.

Korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri global tus olayotganligi tufayli 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun e'lon qilindi. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kompleks dasturni amalga oshirish yo'lidagi tizimli qadam bo'ldi. Mazkur Qonunning tahlili shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish davlat va jamiyatning turli va izchil chora-tadbirlarini maqsadli qo'llashdan iborat bo'lgan yagona korrupsiyaga qarshi siyosat asosidagina amalga oshirilishi mumkin.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar va shaxslarning o'z vakolatlari doirasidagi faoliyat ko'zda tutilgan, bunda asosiy e'tibor:

korrupsiyaga oid jinoyat omillarini, korrupsioner mansabdor shaxsning ijtimoiy xavfliligini aniqlash, cheklash yoki zararsizlantirish, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ayrim turlari va shakllarining paydo bo'lishi va tarqalishi omillarini bartaraf etish;

korrupsiyaga qarshi kurash, ya'ni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish, ularga chek qo'yish, fosh etish va tergov qilish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etishga qaratilgan.

Ushbu Qonun korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishni yanada samaraliroq qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilish va kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy boshqaruv sohasida korrupsiyaga qarshi kurash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

Inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish zamonaviy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

U huquq-tartibotni himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash va konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlash;

Qonuniylik, ya'ni profilaktika faoliyatida qonun hujjatlari talablariga

qat'iy rioya qilish;

Davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining oshkoraligi va ochiqligi, ya'ni yuqorida ko'rsatilgan organlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkoraligi va fuqarolarning erkin foydalanishini ta'minlash. O'zbekiston respublikasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini belgilashda o'z ifodasini topadi.

Ushbu tamoyilni amalga oshirish mavjud huquqiy sanksiyalar samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy yoki ma'muriy qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jazo yoki boshqa ta'sir choralari qo'llanilishi;

qonuniy javobgarlik va jazodan ozod qilish qonunda nazarda tutilgan asoslar va shartlar mavjud bo'lgan taqdirdagina mumkin;

siyosiy, tashkiliy, axborot-tashviqot, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, maxsus va boshqa chora-tadbirlardan kompleks foydalanish korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ustuvor yo'nalishlaridir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba

Korrupsiya terrorizm bilan bir qatorda azaldan asosiy xalqaro muammolardan biri bo'lib kelgan, chunki u muayyan davlatning siyosiy tuzilishi va iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida turli darajada namoyon bo'lgan.

Ushbu ijtimoiy salbiy hodisaning xavfliligini anglagan holda xalqaro hamjamiyat va ko'plab mamlakatlar hukumatlari korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Biroq, korrupsiyaning sabablari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichiga qarab har xil bo'lganligi sababli, korrupsiyaning oldini olishning universal vositalarini ishlab chiqishning imkoni yo'q, chunki bu jarayon har bir davlatning iqtisodiy, siyosiy ijtimoiy sharoitlari va eng muhimi milliy mentalitet bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi xalqaro kurashga turli mamlakatlarning huquqiy tizimlari o'rtasidagi jinoiy jazoga tortiladigan

korrupsiya jinoyati belgilarini talqin qilishdagi farqlar ham jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Ba'zi mamlakatlarda masalan, Tayvanda jinoiy javobgarlik faqat pora olganlik uchun nazarda tutilgan bo'lsa, boshqalarida (Chilida) vaziyat mutlaqo qarama-qarshidir: pora berish jinoiy huquqbuzarlik hisoblanadi va uni olish bunday deb hisoblanmaydi (agar mansabdor shaxs boshqa huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymagan bo'lsa).

Yuqoridagi farqlarga qaramay, ko'plab mamlakatlar qonunchilik islohotlarini korrupsiyaga qarshi kurashning eng oddiy, ammo eng samarali vositasi sifatida tanlaydilar - bu nafaqat korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini kuchaytiradi, balki davlat nazoratini soddalashtirish va qisqartirishdir. Bunda mansabni suiiste'mol qilish ehtimolini kamaytirish uchun tekshirishlar, soliqlarni kamaytirishga e'tibor qaratiladi. Masalan, bir qator xorijiy mamlakatlar, masalan AQSh, Fransiya, Niderlandiyada davlat boshqaruvi va davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olish va unga chek qo'yishga qaratilgan me'yorlar majmuasi ishlab chiqilgan.

Bu normalar shaxs huquq va erkinliklarini e'tirof etish va himoya qilishga, davlat xizmatchilarining o'z xizmat vazifalarini aniq bajarishiga asoslanadi.

Ayrim mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiya) mansabdor shaxslar uchun axloq kodeksi yoki sharaf kodekslari ishlab chiqilgan. Shu munosabat bilan, har yili korrupsiyani idrok etish indeksini aniqlash bo'yicha reytingdagi o'rniva ball sonidan kelib chiqib, turli shtatlarda davlat xizmatida korrupsiyaning oldini olish amaliyotiga oid bir qator misollarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu xalqaro Transparenc international xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.(talabalarga tashkilotnnig so'nggi reyting natijalari bo'yicha ma'lumot berilishi shart)

Korrupsiyaga qarshi kurashda salmoqli muvaffaqiyatlarga erishgan davlatlar alohida qiziqish uyg'otadi, chunki korrupsiyaga qarshi samarali kurash dasturlari ko'rinishida ijobiy xorijiy tajribani o'zlashtirish mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning haqiqiy mexanizmini yaratishga yordam beradi.

Korrupsiya bo'yicha eng "toza" mamlakatlar ushbu reytingning

birinchi o'nligiga kirdi - Yangi Zelandiya, Daniya, Singapur, Shvetsiya, Shvetsariya, Finlandiya, Niderlandiya, Avstraliya, Kanada, Islandiya.

Singapur tajribasi

Singapur (2009 - 9,2 180 mamlakat ichida 3-o'rin va (2021- 8.5 ball, 180 mamlakat ichida 5- o'rin)da korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi ixtisoslashtirilgan organ – siyosiy va funksional mustaqillikka ega bo'lgan, korrupsiya ishlarini tergov qilish byurosining mavjudligi buning dalilidir. Ushbu mustaqil organning vazifalari quyidagilardan iborat:

Shtatdagi korrupsiya holatlarini tekshirish va ularga chek qo'yish;

Singapur iqtisodiyotining mahalliy va xususiy sektorlari:

Davlat mansabdor shaxslari o'rtasida suiiste'mollik holatlarini tekshirish:

Taxalluslar va shunga o'xshash holatlar haqida tegishli organlarga xabar berish:

Intizomiy sohada zarur choralarni ko'rish:

Potensial korrupsiyaning ish usullarini o'rganish mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida davlat organlarining vakolatlari mamlakat yoki hududning CPI balli tadbirkorlar va mamlakat ekspertlari tomonidan davlat sektoridagi korrupsiya darajasini idrok etishini aks ettiradi va uni 10 (deyarli korrupsiya yo'q) dan 0 (korrupsiyani idrok etishning juda yuqori darajasi) shkalasi bo'yicha baholaydi.

Boshqaruv tizimidagi kamchiliklar. Bunday kamchiliklar korrupsiya va suiiste'mollikka olib kelishi mumkin bo'lgan taqdirda Byuro ushbu bo'limlar rahbarlariga tegishli choralar ko'rishni tavsiya qiladi.

Korrupsiyani tergov qilish byurosi rahbari lavozimini bevosita Bosh vazir oldida mas'ul bo'lgan direktor bajaradi. Shunday qilib, hech bir vazir tergovni to'xtatish yoki unga biron-bir tarzda ta'sir qilish uchun aralasha olmaydi.

Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Har ikki tarafga nisbatan ham chora ko'rish kerak: pora beruvchiga ham, oluvchiga ham;

Korrupsiya uchun nafaqat ma'muriy yoki jinoiy jazo, balki

jamoatchilik tanqidi yordamida ham jazolanishi kerak.

Jamoat vazifalari va shaxsiy manfaatlar o'rtasida aniq chegarani chizish muhim.

Qonun ustuvorligini mustahkamlash.

Kuch tuzilmalari tomonidan ish va qarorlar qabul qilishning aniq usullarini belgilash orqali korrupsiyani maksimal darajada istisno qilish lozim. Rahbarlar korrupsiyaga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan ma'naviy obro'-e'tiborini saqlab qolish uchun eng yuqori darajada benuqson xulq-atvorni namoyish etishlari kerak.

Mansabdor shaxslarni tayinlashda hal qiluvchi omil oilaviy aloqalar yoki siyosiy homiylik emas, balki shaxsiy va kasbiy xizmatlarining tan olinishi kafolatlarining mavjudligi.

Davlat xizmatchilari uchun munosib ish haqi, korrupsion xatti-harakatlarga rag'batni kamaytirish.

Korrupsiyaga qarshi samarali, halol organni tashkil etish va boshqarish va korrupsiya holatlari haqida xabar beruvchi xabarchilarni himoya qilishning usullarini ishlab chiqish.

Keraksiz ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish.

Masalan, hujjatlar uchun zarur bo'lgan imzolar sonini minimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mansabdor shaxslarning daromad manbalari to'g'risida majburiy nazorat ostida hisobot berishlari Singapurda har yili davlat amaldorlari o'z mol-mulki, mol-mulki va qarzlarini deklarasiyalash uchun maxsus blankalarni to'ldirishlari shart. Agar ular qo'shimcha pulni qayerdan olishlarini tushuntirib bera olmasalar, manba korrupsiya, deb taxmin qilish mumkin. Keyin tegishli tekshiruv o'tkaziladi.

Prokuror "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonunni buzganlikda gumon qilingan shaxslarning har qanday bank, aktsiya va hisob-kitob hisobvaraqlarini tekshirishga haqli.

Singapur hukumati tomonidan qoniqarsiz moliyaviy siyosatni nazorat qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar alohida qiziqish uyg'otadi: juda qat'iy qoidalarni joriy etish (masalan, saylovoldi tashviqoti xarajatlariga qat'iy cheklovlar, xayriyalarni faqat siyosiy partiyalarga berishga ruxsat berish, ayrim vazirlar yoki tashkilot a'zolariga emas, parlament) hukumat siyosatini o'zgartirish uchun sotib

olish ta'siriga yo'l qo'ymadi.

Bundan tashqari, 1973-yil iyul oyidan boshlab Singapur Moliya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha maxsus dasturni amalga oshirmoqda, u quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

Kechikishlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida fuqarolar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish tartiblarini takomillashtirish;

Yuqori mansabdor shaxslar tomonidan quyi mansabdor shaxslar ustidan nazoratning shaffofligini ta'minlash;

Barqaror korrupsion aloqalar shakllanishiga yo'l qo'ymaslik uchun mansabdor shaxslarning rotasiyasini joriy etish;

Kutilmagan tekshiruvlar o'tkazish;

Korrupsion maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim ma'lumotlar chiqishining oldini olish uchun maxfiylik rejimini ta'minlash;

Har 3-5 yilda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar kompleksini ko'rib chiqish tartibini joriy etish lozim.

Niderlandiya tajribasi

Niderlandiyadagi (2009) - 8,9 (180 mamlakat ichida 7-o'rin), (2021 yilda 82 ball, 180 mamlakat ichida 8-o'rin) ekspertlarning fikricha, korrupsiyaning oddiy korrupsiya (mansabdor shaxslar fuqarolardan pora olayotganda) kabi turi amalda istisno qilingan. Buning sababi, jamiyat ongida muhim vazifa – davlat siyosatini yuritish va aholiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida mansabdor shaxsning hurmatli qiyofasi tarbiyalanmoqda. Shuning uchun uning asosiy vazifasi muayyan shaxsga emas, balki davlatga sodiqlikni saqlashdir.

Bu mamlakatda korrupsiyaga qarshi butun kurash davlat va fuqarolik jamiyatining shaxsni korrupsion xatti-harakatlarga undash uchun ham rag'bat, ham imkoniyat yaratuvchi shart-sharoitlarni quyidagi chora-tadbirlar orqali minimallashtirish yoki bartaraf etishga intilishiga asoslanadi:

Korrupsiyani aniqlash va oqibatlarini, ya'ni korrupsiya xatti-harakatlari uchun jazolarni muhokama qilish bo'yicha doimiy hisobot va oshkoralikdir. Bu mamlakat ichki ishlar vaziri har yili parlamentga korrupsiyaning aniqlangan dalillari va korrupsiyaga aloqador shaxslarni

jazolash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida hisobot taqdim etadi. Korrupsiyaga yo'l qo'yish ehtimoli mavjud bo'lgan davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish, ushbu organlar xodimlari faoliyati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish.

Mansabdor shaxslarning mansab axloqini buzganlik, shu jumladan korrupsiya uchun javobgarligi ko'rsatilgan huquq va majburiyatlar tizimini yaratish. Ushbu tizim shuningdek, yo'l qo'yilgan qoida buzarliklarni bartaraf etish bo'yicha o'zini tutish qoidalarini ham o'z ichiga oladi. Korrupsiyaviy harakatlar uchun asosiy jazo davlat tashkilotlarida ishlashni taqiqlash va davlat xizmati tomonidan taqdim etiladigan barcha ijtimoiy nafaqalarni (masalan, pensiya va ijtimoiy xizmatlar) yo'qotishdir. Jazolar miqyosiga jarimalar va bojxona majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirish ham kiradi.

Barcha muhim tashkilotlarda, xususan, vazirliklarda mansabdor shaxslarning xatolarini, ular tomonidan mavjud qoidalarni qasddan yoki tasodifiy buzganliklarini va bunday huquqbuzarliklarning tegishli oqibatlarini ro'yxatga olish va aniqlash uchun ichki xavfsizlik xizmatlari mavjud. Davlat tashkilotlari mansabdor shaxslarning ijobiy harakatlarini rag'batlantirishga intiladi. Bunday rag'batlantirish tizimi mansabdor shaxsning o'zini halol tutishini moddiy va ma'naviy jihatdan foydali qilishga qaratilgan.

Korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo'lgan lavozimlarga shaxslarni tanlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaga oid barcha materiallar, agar ular milliy xavfsizlik tizimiga ta'sir qilmasa, majburiy ravishda jamoatchilikka taqdim etiladi. Har bir mansabdor shaxs uni ijobiy va salbiy tomondan tavsiflovchi ma'lumotlar bilan tanishish huquqiga ega. Xususan, korrupsiyaning siyosiy va ijtimoiy zarari va unda ishtirok etishning mumkin bo'lgan oqibatlarini tushuntiruvchi mansabdor shaxslarni tayyorlashning maxsus tizimi yaratilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashning davlat xavfsizligi tizimi yaratildi, u korrupsiya holatlarini aniqlash bo'yicha katta vakolatlarga ega. Barcha darajadagi mansabdor shaxslar o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiya holatlarini ro'yxatga olishlari shart; bunday ma'lumotlar tegishli kanallar orqali Ichki ishlar va Adliya vazirliklariga uzatiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi, bu korrupsiya holatlarini fosh qiladi va ko'pincha mustaqil tekshiruvlar olib boradi.

Amerika qo'shma shtatlari tajribasi

Qo'shma Shtatlar (2009-yilda - 7,5 ball, 180 mamlakat ichida 19-o'rin) va (2021-yilda 67 balla, 180 mamlakat ichida 27 -o'rin) davlat organlarini korrupsiyaning korrupsion ta'siridan himoya qilish zarurati AQSh hukumatini XIX-asrda korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirishga majbur qildi.

Shunday qilib, bu shtatda davlat amaldorlarining mehnat odob-axloq qoidalari va qonuniy cheklovlar asta-sekin shakllantirilgan, ular bugungi kunda barcha davlat amaldorlari uchun majburiydir. Hozirgi vaqtda davlat xizmatchilarining faoliyati ma'naviy-axloqiy me'yorlar va qonunchilik me'yorlarining butun majmuasi, jumladan 1990-yil 17-oktyabrdagi "Davlat mansabdor shaxslari va xizmatchilarining axloqiy xulq-atvori tamoyillari" va 1978-yildagi AQShning "Davlat mansabdor shaxslari axloqi to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, 1990-yilda Qo'shma Shtatlar Prezidenti 12731-sonli farmonni imzoladi, ilgari qabul qilingan hujjatlarni modernizatsiya qildi, uning yordamida AQSh ijroiya hokimiyatining barcha mansabdor shaxslari uchun majburiy bo'lgan axloqiy xulq-atvorning umumiy tamoyillari kuchga kirdi. O'z mohiyatiga ko'ra, bu tamoyillar yuqori mansabdor shaxslar uchun ham, oddiy davlat xizmatchilari uchun ham mutlaqo o'ziga xos huquqiy va ma'naviy-axloqiy talablardir. Farmonda: "Davlat xizmati o'z burchini vijdonan bajarishga to'sqinlik qiladigan har qanday shaxsiy yoki boshqa moliyaviy manfaatlar istisno qilinadigan faoliyat sohasi" deb qaralishi belgilangan. Davlat xizmatchilari "davlat maxfiy ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog'liq moliyaviy operasiyalarni amalga oshirmasliklari yoki bunday ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasliklari kerak".

Bundan tashqari, xodimlarga biron bir rasmiy harakatlarni amalga oshirish, ular bilan umumiy biznes qilish yoki ushbu organ tomonidan tartibga solinadigan faoliyatni amalga oshirishga intilayotgan har qanday shaxs yoki shaxslar guruhidan har qanday shaklda sovg'alarni

rag'batlantirish yoki sovg'alarni qabul qilish qat'iyan man etiladi. Shuningdek, manfaatlari ko'p jihatdan ushbu xodimlarning o'z xizmat vazifalarini bajarishi yoki bajarmasligiga bog'liq bo'lgan shaxslardan sovg'alarni qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Korrupsion xarakterdagi hatti-harakatlarning oldini olish uchun "Davlat mansabdor shaxslari va xodimlarining axloqiy xulq-atvori tamoyillari" xodimlarni "mulkni yo'q qilish, aldash, suiiste'mol qilish va korrupsiya holatlari bo'yicha kuzatilgan barcha holatlar to'g'risida tegishli organlarga xabar berish" majburiyatini yuklaydi.

An'anaga ko'ra, asosiy "mansab" maoshidan ortiq qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari cheklangan. Qo'shma Shtatlar Prezidenti tomonidan tayinlangan mansabdor shaxslar, odatda, "to'g'ridan-to'g'ri rasmiy vazifalar doirasidan tashqariga chiqadigan xizmatlar va faoliyatlar uchun butun xizmat muddati davomida hech qanday daromad" ololmaydilar.

Shuningdek, ijro hokimiyati organlari tizimiga kiruvchi har bir bo'limda boshqarma tarkibidagi mansabdor shaxslar tomonidan odob-axloq normalariga rioya etilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish hamda mazkur bo'lim bilan Bosh nazorat va boshqarma o'rtasida ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish uchun maxsus tayinlangan xodim mavjud.

Qo'shma Shtatlar va Hukumatda axloq bo'yicha byurosi bilan uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

Bo'limlarda o'z vakillarining harakatlarini muvofiqlashtirish;

Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan xulq-atvor normalari buzilishini kvalifikasiya qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilish;

Eng "nozik" vaziyatlarni ko'rib chiqish va jinoiy javobgarlikning ayrim holatlarida ariza berish bo'yicha qaror qabul qilish.

Shaxsiy boylik uchun mansab mavqeidan noqonuniy foydalanishning yashirin shakli tarqalishining oldini olish uchun qonunchilik va idoraviy qoidalar Amerika qonunchiligida "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi bilan belgilangan vaziyatlarni tartibga soladi (18-moddaning 203-209-bandi). Amerika Qo'shma Shtatlari Kodeksi) yuzaga kelishi mumkin:

Mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida;

Davlat organlaridagi xizmatini tugatgan shaxsning harakati

natijasida.

Ushbu hodisaning xavfliligi va uning tarqalishi mansabdor shaxslarning uni sodir etganlik uchun javobgarligini yetarlicha batafsil qonunchilikda o'rganish va AQSh Adliya vazirligida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan maxsus departamentga ega ekanligidan dalolat beradi.

"Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risidagi qonunchilik xususiy mulohazalar davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qarorlarga asossiz ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, hukumat bilan shug'ullanuvchilarga adolat va teng munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Qonunchilik sobiq davlat amaldorlarining davlat organlaridan ketganidan keyin tadbirkorlik faoliyatini cheklashni nazarda tutadi. Agar amaldagi mansabdor shaxs muayyan muammolarni hal etishda mansabdor shaxs sifatida "shaxsan va sezilarli darajada" qatnashgan bo'lsa, u iste'foga chiqqanidan keyin ijro hokimiyati organlari tomonidan kelajakda bir xil muammolarni hal qilish uchun kimningdir manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega emas.

Manfaatlar to'qnashuvi - xodimning shaxsiy manfaatlari uning xizmat vazifalarini obyektiv bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va bunday xodimning shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolarning qonuniy manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat; ushbu qonuniy manfaatlarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan tashkilotlar, jamiyat yoki davlat tik turadi va har qanday bo'lim oldidagi harakatlarga taalluqlidir. Sobiq yuqori martabali davlat xizmatchisi pensiyaga chiqqanidan keyin bir yil ichida o'zi ishlagan boshqarma oldida biron bir masala bo'yicha hech kimning manfaatlarini himoya qilishga haqli emas.

Amerikalik mansabdor shaxslarning moliyaviy deklarasiyalarini taqdim etish tartibi yuqorida muhokama qilingan huquqiy qoidaga va 1978-yildagi AQSh davlat amaldorlarining xulq-atvori etikasi to'g'risidagi qonunga qo'shimcha ravishda tartibga solinadi. Ushbu Qonunga muvofiq, Oq uy va boshqa ijroiya idoralarining barcha xodimlari o'z bo'limlari rahbarlariga ilova qilingan shaklda quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart:

Barcha korporasiyalar, kompaniyalar, firmalar va tadbirkorlikni tashkil etishning boshqa shakllari, foyda olish maqsadini ko'zlamagan

tashkilotlar, shuningdek, xodim bevosita yoki uning xotini, voyaga etmagan bolalari yoki boshqa a'zolari orqali bo'lgan ta'lim va boshqa muassasalarning nomlari ro'yxati, uning oilasi hozirgi paytda muhim ahamiyatga ega.

Bu "holda" mansabdor shaxsning qaysi layoqat bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, ushbu tashkilotlar bilan "har qanday doimiy moliyaviy manfaatdorlik va har qanday aloqasi" tushuniladi.

Mansabdor shaxs o'zining barcha shaxsiy kreditorlari, xotini, yosh bolalari va u bilan birga yashaydigan boshqa oila a'zolarining kreditorlari ro'yxatini taqdim etishi shart.

Yuqoridagi barcha shaxslarning ko'chmas mulk mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni berishi shart. Ushbu deklarasiyalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish har qanday davlat boshqaruvi yoki idorasida maxsus tayinlangan shaxslar yoki shaxslar guruhlari, zarurat bo'lganda qo'shimcha ma'lumotlarni so'rashi, mansabdor shaxslarni suhbatga chaqirishi va ichki ishlar olib borishi mumkin bo'lgan komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, unga nisbatan quyidagi ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin:

qisman yoki to'liq diskvalifikasiya;

martaba zinapoyasining pastki pog'onasiga o'tish;

"ziddiyatli" moliyaviy aloqalarni tugatish taklifi beriladi.

Deklarasiya qilinishi kerak bo'lgan narsalarga o'tgan yil uchun barcha moliyaviy xarajatlar va daromadlar kiradi, shu jumladan:

to'liq daromadlar, dividendlar, depozitlar bo'yicha foizlar, ko'char va ko'chmas mulkdan olingan daromadlar, yig'imlar;

nodavlat tashkilotlardan olingan moliyaviy va boshqa daromadlar;

transport va tegishli xarajatlarni to'lash;

har qanday shaxs va tashkilotlardan olingan sovg'alar, shu jumladan transport xarajatlari, ovqatlanish, mehmonxonada joylashtirish, restoranlarda ovqatlanish, turli ko'ngilochar tadbirlar uchun to'lov shaklida;

moliyaviy va boshqa majburiyatlar, ular bo'yicha qarzlar;

turli tashkilotlar bilan shartnomalar va kelishuvlar

ularda yoki ular uchun mumkin bo'lgan ish va boshqalar haqida.

Xorijiy fuqarolar, tashkilotlar va hukumatlardan sovg'alar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, senator yoki xodim chet el hukumati, tashkiloti, firma yoki xususiy shaxs vakilidan qiymati 50 dollardan ortiq bo'lgan sovg'a olsa, u holda sovg'ani olganligi to'g'risidagi tushuntirishning ikki nusxasini tayyorlab, ulardan birini Senatning maxsus etika qo'mitasiga, ikkinchisi esa sovg'a bilan birga Senat kotibiga yuborishi shart.

Lobbichilik talablarini kuchaytirish uchun 2007-yil oktyabr oyida "Yaxshilik va ochiq hukumat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi:

"Brend" ajratmalar (imtiyozli loyihalar bo'yicha xarajatlarni baholash mezonlari) bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish orqali kongressning shaffofligini oshirish;

"Sovutish" davrining bir yildan ikki yilgacha ko'payishi, ya'ni sobiq senatorlar lobbichilik bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan davr (Vakillar palatasi uchun bu muddat hali ham bir yil);

Kongress a'zolari va ularning xodimlariga faqat Partiyalar birdamligi asosida lobbichi firmalar tomonidan ishga qabul qilish qarorlariga ta'sir o'tkazishni taqiqlash;

Qonunchilardan lobbichilar tomonidan katta guruhlarga birlashtirilgan turli donorlarning saylovoldi tashviqotiga qo'shgan kichik hissalari to'g'risidagi ma'lumotlar haqida hisobot berishni talab qilish;

Kongress a'zolariga lobbichilardan sovg'alar va pullik sayohatlarni qabul qilishni taqiqlash va ulardan kongressmenlar va ularning xodimlariga sovg'alar bermaganliklarini va sayohatlari uchun pul to'lamaganliklarini tasdiqlashni talab qilish.

Lobbichilar tomonidan bunday tasdiqnomalar berilishi amaldagi "Axborot oshkor qilish to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlar paketiga kiritilgan.

Har chorakda ma'lumotlar, qo'shimcha ma'lumotlar (ayniqsa, siyosiy partiyalar ehtiyojlariga qo'shilgan hissalar to'g'risida) taqdim etilishini va Internet orqali aholiga o'z vaqtida kirishni ta'minlaydigan lobbichilik faoliyati to'g'risida.

Qo'shma Shtatlar nafaqat o'z mamlakatida mavjud bo'lgan korrupsiyaga nisbatan, balki xalqaro korrupsiya amaliyoti bilan bog'liq holda qonunchilik tashabbuslarini ko'tarayotgani katta qiziqish uyg'otadi. Shunday qilib, Amerika xorijiy amaldorlarga pora olishni taqiqlovchi

xorijiy korrupsiya amaliyoti to'g'risidagi qonunni (1977) qabul qilgan birinchi davlat bo'ldi.

Umuman olganda, AQShda korrupsiyaga qarshi kurash fuqaroning davlat vazifalarini aniq bajarish huquqini tan olishga asoslanadi. Unga qarshi kurashish manfaatlarini ko'zlab, uning oldini olishga qaratilgan ehtiyot choralari ham, tegishli taqiqlarni buzgan shaxslarga nisbatan jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatish choralari ham ishlab chiqildi. Davlat xizmati o'zining qat'iy belgilangan chegaralari bilan alohida faoliyat turi sifatida qaraladi va davlat va munitsipal xodimlar korpusi qat'iy nazorat qilinadigan axloqiy va intizomiy me'yorlarga bo'ysunishi shart.

Estoniya tajribasi

Estoniya [korrupsiyani aniqlash indeksida 2009 - 6,6 (180 mamlakat ichida 26-o'rin)] barcha postsovet respublikalari orasida korrupsiyani aniqlash reytingida Ispaniya, Isroil va Portugaliya kabi davlatlarni ortda qoldirib, eng yuqori reytingni egallagan.

Bu mamlakatda islohotlar, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash davlatga toj barqarorligini, iqtisodiy o'sishni, past foiz stavkalarini, nazorat ostida inflyasiyani va xorijiy investisiyalar oqimini ta'minlash imkonini beradigan aniq belgilangan byudjet siyosatidan boshlangan.

Estoniyada eng qulay davlat rejimini yaratish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun tegishli bojxona to'lovlari joriy etildi va 26% "tekis shkala" daromad solig'i joriy etilgan.

Bunday soliq tizimi ham xususiy, ham korporativ soliqqa tortish uchun yagona soliq stavkasidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sish darhol kuzatildi, chunki progressiv soliq stavkasiga asoslangan soliq tizimidan farqli o'laroq, "tekis" soliq odamlarni ishlash va ko'proq olish uchun "jazolamaydi".

Estoniya hukumati darajasida nazorat qilinadigan Internet-to'lov tizimini rivojlantirish dasturi turli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun to'lovni to'lashning muqobil usuli sifatida mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolardan pora undirish ehtimolini sezilarli darajada kamaytirishga imkon bergan, bu holda shaxsiy aloqalar zarurati amalda yo'q qilingan.

Bundan tashqari, davlat organlarining barcha faoliyati, mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish jarayoni ixtisoslashtirilgan elektron axborot tizimi – "Elektron hukumat" orqali

mamlakatning har bir fuqarosi uchun mavjud. Boshqacha aytganda, fuqarolar o'z murojaatlari bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonini istalgan vaqtda kuzatishi mumkin. Bunday onlayn nazorat tizimining vazifalari:

davlat apparati ishining shaffofligini ta'minlash;

mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning ishlarini asossiz kechiktirish yoki adolatsiz ko'rib chiqishga yo'l qo'ymaslik;

fuqarolarning korrupsiya sodir bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lgan hollarda muayyan ish bo'yicha ruxsatnoma yoki sanktsiya berish masalalari qanday hal etilishini nazorat qilish, huquqbuzarliklar aniqlanganda protest bildirish huquqini ta'minlashdan iborat.

Bundan tashqari, hokimiyat va jamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish va korrupsiyaning paydo bo'lishiga yordam beradigan munosabatlarni istisno qilish maqsadida mamlakat parlamenti fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilgan uning doirasida 2003-yilda parlament 1999-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunning ijrosini ta'minlash komissiyasini tuzgan. Aynan Parlament komissiyasi mamlakatning yuqori mansabdor shaxslari, jumladan, parlament a'zolari, mamlakat prezidenti, hukumat a'zolari, sudyalar va boshqalarning daromadlari to'g'risidagi deklarasiyalarini "saqlovchi" hisoblangan va ular tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini iqtisodiy manfaatlar deklarasiyasining mansabdor shaxslari tekshirgan. Komissiya korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunni qo'llash samaradorligi va natijalari to'g'risida parlamentni ham, jamoatchilikni ham xabardor qilgan, korrupsiyaga oid shubhalarni tekshirgan. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik belgilari aniqlanganda komissiya materiallarni tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi. Xususan, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va ularga chek qo'yish bilan shug'ullanuvchi tergovchilar va ichki ishlar xodimlaridan iborat maxsus ichki ishlar organlari.

Bundan tashqari, kechayu-kunduz ishlaydigan to'g'ridan-to'g'ri telefon liniyasi mavjud bo'lib, u orqali siz mansabdor shaxs tomonidan pora olish yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish faktlari haqida xabar berishingiz mumkin. Korrupsiya bo'yicha eng "toza" davlatlarni hisobga olsak, ularning barchasi demokratik va huquqiy davlatlar ekanligini aytish

mumkin. Albatta, demokratik tuzum korrupsiyani to'liq yo'q qilishni kafolatlamaydi, lekin shunga qaramay, diktatura va repressiya yordamida kurashishdan ko'ra ko'proq imkoniyatlar yaratadi.

Xitoy tajribasi

Xitoyda korrupsiya jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Xitoyda (korrupsiya indeksini aniqlash bo'yicha 2009-yilda - 3.6 ball (180 mamlakat ichida 79-o'rin)) korrupsiyaga uchragan amaldorlarning tez-tez va hatto milliy televidenie orqali namoyish etilishiga qaramay, Xitoy muvaffaqiyatli ishlaydigan korrupsiyaga qarshi tizimni yaratishda unchalik muvaffaqiyat qozona olmadi. Buning sababi shundaki, repressiv choralar samarali ko'rinsa-da, kerakli natijani bermagan. Albatta, korrupsionerlarning ma'lum bir foizi kamayadi (o'lim jazosi qo'rquvi tufayli), lekin umuman olganda, bu faqat ko'tarilgan xavf uchun to'lov pora miqdorining oshishiga olib kelgan.

Bunday chora-tadbirlar, qoida tariqasida, "byurokratik korporasiyalar"daa biri – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning keskin kuchayishiga olib keladi, ular kimni qatl etish va kimni afv etish to'g'risida qaror qabul qilish monopoliya huquqiga ega bo'lib, barcha oqibatlarga olib keladi.

Ekspertlar Xitoyning korrupsiyaga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatsizligini siyosiy tizim, kommunistik partiyaning ko'plab iqtisodiy xatolari va mamlakatning ming yillik imtiyozli byurokratiya an'anasi bilan bog'laydi.

Xitoyning "urush strategiyasi" nomi ostida korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi alohida e'tiborga molik.

Bu strategiya 1951-yilning dekabr oyida "uchga qarshi" (korrupsiyaga, byurokratiyaga, isrofgarchilikka qarshi) nomli dasturda o'z ifodasini topgan. Uni amalga oshirish doirasida faqat korrupsiyaga oid ishlarni ko'rib chiqadigan maxsus xalq sudlari tashkil etilgan va unga qarshi kurashish bo'yicha aniq choralar ko'rilgan: jinoiy jazo tahdidi ostida bo'lgan har bir layoqatli fuqaro o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiya holatlari haqida xabar berishi shart edi. Shu bois, 1965-yilda sarhisob qilingan strategiyaning natijalari bo'yicha ro'yxatga olingan korrupsiya holatlari soni 500 mingdan 180 mingga qisqargan.

Xitoyda korrupsiyaga qarshi kurash dasturining afzalliklari orasida

quyidagilarni ta'kidlash kerak:

Korrupsiyaga qarshi kurash muammosi shakllantirilib, kun tartibiga qo'yilmoqda, bu esa unga qarshi muvaffaqiyatli kurashning birinchi bosqichi sifatida e'tirof etilishi mumkin, chunki korrupsiya mavjudligining o'zi e'tirof etilgan;

Korrupsiya mavzusi ma'muriy yoki madaniy jihatdan tabu bo'lgan jamiyatlarda unga qarshi kurashish i mumkin emas.

Tez ko'rinadigan natijalar. Repressiv chora-tadbirlar tabiatan ommaviydir, chunki ularning ta'siri juda ko'p odamlarga ta'sir qiladi, oson o'lchanadi, siyosiy reklama maqsadlarida qo'llanilishi mumkin, tez ommaga etib boradi va uzoq vaqt xotirada qoladi.

"Urush strategiyasi"ning kamchiliklari ham jiddiyroq:

Bu korrupsiyaga qarshi dastur jazolash xususiyatiga ega bo'lib, davlat nazoratini kuchaytirishda ifodalanadi, bu esa, o'z navbatida, totalitar mamlakatlarda korrupsiyaning gullab-yashnashining sabablaridan biridir. Korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish obyekti bu ijtimoiy salbiy hodisaning o'zi emas, balki korrupsioner mansabdor shaxs hisoblanadi.

"Urush strategiyasini" qo'llash demokratiya tamoyillariga mutlaqo mos kelmaydigan shartlarga rioya qilishni talab qiladi, chunki uni amalga oshirish uchun ko'pincha tergov harakatlari davomida, shuningdek, hukm chiqarishda inson huquqlarini buzish kerak bo'ladi (masalan, insonning yashash huquqi).

Xitoyda korrupsiyaga qarshi kurashdagi navbatdagi muhim qadamni unga qarshi 1982-yilda Partiya Markaziy Qo'mitasi tomonidan boshlangan yangi kompaniya deb hisoblash mumkin.

Ushbu kompaniyaga soya korrupsiyasining keskin o'sishi to'sqinlik qilgan. Bu, birinchi navbatda, amaldorlarning korrupsiyaga qarshi kompaniya uchun "antitellar" ishlab chiqqani va barqaror koalisiyalar tuzgani, ular doirasida bir-birini "qoplagani" bilan bog'liq.

Davlat bunga qarshi nazorat qiluvchi organlarni qayta tashkil etish va jinoyat kodeksini to'ldiruvchi va korrupsion munosabatlarga kirishganlik uchun yanada qattiqroq jazolarni nazarda tutuvchi maxsus qonunlarni qabul qilish orqali qarshi chiqdi.

Biroq, bu kompaniyaning natijalari ancha samarasizroq. Buning asosiy izohi, rasmiylar nazorat qiluvchi organlarning tashrifini kutgan

holda, "hujum va mudofaa ittifoqlarini" tuzgan degan taxmindir.

Shunday qilib, masalan, xabar "yuqorida" mansabdor shaxslardan biri tomonidan yuborilgan korrupsion harakatlar haqida uning boshlig'i yoki uning korrupsion hamkasblari koalisiyasi tomonidan ushlangan.

O'z navbatida, 2007-yilda Intizomni tekshirish bo'yicha markaziy komissiya qarori bilan korrupsiyaga ixtiyoriy ravishda iqror bo'lgan mansabdor shaxslarga nisbatan "yumshoqlik" belgilangan. Natija bor-yo'g'i bir oy ichida 1790 kishi o'zini topshirib, davlatga 10,2 million dollar qaytardi. Yuqorida ta'kidlanganidek, korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri bu barcha davlat organlarida kadrlar almashinuvi hisoblanadi. Xitoyda ushbu profilaktika chorasi ilgari aksariyat hollarda viloyat va shahar partiya qo'mitalari kotiblari tomonidan boshqariladigan viloyat intizom komissiyalari rahbarlarini almashtirishda o'z aksini topdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda O'zbekistonning xalqaro hamkorligi

Jahon hamjamiyati uzoq vaqtdan beri keng tarqalgan ijtimoiy-huquqiy salbiy hodisa sifatida korrupsiyaga faqat davlatlar, ularning birlashmalari va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan muvaffaqiyatli kurashish mumkin. Bu korrupsiya va uning tarkibiga kiruvchi korrupsiya jinoyatlariga qarshi kurashda jinoiy siyosatning eng muhim qoidalaridan biridir.

Shunga qaramay, korrupsiyaning umume'tirof etilgan xalqaro tabiatiga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, unga qarshi kurashish vositalari asosan milliy bo'lib qolmoqda, chunki bu hodisaga qarshi kurashda davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish sust kechmoqda va xalqaro tashkilotlarda Milliy darajalar, real harakatlardan ko'ra ko'proq deklarasiyalar mavjud. Bundan tashqari, xalqaro tashabbuslarni amalga oshirish va korrupsiya uchun javobgarlik bo'yicha milliy qonunchilikni birlashtirish jarayonining o'zi ham, asosan, milliy darajada hukmron bo'lgan korrupsiyalashgan elitaning korrupsiyaga qarshi xalqaro sa'y-harakatlarga ko'rsatgan qarshiliklari tufayli qiyin.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik - bu davlatlarning o'z organlari, xalqaro hukumat va nodavlat tashkilotlari, transmilliy korporasiyalar va boshqa tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlar tizimi, shu jumladan kelishilgan

siyosat, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi va taktikasi; - xalqlar o'rtasidagi shartnomalar va bitimlarni ishlab chiqish, ularni davlatlarning ichki qonunchiligiga tatbiq etish, korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi bevosita kurashish bo'yicha tegishli sub'yektlarning huquqni muhofaza qilish, tashkiliy-huquqiy, axborot va ilmiy-tadqiqot faoliyatini xalqaro huquqiy hujjatlar asosida ularga muvofiq milliy qonunchilik qoidalari qabul qilingan. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik faol rivojlanmoqda, chunki O'zbekiston qonunchiligining xalqaro standartlarga yaqinlashishi, korrupsiyaga qarshi kurash kabi prinsipial muhim sohada xalqaro hujjatlar qoidalarining hayotga tatbiq etilishi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yorqin ifodasidir. O'zbekiston sivilizatsiyalashgan davlatlar hamjamiyatiga qo'shishga qaratilgan siyosatining asosiy yo'nalishi xorijiy davlatlar, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari va maxsus xizmatlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zarolik, hamkorlik va o'zaro hamkorlik tamoyili asosida hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muammolarni hal qilishda muhim hissa sifatida O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi vakillarining korrupsiyaga qarshi kurashning ko'plab davlatlari uchun umumiy muammolarni hal qilish yo'llari muhokama qilinadigan xalqaro forumlarda ishtirok etishi mumkin.

BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tashabbusi bilan 2006-yil dekabr oyida Amman shahrida (Iordaniya), shuningdek, 2007-yil aprel oyida Janubiy Afrika hukumati tomonidan tashkil etilgan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga a'zo davlatlar konferensiyasi Yoxannesburg shahrida Korrupsiyaga qarshi kurash va halollik global forumi o'tkazilgan.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashda hamkorlikni mustahkamlovchi quyidagi xalqaro hujjatlarni imzoladi:

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 9-dekabrda imzolangan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi 2005-yilda kuchga kirgan va 2016-yil 17-sentyabr Istanbul korrupsiyaga qarshi harakat rejasiga kirgan.

O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikning maqsadlari

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan (ayblanuvchi) shaxslarni, ularning joylashgan joyini, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda ishtirok etgan boshqa shaxslarning joylashgan joyini aniqlash;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish yoki ularni sodir etish vositasi bo'lib xizmat qilish natijasida olingan mol-mulkni aniqlash;

Tegishli hollarda tadqiqot yoki sud ekspertizasi uchun ashyolar yoki moddalar namunalarini taqdim etish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha axborot almashish;

Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish kabilardir.

O'zbekiston va Yevropa Kengashining Korrupsiyaga qarshi jinoyat huquqi bo'yicha konvensiyasini ratifikasiya qilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va xalqaro hamjamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari bo'yicha kelishuvlarni ishlab chiqish orqali hozirgi kunga qadar an'anaviy ravishda faqat "mahalliy ahamiyatga ega" masalalar sifatida ko'rib chiqilgan muhim masalalar bo'yicha yaqinroq ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik uchun eshiklarni ochayotganini ta'kidlaymiz. Bu o'z navbatida, ilg'or tajriba almashishni rag'batlantiradi, hamkorlik qilayotgan mamlakatlar o'rtasida ishonch va munosabatlarni mustahkamlaydi va pirovardida ikki va ko'p tomonlama faoliyat hamda rivojlanishga ko'maklashish dasturlari samaradorligini oshiradi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolarning o'zlari ishtirok etishi, ularning huquqiy bilimini oshirish va korrupsiyaga qarshi xulq-atvor ko'nikmalarini egallashiga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekistonda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar turlari:

fuqarolik huquqbuzarligi;

intizomiy huquqbuzarlik;

ma'muriy huquqbuzarlik;

jinoyat.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarning umumlashtirilgan jinoiy-huquqiy

jihatlari nafaqat tahlil qilinayotgan jinoyat turlarining mohiyatini oydinlashtirishga yordam berishi mumkin, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur"[1] deb ta'kidlaydi. Demak, kelgusida O'zbekiston xalqining siyosiy hushyorligi ta'minlanadi va siyosiy mentalitet yangi bosqichga ko'tariladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi vaqtda O'zbekistonda sodir etilgan korrupsiya jinoyatlarining sababiy kompleksiga profilaktik ta'sir qilish mexanizmi juda ko'p nomukammal bo'lsa-da, shunga qaramay, bu borada allaqachon ma'lum muvaffaqiyatli qadamlar qo'yilgan. Umid qilamizki, yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatga ma'lum darajada yordam beradi.

Tajribaviy amaliy matnlar

Korrupsiya, sabablar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, oq korrupsiya, qora korrupsiya, kulrang korrupsiya, J.Senturiya korrupsiya haqidaKorrupsiya indeksi, daromat, sanksiya, soliq, profilaktika, xalqaro tajriba,

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1.Korrupsiya nima va u qachon paydo bo'lgan?

2.Korrupsiyaga oid ilmiy, diniy, xuquqiy munosabatlarni tasniflang

3. Biz korrupsiyasiz jamiyatni quramiz mavzusida videorolik tayyorlang

4. Jahon va O'zbekistonda korrupsiya holati va uning ma'naviy inqiroz sifatidagi o'rni (esse tayyorlang)

5.J. Senturiya korrupsiya haqida (esse tayyorlang)


6.Korrupsiyaga qarshi xalqaro tajribani o'rganing va ularning yutuq va kamchiliklarini aniqlang


7. O'zbekistonda korrupsiyani bartaraf etish uchun qanday mexanizm amal qilmoqda?

[1] Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.10.

8. Jahon korrupsiya indeksini aniqlash bo'yicha xalqaro tashkilotning keyingi besh yillik natijalarini qiyosiy tahlil qiling va uning ba'zi mamlakatlardagi o'sish va kamayish sabablariga baho bering.

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar





Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. ..... korrupsiyaning boshqa bir ko'rinishi urug'-aymoqchilik va mahalliychilik

A. Yumshoq
B. Qattiq
V. Og'ir
G. Hammasi noto'g'ri

2. Qaysi korrupsiya jamoatchilik o'rtasida aniq bir munosabat hali shakllanmagan korrupsion harakatlarni qamrab oladi?

A. Yumshoq
B. Qattiq
V. Og'ir
G. Kulrang

3. Qaysi korrupsiya jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qoralanadi?

A. Yumshoq
B. Qattiq
V. Qora
G. Kulrang

4. Korrupsiya nechta shakllari farqlanadi?

A. 3
B. 4
V. 2
G. 5

5. .....korrupsiya eng xavfli ko'rinishlari: davlat qarorlari, strategiyalari, harakatlarining maqsadlari va vositalarini tanlashda amaldorlar o'zboshimchaligining qonuniylashtirilishi?

A. G'oyaviy
B. Qattiq
V. Qora
G. Kulrang

6. .....korrupsiya muayyan maqsadlarda davlatlararo va shaxslararo nizolarni, davlat boshqaruvi darajasida hokimiyat qarorlarini qabul qilishni monopoliyalashtirishni ko'zda tutadi ?

A. Yumshoq
B. G'oyaviy

V. Qora
G. Kulrang

7. .....korrupsiyaning byurokratik va siyosiy, majburiy va kelishilgan, markazlashtirilgan va markazlashtirishdan chiqarilgan korrupsiya kabi turlari farqlanadi ?

A. Ciyosiy
B. G'oyaviy
V. Qora
G. Kulrang

8. Korrupsiyaning bu turi ikki subyekt – lavozimga tayinlash huquqiga yoki saylov natijalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs va mazkur lavozimni egallashdan manfaatdor shaxsning o'zaro aloqasiga asoslanadi?

A. Ciyosiy
B. G'oyaviy
V. Qora
G. Kulrang

9. Korrupsiya darajasi ayniqsa past bo'lgan mamlakatlarda amaldorlar maoshi ishlab chiqarish sektoridagidan qancha baravar ko'p?

A. 3-5
B. 3-7
V. 4-8
G. 2-3

10. .... tijorat sohasidagi poraxo'rlikni va siyosiy korrupsiyani farqlagan

A. J.Koleman
B. I.Kant
V. I.Fixte
G. I.Antanov

11. Korrupsiyaga oid jinoyatlarning yo'nalishlarini necha guruhga bo'lish mumkin

A. 2
B. 3
V. 4
G. 6

12. 2016-yil 17-sentyabr qaysi shahar korrupsiyaga qarshi harakat rejasiga kirgan?

A. Stanbul
B. Parij
V. London
G. Pekin

13. Niderlandiya 2021-yilda 180 mamlakat ichida karrupsiyaga qarshi kurashda qancha ball to'plagan ?

A. 82
B. 34
V. 92
G. 57

14. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tashabbusi bilan 2006-yil dekabr oyida qaysi shaharda Korrupsiyaga qarshi kurash va halollik global forumi bo'lgan?

A. Stanbul
B. Parij
V. Amman
G. Pekin

15. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tashabbusi bilan 2006-yil dekabr oyida qaysi davlatda Korrupsiyaga qarshi kurash va halollik global forumi bo'lgan?

A. Iordaniya
B.Xitoy
V. Fransiya
G.Yaponiya

ADABIYOTLAR

1. Макиавелли Государь. –М.: 2020
2. Добренков В.И., Исправникова Н.Р. Коррупция. Современный подход к исследованию. –М.: Академический проект, 2009 йил.
3.Инсаков С.М. Зарубежная криминология. – М.: Единство, 2003 .
4. Абелсев С.Н Личность преступления и проблемы преступного насилия. –М.: Единство, 2000.
5. Аванесов Г. А. Криминология и социальная профилактика. –М.: Академия, 1980 yil.
6. Антонян Я.М. Криминология: избранные лекции. –М.: Логотип, 2004.
7. Антонян Я.М., Еникеев., Еминов В.Е психология преступника и допрос преступников. –М.: Юрист, 1996.
8. Шермухамедова Н. А. Коррупциянинг шакалари ва сабаблари// Фалсафа ва хаёт 2021 № 4

FALSAFIY ATAMALAR (GLOSSARIY)

Agnostisizm – inson obyektiv borliqni to'liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Antissientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati.

Antroposentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko'rilgunga qadar, tajribadan qat'iy nazar, paydo bo'lgan obraz, g'oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Bashorat – kelajak haqidagi, ya'ni hali amalda mavjud bo'lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi obyektiv va subyektiv omillar ko'rinishida hozirgi zamonda potensial mavjud bo'lgan hodisa va jarayonlar haqidagi bilim.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o'zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada tarix, madaniyatni, o'zga individuallikni tushunish san'ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Globallashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usul, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo'l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegrasiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi, uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqea va hodisalarning qonuniyligi hamda sababiy bog'langanligi haqidagi falsafiy ta'limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o'zgarish haqidagi falsafiy ta'limot.

Diskret – uzlukli.

Differensiasiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo'linishi, parchalanishi, ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Ierarxiya – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra ikkinchi, uchinchi narsa va hokazolarga bo'ysunishi.

Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutish.

Izotrop – barcha yo'nalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi ta'limot.

Integrasiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – o'ziga, o'z ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.

Imitasiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo'lib, bunda axborot o'ta muhim resursga aylanadi.

Irrasionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

Kommunikasiya (keng ma'noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

Konstitutsiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

Koevolyutsiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreasionizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

Materializm – dunyoning moddiyligi va ongdan qat'iy nazar, mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish.

"Mahalliy muammolar" tushunchasi yuqori darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning

o'ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

Metodologiya – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi.

Mistika – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiylashtirish – ma'no strukturalari, sxema, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid o'laroq, muayyan asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Nano yunoncha "nanos" so'zidan olingan, mitti degan ma'noni bildiradi.

Nanotexnologiya- mitti texnologiya, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlar.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada yo'li bilan anglash mumkin bo'lgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlargina bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

Oppozisiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Persepsiya – idrok etish.

Prognoz qilish – maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni

Rasionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyat va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.

Simvol – biror g'oyani ifodalovchi belgi, timsol.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

Skeptisizm – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy biluvchi falsafiy konsepsiya.

Stereotip – ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror, soddalashtirilgan obrazi.

Substansiya – birinchi asos, barcha narsa va hodisalarning mohiyati.

Sientizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy ta'limotlar tizimi.

Teosentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai omili deb biluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transsendental – o'ta umumiy.

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, aholi yashaydigan punktlar yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir

Fauna – barcha turdagi hayvonlar dunyosi.

Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida subyektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

Flora – o'simliklar dunyosi.

Fluktuasiya – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilma va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq jarayon. Bu jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

Evalyutsion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyutsiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

Evristik – ijodiy, noma'lum narsa va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistensializm – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikasiya – muayyan predmet (yoki madaniyat obyekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekspertiza usulida baholash - ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi yetakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish, so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat

Ekopessimizm - asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni hal etish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holat.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Ekstrapolyasiya metodlari - qonuniyatlari o'tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendensiyalarni kelajakka tatbiq etishga asoslanadi.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Empirik – tajribada ko'rilgan.

Etimologiya – muayyan so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

Etnogenez – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish – o'zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

Qidiruv prognozi – ijtimoiy obyektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz.

Falsafaga kirish fani bo'yicha mashqlar

Qadimgi germetik falsafa

Eng qadimgi miflarda odamlar dunyoning ma'nosini nimalar bilan bog'laganligini tushuntirib bering


Qadimi inklar, vikinglar, mayya qabilalari miflarini o'rganish asosida ularning hozirgi kundagi ahamiyati haqida ess tayyorlang

Falsafaning predmeti, mazmun va mohiyati, jamiyatdagi roli


1. Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy yoki empirik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining qismlarga ajralmagan, tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti va faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori va aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi. Siz bu qoidaning amal qilish bosqichlarini sxemada ifodalay olasizmi?

2. Dunyoqarashning tuzilishi *dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish* kabi eng muhim elementlardan iborat. Ularning namoyon bo'lish jarayonini tushuntirib bering

3. Falsafa va dunyoqarash mutanosibligi qaysi va varia variantda aniq ifodalangan?




4. Sizning o'z dunyoqarashingizda ziddiyatlar bo'ladimi?. Agar bo'lsa, u qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?.




5. Tarixiy tajriba falsafaning rivojlanish jarayonida abadiy muammolarning qo'yilishi o'zgarib turadi, ularni tushunish esa chuqurlashadi va ko'p hollarda muqobil ko'ringan haqiqatlar bir-birin to'ldiradi, rivojlantiradi.Bu nima bilan bog'liq. Falsafa bilan fanning o'zaro munosabatini quyidagi chizma asosida izohlang?

6. Falsafa fandan farqli o'laroq bir tomondan voqelik haqidagi mulohazalarini keng qamrovli material asosida quradi. Ikkinchi tomondan esa bu material falsafani voqelikka insonning muayyan davr nuqtai nazaridan munosabatini aniqlashga majbur qiladi. Quyidagi chizmada shu munosabatni aniqlang.



7. Falsafiy tafakkur har qanday dogmalardan xoli bo'lmog'i lozim. u barcha narsalarni, hattoki eng g'ayrioddiy hodisalarni ham tanqidiy tafakkur elagidan o'tkazadi. O'z navbatida har qanday din o'zida har qanday shubha yoki ikkilanish gunoh degan dogmaga asoslanadi. Bu dindorning falsafiy tafakkur olamiga kirganida dindan voz kechishini anglatadimi? Agar faylasuf avval boshdan dinga ishonsa va o'z e'tiqodidan shubhalanmasa, bu uning falsafiy tafakkur erkinligini chegaralaydimi?

Chizmani izohlang:



8. Falsafaning axloqiy funksiyasi va tarbiyaviy funksiyasi mavjud. Bu funksiyalarning ijtimoiy hayotda amal qilish qonuniyati nimalarda namoyon bo'ladi?

9. Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati qanday? Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo'qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Siz falsafiy bilim inson bilimining zaruriy komponenti deb hisoblaysizmi? nega?

10. Nima uchun falsafa tarixida fikrlar rang-barangligi me'yor hisoblanadi?

11. Hozirgi dunyoda falsafa qanday vazifalarni hal qilmoqda?

12. Mifologiya elementlari hozir ham odamlar ongida muhim rol o'ynaydi. Masalan uchar likobchalarda bahaybat o'zga sayyoraliklar, qor odam haqidagi hikoyalar, suv parilari, telekinez, telepatiya, ekstrasenslar shular jumlasiga kiradi. Bular qadimgi miflardan farq qiladimi?

Falsafa madaniyatlar tizimida

1. Mona Liza asarining badiiy estetik va falsafiy jihatini yoritib bering

2. O'zbekistonning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy ijtimoiy rivojlantirish harakat strategiyasining madaniyat tizimidagi roli va ahamiyatini aossolovchi esse tayyorlang

Fan kategoriyalari, xususiy ilmiy kategoriyalar va falsafa kategoriyalarining amal qilish doiralarini izohlang.

Jamiyat haqidagi asosiy paradigmalar

1. Siz o'zingiz yashayotgan jamiyatda shakllangan tartib qoidalarga itoat etasizmi?

2. Sizningcha hozirgi davrda jamiyatda yashayotgan xalqning manaviy madaniyati o'sdimi?, uni o'zgartirish kerakmi yoki shu holicha bo'lgani yaxshimi?

3. Texnogen sivilizatsiyaning oqibati insonni qaysi ma'naviy omilga yetaklashi mumkin, sizningcha zamonamiz odami XX asrdagi jahon urushi voqeligini qayta boshidan kechirishi lozim bo'lsa jasorat va vatanparvarlik ustivor bo'ladimi yoki razolat va sotqinlik?

4. Har doim ham oliy ma'lumotli kishini ma'naviyatli inson deyish mumkinmi?

Tarix falsafasi

1. I.A.Karimovning tarix falsafasiga oid asarlarini bilasizmi?
2. Sizningcha qaysi olim tarix falsafasining yetarli nazariy asoslarini ko'rsatib bergan?
3. Narzulla Jo'raevning tarix falsafasi haqidagi qarashlarini yana qaysi mezonlar bilan to'ldirish mumkin?
4. Tarix falsafasining funksiyalarini hayotiy misollar bilan asoslang
5. Xotira tarixni bilishda qaynday funksiyani bajaradi?


Faoliyat falsafasi (prakseologiya)

1. Siz har kuni umrning insonga berilgan buyuk ne'mat ekanligini his qilasizmi? Agar dunyoga qayta kelish imkoni bo'lsa hayotingizni

qanday boshlagan bo'lar edingiz?


2. Siz o'zingiz yashayotgan jamiyat qoidalarini qabul qilib, ularga ongli itoat etib yashayapsizmi yoki harakatlaringizga stixiyalilik xosmi? Agar sizning ixtiyoringizda bo'lsa siz nimani kiritgan va nimani qoldirgan bo'lar edingiz?

3. Inson o'ziga xos harakati, xulq atvori, faolligi bilan hayvondan farq qiladi va bu faoliyat deb ataladi. Quyidagi chizma asosida inson faoliyatining shakllanish bosqichlarini ko'rsating



4. Fundamental tadqiqotlar obyektiv voqelik hodisa va qonunlari haqida yangi bilim yaratishga yo'naltirilgan. Ular tadqiqot natijalarini bevosita amaliyotga tadbiq qilishni ko'zlamaydilar. Amaliy tadqiqotlarning maqsadi, ilmiy izlanish natijalarini amaliyotga tadbiq etish bilan bog'liq. Bunda muayyan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar hal qilinishi lozim. Fundamental va amaliy tadqiqotning amaldagi ifodasiga misol keltiring.

5.Quyida shaxsning u yoki bu harakatni amalga oshirish mexanizmi ko'rsatilgan. Uni hayotingizdagi sa'y-harakatlar asosida isbotlang



6. Siz o'zingizning qadringizni bilasizmi, u nimada namoyon bo'ladi?

7. Suhbatdoshingiz, qarindoshingiz muomalasida qadrsizlanayotganingizni sezganmisiz?, bu qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?

8. O'zingiz hurmat qiladigan odamlarni qanday qadrlaysiz?

9. Qadrlanish va qadrsizlanishning mezonlari bormi?

Falsafiy antropologiya (Inson haqidagi ta'limot)

1. 70 kg og'irlikka ega bo'lgan insonda 44 kg kislorod, 14 kg uglerod, 7 kg vodorod, 2 kg azot elementlari mavjud. Unda shuningdek 1000 gr kalsiy, 700 gr fosfor, 170 gr kaliy, 140 gr simob, 70 gramdan natriy va xlor, 30 gr magniy, 3 gr temir, 1grdan mis marganes, yod va boshqa kimyoviy elementlar mavjud. Inson deyarli gazdan tashkil topganligi uchun uni dunyo emas, balki osmon farzandi desa ham bo'ladi. Insonning 212 ta suyagi 10,5 kg, terisi 5 kg, muskullari 23kg, yog'i 10 kg, miya(bosh miya va orqa miya) va nerv to'qimalari 2 kg, qon va limfalari 2,5 kgni tashkil qiladi. Insonnnig barcha to'qimalari 65% suv bilan to'lgan., uning 80% terida, 77% bosh miyada, hattoki suyaklarning yarmi ham suvdan iborat. (Shuning uchun insonni suv farzandi ham deyish mumkin). Inson organizmidan katta miqdordagi moddalar o'tadi, oshqozon va ichak to'qimalari bir necha kun davomida yanginadi, labning epidermisi yarim oyda, quloq terisi ikki oyda almashadi. 5-7 yilda esa inson tanasini tashkil qiluvchi atomlar to'liq yangilanadi. Insonning tanasi fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlar bilan belgilanadigan tabiat qonunlariga bo'ysunadi. Insonning ruhichi?, u nimadan tashkil topgan. Ruh tabiiy hodisami yoki psixik?

2. Ekstrasenslar faoliyatida namoyon bo'layotgan mo'jizalarning (telepatiya, telekinez, har xil davolash usullari) psixofizik muammolarga qanday aloqasi bor? Ba'zida ekstrasensor holatlarni psixik energiya, biomaydon bilan bog'laydilar. Bu urinishlar ilgaridan ma'lum bo'lgan psixofizik muammollarining yechimiga qo'shimcha yangilik bo'la oladimi?

3. Bir guruh biologlarni doimo biror ayoni orangutanning jinsiy hujayralari bilan urchitilsa qanday mavjudod paydo bo'lishi mumkinligi haqidagi masala qiziqtirib kelgan. Ba'zi biologlar bunday eksperiment


o'tkazish mumkin emas deb hisoblaydilar. Shuningdek inson bosh miya hujayralariga elektromagnit tebranishlar ta'siri orqali, uning ma'naviy dunyosiga kirish, ichki hech kimga noma'lum bo'lgan tuyg'ularini aniqlashga qiziqish ko'paymoqda; hozirgi davr neyrofiziologiyasi buni amalga oshirish imkoniyatini topishi mumkin. Siz bu ehtimolda bo'lishi kutilayotgan eksperimentlarni axloq va gumanizm g'oyalariga mos keladi deb hisolaysizmi? Bunday eksperimentlarni o'tkazishni ta'qiqlash yoki ularni cheklash lozim deb hisoblaysizmi?

4. Agar odamzot oltin tanga ichidagi oltin atomda yashagan bo'lsa, ular uzoq vaqt butun dunyo oltindan tashkil topgan deb o'ylagan bo'lar edi, agar inson qon tarkibida suzuvchi leykosit bo'lganida dunyo unga qondan iborat bo'lib tuyular edi. Mikrodunyoda yashar ekan inson ehtimol elementar zarrachalarni osonlikcha o'rgangan bo'lar edi, biroq kosmik hodisalarni bilish u uchun nihoyatda murakkab bo'lishi mumkin edi. Siz insonni boshqa qandaydir qiyofada tasavvur eta olasizmi? Real inson qiyofasida surat muhimmi yoki siyrat?

5. Tarix va hatto kundalik turmushimizda ba'zi odamlarning eng oddiy axloq normalariga rioya qilmayotganligini kuzatishimiz mumkin. Insonda gumanizmning namoyon bo'lishi uchun qanday omillar muhim. U har qanday vaziyatda yaxshilik qila oladimi? yaxshilikning aniq mezoni, o'lchovi bormi?

6. Ma'naviyatning shakllanishi uzoq tarixiy davrni qamrab oladi. Insoniyat doimo boylik ketidan quvgan, unga erishish uchun makkorlik, kazzoblik, munofiqlikdan qaytmagan. Bugungi kunda ma'naviyat masalasi kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Bizning davrimizda ma'naviy tushkunlik ma'naviy regressni, insoniyatning qarigani o'layotganligidan dalolat beradimi yoki aksincha bugungi kunda ma'naviy yuksalish kuchaymoqdami, har ikki masalaga munosabatingizni asoslang. Agar regress holati bo'lsa, uni bartaraf qilish nimaga amal qilish lozim?

7. Quyidagi qobiliyat shakllanishining mexanizmini hayotiy misollar bilan tushuntiring.



Ijtimoiy prognozlashtirish muammosi

1. O'zingizning 10-15 yildan keyingi hayotingizni bashorat qilishga urinib ko'ring. O'z bashoratingizni yozib qo'yib, vaqti kelganda shaxsiy intuisiyangiz kuchini sinab qo'rishingiz mumkin.

2. Bizga ma'lumki, hozirgi davrning rivojlanayotgan mamlakatlari mo'tadil iqlim hududida joylashgan, qoloq mamlakatlar esa aksariyat hollarda tropik mintaqalarda joylashgan. Buni tasodifiy hol deyish mumkinmi? Yevropa faqat iqlimi uchun rivojlanish darajasiga ko'ra boshqa barcha davlatlardan o'zib ketdi deya olamizmi?

3. Baholashning funksiyalari ham uning ichki ziddiyatlarga to'la tabiati bilan belgilanadi. Hozirgi zamon qadriyatlar nazariyasida baholashning *funksiyalarini* farqlang va ularni aniq misollar bilan izohlang

Globallashuvning falsafiy muammolari

1. Sizningcha, fan taraqqiyoti global xalokatning oldini olishi mumkinmi?

2. Antiglobalistlar faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

3. Axborot inqilobi natijasida rivojlangan nanotexnologiyalarni maishiy xizmat ko'rsatish sohasida qo'llash mumkinmi?

4. Globallashuvning oqibatini prognozlashtiring. Inson o'z mavjudligini saqlay oladimi?

5. Globallik mezonlarining qaysi jihatlari voqelik bilan mutanosib

6. Siz texnooptimizm tarafdorimi yoki texnopessimizm tarafdori?

7. Siz sog'ligingizni asrash uchun maqsadli faoliyat yuritasizmi?

8. Savodsizlikning yana qanday turlari mavjud va uni bartaraf qilish mumkinmi?

9. Tasavvur qiling, siz juda katta daromadga ega bo'ldingiz va sizdan daromadning teng yarmini muayyan maqsadga, ya'ni yangi maktab qurishga yoki kitob yaratishga sarflash uchun homiy bo'lishni iltimos qilishdi. Siz shaxsiy daromatingizdan naqd pul hisobida boshqalar o'qiydigan maktabga sarmoya bera olasizmi?

Global ong deganda nimani tushunasiz?

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
	I-bo'lim. Falsafa dunyoni anglash usuli	5
1	**Qadimgi sivilizatsiyada germetik falsafaning paydo bo'lishi** Falsafiy bilimning eng qadimgi nazariy jihatlari Germes Xudosiga qadimgi Misr, Ellin va Rimdagi munosabat Germesning funksiyalari Yashirin donishmandlikning konseptual tahlili Germetik falsafa mazmuni va uning tarkibiy elementlari Germetik aksiomalar	5-36
2	**Mifologik ongning o'ziga xos xususiyatlari** Mifologiya - eng qadimgi ma'naviy madaniyat shakli Kosmogonik miflarning turlari Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati Qadimgi miflar tasnifi Mif haqida qarashlar tasnifi Miflarning funksiyalarni Mifologiya, teogoniya va naturfalsafa mutanosibligi Sofistlar va sofistika Sofistlar faoliyatining davrlari Falsafa paydo bo'lishining mifologen, gnoseogen va gnoseomifologik konsepsiyalari	37-73
3	**Dunyoqarashning mohiyati va uning asosiy shakllari** Dunyoqarashning mohiyati Dunyoqarashning tarixiy shakllari Mifologik dunyoqarash Diniy dunyoqarash Falsafiy dunyoqarash Ilmiy dunyoqarash	74-107
4	**Falsafa: uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli** Falsafa tushunchasining kelib chiqishi Falsafaning mazmuni va bosh vazifasi haqidagi qarashlar Falsafaning predmeti Falsafaning yangi sohalari Falsafaning asosiy masalalari Falsafaning asosiy funksiyalari Falsafani siyosiylashtirish va sxemalashtirishning oqibatlari Falsafada shubhaning roli Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati yoki amaliy falsafa Falsafaning ijodiy xarakteri	108-142

5	**Falsafa madaniyatlar tizimida** Fanning mohiyati Fan - dunyoqarash shakli Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari Fan va falsafaning mutanosibligi Falsafa va fanning umumiy jihatlari Falsafaning fandan farqi Hozirgi dunyoda falsafaning ahamiyati Falsafa va san'at San'atning funksiyalari Falsafa va din mutanosibligi va farqi Falsafa – madaniyatning alohida shakli Falsafa obrazi Falsafa oliy donishmandlik sifatida Falsafa mafkura sifatida	143-186
6	**II- modul. Amaliy falsafa** **Jamiyat haqidagi asosiy paradigmalar** Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy asoslari Jamiyatrivojlanishining iqtisodiy asoslari Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar Jamiyatrivojlanishining siyosiy asoslari Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya Jamiyat rivojlanishining ijtimoiy asoslari Tabaqalar va sinflar Hududiy guruhlar Institutlar Jamiyat rivojlanishining ma'naviy asoslari Ijtimoiy ong tuzilishi Ijtimoiy psixologiya Ijtimoiy mafkura Individual ijtimoiy ong Ijtimoiy ong holatlari Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyatlar va baholar Qadriyat kategoriyasining mazmuni Ehtiyojlar va qadriyatlar Qadriyatlarning turlari Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari (Valeologiya) Erkinlik qadriyat sifatida Qadriyatning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yondashuvlar Shaxsning qadriyatlarga bo'lgan munosabati Qadriyatlarni baholashning strukturasi Baholash predmeti	187-261

	Baholash sub'yekti Baholashning asosi	
7	**Sivilizatsiya va madaniyat** Sivilisatsiya tushunchasining mohiyati va unga oid qarashlar tasnifi Sivilizatsiyalarning tiplari Madaniyat tushunchasining mohiyati va elementlari Madaniyatning ichki tuzilishi Madaniyat funksiyalari Madaniyat va sivilizatsiya dialektikasi Madaniy kommunikasiya Madaniyatlararo kommunikasiya O'zbek madaniyati va etnomadaniyat Yevropa muloqot madaniyati Shimoliy Amerika amaliy madaniyati Sharq mamlakatlari amaliy madaniyati. Arab mamlakatlarida muloqot madaniyati Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi Ommaviy madaniyat tushunchasi va hozirgi davrdagi shakllari	262 -320
8	**Tarix falsafasi** Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar Tarix falsafasining predmeti, tuzilishi va funksiyalari Tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalari Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi Tarixiy taraqqiyot mezonlari	321-353
9	**Faoliyat falsafasi** Faoliyat tushunchasining mazmuni Faoliyatning tuzilishi va atributlari Faoliyatni moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish Faoliyatda ongilik va maqsadga muvofiqlik Interiorizasiya nazariyasi Interiorizasiya mexanizmi Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari Huquq va axloq	354-372
10	**Mehnat, o'yin va ijod faoliyat sifatida** Mehnat va o'yin faoliyat turi sifatida O'yin faoliyat shakli O'yinlarning tasnifi O'yinning obrazi va ma'nosi	373-397

	Ijodning mohiyati Ijod – mehnat va o'yin sifatida Ijodiy va noijodiy faoliyat Ijodkor shaxs faoliyati	
11	**Ijtimoiy prognozlashtirish** Global muammolarning yechimini topishda ijtimoiy bashorat Prognozlashtirishning metodlari	398-413
12	**Globallashuv metamorfozalari** Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot tushunchasining mohiyati Global jarayonlarning shakllanish tarixi Globallashuvning fundamental asoslari Global muammolar globallashuvning oqibati Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi Global tendensiyalarni anglashning ahamiyati Globallashuvning asosiy jihatlari Global muammolarning mezonlari Global muammolarning darajalari Global makonda texnika va texnologiya Axborotlashgan jamiyati konsepsiyasi Nanotexnologiyalar Biometrik identifikasiya qilish texnologiyasi Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili	414-445
13	**Global muammolarning tasnifi** Asosiy global muammo'lar tizimi Demografik muammo Urbanizatsiya global muammo Ta'lim muammosi Sog'liqni saqlash muammosi Oziq ovqat muammosi Ekologik inqiroz Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi muammosi Energetika va xomashyo resurslari bilan ta'minlash muammosi Urush va tinchlik muammosi Terrorizm muammosi Sportning globallashuvi Jinoyatning globallashuvi Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlarning birlashuvi Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi Global muammolarni yechishda falsafaning roli	446-488
14	Global korrupsiya va unga qarshi kurash mexanizmlari Korrupsiya tarixi: ijtimoiy-madaniy hayotda amal qilish mexanizmlari Korrupsiyaning sabablari (iqtisodiy, institutsional, ijtimoiy madaniy) Korrupsiyaning shakllari: (davlat boshqaruvi, parlament, iqtisodiy, ijtimoiy hayot, davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy, g'oyaviy, kadrlar korrupsiyasi, ta'lim va fandagi korrupsiya) O'zbekistonda korrupsiya turlari Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish shakllari Korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olishning asosiy yo'nalishlari O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba Singapur tajribasi Niderlandiya tajribasi Amerika qo'shma shtatlari tajribasi Estoniya tajribasi Xitoy tajribasi Korrupsiyaga qarshi kurashda O'zbekistonning xalqaro hamkorligi O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikning maqsadlari O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlarning majmui	489-551
	Falsafiy atamalar (glossariy)	552-557
	Falsafaga kirish fani bo'yicha mashqlar	558- 566

N.A.SHERMUXAMEDOVA

FALSAFAGA KIRISH

60220500-"Falsafa" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

DARSLIK

Muharrir: G.O'.Berdaliyeva

Bosishga ruxsat etildi 31.05.2023y. Bichimi 60X84 $^{1}/_{16}$.
Bosma tabog'i 35,75. Shartli bosma tabog'i 36.0. Adadi 16 nusxa.
Buyurtma № 117. Bahosi kelishilgan narxda.
"Fidokor Yosh Avlod" nashriyoti. Toshkent. Salorbo'yi kochasi. 35A.
O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.
Toshkent. Talabalar shaharchasi. O'zMU.

ISBN 978-9943-4199-5-7